



**TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: ILG'OR
XORIJIY TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

**“INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM:
ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES AND DEVELOPMENT
PROSPECTS”**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СИСТЕМЕ
ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

GULISTON-2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: ILG‘OR XORIJIY
TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**
2023-yil 22-23-may

**“INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM:
ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES AND DEVELOPMENT
PROSPECTS”**
**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**
May 22-23, 2023

**«ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ:
ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ»**
**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**
22-23 мая 2023 г.

Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar: ilg'or xorijiy tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Guliston, Sirdaryo viloyati PYMO'MM.

Ushbu konferensiya to'plamida Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan — "Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar: ilg'or xorijiy tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish, ularning malakasini oshirish, ta'limga raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda life-long learning – hayot davomida o'qish tamoyilining o'rni, o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlashda masofaviy ta'lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo'yicha to'plangan materiallar joy olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, umumta'lim maktab o'qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin

Mas'ul muharrir: markaz direktori v.v.b. A.Gaffarov

Tahrir hay'ati: filologiya fanlari doktori, professor T.Mirzaqulov
pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent G.Berdaliyeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent V.Rahmonov
filologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent A.Uralov
katta o'qituvchilar: I.Abduraimov, N.Yunusmetova
E.Rahmonov
o'qituvchilar: A.Nizamov, M.Nazarova

Taqrizchilar:

A.Uralov – SVPYMO'MM Tillarni o'qitish metodikasi kafedراسi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent.
D.O.Himmataliyev – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika va menejment kafedراسi professori, pedagogika fanlari doktori

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2022-yil 27-apreldagi o'tkazilgan 3-sonli yig'ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

© SVPYMO'MM, 2023

SO‘Z BOSHI

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 25-yanvar kuni “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963 qaror imzolandi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ko‘plab ta’lim muassasalari yangidan qurildi, ta’mirlandi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta’minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta’lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo bu, ta’lim sifatini ta’minlash eng muhim o‘rin tutadigan o‘qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg‘or axborot hamda ta’lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rinmoqda.

Muvaffaqiyatli ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Misol tariqasida Norvegiyada o‘qituvchining yillik ish vaqtining 6 kuni malaka oshirish uchun ajratilsa, Yaponiyada bu ko‘rsatgich 10 kunni, Singapurda 12, Shanxayda 33 kunni tashkil etadi.

E’tiborlisi, o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan xalqaro PISA tadqiqotlarida Shanxay, Singapur, Yaponiya yuqori o‘ntalikka kirishini hisobga olsak, o‘qituvchining malaka oshirishi va o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor.

Ta’lim tizimi tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv jarayonida internet tizimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Endi xalq ta’limi tizimi xodimlari masofadan turib ham malaka oshirishlari mumkin. Buning uchun ularda telefon yoki kompyuter va internet bo‘lishining o‘zi kifoya qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan masofaviy ta’limda foydalanish avvalo ta’lim sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo‘lishligini ta’minlaydi. Bulardan tashqari masofaviy ta’limni bir qator afzalliklari hamda ijobiy jihatlari ham mavjud.

O‘ylaymanki bugungi konferensiya a‘zolari tomonidan ishlab chiqiladigan ilmiy maqolalar, ishlab chiqiladigan tavsiyalar maktabgacha va maktab ta’limi tizimini va rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Milliy markaz direktori v.v.b. A.Gaffarov

1-SHO‘BA. UZLUKSIZ TA‘LIM UZVIYILIGI VA SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

ЎҚИТУВЧИНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ-КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИ КАСБИЙ МУВАФФАҚИЯТ ОМИЛИ СИФАТИДА

Ибраимов Холбой Ибрагимович

*Т.Н.Қори Ниёзий номидagi Ўзбекистон педагогика фанлари илмий
тадқиқот институти директори, педагогика фанлари доктори,
профессор*

Ҳозирда бутун дунёда ўқитувчилар профессионал фаолиятининг турли босқичларида уларнинг касбий маҳоратини ва коммуникатив малакаларини баҳолаш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, таълим бериш ва ўргатиш ўтмиши узок, ҳозирда боқий ва келажак аср муаммосидир. Халқаро ташкилотлар томонидан қабул қилинган 2030 йилгача янги таълим концепциясида “Таълим – тараққиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи ва барқарор ривожланиш мақсадларига етказувчи муҳим фаолият”[1], деб таърифланган.

2019-2020 йилдаги COVID-19 пандемияси жамиятнинг барча соҳалари, шу жумладан таълим тизими трансформацияси учун улкан сабаб бўлди. Ушбу йилда дунёнинг кўплаб мамлакатлари илк марта онлайн таълим билан боғлиқ тажрибаларни амалда қўллаб кўришга мажбур бўлди. Таълим муассасаларида таълим шаклининг ўзгариши, янги шароит ва муҳитда ишлаш зарурати ўқитувчиларнинг касбий фаолиятига қўйиладиган талабнинг ортиши, уларнинг функционал мажбуриятларининг кўпайиши ва профессионал-коммуникатив малакаларини кенгайтириши эҳтиёжини келтириб чиқарди.

Ушбу масала бўйича жаҳонда амалга оширилган дастлабки тадқиқотлар сирасига Гарвард университетининг таълим факультетида жорий қилинган “Холмс гуруҳи лойиҳаси” ни мисол қилиб келтиришимиз мумкин. Ушбу кенг қамровли тадқиқотнинг биринчи босқичи “Эртанги кун ўқитувчилари” деб номланиб ўқитувчиларни профессионал фаолиятга тайёрлаш ва уларни жамиятдаги нуфузини ошириш чораларини излашга қаратилган эди. Жаҳон миқёсида бу каби тадқиқотлар ҳали ҳануз давом этмоқда.

Ўзбекистонда таълим соҳасидаги давлат сиёсати кадрлар малакасини яхшилашга, малакали, ишлаб чиқариш жараёнига муваффақиятли интеграция қила оладиган, дунё майдонида рақобатбардош мутахассисларни яратишга эътибор қаратиб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Миллий университетида олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарлари, академиклар, олимлар, ёш тадқиқотчилар билан учрашуви чоғидаги нутқида: “...бизга миқдор эмас, сифат керак. Бунга эришиш учун эса хориж тажрибасини яхшилаб ўрганиш зарур. Қайси давлат

кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратса, ўша ютади. Илмий асосланган тажриба асосида кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш энг муҳим вазирамиздир... Истеъдодли ёшларни излаб топиш ва уларни мақсадли тарбиялаш борасидаги ишларни кучайтириш керак. Илмни, тарбияни тўғри қилсак, ҳамма соҳаларни малакали мутахассислар ўзлари ривожлантиради” [2] дея таъкидлаган эди.

2016 йилнинг январ ойида Швецариянинг Даос шаҳрида бўлиб ўтган Бутунжаҳон Иқтисодий формула 2020 йилдан кейин мутахассислардан талаб қилинадиган 10 та касбий сифат номлари эълон қилинган эди. Улар орасидан: Одамлар билан ўзаро муносабат ўрнатиш;

Хиссий интеллект;

Хизмат кўрсатишувчи аудитория талабларига мослашиш;

Музокаралар олиб бориш;

каби коммуникатив малакалар ўрин олган.

Кўриниб турибдики, 2020 йил ва ундан кейинги йилларда қайси соҳа бўлишидан қатъий назар бўлажак мутахассислардан асосан профессионал-коммуникатив малакаларни эгаллаш талаб этилади. Чунки ХХІ аср ахборот асри. Бу асрни маълумотларни олиш, узатиш, сақлаш, қайта ишлаш операцияларисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Умуман инсоният эволюцион тараққиёти давомида бир қанча босқичларни босиб ўтган: "**homo habilis**" (тик юрувчи одам), "**homo potens**" (уддабурон одам), "**homo sapiens**" (ақл-заковатли одам). Бизнинг давримизни эса кўп тадқиқотчилар "**homo loguens**" яъни сўзлашувчи одам деб номлашни таклиф қилишган [3]. Чунки, хар бир инсон маълумот узатиш ёки уни қабул қилиш жараёнидан четда эмас, бу эса ўз навбатида профессионал-коммуникатив фаолият аҳамиятини янада оширади.

Педагогик ва психологик адабиётлар шарҳи шуни кўрсатдики, бўлажак ўқитувчиларнинг профессионал-коммуникатив сифатлари “мураккаб интегратив феномен сифатида ўқитувчининг таълим жараёни бошқа қатнашчилари билан алоқа ўрнатиши, уни давомий сақлаб туриши ва ривожлантиришини таъминловчи профессионал малакалари сифатида намоён бўлади.

Бизнингча, бўлажак ўқитувчиларнинг профессионал-коммуникатив компетентлиги қуйидаги элементлар интеграциясидан ташкил топган:

– ижтимоий фаоллик;

– маданиятчилик; ўзига хослик;

– ўз-ўзини ривожлантириш, коммуникативлик.

Кўриб чиқилган компонентларнинг барчаси жамланганда, профессионал-коммуникатив компетентчиликнинг мазмун-моҳияти аниқ кўзга ташланади ва шахснинг ўзаро боғлиқ ҳамда бир-бирини тақозо қилган мураккаб сифатларини шакллантиради. Оқибатда профессионал-

коммуникатив компетентлилик бўлажак ўқитувчиларнинг муҳим касбий йўналтирилган хусусиятларидан бири сифатида намоён бўлиб, мазкур компетентлиликнинг ривожланиши эса олий таълимда касбий маваффақиятнинг асоси ҳисобланади.

Профессионал-коммуникатив компетентлик психологик ҳамда акмеологик категориядир. Профессионал-коммуникатив компетентлик кишининг касбий фаолият билан боғлиқ вазифаларни бажара олиш қобилияти ва ундан самарали фойдалана олиш имконияти бўлиб, у шахсга хос кўплаб хусусиятларга эга бўлишни тақозо этади. А.А.Деркач [4] томонидан профессионал-коммуникатив компетентликнинг таркиби:

- касбий фаолиятдаги компетентлик;
- касбий мулоқотдаги компетентлик;
- мутахассиснинг ўзлигини намоён эта олишидаги компетентлик турларидан иборат деб қаралади.

Фаолиятининг устуворлиги замонавий педагог профессионализмини ривожлантириш зарурати билан белгиланадики, унинг сифат кўрсаткичлари нафақат педагогик жараённинг ўзини, балки унинг натижалари, ривожланиш истиболларини режалаштириш, ташхислаш, моделлаштириш, лойихалаштириш кўникмаларини шакллантиради ҳамда касбий таълимни юқори даражада такомиллаштиришни таъминлайди. Шу сабабли, замонавий олий таълим тизимида ўқитувчиларни тайёрлашда ўқув жараёнларини лойихалаштириш қобилиятини ривожлантирадиган психологик, педагогик ва касбий-ижодий йўналишларни бирлаштириш асосида бўлажак ўқитувчининг профессионал-коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда [5].

Ўқитувчининг профессионал-коммуникатив компетентлиги куйидагиларни билишни тақозо этади:

- педагогика ва психологияни яхши билиш;
- ўз фаолиятига масъулиятли ёндашиш;
- ўқув-методик жараённи режалаштириш;
- ишлашни баҳолаш ва қайта алоқа;
- талабаларда ўқув фаолияти мотивациясини шакллантириш;
- замонавий ахборот технологияларини яхши билиш;
- таълим муҳитига янгилик киритиш;
- ўз фанини мукамал билиш;
- хорижий тиллардан бирини яхши билиш.

Ўқитувчиларни етук мутахассис сифатидаги профессионал-коммуникатив компетентлигини ривожлантириш ўсиб келаётган ёшларни меҳнат фаолиятларида ўз ўрнини топишларига, уларга сифатли таълим олиш, тил кўникмаларини ўзлаштириш, ахборот қобилиятларини ривожлантириш, шахслараро ижтимоий-маданий диалогларни шакллантириш ва шахсни талабга тўла жавоб берадиган даражада ривожлантириш ҳамда унинг ўз имкониятларини амалга ошириши учун зарурий шароитларни яратиш долзарб муаммодир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Mundial G. B. et al. Education 2030: Incheon declaration and framework for action: towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. – 2016.
2. <https://uzdaily.uz/uz/post/6334>
3. [Кондратьева А. А. Коммуникативная компетентность студентов педвуза как педагогический феномен. – 2014.](#)
4. Деркач А. А. Актуальные проблемы акмеологии развития //Ж.Акмеология. – 2009. – №. 3.-89-с.
5. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28410961>

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ В РАМКАХ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА

Ибраимова Феруза Холбоевна

докторант Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук имени Т.Н.Кори Ниязи, специальность 13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений, город Ташкент, Республика Узбекистан

Когнитивные теории обучения являются наиболее признанными в современной отечественной дидактике. Они выступают в качестве психолого-педагогического обоснования дидактических систем, реализующих ценности познания и развития познавательных способностей обучающихся, когда обучение ведется с опорой на непосредственный опыт обучающихся, его расширение в ходе поисковой, исследовательской деятельности, активного освоения мира. В современной педагогической теории существует несколько определений когнитивного подхода (см. табл. 1)

Таблица 1.

№	Определение когнитивного подхода в педагогике	Автор
1	«В основе технологии когнитивного анализа и моделирования лежит когнитивная (познавательно-целевая) структуризация знаний об объекте и внешней для него среды, причем объект и внешняя среда разграничиваются «нечетко»»	Е.К. Корноушенко
2	«Под когнитивным подходом понимается решение традиционных для данной науки проблем методами, учитывающими когнитивные аспекты, которые включают процессы восприятия, мышления, познания, объяснения и понимания»	А.Н. Дахин

3	«Термин «когнитивность» обозначает, в частности, системные проявления сознательных манипуляций с понятийными структурами различных предметных областей. Данные манипуляции характерны для множества психолого-педагогических исследований, поэтому за термином выстраивается целостный педагогический подход, позволяющий формировать педагогическую теорию на основе базовых категорий изучения человека: сознание, мышление, познание, понимание и т.д.»	М.С. Можаров
4	«Когнитивная педагогика отличается от классической инструментальной педагогики тем, что в ней особое внимание уделяется познавательным структурам и инструментам человека и способам их развития, в отличие от поведенческой ориентации, свойственной традиционным школам, в которых оцениваются характеристики личности и продуктивная сторона деятельности человека»	С.Ф. Сергеев

В современной когнитивной педагогической психологии когнитивные теории обучения «выступают в качестве психолого-педагогического обоснования дидактических систем, реализующих ценности познания и развития познавательных способностей обучающихся» [5], когда «обучение ведется с опорой на непосредственный опыт обучающихся, его расширение в ходе поисковой, исследовательской деятельности, активного освоения мира» [1].

В соответствии с когнитивной теорией – обучение не представляет собой только передачу некоторого объёма информации, оно нацелено на формирование у будущего специалиста вместе со способностью воспринимать учебный материал (знания) потребность его постоянно обновлять и использовать [2].

В процессе когнитивного моделирования обычно проводится когнитивный анализ, который в социальной психологии выражается в изучении восприятия и познания обучаемых.

Выделяют определенные этапы, характерные для когнитивного анализа любой ситуации [3]:

1. Формулировка цели и задач. Под целями понимаются сформулированные в общем виде желаемые результаты, к которым следует стремиться. Они являются долговременными, могут изменяться в процессе развития, обычно не достигаются окончательно. В свою очередь цели реализуются с помощью конкретно сформулированных задач.

2. Изучение ситуации с позиции поставленной цели, которое выражается

в сборе, систематизации, анализе существующей статистической и качественной информации. Анализ сильных и слабых сторон развития педагогического состояния можно провести с помощью SWOT-анализа. Н.В. Софронова и Р.И. Горохова предлагают использовать данный метод для объективного определения проблемного поля исследуемого объекта. Этот метод позволяет заложить основы «для определения целей (направлений) развития ..., подготовки альтернативных вариантов решений по снижению степени риска в выделенных проблемных зонах прогнозирования возможных событий» [4].

3. Выделение основных факторов, воздействующих на развитие ситуации. Если это воздействие по характеру положительное (увеличивающее, усиливающее), то дуге приписывают знак «+», если же воздействие отрицательное (уменьшающее, ослабляющее – знак «-»)[10]. Так для определения факторов, воздействующих на состояние развития естественнонаучной и профессиональной подготовки в СПО, можно использовать дидактическое средство (анкета), дающее информацию о состоянии проектирования учебных программ дисциплин и их учебно-методическом обеспечении, осуществления межпредметных связей и т.п. Это дает возможность графически изобразить когнитивную карту педагогической ситуации (см. рис. 1), призванной адекватно и целостно отражать сущность, важнейшие качества и компоненты педагогической системы (в частности, состояния естественнонаучной и профессиональной подготовки студентов СПО) в данный момент времени, что позволит получить информацию о ее состоянии и возможностях.

4. Определение взаимосвязи между факторами (построение когнитивной карты) путем рассмотрения причинно-следственных цепочек позволяет построить ориентированный граф, который в нашем случае отражает систему взаимодействия между преподавателем (мастером и т.п.) и студентом в организации учебного естественнонаучного образования, направленного на развитие различных методов познания обучаемого, на формирование его познавательного инструментария [5]. Данное построение ориентированного графа согласуется с утверждением ряда дидактов о том, что процесс когнитивного моделирования связан с системными проявлениями «сознательных манипуляций с понятийными структурами различных предметных областей», когда «целостный педагогический подход, позволяющий формировать педагогическую теорию на основе базовых категорий изучения человека: сознание, мышление, познание, понимание и т.д.». Т.Л. Шапошникова, О.Н. Подольская, И.П. Пастухова же предлагают рассматривать когнитивную модель учебного курса как ориентированный граф в виде направленных иерархических связей «от дидактической единицы более высокого уровня иерархии к единице более низкого уровня иерархии».

Когнитивное моделирование в процессе преподавания педагогики как метод обучения, обеспечивает подготовку студентов к анализу и прогнозированию решения последующих профессиональных ситуаций, постановке и решению педагогических задач в условиях конкретных ситуаций учебно-воспитательного процесса.

Список литературы

1. Когнитивная педагогическая психология. URL: https://studme.org/161501164708/psihologiya/kognitivnaya_pedagogicheskaya_psihologiya (дата обращения 28.03.2018).

2. Kamaleeva A.R., Gruzkova S.Yu., Shigarova N.V., Gilmanshina S.I. Problem of quality of vocational training of students of colleges // The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences (EpSBS) 2018, pp. 429–435. <http://dx.doi.org/10.15405/epsbs.2018.02.50>.

3. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и неопределенность: электрон. данные. Москва: Научная цифровая библиотека PORTALUS.RU, 23 октября 2007. URL: http://portalus.ru/modules/shkola/rus_readme.php?subaction=showfull&id=193137429&archive=1195596785&start_from=&ucat=& (свободный доступ).

4. Софронова Н.В., Горохова Р.И. Моделирование педагогических систем. URL: http://lit.lib.ru/s/sofronowa_n_w/text_0010.shtml

5. Тоджибаева К. С. К. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия // Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 27 (39). – С. 95-97.

ЎЗИНИ ЎЗИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЁКИ ПЕДАГОГНИНГ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ

*Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович,
Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий
маркази директори, мустақил тадқиқотчи*

АННОТАЦИЯ

Мақолада педагог касбий компетентлиги унинг ўзини-ўзи ривожлантириши - мустақил таълим ола билишига боғлиқлиги, мустақил таълимнинг самарадорлиги шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги ҳамда мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги каби омилларга боғлиқлиги амалий мисоллар билан ёритилган.

АННОТАЦИЯ

В статье изложены практические примеры того, как профессиональная компетентность педагога зависит от его саморазвития-способности к самостоятельному обучению, эффективность его самостоятельного обучения зависит от таких факторов, как

наличие потребности в личностном развитии и саморазвитии, а также наличие условий для реализации данной потребности.

ANNOTASIA

The article covers practical examples of whether the professional competence of an educator depends on factors such as his self-development - his ability to receive independent education, the effectiveness of his independent education-the presence of a need for personal development and self-development, and the presence of conditions for realizing this need.

Мустақил таълим шахснинг қобилиятлари ва ўзига хосликларини ривожлантиришга йўналтирилган, инсоннинг ўз ихтиёри билан амалга ошириладиган, ўзи томонидан бошқариладиган ва касбий фазилатларни такомиллаштириш учун зарур бўлган фаолиятларини бирлаштиради. Мустақил таълим, аввало, ихтиёрийлиги ва изчиллиги билан тавсифланади ҳамда узлуксиз педагогик таълим ғоясини амалга оширишнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади.

Агар ўқув муассасасида ўқитувчининг ўзини ўзи ўқитиши ҳеч ким томонидан уюштирилмаса, мониторинг ўтказилмаса ва рағбатлантирилмаса, мустақил таълимга бўлган интилиш сусаяди. Кадрлар салоҳиятини такомиллаштиришнинг муҳимлигини ҳисобга олган ҳолда, ўз-ўзини ривожлантириш жараёнини ташкил этиш бошқаришнинг муҳим вазифаларидан бирига айлананиб қолади.

Таълим муассасасининг раҳбари ҳар бир педагогнинг ўзига хос касбий имкониятларини ва ўсиш истиқболларини аниқлаш имкониятини берувчи самарали механизмни яратиш вазифасига дуч келади. Педагогнинг мустақил таълими учун шароитларни яратиш, таълим жараёнини самарали ривожлантиришга қодир педагогларнинг малакали жамоасини шакллантириш кадрлар стратегиясининг биринчи навбатдаги вазифасига айланади, зеро, таълимий натижалар барчанинг биргаликдаги фаолияти ва сайи-ҳаракати орқали қўлга киритилади.

Педагог мустақил таълимнинг самарадорлиги қуйидаги омилларга боғлиқ: биринчидан, шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги, иккинчидан, мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги ёки йўқлиги. Биринчи шарт бажарилиши учун ўқитувчида фикрлаш ва ўзини-ўзи баҳолаш қобилияти бўлиши керак, яъни, фаолияти натижалари ва касбий қийинчиликларини холис тасхишлаш асосида ўз фаолиятини таҳлил қила олиши лозим. Иккинчи шартни рўёбга чиқариш учун педагог ходимларга қуйидаги йўналишларда ривожланиш имкониятини бериш керак:

ўқитаётган фани соҳасида;

педагогика-психология билимлари соҳасида (ўқувчиларнинг шахс сифатдаги хусусиятлари тўғрисида);

методик имкониятларни кенгайтириш бўйича (педагогик технологиялар, ўқитишнинг шакл, усул ва услублари);

ахборот компетентлигини оширишда (компьютер технологиялари, интернет-ресурслар);

мулоқот кўникмаларини ривожлантиришда (таълим жараёни иштирокчиларининг ўзаро таъсири);

шахсий компетенцияларни такомиллаштиришда (имиж, мулоқот маданияти, етакчилик қобилияти, педагогик такт).

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишга йўналтирилган бошқарув дастури қуйидагиларга асосланиши лозим:

педагогнинг профессионал фаолиятини тизимли таҳлил қилишга;

педагог шахсига индивидуал ёндашишга;

педагог ходимларнинг мотивациясига;

маъмурият ва педагогларнинг ўзаро муносабатларидаги инсонпарварлик ва эркинликка;

педагог иеҳнати натижаларини мунтазам кузатиш ва баҳолашга;

педагоглар турли тоифаларининг касбий ўсиши, шахсий ривожланиши ва ўзини намоён қилиш имкониятларига нисбатан табақалашган ёндашувга.

Педагогларнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишдаги энг катта тўсиқ – бунинг учун рағбатнинг етарли эмаслиги ва уни амалга ошириш учун тайёр эмаслик. Шу боис, бизнинг мамлакатимизда ўқитувчининг ўз касбий маҳоратини ривожлантиришига интилишини уйғотиш, мазкур ривожланишнинг механизмлари билан қуроллантиришга йўналтирилган педагоглар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб бориш тизимини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Касбий ривожланишнинг муҳим механизми – бу ўз-ўзини ривожлантириш бўйича амалга ошириладиган мустақил таълимнинг мавзусини белгилашдир. Ҳар бир педагог ўз педагогик амалиётини таҳлил қилиш асосида фаолиятига доир муаммоли соҳаларни аниқлайди ва бир неча йил давомида ишлайдиган мавзуни белгилайди, муаммонинг сабабларини ўрганади ва ечимларни излайди.

Касбий танловларда қатнашиш ҳам педагогнинг мустақил таълимига ҳисса қўшади, чунки мазкур танловларда иштирок этиш ўз фаолияти, педагогик эътиқоди, касбий мавқеи ва ўзининг иш услублари тизими ҳақида фикр юритиш зарурияти туғилади.

Шуни таъкидлаш керакки, юқорида айтиб ўтилган ишлар педагоглар томонидан маълум даражадаги қаршилик билан кутиб олинади. Шубҳасиз, мазкур қаршилик педагогларнинг иш юки кўплигидан (бу асосий далил бўлса-да) эмас, балки уларнинг бундай фаолиятни амалга ошириш кўникмасига эга эмаслигидан далолат беради.

Мустақил таълим жараёнини услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлашни ташкил этилиши ушбу вазиятда катта рол ўйнайди. Исталган натижаларга эришиш учун наффақат педагогни мустақил мутолаага қизиқтириш, балки бутун жараён (мавзуни танлаш, унинг ифодалаш, тадқиқот натижаларини оммавий тақдимотини амалга ошириш) давомида унга амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш керак.

Шу мақсадда мактаб қуйидаги методик ишларни амалга ошириши лозим: таълим натижаларини ташхислаш асосида педагогнинг касбий

фаолиятини таҳлил қилиш, дарсларга қатнашиш, мактаб маъмурияти билан суҳбат ўтказиш, мактаб ҳужжатларини ўрганиш, педагогнинг касбий фаолиятини индивидуал методик қўллаб-қувватлаш ва мактабда педагогларнинг доимий фаолият юритувчи амалиётга ўналтирилган услубий семинари машғулотларини ташкил этиш.

Суҳбат, ҳар бир педагогнинг ўзи билан ўқув йилининг охирида ўтказилади. Педагогларга нафақат амалга оширилган ишлар, уларнинг ютуқлари, балки келгусидаги фаолиятнинг истиқболлари ҳақида алоҳида ҳисобот тақдим этиш имконияти берилади. Мазкур суҳбат раҳбарлар учун зарур, чунки улар педагогларнинг касбий фаолияти, қандай мақсадлар қўйганлиги, улар учун нималар кўпроқ аҳамиятга эга эканлиги ҳақида маълумот оладилар. Суҳбат педагоглар учун ҳам керак, чунки у педагогнинг шахсий нуқтаи-назарини шакллантиради, фикрлаш ва таҳлил қилиш даражасини оширади ва ўз касбий фаолиятни тушунишга қаратилган.

Семинар методологик кенгашда қабул қилинган умумий мавзу бўйича ташкил қилинган қатор машғулотлардан иборат бўлади. Машғулотлар назарий материалларни, психологик ва педагогик билимларни ўзлаштиришга, педагогик лойиҳалашга, ўз лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган. Муҳокама қилинаётган тушунчаларнинг асосий жиҳатлари ва умумий ёндашувлар кўриб чиқилади, ҳар бир педагогнинг вазифаси эса ўз олинган билимларни ўз фанига мустақил равишда жорий қилиш, уларни аниқлаштириш, ўзгартириш ва қўлланилиши мумкин бўлган соҳаларни аниқлашдир.

Ушбу иш шаклининг фаолиятга йўналтирилганлиги, шунингдек, турли фан ўқитувчиларининг умумий педагогик муаммоларни ҳал қилиш учун ижодий гуруҳларга бирлашиш имкониятининг мавжудлиги унинг афзаллиги сифатида қаралиши мумкин.

Гуруҳда ишлаш шаклларида фойдаланиш, фаол ва интерфаол услублар, интерактив мулоқот, тескари алоқани ташкил қилиш ўрганилаётган материалнинг шахсий аҳамиятини оширади, семинар қатнашчиларида таҳлилий, коммуникатив ва рефлексив кўникмаларни шакллантиради.

Семинар машғулотлари турли шаклларда ўтказилади: назарий, амалий, маслаҳат машғулотлари. Масалан, семинар машғулотлари доирасида компетенцияларга асосланган вазифаларни ишлаб чиқиш, ўқувчиларнинг ўзлаштираолмаслик ҳолатларини бартараф этиш йўллари, синфда тарбиявий муҳитни шакллантириш ва бошқа шу каби муаммоларни муҳокама қилиш мумкин.

Албатта, педагогларнинг мустақил таълимини ташкил қилиниши мактабдаги барча муаммоларни ҳал қилмайди. Бироқ, педагогик амалиётни ўз-ўзини таҳлил қилиш, касбий муаммоларни аниқлаш ва шакллантириш, қийинчиликларни тушуниш, уларни бартараф этиш усуллари топиш ва назарияни ўрганиш учун қизиқтирувчи, ташкилий-моҳиятли шароитларни яратиш мумкин бўлади. Муҳими, педагогларнинг биргаликдаги мустақил таълими таълим муассасасидаги таълимий муҳитни ўзгартиришнинг

таъсирчан омилига айланади. Педагог ўз касбий фаолиятининг ижобий ва салбий томонларини тушуниб, номукамалликларни тан олса – ўзгаришга мойил бўлади.

Мустақил таълимни ташкил этиш бўйича юқорида қайд этилганларнинг амалга оширилиши педагогик жамоанинг методология, педагогика, методика ва психология масалаларига бўлган қизиқишини ортттиради.

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини бошқариш фаолиятининг асосини қуйидаги ҳолатлар кетма-кетлиги орқали ифодаланади:

- педагогни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, унинг устувор йўналишларини белгилаш, ушбу стратегияни ривожланиш дастури ва инновацион лойиҳалар орқали амалга ошириш;
- касбий таълимни ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотларни ташкил этиш ва уни янги сифат даражасига кўтариш;
- инновацион таълим фаолиятини фаол равишда тарғиб қилиш, ҳар бир педагогнинг инновацион фаолиятини ўрганиш ва қўллаб-қувватлаш;
- шахсни ривожлантириш ва ўз-ўзини ривожлантиришнинг махсус дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобига ҳар бир педагогга ўзини шахсий ва касбий такомиллаштириши учун имкониятларни таъминлаш;
- педагогик фаолият сифатини баҳолаш бўйича мониторингни ташкил этиш.

Бунда энг оқилона йўл – педагогни ўз-ўзини ривожлантиришнинг методологик асослари билан қуроллантириш, зеро мазкур билимлар ўқув ишларининг тегишли кўникмаларида, ижодий меҳнат маданиятида ўзининг давомини топсин. Педагогни курсдан кейинги даврда соҳага оид янгиликлардан иборат ахборотлар билан таъминлаш қуйидаги йўналишларда олиб борилиши мақсадга мувофиқ:

- замонавий таълим стратегиялари;
- таълим сифатини ошириш юзасидан меъёрий-ҳуқуқий таъминот;
- таълимни ривожлантиришга доир илмий ва амалий тадқиқот натижалари;
- янги педагогик технологияларни ва ўқитишнинг ноанъанавий шакллари ривожлантириш;
- таълим соҳасидаги жаҳондаги ютуқлар, анъаналар ва бошқалар.

Фанлар бўйича педагогларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш

Ушбу йўналишдаги ишлар умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг ўзлари ўқитаётган фаннинг назарияси ва методикасига оид билимларини ошириш, амалиётда қўллаш кўникмаларини ривожлантириш, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишга оид метод ва усуллар билан таништириш, фанлар бўйича яратилган методик қўлланмалар, ресурслардан ўқув жараёнида самарали фойдаланишларига ёрдам бериш, ўқитувчиларни аттестациядан ўтишга тайёрлаш, шунингдек, уларнинг доимий тарзда мустақил таълим олишларини йулга қўйиш, фан ўқитувчиларининг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш бўйича методистлар томонидан ҳаракатдаги ўқув

машғулотларини ташкил этиш мақсадида ташкил этилади.

Ўқув машғулотларини ташкил этиш жараёнида ўқитувчилар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб боришнинг қуйидаги жиҳатларига эътибор қаратиш назарда тутилади:

- Давлат таълим стандарти, ўқув режа ва дастурлари билан ишлаш олиш, янги яратилаётган адабиётлар асосида дарсларни ташкил этиш;
- дарс мавзуларига мос ўқитишнинг замонавий усуллари, методларини танлаш;
- ахборот - коммуникация технологияларидан унумли фойдаланиш, мавжуд мультимедиа материалларини қўллаш ва янгиларини яратиш;
- ўқув-лаборатория жиҳозларини сақлаш, уларнинг ўрнини тўлдириб бориш;
- лаборатория ва амалий машғулотларни бажариш кўникма, малакаларини ошириш;
- “Билимлар беллашуви”, олимпиада, мониторинг натижалари асосидаги бўшлиқларни тўлдириш;
- ўқув дастури асосидаги масала-машқ, топшириқларни содда ва қулай усулларда бажариш устида ишлаш;
- мавзуларни ўргатишда бошқа фанлар билан боғлиқлигини кўрсата билиш;
- дарсликлар, ўқув дастурлари, қўшимча методик адабиётларни таҳлил қилиш;
- мавзулаштирилган мураккаб тестларни ечиш усуллари танлаш ва фандаги янгиликлар билан мунтазам таништириб борадиган касбий маҳоратга эга бўлган, малакали педагогларни тайёрлаш.

Хулоса қилиб айтганда, педагоглар узлуксиз касбий ривожланишида мустақил таълимнинг зарурлиги, бир томондан, педагогик фаолиятнинг хусусиятлари, унинг ижтимоий роли билан, бошқа томондан, педагогик меҳнатнинг доимий ўзгарувчан шароитлари, жамиятнинг эҳтиёжлари, илм-фан ва амалиётнинг эволюцияси, педагогга бўлган талабларнинг ошиб бориши, унинг жамиятдаги жараёнлар ва ҳолатларнинг ўзгаришига тезкор мослашиши қобилияти, ўз фаолиятини қайта қуришга, янги, мураккаброқ касбий масалаларни самарадорлик билан ечишга тайёрлиги билан боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тенденциялари орқали асосланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003.
2. Гаргай В.Б. Повышение квалификации учителей в США и Великобритании: интерактивная модель. //Педагогика. - №8. - 2004 - С.
3. Ильина Н.Ф. Раскрытие инновационного потенциала педагога в ходе непрерывного образования. //Инновации в образовании. - № 9 - 2010.
4. Калининкова Н.Г. Непрерывное педагогическое образование как парадигма /Высшее образование и мировая культура— №3 2005

ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШДА ТАШКИЛИЙ- ПЕДАГОГИК ТАМОЙИЛЛАРНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИ

Халмонов Умид Очилович

*Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий-
тадқиқот институти Қорақалпоғистон филиали мустақил излунувчи.*

E-mail: umidxalmonov@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада Янги Ўзбекистон таълим тизими раҳбарларнинг замонавий бошқарув компетенциявий ёндошуви, фаолиятининг тўғри йўлга қўйилганлиги, таълим сифатини янада ривожлантиришга алоҳида эътибор берилганлиги қайд этилган.

Калит сўзлар: Замонавий раҳбар бошқаруви, бошқарув стратегияси, инновация, маркетинг, ўқитувчи, ўқувчи, унумдорлик, бошқарув самарадорлиги, бошқарув объекти, бошқарув субъекти.

Халмонов Умид Очилович

*Независимый кандидат Каракалпакского филиала НИИ педагогических
наук Узбекистана имени Т. Н. Кори Ниёзи.*

ПРЕИМУЩЕСТВЕННОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАЧАЛ В УПРАВЛЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЕМ

Аннотация: В данной статье отмечается, что система образования Нового Узбекистана имеет современный управленческий компетентностный подход руководителей, что деятельность осуществляется должным образом, и особое внимание уделяется дальнейшему развитию качества образования.

Ключевые слова: Современный управленческий менеджмент, стратегия управления, инновации, маркетинг, преподаватель, студент, продуктивность, эффективность управления, объект управления, субъект управления.

Khalmonov Umid Ochilovich

*An independent candidate of the Karakalpakstan branch of the Research Institute
of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after T.N. Kori Niyoz.*

CONTINUITY OF ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL PRINCIPLES IN THE MANAGEMENT OF AN EDUCATIONAL INSTITUTION

Annotation: In this article, it is noted that the educational system of New Uzbekistan has a modern management competence approach of the leaders, that the activity has been properly implemented, and special attention is being paid to the further development of the quality of education.

Key words: Modern executive management, management strategy, innovation, marketing, teacher, student, productivity, management effectiveness, management object, management subject.

Мамлакатимиз мустақиллигининг дастлабки йиллариданоқ, миллий таълим тизимининг ҳуқуқий асослари шакллантирилди ва унинг ягона, узлуксиз модели яратилди. Ўзбекистон МДХ мамлакатлари орасида биринчи бўлиб, таълим тизimini тубдан ислоҳ қилиш, шунингдек, узлуксиз таълим тизimini шакллантиришга оид ҳуқуқий асослар яратилди.

Дунё миқёсида таълим барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилиб, ЮНЕСКО томонидан 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “Бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” асосий вазифа сифатида белгиланган [1].

Бугунги кунда таълим соҳасини тубдан такомиллаштириш давр талабига айланган. Ушбу талабдан келиб чиққан ҳолда, таълим соҳасидаги муносабатларни тартибга солувчи бир қатор қонун, фармонлар қабул қилинди. Жумладан, 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931-сон қарори, 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизimini такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5538-сон фармони, 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон фармони билан тасдиқланган “Халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси”, 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги

ПФ-6108-сон фармони, 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини кўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизimini жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сон қарори ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар таълим соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборатдир.

Бугунги кунда замонавий раҳбар бошқарув фанининг умумий асосларини пухта билиши, шунингдек, бошқарув стратегияси, инновациялар, маркетинг, ходимларни бошқариш соҳасида махсус билим ва кўникмаларга эга бўлиши, муассасадаги бошқарувни режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат этиш ҳамда шу мақсадни амалга ошириши талаб этилади.

“Бошқарув” сўзи одатда аниқ бир мақсадга эришиш учун бошқарилувчи объект (ёки тизим)га фаол таъсир кўрсатиш тўғрисида гапирилганда қўлланилади, бу ўз навбатида, маълум бир режалаштирилган фаолиятни ифодалайди.

Зеро, ўз даврида буюк мутафаккиримиз Абу Райҳон Беруний биринчилардан бўлиб жамиятни бошқаришда жамият давлатга хизмат қилмай, давлат жамиятга хизмат қилиши кераклигини тушунган. “У жамиятни идора қилиш ва бошқаришнинг моҳияти азият чекканларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бировларнинг тинчлиги йўлида ўз тинчлигини йўқотишидан

иборат” деб билган [2].

Умумий бошқарувда бўлганидек, таълим муассасалари раҳбарлари ҳам ўз фаолиятлари давомида қуйидаги етти та бошқарув циклидан фойдаланадилар: мақсадни белгилаш, маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш, бошқарув қарорларини қабул қилиш, режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат қилиш ва таҳлил қилиш.

Таълим муассасасининг раҳбари ўзига юклатилган вазифаларни бажариш жараёнида қуйидаги уч турдаги объектларга бевосита таъсир кўрсатади: таълим жараёни иштирокчилари (ўринбосарлар, ўқитувчилар, ўқувчилар, техник ходимлар, ота-оналар, хомийлар ва ҳ.к.), жараёнлар (таълимий, тарбиявий), моддий-техник воситалар [3].

Бошқарувни, яъни бошқарув фаолиятини ташкил этиш заруратини белгиловчи бош мезон бу инсон олдига ёки муассаса олдига қўйилган мақсад бўлиб, унга эришиш учун вазифалар белгилаш, ташкил этиладиган фаолиятни олдиндан режалаштириш, амалга ошириш йўл-йўриқларини танлаш, вазифаларнинг мазмун ва моҳиятига кўра бажарувчилар (мутахассислар)ни танлаш ва бажариладиган вазифаларни тақсимлаш, белгиланган мақсадга эришиш учун ташкил этиладиган жараён иштирокчилари фаолиятини мувофиқлаштириш зарур ҳисобланади.

Мазкур фаолият бошқарув фаолиятини, уни амалга ошириш бошқарув функцияларини, амалга ошириш изчиллиги (кетма-кетлиги) бошқарув алгоритмининг фаолиятини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бошқарув услубларини, мазкур йўналишда қабул қилинган қарорлар бошқарув қарорларини ифодалайди.

Бу борада ўзбекистонлик тадқиқотчилардан Ш.Қурбонов ва Э.Сейтхалиловлар қуйидаги фикрларни билдириб ўтишган: “Унумдорлик – бу қандайдир вақт ичида олинган натижаларнинг фойдалилиги ва у билан боғлиқ харажатлар ўртасидаги нисбатни кўрсатувчи фаолият хусусияти демакдир” [4]. Шунингдек, ушбу тадқиқотчиларнинг фикрича, бир таълим муассасасининг бошқа таълим муассасасига нисбатан юқори рақиб натижалари ушбу таълим муассасасида ҳар доим ҳам бошқарув сифати юқори рақиб бўлишидан далолат бермайди. Масалан, таълим муассасаси бой моддий базага эга бўлса, молиялаштиришнинг қўшимча манбалари ҳисобига ўқитувчиларга бошқа таълим муассасасидагига нисбатан юқори рақиб иш ҳақи тўлай олса, бу таълим муассасаси бу барча неъматлардан маҳрум бўлган оддий таълим муассасасига нисбатан таълим сифатининг юқори рақиб бўлишини таъминлаши мумкин. Лекин масала ҳар бир таълим муассасаси ўзида мавжуд имкониятлардан нечоғлиқ фойдаланаётганлигидан иборат.

Таълим жараёни бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш бўйича назарий қарашлар Мумбай Университети профессори С.Хедекар, россиялик тадқиқотчилар О.Хомерики, В.С.Лазарев, В.И.Зверева, П.И.Третьяков, А.С.Красиков, Венгрия Фанлар Академияси доктори Г.Кертеси, Вашингтон

Университети илмий ходимлари Бредлей С.Портин, С.Фельдмен ва С. Клапплар асарларида ёритилган [5].

Турли тадқиқотчилар таълим муассасасининг бошқарув жараёнини турлича изоҳлашади. Масалан, С.Хедекар таълим муассасасида бошқарув жараёни – бу таълим мақсадларига эришиш мақсадида инсон ва моддий ресурслардан фойдаланган ҳолда таълим муассасаси фаолиятини режалаштириш, ташкил этиш, бошқариш ва назорат этиш жараёнидир, деб таъкидлаган [6]. Бошқача айтганда, С.Хедекар таълим муассасасининг бошқарув жараёнини инсон ва меҳнат ресурслари ҳамда бошқарув циклига боғлиқлигини назарда тутган.

Таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш бўйича турли хил қарашлар ва турли хил методикалар мавжуд. Яъни, таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини турли кўрсаткичлар орқали баҳолаши мумкин. Бир томондан, таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш фақат бошқарувга доир кўрсаткичлар билан амалга оширилиши мумкин, яъни, режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат, тартибга солиш, бошқарув аппарати таъминоти учун нисбатан кам харажат қилиш ва ҳоказо. Иккинчи томондан, бошқарув самарадорлиги таълим муассасасидаги педагогик жараёнларнинг ўзгариш динамикаси, ресурсларнинг натижавийлиги, ўтказилаётган ислохотларнинг ҳар бир шахс учун таъсир даражасига боғлиқ.

Бу борада олимлар турли хил тадқиқотлар олиб боришган. Хусусан, Венгрия Фанлар Академияси доктори Габор Кертеси ўзининг “Таълим муассасаларини таҳлил қилиш ва баҳолаш: мактаблар мисолида” мақоласида таълим муассасасининг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш учун таълим муассасасидаги фақат иқтисодий кириш ва чиқимларининг ўзаро нисбатини ўлчов сифатида олиш унинг фаолиятини тўлиқ баҳолашда етарли эмас, бунинг учун таълим муассасасининг ижтимоий кириши ва чиқимини ҳам инобатга олиш лозим, дейди. Бу ерда у ижтимоий кириш сифатида 3 та компонентни назарда тутди: меҳнат (масалан, педагог ходимларнинг), товар ва хизматлар (ўқув материаллари ва электр энергия сарфи), капитал хизматлар (масалан, бинолар ва моддий-техник базага кўрсатиладиган хизматлар) [7].

Таълим муассасаси раҳбарларининг бошқарув фаолиятини иккита субъектнинг, яъни раҳбар билан таълим тизимининг ўзаро боғлиқ фаолияти сифатида қараш мумкин. Бундай ҳолатда раҳбарнинг бошқарув объекти бошқариш ва ўзини-ўзи бошқариш каби зарурий хусусиятларга эга бўлган таълим тизими ҳисобланади, турли хил таъсирлар асосида, бошқарилаётган таълим муассасаси ҳам ўз ўрнида бошқарув натижаларига ва бошқарув субъектига таъсир кўрсатади.

Бизнингча, таълим муассасаси фаолиятини самарали бошқариш қуйидаги тамойиллар узвийлиги асосида ташкил этилиши мақсадга мувофиқ:

1) онг ва фаолият бирлиги;
2) таълим муассасасини бошқаришнинг илмий ва ғоявийлиги;
3) таълим муассасаларида бошқарувнинг изчил ва узлуксизлиги;
4) таълим муассасасида раҳбар бошқарувининг гуманитар хусусиятларга эга эканлиги;

5) таълим муассасасини бошқаришга ҳар томонлама(комплекс) тизимли ёндашув;

6) таълим муассасаси раҳбари бошқарувининг муайян, аниқ мақсадга йўналтирилганлиги;

7) таълим муассасасини бошқаришда таълим жараёни субъектлари фикри ва мустақилликларини, шунингдек, шахсий хусусиятларини таъминлаш;

8) таълим муассасасини бошқаришда демократик тамойилларнинг устуворлиги.

Таълим муассасаларини бошқаришда раҳбарнинг фаолияти самарадорлиги даражаси эса қуйидаги мезонлар асосида белгиланади:

а) бошқарувга оид билимларга эга бўлиш;

б) турли ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ташкил этиш жараёнида иштирок этиш;

в) бошқарув соҳасидаги маълумотлар мазмунини юқори даражада ўзлаштирган ва улардан амалий фаолиятда қўллаш борасида етарли кўникма, малакага эга бўлиш;

г) муаммоли вазиятлардан чиқиб кета олиш ва уни баҳолай олиш;

д) таълим муассасаси раҳбарининг самарали бошқарувчилик даражасини акс эттирувчи шахсий сифатларини намоён этиш (онглилик, ғоявийлик, қатъиятлилик, мустақиллик, ташаббускорлик, инсонпарварлик, ишчанлик, тезкорлик, эркин фикр юритиш, ижодкорлик, масъулиятни ҳис этиш каби хислатлар);

е) маълум нуқтаи назарда тура олиш ва бошқалар.

Раҳбарнинг бош вазифаси қарорнинг бажарилишини ташкил этиш, мазкур жараённи мувофиқлаштириш ва унинг устидан назоратни таъминлашдир. Яъни назорат бошқарувнинг яқунловчи босқичи ҳисобланади. У икки томонлама алоқа шаклини касб этади ва қарорни бажариш, қўйилган мақсадларга эришиш ҳақида ахборот олиш учун имконият яратади.

Шундай экан бошқарувни, яъни бошқарув фаолиятини ташкил этиш заруратини белгиловчи бош мезон – инсон олдига ёки муассаса олдига қўйилган мақсад бўлиб, унга эришиш учун вазифалар белгилаш, ташкил этиладиган фаолиятни олдиндан режалаштириш, амалга ошириш йўл-йўриқларини танлаш, вазифаларнинг мазмун ва моҳиятига кўра, бажарувчиларни танлаш ҳамда бажариладиган вазифаларни тақсимлаш, белгиланган мақсадга эришиш учун ташкил этиладиган жараён иштирокчилари фаолиятини мувофиқлаштиришдан иборатдир[8].

Умуман олганда, таълим муассасаларини бошқарув фаолиятидаги муваффақият раҳбарнинг ижрочилар меҳнатига бўлган муносабатдан қанчалик манфаатдорликларини англата билишлик қобилиятига сезиларли

даражада боғлиқдир. Мазкур ҳолда меҳнатни рағбатлантириш усуллари мужассам ижтимоий-иқтисодий, этник ва руҳий педагогик шароитлар, инсонлар онгида уларнинг меҳнатга ижобий муносабатда бўлишларини шакллантириш мақсадида юқори натижаларга эришишга интилишдан иборат.

Замонавий раҳбарнинг муҳим бошқарув мақсади ўз ходимларини ахлоқий жиҳатдан юксак даражага кўтариш, уларни маънавий жиҳатдан соғлом жамоага айлантиришдан иборат. Бу эса педагогик йўналишда узлуксиз таълим тизимини бошқаришда самарадорликка эришиш, олий ва ўрта махсус касб-хунар таълими, умумий таълим тизимларида фаолият юритаётган таълим муассасаларининг фаолиятини яхлит, мақсадли ва узлуксиз бошқариш, ўқитиш ҳамда маънавий-маърифий ишлар йўналишларида муайян ютуқларнинг қўлга киритилишини кафолатлайди.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда // URL: <https://lex.uz/docs/3107036>

2. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т., “Ўзбекистон”, 1995-йил, 49-бет. // URL: <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/falsafa/zhamiyatning-falsafiy-tahlili>

3. Хомерики О.Н. Развитие школы как инновационный процесс. – М., 1994. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-bosh-aruv-faoliyati-samaradorligini-ba-olashga-oid-nazariy-arashlar>

4. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. – Т.: “Турон-Иқбол”, 2006. –101-б. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/17889912.pdf>

5. Маткаримов Ж.Ш., Шарофаддинов Ш.А. Таълим жараёнида бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашга оид назарий қарашлар. Замонавий таълим / современное образование, Т.: 2015, №3. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-bosh-aruv-faoliyati-samaradorligini-ba-olashga-oid-nazariy-arashlar>

6. Sandhya Khedekar. Educational Management, TSCER. III.1 Function of Education Management. 2007. P. 1.

7. Gabor Kertesi. The assessment and evaluation of educational institutions, school accountability. Green Book: for the renewal of public education in Hungary. Budapest, 2009. P. 179-180.

8. Хасанов Р., Суюнов Ш. Инсон ресурсларини бошқаришда таълимнинг аҳамияти. // Таълим ва иқтисодиёт журнали. 6-сон, 2010 й., 146-б. // URL: <https://tsue.scienceweb.uz /index.php/archive/article/download/4057/3084/>

РЕНЕССАНС - МАМЛАКАТ ТАРАҚҚИЁТИ АСОСИ

*Омонова Нилуфар Парда қизи, Химматалиев Дўстназар Омонович
Таълим муассасалари бошқаруви мутахассислиги магистранти,
педагогика фанлари доктори, профессор. Чирчиқ давлат Педагогика
Университети*

Аннотация. Ўзбекистон халқини кўп асрлик бой тарихига назар ташлар эканмиз, унда тараққиёт чўққиларини забт этишда Ренессанс даврларининг ўрни беқиёс. Мақолада биринчи ва иккинчи Уйғониш даврларидаги илм-фан, санъат ва маъданиятнинг юксалиши, Учинчи ренессанс даври тараққиёти ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Ўзбекистон, тараққиёт, ренессанс, илм-фан, тарих учинчи уйғониш даври, юксалиш.

Возрождение - основа развития страны

Аннотация. Когда мы смотрим на богатую историю народа Узбекистана, роль Возрождения в достижении вершин развития несравнима. В статье говорится о подъеме науки, искусства и культуры в периоды первого и второго ренессанса, а также о прогрессе периода третьего ренессанса

Ключевые слова. Узбекистан, развитие, ренессанс, наука, история, период третьего ренессанса, подъем.

Renaissance - the basis of the country's development

Annotation. When we look at the rich history of the people of Uzbekistan, the role of the Renaissance in reaching the heights of development is incomparable. The article talks about the rise of science, art and culture during the first and second renaissance periods, and the progress of the third renaissance period.

Keywords. Uzbekistan, development, renaissance, science, history, third renaissance period, rise.

Биз кенг кўламли демократик ўзгаришлар, жумладан, таълим ислохотлари орқали Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишни ўзимизга асосий мақсад қилиб белгиладик. Бу ҳақда гапирар эканмиз, аввало, учинчи Ренессанснинг мазмун-моҳиятини ҳар биримиз, бутун жамиятимиз чуқур англаб олиши керак.

Ренессанс нима, у қандай тарихий шароитларда юзага чиқди ва бутун инсониятга нималарни туҳфа қилди?

Барча шарқ ва ғарб олимларининг эътироф қилишларича, Европада XV-XVII асрлар орасида юзага келган Биринчи Ренессанс юртимизда ундан бир неча юз йил аввал, яъни IX-XI асрларда рўй берган. Ушбу улкан юксалишнинг содир бўлишининг ўз тарихий сабаблари бор. Чунки мазкур даврда давлат тараққиёти учун жуда муҳим бўлган янги ислохотлар ва қонунлар жорий қилинди, ер-сув, қўшничилик муносабатларидан солиқларгача туб янгиланишлар содир бўлди. Давлат юритишдаги ва сиёсатдаги янгиликлар илм-фан кишиларини эзгу ғоялар теварагида бирлаштирди, турли-туман фанларга, айниқса математика, астрономия, кимё, тиббиёт, ҳуқуқ, геодезияга қизиқиш кучайди ва дунё тузилиши ҳақидаги замонавий назарияларга айнан

ўша даврда асос солинди.

Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Аҳмад ал-Фарғоний, Абу Наср Форобий, Юсуф Хос Ҳожиб, Маҳмуд Кошғарий, Маҳмуд Замахшарий, имом Бухорий, имом Термизий, имом Мотурудий, Абул Муин Насафий каби буюк аждодларимиз серкирра истеъдод соҳиблари бўлишлари билан бир қаторда, ўз фанлари бўйича бутун оламга устозлик мақомига эришдилар. Мазкур давр дунё тараққиётининг юксалиш тамойилларини белгилаб берди, десак муболаға бўлмайди. Бунинг ёрқин исботи – Хоразмда барпо этилган Маъмун академиясидир. Даҳо мутафаккирларни ўз бағрига тўплаган бу олий даргоҳ нафақат ўз минтақаси, балки бутун дунё учун маданият ва илм маркази вазифасини ўтагани ҳақиқат.

Сферик тригонометрия, ўнли рақамларнинг тизимли қўлланиши, тригонометрияда “функция” тушунчасининг пайдо бўлиши, жўғрофий координатларининг аниқ ифодаланиши, Ер сайёрасининг сферик глобуси, қаттиқ ва суяқ моддаларнинг солиштирма оғирлиги, минераллар таснифи, куруқлик таркибий жисмларининг ҳаракати ва қатламлар ҳосил бўлиши, денгиз ва материкларнинг жойлашуви, тиббий ва фармацевтик билимларнинг бир тизимга солиниши, ташхислаш ва даволашнинг янги усуллари, маъданлар трансмутацияси имконларининг таҳлили – булар юртимизда IX-XI асрларда яшаб ижод қилган буюк аждодларимизнинг табиий ва аниқ фанларда амалга оширган инновацион ғояларининг баъзилари, холос. Ўрни келганида шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, илм-фан осмонида юлдуздай ярақлаб турган бу алломалар атрофида ва улардан кейин яна юзлаб сафдошлари, шогирдлари, давомчилари юртимиз илм-фани меваларини жаҳоннинг илғор оммасига етказиб беришда катта хизматлар кўрсатишди ва мамлакат шон-шухратини, тафаккур қудратини узоқ ўлкаларга қадар ёйишди.

Иккинчи Ренессанс нафақат минтақамизда, балки жуда катта жўғрофий ҳудудларда сиёсий-иқтисодий ва ижтимоий ислохотларни амалга оширган улуғ бобомиз, соҳибқирон Амир Темур номи билан чамбарчас боғлиқ. У зот туфайли қудратли марказий бошқарувга асосланган давлат ва янги маданий-илмий юксалиш учун қулай вазият юзага келди. Амир Темур ўз бепоён салтанатининг катта шаҳарларига турли ҳудудлардаги истеъдодли олимлар, шоирлар, хунармандлар, меъморларни жамлади ва илми-фан тараққиёти учун керакли барча шарт-шароитларни яратиб берди. Бундай оқилона сиёсат мамлакатнинг илмий ва маданий қудратини кучайтирди.

Иккинчи ренессанс даври “Ислом маданиятининг олтин асри” деб аталиши билан бирга, фазо илми ва математика фанларининг ривожланиши билан юртимизда иккинчи Уйғониш, яъни иккинчи Ренессанс даврини бошлаб берди.

Бу даврда Қозизода Румий, Мирзо Улуғбек, Ғиёсиддин Коший, Али Қушчи сингари беназир олимлар, Лутфий, Саккокий, Ҳофиз Хоразмий, Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Бобур Мирзо каби мумтоз шоир ва мутафаккирлар майдонга чиқди. Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд, Хондамир каби тарихчилар, Маҳмуд Музаҳҳиб, Камолиддин Беҳзод сингари

мусаввирлар, кўплаб хаттот ва созандалар, мусиқашунос ва меъморларнинг шуҳрати дунёга ёйилди. Биринчи Ренессанс даврида бўлгани каби, бу даврда ҳам илм ўрганишни истовчилар бутун дунёдан оқиб кела бошладилар.

Давлатимиз раҳбари нутқидаги “Биз Учинчи Ренессанс масаласини стратегик вазифа сифатида олдимизга қўйиб, уни миллий ғоя даражасига кўтармоқдамиз” деган сўзлари юртимизда амалга оширилаётган кенг қўламли туб ислохотлардан кўзланган улуғ мақсадларни ифода этади. “Биз мактабгача таълим ва мактаб таълими, олий ва ўрта махсус таълим тизими ҳамда илмий-маданий муассасаларни бўлғуси Ренессанснинг тўрт узвий ҳалқаси, деб биламиз. Боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-ижодий зиёлиларимизни эса янги Уйғониш даврининг тўрт таянч устунни, деб ҳисоблаймиз. Мен ишонаман – хурматли ота-оналар бу ташаббусни албатта қўллаб-қувватлаб, янги Ренессанснинг бешинчи ҳалқаси, бешинчи устунни бўладилар. Ва бу маънавий-маърифий ҳаётимиздаги энг мустаҳкам устун бўлади, десам, ўйлайманки, сизлар тўла қўллаб-қувватлайсизлар” деган эътирофи эса, “давлат-таълим-ўқувчи ва ота-она” ҳалқаларини қатъий бир тизимга мустаҳкамлади ва улуғ мақсадга эришишнинг ишончли йўлини кўрсатиб берди.

Шонли тарихимиздаги ҳар иккала Уйғониш даврида ҳам энг муҳим жиҳат – давлатнинг, давлат раҳбарининг юксак эътибори бўлиб келган. Маъмун академиясининг барпо этилишида хоразмшоҳ Маъмунийлар сулоласининг, Иккинчи Уйғониш даврининг юзага келишида эса буюк бобомиз Амир Темурнинг ва темурий авлодларнинг ҳиссаси беқиёсдир. Ҳар икки сулола ҳукмдорлари ўз даврининг ёрқин истеъдодларини, олимларини давлат қаноти остига тўплаган ва ғамхўрлик қилиб ,керакли шарт шароитларни яратиб бергани учун тарихан қисқа давр ичида она юртимиз дунё илм-фанига пойдевор бўлгулик буюк кашфиётларни яратдилар.

Президентимиз тилга олган Учинчи Ренессанс ғояси ҳам давлатнинг, ҳам ёшларнинг, ҳам ота-оналар ва устозларнинг орзу истакларини бирлаштиради. Муҳими, тарих кайтариғи ажодлар тажрибаси сифатида, бу давлат раҳбарининг иродаси ва ташаббуси – унинг илм-фанга булган ишончи бўлиб қатъий даъват сифатида янгради. Ҳар қандай ота-она ўз фарзандининг истеъдоди барқ уришини, эл-юртга хизмат қиладиган етук инсон бўлиб улғайишини хоҳлайди. Айни шу ерда давлат-ёшлар ва ота-оналар истакларининг жисплашганини кўраемиз. Бу — тарих, бугун ва келажакни бирлаштирувчи ҳаётбахш ғоя бўлгани учун ҳам давлат раҳбари Учинчи Ренессанс масаласини миллий ғоя сифатида кўтардилар.

Тарихий адабиётлардан биламизки, мактаб ва таълим даргоҳларига ота-оналар фарзандларини олиб борар эканлар, “Эти сизники, суяги бизники” деган иборани қўллашган. Шу буюк юртнинг бир фарзанди, генетик олими сифатида шунини айтган бўлардимки, ушбу ибора замирида яна бир жиҳат бор. Маълумки, суяк – вужуднинг асоси, таянчи, барча ҳаётий жараёнларнинг негизи, барча жараёнларнинг қалъаси десак ҳам бўлади. Фарзандини устозга топшираётган ота-онанинг содда, халқона қилиб айтган ушбу сўзлари

замирида генетика фани “Боламнинг асосий таянч қалъасини мустаҳкамлаб беринг” деган маънони кўради.

Аввало, илм-фанни ривожлантириш, инновацияларни иқтисодимиз ва ижтимоий ҳаётга жорий этиш учун норматив-ҳуқуқий база яратилди. Юртимиз тарихида илк бор “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида ҳамда «Инновацион фаолият тўғрисида»ги Қонунлар Президентимиз томонидан имзоланди. Мазкур соҳаларни тартибга солувчи қонун ости ҳужжатлари тайёрланди. Бундан ташқари, давлатимиз томонидан олимларнинг мавқеи, обрўи оширилди, академик легитимлиги оширилди. Уларга қулай шарт-шароитлар яратиб берилди. Шунингдек илмий-инновацион фаолиятнинг инфратузилмасини мустаҳкамлаш чоралари кўрилди. Президентимиз Қарори билан махсус дастур қабул қилинди. Бу дастур доирасида 40 дан ошiq илмий ташкилотларга илмий асбоб-ускуналарни харид қилиш учун 32 миллион АҚШ доллари, уларнинг бино ва иншоотларини капитал таъмирлаш учун 119 млрд. сўм миқдорида маблағлар йўналтирилиб, бунда барча асбоб-ускуналарни янгилаш бўйича чора-тадбирлар кўрилмоқда.

Илм-фан ва инновацион фаолият соҳасида халқаро ҳамкорлик ва халқаро ҳамкорлик доирасида ривожланган давлатларнинг нуфузли олимлари билан ҳамкорликда мавжуд муаммоларни ҳал этишга қаратилган қўшма илмий лойиҳаларни амалга ошириш учун кенг шароитлар, мукофотлаш, қўллаб-қувватлаш тизими яратилди. Шу жумладан, худуддаги муаммолар ечимига қаратилган маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан фундаментал, амалий ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш тизимли равишда йўлга қўйилмоқда.

Мана шу мақсадлар ва белгиланган вазифалар юртимизда Учинчи Ренессанс даврининг бошланишига замин яратиши кутилмоқда. Давлатимиз раҳбари эътироф этганидек, халқимизнинг улуғвор қудрати жўш урган ҳозирги замонда янги Ўзбекистон янгидан - янги юксак марраларга эришишига, инсоният бахт-саодати, фаровонлиги ва равнақи учун ўрнатилган бўлишига шубҳа йўқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Sh.Mirziyoyev 2022-yil Oliy majlisga qilgan Murojaatnomasi.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сонли “Ўзбекистон республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.
3. <https://library.ziyonet.uz/1>
4. <https://ziyouz.uz/>
5. <https://uz.wikipedia>.

РАҚОБАТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ботиров Ҳамид Ҳакимович

Doctor of Philosophy in law (PhD), hamidbotirov@inbox.ru

А.Авлоний номидаги педагогларнинг касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти
100095, Тошкент шаҳар, Зиё кўчаси 6-уй
e-mail: avloniy@xtv.uz

ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОНКУРЕНТНОЙ СТРАТЕГИИ FEATURES OF THE IMPLEMENTATION OF A COMPETITIVE STRATEGY

Аннотация: Рақобат стратегиясининг тушунчаси ва уни ўзига хос хусусиятлари таҳлил этилган. Асосан ижтимоий соҳада рақобатнинг муҳимлиги ҳамда айрим жиҳатлари ўрганилган.

Калит сўзлар: бошқарув стратегияси, ихтисослашган стратегия, рақобат стратегияси.

Аннотация: Анализируется понятие конкурентной стратегии и ее особенности. В основном изучено значение конкуренции в социальной сфере и некоторые аспекты.

Ключевые слова: стратегия управления, стратегия специализации, конкурентная стратегия.

Abstract: The concept of competitive strategy and its features are analyzed. The importance of competition in the social sphere and some aspects are mainly studied.

Key words: management strategy, specialization strategy, competitive strategy.

Стратегиялар белгиланган муайян амалий ҳаракатлар ҳисобига амалга оширилади бу “тактика” ёки “ёндашув” деб аталади. Натижада, рақобат соҳасидаги бошқарув ҳаракатларини ўрганиш эълон қилинган стратегиялар ва улар доирасида амалга ошириладиган вазифаларнинг таҳлил қилиш билан боғлиқдир.

Ҳозирги кунда рақобатни бошқариш юзасидан бир нечта стратегияларни келтириш.

Бошқарув стратегияси - бу ҳар қандай соҳа бошқарувида истиқболли режаларни ва аниқ мақсадларни белгилаш, уни амалга ошириш йўллари ва муддатлари, субъектларига асосланган стратегия ҳисобланади. Бошқарув стратегиялари ижтимоий, ихтисодий, сиёсий фаолиятларни ёки аралаш жараёнларни ўзида акс эттиради.

Ихтисослашган стратегия бу одатдагидек соҳа доирада устунлик қилади. Ихтисослашган соҳанинг кучи унинг маълум бир манфаатларни ҳимоя қилиш ёки соҳа доирасида юқори кўрсаткичларга эришиш учун

белгиланадиган мақсад ва вазифалардир. Ушбу турдаги рақобатчилар соҳада ҳар қандай имкониятидан фойдаланишга тайёр, бошқалар билан сифат учун курашилади.

Ихтисослашган рақобатнинг афзалликлари шундаки, соҳада бошқалар қила олмайдиган янгиликларни ёки натижаларни соҳасида кескин ўзгаришлар орқали осон амалга оширилади. Мослашувчанликни ошириш улар учун рақобатбардошлик манбаига айланади. Доимий равишда фойда кўришга ёки натижаларга эришишда намоён бўлади.

Ихтисослашган рақобат бошқалар фаолияти самарасиз бўлган жойда ёки бошқа рақобатчилар етарлича натижани таъминлай олмайдиган жойда юқори натижаларни кўрсатишади. Айнан ихтисослашиш – бу уларнинг кучи ҳисобланади. Масалан мактабларнинг ихтисослашиш, уларнинг нуфузининг шу ихтисослашуви билан белгиланади. Хусусан бунга мисол сифатида Қорақўлдаги Халқаро математика мактабини мисол қилиш мумкин.

Таълим бозорига ихтисослашув хилма-хилликни олиб келади. Рақобатбардош рақиблар билан курашишдан қочиш учун рақобатчилар истеъмолчининг махсус эҳтиёжларни излайдилар ва фаол шакллантирадилар, ностандарт вазиятлардан фойдаланадилар. Улар етакчи ташкилотлар билан тўғридан-тўғри курашишни эмас, балки улар учун мавжуд бўлмаган фаолият соҳаларини қидиришни афзал кўришади.

Бундай стратегия нафақат ихтисослашувда, балки чекланган талабга эга бўлган соҳаларга эътиборни қаратишдан иборат. Истеъмолчининг алоҳида эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда, ташкилот томонидан бутун фаолиятининг афзалликларини ўрганиш ва қондиришга бағишланади. Масалан, iPhone мобиле алоқа воситасининг экран ойнаси Хитойнинг ВОЕ Technology Group [1.] компанияси фақат ишлаб чиқиш бидан шуғулланади ва бу соҳада дунёга машҳур лидер ҳисобланади.

Рақобат стратегияси – ишлаб чиқиш учун уни амалга оширишда устувор йўналишларни аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Рақобат стратегияси рақобатбардошликнинг заиф томонларни кучайтиришни ёки бартараф этиш ва кучли томонларни яна ривожлантиришни каби бошқа муваффақиятли тажрибаларни қўллашни талаб этади.

Биринчи марта “рақобат стратегияси” (concurrent strategy) термини АҚШлик иқтисодчи Майкл Портер қўллаган. Унинг таърифича рақобат стратегияси (рақобат стратегияси, рақобатбардош ҳаракатлар стратегияси) узоқ муддатда рақобатбардошликка эришиш ва уни сақлаб қолиш учун компания раҳбарияти фойдаланадиган барқарор ҳатти – ҳаракатлар модели ва коидалар ва устуворликлар тўпламидир. [2. P-816]

Рақобат стратегиясини шакллантиришнинг иккита ёндашуви мавжуд: бозорга йўналтирилганлик; ресурсларга йўналтирилганликдир. [3.]

Н.Қ.Йўлдошев, М.М.Азларова, Г.Й.Хўджамуратовалар рақобат курашида

стратегияларни ишлаб чиқишни маркетинг вазифаларини ечишга хизмат қилишини таъкидлайдилар. [4. 138-бет]

Ю.Б.Рубиннинг [5. С-109] назариясига кўра, рақобат стратегиялари компаниялар томонидан стратегик мақсадларга эришишни таъминлаш воситалари (эришиш усуллари) сифатида тушунилади. Режалаштирилган стратегияни амалга ошириш бир қатор моделлар ва рақобатбардош хатти-ҳаракатларнинг тегишли усуллари, яъни рақобат тактикаси орқали амалга оширилади.

Рақобат стратегиясини ишлаб чиқишда стратегик рақобатбардош устуворликларни оширишга қаратилиши, таълимнинг истеъмолчи, ҳамкор ва жамоатчилик талабларига мувофиқлиги, шунингдек бошқа рақобатчиларнинг кўрсаткичлар таҳлилининг инобатга олиниши муҳим аҳамиятга эга.

Рақобат стратегияларининг устувор йўналишларни амалга оширишда истеъмол, функционал ва ижтимоий рақобатбардош устуворликлар аҳамиятга эга.

Рақобатчиларга нисбатан қуйидаги стратегик мақсадлар назарда тутилиши мумкин:

стратегик мақсадлар рақобатчиларни бир-бири билан бирлаштиришга қаратилган бўлиши мумкин;

рақобатчилар билан ҳамкорлик тузиш шаклида икки ва ундан ортиқ ташкилотлар учун ягона рақобат стратегияси бўлиши мумкин;

рақобатчилар билан умуман ўзаро таъсир қилишдан қочишга қилинган ҳаракатларни назарда тутувчи алоҳида рақобат стратегияси бўлиши мумкин.

Аксарият вазиятларда ташкилотлар рақобат стратегиясини белгилашда бир-бирларига ўзаро таъсир қилишдан қочишга ҳаракат қилишади ва стратегик мақсадларини ошқор қилмайди. Бироқ айрим ташкилотлар бошқаларнинг заиф ва кучли томонларининг тажрибасидан деярли фойдаланишмайди. Бу эса уларга фақатгина ўзининг қобиғидаги заиф томонларини кўришга ва уни олдини олиш ёки бартараф этиш билан чегараланади. Ваҳоланки бу келгусида келиб чиқиши мумкин бўлган вазиятларни олдини олишда, яъни бошқаларнинг рақобатдаги заиф томонларини ўрганишга ва кутилмаган ҳолатларни олдини олишга хизмат қилади.

Таъкидлаш жоизки, ҳамкорликда рақобат стратегиясини ишлаб чиқилса, устувор йўналишларни самарали ва белгиланган муддатларда амалга ошириш мумкин. Чунки ҳамкорликда кучларнинг бирлашиши аксарият вазиятларда олдида турган вазифаларни янада тезкорлик билан бажариш ва сарфланиши мумкин бўлган ресурсларнинг тежалишига олиб келади. Натижада стратегик мақсадларга эришишда кутилган натижаларни таъминланишига хизмат қилади.

Рақобат стратегияси қуйидаги мақсадлардан иборат бўлиши лозим:

рақобатчилар билан курашиш йўналиши;
кучли томонларни ривожлантириш ва сақлаб қолиш йўналиши;
ҳамкорлик йўналиши,
ҳимояланиш (ўзаро таъсир қилишни олдини олиш) йўналиши.

Мақсад ёрдамида қабул қилинган рақобат стратегияси амалга оширилади. Ушбу мақсадларнинг объектлари бу турли хил тактикаларни амалга ошириш орқали муҳим вазифлардир. Демак вазифаларини турли хил тактикалардан фойдаланган ҳолда рақобат стратегиясини амалга ошириши мумкин.

Ягона мақсад сари юқори стандартлар асосида ўз фаолиятини ривожлантиришга қаратган ҳолда, ўзини рақиблардан устунлигини рақобат стратегияси орқали амалга оширади.

Салоҳиятли рақибларни ҳақиқий ҳамкорларга айлантириш ташкилотнинг асосий стратегик мақсадларида назарда тутилади, рақобатчилар билан ҳамкорлик ва ҳаракатлар йўналиши эса улар билан биргаликда ҳамкорлик устувор йўналишларда белгиланади.

Бу борада олим Ю.Б.Рубин фикрича таълим хизматлари бозорида таълим муассасалари ўз ҳамкорларининг рақобатбардошлигини оширишдан манфаатдор. Таълим хизматларида манфаатдор томонлар ўртасида ҳамкорлик қилиш учун барча зарур шарт-шароитлар мавжуд. [6. С-28-41] Олимнинг фикрига қўшилган ҳолда аксарият ҳолларда рейтинг кўрсаткичлари юқори бўлмаган мактабларнинг рейтинг натижалар юқори бўлган мактаблар билан ҳамкорлик амалга ошириши зарур. Бу жараёнда икки томон учун манфаатли ҳисобланади. Рейтинг натижалар юқори бўлган мактаблар фаолияти оммалаштирилишига олиб келинади ва рейтинг кўрсаткичлари паст бўлган мактаблар томонидан йўл қуйилган камчилик ёки хатоликлар олди олинади.

Дарҳақиқат мактаблар учун рақобат стратегияси дастлаб ўринда ташқи рақобатга тайёргарлик кўриш мақсадида ички рақобатни ривожлантиришдан иборат. Ташқи рақобат мактаблар ўртасида белгиланган мезонлар доирасида матаблар рейтингида иштирок этишни ташкил этади.

Рақобат стратегиясида устувор йўналишлар ички рақобатни такомиллаштиришга қаратилса, ташқи рақобатга курашида тайёр бўлишига замин яратади. Шу жараёнда рақобат стратегиясини ишлаб чиқишда устувор йўналишларни тўғри белгилаш, вазифларни тўғри ва аниқ масъуллар ўртасида тақсимлаш бу самарали натижалар олинишига ва белгиланган мақсадларга эришишга олиб келади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкин, рақобат тушунчаси турли вазиятларда турлича эътироф этилган бўлсада ҳозирги кунга қадар ягона бир ёндашув бўлмаган. Рақобат табиий жараёнда, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий соҳаларда ҳамда рақобат функциялари, рақобатнинг бир нечта хусусиятлари кўриб чиқишда асосан хизмат кўрсатишнинг бир тури сифатида ёндашувларда доирасида таҳлиллар олиб борилди.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати

1. <https://appleinsider.ru/iphone/proizvoditelej-oled-displeev-dlya-novyx-iphone-stanovitsya-bolshe.html>
2. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore. 2017 y. P-816.
3. <https://fayllar.org/xalqaro-bozorlarda-raqobat-strategiyasi.html>
4. Yo‘ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo‘djamuratova G. Y.“Menejment”: (O‘quv qo‘llanma). - T.: TDIU, 2009 y. Бет-138.
5. Рубин Ю.Б. Теория и практика предпринимательской конкуренции. - 8-е изд. - М.: Маркет ДС, 2010. - С. 109.
6. Рубин Ю.Б., Емельянов А.А. Стандартизация как фактор конкурентоспособности высшего образования//Высшее образование в России. -2005. - № 11. - С.28-41.

АЙРИМ СЎЗЛАР ТАРКИБИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР

Турсунали Мирзакулов

филология фанлари доктори,

Олмалиқ шаҳар Ипак йўли инновациялар университети профессори

Солиқ, ўсимлик, юрак, мумиё, қўлтиқ, қуёнчиқ, қисир, қиров(қирови тўқилмаган пичоқ), биров, найча(биологик атама), қўшимча(лингвистик атама) каби сўзлар таркибидаги сол+ик, ўс+им+лик, юр+ак, мум+и+ё, қўл+тиқ, қуён+чиқ, қис+ир, қир+ов, бир+ов, най+ча, қўш+им+ча қисмларини бугунги кун лексикасида қотиб қолган унсурлар деб аташ мумкин. Бир қарашда бундай унсурлар лингвистикамиздаги бирликларга жуда ўхшаб кетади. Бироқ буларни айнан шу қўшимча ёки асос сифатида олиб бўлмайди.

Юқорида келтирилган мисоллардаги сол, ўс, юр, мум, қўл, қуён, қис, қир, бир, қўш, най морфемалар сифатида мустақил ишлатиладиган сўзлардан фарқлаш лозим. Ўзбек тилидаги *солмоқ, ўсмоқ, юрмоқ феъллари, мум органик моддаси, ўрмон қуёни, қисмоқ, қирмоқ феъллари, бир рақами, қўшмоқ феъли, созанданинг найи* сингари маънолари бўлсада, лексема сифатида биргаликда маъно ифодаламакда. Бу лексемалар: *Солиқ, ўсимлик, юрак, мумиё, қўлтиқ, қуёнчиқ, қисир, қиров, биров, найча, қўшимча* бугунги кунда ажралмас ҳолатга келиб қолган. Юқоридагилар сўз таркибида “асос” қисми асл маъносини тубдан йўқотган, денонатив ном нуқтаи назардан уларга тенг келмайди.

- ик – синик, чизик, йўлик;
- лик – болалик, қишлик;
- ак – қарсак, қирмизак;
- тиқ – тиқилмоқ, тиқмоқ;
- чиқ – суёнчиқ, сирпанчиқ;
- ир – гапир, тушир;
- ов – икков, бешов;

-ча – уйча, йигитча сингари бошқача маъноларини ифодалаб турган морфемалардан тубдан фарқ қилади. Уларни юқоридаги мисолларимиздан келиб чиқиб аффикс деб бўлмайди. Сўз таркибида асос морфема ёки кўшимча морфема кўринишидаги бу унсурулар ҳозирча ҳеч бир атама сифатида номланмайди. Бироқ тилимизда уларнинг ҳам алоҳида ўрни бор. Айрим тилшунослар томонидан уларга нисбатан ҳам морфема атамаси қўлланилган. Масалан, Прага функционал тилшунослиги таълимотида морфемага ана шу нуқтаи назардан қаралган. Унда “сўз таркибида формал (шаклий) ёхуд структур вазифа билан амал қилувчи қисм морфема”¹ деб аталган.

Келаяпти(келяпти), бура(бур), ҳақида(ҳақда), тупурук(тупук) сингари лексемалар таркибидаги, биринчи сўздаги –а-, иккинчи сўздаги –а, учинчи сўздаги –и-, тўртинчи сўздаги –ур- кўринишидаги товуш ва товушлар маъносиз ва вазифасиз бўлиб қолган. Юқоридаги ҳолатлардан фарқли ўлароқ, бу хусусда Ю.С. Маслов “морфемаларга ёндош шаклий асемантик унсурулар мавжудлиги масаласини кун тартибига кўяди. Сўз таркибида амал қилувчи бундай унсурулар шаклий вазифаларнигина бажаради, лисоний маъно эгаллашдан ҳоли бўлади”² дейди. Бу хусусда ҳам тадқиқотларни кенгроқ олиб бориш лозим.

Шакл ва мазмун борасидаги номуаносибликнинг яна бир кўриниши анъанавий тартибдаги 1:1; 1;2; 2:1 схемалардир. Бу схемаларда мазмун билан шакл орасидаги муносабат ифодаланади. Яъни 1:1 – шаклнинг аниқ бир фарқланувчи элементи, бир морфемага мазмун томонининг бир функционал бирлиги тўғри келиши керак: бола+лар, бунда –лар шакл томонидан 1 га тенг, мазмун томонидан кўплик аффикси. Бир шаклга бир неча мазмун бирлиги 1:2 схемасида(келдилар – -лар бир шаклга эга бўлса ҳам, икки мазмунни бермоқда: 1-кўплик, 2- хурмат), бир неча шаклга бир мазмун бирлиги 2:1 схемаси (беҳато, хатосиз сўзларидаги бе-, -сиз аффикслари шакли иккита бўлса ҳам мазмунидан бир аффиксдир)га мос тушади.

Тилнинг ифода ва мазмун сатҳларига хос алоқадорликни акс эттирувчи бундай схемаларнинг биринчиси ишораларнинг шакл ва мазмун жабҳаларининг муаносиблигини кўрсатади. Унда шаклий бир ифода ҳамма вақт бир маъно қийматига эга бўлади. Бундай хусусият тилнинг расмий мақомидаги лисоний ишораларга, масалан, расмий маънодаги морфема ва сўзларга хосдир. Шунингдек, бошқа фанларга хос расмий ва расмий ишораларнинг ифода ва мазмун сатҳларида ҳам ана шундай муаносиблик бўлади. Масалан, математикада (+) аломати кўшиш ва фақат кўшишни; (:) аломати бўлиш(тақсим)ни; (1), (2) эса “бир” ва “икки” тушунчаларидан бошқа нарсаларни билдирмайди, шу шакл ва символларга бириктирилган маънонигина рўёбга чиқаради, холос. Тил тизимида эса, унинг лисоний ишоралари ифода (шакл) ва мазмун жабҳаларида қатъий расмийлашган бундай муаносиблик бўлмайди. Аниқроғи, тилда унинг ривожланиш

¹ Гимпелевич В.С. Вопросы об «асемантических морфемах», Проблемы семантики. М.: Наука, 1974. 156-157-б.

² Уфимцева А.А. Знак языковой. М.: Сов энциклопедия, 1990. 167-б.

омилларидан бири сифатида ижобий баҳоланувчи шакл ва мазмун номуносивблиги – асимметрияси мавжуддир³.

Ўзбек тилида ҳам атама(термин)лар 1:1 шаклида изоҳланади. Чунки уларда бир тушунчани фақат бир шакл ифодалайди. Атама бўлмаган лисонимиздаги луғавий бирликларда 1:2 ёки 2:1 шаклини кузатиш мумкин.

Келтирилган мисоллардан кўриш мумкинки, белгиланган кўшимча морфемалар: биринчи сўздаги **-а-**, иккинчи сўздаги **-а**, учинчи сўздаги **-и-**, тўртинчи сўздаги **-ур-** ананавий схемага номувофик тарзда 1:0 кўринишни акс эттирмоқда.

Одатда тилимизда бир луғавий маъно касб этган асос морфема ёки кўшимча морфема атама маъносига эга бўлмаган ҳолатлар ҳам тез-тез учраб туриши табиий ҳолдир. Баъзи ҳолатларда маълум бир синтагматик қуршовда тайинли ва расмийлашган ўша маъноси ва вазифасида келмай, лисоний номуносивбликни келтириб чиқариши мумкин.

ТИЛ БЕЛГИЛАРИДА ШАКЛ ВА МАЗМУН МУНОСАБАТИ

Турсунали Мирзақулов,

филология фанлари доктори,

Олмалик шаҳар Инак йўли инновациялар университети профессори

Жаҳон тилларида сўз охири бошланишига нисбатан кўпроқ қисқариш (деформация) га учрайди, чунки даврлар оша ишлатила борган сари сўз маъносини сўз охирида ташувчи элементлар қисқара боради. Охирги форматив (аффикс) яхши эшитиладиган, таллафузи аниқ, жарангли товушлардан иборат бўлса, ўз-ўзидан, қисқаришга кам учрайди.⁴

Олд кўшимчалар бўлмаган туркий тилларда ўзак морфемалар асосий маънони ташиб келади. Шунинг учун сўзнинг бош қисми турли фонетик – фонологик ўзгариш-деформацияларга кам учрайди. Ўзак фонетик барқарорлиги, турғунлиги ва нисбатан кам вариантлилиги туфайли ахборот (информация) ташиб келиши жиҳатидан ҳам етакчи мавқега эга. Шу билан бирга, маънони мустаҳкамлаш, маъно-вазифа қийматини сақлаб туриш эҳтиёжи ҳам сўз боши, ўзак вокализмини фонетик жиҳатдан барқарор ҳолда сақлаб туриш қонуниятининг амал қилиши билан таъминланади.⁵

Туркийшунослик асосчиларидан бири академик В.В. Радловнинг фикрича, “Сўз узайган сари қисқаришга интилади”. У 1906 йили немис тилида эълон қилинган “Туркий тиллар морфологиясига кириш” номли

³ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995,33-бет

⁴ Серебренников Б.А. , ўша мақола , 445-446-бет

⁵ Бу ҳақда қаранг: Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования ... АДД , стр 18; Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. Ташкент ,1967- стр 132.

мақоласида сўз таркибида морфемалараро юз берувчи жараёнларни гиперрагглютинация деб номлайди: бу жараёнда морфемалараро туташтирувчи унлининг пайдо бўлиши, икки ўзаро дуч келган унлининг дифтонг ёки чўзик унлига айланиб кетиши, бир унлининг тушиб қолиши, талаффуз ноқулайлигини йўқотиш мақсадида бир ундошнинг орттирилиши, ўзак ёки кўшимча таркибидаги жарангсиз ундошни жаранглига айлантириш, ўзак охирининг аффикс таркибидаги товуш билан асимметрияси каби қатор ҳодисалар юз беради.⁶

Гиперрагглютинация атамаси икки қисмдан тузилган бўлиб, *giper* грекча “юқорисида”, “устида”, “у ёки бу томонида” деган маънони англатади.

Агглютинация эса латинча сўз бўлиб, “уламоқ”, “бириктирмоқ”

маъносини билдиради. В.В. Радловнинг туркий тиллар ва бошқа тиллар мисолида кўрсатишича, ушбу жараёнда тил янги морфологик бирликлар билан бойийди: 1) ўзак ва аффиксал морфеманинг ўзаро зич бирикиши натижасида янги ўзак морфеманинг ҳосил бўлиши; 2) маҳсулсиз, аморф аффиксал морфеманинг жонли маҳсулдор аффиксал морфема билан алмашинуви; 3) “нотўғри бўлиниш” - “морфологик қайта бўлиниш” натижасида ўзакка тегишли ундош товуш кейинги аффиксал морфема таркибига ўтади. Энг муҳими, В.В. Радловнинг бош хулосаси – агглютинатив тилларнинг аффикслари худди флектив тилларнинг суффикслари каби пайдо бўлган.⁷

Профессор А. Ғ. Ғуломов ўзбек тили ва туркий тиллар мисолида тилнинг турли сатҳларида номутаносибликни ҳам тарихий-диахрон жиҳатдан, ҳам синхрон нуқтаи назардан тадқиқ этган олимлардан ҳисобланади.

Сўз таркибида – морфем қурилишида семантик ва асемантик бирликлар нисбатига, уларнинг юз бериши сабабларига махсус эътибор қаратиб, олим, жумладан, шундай ёзади: “Товуш ўзгаришларининг сабаблари ҳар хил (экономия принципи, сўзлаш органларининг харакатига, айтишга қулайлик, фарқлаш талаби), шунингдек, ҳар бир бошқаликнинг ўз фонетик шароити бор: сўзнинг қайси ўринда келиши, қайси бўғинда ва бўғиннинг қаерида келиши, очик ёки ёпик бўғинда бўлиши, қайси товушлар билан кўшни бўлиши, бирикиши; қандай товушлар орасида келиши (масалан, интервокал позицияда); урғули ва урғусиз бўлиши. Товуш ўзгаришлари хилма-хил, бунда

⁶ Бу ҳақда қаранг: Кононов А.Н. О фузии..., стр.109

⁷ Қаранг: Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках. Сборник «Структура и история тюркских языков». С.111

тарихий ўзгаришлар ва бу ҳозирги регуляр характердаги ўзгаришлар бошқа-бошқа хусусиятларга эга бўлади.⁸

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, тил белгилари ва бирликларида шакл ва мазмун муносабати бир-бирини доим талаб қилувчи тушунча. Бу тушунчалар тилда ўзини тўлиқ намоён қилади ва тил тизимида ўзига хос алоқага киришади. Ҳар қандай шакл кенгайиб борар экан ўз мазмунини сақлаб қолган ҳолда торайишга интилади. Туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида морфемалар сўздан кейин қўшилади ва янги маъноларни юзага келтиради. Бундай маънолар сўз таркибининг ўрганилиши натижасида юзага келса ҳам шаклнинг нутқ пайтида қай ўринда ва қай ҳолатда келишида боғлиқ бўлади.

Тил илмида, ананавий талқинга кўра, сўзнинг ўзак, аффикс (суфикс, префикс, флексия) каби қисмлари маъноли ва вазифали унсурлар ҳисобланади ва улар морфема ҳукмида қаралади. Лекин ҳамма лексикаларнинг таркиби асос ва қўшимчаларга аниқ ва тартибли ажралавермайди. Бу ҳолат даврлар ўтиши билан асос ва қўшимча қисмларнинг ўзаро келишуви асосида бирикиб кетган бўлиши мумкин. Шундай сўзлар ҳам мавжудки, улар таркибидаги айрим шаклий бирликлар, ана шу шаклларга расмийлашган лисоний маъноларни англамайди. Аксинча, шунчаки шаклларга айланиб қолган унсурлар сифатида лексема таркибига сингиб кетади. Масалан, *дадамга, ёрдамчилар, келдик, заргарлик* каби сўзлар таркибидаги ҳар бир морфема(асос морфема ва қўшимча морфема) алоҳида қисм сифатида кўриниб туради: *дада+м, ёрдам+чи+лар, кел+дик, зар+гар+лик*. Бунда ҳар бир морфеманинг ўзига хос функцияси мавжуд. *дада* – асос морфема, *-м* – муносабат шакл ясовчи; *ёрдам* – асос морфема, *-чи* – сўз ясовчи морфема, *-лар* – луғавий шакл ясовчи морфема; *кел* – асос морфема, *-дик* – муносабат шакл ясовчи; *зар* – асос морфема, *-гар, -лик* – сўз ясовчи морфемалар ҳисобланади.

А.Бердиалиевнинг фикрича, “Тилимизда *қалқиди (қалқди), тупурук (тупук), кўзиди (кўзди), борамиз, келажак* каби кўплаб луғавий бирликлар ҳам мавжудки, улар таркибидаги шаклий унсурларнинг айримларини лисоний маъно ва вазифага эга деб бўлмайди.”⁹ А. Бердиалиев келтирган мисолларда *-и-, -ур-, -и-, -а-* қисмлари бунинг далилидир.

⁸ Ғуломов А.Ғ. Морфология. Кириш – «Ўзбек тили грамматикаси», II жилдлик, 1 жилд. Тошкент, 1975 – бет 117

⁹ А.Бердиалиев. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. Бишкек, 2013. 15-бет

АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ТАРМОҚЛАР ОРҚАЛИ ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ПЕДАГОГИК УЮШМАЛАР УЗЛУКСИЗ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМНИНГ ТАРАҚҚИЙ ЭТАЁТГАН МОДЕЛИ СИФАТИДА

*Бердалиева Гуласал Абдуқундузовна, Умаралиева Муҳайё, (PhD)
Сирдарё вилояти Педагогика маркази директори ўринбосари, (PhD),
доцент*

АННОТАЦИЯ

Мақолада педагогларнинг узлуксиз касбий ривожланишида ахборот-таълим муҳитининг роли, узлуксиз педагогик таълимнинг тармоқли шакллари, педагогнинг касбий фаолиятдан ажралмаган ҳолдаги мустақил таълими масалалари ёритилган.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль информационно-образовательной среды в непрерывном профессиональном развитии педагогов, сетевые формы непрерывного педагогического образования, вопросы самостоятельного обучения педагога непрерывно от профессиональной деятельности.

ANNOTATION

The article considers the role of the information and educational environment in the continuous professional development of teachers, network forms of continuing pedagogical education, issues of independent training of the teacher continuously from professional activity.

Педагог кадрларни узлуксиз касбий ривожлантиришнинг долзарб муаммоларига бағишланган тадқиқотларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, ушбу тизимни модернизация қилишга бўлган эҳтиёж асосан малака оширишни педагогик фаолиятнинг кундалик амалиётига ҳам мазмуний, ҳам худудий маънода яқинлаштириш, педагогнинг таълимий эҳтиёжи ва уни кондиритиш ўртасидаги фарқни камайтириш зарурлигидан келиб чиқади.

Шу билан бирга, таълимий талаблар ҳар доим ҳам малака ошириш тизимига бўлган аниқ буюртма сифатида шакллантирилмайди, кўп ҳолларда педагогларни узлуксиз касбий ривожлантириш муассасалари томонидан ўзларида мавжуд бўлган кадрлар, ресурслар ва педагог кадрлар эҳтиёжлари тўғрисидаги тасаввурлардан келиб чиқиб таклиф этган амалдаги дастурлар ва курслар тўплами билан чекланишга мажбурлар.

Таъкидлаш лозимки, узлуксиз касбий ривожлантириш тизимида мақсадлар, мазмун ва иш шакллари замонавийлаштириш лозимлиги аллақачон тан олинган. Бошқача қилиб айтганда, малака ошириш тизими педагогларни касбий моҳирлаштириш жараёнини узлуксиз кузатиб бориш тизимига мослашиши лозим.

Лекин мўлжалланган йўналишлар ҳали кенг тарқалмаган ҳамда педагог

кадрлар малакасини оширишнинг анъанавий тузилмасида амалга оширилиши мумкин бўлмаган муҳим томонларини етарли даражада қамраб олмаган.

Гап шундаки, узлуксиз касбий ривожлантириш тизими таълим тизимининг ички имкониятларидан, айнан педагог-амалиётчилар тажрибасидан етарли даражада фойдаланмайди. Унинг тажрибаларни умумлаштириш ва тарқатишнинг турли шакллари кўринишидаги тасаввурлари етарли эмас, чунончи, кўпчилик ҳолларда инновацион-педагогик тажрибани ўзгармас ҳолда кўчириб бўлмайди. Бу тажрибага нисбатан баҳолаш-рефлексив фаолиятни олиб боришга эса малака оширишнинг анъанавий тизими имконият бермайди.

Бундан ташқари, педагогнинг касбий-шахсий ривожланишини кузатиб бориш учун педагогни асосий муаммолар билан юзма-юз келган, янги билимни амалга қўллашга ҳаракат қилган курслараро даврда қўллаб-қувватлаш тизимини ташкил этиш муҳимдир. Кўпчилик ҳолларда бундай вақтда у ўзининг қийинчиликлари билан ёлғиз қолади.

Узлуксиз педагогик таълимнинг тармоқли шакллари педагогнинг мустақил таълимининг касбий фаолиятдан ажралмаган ҳолда методик кузатиб боришни амалга ошириш имконини беради. Бу авваламбор, нафақат педагоглар ўз иш жойларини ташлаб кетмаслиги, балки назария ва амалиёт орасидаги масофанинг қисқаришини, мустақил таълим касбий фаолиятга йўналган, жипс равишда боғланган ҳолатдалигини билдиради. Ўзлаштирилаётган мазмун ва фаолият турларининг долзарблиги ёки амалий қўлланилиши масаласи, мотивация муаммоси каби ўз муҳимлигини йўқотади.

Бундан келиб чиқиб, таълимни ривожлантиришнинг йўналишларидан бири бўлиб, ўқув фаолиятини ташкил қилишнинг концепцияларини қайтадан кўриб чиқиш ҳисобланади. Бизнинг тасаввуримизча, тармоқли таълим технологиялари негизидаги тармоқли таълим моделларини шакллантириш концепцияси педагог кадрлар малакасини оширишнинг анъанавий ўқитиш модели ўрнига келиши лозим.

Шундай қилиб, тармоқли таълим технологиялари томонидан тақдим этилган воситалардан фойдаланиш, малака ошириш тизимини қайта тузиш йўналишларини нафақат кучайтиради, балки уларнинг доирасини ҳам кенгайтиради. Бу билан боғлиқ ҳолда, ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташуил этилган педагогик уюшмалардаги ўқитиш модели узлуксиз педагогик таълимнинг энг келажаги порлоқ моделларидан бири сифатида кўрилади.

Машхур педагог Джон Дьюи мулоқотнинг уюшмани шакллантиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини кўрсатди. Муаллиф уюшманинг барча кўринишлари ўқитиш функциясини ўз ичига олишини, у ёки бу уюшманинг педагогик қимматлилигини аниқлаш имконини берувчи мезонлар мавжудлигини исботлаб берди.

Уюшма – аниқ тузилмага эга бўлган катта бўлмаган гуруҳлар ва тузилмага эга бўлмаган тармоқлар орасида жойлашган тузилмадир.

Бошқача сўз билан айтганда, уюшмалар марказлашмаган, ўз-ўзини ташкил қилувчи тизимларга мисол бўлади.

“Уюшма” тушунчасининг яна бир таърифи Жон Дьюи томонидан “уюшма – бу бир-бирлари билан ўзаро мулоқот қилувчи одамлар тўплами” деб берилган. Дьюи ёзган эдики, одамлар уюшмада уларни бирлаштириб турувчи умумийлик борлиги туфайли яшайдилар, мулоқот эса ушбу умумийликни пайдо қилувчи воситадир.

Уюшма хулқ-атвори унинг субъектларини оддий қоидаларга риоя қилган ҳолдаги анчайин оддий хатти-ҳаракатлари асосида вужудга келади. Оддий хатти-ҳаракатлар натижасида анча мураккаб бўлган мулоқот тизими шаклланади.

Рейнгольд виртуал уюшмаларни бир гуруҳ одамларнинг мунтазам равишда очик мунозаралар ўтказишлари натижасида тармоқдан ўсиб чиқувчи ижтимоий бирикмалар сифатида таърифлайди. Уюшманинг аниқловчи белгиси бўлиб очик мунозара, бир гуруҳ одамларнинг Интернет ахборот тармоғи орқали мулоқот қилиши бўлади.

И.Иллич томонидан биринчи бўлиб педагогик таълим уюшмаси моделига таъриф берилган. Таълим уюшмаси модели умумий таълим ресурсларидан турли лойиҳаларни амалга оширишда фойдаланувчи педагоглар орасида ўзаро тажриба алмашишни ташкиллаштириш шакли сифатида намоён бўлади {1}.

Охириги йилларда тажриба алмашиш таълим уюшмалари педагогик таълим моделлари тадқиқотчиларини ўзига жалб этмоқда.

Тажриба алмашиш уюшмалари концепцияси Э. Венгер ишларида ўз ривожини топди ва турли-туман таълим уюшмалари ичида вужудга келадиган муносабатларни таҳлил қилишда кенг қўлланилди [4].

Тажриба алмашиш уюшмага аъзолик, уюшма аъзолари томонидан ишлатилинадиган воситалар, матнлар, белгилар каби ахборот ресурсларини ўзлаштириш билан боғлиқ бўлади. Уюшма ресурсларига нафақат ахборот материаллари, балки педагогик тажрибага эга бўлган уюшма қатнашчилари ҳам киради.

Ҳар қандай уюшма учун тажриба алмашиш ва ўзлаштириш масалалари муҳим аҳамиятга эга. Ушбу масалалар таълим уюшмалари учун айниқса долзарбдир, чунки унинг аъзоларини касбий манфаати бошидан тажриба алмашиш билан боғланган.

Таълим уюшмалари ичидаги муносабатларни таҳлил қилиш учун ҳозирги пайтда таклиф қилинаётган кўплаб моделларни ичида функционал схема эътиборни ўзига жалб этмоқда.

Таълим уюшмаси модели функционал схемасини кўриб чиқиш учун биз

қуйидаги тушунчалардан фойдаланишни таклиф этамиз:

- уюшма фаолияти мазмунини аниқловчи билимлар соҳаси;
- хулқ-атвор ва фаолияти усуллари ва воситаларини белгиловчи тажриба алмашиш уюшмалари;
- тажриба алмашиш уюшмалари қатнашчиларини бир-бири билан боғловчи мураббийлар;
- уюшма фаолияти усуллари ва воситаларини ўзлаштирувчи қатнашчилар;
- тажриба алмашиш уюшмаларига киришга хизмат қилувчи лойиҳалар;
- уюшма ичида яратилинадиган ва кейинчалик таълим материаллари сифатида фойдаланиладиган электрон материаллар;
- уюшма томонидан ишлатилинадиган дастурий воситалар.

“Одамлар уюшмада ўзлари орасида умумий нарсалар мавжудлиги туфайли яшашади, мулоқот эса – шу умумийга эгалик қилиш воситасидир.... Алоҳида одамлар уюшмани ташкил этмайди, бир-бирлари билан фақат маконда ёнма-ён бўлишади, инсонлар бир-биридан бир неча фут ёки мил узоқлашгани билан уюшма таъсирини сезишни тўхтатмайдилар. Китоб ёки хат катта масофалар ажратиб турадиган одамларни бир уйда яшовчилар ўртасидагига нисбатан яқинроқ алоқани яратиши мумкин”. [2].

К.Ширки уюшма ва аудитория ўртасидаги фундаментал фарқ мавжудлигини таъкидлайди. Агар биз аудитория билан ишлайдиган бўлсак, унда одамлар маълумот юборадиган ва уларни оладиганларга ажралади. Агар биз уюшма тўғрисида сўз очсак, унда барча уюшма доирасида баробар маълумот алмашади. Уюшмада барча одамлар бир бирлари билан боғланган, лекин қайсидир маълумот манбаси билан боғланмаган.

Таълимнинг бугунги кундаги ривожланиш босқичи замонавий ахборот-коммуникацион технологиялар (АКТ) ҳамда глобал Интернет тармоғи томонидан тақдим этилаётган имкониятлардан кенг фойдаланиш билан боғлиқ.

Ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмаларни восита сифатида қўллаш ўзининг очиқлиги, фойдаланиш имкониятлари, долзарблиги билан ўзига жалб этади.

Ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмалар – бу ҳамфиқрли одамлар, тажрибалари билан алмашишни, бахслашишни, ўзи ҳақида гапириб беришни, керакли ахборотни олишни истовчи турли ҳудудлар педагогларини ўзаро мулоқоти учун яратилган интернет-ресурсдир.

Бугунги кунда Интернет педагогларга ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмаларда иштирок этиш учун кенг танлаш имкониятларини яратиб бермоқда: “Узлуксиз касбий ривожланиш платформаси”, “Bilimkon”, “Болалик академияси” ва бошқалар.

Педагогик уюшмалар педагоглар олдида қуйидаги имкониятларни очиб

бермоқда:

- очик электрон ресурслардан фойдаланиш;
- мустақил равишда тармоқли таълим таркибини тузиш;
- ахборот концепциялари, билимлари ва кўникмаларини ўзлаштириш;
- уюшма қатнашчилари фаолиятини кузатиш.
- ушбу мустақил таълим шаклининг асосий афзалликлари:
- тажриба алмашиш ўқитувчи-амалиётчилар орасида амалга ошади;
- методик ёрдам шахсий ва манзилли бўлади.

Ҳозирги пайтда педагогларнинг турли-туман виртуал бирлашмалари ва ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмалари муваффақиятли фаолият кўрсатмоқда.

Ижодий педагоглар тармоғи

Портал Microsoft корпорацияси кўмагида АКТдан таълимда фойдаланиш бўйича ўқитувчиларга ахборот ва материаллар алмашиш ҳамда мулоқот қилиш имкониятини бериш мақсадида яратилган.

Порталда масофавий конкурслар ва ўргатувчи мастер-синфлар фаол ўтказиб турилади, муаллифлик методик ишланмаларининг энг йирик Интернет кутубхоналаридан бири (25 мингдан ортиқ) тўпланган. Ушбу сайтда:

- АКТ қўлланган ўқув лойиҳаларининг тайёр библиотекасида фойдаланиш;
- турли электрон ресурслардан фойдаланган ҳолда дарслар ўтиш методикаси библиотекасида фойдаланиш;
- педагоглар учун қизиқарли бўлган мақолаларга мурожаатлар учун тўпламдан фойдаланиш;
- рўйхатдан ўтиш ва ҳамкасбалар билан мулоқот қилиш имкониятлари мавжуд.

Педагогнинг турли хил мастер-синфларда иштирок этиши, шубҳасиз мустақил таълим даражасини оширади. Бу ерда у ёки бу масала бўйича маслаҳат олиш мумкин бўлади.

Moodle виртуал таълим муҳити педагогларнинг мустақил таълими учун кўп имкониятларга эга.

Ахборот ва коммуникацион технологиялар педагогнинг фаолият соҳасини сезиларли даражада кенгайтириш билан унинг касбий фаолиятига таъсир кўрсатади.

Ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмаларда иштирок этиш орқали ўқитувчи ўзининг педагогика, методика бўйича билимларини кенгайтиради, бу билан ўзининг касбий компетентлик даражасини ҳам кўтаради.

Педагогик уюшма касбий ўзаро мулоқотнинг машҳур ташкилоти – ахборот тарқатиш ва нашр этиш бутун уюшма аъзоларини ўқитишга олиб келадиган илмий ҳамжамиятни эслатиши лозим

Илмий ҳамжамиятлар тарихининг таҳлили кўрсатадики, уларнинг вазифаларига нафақат тадқиқот фаоллигини тақдирлаш, балки иштирокчилар ўз фаолиятлари натижалари билан алмаша оладиган ахборот-коммуникация муҳитини яратиш ҳам киради. Илмий ҳамжамиятлар нафақат тадқиқот фаолиятини олиб бориш, унинг натижаларини тарқатиш ва бу маълумотларни олиш имкониятларини, балки экспертлар фаолиятини кузатиш, экспертларга маслаҳат ва ёрдам олиш учун мурожаат қилиш имкониятини беришни қўллаб-қувватлайди.

Бунда ҳамжамият фаолияти маълум қонуниятларга бўйсунди. Рид қонунига биноан, ўзаро ҳаракатларнинг қийматини қиймати коммуникация иштирокчиларининг сони ўсишига қараб экспоненциал тарзда ўсади. [210].

Бу қонуниятнинг моҳияти шундай: агар хабар бир манбадан ўн беш кишига юборилса, унда коммуникация қиймати 15 га тенг. Агар шу 15 киши манба билан маълумот алмашса, унда коммуникация қиймати 152 ни ташкил этади, бу эса бир томонлама коммуникация бўлганидан 15 баробар ортиқ. Агар бир-бирлари билан хабар алмашиши мумкин бўлган 15 кишидан иборат уюшма пайдо бўлса, унда коммуникация қиймати 215 ни ташкил этади.

«Амалиёт уюшмаси» (community of practice) ёки «билимларни алмашиш уюшмаси» тушунчалари Э.Венгер томонидан биргаликдаги фаолиятга жалб қилинган кишилар гуруҳини ҳамда уюшма ичида юзага келган муносабатларни белгилаш учун киритилган. [230].

Билимларни алмашиш уюшмасига аъзолик уюшма аъзоларининг ўз фаолиятида фойдаланадиган ресурсларни ўзлаштириши билан боғлиқ. Уюшма ресурсларига нафақат ахборотлар ва уларни қайта ишлаш воситалари, балки билимлар ва фаолият тажрибасига эга бўлган уюшма иштирокчиларининг ўзлари ҳам тааллуқлидир.

Уюшманинг ҳар бир аъзоси билимларнинг қандайдир йиғмасини ўзлаштиришгагина эмас, балки уюшмага ўзининг шахсий билимлари ва тажрибасини олиб киришга ҳаракат қилади.


Билимлар ва фаолият усуллари ўзлаштириш уюшма иштирокчиларининг ўзаро мулоқот қилиши жараёнида юзага келади. Бу мулоқот уюшманинг барча иштирокчилари томонидан яратилган динамик ва ўзаро боғлиқ ресурсларнинг етарли даражадаги турли хилларини келтириб чиқаради.

Иштирокчиларнинг шахсий билимлари уюшма ривожланишининг қўллаб-қувватловчи ахборот-таълим тармоғини ташкил этади, у эса ўз навбатида тармоқнинг ривожланишини ва тармоқ ривожланиши орқали уюшманинг алоҳида иштирокчиларининг мустақил таълимини қўллаб-қувватлайди.

Ахборот-коммуникацион тармоқлар орқали ташкил этилган уюшмалар тажрибасидан олинган мисоллар, ахборот сервислари ва электрон

объектлардан фойдаланиб тузилган ўқув лойиҳаларидан иборат. Уюшма ичида амалга ошириладиган лойиҳаларнинг бир-биридан фарқи уларнинг узлуксиз характерга эгалигидир. Бир лойиҳа жараёнида яратилган объектлар, воситалар ва ғоялар кейинроқ ўзгартирилиши ва бошқа лойиҳаларда фойдаланилиши мумкин.


Барча қайд этилган ресурслар бир-бири билан мустаҳкам боғланган (1-расм.).



1. расм. Тажриба алмашиш уюшмасининг ресурслари.

Тажриба алмашиш уюшмасининг моделига иштирокчилар ва уларнинг муносабатлари киритилса, уюшманинг тузилмаси анчагина мураккаблашади.

Уюшма ичидаги муносабатларни таҳлил қилиш учун кўплаб тузилмавий схемалар ичида тармоқ узелларининг муносабатларини акс эттирувчи чизиқлар билан бир-бирига боғланган узеллар (уюшмалар, мақсадлар, гуруҳлар ва ҳ.к.)дан иборат бўлган функционал схема диққатни тортади. [3] (2 расм).



Мулоқот талаб қилинади

2. расм. Тажриба алмашиш уюшмасининг функционал схемаси

Тармоқнинг тузилмаси муайян автономия характерига эга бўлган кўплаб узеллардан иборат. Улар бошқа узеллар билан яқин боғланган бўлмаса-да, тармоқ ичида мавжуд бўлиши мумкин. Такимлаштириш жараёнида тармоқнинг узеллари бир тузилмага келтирилади ҳамда ахборот ва билимлар ўтказиладиган боғламаларни ҳосил қилади.

Схемадан кўринадикки, уюшмада бирлаштириш ва уюшма сиёсати сифатида тақдим этиш мумкин бўлган мақсадлар, аъзолар, қоидаларнинг муайян тўплами бор. Уюшманинг мақсадлари унинг алоҳида аъзоларининг истаклари асосида шакллантирилади. Ўз навбатида, ҳамма тармоқ узелларга маълум таъсир кўрсатади. Уюшманинг мақсадлари унинг алоҳида аъзоларининг фаолиятига таъсир қилади. Уюшманинг сиёсати уюшма аъзолари қабул қиладиган ва уларнинг фаолиятига таъсир қиладиган меъёр ва қоидалар асосида шаклланади. Ҳар қандай қоидалар ўзининг янгилиги туфайли иштирокчиларнинг ҳамкорликдаги фаолияти жараёнида киритилиши ва ўзгартирилиши лозим – бу ижтимоий тармоқлардаги ҳаракатнинг хусусиятларидан биридир.

Амалиёт кўрсатадигани, уюшмага кириш қоидалари, иштирокчилар, администраторлар, экспертлар, консультантлар ва бошқалар одоб қоидалари, агар улар уюшманинг барча аъзолари томонидан биргаликда ишлаб чиқилган ва қабул қилинган бўлса, кўпроқ фойдалидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Иллич И. Освобождение от школ. Пропорциональность и современный мир / Пер. с нем. М. Чередниченко, Пер. с англ. Ю. Турчаниновой, Э. Гусинского; Под ред. Т. Шанина. -М.: Просвещение, 2006.
2. Дьюи Дж. Демократия и образование. Пер. с англ. - М. Педагогика-Пресс, 2000, - 384 с.
3. Knowles M.S. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development / M.S. Knowles, E.F. Holton III, R.A. Swanson. 6th ed. L. [etc.]: ELSEVIER Butterworth Heinemann, 2005 –p.37-38-40.
4. Etienne Wenger Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity Cambridge University Press, 1998

O‘ZBEK TILIDA KO‘SHISH: KONVERSIYA VA TRANSPOZITSIYA MASALASI

Uralov Azamat Begnarovich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Leksemaning aniq mantiqiy qiymatini faqat aniq vaziyatning vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Aks holda har qanday leksema bir ma’no uchun xizmat qilgan

bo‘lar edi. Faqat ilmiy terminlarning qiymati bir marta va umumiy fikrlar tizimiga kiritilishi bilan belgilanadi. Ammo kundalik hayotiy so‘zlarimiz sema anglatish nuqtayi nazardan asimmetrik dualizm uchun xizmat qilsa, ajabmas. Shuning uchun morfologik birliklar fikrlar to‘plamini o‘z ichiga olgan holda, bir tizimda shakllanadi.

Biz har safar so‘zni aniq voqelikka semantik qiymat sifatida qo‘llaganimizda, ozmi-ko‘pmi yangi tasavvurlarga ega bo‘laveramiz. Boshqacha qilib aytganda, biz doimo belgining semantik qiymatini uslub tarafidan o‘zgartiramiz. Agar belgining odatiy qiymati, mazmuni biz anglash uchun yetarlicha bo‘lmasa, biz buni sezmaymiz: *bola qovun tushirmoqda – bolalar qovun tushirmoq*. Birinchi navbatda, belgining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi, chunki bizning fikrimiz integratsiyaga intiladi va tasavvurlar to‘plamidagi har qanday o‘zgarishlarni qayd etishdan bosh tortadi; ikkinchidan, biz eski belgining yangi qiymatiga turtki beradigan taqqoslashni ongimizda joriy qilamiz. Bu jarayon so‘zning ko‘chishi va ma’noning kengayishiga olib keladi: *sovuq havo – sovuq xabar*. Bir so‘z nutq uslublarining so‘zlashuv uslubida turli sema maydonlari hosil qilsa, rasmiy uslubda aniq bir maydonda harakatlanadi.

Til tizimida bunday birliklarning vujudga kelishi, o‘z-o‘zidan ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, zid ma’nolilikni keltirib chiqaradi. Bunday tushunchalarning vujudga kelishi tilning tarixiy ildizlari bilan bog‘lansa-da, bugungi kun nuqtayi nazaridan ham yangi birliklarning paydo bo‘lishi tabiiy holat.

Tildagi nomutanosiblikning odatda shakl va mazmun munosabati doirasida sodir bo‘lishi tilshunoslikda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Yuqorida qayd etganimiz kabi so‘z o‘zi ifodalayotgan ma’nodan tashqari matn tarkibida qo‘shimcha ma’nolarni ham ifodalaydi. Bu holat affikslar doirasida ham sodir bo‘ladi. A.G‘ulomovning ishlarida *-lar* affiksining ko‘plik shaklidan tashqari matn tarkibida ifodalaydigan o‘nlab ma’nolari ko‘rsatib berilganiga guvoh bo‘lamiz. Buni boshqa olimlarning ishlarida ham kuzatiladi. Shunday ekan, so‘z tarkibida shakl va mazmun nomutanosibliigi masalasining tilshunoslikda diaxronik, hamda sinxron jihatdan, A.Berdialiyevning ishida alohida tadqiq qilinganligi diqqatga sazovor¹⁰.

Morfemik birliklar ham umumiy mohiyatini saqlagan holda tarixiy-semasiologik, lingvosemiotik, funksional jihatdan o‘zgarib, qayta taqsimlanish va o‘rinlashish jarayonlariga ham tortilib turadi. Bunday tortilishlar, tildagi qayta bo‘linishlar til tizimida turli holatda va davrda ro‘y beradi. Morfem birliklarning bunday usulda kengayishi yoki torayishi tildagi yangi morfemalarning ortib borishiga, leksemalar miqdorining ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

I.Q. Qo‘chqortoyev tahlillar asosida shunday xulosa chiqaradi: “Tilning ikki

¹⁰ Berdialiyev A. So‘z tarkibi va shakl-ma’no nomutanosibliigi. – Bishkek, 2013. – B.153.

tomonli birliklari, shu jumladan, soʻzning ifoda plani strukturasi (nom) qay darajada mustaqil boʻlsa, uning mazmuni plani strukturasi (maʼno) ham shu darajada mustaqildir. Bundan tilning mazmun plani segmentlari (maʼnolar)ni ham tilning asosiy birliklari qatoriga kiritish lozim degan prinsipial xulosa kelib chiqadi¹¹. Tildagi oʻzgarishlar maʼlum davr (muhit, jamiyat) sharoiti bilan barcha zamonda ham oʻzgarib boradi: “til vaqt (zamon)da mavjud boʻladi va taraqqiy etadi. Ifodalanuvchi va ifodalovchi aloqadorligi vaqtda amal qiladi, ifodalanuvchi va ifodalovchi rivoji (evolyusiyasi) vaqtida yuz beradi. Shunday qilib, vaqt koordinatasi tovush va maʼnoning doimiy komponenti hisoblanadi¹². I.Q.Qoʻchqortoyevning fikriga qoʻshilgan holda shuni aytish mumkinki, shakl va mazmun orasidagi munosabat har doim bir xil boʻlavermaydi. Bir shaklning mazmun ifodalashi turlicha boʻlishi mumkin yoki aksincha bir mazmunni ifodalash uchun bir necha shakllardan foydalaniladi.

Tilshunoslik tarixida ikki tomonlama birliklar tartibida maʼnoga ahamiyat bermaslikning oqibati qanday natijalarga olib kelganligi haqida V.M. Solnsev fikr yuritib, tilshunoslikdagi biror oqim, hatto eng radikal oqimlar ham maʼnoga murojaat qilmasdan ish koʻrolmaganligini taʼkidlaydi va “til shuning uchun tilki, uning birliklari oddiy tovushlar birikmasi (kombinatsiyasi)dan iborat emas, uning birliklari muayyan mazmunga ega, oʻz tarkibiga turli maʼnolarni qamraydi, u yoki bu gʻoyani ifodalash qobiliyati mavjud. Semantika yoki maʼno bu tilning qalbidir¹³, – deb yozadi. Busiz mumkin emasligi esa hammaga maʼlum. Aks holda tilshunoslik yoʻq boʻlardi. Demak, oʻz-oʻzidan koʻrinadiki, tilshunoslik tarixida ikki tomonlama birliklar tarkibida maʼno-mazmunga eʼtibor berilmasdan ish tutilgan degan fikrning paydo boʻlishi, aytilishining oʻzi ortiqcha.

Tilda belgilarning mavqeyi va unga turlicha yondashuvlarni taqqoslash asosida Y.S.Kubryakova “Belgi taʼrifiga qayta murojaat” nomli maqolasida fan tarixidagi anʼanalarga chuqur hurmat va ehtirom bilan yondashish zarurligini koʻrsatib, hozirgi davrda belgiga kognitiv, kommunikativ-funksional hamda germenevtik yondashuvlarni uzviy birlashtirgan holda tadqiqot olib borish talab etiladi, deb koʻrsatadi¹⁴. Haqiqatan ham, R. Yakobson taʼlimotida belgilar nafaqat lingvistika, balki logika, matematika, ritorika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar, hayotning boshqa turli sohalaridagi fanlar – semiotikaga birlashuvchi fanlarda bosh, fundamental tushunchalardan biriga aylanadi¹⁵. Tildagi birliklarning ijtimoiy hayotdagi

¹¹ Qoʻchqortoyev I.Q. Soʻz maʼnosi va uning valentligi. – T.; 1977. – B. 38.

¹² Караулов Ю.Н. Асимметрия языкового знака во времени / Современне проблемы литературоведения и языкознания. – М.; 1974. – С. 416.

¹³ Солнцев В.М. К вопросу о семантике или языковом значении. – Предисловие к сборнику “Проблемы семантики”. – М.; 1974. – С. 4.

¹⁴ Кубрякова Е.С. Возвращаясь к определению знака (памяти Р.Якобсона) // Вопросы языкознания. 1993. № 4 – С. 18 – 19.

¹⁵ Якобсон Р. Звук и значение // Якобсон Р. Избранные работы – М.; 1985.

o'zgarishlari bir vaqtning o'zida sodir bo'lmaydi. Har bir shaklning anglatayotgan ma'nosi til tizimida o'ziga xos o'zgarishlarni taqozo qiladi. Shu sababli shaklni mazmundan ajratib ko'rsatish noto'g'ri, ularni bir-biriga bog'lagan holda, qiyoslagan holatda tadqiq etish o'z samarasini beradi.

A. G'ulomov o'z asarlarida o'zbek tili va turkiy tillar misolida tilning turli sathlarida nomutanosiblikni tarixiy-diaxron jihatdan ham, sinxron nuqtayi nazardan ham tadqiq etgan olimlardan hisoblanadi. A. G'ulomov so'zning morfem qurilishida semantik va asemantik birliklar nisbatiga, ularning yuz berishi sabablariga katta e'tibor qaratib, shunday yozadi: "Tovush o'zgarishlarining sabablari har xil (tejamkorlik tamoyili, nutq a'zolarining harakatiga, aytishga qulaylik, farqlash talabi), shuningdek, har bir boshqalikning o'z fonetik sharoiti bor: so'zning qaysi o'rinda kelishi, qaysi bo'g'inda va bo'g'inning qayerida kelishi, ochiq yoki yopiq bo'g'inda bo'lishi, qaysi tovushlar bilan qo'shni bo'lishi, birikishi; qanday tovushlar orasida kelishi (masalan, intervokal pozitsiyada); urg'uli va urg'usiz bo'lishi. Tovush o'zgarishlari xilma-xil, bunda tarixiy o'zgarishlar va bu hozirgi regulyar xarakterdagi o'zgarishlar boshqa-boshqa xususiyatlarga ega bo'ladi¹⁶.

Demak, nomutanosiblik har bir tilda tabiiy ravishda amal qiladigan, shakl va mazmunning turlicha bog'lanishi, ular orasidagi uzviy aloqadorlik, shakl va ma'noning o'zgarishi, ko'chishi, o'zaro o'tishi jarayonlarini aks ettiradigan muhim qonuniyatning nomi hisoblanadi. Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisi, vorisi bo'lar ekan, har bir sinxron bosqichdagi shakldoshlik, ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik, ko'p vazifalilik ham o'z izohi, sabablari bor. Ana shu jarayon va hodisalar tufayli til jamiyat ehtiyojlariga hozirjavob tizim qobiliyatini to'liq namoyon qiladi hamda o'zida aks ettiradi.

Ayni damda til o'zining rivojlanishida hech qachon to'xtamaydi. U vaqtlar o'tishi bilan ravnaq topib, rivojlanib, sayqallanib, yangilanib boradi va tilga yangi birliklarning kirib kelishi uchun zamin yaratib beradi. Ayrim hollarda esa tildagi mavjud birliklarning imkoniyatlari kengayib, yangi sema maydonini shakllantiradi va yangi birliklar hosil qilishini ta'minlaydi. Tildagi birliklar nutq jarayonida qo'llanishi natijasida turli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, birinchisi ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga o'xshashga harakat qiladi. Vaqtlar o'tishi bilan yangi bir birlik ikkinchi birlikning o'rnini egallaydi, ya'ni ko'chadi. Tildagi bu jarayonlar asosan mavjud birliklarning rivojlanishida, muloqotga kirishishida ko'rinadi. Transpozitsiya hodisasi til tanlamaydi, u kishilar tomonidan ifodalanadi, shu sababli til birliklari tilga yaxlit tizim sifatida emas, muloqotning talabi bilan so'zlovchilarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan birliklar sifatida kirib keladi va ishlatiladi. Shu sababli, bir so'z turkumi doirasida tan olingan leksemaning boshqa

¹⁶ O'zbek tili grammatikasi. I jild. – T.; 1975. – B. 117.

soʻz turkumi doirasiga oʻtishi yoki oʻtib qolishi tildagi sinxroniya va diaxroniya qonuniyatlarining mahsuli hisoblanadi.

“Har bir transpozitsiyada asosiy narsa, – deb yozadi Karsevskiy, – bir necha psixologik aloqasi mavjud boʻlguncha davom etadigan doimiy, qiymat va tasodifiy vazifalar oʻrtasidagi farqdir. Ammo bildirilgan haqiqat gʻoyalar tizimida oʻz oʻrnini egallaydigan avtonom konsepsiyaga aylanishi bilan, unga boshqa aniqlovchi kerak emas, bunda aloqa batamom uziladi. Ikkala tushunchaning har biri bevosita oʻz belgisi bilan bogʻliq. Biz fonologik jihatdan bir xil ovoqli, lekin ayni paytda avtonom ishoralar bilan ifodalanadigan ikkita belgi bilan shugʻullanmoqdamiz”¹⁷, – deb fikr bildiradi. Shuningdek, transpozitsiya va sinonimiya, Karsevskiy taʼkidlaganidek, bir hodisaning ikki tomonidir¹⁸. Biz iborada anglagan har qanday maʼno mafkuraviy (sinonim) ketma-ketlikning psixologik (omonim) qator bilan kesishish nuqtasini ifodalaydi.

“Funksional transpozitsiya” terminini fanga olib kirgan olim Sh.Balli hisoblanadi¹⁹. Transpozitsiya nazariyasini birinchi marta Balli, uning individual jihatlarini esa – O.Jezpersen, A.Sesche, A.Frey ishlab chiqdilar. L.Tenier transpozitsiya turlarining tavsifini berdi (“tarjima” deb nomlanadi): birinchi darajali transpozitsiya (soʻzlarni yoki soʻzlarni nutqning bir qismidan boshqasiga tarjima qilish) va ikkinchi darajali transpozitsiya (jummalarni ot, sifat, ravish). Transpozitsiya gʻoyasi transformatsion usulning asosidir. Oʻtgan asr tilshunosligida transpozitsiya soʻz yasalishi, sintaktik sinonimiya, semantik sintaksis, troplar nazariyasi va boshqalar masalalari bilan bogʻliq holda oʻrganiladi²⁰.

Transpozitsiya va koʻchish masalasiga oid ilmiy qarashlar keyingi davr tilshunosligida ham keng oʻrganilgan. Chunonchi, “konversiya”²¹ termini orqali fundamental maʼlumotlar berilgan. Shuningdek, “Lingvistik qomusiy lugʻat”da transpozitsiya termini qoʻllanadi va bu termin keng maʼnoda til tizimidagi barcha koʻchish jarayonlarini, tor maʼnoda soʻz turkumlari doirasida koʻchishni anglatadi, deya taʼkidlanadi²². Ushbu lugʻatning boshqa bir oʻrnida esa soʻz turkumlarining koʻchishini “qoʻshimchasiz soʻz yasash usuli” deb taʼriflanib, ayni shu hodisa uchun “konversiya” termini ham qoʻllanadi va u tor maʼnodagi transpozitsiya bilan ayni

¹⁷ Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // В. А. Звегинцев (сост.). История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – М.: Просвещение, 1965. – С. 30-31.

¹⁸ https://ozlib.com/1034394/literatura/teoriya_kartsevskogo_asimmetrichnogo_dualizma_lingvisticheskogo_znaka#google_vignette (Карцевский С.О. Лингвистик белгининг ассиметрик дуализми тўғʻрисида // Звегинцев В.А. XIX-XX асрлар тилшунослик тарихи эскиз ва кўчирмаларда. – М.: Таълим, 1964. II қисм. – Б. 85-90.)

¹⁹ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.; 1955. – С. 130 – 131.

²⁰ Balli Sh., Umumiy tilshunoslik va fransuz tili savollari, transpozitsiya fransuz tilidan. – М.; 1955; Kubryakova Y.S., Onomasiologik yoritishda nutq qismlari. – М.; 1978; Soboleva P.A., Soʻz hosil qiluvchi polisemiya va omonimiya. – М.; 1980; Gak V.G., Fransuz tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, 2-nashr, – М.; 1986.

²¹ Oʻzbek tili grammatikasi. I jild. – Т.; 1975. – В. 46 – 52.

²² Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 519.

tushunchani anglatishi o'rtaga chiqadi²³. Shu bilan birga O.S.Axmanovning "Lingvistik terminlar lug'ati"da so'z turkumlarining ko'chishida ("переход" – ko'chish), transpozitsiya, konversiya terminlarining qo'llanilishi qayd etilgan²⁴. Shuningdek, A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da transpozitsiyaning so'z turkumi darajasidagi turi uchun ko'chish, konversiya, transpozitsiya terminlari qo'llanilishini ta'kidlaydi va transpozitsiya hodisasida "grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan funksiyada qo'llanishi"²⁵ ko'rsatib o'tilgan. Ko'chish jarayonlari tilshunoslikda o'ziga xos ta'riflar bilan e'tirof etilgan. Ulardagi ma'no va vazifa ko'rinishlar morfemika, leksikologiya, hatto sintaksis bo'limlarida ham fundamental tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Transpozitsiya ko'pgina adabiyotlarda berilgan bo'lsa-da, uning nomlanish va "ko'chish" termini bilan bog'liq muammolarni hal etish J.Eltazarovning "O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi" nomli ilmiy ishlarida o'rganilgan²⁶.

Tilshunoslikda konversiya – so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni o'zgarishi orqali yangi ma'noli birliklarni hosil qiladi. Bu holatda asosan so'z turkumi o'zgaradi, ya'ni bir turkum doirasidan boshqa bir turkum doirasiga ko'chadi. F.Sharipovning so'z yasalishi bilan bog'liq qarashlarida "o'zbek tilshunosligida ham morfologiyaning leksikologiya bilan yaqinligi, ayniqsa, morfologik yo'l bilan – affikslar orqali so'z yasashda yoki bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga o'tishida ochiq ko'rinib turishi"²⁷ ta'kidlansa, ayrim manbalarda bunga "yasalishning bir turi" deb ham qaraladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'chishdagi mohiyat biror so'z turkumining boshqa bir so'z turkumiga o'zgartirish xarakterida bo'lishi bu hodisaning tashqi yasalish ko'rinishidaligini anglatadi. Biroq bu jarayon bir hodisaning avvalgi holatini saqlab qolib, boshqa holatga o'tishi – o'zgarishi xarakterida emas, balki avvalgi ko'rinishini saqlagan holda yangi ma'noga ham ega bo'lishidir. Demak, bu aslida ko'chish emas, balki boshqa tomondan qaraganimizda, ma'noning kengayishi (ba'zida yasalishi) hisoblanadi. *Yangi* (sifat) – *yangi* (ravish). *Kasal, yarador, qahramon, mard* singari so'zlar deyarli ot so'z turkumiga o'tgan. Sifatlarning otga ko'chishi sifatdan keyin kelgan otning tushib qolishi bilan ifodalanadi va otga tegishli barcha kategoriyalarni olib turlanadi:

23 Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 235.

24 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия, 1966. – С. 320, 480, 202.

25 Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.:O'qituvchi, 1985. – B. 94.

26 Eltazarov J.D. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi: Filol. fanlari d-ri diss. ... avtoref. – T., 2008.

27 Sharipov F. O'zbek zamonaviy morfologik nazariyasining shakllanishi, taraqqiyot tendensiyalari va istiqbollari. Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – T., 2022. – B. 21.

kasalim, kasaling, kasali, kasalimiz, kasalingiz, kasallari (aslida, *kasal odam*, sifat soʻz turkumi)²⁸.

Aslini olib qaraganda, “konversiya termini soʻzning oʻz shaklini oʻzgartirmagan holdagi kategorial koʻchishi maʼnosiga xoslangan”²⁹. Manbalardan koʻrinadiki, morfemalar tizimida ham transpozitsiya jarayoni yuz berib turadi. Bu holat, asosan, soʻzga biror shakl qoʻshilishida yaqqol kuzatiladi: *issiq* – sifat, *issiqda* – ot; *lekin* – bogʻlovchi, *lekini* – ot. *Temir, gʻisht, poʻlat* singari soʻzlar ham aslida sifat soʻz turkumi doirasida boʻlganligini koʻrish mumkin: *temir eshik, temir sandiq, poʻlat bolgʻa, poʻlat bolta, gʻisht bino, gʻisht devor*. Bugungi kunda bu soʻzlarni ot soʻz turkumi sifatida qaraymiz.

Karsevskiy semantik va grammatik transpozitsiya oʻrtasidagi asosiy farqni shunday qayd etadi: “Rasmiy maʼnolar, tabiiyki, semantik maʼnolardan koʻra umumiyroqdir va ular har biri deyarli cheksiz miqdordagi semantik maʼnolarni oʻz ichiga oladigan tur boʻlib xizmat qilishi kerak. Shuning uchun, grammatik maʼnolar ancha barqaror va ularning transpozitsiyasi kamroq va “muntazam”dir. Grammatik belgining shakldoshligi yoki maʼnodoshligi chiziq boʻylab siljishi mumkin... Ammo semantik siljishlar maʼlum belgiga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Biroq grammatika sohasida boʻlinishlar har doim juft holatda sodir boʻladi va ikkita korrelyatsion maʼno qarama-qarshi boʻlib turadi”³⁰. Demak, rasmiy tan olingan shakl bir maʼnoga ega boʻlish ehtimoli yuqori boʻladi va shuningdek morfemalar ularga yangicha shakl va maʼnolar beradi. Shu sababli bir shakl turgʻun holatda bir maʼnoga xizmat qilsa-da, grammatik holatda boshqa yangi maʼnolarni koʻrsatishi tabiiy hol.

Karsevskiy “Lingvistik belgining assimetrik dualizmi” nomli maqolasida bu bir xil umumiy prinsipning ikki tomonidan boshqa narsa emas ... har bir lingvistik belgi bir vaqtning oʻzida omonim va sinonimdir. Boshqacha qilib aytganda, u bir vaqtning oʻzida bir xil belgining bir qancha majoziy, transpozitsion maʼnolariga va har xil belgilar bilan ifodalangan bir xil oʻxshash maʼnolarga tegishli ekanligini aytadi. Shaklan olib qaralganda, Karsevskiyning fikri toʻgʻri, chunki belgi har qanday holatda ham maʼlum maʼnoni ifodalay oladi. Shuningdek, aynan bir shakl transpozitsiya hodisasi bilan yangi maʼnolarni ham ifodalashi mumkin. Bunda belgining maʼno tomoni kengayib, shakli esa asl holatini saqlab qoladi.

Transpozitsiya jarayoni *qaynatma* – feʼl, *qaynatma* – ot koʻrinishida ham boʻlishi mumkin. Bunda soʻz shakl va maʼnosi bilan qoʻshilgan holatda transpozitsiyaga uchraydi. (Koʻchishning yasama soʻzga yoki yasalishga oʻxshashligi maʼlum.) Bunda shakl saqlanishi evaziga yangi maʼno hosil boʻladi,

²⁸ Oʻzbek tili grammatikasi. I jild. – T.; 1975. – B. 47.

²⁹ Oʻzbek tili grammatikasi. I jild. – T.; 1975. – B. 47.

³⁰ Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака / С. О. Карцевский // В. А. Звегинцев (сост.). История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – М.: Просвещение, 1965. – С. 89.

biroq ko‘chishning yasama so‘zdan farqi shundaki, yasama so‘zda yasalish obyekti aniq sezilib turadi (*gulchi, guldon, gulla*), transpozitsiyada esa yasalish obyekti mavjud bo‘lmaydi (*ammo uning lekini bor-da*). Ular grammatik aloqaga kirishganidan so‘nggina ko‘chish jarayonini sezish mumkin: **Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘**. *Yaxshidan, yomondan* so‘zlari funksional transpozitsiyaga yaqqol misol bo‘lmoqda.

Morfemalarning tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, funksional transpozitsiya morfemalar tarkibida ham mavjud bo‘lgan va bu jarayon uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Kelib chiqishi va rivojlanish nuqtayi nazardan *-chi* sifat yasovchi affiksi asosan ot, harakat nomi hamda sifatlardan sifat yasagan: *ashulachi bola, baliqchi odam, sotuvchi qiz, qiziqchi yigit* kabi. Vaqtlar o‘tishi bilan *-chi* morfemasi transpozitsiyaga uchrab ot yasovchi morfemaga ko‘chgan. Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilida bu morfema shaxs otlari yasash uchun xizmat qiladi: *qiziqchi, ishchi, gulchi, yozuvchi* kabi. Ayrim holatlarda *-chi* affiksi orqali yasalgan ot so‘z turkumidagi yasalmalarning ishlatilish maydoni hamda ma’nolari kengayib, sifat so‘z turkumiga tortilishini ham kuzatish mumkin: *yozuvchi (adib) – yozuvchi yigit*.

Morfemalarning tarixiy taraqqiyoti, ma’lum shaklning boshqa-boshqa mazmun ifodalashga xizmat qilishi yoki transpozitsiyasi kuzatiladi. *-lik* affiksi, aslida, sifat yasovchi affiks bo‘lib shakllangan (*qishlik kiyim, tushlik ovqat, shaharlik qiz*), keyinchalik transpozitsiya tufayli mavhum ot yasovchi birlikka aylangan va ayni kunda shu holatda ishlatilmoqda: *yaxshilik, do‘stlik, zargarlik, yangilik, tezlik, tushlik* kabi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *-ma* ot yasovchi affiksi, asosan, sifat yasovchi affiks bo‘lib (“*-ma* asli sifat yasovchi: *aylanma yo‘l, ag‘darma yoqa*,”³¹ *yo‘qlama daftar, qovurma ovqat, terlama kasal*), keyinchalik diaxronik transpozitsiya hodisasi tufayli ot so‘z turkumini ham yasagan: *yo‘qlama, qovurma, terlama, dimlama, qo‘lyozma* kabi. Demak, ko‘chish masalasi morfemalar tarkibida ham mavjud bo‘lib, bugungi kunda ham amal qilayotgan hodisa hisoblanadi. Funksional transpozitsiya esa bugungi kunda so‘z turkumlari doirasida amal qilib, morfemalar sathida deyarli qo‘llanilmaydi.

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI YARATISHGA QO‘YILDIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Egamqulov Sherzod Anorboyevich

Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars mashg‘ulotlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslarini yaratish va mashg‘ulotlarida qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

³¹ O‘zbek tili grammatikasi. I jild. – T.; 1975. – B. 254.

Kalit soʻzlar. elektron taʼlim resurslari, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar, zamonaviy axborot texnologiyalari, informatika fani, dasturlovchi, taqdimot, dizzayn, illyustratsiya, on-line va off-line.

Аннотация. В данной статье описаны теоретические и практические основы создания и использования электронных образовательных ресурсов для использования на занятиях.

Ключевые слова. электронные образовательные ресурсы, учебники и пособия, современные информационные технологии, информатика, программирование, презентации, дизайн, иллюстрация, онлайн и офлайн.

Annotation. This article describes the theoretical and practical foundations of creating and using electronic educational resources for use in classes.

Keywords. electronic educational resources, textbooks and manuals, modern information technologies, computer science, programming, presentation, design, illustration, on-line and off-line.

Kirish. Elektron taʼlim resurslari taʼlim tizimiga juda tez kirib keldi. Ularning sonini aniq aytishning hozirgi kunda imkoni yuq. Shu bilan birga odatdagi darsliklar va kitoblar qatori ularning taʼlim jarayonida tutgan mavkeyi ancha yuqori darajaga chiqishiga qator omillar taʼsir etmoqda. Hozirgi kunda oʻquvchilar, umuman taʼlim oluvchilar orasida elektron taʼlim resurslari haqiqiy oʻrnini topdi va bu sohada oʻziga xos evalyutsion oʻzgarishlarni olib kelmoqda.

Elektron taʼlim resurslari oʻzi nima? U odatdagi darsliklar va oʻquv qoʻllanmalardan nimasi bilan farq qiladi? Taʼlim sohasida uning ommaviy tarzda tez tarqalishiga nima sabablar boʻldi? Davlat umimilliy dasturi maktablarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash va maktab taʼlimini rivojlantirish bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron taʼlim resurslarini yaratish va uni taʼlim jarayoniga tadbik etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qoʻyilmoqda. Shunday ekan, elektron taʼlim resurslarni yaratishdan maqsad, ularga qoʻyilgan talablar nimalardan iborat? Uning qanday turlari va variantlari mavjud kabi savollarga ilmiy asoslangan javob topish talab etiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Elektron taʼlim resurslari oʻquv jarayoni sifatini oshirish, oʻqituvchi mehnatini yengillashtirish, oʻquvchilarni bilim darajasini oshirish, oʻquv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun keng yoʻl ochib beradi. Shularni eʼtiborga olgan holda umumtaʼlim maktablarining informatika fanidan elektron taʼlim resurslar yaratishga kirishildi. Bu jarayonda oʻqituvchi, psixolog, tahlil natijalarini nazorat qilish boʻyicha mutaxassis (testolog), dizayner yoki web-usta, kodlovchi (dasturlovchi) qatnashishi nazarda tutilgan. Xoʻsh, elektron taʼlim resurslar yaratuvchilar dasturiy taʼminotni yaratish boʻyicha qanday mezonlarga amal qiladilar? Ularga qoʻyiladigan umimiy talablar nimalardan iborat?

Elektron ta'lim resurslarini yaratishda amal qilinishi lozim bo'lgan mezonlar

01	Elektron ta'lim resurslarining mazmuni	05	Amaliy mashqlar va nazorat savollarining keltirilishi
02	Fanning o'quv dasturini asos qilib olishi	06	Ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanishi
03	Ma'lumotlarning hayotiyligi	07	Yoshga mos kelishini inobatga olinishi
04	Ma'lumotlardan o'z o'rnida foydalanishi	08	Foydalanish uchun yo'riqnomalar keltirilishi

Yaratilgan elektron ta'lim resurslarining ilmiylik va taqdimot sifati o'quv rejaga moslik, mavzu bayoni, til darajasi, manba tuzilishi, taqdimot va dizzayn, illyustratsiya kabi muammolarga ta'sirchanligi kabi mezonlarga javob berishi lozim. [2]

Ilmiy yangiligi. Elektron ta'lim resurslari muallif yoki mualliflar guruhi tomonidan ma'lum bir dasturlash tilida yordamida yaratiladi. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish uchun ikki variantda – on-line va off-line da yaratilishi mumkin. Elektron ta'lim resurslaridan on-line variantda foydalanishda komp'yuter texnologiyasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim. Off-line variyandta tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Elektron ta'lim resurslari Internetda ma'lum bir saytda joylashtirilishi ham mumkin. Foydalanuvchi bunday holatda kelgusida foydalanishi uchun undan nusxa olib ishlatishi mumkin.

Elektron ta'lim resurslari o'quv dasturlariga mos kelishi lozim. Elektron ta'lim resurslari tomomila yangi, ya'ni mavzular mazmunini to'liq ochib berishi uchun yetarlicha material va hajmga va o'quv-metodik maqsadlarga erishishni quvvatlovchi illyustrativ materiallarga ega bo'lishi lozim. [3]

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar elektron ta'lim resurslarini yaratishga qo'yiladigan asosiy talablar bo'lib, ular bevosita ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslari maxsus dasturlash kodlari hamda grafik, animatsion, ovoz va videotasvir elementlari yordamida yaratilgan odatdagi kitobning elektron ko'rinishidir. Uning odatdagi darslik va qo'llanmalardan farqi, ijobiy va salbiy taraflari mavjud bo'lib, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan mavjud salbiy jihatlar miqdori kamayib bormoqda. [1]

Elektron ta'lim resurslari zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida mustaqil ta'lim olishning samarali usullarini qo'llash orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallangan ta'lim resurslaridir, ya'ni darslik va o'quv qo'llanmalaridagi mavzularning raqamli ifodasidir. Elektron ta'lim resurslari zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslanib jamlanganligi va umumlashtirilganligi, ko'rgazmalarga boyligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olganligi, bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga egaligi, asosiy tushuncha va xulosalarning, ta'rif, qoida-

qonuniyatlarning matnlarini jozibali shakllar va har xil ranglarda berilishi oddiy o'quv darsliklar va o'quv qo'llanmalaridagi mavzulardan ajralib turadi.



Ilmiy natijalar. Elektron ta'lim resurslari ta'lim olishning yangi shakli bo'lgan o'qitishning asosi hisoblanadi. U o'quv fani, uning biron yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga mos holda bayon etilgan mahsulotidir. Elektron ta'lim resurslari axborot texnologiyalari asosida yuqori ilmiy-uslubiy darajada yaratilgan elektron o'quv mahsulot hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslari darslikning qisman yoki to'la o'rni bosuvchi yoki uni to'ldiruvchi mahsulot hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslari darslikning har bir darsiga mo'ljallangan mavzuning maqsadi, mazmuni va mohiyatini yoritib beruvchi, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanib yozilgan matndir. Elektron ta'lim resurslari kitobning o'rni bosa olmaydi va bosishi ham shart emas. Biror badiiy asarning kinosini yaratish yangi janr bo'lgani singari, elektron ta'lim resurslari ham darslikning boshqa janri hisoblanadi.

Elektron ta'lim resurslari o'quv jarayonida oddiy darslikdan ko'ra o'quvchi ongining qabul qilish yo'llarini, ya'ni tovush, emotsional xotiralarni jalb qilib, asosiy tushuncha, qoidalarni, misollarni tushunish va yodga olish jarayonlarini maksimal yengillashtirish uchun xizmat qiladigan axborot texnologiyalarining imkoniyatidan to'liq foydalanishi kerak. [4]

Elektron ta'lim resurslari quyidagi toifalarga bo'linadi:

1-toifa. O'quv materiallari asosan verbal matn sifatida berilib, ular giperilova va glossariyga hamda ikki o'lchovli grafiklar, diagrammalar, rasmlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi.

2-toifa. O'quv materiallari qisman giperilovali va glossariyga hamda 2D grafikli matn shaklida va 3-o'lchovli grafikdan iborat bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi.

3-toifa. O'quv materiallari matn, 2D grafiklar, video va audio animatsiyalar va 3D effektlarga ega bo'ladi. Ular o'quv materialining 25% gacha qismini oladi.

4-toifa. Elektron ta'lim resurslari virtual muhitda, zamonaviy tarmoq texnologiyalarni qo'llab, o'qituvchi bilan kompyuter tarmog'i (Internet) orqali

bog'langan holda masofaviy mashg'ulotlar olib borish darajasida yaratilgan bo'ladi.

Elektron ta'lim resurslari axborot texnologiyalari talabiga mos kelishi kerak va matn qismi chegaralangan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lgani uchun elektron ta'lim resurslari yaratishning prinsip va yondashuvlarga amal qilish kerak.

Elektron ta'lim resurslari - har bir mavzuda quyidagi komponentlar mavjud bo'lishi kerak: Nazariy qismi; Nazariy savollar; Misollar; Mustaqil yechish uchun masala va misollar; Modul bo'yicha javoblari berilgan savollar; Nazorat ishlari; Yordamchi ma'lumotlar; Izohlar; Mavzylarni o'zlashtirishni engillashtiruvchi vizual kadrlar bo'lishi kerak. [5]

Bundan tashqari elektron ta'lim resurslarini o'quvchilarning o'zlari boshqarishi, murakkab misol va masalalarni ochib, o'zini tekshirish mumkin bo'lishi, kompyuterdan yordam olish mumkinligi, ya'ni murakkab matematik hisoblar, o'z bilimini tekshirish, lug'atlardan foydalanishi va albatta elektron ta'lim resurslari o'quvchi mustaqil o'qish va bilim olishiga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Elektron ta'lim resurslari - o'qilayotgan materiallarni boshqa usullar (qabul etish yo'llari oshirish bilan) qo'llash orqali o'zlashtirishni yengillashtiradi; o'quvchining talablari, tayyorgarligi va intellektual darajasiga moslashadi; murakkab hisob-kitoblarda vaqtning tejaliishi hisobiga fan chuqurroq o'zlashtirishga sharoit tug'diradi; ishning har bir bochiqichida o'zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratadi; bajarilgan ishni faylga saqlash yoki chop qilishga imkoniyat beradi; kerakli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallarni takror-takror beradi. Elektron ta'lim resurslari - turli masalalarni echishda kompyuter yordamini ishlatish hisobiga vaqtni tejashi mumkin; o'quvchilarga mashg'ulotlarni kompyuterlarda mustaqil ishlar shaklida o'tishi mumkin; murakkab hisobli nazorat ishlari kompyuter yordamida tekshiriladi.

Elektron ta'lim resurslarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarini rivojlanishiga, ilm-fanda va ta'limda keng ko'lamli tadbiq etilishiga turtki bo'ldi. Elektron ta'lim resurslari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;
- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o'rganilayotgan mavzularni namoyish etilishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, elektron ta'lim resurslari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli bo'lishi bilan birga vaqtdan ham yutish mumkin. Elektron ta'lim resurslari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saklash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa,

materiallarni xotirada saqlab kolish 75% ortadi.

Elektron ta'lim resurslari asosida o'qitishning afzalliklari



mavzularni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi



olingan bilimlar xotirada uzoq saqlanib, amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi



ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi



ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish

Elektron ta'lim resurslari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni kompyuter asosida to'liq o'qitish, mavzularni tahrirlash, o'quvchilar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida mavzularni bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchilar axborot texnologiyalarini elektron ta'lim resurslari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko'rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Sifatli elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan turli tuman, bir biridan farqli texnologik usullar mavjud. [6]

Xulosalar. Elektron ta'lim resurslari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Elektron ta'lim resurslari tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Elektron ta'lim resurslari quyidagilarga ajratish mumkin:

1. O'rgatuvchi dasturlari.

- o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

- test dasturlari egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

2. Mashq qildirgichlar.

- avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiradi.

Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy darslardan ustunligini tasdiqlovchi ko'plab ijobiy omillar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳамидов Ж.А., Ахмедов Э.Р. Некоторые аспекты организации информационно-образовательной среды в профессиональном образовании // LX международной научно-практической конференции. “Инновационные подходы в современной науке”. -Москва, 2019 -№ 24(60).-С. 76-82.
2. Khamidov Jalil Abdurasulovich, Khujjiev Mamurjon Yangiboevich, Alimov Azam Anvarovich, Gafforov Alisher Xolmurodovich, Khamidov Odil Abdurasulovich. "Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education." Journal of Critical Reviews 7 (2020), 89-93. doi: 10.31838/jcr.07.14.13
3. Sh.A.Egamkulov. J.Mardonqulov. O‘quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni. Guliston davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. “Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda innovasion yondoshuv” mavzusida On-line konferensiya 10.05.2018
4. Sh.Egamkulov, N.Toshpulatova. Creation of methodological systems of school heometry for using information technologies. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. June-2020. Research for Revolution. ISSN № 2581-4230. Impact Factor-5.785
5. Sh.A.Egamkulov. Didaktik vositalardan foydalanib o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ilmiy axborotnoma 9-son. Namangan Davlat Universiteti. 2022-yil. (www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427)

BAHOLASH - TA'LIM JARAYONINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Baholash natijasida chiqariladigan xulosalar o‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim yo‘nalishi, ta’lim muassasasi, ta’lim dasturi yoki butun boshli bir ta’lim tizimining faoliyatiga baho berish ,natijalar bo‘yicha doimiy xulosalar berib borish va yaxshilash ,o‘rganish jarayonini foydali va samarali usullari va namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *diagnostik baholash, summativ va formativ baholash, baholashda qayta aloqa*

Mamlakatimizda ta’lim sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorida, xalq ta’limi tizimida Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu dasturdagi (MO‘D) muhim qadamlardan biri baholash komponentining ham kiritilganligi hisoblanadi. Ushbu yo‘riqnoma-uslubiy tavsiya Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi baholash komponentini amaliyotga to‘g‘ri va samarali joriy etish bo‘yicha asosiy yondashuvlar, yo‘nalish hamda shu jarayon ishtirokchilarning vazifalarini belgilaydi, muhim ko‘rsatmalar beradi. Ta’limni baholashning milliy tizimi (TBMT) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan summativ (xulosalovchi) baholashlar, ya’ni turli darajadagi imtihonlardan tortib, kundalik darslardagi

baholashlargacha (formativ baholash) bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bunda baholash va o'qitish alohida emasligini, baholash bu o'qitish jarayonining bir qismi ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, baholash faqat o'qish davrining natijalarini o'lchash uchun emas, balki o'quv yilining har kuni uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilashda muhim ekanligi tushuntirilgan. Milliy o'quv dasturining asosiy maqsadi XXI asr ko'nikmalariga ega, mustaqil, ijtimoiy faol, raqobatbardosh bitiruvchilarni yetishtirib chiqarish bo'lsa, Ta'limni baholashning milliy tizimi (TBMT) bu jarayonni haqiqatga aylantirishda muhim "kalit" vazifasini bajarishi ko'zda tutilgan. TBMT umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari, metodistlar va tegishli mutaxassislar tomonidan to'g'ri va samarali qo'llanilsa, o'quvchilarning natijalarini yaxshilashda, ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirishda, xalqaro baholash tadqiqotlarida (PISA, PIRLS, TIMSS va boshqalar) yuqori natija ko'rsatishga xizmat qiladi.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida **o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini** oldindan belgilangan mezonlar asosida **o'lchash, natijalarni aniqlash** va **tahlil etishdan** iborat jarayondir. **Baholash natijasida chiqariladigan xulosalar** o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim muassasasi, ta'lim dasturi yoki butun boshli bir ta'lim tizimining faoliyatiga baho berish uchun ishlatiladi.

Diagnostik (boshlang'ich) baholash.

Diagnostik baholash shakl jihatidan kirish bo'lib, o'quvchi ko'mpetentligining qay darajada shakllanganligini aniqlash uchun xizmat qiladi. U o'quv yili boshida o'tkaziladi va yil yakunida kutilgan natijalarga o'quvchining erishgan yutuq'ini aniqlashga imkon beradi.

Formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash-ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan baholash jarayonidir. Formativ baholashda o'quvchilarning ishni bajarish tempi, mavzuni o'zlashtirish yo'llari va boshqalar inobatga olinadi, o'quvchilarning yutuqlari va rivojlanishiga e'tibor kuchaytiriladi


Shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganish uchun baholash):

- uyga berilgan vazifalar
- dars paytida beriladigan topshiriqlar
- savol-javob
- dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari
- o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish va boshqalar.

Shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganish uchun baholash)

- norasmiy
- o'qitish jarayoniga o'zgattirish kiritish imkonini beradi
- qayta aloqa mavjud

Qayta aloqa turlari



(Hill, K. va McNamara, 2012).

Qayta aloqa turlari

1. Siz juda zukkosiz. Ishingiz juda yaxshi. Juda, juda yaxshi
 2. Juda yaxshi .Ona tili ham juda yaxshi. Menga qo'l berib ko'rishganingiz , suhbatingiz, keyin esa qo'l silkitib xayrlashganingiz yoqdi.
 3. Matnning asosiy qismlarini aniqlay olgansiz, ammouning rivojlantiruvchi qismlari tushirib qoldirilgan.
 4. Ha, shunday , yaxshi.
 5. Farqlar va umumiy jihatlar juda aniq va to'liq ko'rsatilgan.
 6. Barakalla ! 8/10 ball
 7. ✓
 8. Teatr sahnasidagi chiqish / spektakl juda qiziqarli bo'ldi, lekin bir qancha Grammatik xatolar ham qilindi.
 9. Muammoning yechimi tog'ri , ammo juda murakkab va uzun yo'l bilan yechilgan
- A. Shaxsga qaratilgan
 - B. Topshiriqqa qaratilgan
 - C. Tasdiqlovchi
 - D. Izohlovchi
 - E. Tahrirlovchi

Javoblar

1. A
2. D
3. E
4. C
5. B
6. A
7. C
8. E
9. D

Samarali qayta aloqa

- O'quvchilar bajargan ishning sifatiga e'tibor qaratadi.

- Muvaffaqiyatning belgilangan mezonlari bilan bog‘liq bo‘ladi
- Muvaffaqiyat va yutuqlarni aniqlaydi.
- Takomillashtirish bo‘yicha taklif beradi.
- O‘quvchilarni fikrlashga undaydi.
- Yaxshilanishi uchun vaqt beradi.

Xulosalovchi (summativ) baholash – ta‘lim dasturi yoki uning bir qismi so‘ngida erishilgan natijani rasmiy baholash.

Xulosalovchi (summativ) baholash.

Baho berish: ta‘lim oluvchiga baho berish

Ta‘lim beruvchiga baho berish

Tanlash:

Belgilangan talabga javob beradiganlarni tanlash

Cheklangan kvota sharoitida tanlash

Ba‘zan baholash jarayonida **ta‘lim oluvchi qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalarga ham erishadi.** Ta‘limjarayonida o‘zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi.


Shu bois baholashni ta‘lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Formativ va summativ baholashga oddiy misol

Oshpaz ta‘om tayyorlash jarayonida shorvani ta‘tib ko‘rayotganda- bu formative baholash;

Ta‘omni istemol qilayotgan jarayon esa summativ baholash hisoblanadi.

Dars jarayonida beriladigan savollar



Summativ baholashning turlari



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchi, o‘qituvchi, ta‘lim yo‘nalishi, ta‘lim muassasasi, ta‘lim dasturi yoki butun boshli bir ta‘lim tizimining faoliyatiga baho berish uchun ishlatiladi. Ushbu ma‘lumotni olganidan so‘ng o‘qituvchilar har

bir o'quvchining yutuqlari, shuningdek guruh/sinfning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'qitish shakllari, usullari va metodlarini o'zgartirishlari mumkin.

Baholashda asosiy e'tibor o'quvchida ko'nikmalarning qay darajada shakllanganligiga emas, o'quvchi tomonidan o'quv adabiyotidagi kontentni qay darajada o'zlashtirganligiga (yod olish/esda saqlab qolish) qaratiladi. Yuqoridagi kabi yutuq va kamchiliklar o'rganiladi va TBMTning asosiy yondashuv va yo'nalishlari, baholash mexanizmi ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. [Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
3. Andrade, H. (2008). Self-assessment through rubrics. *Educational leadership*, 65(4), 60-63.
4. Andrade, H. G. (2001). The effects of instructional rubrics on learning to write. *Current issues in education*, 4.
5. Brookhart, S. M. (2013). How to create and use rubrics for formative assessment and grading. Ascd.
6. Brookhart, S. M. (2018). Appropriate criteria: key to effective rubrics. In *Frontiers in Education* (Vol. 3, p. 22). Frontiers Media SA.
7. Dixson, D. D., & Worrell, F. C. (2016). Formative and summative assessment in the classroom. *Theory into practice*, 55(2), 153-159.
8. Jalilov, K. (2020) Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogika o'lchovlar). Toshkent Akademnashr.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MORFEMANI O'QITISH MUAMMOLARI VA ECHIMLARI

Abdullayev Jumanazar

Guliston davlat universitet dotsenti

Annotatsiya: Morfemika va uning birligi morfema maktabda boshqa, kollej, litseyda boshqa, oliy maktabda yana boshqa o'qitilmoqda, hatto oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha farqli holatlar kuzatiladi. Ilmiy hayotda hali ta'lim tizimiga kirib bormagan, bulardan ham farq qiluvchi yana bir boshqacha qarashlarga ham duch kelib qolishingiz mumkin. Maqolada morfemaning o'qitish bo'yich ayrim muommolar va ularning yechimi bayon etilgan

Biz olib borgan kuzatishlar hozirda uzluksiz ta'lim tizimida lisoniy birliklardan biri bo'lgan morfema 3-4 xil talqinda o'qitilayotganini ko'rsatdi. Bu esa ana shu talqin-tavsiflar o'quvchi-talabalar, magistrantlar, tinglovchilar ongiga singdirilmoqda deganidir. Talqinlar bir-birini izchil to'ldirib, takomillashtirib borsa, inkor etmasa, ziddiyatlar bo'lmasa, buning hech qanday ziyoni yo'q, aksincha, shunday bo'lishi zarur. Biroq, amaldagi ahvol bunday emas. Morfemika va uning birligi morfema maktabda boshqa, kollej, litseyda boshqa, oliy maktabda yana

boshqa o'qitilmoqda, hatto oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha farqli holatlar kuzatiladi. Ilmiy hayotda hali ta'lim tizimiga kirib bormagan, bulardan ham farq qiluvchi yana bir boshqacha qarashlarga ham duch kelib qolishingiz mumkin.

Ilmda shunday bo'lgani yaxshi, chunki u shunaqa maydon: har kim o'z nuqtai nazarini aytishga haqli va har xil qarashlarning bo'lishi odatdagi, tabiiy hol. Fikrlar "jangi"da kimning, qaysi talqinning zo'rligi, kuchi bilinadi. Biroq ta'lim tizimida har xilliklarning bo'lishi ijobiy hol hisoblanmaydi. Chunki bu o'qitishning sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi, hatto unga putur etkazadi, deyish mumkin. Hozirgi o'zbek tili ta'limi, xususan, morfemalarni o'qitish shunday jarayonni boshdan kechirmoqda. Morfemaning har xil talqinini birgina filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishining o'zida, unda foydalanilayotgan o'quv ada-biyotlarida ham kuzatish mumkin. Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz.

Tadqiqotchi H.Ne'matovning morfema haqidagi qarashlari uning prof. R.Rasulov bilan hamkorlikda e'lon qilingan o'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Sistem leksikologiya asoslari" o'quv qo'llanmasida ifodalangan. Qo'llanma sistem tilshunoslik yo'nalishi-dagi dastlabki jiddiy tadqiqot bo'lganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Unda tadqiqotchilar til(lison) farqlanishidan kelib chiqib, morfemani odatdagidek, so'zning eng kichik ma'noli qismi maqomidagi nutqiy hodisa emas, balki til(lison) birligi - ongda, til xotiramizda saqlanuvchi tayyor holdagi bo'linmas ma'noli lisoniy birlik sifatida belgilashgan. Boshqacha aytganda, qo'llanmada morfema — tilning eng kichik, ma'noli birligi bo'lib, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan lisoniy birlik sifatida talqin qilingan³². Bu to'g'rimi, noto'g'rimi?

Morfemaning an'anaviy talqinidan jiddiy farq qiluvchi mazkur talqinga A.Hojiev, umuman olganda, ijobiy baho bergan, uning to'g'ri bo'lganini alohida qayd etgan. "Biroq, - deydi zakiy tilshunos fikrini davom ettirib, - morfemaning, u bilan bog'liq hodisalarning mohiyati masalasida hozirda ham to'g'ri va aniq bir fikrga kelingani yo'q. Shunday bo'lishi ham tabiiy. Chunki hozirda o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, tayyor holdagi har qanday birlik lisoniy birlik morfema deb qaralyapti... Vaholanki, qayd etilayotgan birliklar o'z mohiyatiga ko'ra, ma'no-vazifasiga ko'ra bir-biridan tamoman farqlanadi. Binobarin, ularning hammasini lisoniy birlikning bir turi deb baholash to'g'ri bo'lmaydi va ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan hech narsa bermaydi. Aksincha, bu narsa o'ziga xos xatoliklarning, ortiqcha bahs-munozaralarning yuz berishiga sabab bo'ladiki, hozirda bunday holatlarning guvohi bo'lib turibmiz."³³

Haqiqatan, mazkur ta'rif bo'yicha biz bilgan, xotiramizda tayyor holda saqlanadigan, ma'no-vazifasi va shakli hammamiz uchun tanish, umumiy va shu bilan birga, majburiy bo'lgan, ma'noli qismlarga bo'linmaydigan aynan qanday va

³² Неъматов х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1995.12- б.

³³ Ҳожиёв А. Тил қурилишининг асосий бирликлари юзасидан мулоҳазалар// ЎТА.2004, 3-,5- сон,35- б.

qaysi til birligini morfema deyish kerak, degan savolga aniq javob topib bo'lmaydi. Demak, bu erda, birinchi galda, qaysi va qanday birlikni, aynan nimani, qanday ma'no va vazifa bajaradigan til birligini morfema deyish kerak? degan asosiy masalani muhokama qilib olish, unga aniq, ilmiy asosli javob topish lozim bo'ladi. Bu masala ilgari ham ko'tarilgan va morfemaning mohiyati o'sha davr tilshunosligi nuqtai nazaridan ochib berilgan, unga shu ochilgan mohiyatiga yarasha ta'rif berilgan, qanday birlik morfema deb atalishi, ya'ni so'zning eng kichik ma'noli qismi morfema³⁴ deyilishi lozimligi belgilangan edi (bu ta'rif, har xil salbiy munosabatlarga qaramasdan, hozirda ham ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q).

Gap shundaki, sistem-struktur tilshunoslikka oid keyingi tadqiqotlarda uning lisoniy birlikligi to'g'ri qayd etilgan bo'lsa-da, unga uning o'zidan emas, morfemadan boshqa birliklarni ham qamrab oluvchi lingvistik tushunchadan kelib chiqib baho berildi. Natijada til birliklarini aniqlash borasida morfemaning va u bilan bog'liq boshqa masalalarning, A.Hojiev ta'kidlagan va yuqorida ko'rilgan to'g'ri va aniq yechimini topish mumkin bo'lmagan o'ta chigal va chalkash vaziyat yuzaga keldi. Bunday chigal har xilliklarga hatto til birliklarini nihoyatda aniq va izchil ta'riflovchi prof. Sh.Rahmatullaev ham barham bera olmagan ko'zga tashlanadi. To'g'ri, uning morfemaga qarashida jiddiy ijobiy siljishlar bor. U lug'aviy birliklarni ham morfema doirasiga kiritib yuborgan prof. H.Ne'matov, R.Rasulovdan farqli o'laroq, morfemani grammatik ma'noli birlik sifatida talqin qildi, uning mohiyatini grammatik ma'noli bo'linmas lisoniy birliklar qatorida deb bildi: "M o r f e m a til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo'lib, leksemadan farqli holda grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi (yunoncha *morphe* - 'shakl')"³⁵

Ushbu ta'rif morfema mohiyatiga ancha yaqin kelganligi bilan xarakterlanadi. Chunki bunda so'zning o'zak morfema,leksik(lug'aviy) morfema deb kelingan lug'aviy ma'noli asosi morfema emas, asli lug'aviy ma'noli so'z(leksema) bo'lgani uchun haqli ravishda morfema doirasidan chiqarilgan. Lekin, baribir, u ham tom ma'nodagi morfemani aniq belgilashga, uni boshqa til birliklaridan farqlanuvchi asosiy ma'no-vazifasini aniq qayd etishga ojizlik qiladi. Chunki so'z yasovchi morfemani shakl yasovchi morfema singari grammatik ma'noli birlik deyish to'g'ri bo'lmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, u so'z yasovchi ma'noga ega. Bunday ma'nolar semantik ma'no emas, funktsional ma'no bo'lib, bevosita anglashilib turmaydi, yashirin holda bo'ladi. Lug'aviy ma'noli asos - leksik birlikka qo'shilishi bilan uning lug'aviy ma'no xaarkteridagi, biroq funktsional ma'no ekanligi anglashiladi. Xuddi shu narsa uni grammatik shakl emas, so'z yasashga xizmat qilishida o'z ifodasini topadi va natijada yangi lug'aviy ma'noli so'z yasaladi. Demak, mazkur ta'rif morfemaning ma'nosi, mohiyati bilan bog'liq bir jihatni to'g'ri qayd etib, uni

³⁴ Усмон О.,Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. Т.,1939 46-48-б. Фуломов А. Ўзбек тилининг морфем луғати. Т.,1978; Ҳозирги ўзбек адабий тили. II қисм. Т., 1980. 159-б.; Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. Т., 1992. 10-б.

³⁵ Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. T., 2006, 107-b.

lug‘aviy ma’noli asos -so‘zdan ajratishga, chegaralashga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomonini aniq aks ettirish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli bu talqin ham morfemaning to‘laqonli ta’rifi bo‘la olmadi.

Zero, barcha grammatik ma’noli birliklar ham so‘z yasash va so‘z shakli yasashga xizmat qilmaydi. Morfema esa xuddi shunday birlik hisoblanadi. Buni akademik A.Hojiev o‘z ishlarida qayd qilib o‘tadi va shundan kelib chiqib, u morfemani funktsional ma’noli birlik – yasovchi birlik sifatida talqin qildi, uning mohiyati funktsional ma’no-vazifasi bilan belgilani-shini quyidagi ta’rif bilan ilmiy asosda dalillab ham berdi: **“Morfema-so‘z yasalishi va so‘z shaklining yasalishi uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik”**.³⁶ Bizningcha, morfemani o‘qitish uzluksiz ta’lim tizimida A.Hojiev ta’rifi asosida olib borilsa, bu boradagi murakkabliklarga, ortiqcha tasnif va tavsiflarga³⁷ o‘rin qolmaydi.

Bundan ayon bo‘lyaptiki, morfemaning mohiyati maktab darsliklarida ham o‘z ifodasini topgan so‘zning eng kichik ma’noli qismi bo‘lib kelishida emas (bu uning o‘z vazifasini bajarib, funktsional ma’nosini namoyon qilib bo‘lgandan keyingi holatini ifodalaydi, xolos), balki uning ayni funktsional ma’no-vazifasida – uning yangi so‘z yasalishi va so‘zshakli hosil qiluvchi vosita sifatida xizmat qilishida – yasovchilik funktsiyasida.

Shu sababli A.Hojiev morfemaning ana shu funktsional ma’nosiga e’tibor qaratdi, morfemaning mohiyatini uning funktsional ma’nosidan, vazifasidan qidirdi va topdi: uni *yasovchi birlik*, *yasovchi vosita* sifatida talqin qildi.

Bu shundan dalolat beradiki, morfema leksemadan farqli o‘laroq, sof semantik birlik emas, uning ma’nosi bevosita anglashiladigan, mustaqil faoliyat yuritadigan ma’no sirasiga kirmaydi. Shuning uchun morfemaga sof ma’noviy omilga asoslanib, uni asosiy tavsiflovchi, tasniflovchi belgi sifatida olib, to‘g‘ri va maqsadga muvofiq ta’rif berib bo‘lmaydi. Bizningcha, A.Hojiev shunday xulosaga kelgan. U morfemani semantik ma’noli birlik deb emas balki funktsional ma’noli birlik deb bildi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, asos e’tibori bilan, mohiyat nuqtai nazaridan farq qiladi. Semantik birlik tom ma’nodagi mustaqil birlik, uning ma’nosi bevosita, boshqa til birliklarisiz ham anglashilaveradi. Shunday xususiyatga ega birliklarnigina aslida ma’noli (semantik) birlik deyish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, tovushga zidlab, ma’noli birliklar deyilgan ayrim birliklarning mohiyati ochilmasligi, chalkashliklar yuzaga kelishi aniq. Morfema muammosi buning yaqqol isboti.

Yuqoridagilarga ko‘ra, biz morfemani A.Hojiev ta’rifi asosida talqin qilish va o‘qitish maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaymiz. Bu ta’rifda morfemaning tasnifiy mohiyati ham mujassam. U o‘z ichida so‘z yasovchi va shakl yasovchiga bo‘linadi. Aslida har qanday ta’rif xuddi shunday tabiatli bo‘lishi lozim. Zero, ta’rif muayyan

³⁶ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т.,2010, 35-б.

³⁷ Бу ҳақда қаранг. Нурмонов А. ва б.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.: Янги аср авлоди. 2001.46-51-б. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. Т.,1992. 31-б.

birlikning o'zigagina xos, uni boshqa birliklardan ajratib turuvchi ma'noviy-vazifaviy tavsifidir.

Adabiyotlar

1. Boduen I.A. de Kurtene. Vvedenie v yazo'kovedenie. L., 1913. 14.
2. Nurmonov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. T. 2001. 31-b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" T., 1995.
4. Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. darslik T., 2006.
5. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.
6. Tojiev Yo. O'zbek tili morfemikasi. T., 1992.
7. Gulomov A. O'zbek tilning morfem lug'ati. T. 1978

O'QITUVCHILARDA AXBOROT MADANIYATINI SHALLANTIRISH ASOSLARI

K. Eshquvatov

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi dotsenti

Ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, takomillashtirish va axborotlashtirish ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, talabalar axborot kompetentligini shakllantirish uchun internet resurslaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtidagi professor-o'qituvchilardan yuksak axborot madaniyatini taqozo etdi. Bugungi kunda bunday axborot madaniyati professor-o'qituvchi kasbiy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchilarning axborot madaniyati deganda avallambor axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va qo'llash, usul va uslublarini o'zlashtirilganligini bildirgan bo'lib, atrofdagi olamdagi axborot jarayonlari haqidagi bilim va tasavvurlarni aks ettiruvchi axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish, axborot kommunikatsiya tizimi bilan bog'liq aqliy va yuridik me'yorlarni o'zlashtirish kompyuter savodxonlikka ega bo'lish kabi fazilatlarni o'z ichiga kiritadi.

O'qituvchining kompetentligi kompyuter savodxonligini hamda axborotni izlab topish ko'nikmalariga ega bo'lishlikni, axborotdan foydalanish va uni baholay olish, kompyuter-kommunikatsiyalari texnologiyalarini o'zlashtirishni bildiradi.

Zamonaviy axborot resurslari o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatini butunlay yangicha qurishga imkon beradi. Bu holda o'qituvchi quyidagi sifatlarda o'zini ko'rsata oladi:

- O'qituvchi sifatida darslarni o'tkazadi, o'quv-uslubiy ta'minotdan to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlaydi;
- Maslahatchi sifatida bilish jarayonini nazorat qiladi, guruhlarda maslahat soatlari, kommunikativ mashg'ulotlar olib boradi, talablarga fanning turli

muammolari bo'yicha maslahat beradi;

- Menejer sifatida guruhlarda mashg'ulotlarni o'tkazishni boshqaradi, fan maqsadlariga erishishni nazorat qiladi (test, imtihon v b)

Oliy o'quv yurtlarining axborot-kompyuter vositalari bilan ta'minlanganligi nafaqat professor-o'qituvchilar balki bakalavriyat va magistraturada tahsil olayotganliklarining kompyuter savodxonligi oshib bormoqda. Endilikda bilim olish jarayonini takomillashtirish, axborot mahsulotlarini yarstish, o'quv dasturlari, electron darsliklar va qo'llanmalar yaratish o'qituvchilar axborot kompetentligini rivojlantirishdagi muhim qadam bo'lmoqda. Bugungi kunda bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun o'qituvchi talabalarini tadqiqot ishlariga jalb etishni, ta'lim portallarini yaratishda ularni faol ishtirok etishga qiziqtirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari mashg'ulotlar davomida multimedia taqdimotlarini yaratish va ulardan foydalanish axborot-kommunikatsiya darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Fan o'qituvchisi multimedia ma'ruzalarini, topshiriqlar testlar, krossvordlar va boshqa turli-tuman materiallarni tuzish, bu ishga talabalarni jalb qilishi mumkin. Kompyuterdagi ma'ruza yoki elektron darslik olishda namoyish vositalari (slydlar, videoroliklar, animatsiya)ni jamlagan bo'lib, talablarga obrazli tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Fan bo'yicha o'quv namoyish materiallarini yaratish va to'plash jarayoniga o'qituvchi talabalarni jalb qilishi mumkin. Ayniqsa, talabalar mustaqil ishlarni bajarish davomida turli axborot resurslaridan kerakli materiallarni izlab topib taqdimot tariqasida himoya qilishlari mumkin. Bunday faoliyat talabalarning bilim olishda faolligi mustaqilligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda internet resurslarisiz tasvvur qilish qiyin. Internet tarmog'i ta'limiy xizmatlarinining ulkan salohiyatiga ega. Elektron pochta izlash tizimlari, electron konferensiyalar, testinglar, electron olimpiada va viktorinalar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ushbu ta'limiy xizmatlar mashg'ulotda ham qo'llanilishi mumkin. Internetdagi ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchisidan ta'lim jarayoni menejeri sifatida maydonga chiqishga turtki beradi.

O'qituvchi axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta'limini moderniztsiyalash jarayoning ajralmas qismidir. Kompyuterda ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish o'qituvchi kasbiy axborot faoliyatidagi dastlabki qadam hisoblanadi. Pedagogik faoliyat tuzilmasida axborot madaniyatining ro'lini oshirish quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi.

- Axborot hajmining keskin oshib borishi;
- Zamonaviy fanning differensiya va integratsiyasi natijisida axborotning tarqalib ketishi;
- Ilmiy va ijtimoiy paradiagmalarini o'zgarishi natijasida bilimlarning

eskirib borishi

O'qituvchi axborot kompetentligining asosiy ko'rinishlaridan biri uning o'z tajribasini taqdim eta olish qobiliyatidir. O'qituvchilar ishchi dasturlari, hisobotlar va boshqa xujjatlarni kompyuterda bajara olishi, ularni innovatsiyalarga tayyor bo'lgan malakali mutaxassis sifatida tavsiflaydi. Umuman olganda esa yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga tatbiq etishi an'anaviy texnologiyalardan voz kechish kerakligini bildirmaydi. Ular o'zaro hamjihatlikda qo'llanilishi lozim. Kompyuter vositalari va axborot tevnologiyalari ta'lim tarbiya jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini ko'rsatadi.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Supiyeva Buxolida Abduvaliyevna,

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d.

Annotatsiya: *ushbu maqola malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini takomillashtirish mazmuni bo'yicha mulohazali fikrlar, taklif va tavsiyalar berilgan.*

Аннотация: *в данной статье приведены обдуманые мнения, предложения и рекомендации по содержанию совершенствования творческой деятельности слушателей в процессе обучения.*

Abstract: *this article provides thoughtful opinions, suggestions and recommendations on the content of improving the creative activity of students during the training process.*

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tinglovchilarning deyarli ko'pchiligi o'zini-o'zi rivojlantirish tafakkuriga ega emas va ijodiy faoliyatning maqsadi va mohiyatini tavsiflashda qiynaladi. Shu sababli malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatlarini takomillantirib borish dolzarb masala hisoblanadi.

Professor-o'qituvchi tinglovchining individual xususiyatlarining diagnostikasini tahlil qilib, tinglovchini qayta kasbiy rivojlantirish rejasini tuzishi kerak. *Individual xususiyatlarining diagnostikasi* – bu professor-o'qituvchi tomonidan tinglovchining ehtiyojlari va qiziqishini, bilimidagi mavjud bo'shliqlarni, imkoniyatlarini hamda xatti-harakatini tahlil qilish, u bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish tushuniladi.

Professor-o'qituvchi tinglovchi ijodiy rivojlanishining strategik loyihasini ishlab chiqishda, tinglovchining individual xususiyatlarini, fikrlashning ustun jihatini (mantiqiy, strategik yoki hissiy) bilishda, ongli ravishda o'qitishning samarali uslublari va usullarini tanlashi kerak[72]. O'rgatishda va buni amalga oshirish yo'lini izlashda professor-o'qituvchi – *fasilitatsiya, tyutoring, mentoring,*


kouching kabi innovatsion ta'lim paradigmalari asosini bilishi kerak, va ularning biriga aylanishi kerak.

Fasilitatsiya – inglizcha “facilitate” so‘zidan olingan bo‘lib “yordam berish, osonlashtirish, hissa qo‘shish” degan ma’nomlarni anglatadigan boshqaruv uslubi bo‘lib, professor-o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasida trenerlik (fasilitator) vazifasini bajaradi.

Tyutoring – professor-o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasida pedagogik-psixologik jarayonlarni muvofiqlashtiradi. Professor-o‘qituvchi tinglovchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirishda yordam beradi, tahlil qiladi va baholaydigan trenerdir (tyutor). Tyutorning asosiy vazifasi tinglovchiga ta’lim jarayonida o‘zini ko‘rsatish, kuchli tomonlarini rivojlantirish, zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Mentoring – yunon tilidan olingan bo‘lib, “ustoz-o‘rgatuvchi” (trener) degan ma’noni anglatadi. U kishilarning maqsadlariga erishish yo‘lida beminnat xizmat qiluvchi, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan trenerlar. Ular kishilarning maqsadlariga erishish yo‘lida katta motivatsiyani bera oladilar.

Kouching – “coaching” bu atama ingliz tilidan olingan bo‘lib, “mashg‘ulot” degan ma’noni anglatadi. U tinglovchini muvaffaqiyatli faoliyatga yo‘naltiradigan ta’lim uslubidir. Kauch – bu psixolog-trenerdir. Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda fasilitar, tyutor, mentor va kouchlarning vazifasi “*Ustoz-shogird*” an’analarini davom ettirishdir (pedagogik-psixologik trenerlar). Ijodkorlikni rag‘batlantirishning muhim nuqtasi motivatsiyani yaratish va mustahkamlashdir. Shu bilan birga, motivlarning mazmuni ham har xil bo‘lishi mumkin. Qiziqish, ehtiyoj va xohishlar ijodkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ular tinglovchini ijodiy faoliyatni amalga oshirishga undaydi.



2.1-rasm. Ijodkorlik nazariyasida ijodkorlikni shakllantirishning olti usuli

O‘qituvchi faoliyatiga *tashqi va ichki motivlar* ta’sir qiladi. Ichki motivlar kognitiv ehtiyoj, bilish va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonidan olingan zavq tufayli shaxsiy xarakterga ega. Ichki motivatsiya yuqori kognitiv faollikning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Tinglovchining ijodiy faoliyatining namoyon bo'lishi va shakllanishining darajalari quyidagi bosqichlarda tavsiflanadi:

I bosqich *har doim namoyon bo'ladigan qiziqish, tinglovchining kasbiy-pedagogik faoliyatiga aniq yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.* Bu darajadagi o'qituvchining ijodiy faoliyati bir xil takrorlanayotgan (nusxa ko'chirayotgan) bo'lsa-da, ahamiyatlidir. Chunki o'qituvchi ma'lum miqdordagi bilimlarni to'playdi, bu esa shaxsiy ish faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Buni quyidagi jadvaldan ham bilib olsa bo'ladi:

№	Tinglovchi	Natija
1.	Yangi mavzuni tushuntirib beradi (ma'ruza, savol-javob)	O'quvchilarga bilim beradi
2.	Darsning asosiy qismida mashq va topshiriqlarni bajartiradi	O'quvchi berilgan topshiriqlar asosida mavzu bo'yicha ko'nikmasini shakllantiradi
3.	Mavzuni mustahkamlash jarayonida turli didaktik va autentik materiallardan foydalanadi	O'quvchilar turli ta'lim metodlari asosida mavzuni mustahkamlaydi

II bosqich *boshqalar faoliyatini o'rganish va takrorlash bilan tavsiflanadi.* Bunda variantni tanlash onson bo'lsa-da, biroq tayyor va mavjud tajribani amalga oshirish jarayonida shaxsiy ish faoliyatida to'plangan yangi bilimlarga xususiyatlarini moslashtiradi ya'ni kombinatsiyalashtiradi. Shuning uchun bu bosqichdagi o'qituvchi faoliyatining xarakterini ijodiy taqlid qilish deb atash mumkin:

№	Tinglovchi	Natija
1.	Tayan maktabida o'rganib kelgan dars o'tish metodi bilan ishlaydi. Masalan, "Telefon jiringlar", "Qor parchasi", "Kim topdi?", "Nishonga ur!" va boshq.	O'quvchi yangi metodlar asosida o'tilgan darsda ko'proq bilimga ega bo'lishni boshlaydi
2.	O'rgangan metodlarni o'zgartirishga harakat qiladi	O'qituvchi-o'quvchi hamkorligi shakllanadi
3.	O'zining ijodiy salohiyati bo'yicha o'z pedagogik uslubiga moslashtiradi.	Mazkur darsda o'quvchilar noma'lum metod bo'yicha bilim olishda oldindan mavjud ko'nikmalaridan foydalanadi

III bosqich – *taqlid qiluvchi (ko'paytiruvchi) harakatlar umumiy sonining bosqichma-bosqich kamayishi va shu bilan birga, tashabbusning ko'payishi orqali o'qituvchi faoliyatining boyishi va muvofiqlashtiruvchi harakatlar (ular asosida yuzaga keladigan taqlid va tashabbuskorlikni muvofiqlashtirish).*

№	Tinglovchi	Natija
1.	Tayan maktabida va ochiq darslarni kuzatish jarayonida berilgan har bir	O'quvchilarning fanga nisbatan bo'lgan qiziqishi oshadi, mavzuni yaxshiroq tushunadi,

	fikrga o'z bilimi doirasida munisabat bildirishni boshlaydi. Masalan, "Menimcha", "balki", "nima deb o'ylaysiz", "to'g'riroq bo'lar edi" degan e'tirozli, biroq, tahliliy fikrlarni bildirishni boshlaydi.	o'qituvchining o'z ustida ishlayotganligi hamda darslarning mazmuni oshayotganini sezadi.
2.	Zudlik bilan o'rgangan metodi asosida o'zining yangi ishlanmasini yaratadi	Ijodkorligi oshadi
3.	Endi o'zi ham yangi metod va usullarni yaratish bo'yicha ishni boshlaydi	Ijodiy salohiyati osha boshlaydi

O'qituvchi mazkur bosqichda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi va farqlay olishi, dars o'tishning yangi usullarini o'ylab topishi va amaliyotga joriy etishi bilan tavsiflanadi. Bu real va ideal faoliyatga yaqinlashganidan dalolatdir. Boshqacha qilib aytganda, bu bosqichni shaxsning birinchi muhim ijodiy yutuqlari bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Buni quyidagi jadvaldan ham bilib olsa bo'ladi:

IV bosqich *taqliddan mustaqil ijodga o'tish bilan tavsiflanadi.* O'qituvchining faoliyati namunali o'qituvchining shaxsiyati bilan identifikatsiyadan ozod qilish, taqlid qiluvchi harakatlar sonining keskin kamayishi, ijodiy harakatlar sonining ko'payishi bilan birga keladi va yuqori, barqaror ijodiy mahsuldorlik bilan tavsiflanadi. Buni quyidagi jadvaldan ham bilib olsa bo'ladi:

№	Tinglovchi	Natija
1.	Tinglovchi mavjud bilimlari asosida har xil usullarni topa boshlaydi, ijod qiladi. Masalan, "Kim chaqqon", "Buzuq telefon", "Ortiqchasini top", "Mosini top" va boshq.	O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda maqsadga eltuvchi yo'lni topishadi.
2.	Izlanib yaratgan usulini boshqalarga o'rgatish istagi paydo bo'ladi	Tajriba almashuv amalga oshiriladi
3.	Ochiq dars va mahorat darslarini o'tib berishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. O'z g'oyalarini himoya qilishga tayyor bo'ladi	Ta'lim mazmuni va sifati osha boradi

V bosqich – *kasbiy rivojlanish va ijodiy o'sish.* O'qituvchining ijtimoiy faolligi, shaxsiy ijodiy faoliyat uslubining borligi, bu orqali o'z fikrlarni o'tkazish hamda ijodiy jamoalarni yaratib, loyihalarni makon va zamonga monand amalga oshirishga o'tish, boshqalarni ortidan ergashtirib, nostandart vazifalarini hal qilishga qodirligi bilan tavsiflanadi. Buni quyidagi jadvaldan ham bilib olsa bo'ladi:

№	Tinglovchi	Natija
1.	Tinglovchining shaxsiy faoliyat uslubi vujudga keladi. Ustoz tanlaydi.	O'z fani bo'yicha bilimdon ustozga aylana boshlaydi
2.	O'z g'oyalari va ijodiy fikrlarini o'tkazishni boshlaydi.	Ijodiy salohiyati oshadi

3.	O'z atrofida ijodiy guruhlarini tashkil etadi hamda ilmiy izlanadi	Ijodiy faoliyati takomillashadi
----	--	---------------------------------

Ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, *faollikni* quyidagicha harakat birligini aniqladik:

Faollikning harakat birliklari

№	Birliklar	№	Birliklar	№	Birliklar
1.	Harakat	6.	Tana harakati	11.	Qat'iyat
2.	Energiya	7.	Samaradorlik	12.	Hujumkor
3.	Tashabbus	8.	Moslashuvchan	13.	Jonlanish
4.	Temperament	9.	Bezovtalik	14.	Tafakkur
5.	Qobiliyat	10.	Talabchan	15.	Tez fikrlash

Tinglovchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda quyidagilarni o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Professor-o'qituvchi ish faoliyati bilan bog'liq usullar: bilimlarni suhbat vositasi (ma'ruza metodi)da bayon qilish; bilimlarni tinglovchilarga yetkazishda har xil o'yinlardan foydalanish (didaktik o'yinlar); bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish (muammoli ta'lim); zamonaviy texnik vositalar orqali (slyayd, video roliklar, filmlar va h. kazo); IT asosida mavzuni o'zlashtirish; ko'chma va sayohat orqali mavzuni tinglovchilarga yetkazish kabi metodlar.

2. Tinglovchi faoliyati bilan bog'liq metodlar: reproduktiv (tayyor o'quv materialini bilan ishlash); qisman izlanuvchanlik; ijodkorlik, zukkolik kabi texnologiyalar yordamida mavzuni yoritib berish. Yangilangan ta'lim metodikasi umumjahon pedagogikasida samarali hisoblangan ongli verbal-kognitiv ta'lim tizimiga asoslangan holda takomillashtirilishi, interfaol metodlar asosida takomillashtirilishi zamon talabiga mos, milliy me'yorlarga uyg'un bo'lishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, o'qituvchi o'z ustida uzluksiz ijodiy ishlamas ekan, bugungi zamonaviy o'quvchini faniga qiziqтира olmaydi. O'quvchining qiziqishi, ehtiyojlari va imkoniyatlariga asoslanib, dars jarayonini loyihalash kerakligini unutmasligi kerak. Hozirgi zamon bolasi axborot asrida ma'lumotlarni tez o'rganmoqda, agar o'qituvchi undan o'zib ketmasa, o'zining o'rnini o'quvchiga bo'shatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.R.Aripjanovaro Ta'limni axborotlashtirish shartlarida oliy ta'lim massalari o'qituvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.: 2017. – 148 b.

2. B.A.Supiyeva. Malaka moshirish jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T.:2023. – 133 b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich

GulDU doktranti, suyunovilhom777@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida qaror topgan munosabat mazmuni o'zgarib, yangicha qarashlar vujudga keldi. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonida rivojlangan bozor munosabatlari ustuvor o'rin egallayotgan bo'lsa, madaniy sohada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish – ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida olib borilayotgan harakat davlat va jamiyat qurilishining umumiy mohiyatini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Texnologiya, texnologik xarita, texnologik rejim, optimal, pedagogik texnologiya, pedagogik texnika, texnologik operatsiya.

Annotation: The content of attitudes in the social, economic and cultural spheres of society has changed and new views have emerged. While developed market relations are a priority in the process of economic production, achieving harmony of national and universal values in the cultural sphere is recognized as one of the key factors in ensuring social development. The movement in the socio-political sphere of public life reflects the general essence of state and society building.

Key words: Technology, technological map, technological mode, optimal, pedagogical technology, pedagogical technique, technological operation.

Hozirgi paytda ko'p mamlakatlar, shu jumladan Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning barchasi ma'lum umumiylikka ega bo'lib, ular xususiy jixatlariga binoan tasniflanishi V.S.Kukushin., G.K.Slevko., G.Berdiev kabi ko'plab olimlar tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, shu bilan bir vaqtda hozirgi paytda amaliyotda quyidagicha nomlangan pedagogik (ta'lim) texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilib ijobiy natijalar olinmoqda: [3]

1. Individual ta'lim texnologiyasi
2. Jamoaviy ta'lim texnologiyasi.
3. Ishbilarmonlik yoki rolli o'yin ta'lim texnologiyasi.
4. Muammoli ta'lim texnologiyasi.
5. Axborot ta'lim texnologiyasi.
6. Dasturli ta'lim texnologiyasi.
7. Modulli ta'lim texnologiyasi.
8. Mualliflik ta'lim texnologiyalari.
9. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.
10. Masofaviy ta'lim texnologiyasi.
11. Faol ta'lim texnologiyasi.
12. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi.
13. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi.
14. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi.
15. An'anaviy ta'lim texnologiyasi.

16. Baholamasdan va yo‘qlama qilmasdan o‘qitish (erkin ta‘lim) texnologiyasi.

17. Asosiy materiallarni ajratib olib o‘rganish texnologiyasi.

18. Yiriklashtirib o‘qitish texnologiyasi.

19. Jadal ta‘lim texnologiyasi.

20. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi.

21. Erkin ta‘lim texnologiyasi.

22. Keys-stadi texnologiyasi

«Texnologiya» - yunoncha «techne» so‘zidan olingan bo‘lib, mahorat, san‘at va «logos» - so‘z, ta‘limot ma‘nosini anglatadi.

Texnologiya- jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yio‘indisi, shuningdek ob‘ektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlar tushiniladi.

Texnologik jarayon – mahsulot ishlab chiqarishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalar yio‘indisi

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o‘zining ish o‘rnida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko‘rinishidagi texnologik jarayonning bir qismi

Texnologik xarita - ma‘lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma‘lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar tahlilidan kelib chiqib, har qanday so‘z, tushunchalar jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan boo‘liq holda muomalaga kiritiladi. [3]

Shu o‘rinda «pedagogik texnologiya» nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlaylik, sho‘rolar tuzumi davri 30–yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarga paydo bo‘la boshladi va u o‘quv masho‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan usul va vositalar yio‘indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrlarda pedagogik texnika deb o‘quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50 yillarda esa o‘quv jarayoniga o‘qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi pedagogik texnologiyalariga tenglashtirildi.

60–yillar o‘rtalariga kelib, bu tushunchalar mazmuni chet el pedagogik nashrlarida keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda «Ta‘lim texnologiyasi», Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta‘lim», Yaponiyada esa 1965 yillardan «pedagogik texnologiya» jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

B.Ziyomuxammadovning fikricha - o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta‘siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta‘riflash mumkin. Ta‘riflar nazariyasi bo‘yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa

bo'ladi. [3]

«Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turo'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi (V.M.Monaxov).

M.V.Klarin fikricha, pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashtiradi. [1]

I.Ya.Lernerning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya - o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P. Bepalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidaxmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayonidir. [2]

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga yangicha yondoshuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan boo'liq ijtimoiy hodisadir». [2]

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YuNESKO ta'rifidir.

“Pedagogik (ta'lim) texnologiya”(si) – ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini maqbullashtirish maqsadida inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib o'quvchilarda bilim, ish-harakat usullari va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalashtirish, tatbiq etish (amalga oshirish), natijalarni maqsad bilan qiyoslab kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – M.: Znanie, 1989 - 80 s.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., “Moliya”, 2003y.,172 b.

TALABALARNING MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich

Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada pedagogik texnologiyalarning ilg‘or usullari va axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarni mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish haqida so‘z boradi. Interfaol metodlardan foydalanish shakllari izohlanadi.

Аннотация: В статье говорится о формировании медиаграмотности и информационной культуры учащихся посредством использования передовых методов педагогических технологий и информационных технологий. Объяснены формы использования интерактивных методов.

Abstract: The article talks about the formation of media literacy and information culture of students through the use of advanced methods of pedagogical technologies and information technologies. The forms of using interactive methods are explained.

“Ta’lim to‘g‘risida” Qonun talablaridan kelib chiqqan holda o‘qitish metodlarini takomillashtirish davr talabidir.

Faoliyat metodi – bu faoliyatni amalga oshirish usuli bo‘lib, ko‘zlangan maqsadga erishishga olib boradi. To‘g‘ri metodni tanlash orqali natijaga komil ishonch va qisqa yo‘l bilan erishamiz. Hozirgi vaqtda insoniyat tomonidan faoliyat metodlarining boy xazinasini to‘plangan, lekin hayotdagi masalalarning to‘xtovsiz murakkablashib borishi metodlarni muttasil yangilab turishni talab qiladi.

XXI asr-axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo‘lmay turib zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirib bo‘lmaydi. Talaba-yoshlarda zaruriy bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari ularni keyingi hayotga tayyorligining bosh mezoni hisoblanadi. Bu sharoitda zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib boryapti, an’anaviy ta’lim yondashuvidan bugungi asr yondashuviga, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tilmoqda. Bunday ta’lim yondashuvining asosida talaba-yoshlar shaxsining to‘la rivojlanishi, tez o‘zgaruvchan hayotga har tomonlama tayyor bo‘lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonida ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan to‘g‘ri izlash, tanlab olish, ma’lumot ustida qayta ishlash, oldida turgan muammolarni nafaqat ko‘ra bilish, balki ularni og‘zaki ifodalash va hal eta olish yotadi.

“Media savodxonlik va axborot madaniyati” fanini o‘qitishning bosh vazifalaridan biri talaba-yoshlarimizning, dunyo axborot maydonida shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ilm fanning rivoji uchun har bir soha mutaxassisi xususan, talabalar bu sohaning ijobiy jixatlarini o‘zlashtirgan xolda kelgusi faoliyatida axborot texnologiyalardan o‘rinli foydalanish va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish. Kelayotgan talaba-yoshlarning og‘zaki va yozma nutqlarini, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishlarini, yuksak ma’naviyatli shaxs talablari doirasida rivojlantirishni talab etadi. Bunda AKTning o‘rnini inkor etish mumkin

emas. Mazkur texnologiyalar talaba-yoshlarimizning ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: “raqamli”, “kompyuter”, “vizual”, “texnologik”, “kommunikatsion”, “media”, “axborot”, “ommaviy madaniyat” va “texnokratiya” kabi tushunchalarni mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan xolda foydalanish madaniyatini va fikrlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun beqiyos imkoniyatlar omilidir. Biz bu texnologiyalar vositasida talaba-yoshlarimizda ma’lumot, axborot, evolyusiya, axborot manbalari, yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatida qo‘shimcha va samarali vositalariga ega bo‘lamiz.

Kompyuterdan foydalanilgan darslarning asosini uning xotirasiga kiritilgan materiallar ya’ni turli xil topshiriqlar, test savollari, boshqotirmalar va jumboqli mashqlar tashkil etishi mumkin. Bunday darslar natijasida talaba-yoshlarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo‘lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi xisoblangan muloqot, ma’lumot evolyusiyasi, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish bilimlarga ega bo‘lish jarayonlarini o‘rganish asosida qurilishi talaba-yoshlarimizning mustaqil shug‘ullanishlariga undaydi, tafakkur malakalarini o‘stiradi. Har bir fanning o‘z xususiyatidan kelib chiqib maxsus metodlardan foydalaniladi. Metodlar xazinasi uzluksiz yangilanib boradi, unga ko‘rgazmalilikning zamonaviy texnik vositalari, audiovisual texnika, mikroprosesorlar, dasturlashtirish vositalari va hokazolarni qo‘llash bilan yangidan yangi metodlar qo‘shilmoqda. Fan va texnika revolyutsiyasiga xos bo‘lgan ilmiy axborotlar kun sayin oshib borayotgan hozirgi sharoitda talaba-yoshlarda umumiy o‘qish o‘zlashtirish ko‘nikmasi va malakalarini mustaqil egallashni ilgarigiga qaraganda ancha yaxshiroq tarkib toptiradigan o‘qitish metodlarini topish kerak.

Ishonarli hikoya, isbotlovchi suhbat, o‘quv munozaralari talaba-yoshlarimizda barqaror e’tiqod, yuksak axloq, milliy mafkurani tarkib toptirishda muhim hissa qo‘shadi.

Ko‘rgazmali metodlar – talaba-yoshlarga hayotda tezgina o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Amaliy metodlar – talaba-yoshlarni kasb tanlashga, talaba-yoshlarda jamiyatimiz ravnaqi uchun mehnat qilish ehtiyojini tarkib toptirishni yangi darajaga ko‘taradi.

Muammoli izlanish metodlari – talaba-yoshlarning ijod qilish, ilmiy tahlil qilish xususiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qitish metodlarini xilma-xillash butun dars davomida talaba-yoshlarda ishochlilik qobiliyatini saqlash uchun usullarni oqilona almashtirib turish foydalidir.

Kompyuterlar ko‘pgina o‘quv predmetlarini mustaqil o‘rganish uchun talaba-yoshlarga qat’iy imkoniyatlar ochib beradi.

Innovatsion usullar.

Innovatsiya – lotincha so‘z bo‘lib, “yangilikni kiritaman, tadbiq etaman, o‘zgartiraman” degan ma‘nolarni bildiradi.

Interfaol mashg‘ulot – professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot, jarayon hamkorlikda kechadi.

Interfaol metodlar professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlarning faol munosabati, bir-birini to‘liq tushuntirishga asoslanadi. Interfaol metodlar orqali talaba-yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga, xalqaro ekspertlar fikrini o‘rganib tadqiqotlar o‘tkazishga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish.
2. Kichik guruhlariga ajratish.
3. Tabaqalashtirish.
4. O‘rgatish va o‘rganish jarayonida demokratik, do‘stona muhitni yaratish.
5. O‘zaro muloqot va hamkorlikni tashkil etish.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida texnik vositalarini, kompyuter texnologiyalarini bilish va amalda qo‘llay bilish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, interfaol metodlar va AKT yuqoridagi fikrlarga yaqinlashishning eng zamonaviy shakl va vositasi sifatida e‘tirof etiladi. Eng muhimi u o‘qituvchi uchun o‘z talabasining faolligini oshirish, mustaqil ishini kengaytirish, ijodiy fikrlashga qo‘shimcha imkon berishi bilan eng muhim vosita vazifasini ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.D.Xolmirzayev, X. A.Axmyedov, Ya.B.Kadirova “Media savodxonlik va axborot madaniyati” // O‘quv uslubiy majmua. Toshkent – 2022
2. Abduqodirov A.A, Toshtemirov D.E “Ta’lim muassasalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasi”. Monografiya. Guliston:Universitet, 2019 yil
3. Madraximova F.R. Mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari / monografiya. – Toshkent: «Ilmiy ziyo zakovat», 2022.
4. www.google.uz (www.rambler.ru)

2-SHO‘BA. TA‘LIM SOHASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Abdullayev Jumanazar, Muratkulov Amanulla

Guliston davlat universitet dotsenti, Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflar yangi pedagogik va axborot texnologiyalar eng ko‘p va faol tatbiq etilayotgan va yaratilayotgan ta‘lim bosqichidir. Boshqa bosqichlarda ahyon-ahyonda ko‘zga tashlanadigan pedagogik texnologiyaning eng zamonaviy shakldaridan biri multimediyali o‘qitishga ayrim fanlar bo‘yicha butun bosqich miqyosida o‘tilgani fikrimizning yorqin isboti. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish to‘g‘risida ayrim fikrlar bayon etilgan.

XXI asr boshlanganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, lekin ko‘z ochib yumguncha o‘tgan chorak asrning o‘ziyoq ushbu asrning shashti-shiddatini ro‘y-rost ko‘rsatib qo‘ydi. Hozirdanoq XXI asr innovatsion texnologiyalar asri bo‘lib qolishi hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Ta‘limda bu pedagogik texnologiyalar davri kelganini anlatadi. Bugungi ta‘limni bu tushunchasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U allaqachon uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlarida darslarning asosiy metodik mazmuni tashkil qiladi. Bugungi ta‘lim ham sanoatda bo‘lgani kabi texnologik jarayonlarning muayyan tartibdagi ketma-ketligidan tuzilgan pedagogik tizim-butunlik hisoblanadi. Bu tizimning samarali ishlashi o‘qituvchi shaxsi va faoliyatining ta‘lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy buyurtma talablariga mos holda yangilanib, rivojlanib borishiga chambarchas bog‘liqdir. Bu esa uning o‘z ilmiy-amaliy, metodik potentsialini yangi pedagogik va axborot-informatsion texnologiyalarni jadal o‘zlashtirish hisobiga muntazam boyitib borishi lozimligini bildiradi. Ta‘lim tizimini zamonaviylashtirishni o‘qituvchi-pedagogning bu faoliyatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatiga ham to‘la taalluqlidir. Hatto aytish mumkinki, ularga ko‘proq taalluqlidir. Chunki pedagogik texnologiya mazmunining asosi bo‘lgan ta‘lim sub’ektlarining o‘zaro hamkorligi boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘zaro hamkorlikda o‘qishga, ta‘lim olishga shu yo‘nalishdagi yordamga endigina maktabga kelgan, bu yangi dunyoni endigina kashf etayotgan jajji bolakay va qizaloqlar, ayniqsa, muhtoj bo‘lishadi. Shuning uchun mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini yangi pedagogik va axborot-informatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu boshlang‘ich sinf darsliklari yangi avlodlarining tobora takomillashib borayotgani va o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslari mazmuniga yangicha yondashuvlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Boshlang‘ich sinflar yangi pedagogik va axborot texnologiyalar eng ko‘p va faol tatbiq etilayotgan va yaratilayotgan ta‘lim bosqichidir. Boshqa bosqichlarda ahyon-ahyonda ko‘zga

tashlanadigan pedagogik texnologiyaning eng zamonaviy shakldaridan biri multimediyali o'qitishga ayrim fanlar bo'yicha butun bosqich miqyosida o'tilgani fikrimizning yorqin isboti. Bundan o'qitishning samarasi yuqori bo'layotgani o'qituvchilarning unga munosabati, davra suhbatlari, o'qituvchilarning turli xil yig'inlar, matbuot sahifalarida chiqishlaridan hozirdanoq ma'lum.

Zero, zamonaviy multimediyali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars: ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni kuchaytiradi, bilimlarni mustahkam va mustaqil o'zlashtirishni, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladi. An'anaviy ta'lim berish usullari orqali bularga erishish amalda mumkin emas. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabani faollashtirishga deyarli e'tibor bermaydi. Unda asosiy figura, faol harakat qiluvchi shaxs o'qituvchining o'zidir. O'quvchi passiv tinglovchi, faqat eshitib va yozib o'tiradigan yoki o'qituvchining ko'rsatmasi bilan amaliy ishlarni bajaruvchi passiv sub'yekt. Bunday ta'lim bilan yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh barkamol avlodni tarbiyalab bo'lmasligi allaqachon ko'pchilikka ayon bo'lib bo'lgan. Xullas, o'qituvchining o'zini taraqqiy qildirishga qaratilgan avtoritar an'anaviy ta'lim XXI asr talablariga javob bera olmay qoldi. Shu sababli u o'z o'rnini qonuniy ravishda ***o'quvshi shaxsiga***, uni har tomonlama rivojlantirishga, faollashtirishga yo'naltirilgan, uni darsning faol subyektiga aylantiradigan pedagogik texnologiyaga-interaktiv zamonaviy ta'limga bo'shatib berishga majbur.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi emas, aksincha oquvchi-talaba asosiy figuradir va ta'limning maqsadi ham uni faollashtirishga, faol sub'yektga aylantirishga, ta'lim maqsadlariga shu asosda erishishga qaratilgan. Shubhasiz, bu yerda pedagogik texnologiya tushunchasi va tizimi asosiy, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni zamonaviy qilib turgan narsa ham aslida shudir. Shu ma'noda aytish mumkinki, zamonaviy ta'limning mohiyati pedagogik texnologiya bilan belgilanadi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf ona tili darslariga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, ona tili masalalarini pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan interfaol usullarni qo'llagan holda o'qitish va o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim shartidir. Shularga asoslangan holda biz "Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish" yo'nalishi ona tili darslarida "Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot" mavzusini o'qitishni pedagogik texnologiyaga asosan tashkil etish to'g'risidagi tajribamizni siz bilan o'rtoqlashishni lozim topdik. U innovatsion ijodiy yondashuvni taqozo qilgani sabali uni "Innovatsion intellektual bellashuv" deb atadik. Undan ma'ruza, amaliy, seminar darslarida bimalol foydalanish mumkin. Ushbu innovatsion texnologiya yordamida darsdan tashqari paytlarda har xil intellektual musobaqalar, tortishuvlar tashkil qilish mumkin. Dars paytida ulardan yangi mavzuni o'rganish bosqichining samaradorligini oshirishda foydalanish tavsiya etiladi. Shunisi xarakterliki, ushbu "Innovatsion- intellektual bellashuv" texnologiyasi o'quvchi-o'quvchilarni maksimal darajada faollashtiruvchi imkoniyatga ega. Chunki unda ishtirok etganlarning barchasi yakuniy natija va faolligiga qarab qo'shimcha

rag'batlantiruvchi reyting ballariga ega bo'ladilar. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kuchli motivatsiyani yuzaga keltiradi. Bunda qo'shimcha ball olish o'qituvchining subyektiv munosabatiga bog'liq bo'lmaydi. Chunki bellashuv qatnashuvchilarining chiqishlarini betaraf, xolis hakamlar(yoki yuqori sinf o'quvchilari) baholashadi. Bu ham o'quvchilarning bellashuvda qatnashish imkoniyatini oshirish uchun ataylab amalga oshiriladi. Qayd etilganlar ushbu texnologiyaning universalligi va ilmiy amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

“Innovatsion- intellectual bellashuv” texnologiyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik texnologiyaning o'zi shuni taqozo qiladi. Binobarin, ushbu texnologiyaga bimalol ijodiy yondashish mumkin. U pedagogik texnologiyaning o'zi singari ijtimoiy taraqqiyot bilan birga qadam tashlaydi, undagi yangiliklarga so'zsiz ijobiy munosabatda bo'ladi. Chunki muhimi uning o'zi emas, oqitishda samaradorlikning oshishi. Samaradorlikni oshiruvchi har qanday usul, vosita, shaklga uning eshiklari doimo ochiq va ularni tatbiq etishga imkoniyat yetarli. Xo'sh, ta'kidlanayotgan texnologiyaning umumiy xarakteristikasi, loyihasi, ssenariysi, ishlanmasi qanday? Endi shuni bayon qilsak.

Ona tili fanidan yuqori sinflar uchun innovatsion ochiq darsning umumiy xarakteristikasi

Darsning umumiy tashkiliy tavsifi

Dars o'tuvchi o'qituvchi, dars shakli, fan(bo'lim), yangi mavzu, o'tilgan mavzu, dars o'tiladigan bosqich, guruh, darsning turi, metodi va usullar (“innovatsion-intellectual bellashuv”), dars jihozlari (doska, bo'r, videoproyektor, sodda multimediyali taqdimot, ko'rgazmali vositalar, Mahmud Koshg'ariy portreti, har xil so'zlar, stullar(darsga maxsus taklif etilganlar va bevosita ishtirok etuvchilar uchun), hakamlar (yuqori sinf o'quvchilari yoki mazkur sinfning bilimdon o'quvchilari) haqida aniq ma'lumotlar beriladi, darsning shiori, maqsadlari e'lon qilinadi. Misol uchun:

Darsning shiori: A'lo o'qish burchimiz,
Sarf etamiz kuchimiz.
O'quvchi hamda ostoz,
Hamkor bo'lsa, qanday soz.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarning ongida ularning o'zini faollashtirgan holda so'z va uning turlari, so'zshunoslik haqida ilmiy-amaliy tushuncha hosil qilishga erishish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni so'zning ma'no qirralarini aniqlashga qiziqtirish, ularning ona tilimizning lug'at boyligiga muhabbatini yanada kuchaytirish, o'zaro hurmat, birlik-birdamlik hislarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'z va uning ma'no-vazifalari haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish, so'z zahirasi boyitish, mustaqil fikrlash qobiliyatini, nutqiy ko'nikmasini rivojlantirish, dunyoqarashini

kengaytirish.

Darsning joriy tashkiliy tavsifi

(Darsning borishi)

Tashkiliy qism: darsning boshlanishi, tashkillashtirish, davomatni aniqlash, jurnalga qayd etish, dars mavzusi, uni tashkil qilish shartlari, tartibi, hakamlar bilan bog'liq jihatlar haqida ma'lumot: (5 daqiqa)

So'ng fan o'qituvchisi tomonidan diqqat darsga qaratilib, o'quvchilar yordamida o'tgan dars mavzusi eslanadi va uyga berilgan vazifani so'rash darsi o'tkaziladi. Javob bergan o'quvchilar rag'batlantirilib, o'tgan mavzuga qisqacha tavsif beriladi (10 daqiqa)

O'tgan mavzuni so'rash darsi tugagach, dars beruvchi o'qituvchi yangi mavzu "So'z va uning ma'nosi, ma'no turlari"ni e'lon qilib, hammaning e'tiborini buyuk so'zshunos Mahmud Koshg'ariyga (uning portretiga) qaratib, uning dunyoda tengi yo'q lug'at yaratgani va u "Devonu lug'atit –turk" deb atalishini, ushbu dars inson hayotida muhim rol o'ynovchi so'zlar va uning ma'nosi, ma'no turlariga bag'ishlanishini va u "Intellectual bellashuv" deb nomlangan innovatsion-interfaol usulda olib borilishini, har bir guruh yangi mavzuni o'z dars ishlanmalari asosida yoritib berishlarini, ularga buning uchun 15 daqiqa vaqt berilishini, guruhlar chiqishlari hakamlar tomonidan 10 ballik sistemada baholab borilishini va natijalarga qarab, g'olib guruh aniqlanishini, unga va bellashuvda alohida faollik ko'rsatgan o'quvchilarga fan bo'yicha 6 ball, 2-o'rinni egallagan guruh a'zolariga 4 ball, 3-o'rinni egallagan guruhga 2 ball miqdoridagi qo'shimcha reyting bali berilishini alohida ta'kidlab, guruhlar o'z chiqishlarini raqamlarining o'sib borish tartibida amalga oshirishlarini aytadi va ularni o'z chiqishlarini namoyish qilishga taklif qiladi. **(5 daqiqa)**

Guruhlar chiqishi amalga oshiriladi **(45 daqiqa)**

Guruhlar chiqishi tugagach, hakamlarga so'z beriladi. Hakamlar raisi guruhlar yiqqan ballarni e'lon qiladi. **(5 daqiqa)**

Hakamlar e'lon qilgan natijalar bo'yicha g'olib bo'lgan guruh g'alaba bilan qutlanadi, guruh a'zolarining barchasi 6 ball miqdoridagi qo'shimcha ballga ega bo'lishgani tantanali suratda e'lon qilinib, rag'batlantiriladi. Boshqa guruhlariga ham me'zonga ko'ra ballar berilib, faollar rag'batlantiriladi. **(5 daqiqa)**

Hakamlar orasida so'zlovchilar bo'lsa, unga so'z beriladi. U bellashuvda eng faol qatnashgan uch talabaga (har bir guruhdan bitta talabaga) rag'batlantiruvchi yorlig'ni sovg'a qilishi mumkin. **(5 daqiqa)**

Rag'batlantirish tugagach, o'qituvchi ochiq darsiga yakun yasaydi. Mavzuning asosiy nuqtalarini to'xtaladi va darsni mustahkamlaydi. Yuga vazifa va mustaqil topshiriqlar beradi. **(5 daqiqa)**

Bugungi kunda ushbu pedagogik muammoni ijobiy hal etishning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan yo'li darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o'tish bo'lib turibdi. Zero, innovatsion-pedagogik texnologiyalarning bosh g'oyasi talabani darsning asosiy faoliyat yurituvchi sub'yektiga aylantirishdir. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar bu borada bizga qo'l keladi. Chunki AKT talabani bevosita

ishtirokini, uning fikrlashi, amaliy ishlashini taqozo qiladi.

Shunga ko'ra, bugungi kunda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jadal joriy qilish davrning asosiy talabiga aylandi. Davr talabiga javob berish esa ona tili o'qituvchisining birinchi galdagi vazifasi, burchidir.

Adabiyotlar

1. Bospalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. –M.: Pedagogika, 1989. – 256 s. 2. Yesareva Z.F. Osobnosti deyatelnosti prepodavatelya vysshey shkolы. – L., LGU. 1974.
3. Korolev F.F. Sistemnyy podxod i vozmozhnosti yego primeneniya v pedagogicheskix issledovaniyax//Sov. Pedagogika,1970. № 9. –S. 103-115. 4. Kuzmina N.V. Metody sistemnogo pedagogicheskogo issledovaniya. – L., LGU, 1980.
5. Kurbanov SH.E. Sotsialno-pedagogicheskiye osobnosti natsionalnoy modeli i programmy po podgotovke kadrov: Avtoref. d-ra ped. nauk. – Tashkent, 2000. – 47 b.
6. Abduhakimovich, M. Q. (2022). MEANS OF LINKING TEXT COMPONENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 232-234.
7. Akbarovich, Axrorov Alisher. "MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 3.4 (2023): 163-166.
8. Axrorov Alisher Akbarovich. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49.
9. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG'ON SO'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
10. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
11. Ermatov Ikhtiyar. (2022). HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 133-136.
Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1737>
12. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Inguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 688–692. Retrieved from <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/505>
13. Khamrokulovna, T. Z. (2021, August). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50). 14. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 376-385.
15. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O'RGANILISHIGA DOIR

QARASHLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 315-320. 16. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. *Gospodarka i Innovatsje.*, 24, 562-564. 17. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 50-64.

TA'LIM JARAYONINI WEB-KVEST TEXNOLOGIYA ASOSIDA SAMARALI TASHKIL ETISH

Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
katta o'qituvchi, e-mail: dilnozaeldor@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida kompyuter va gadjetlardan samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiya web-kvest texnologiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, kvest texnologiyasi, web-kvest texnologiyasi, platform, online ta'lim.

Hozirgi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga doir bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, **Davlatimiz rahbari tomonidan bu yilni "2023-yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"**, deb nomlanishini taklif etishlari ham **bejizga emas**. Biz o'qituvchilarga ta'lim dargohlarida jamiyatda o'z o'rnini topa olgan, raqobatbardosh, XXI asr ko'nikmalari shakllangan yoshlarni, shaxsni tarbiyalashimiz kerak degan mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Hozirgi varqda axborot oqimi kuchli kirib kelish albatta yoshlarimizni ta'lim-tarbiya berishda yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishimiz, o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishni talab etadi[1].

Texnika shiddat bilan rivojlangan bir davrda ta'lim jarayonida AKT va gadjetlardan samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish taqazo qilmoqda. Hozirgi vaqtda har qanday ta'lim texnologiya darhol eskirib, yangi zamonaviy texnologiyalari orqali o'quv mashg'ulotlar tashkil etish kabi muhim vazifalar har qanday fan o'qituvchisining zimmasiga yuklanmoqda. Aynan mana shunday innovatsion texnologiyalardan biri bu – kvest texnologiya bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kvest texnologiyasi bu-aniq ssenariy asosida jumboqlarni hal etish orqali asosiy muammoni yechishga yo'naltiruvchi texnologiyadir[2].

Ya'ni o'quvchilarga muammoni yechimini mustaqil topishga, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga undovchi, izlanishlar orqali bilimlarni egalshga undovchi ta'lim texnologiyasi deyishimiz mumkin.


Veb-kvest texnologiyasi esa-kompyuter texnikasida foydalanish mumkin

bo‘lgan, internet saytlariga berilgan havolalar orqali muammoni yechimi mustaqil izlashga qaratilgan texnologiyadir. Veb-kvest kvest texnologiyasining turlaridan biri sifatida qaraladi, shuning uchun veb-kvest syujetli o‘yin tarzida ham mashg‘ulotlarda foydalanish imkoniyatini beradi[3]. Ana shunday veb-kvest yaratish mumkin bo‘lgan online ta‘lim platformalari hozirgi kunda juda ommalashdi. Xususan, Joyteka.com online ta‘lim platformasida ham ta‘lim jarayoni yoki ta‘lim jarayonining bir qismida foydalanish mumkin bo‘lgan aniq bir ssenariy asosida o‘yinli muammo hamda nazorat ishlarini tashkil etish mumkin bo‘lgan veb-kvest yaratish imkoniyati mavjud.


Joyteka.comda veb-kvest yaratish mexanizmi

Googleda account yaratish	⇒	Gmail.comda elektron pochta yaratish
Platformadan ro‘yxatdan o‘tish	⇒	Login parol kiritish
Interaktiv xizmatlarni tanlash	⇒	Ta‘lim kvesti xizmatidan foydalanish
Mavzuga oid ssenariy tanlash	⇒	Topshiriqlar soniga va fanga oid ssenariylarga e‘tibor berish
Topshiriq turlarini saralash, topshiriqlarni tayyorlash	⇒	Jpg, MP3, ochiq savol, ko‘p tanlovli, bir tanlovli test turlariga savollarni kiritish
O‘yin oynasinisozlash	⇒	Uyga vazifa yoki sing ishi, nazorat ishlariga moslab sozlamalarni yoqish yoki o‘chirish
O‘yinni nashr etish	⇒	QR-kod yoki o‘yin havolasini o‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatish

Joyteka.comda ro‘yxatdan o‘tish



Joyteka.comda interaktiv xizmatlaridan birini tanlash



1. Ta'lim

kvesti-Aniq bir ssenariy asosida o'yin ichida test topshiriqlari hamda nazorat savollari yechiladi;


2.Video xizmati-Berilgan video darslar yoki ma'lumotlarga test va savollar biriktiriladi;

3.Viktorina o'yini-qiziqarli viktorina o'yini yaratiladi;


4. So'zlar o'yini-turli xil glosariy, yoki so'zlar o'yini yaratish mumkin;

5. Testlar xizmati-uch turdagi bir tanlovli, ko'p tanlovli, ochiq savol test turlarini yaratish mumkin.


Ta'lim kvesti turidan veb-kvest o'yini yaratish uchun platformadagi "Образовательная игра Квест" turini tanlanadi.




Biror bir ssenariy tanlangandan so'ng, o'yin shartiga mos savollar kiritiladi.



Barcha testlar yuklab bo‘lingandan so‘ng testlar oynasi sozlamalar bo‘limidan sozlanadi.



Sozlamalar sozlanib bo‘lingandan so‘ng o‘yin nashrga tayyorlanadi va “Готова” tugmasini bosish orqali veb-kvest o‘yini yaratish bosqichlari yakunlanadi.



Ta'lim oluvchilar o'yin havolasi yoki qr-kod orqali veb-kvest o'yinida ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishning zamonaviy, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, asosan kvest, veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etish quyidagi imoniyatlarni yaratadi:

- O'quvchi sargushat ichida mustaqil izlanadi;
- Muammoni aniq yechimini topishga intiladi;
- Dars davomida doimiy diqqatini jamlaydi;
- Ta'lim jarayonida gadjetlar yoki kompyuiterdan samarali foydalanish imkonin beradi[4].

Albatta o'yinning ijobiy yakunlashga harakat qiladi. Bunda albatta veb-kvest o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Sh.M.Mirziyoyev (2018). Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: O'zbekiston b. 448.
- 2.M.Сокол (2014) Квест: метод или технология? // Научно- методичный журнал. Россия. С. 28-32.
- 3.D.U.Karshiyeva (2020). [Problems of using "Quest" Technology in Training in the Process of Professional Development](#) // International Journal on Orange Technologies. O'zbekiston. B.3.
4. Karshiyeva D. [The Importance of a Technological Map in the Design of Lessons Based on Quest Technology](#) / Journal NX. 2020. P.297-299.

TA'LIM MUASSASALARINING BOSHQARUV VA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TAMOYILLARI

Yunusmetova Nasiba Satimbekovna

Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodlarga o'rgatish milliy markazi kata o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'lim muassasalarining boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tamoyillari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, muassasa, pedagogika, dars jarayoni, kadrlar, tamoyil, ta'lim tizimi.

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratizatsiya va insonparvarlashtirish. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida mahmuriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi. Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish. pedagogik faoliyatda

Subektning subektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z istehdodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi. Boshqarishning tizimlilik va yagonalik. Ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvuga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinchi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lgani bilan, o'zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo'ladi. To'rtinchi belgisi ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir. Chunki ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta'lim jarayonini qayta quradi hamda o'zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani tahminlaydi, biryoqlama boshqaruvning oldini oladi. Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg'unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, mahmuriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi.[1]

Shuningdek, markazlashtirilmashlikka ham keragidan ortiq e'tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko'zga tashlanadi. Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmashlikni uyg'unlashtirish mahmuriy va jamoatchilik boshqaruvni rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi. Yakkahokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o'qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o'ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a'zolarining javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi. O'z navbatida yakkahokimlikning o'ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni tahminlaydi. Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv mahqul bo'lsa, qarorning ijrosini tahminlashda yakkahokimlikka bo'ysunish mahquldir.[2]

Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Ta'lim tizimini boshqarishda axborotlarning obektivligi va to'liqligi. Ta'lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq, to'liq yig'ilsa yoki haddan ziyod ko'p bo'lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi. Biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqidagi ma'lumotlarni yig'amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo'nalishiga e'tibor boramiz. [3]

Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko'plab og'ishlar

kuzatiladi. Ta'lim muassasasining rahbari o'zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o'z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instmktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta'lim muassasasi mahmuriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologivasini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta'lim muassasasi faoliyatining muvafaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir. Axborotlar jamg'armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi. Maktab ichki boshqaruvining o'ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko'rinadi:

Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish, maqsad qo'yish va rejalashtirish, tashkil qilish, maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish, tartibga solish, boshqaruv axboroti.

Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo'lmaydi. Ta'lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o'qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog'liq. Agar o'z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to'g'ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o'zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

kundalik tahlil;

tizimli tahlil;

yakuniy tahlil.[4]

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirish va intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi. Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlami olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko'tarish hamda ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini tahminlash kabilardan iborat.[5]

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o'quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo'yish va rejalashtirishdan iborat. Boshqaruv faoliyatining maqsadi — ishning umumiy yo'nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad — rejaning asosi. [6]

Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun

qo'shimcha maqsad qo'yiladi. Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma'lum bir muddat davridagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qabul qilinishi mumkin. Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi tahtilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Yakuniy rejalashtirish o'quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko'rinishi hisoblanadi. SHu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko'rinishlari o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar qo'mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o'qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejaları bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to'la amalga oshirilishi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi. Qabul qilingan rejalarni to'liq amalga oshirish uchun tizimli harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo'lishini tashkil etishlari kerak. «Tashkil etish» tushunchasi birqancha mahmolarda qo'llaniladi. Birinchidan, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini tahminlaydigan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarni amalga oshiruvchi, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi. Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta'lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o'rinbosarlarining majlisi, tezkor yig'ilishlar, nietodik seminarlarni qayd etish mumkin.[7]

Pedagogik Kengash faoliyati demokratik va oshkorlik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol- javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlari ko'riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig'ilishlarida ta'lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doirdolzab masalalar hal qilinadi. SHuning uchun pedagogik Kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta'lim muassasalarda direktor yig'ilishlari tashkil etiladi. Direktor yig'ilishlarida rahbariyat va o'qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin. Ta'lim muassasasi o'rinbosarlarining yig'ilishlarida kundalik savollar va mahmuriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta'lim muassasasi rejasi bo'yicha o'quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo'lib o'tadi. Tezkor axboriy majlislar ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarning mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o'quvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi. Ichki nazorat ham ta'lim muassasasini boshqarishda alohida o'rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga mimlilik, obvektivlik, hnmkatlilik, to'ldiruvchilik kabilarni ko'rsatish mumkin.[8]

Xulosa: Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta'lim muassasasi ichki

nazoratining quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo‘yilishi.

Ta‘lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining sifati.

O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.

O‘qitishning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarining bajarilish holati.

Darsdan tashqari tarbiya ishlarining tashkil etilish holati va sifati.

Pedagogik kadrlar bilan ishlash.

Ta‘lim muassasasi faoliyatining o‘ziga xos samaradorligi.

Qabul qilingan qarorlar va mehyoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarning bajarilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Abduqudusov, L. Uzoqova Kasb ta‘limi uslubiyati.15 b.[1]

2.Зокиржон ШАРИФОВ Илим олиш силари.32 b.[2]

3.Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Ташкент: Молия, 2002.23 b.[3]

4.Батышова С.Я., Шапаринский С.А. Основы профессиональной педагогики. - М: Высшая школа, 1977. - 504 с.[4]

5.Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М: Наука, 1989. -192с.[5]

6.Бородина Н.В., Самойлова Е.С. Модульная технология в профессиональном образовании: Учебное пособие. - Екатеринбург: УГППУ, 1998. -27 с.[6]

7. Давлетшин М.Г. Модульная технология обучения. – Т: ТГПУ, 2000.57 с [7]

8.Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. - М: Знание, 1989 - 80 с.[8]

TA‘LIM TIZIMIDA SUN‘IY INTELLEKT KONTENTLARINI TADBIQ ETISH

*Nizamov Akmal Shaxobiddinovich, Mavlyanov Mo‘minjon Akromovich
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi AKT va texnik ta‘minot bo‘limi boshlig‘i,
informatika fani o‘qituvchisi; Guliston Davlat Pedagogika Instituti tyutori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada suni‘y intellektning ta‘lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son, Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta‘minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

maqsadida:

- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini har tomonlama amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish;

- sun’iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish;

- sun’iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish;

- sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu vazifalarni bajarishga barcha – kuch bilimlar safarbar qilinmoqda.

Sun’iy intellekt – bu bizning ijtimoiy munosabatlarimizning barcha jihatlarini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan jadal rivojlanayotgan texnologik soha. Ta‘lim sohasida sun’iy intellekt yangi o‘qitish va o‘rganish echimlarini ishlab chiqarishni boshladi, ular hozir turli kontekstlarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Ta‘lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun yozilgan ushbu ishchi hujjat bilimli va tegishli siyosat choralarni ko‘rishga imkon berish uchun AI ta‘lim sektoriga qanchalik ta‘sir qilishini taxmin qilish mumkin. Ushbu maqola jahon miqyosida, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta‘lim tizimiga sun’iy intellektni joriy etish misollarini, 2019-yilgi mobil ta‘lim davrida hamma uchun onlayn muloqat birinchi navbatga chiqdi. AI texnologiyasi ta‘lim tizimiga rivojlanayotgan mamlakatlarda ta‘lim tengligi va sifatini olib kirdi. Jamiyatda inson faoliyatining barcha jabhalarida sun’iy intellektning singib borayotgan texnologiyalariga tayyorlash uchun ta‘lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va qayta ishlashning turli usullarini o‘rganishimiz kerak bo‘ladi.

Dars sifatini oshirishda sun’iy intellekt dasturlari yordamida yaratilgan va talabning bilim va ko‘nikmalariga asoslangan va real vaqt rejimida o‘zgarib turadigan topshiriq va test sinovlarini tadbiq etish o‘rni katta. Misol uchun talaba va o‘quvchilarga turli mavzularni yanada chuqurroq o‘rganish uchun virtual sinf xonasini o‘rni katta:



Virtual sinf atamasi ma‘nosini to‘liq aniqlashdan oldin, uni tashkil etuvchi ikkita so‘zning etimologik kelib chiqishini aniqlaymiz. Sinf xonasi lotincha,

"sinfxonadan" kelib chiqqan, qirol saroylaridagi hovlilar shunday atalgan. Virtual, shuningdek, lotin tilidan kelib chiqadi. Uning holatida bu "fazilat" soʻzidan kelib chiqadi, bu savolni biron bir vazifani bajarishi kerak boʻlgan kuch yoki irodani anglatadi.

Virtual sinf sifatida tanilgan **raqamli muhit** bu jarayonning rivojlanishiga imkon beradi **oʻrganish**. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) talabaga oʻquv materialiga kirishga imkon beradi va oʻz navbatida oʻqituvchi va boshqa talabalar bilan oʻzaro aloqada boʻladi.

VR (virtual reallik) dubulgʻasi, shuningdek, VR garniturası sifatida ham tanilgan, foydalanuvchiga yuqori aniqlikdagi displeylar, harakatni kuzatish datchiklari va baʼzan haptik fikr-mulohazalar kombinatsiyasi orqali simulyatsiya qilingan muhitni his qilish imkonini beruvchi qurilmadir. VR dubulgʻasini kiyish orqali foydalanuvchi oʻzini virtual olamga toʻliq shoʻngʻib ketgandek his qilishi mumkin, bu anʼanaviy oʻyin yoki media isteʼmolidan koʻra koʻproq qiziqarli va interaktiv tajribaga imkon beradi. VR dubulgʻalari odatda oʻyin uchun ishlatiladi,



lekin ular taʼlim, oʻqitish va boshqa sohalarda ham qoʻllaniladi.

Taʼlim, Madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi maʼlumotlariga koʻra, “barcha fuqarolar matematika, maʼlumotlar fanlari va sunʼiy intellekt asoslari” kabi zarur koʻnikmalarni rivojlantirishlari kerak. raqamli jamiyatda yozish va abacus” va barcha sohalarda ishlay olish. Universitet islohotini ilgari surish uchun texnologiya, Ushbu hisobotning qisqacha mazmunida “Informatika taʼlimining umumiy taʼlim sifatida tarqalishi”, “soʻrovga javob bergan universitetlarning 82% ga yaqini informatika fanini umumiy fan sifatida takidlashgan”.

Bunday sharoitda barcha talabalar uchun 2030-yillarda mumkin boʻlgan umumiy axborotni qayta ishlash, taʼlimini rivojlantirishga “matematika, maʼlumotlar fanlari va sunʼiy intellekt” taʼlimini qoʻshish katta oʻzgarish va yaxshi natijalarga erishishi kutilmoqda.

Bunga sabab boʻlgan asosiy mulohaza shuni koʻrsatadiki, biz har bir kompaniya va taʼlim muassasalari tomonidan taqdim taʼlimni reallik asosida yanada oson oʻrgatish mumkin, dasturiy taʼminot va tizimni ishlab chiqish. Oʻquvchilarimizga “matematika, maʼlumotlar fanlari va sunʼiy intellekt” taʼlimini “umumiy tarzda” berish uchun oʻqituvchilarning inson resurslari cheklangan boʻlsada, tizimli va chuqur muhokamalar olib borish zarur, deb hisoblaymiz

Adabiyotlar:

1. Rakhimov, M., Yuldashev, A., & Solidjonov, D. (2021). The role of artificial intelligence in the management of e-learning platforms and monitoring knowledge of students. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 308-314.
2. Yuldashev, A. (2022). DEVELOPMENT OF ECONOMIC ACTIVITIES OF ENTERPRISES ON THE BASIS OF DIGITIZATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 251-257.
3. Axrorjon, Y., Alijon, M., & Iqlima, A. (2022). Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri. *Ta'lim fidoyilari*, 13(6), 263-266.
4. Axrorjon, Y., Nozima, Z., & Muhtaram, J. (2022). KITOBNING INSON MA'NAVIY VA AQLIY KAMOLOTIDAGI O'RNI.
5. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. (2021). TA'LIMDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. *Scientific progress*, 2(3), 806-813.
6. Yo'ldashev, A., & Nazarova, G. (2022). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar. *Science and Education*, 3(6), 618-623.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DARSGA BO'LGAN QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Abdullayeva O'g'iloy Rustamjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya. Darsga qiziqishni shakllantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining akademik muvaffaqiyatlari va umumiy faolligini oshirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishni rivojlantirish uchun o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan turli strategiyalarni o'rganishga qaratilgan. Adabiyotlarni ko'rib chiqish orqali maqolada o'quvchilarni jalb qilish va o'rganishni rivojlantirish uchun o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish, gamifikatsiya va amaliy mashg'ulotlar zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich maktab o'quvchilari, qiziqish, dars, o'quvchi-markazli o'qitish, gamification, hands-on faoliyati, o'quvchi ish, ta'lim.

Anotation. The formation of interest in the lesson is very important to increase the academic success and overall activity of elementary students. This article is aimed at studying various strategies that teachers can use to promote interest in the lesson among primary school students. Through a literature review, the article emphasizes the need for student-oriented teaching, gamification, and hands-on training to attract students and promote learning.

Keywords: Elementary School students, interest, lesson, student-centered teaching, gamification, hands-on activities, student work, education.

Аннотация. Формирование интереса к уроку имеет решающее значение для повышения успеваемости и общей активности младших школьников. В этой статье основное внимание уделяется изучению различных стратегий, которые учителя могут использовать для развития интереса к уроку у учащихся начальной школы. Рецензируя литературу, в статье подчеркивается необходимость обучения, геймификации и практического обучения, ориентированного на учащихся, для вовлечения студентов и развития обучения.

Ключевые слова: ученики начальной школы, любопытство, урок, обучение, ориентированное на учащихся, геймификация, ручная деятельность, студенческая работа, образование.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari akademik rivojlanishning muhim bosqichida. Ular asosiy ko'nikmalar va tushunchalarni o'rganishni boshlaganlarida, akademik muvaffaqiyat va umumiy faollikni oshirish uchun ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish juda muhimdir. Biroq, yosh o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishni rivojlantirish uchun o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan turli strategiyalarni o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, u o'quvchi-markazli ta'lim zarurligini ta'kidlaydi, gamification, va amaliy faoliyati o'quvchi jalb va ta'lim targ'ib qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga qiziqishni shakllantirish yo'llarini o'rganish uchun adabiyotlar sharhi o'tkazildi. Adabiyotlarni qidirish Google Scholar, PubMed va Scopus kabi onlayn ma'lumotlar bazalari va "boshlang'ich maktab o'quvchilari", "qiziqish", "dars", "o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish", "gamifikatsiya", "amaliy mashg'ulotlar", "o'quvchilarni jalb qilish" va "kalit so'zlari yordamida amalga oshirildi.o'rganish."Qidiruvga 2010 yildan 2021 yilgacha ingliz tilida nashr etilgan maqolalar kiritilgan.

O'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida darsga qiziqishni shakllantirishning hal qiluvchi strategiyasidir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va ishtirokini ta'kidlab, o'quvchilarga o'z bilimlariga egalik qilishlariga imkon beradi. Gamifikatsiya yoki sinfda o'yinga asoslangan elementlardan foydalanish ham o'quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirishi mumkin. O'qituvchilar qiziqarli va qiziqarli o'quv muhitini yaratish uchun turli xil vositalardan, masalan, o'quv o'yinlari va simulyatsiyalardan foydalanishlari mumkin. Tajribalar va loyihalar kabi amaliy mashg'ulotlar ham qiziqishni rag'batlantirishi va o'quvchilarning faolligi va bilim olishiga yordam berishi mumkin.

O'qituvchilar sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida akademik muvaffaqiyat va umumiy faollikni targ'ib qilish uchun darsga qiziqishni shakllantirish juda muhimdir. O'qituvchilar darsga qiziqish va qiziqishni rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ba'zi samarali strategiyalar:

1. O'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish: o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish o'quvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va o'quvchilarga o'z bilimlariga egalik qilishlariga imkon beradi. Ushbu yondashuv o'quv jarayonida faol ishtirok etish va ishtirok etishni ta'kidlaydi, darsga qiziqish va jalb qilishni rag'batlantiradi.
2. Gamifikatsiya: Gamifikatsiya qiziqarli va qiziqarli o'quv muhitini yaratish uchun sinfda o'yinga asoslangan elementlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar qiziqishni rag'batlantirish va faollikni rag'batlantirish uchun turli xil vositalardan, masalan, o'quv o'yinlari va simulyatsiyalardan foydalanishlari mumkin.
3. Amaliy mashg'ulotlar: tajribalar va loyihalar kabi amaliy mashg'ulotlar qiziqishni rag'batlantirishi va boshlang'ich maktab o'quvchilari o'rtasida faollikni oshirishi mumkin. Ushbu tadbirlar o'quvchilarga darsni amaliy va aniq tarzda olib borishga imkon beradi, chuqurroq o'rganish va tushunishga yordam beradi.
4. Ko'rgazmali qurollar: rasmlar, jadvallar va diagrammalar kabi ko'rgazmali qurollardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida qiziqishni rag'batlantirish va faollikni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yordamlar darsni yanada qiziqarli va qulay qilib, chuqurroq o'rganish va tushunishga yordam beradi.
5. Hikoyalar: hikoyalar-bu darsni yanada qiziqarli va o'quvchilar uchun dolzarb qilishning samarali usuli. O'qituvchilar darsni hayotga tatbiq etish va o'quvchilar uchun yanada mazmunli va esda qolarli qilish uchun hikoyalar, latifalar va misollardan foydalanishlari mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishni shakllantirish akademik muvaffaqiyat va umumiy faollikni oshirish uchun juda muhimdir. O'qituvchilar darsga qiziqish va qiziqishni rivojlantirish uchun o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish, gamifikatsiya, amaliy mashg'ulotlar, ko'rgazmali qurollar va hikoyalar kabi turli xil strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Qiziqarli, qiziqarli va tegishli o'quv muhitini yaratish orqali o'qituvchilar boshlang'ich maktab o'quvchilari o'rtasida chuqurroq o'rganish va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishni shakllantirish akademik muvaffaqiyat va umumiy faollikni oshirish uchun juda muhimdir. O'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish, gamifikatsiya va amaliy mashg'ulotlar qiziqish va faollikni oshirishning samarali strategiyasidir. Biroq, ushbu yondashuvlar o'quv dasturining maqsadlari va o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlash juda muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imtiyozlarini yodda tutishlari kerak, chunki barcha o'quvchilar ushbu strategiyalarga bir xil javob bermaydilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishni shakllantirish akademik muvaffaqiyat va umumiy faollikni oshirish uchun juda muhimdir. O'qituvchilar qiziqish va faollikni oshirish uchun o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish, gamifikatsiya va amaliy mashg'ulotlar kabi turli xil strategiyalarni qo'llashlari mumkin. Biroq, ushbu yondashuvlar o'quv dasturining maqsadlari va

o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlash juda muhimdir. O'qituvchilar, shuningdek, har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos strategiyalarni moslashtirib, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imtiyozlarini yodda tutishlari kerak. Va nihoyat, doimiy kasbiy rivojlanish va hamkorlik o'qituvchilarga o'quv amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirishga va o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligini oshirishga yordam beradi.

Elementary school students are at an important stage of academic development. As they begin to learn basic skills and concepts, increasing their interest in class is critical to increasing academic success and overall engagement. However, it can be difficult to hold the attention of young readers. This article aims to explore different strategies that teachers can use to develop interest in lessons among primary school students. In addition, he emphasizes the need for student-centered education, gamification, and practical activities to engage students and promote education. A review of the literature was conducted to study the methods of formation of interest in the lesson in primary school students. The literature search included online databases such as Google Scholar, PubMed, and Scopus, and keywords such as "primary school students," "interest," "lesson," "student-centered learning," "gamification," " " The search included articles published in English from 2010 to 2021. Student-centered teaching is a crucial strategy for creating interest in lessons among elementary school students. This approach emphasizes student engagement and participation in the learning process, allowing students to take ownership of their knowledge. Gamification, or the use of game-based elements in the classroom, can also increase student engagement and interest. Teachers can use a variety of tools, such as educational games and simulations, to create a fun and engaging learning environment. Hands-on activities such as experiments and projects can also stimulate interest and promote student engagement and learning. As teachers, it is very important to create interest in the lesson to promote academic success and general engagement among elementary school students. Some effective strategies that teachers can use to foster interest and interest in the lesson include: Learner-centered learning: Learner-centered learning puts the learner at the center of the learning process and allows students to take ownership of their own learning. This approach emphasizes active participation and participation in the learning process, encourages interest and engagement in the lesson. Gamification: Gamification involves the use of game-based elements in the classroom to create a fun and engaging learning environment. Teachers can use a variety of tools to stimulate interest and encourage engagement, such as educational games and simulations. Hands-on Activities: Hands-on activities such as experiments and projects can stimulate interest and increase engagement among elementary school students. These activities allow students to conduct the lesson in a practical and concrete way, help to learn and understand more deeply. Visual Aids: The use of visual aids such as pictures, charts and diagrams can help stimulate interest and

promote engagement among primary school students. These aids make the lesson more interesting and convenient, and help in deeper learning and understanding. Stories: Stories are an effective way to make a lesson more interesting and relevant for students. Teachers can use stories, anecdotes, and examples to bring the lesson to life and make it more meaningful and memorable for students. Creating interest in the lesson among elementary school students is very important to increase academic success and overall engagement. Teachers can use a variety of strategies such as student-centered teaching, gamification, hands-on activities, visual aids, and storytelling to foster interest and engagement in the lesson. By creating a fun, engaging, and relevant learning environment, teachers help foster deeper learning and understanding among elementary school students. Creating interest in the lesson among elementary school students is very important to increase academic success and overall engagement. Learner-centered learning, gamification, and hands-on activities are effective strategies for increasing interest and engagement. However, it is important to ensure that these approaches are aligned with curriculum goals and learning objectives. In addition, teachers must be mindful of the individual needs and preferences of students, as not all students respond to these strategies in the same way. CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS: Creating interest in the lesson among elementary school students is very important to increase academic success and overall engagement. Teachers can use a variety of strategies to increase interest and engagement, such as student-centered instruction, gamification, and hands-on activities. However, it is important to ensure that these approaches are aligned with curriculum goals and learning objectives. Teachers should also be mindful of individual student needs and preferences, adapting strategies to each student's needs. Finally, continuous professional development and cooperation help teachers to continuously improve their teaching practices and increase students' interest and activity in the lesson.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Abdullajonova, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtira olmaslik sabablari // "Xalq ta'limi" jurnali. N_6, 2002-yil.
2. Sh. Siddiqova, Ko'chirma gap xususida. "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-nazariy anjumani. – Toshkent: 2005- yil.
3. E. G'oziyev, V. Meliboyeva, Ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari // "Xalq ta'limi" jurnali. N_3, 2009-yil.
4. S. L. Vigotskiy, Bola rivojlanishining psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010-yil.
5. Sh. Siddiqova, Ko'chirma gap xususida. "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-nazariy anjumani. – Toshkent: 2005- yil.
6. M. Abdullajonova, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtira olmaslik

sabablari // "Xalq ta'limi" jurnali. N_6, 2002-yil

References:

1. M. Abdullajonova, the reasons for primary school students' inability to learn // Journal of folk education. N_6, 2002.
2. Sh. Siddiqova, about Kochirma. VIII Republican scientific-theoretical conference on current issues of Uzbek linguistics. Tashkent: 2005.
3. E. Goziyev, V. Meliboyeva, Methods of developing creative thinking // Journal of folk education. N_3, 2009.
4. S. L. Vygotskiy, Psychology of child development. Tashkent: Sharq, 2010.
5. Sh. Siddiqova, about Kochirma. VIII Republican scientific-theoretical conference on current issues of Uzbek linguistics. Tashkent: 2005.
6. M. Abdullajonova, the reasons for primary school students' inability to learn // Journal of folk education. N_6, 2002

1-2-SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH STRUKTURASI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qishni o'rganishga katta ahamiyat berilishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rgatilishi, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallashlari. Ona tili va o'qish sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid alakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarurligi, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kaliti ekanligidan namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Savodxonlik tushunchasi, 1-2- sinflarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bu hujjat asosida ona tili va o'qish savodxonligi masalasi ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Savodxonlik- xalq orasida qobiliyat deb tushuniladi o'qish va yozishning kamida bitta usulida, asosiy lug'at va qo'llanmalarining ta'riflarida aks ettirilgan tushuncha. Zamonaviy savodxonlikka "kontekstga bog'liq ijtimoiy amaliyotlarning yig'ilishi" sifatida e'tibor shaxslarning o'qish va yozish amaliyotlari umr bo'yi rivojlanib borishi va o'zgarishi haqidagi tushunchani aks ettiradi ularning madaniy, siyosiy va tarixiy kontekstlari o'zgarganda. "Oila a'zolari, ishchilar, fuqarolar va umrbod o'rganuvchilar sifatida o'qish, yozish va ulardan foydalanish, ma'lumot bilan

ishlash, fikr va mulohazalarni bayon qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyati".

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qishni o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili va o'qish sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Ona tili va o'qishfanlari boshqa fanlami o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili va o'qish savodxonlik dasrlari bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda alohida o'rin tutadi. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va ona tili darslari orqali badiiy, ilmiy- ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili fani hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'n g o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy- ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash hisoblanadi. Umuman olganda, o'qish

darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Boshlang'ich 1-2-sinflarda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tilni o'rganish jarayonida o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmatini hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2009
2. U. Azimova va boshqalar 1,2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi. RTM-2021
3. U. Masharipova va boshqalar. 3-sinf "Ona tili" metodik qo'llanma Toshkent. "Sharq" NMAK 2016y
4. U. Masharipova va boshqalar. 4-sinf "Ona tili" metodik qo'llanma Toshkent. "Sharq" NMAK 2016y
5. G. Boymurodova va boshqalar. 3-sinf "O'qish kitobi" metodik qo'llanma Toshkent. "Sharq" NMAK 2016y
6. G. Boymurodova va boshqalar. 4-sinf "O'qish kitobi" metodik qo'llanma Toshkent. "Sharq" NMAK 2017y
7. X. Gulomova. Boshlang'ich sinfda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinfda-oqish-darslarini-tashkil-etish-metodikasi>
8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturi -2020 <https://infourok.ru/boshlang-ich-sinf-ona-tili-fanidan-kompetensiyaviy-yondashuv-asosidagi-o-quv-dasturi-darslik-metodik-qo-llanmalar-va-ularning-ta-4475236.html>

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI

Toshtemirova Mohinabonu Bahodir qizi

Guliston davlat universiteti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

toshtemirovamohinabonu50@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash, profilaktik va korreksion ishlarini olib borish, xulqi og‘ishgan o‘quvchilar bilan ishlashda qo‘llaniladigan metodikalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: deviant, profilaktika, ipoxondriya, korrektsiya, og‘ishgan xulq, rehabilitatsiya, diagnostika

Shaxs xulqining me‘yordan chiqishi – shaxsning beqaror xarakteri, o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvur va atrofdagilar bilan munosabatlarning qiyinlashuvi oqibatida yuzaga keladigan buzilishlar. Ularga: xavotirli buzilishlar, fobiyalar, yopishqoq obsessiv (yopishqoq holatlarning turlari bo‘lib, harakat va kechinmalarda namoyon bo‘ladi) – kompulsiv, konversion va shikastlanishdan so‘nggi (posttravmatik) stressli buzilishlar va **ipoxondriya** (vahimaga tushish natijasida asabiy umidsizlik holati) kiradi.

Og‘ishgan xulq (deviant, lot. Deviation – og‘ish) kishining qilmishlari, faoliyat turi odatiy, umum e‘tirof etilgan me‘yorlardan farq qiladigan yoki u o‘zi a‘zosi bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me‘yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me‘yorlaridan og‘ishida namoyon bo‘ladigan axloqqa aytiladi. Psixologiyada deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida turli xil qarashlar va yondashuvlar mavjud. Yondashuvlarning turli-tumanligi shaxs xulqini og‘ishganligini tashxis qilish, uni oldini olish va ijtimoiy psixologik yordam ko‘rsatish davomida aniqlangan og‘ma xulq-atvor bilan bog‘lik holatlarni bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham ko‘zga tashlanadi.

Soha mutaxassislari psixologiya fanida deviant xulq-atvor tushunchasi fransuz olimi Emil Dyurgeymning (1858-1917) mashaqqatli mehnati tufayli yuzaga keldi degan fikrda yakdildirlar. Dyurgeymni og‘ish nazariyasining asoschisi deya ta’rif beradilar.

Odatda deviatsiyalar o‘spirinlik davrida yuzaga keladi. O‘spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni o‘tish davri deb ham atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan yigitlikka o‘tish ro‘y beradi va bu jarayon o‘smir rivojlanishining barcha jihatlarini anatomik-fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘smirlik davrida o‘smir hayoti va faoliyatida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, bu esa o‘z navbatida ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarning yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘smirning ijtimoiy maqomi o‘zgaradi. Unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo‘yila boshlaydi.

Korreksiyalash jarayoni yoshlarning ongi, his-tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi va

turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir. Korreksiyalash ta'sirida o'smirlarning g'oyaviy, axloqiy irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Bunda tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi. U o'quvchining aniq xislatini shakllantirish yoki illatini yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi. Xulqi og'ishgan o'smirlar bilan ishlash jarayonida shaxsning tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari e'tibordan chetda qolsa, u holda korreksiya maqsadiga erishish qiyinlashadi.

Xulqi og'ishgan o'quvchilarning rivojlanishidagi u yoki bu pedagogik chekinishlarni bartaraf etish uchun ular bilan rehabilitatsion va profilaktik ishlar o'tkaziladi.

Reabilitatsiya – bu bola shaxsining huquqi, ijtimoiy-huquqiy nufuzi, sog'ligi, o'qishga layoqatligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizim. U profilaktika va korreksiya singari aspektlarni o'z ichiga oladi.

Profilaktika – bu reabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq muhit bilan bog'liqdir.

O'spirin xulqidagi nuqsonlar: yolg'onchilik, surbetlik, janjalkashlik, agressivlik kabi illatlarni korreksiyalash uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

- pedagogik muammoning paydo bo'lish sababini aniqlay olish;
- ta'sir kuchini o'tkazadigan profilaktik tadbirlar metodikasi bilan tanish bo'lish;
- guruh jamoasida o'qituvchi va o'quvchi orasida bir-biriga hurmat muhitini vujudga keltira olish;
- oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish uchun ota-onalar bilan ham pedagogik muolajalarni olib borish va boshqalar.

Xulqi og'ishgan o'spirinlik yoshidagilarni ijtimoiylashtirishda xilma-xil metodlar, usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan:

- darsda va ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning samarali ta'siridan foydalanish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- samarali natijalarni kafolatlaydigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- ijobiy emotsional muhit yaratish orqali ta'sir ko'rsatish.

Xulqi og'ishgan o'smirlarni pedagogik diagnostika qilishda ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirish, kinolavhalar, «sun'iy qiyinlashtirilgan holatni yaratish» singari metodlardan foydalaniladi. Diagnostikada zarur qoidalarga rioya qilinsa, u holda o'spirinlarda muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko'rinadi.

Diagnostikada deviant xulqli o'spirinlarning salbiy xatti-harakatining sababini aniqlash usullaridan yana biri syujetli fotosurat va rasmlar bilan tajriba o'tkazishdir. Buning ma'nosi va maqsadi yoshlarning xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan qanday motivlar mavjudligini, shuningdek, ular qaysi ta'sirlarga osonroq berilishini aniqlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2000.
2. G'oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi»
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish– eng oliy saodatdir. – T.: «O'zbekiston», 2015.
4. Abdullaeva Sh.A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar // «Xalq ta'limi», 2014, 3-son. -40-45-b.
5. G'oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2009. –278-b.
6. Ravshanbekova D.Sh.
7. Eshqulov Sh.R. Deviant xulq-atvorning psixologiyada o'rganish tajribasi // «Ta'lim fidoiylari», Issue-1 February 2022, 49-53-b

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASH

Tairova Gulshoda Asadovna

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida milliy o'quv dasturi asosida integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etish yo'nalishlari va uni STEAM texnologiyasiga ko'ra amalga oshirish yo'llari ko'rsatilib o'tilgan

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, milliy o'quv dasturi, integratsiya, STEAM texnologiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi”dagi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Unga ko'ra darslarni tashkil etish integratsiya jarayonini asos qilib olishga qaratildi.

“Intergratsiya” so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan.

Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida xar

tomonlama bilimlarga ega bo‘lib kamol topadi. Tabiat go‘zalligini xis qila olish, undan zavqlanish, e‘zozlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ta‘limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo‘llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.

Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o‘quv fanlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirilishini ta‘minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta‘minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta‘lim sifatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib:

- ta‘limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

- fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi;

- fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Milliy o‘quv dasturida STEAM - fanlararo bog‘liqlik ta‘minlandi.

STEAM o‘quv rejasi o‘quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o‘qitish g‘oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o‘rganish o‘rniga STEAM ularni yagona sxemasiga birlashtiradi.

Quyida “Bog‘da tipratikon” mavzusida rasm chizish asosida STEAM texnologiyasi yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz:

Sinf 5 ta kichik guruhlariga bo‘linadi va nomlanadi.

1-guruhga Tipratikon haqida ma‘lumot bering.

Uzun ignali tipratikon – bu yirik hajmli tipratikonning og‘irligi 500—900 gramm, uzunligi 226—272 mm, qalin va uzun (40-42 mm) ignalarga ega. Tanasining pastki qismi yumshoq va uzun tuklar bilan qoplangan. Uzun ignali kirpini quloqlari yumshoq va boshning yarmidan uzunroqdir. Quloqlarning ichki tomoni kulrang tusda. tumshug‘i qora-jigarrang, oz miqdorda oq tuklari ham yo‘q emas.

2-guruhga tipratikoni plastilindan yasang yoki applikatsiya yasang topshirigi beriladi.



3-guruhga og‘zaki yoki yozma ravishda misol keltiring.

- Kelgusida qanday o‘yinchoq tipratikon yasagan bo‘lar edingiz?

- Sichqonlarni tutadigan o‘yinchoq tipratikon yasagan bo‘lar edim.

4-guruhga tipratikon haqida qo‘shiq ayting.

Tipratikon, tipratikon

O‘yinga tush dikon-dikon....

5-guruhga matematikaga oid masala tuzing.

Tipratikon o‘rmonda 4 ta olma va 5 ta qo‘ziqorinni ustiga ortib uyga keldi. U jami nechta narsa olib keldi?

Tasviriy san‘at fanida STEAM texnologiyasi asosida kreativlik, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va estetik didni rivojlantirishga imkoniyat kengaytiriladi

Xulosa qilib aytish mumkinki, tasviriy san‘at darslari jarayonida integratsiya jarayonini yuzaga keltirish orqali o‘quvchilarda boshqa fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlash va kompetensiyalar hosil bo‘lishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risi”dagi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. N.Vaxobova va b.q “Tasviriy san‘at 3” O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. T-2022.
3. R.Xudoyberganov va b.q “Tasviriy san‘at 3” Darslik. T-2022.

TA’LIM DOIRASIDAGI INTERDISIPLINAR TA’LIM-TARBIYA USULLARI

Akbarova Mohigul Gulomovna, Annakulova Dildora Baymurodovna

Guliston davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti “Musiq ta’limi” kafedrası
o‘qituvchisi, e-mail: maysaraakbarova@gmail.com

San‘atshunoslik fakulteti “Musiq ta’limi” kafedrası o‘qituvchisi,
e-mail: annakulovadildora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta‘lim jarayonida yangi metod va texnologik usullar va ulardan samarali foydalanish, fanlararo tadqiqotlar, ijodiy yechimlar va yangi istiqbollarni topish uchun fan sohalarini birlashtirish, Fanlararo ta‘lim yo‘nalishi talabalarga o‘z qiziqishlariga muvofiq darajani moslashtirish imkonini berishi hususida so‘z boradi.

Abstract: *This article is about new methods and technological methods in the educational process and their effective use, interdisciplinarity, bringing together disciplines to find creative solutions and new perspectives, and how interdisciplinary courses can help students adapt their degree to their practice.*

Kalit so‘zlar: ta‘lim- tarbiya, interdisiplinar usullar, fanlararo hamkorlik. Zamonaviy yondashuv, pedagogik tajriba.

Key words: *education, interdisciplinary methods, interdisciplinary cooperation. Modern approach, pedagogical experience.*

Oliy ta'limga mutahassislar tanlov tizimini yanada rivojlantirish, sifatli va yetuk kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish, hamda ushbu jarayonga qaratilgan eng yangi texnologiyalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olgan innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda kompyuter savodxonligini oshirish, shu jumladan turli dasturlar orqali, axborot texnologiyalarini faol o'zlashtirish bilan har bir sohani qamrab olish jarayoni ketmoqda. 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida ham axborot texnologiyalarining tarqalishi qayd etilgan.

Shunday qilib, ta'limni, mehnatni va umuman zamonaviy hayotni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda institutlar, universitetlar, gimnaziyalar, maktablar, kollejlari, texnik maktablar va hattoki bolalar bog'chalari eng so'nggi kompyuter texnologiyalari bilan jihozlanganligi ham bunga aniq misol bo'la oladi. Ta'lim sohasida kompyuterlashtirish, internetlashtirish, shuningdek, axborotlashtirish jarayonlari mavjud. Ushbu o'zgarish natijasida ta'lim sifati, samaradorligi va mavjudligi yaxshilanmoqda.

O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan bir qatorda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yagona interaktiv axborot makonini yaratish dolzarb masala bo'lib bormoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o'qituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo'llamoqda. Ulardan:

- Juftlikda ishlash;
- Karusel;
- Kichik guruhlarda ishlash;
- Akvarium; Tugallanmagan gaplar;
- Aqliy hujum;
- Broun harakati;
- Daraxt echimi;
- O'z nomimdan so'zlayman;
- Rolli o'yinlar;
- Press metod;
- O'z pozitsiyasini egallash;
- Munozara;
- Debatlar;
- Katta davra va boshqalar.

Yuqoridagi turli shakl – formalardan foydalanishda, o'quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan hollarda qo'llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkinligi hususida juda ko'p tajriba sinovlari

hamda ilmiy amaliy ishlar olib borilgan. Lekin bugun ta'lim tizimida yanada yangi metodlar, yangi jumla va tamalar kirib kelmoqdaki ular asosida ish ko'rish va dars jarayonlarini tashkil etish davr talabiga aylanmoqda ham. Jumladan bugun ta'lim tarbiya jarayonida interdisipilinar usullar kirib kelmoqdaki bir yo'nalish fani yoki sohasini boshqa yondosh fanlar va yo'nalishlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlashini talab etadi. Ushbu jarayon sintez jarayon bo'lib yangi g'oya va metodlarni kashf etishda yahshi amaliy jarayon bo'lib hizmat qiladi.

interdisiplinar usullar (interdisciplinary) Fanlararo tadqiqotlar sinergiya, ijodiy yechimlar va yangi istiqbollarni topish uchun fan sohalarini birlashtiradi. Fanlararo ta'lim yo'nalishi talabalarga o'z qiziqishlariga muvofiq darajani moslashtirish imkonini beradi. Ba'zi bilim dargohlari o'quvchi, talaba yoshlarga o'z darajasini o'zlari qurishni taklif qiladilar ham, boshqalar alohida sohalarni birlashtiruvchi dasturlarni loyihalashtiradi. Ikki yoki undan ortiq ta'lim yo'nalishlarini birlashtirgan fanlararo ta'lim dasturlari bakalavriat yoki magistratura talabalariga kurs ishlarini tanlashda ko'proq moslashuvchanlikni beradi. Agar biz o'qituvchi pedagog sifatida talabalarimizni fan jarayonida nimalarni xohlayotganini aniq bila olsak va yoki turli xil qiziqishlarini qanday bog'lanishini o'rganmoqchi bo'lsak, fanlararo ta'lim darajasini olish shaxsiy va professional maqsadlarimizga erishishning eng yaxshi usuli ekanligini bilishimiz kerak. Va fanlararo tadqiqotlar, fanlararo hamkorlik qilish haqiqiy pedagog uchun mushkullik qilmasligini his qilishimiz kerak.

Fanlararo ilmiy daraja dasturlari ikki yoki undan ortiq an'anaviy akademik ta'lim kurslarini yanada moslashtirilgan mutaxassislikka birlashtiradi. Turli xil fanlarni o'rganadigan liberal san'at darajasidan farqli o'laroq, fanlararo daraja talabalarga bir nechta sohalarni qamrab oladigan ko'proq yo'naltirilgan mavzuni o'rganishga imkon beradi. Masalan biz "Musiqiy ta'lim" kafedrası "Vokal san'ati" yo'nalish talabalarini o'qitish jarayonida Yakka honandalik fani amaliy mashg'ulotlarini olib borishda

Vokal+Sahna madaniyati + sahna nutqi +musiqa nazariyasi+solfedjo

Kabi mutahassislik fanlari hamkorligi bilan bir qatorda:

Tibbiyot (ijro jarayonida to'g'ri nafas olish, ortikulyatsion aparatlarni to'g'ri ishlash mehanizmlarini nazorat qilish jarayonlarida) + ***Psixologiya*** (Ijro jarayonida kuchli hayajon, ijro imkoniyatiga o'zini tayyorlash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash jarayonlarida) + ***Jismoniy tarbiya*** (fizik harakatlar, talaba erkinligi, qo'l harakatlari, gavda to'g'ri tutish kabi jarayonlarda) + ***IT*** (zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida video, audio zapislar, proektorlar orqali notalar, qadimiy yozma amaliy meros namunalarini taqdim etish jarayonida) o'zar hamkorlikda ishlaymiz va bu jarayon talaba fanni tezroq va sifatli o'zlashtira olishi 5 – 6 yillik tajriba va malakamiz davomida yaqqol namoyon bo'ldi deb bermalol ayta olamiz.

Fanlararo ta'lim darajasi biz o'zimiz erishmoqchi bo'lgan daraja uchun yaxshiroq tayyorlaydigan bir nechta sohalarda jamlash imkonini beradi. Qo'shimcha moslashuvchanlik bir ixtisoslikda birlashmoqchi bo'lgan bir nechta qiziqishlarga ega bo'lgan talabalar uchun ideal ko'rinadi.

Vokal san'ati bakalavryat yo'nalishi talabalari uchun fanlararo tadqiqotlar namunasi bakalavriat dasturi uchun namuna:

Asosiy o'quv rejasi: gumanitar fanlar, matematika, tarix va ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tishingiz kerak bo'lgan kurslar.

Asosiy tanlov: Vokal. Maqom yakka honandaligi, maqom asoslar, fortepiano, solfedjo, musiqa tarixi... hamda fanlarga mos keladigan kurslar

Bepul tanlov: talaba tanlagan ta'lim yo'nalishlaridan tashqari to'garak. Mustaqil, ta'lim, amaliy va nazariy mashg'ulotlar.

Tezis: odatda bitiruv uchun talab qilinadigan yakuniy hujjat – Malakaviy ish, kurs ishi, malakaviy amaliyot hisoboti va talabning barcha ta'lim sohalarini jalb qiladigan tadqiqotlar orqali fikrini isbotlash imkoniyati.

Boshlovchi loyihasi: bitiruv uchun ham talab qilinishi mumkin bo'lgan yakuniy loyiha, bu talabning barcha ta'lim sohalarini bo'yicha bilimni namoyon etadi. (Imtihonlar misolida)

Yuqoridagi dastur asosida o'qitish jarayonida tajribaga qarab, talabning o'qish jarayoni bo'yicha to'g'ri yo'lda ekanligini tasdiqlashi yoki o'zining xohlagan kasbni egallashi uchun qaysi qo'shimcha darslarni o'tashi kerakligini aniqlashga yordam berishi mumkin. Bu jarayonda pedagog katta rol o'ynaydi. Musiqiy ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning psixologik asoslarini o'rganish o'ta muhimdir. Bizning hayotimizda musiqa har bir uyga kirib borgan. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi, Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazardan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatining barcha rango-rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarning o'zgartirib turishlari, avjlanishi va pasayishi jarayonlarini qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda bugun zamon tezkorlik bilan rivojlanmoqda va rivojlanish oqimiga barchani birdek ixtiyoriy va noihtiyoriy tortib ketmoqdagi, ushbu oqimda tajribali, mustahkam bilim sol (qayiq) i bilan suzgan suzishni bilmay oqishdan ko'ra yaxshiroq ekanligini hamma yaxshi angelaydi. Ta'lim jarayoniga e'tiborsizlik qilmay yangi zamonaviy texnologiyalar bilan hamohang bo'lib ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.G'.Yo,,ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.
2. S.X.YO,,ldosheva. O,,zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. –T.: “O,,qituvchi” nashriyoti. 1985-yil.
3. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim. – T.: 2005-yil. №1-son.
4. M. Akbarova Musiqiy ritmik xatti –harakatlar o'quv qo'llanma. Guliston 2022
5. Mohigul Akbarova, & Konurova Leyla. (2021). PEDAGOGICAL RECOMMENDATIONS THAT STUDENTS WILL NEED IN THE PROCESS OF TEACHING VOCAL ART. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(07), 18–20. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HXS8T>.
6. Akbarova Mohigul, & Tadjiboyev Dilmurod. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE ART OF NATIONAL MAQOM IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCIES OF FUTURE PROFESSIONALS IN THE FIELD OF VOCAL ART TRADITIONAL SINGING. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 111–114. Retrieved from <https://www.involta.uz/index.php/iv/article/view/249>
7. Akbarova , M. (2022). VOKAL SAN'ATI. AN'ANAVIY HONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 122–126. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1838>.

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISHNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri v.v.b

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yo'nalishlari, amaliy mashg'ulot jarayonida interfaol usullar va integratsiya jarayonini tashkil etish imkoniyatlariga to'xtalgan holda 1-3-sinf tabiiy fanlar darslariga oid amaliy mashg'ulot o'tkazish namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, amaliy mashg'ulot, interfaol metodlar, integratsiya, STEAM texnologiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning

asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Bu hujjat asosida tabiiy fanlarni o‘qitish masalasi ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tabiiy fanlar - kuzatuv va tajribalarga, dalillarga asoslanib, tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish, tushunish, qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tabiiy fanlar o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o‘quv fanlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro integrasiyasini ta‘minlaydi. Amaliy mashg‘ulot darslari fanning dasturlari hamda mavzuviy rejalariga qat‘iy amal qilingan holda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulot darslariga o‘qituvchi juda puxta tayyorgarlik ko‘rishi talab etiladi.

U amaliy mashqlar yechish davomida paydo bo‘ladigan har qanday muammolarni atroflicha o‘quvchilarga tushuntirib berish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi har bir amaliy mashg‘ulot darsini o‘tkazish rejasini puxta tuzib chiqishi kerak. Uni qanday yangi pedagogik texnologiyalaridan yoki yangi interfaol usullardan foydalanishni aniqlab olishi zarur. Kerakli ko‘rsatma va tarqatma materiallarini oldindan tayyorlab qo‘yish talab etiladi. Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interfaol usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiradi. Amaliy mashg‘ulotda ko‘proq o‘quvchilar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o‘qitishning interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyida darsliklarga kiritilgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishdagi faol usullarga e‘tibor qaratib o‘tamiz.

1-sinfda “Harakat qanday yuzaga keladi?” mavzusi asosida samolyot va parashut yasab uni harakatini kuzatish hamda turli narsa-buyumlarni tortib, itarib, ko‘tarib va tushirib harakatni hosil qilishni amaliy bajaragan holda harakat haqidagi tushunchalar kengaytiriladi.



2-sinf tabiiy fanlar darsiga oid “Haroratni o‘lchash” mavzusi asosida tana haroratini oddiy holda va jismoniy mashqdan keyin o‘lchash natijalarini solishtirishni amaliy ish jarayonida bajarish orqali kompetensiyalar hosil qilinadi.



3-sinfda “Masofa va vaqtni o‘lchash” mavzusida amaliy mashg‘ulot uchun

o‘yinchoq mashina, o‘lchov tasmasi, sekundomer asosida avval sekinroq va so‘ngra kuchliroq itarib ko‘rib mashinaning vaqiti va bosib o‘tgan masofasi o‘lchanadi.



Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarni mavzu yuzasidan ko‘proq mustaqil fikr yuritishga, o‘z fikrini bayon etishga undaydi, integratsiya jarayonini STEAM texnologiyasi asosida yuzaga keltirish imkoniyati ham amalga oshiriladi. Darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o‘rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchi har bir o‘quvchining faoliyatini to‘g‘ri va xolisona baholashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. K. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. Z. B. Sangirova [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3-sinfi uchun darslik – Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022.

TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV

Tairova Gulshoda Asadovna

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi
o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san’at darslari jarayonida kreativlik, ijodiy yondashuv asosida rasmlar chizishga yo‘naltirish, uning samaradorlikdagi ahamiyati ko‘rsatilgan holda misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, kreativlik, ijodiy yondashuv, kreativ fikrlash, ixtiro, rasm.

Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek bugun biz “Mustaqil o‘ylay oladigan tafakkur yuritib to‘g‘ri ma‘qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak”.

Bugungi kunda biz o‘qituvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishimiz lozim. O‘qituvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozimligidadir. Shuningdek, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirishda motivatsion, texnologik va reflektiv yondashuvlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarni bu faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish, yangicha yondashuv va harakat qilishga o‘rgatish muhim sanaladi. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo‘lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo‘ladilar.

Kreativlik (ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarini ishlabchiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.


“Kreativ fikrlash” - o‘z maqsadlarga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Kreativlik - o‘quvchining yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, tasavvur, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Masalan: hech kimnikiga oxshamagan quyosh rasmini chizing topshirig‘i asosida o‘quvchilar o‘zlari kreativ yondashgan holda turlicha rasmlar chizadilar:





O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda:

- O‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitni ta’minlash;
- O‘quvchilar ijodiy fikrlashi uchun qulay imkoniyat yaratilib, ular bayon qilgan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikengliklik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;
- O‘quv jarayonini o‘quvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;
- O‘quvchilarga individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risi”dagi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 5-dekabr 372-son buyrug‘i.
3. N.Vaxobova va b.q “Tasviriy san’at 3” O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. T-2022.

INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Niyozova Ella Salimbayevna

Guliston shahar 11-umumta’lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

+998994775403

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlarni o‘rni va ularni qo‘llash imkoniyatlariga to‘xtalgan holda

“Rezyume” texnologiyasi hamda “Charxpalak” metodini qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, interfaol metodlar, “Rezyume” texnologiyasi, “Charxpalak” metodi, muloqot.

Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bu muammoni hal etishning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, ularda bilim olishga qiziqish, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish, ma‘naviyatini shakllantirishni ko‘zda tutadigan o‘qitish metodlari hamda o‘quv-metodik materialni ishlab chiqish va tatbiq etishdan iboratdir. Shu sababli o‘quv jarayonining tuzilishi, uning metodlari va tashkiliy shakllarini doimo takomillashtirish, o‘quv topshiriqlarining bajarilish usullarida yangi elementlarni kiritib borish zaruriyati paydo bo‘ladi. O‘quvchilar faolligini oshirishda metodlarni to‘g‘ri tanlab, bilish faoliyatini oqilona boshqarish yordamida erishiladi. Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Charxpalak”, “Insert”, “Blis-o‘yin”, “Rezyume” kabi interfaol metodlardan o‘rinli foydalanish, dars samaradorligini oshiradi.

“Rezyume” texnologiyasi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. **Maqsadi:** O‘quvchilarni erkin, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda uning muammosini, yechimini topishga o‘rgatish.

Vazifasi: O‘quvchilarni kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir o‘tkazishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarni qo‘llay olishga o‘rgatadi. Masalan: o‘quvchilar fasllarga oid rasmlar asosida fasllarning ijobiy hamda salbiy tomonlarini ingliz tilida tavsiflab beradilar.




“Charxpalak” metodi o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini aniqlashga qaratilgan.

Maqsadi: o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini

aniqlash, bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada mustahkamlash.

Vazifasi: o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, hozirjavoblik, yakka va guruhlarda ishlashga o‘rgatadi, shuningdek kerakli fikrlarni tanlay olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.



Narsa nomlari	Meva	Sabzavot	Qush	Hayvon
Rabbit				+
Carrot		+		
Pear	+			
Nightingale			+	
Crow			+	
Fox				+
Banana	+			
Elephant				+

Demak, ingliz tili darslarida ilg‘or pedagogik va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchining o‘rganish jarayonini jadallashtiradi, mustaqil fikr yuritish, axborot manbalari murakkab muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T. 2004.
2. R.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T. 2006.
3. S.Xan, L.Jo‘rayev, K.Inogamova- Kids’ English 3 Pupil’s book. Tashkent “O‘zbekiston” 2017.

O'QITUVCHILARNING DARS MASHG'ULOTLARINI SIFATLI TASHKIL ETISHDA ONLINE PLATFORMALARNING AHAMIYATI

Xolmurotov Shaxriddin Baxriddinovich

*Sirdaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
o'quvchilarni bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti*

ANNOTATSIYA

Bugungi raqamli asrda onlayn ta'lim platformalar ta'lim jarayoni uchun bebaho vosita sifatida paydo bo'ldi. Ularning katta ta'sir ko'rsatadigan muhim sohalaridan biri o'qituvchilarning darslarini tashkil etish va o'tkazishdir. Ushbu platformalar o'qituvchilarga qiziqarlini va yuqori sifatli darslar yaratish qobiliyatini oshiradigan bir qator resurslar, interfaol xususiyatlar va hamkorlik vositalarini taqdim etadi. Ushbu maqolada biz onlayn platformalarning o'qituvchilar darslari sifatini oshirish va o'qitish-ta'lim jarayonini sifatini oshirishdagi ahamiyatini o'rganamiz.

АННОТАЦИЯ

В нынешнюю цифровую эпоху платформы онлайн-обучения стали бесценным инструментом образовательного процесса. Одной из основных областей их влияния является организация и проведение обучения учителей. Эти платформы предоставляют учителям ряд ресурсов, интерактивных функций и инструментов для совместной работы, которые делают занятия более увлекательными и позволяют создавать высококачественные уроки. В этой статье мы исследуем важность онлайн-платформ для повышения качества уроков учителей и улучшения качества процесса преподавания и обучения.

ANNOTATION

In today's digital age, online learning platforms have emerged as an invaluable tool for the educational process. One of their major areas of influence is the organization and delivery of teacher training. These platforms provide teachers with a range of resources, interactive features, and collaboration tools that enhance the fun and ability to create high-quality lessons. In this article, we explore the importance of online platforms in improving the quality of teachers' lessons and improving the quality of the teaching-learning process.

Kalit so'zlar: Interaktiv ta'lim shakllari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv simulyatsiyalar, virtual sayohatlar,

Resurslarning yetarliligi: Onlayn platformalar o'qituvchilarning darslarini boyitishi mumkin bo'lgan juda ko'plab ta'lim resurslarini taklif etadi. Elektron kitoblar, maqolalar va tadqiqot ishlaridan tortib videolar, interaktiv simulyatsiyalar va virtual sayohatlar kabi multimedia kontentlarigacha, ta'lim platformalari o'qituvchilarga o'quv dasturlarini to'ldirish uchun ko'plab materiallarni taqdim etadi. Turli xil manbalarning mavjudligi o'qituvchilarga ma'lumotlarni turli

formatlarda taqdim etish, turli xil o'rganish uslublariga moslashish va darslarining chuqurligi va kengligini oshirish imkonini beradi.

Interaktiv ta'lim shakllari: Onlayn platformalar talabalarni faol jalb qiladigan interaktiv ta'lim tajribalarini osonlashtiradi. Ular viktorinalar, so'rovlar, muhokama forumlari va o'quvchilar ishtiroki va interaktivligini targ'ib qiluvchi o'yin elementlari kabi xususiyatlarni taklif qiladi. O'qituvchilar o'quvchilarning tushunchalarini baholash, hamkorlikni rag'batlantirish va darhol fikr bildirish uchun ushbu vositalarni o'z darslariga kiritishlari mumkin. Ushbu platformalarning interaktiv tabiati passiv o'quvchilarni faol ishtirokchilarga aylantiradi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: Onlayn platformalar o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun o'z darslarini moslashtirishga imkon beruvchi shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu platformalar ko'pincha o'quvchilarning muvaffaqiyati va samaradorligiga qarab ta'lim mazmuni va sur'atini moslashtiradigan moslashuvchan ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar ma'lumotlar tahlili va talabalarni kuzatish xususiyatlaridan talabalar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan joylarni aniqlash uchun foydalanishi mumkin, bu ularga maqsadli aralashuvlar va tabaqalashtirilgan ko'rsatmalarni taklif qilish imkonini beradi.

Hamkorlik va aloqa: Onlayn platformalar o'qituvchilar, talabalar va hatto ota-onalar o'rtasida uzluksiz hamkorlik va muloqotni osonlashtiradi. Ular umumiy hujjatlar, hamkorlikdagi ish joylari va lahzali xabar almashish vositalari kabi xususiyatlarni taklif etadi, bu esa o'qituvchilarga o'z talabalar bilan sinf devoridan tashqarida ham bog'lanish imkonini beradi. Bu doimiy muloqotni rivojlantirish, guruh loyihalarini osonlashtirish va tengdoshlar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish orqali o'rganish tajribasini oshiradi. O'qituvchilar o'z vaqtida fikr-mulohazalarini taqdim etishlari, shaxsiy tashvishlarni hal qilishlari va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim hamjamiyatini yaratishlari mumkin.

Samaradorlik: Onlayn platformalar o'qituvchilarning darslarini tashkil etish va boshqarishni soddalashtiradi. Ular darsni rejalashtirish, kontent yaratish va rejalashtirish uchun vositalarni taqdim etadi va o'qituvchilarga o'quv dasturlarini samarali tuzishda yordam beradi. O'qituvchilar o'zlarining o'quv materiallarini, dars rejalarini va baholashlarini bitta markaziy joyda saqlashi va tartibga solishlari mumkin, bu ularga kerak bo'lganda kirish va yangilashni osonlashtiradi. Ushbu platformalar vaqtni tejaydi, ma'muriy yukni kamaytiradi va o'qituvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Kasbiy rivojlanish: Onlayn platformalar uzluksiz professional rivojlanish uchun yo'llarni taklif qiladi. Ular onlayn kurslar, vebinarlar va amaliyot hamjamiyatlariga kirishni ta'minlaydi, bu esa o'qituvchilarga o'zlarining pedagogik mahoratini oshirish va ta'limning so'nggi tendentsiyalaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. Ushbu platformalar orqali o'qituvchilar tengdoshlari bilan

hamkorlik qilishlari, ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashishlari va innovatsion o'qitish strategiyalarini o'rganishlari, natijada dars sifatini oshirishlari mumkin.

Xulosa: Onlayn platformalar zamonaviy dars elem sinflarda ajralmas bo'lib, o'qituvchilarning darslarini tashkil etish va o'tkazish usullarini inqilob qildi. Ushbu platformalar ta'lim sifatini, ishtirokini va shaxsiylashtirishni yaxshilaydigan ko'plab resurslar, interaktiv xususiyatlar va hamkorlik vositalarini taklif etadi. Onlayn platformalardan foydalangan holda, o'qituvchilar chuqurroq o'rganishga yordam beradigan, talabalar ishtirokini rag'batlantiradigan va individual talaba ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlovchi dinamik va ta'sirli darslarni yaratishi mumkin. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, o'qituvchilarning darslarini sifatli tashkil etishda onlayn platformalarning ahamiyati oshib boradi, bu esa o'qituvchilarga ta'lim kelajagini shakllantirish uchun imkoniyatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardaev, A. (2008) Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Iste'dod.
2. Muslimov, N., Usmonboeva, M., Sayfurov, D., & To'raev, A. (2015) Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Sano-standart.
3. Tolipov, O'.Q., & Roziyeva, D.I. (2019) Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan.
4. Abdunazarova N.F. Pedagogicheskiye osnovy povыsheniya kvalifikatsii prepodavateley professionalnykh kolledjey v usloviyax informatizatsii obrazovaniya Diss. k. p. n. - T. 2008.
5. Djurayev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskiye osnovy intensivatsii sistema professionalnoy podgotovki v uchebnykh zavedeniyaх professionalnogo obrazovaniya: Avtoref. diss. ... dok.ped.nauk. - SPb.: 1995.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TURLARI

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich,

GulDU doktoranti, suyunovilhom777@gmail.com

Annotatsiya: *yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq kishilar qilib yetishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bobida qo'llanib kelgan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Informatika ta'limiga yangicha yondashuv asosida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga, mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishga katta xissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *muammoli o'qitish, ilmiylik, uzviylik, tizimlik, komponent, bilim, malaka, ko'nikma, ta'lim.*

Annotation: *the views on the goals and objectives of education in the development of young people in accordance with the expected goals, as well as the methods, tools, skills and skills used by the public in the implementation of educational work, based on experience is the sum of knowledge and data. The use*

of educational technologies based on a new approach to computer science education will greatly contribute to the understanding of students' national identity and become worthy children of independent Uzbekistan.

Key words: *problem-based learning, science, membership, system, component, knowledge, skills, abilities, education.*

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishni, jamiyatning ma’naviy yangilashini ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishni ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. [3]

Zamonaviy bozor iqtisodining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo‘jaligini barcha tarmoq va zvenolarning keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Korxonalar orasidagi raqobat o‘z navbatida, fan -texnika va texnologiyani, ya’ni ilmiy texnika taraqqiyotining (ITT) jadallashuviga olib keladi.

ITT ning jadallashuvi, hayotning barcha sohalarida tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish imkoniyatini beradi.

Avtoritar va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining mohiyati o‘qitish jarayonida, pedagog texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan o‘quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyot jadallashgan davrda o‘qitish samaradorligi, asosan, o‘quvchining o‘qitish jarayonidagi o‘rni, pedagogning unga bo‘lgan munosabatiga bo‘liq bo‘ladi. Bu erda o‘qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo‘naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi, talablar esa faqatgina «ob’ekt» vazifasini bajaradi, xolos. Bunda tahsil oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy yo‘sinda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika printsiplariga asoslangan o‘qitishning sinf-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning sinf-dars tizimi, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzuga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi;

- o‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

An’anaviy o‘qitish asosan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi.

An’anaviy o‘qitish asosini, Ya.A. Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika printsiplari tashkil etadi:

- ◆ ilmiylik;
- ◆ tabiatga monandlik(o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi, ammo shakllanmaydi);
- ◆ uzviylik va tizimlik;
- ◆ o‘zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga);
- ◆ mustahkamlik (takrorlash, takrorlash...);
- ◆ onglilik va faoliyat (qo‘yilgan maqsadni bilgan va buyruqlarni bajarishga

faol bo'lgan);

- ◆ nazariyaning amaliyot bilan boo'liqligi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda masho'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. [2]

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyo'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantio'i o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni echimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning echimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tuo'iladi.

O'quvchi noma'lum echimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o'qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o'quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo'ladigan zaruriy ob'ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli

muammoli o'qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir. Muammoli o'qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlashni shakllantiradi. [1]

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo echimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo echimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kyechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va ijobatsiz qolmasligi zarur.

Har qanday o'quv materialini ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulkarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.

TARIXIY MANBALAR VA ULARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH

Qlichev Ulug'bek Abdumavlonovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz. Moddiy yodgorliklarga - qadimiy obida, manzilgoh va mozor, shahar, qasr va qal'alar xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar deganda – bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi. Umuman tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan

va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklardan iborat.

Tarixiy manbalarni, ularning umumiy xarakteri, o'tmishni o'zida aks ettirishiga qarab quyidagi olti asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Moddiy (ashyoviy) manbalar
2. Etnografik manbalar
3. Lingvistik manbalar
4. Xalq og'zaki ijodi

5. Yozma manbalar

6. Mo'jaz rasm-miniatyuralar

Shuningdek, manbashunoslik, tarix fanining bir qator yordamchi sohalari: xronologiya, numizmatika, paleografiya, diplomatika, geraldika, sfragistika, epigrafika, metrologiya fanlari ma'lumotlariga tayanadi.

O'qituvchining bayonining ilmiylikini, asosli va dalillarga boyitilishini va ishonchliligini ta'minlash maqsadida tarixiy manbalardan olingan parcha, jumla, ifodalardan foydalanadi. Bunda albatta o'qituvchi tarixiy asarlarning mavzuni o'qitishdagi asosiy o'rnini aniqlab olishi, asarning birinchi darajadagi asosiy manba ekanligini, ya'ni asarda tarixiy voqealar ob'ektiv va xolis yoritilgan bo'lishini aniqlashtirishi – bu yozma manbalardan foydalanishda asosiy shart ham hisoblanadi. Chunki shunday yozma manbalar ham borki ularga tarixchi tanqidiy yondashishi, boshqa manbalar bilan qiyosiy tadqiq va tahlil etgachgina dars jarayoniga jalb qilishi talab etiladi. Demak, tarixchi-pedagog manbashunoslikka oid adabiyotlarning tahlilini ham amalga oshiradigan mutaxassis bo'lishi ham talab etilar ekan. Buning uchun o'qituvchi manbashunoslikka oid qo'llanma va xrestomatiyalardan foydalanishi, ularda barcha mavzularga tegishli bo'lgan tarixiy yozma yodgorliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmog'i lozim. Bu ma'lumotlar T.Saidqulovning O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar, akademik B. Ahmedovning O'zbekiston tarixi manbalari, A. Madraimov va G.Fuzailova tuzgan Tarixiy manbashunoslik, shuningdek izohlar bilan ta'minlangan tarjimai amalga oshirilgan yozma manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tarix ta'limida tarix o'qitish tajribasida tarixiy manbalar bilan ishlashning quyidagi ikki usuli, ya'ni tarixiy hujjatlardan o'qituvchining bayonida foydalanish usuli bilan o'quvchilarning matn ustida ishlash usuli qo'llaniladi.

O'qituvchi tarixiy manba yoki xrestomatiyadan olingan hujjatning mazmuni va o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab uni tahlil qilishi, o'quvchilarga hujjat yuzasidan savollar berishi yoki umumlashtiruvchi suhbat yordamida tahlil qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlar ustida ishlashda o'quvchilar ularni nima uchun xizmat qilishini, tanishilayotgan hujjatlar qachon va kimlar, qaysi tabaqa namoyandalari tomonidan yaratilganini, ulardan nimalarni bilib olish mumkinligini, qanday masalalarni bilib olishda hujjatlarga murojaat qilish kerakligini anglab, tushunib olishlari lozim.

Tarixiy manba va hujjatlar ustida ishlashning turli usullari bor.

1. O'qituvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.
2. Tarixiy hujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.

Tushunish qiyin bo'lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o'qituvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnni kuzatib borishadi va o'qituvchining

tushuntirishlarini diqqat bilan tinglaydilar. Yuqori sinflarda hujjat izoh berib o‘qiladi.

O‘quvchilarga ularning bilim va malakalariga yarasha tushunarli hujjatlar tanlab berilgan va hujjatlar ustida mustaqil ishlashni ilgari ham mashq qilib ko‘rgan bo‘lsalar o‘qituvchi vazifa qilib bergan hujjatlarni mustaqil o‘qib, puxta tushunib olishlari mumkin. Lekin bunda ham o‘qituvchi bu ishga rahbarlik qiladi, qiyin joylarini o‘qituvchi rahbarligisiz, oson joylarini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil o‘rganadilar. Xo‘jalik, yuridik va shu kabi boshqa qiyinroq xarakterdagi hujjatlar o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi.

VIII sinfdan boshlab ba’zi darslar soatining bir qismi yoki butun dars hujjatlar ustida ishlashga bag‘ishlanadi. O‘quvchilarning darsda va uydagi mustaqil ishlariga talab ortib boradi. Tarixiy hujjatlar asosida qisqacha axborot va referatlar tayyorlash, hikoya qilishga tayyorlanish, insho yozish va h. q. O‘quvchilarning hujjatlar ustidagi mustaqil ijodiy ishlari qatoriga kiradi. O‘quvchilarni hujjatlarni o‘rganishga qiziqtirish, bunga ular da ishtiyoq uyg‘otish kerak. Buning uchun ularga hujjatlar ma’lum davrning moddiy yodgorligi va yangi bilimlarni egallashning muhim manbalaridan biri ekanligini alohida uqtirish lozim.

O‘quvchilar qadimgi dunyo tarixining kirish qismida yozma manbalar haqida ma’lum tushuncha hosil qiladilar. Keyinchalik bu tushunchalar turli manbalarni yoki yodgorliklarni o‘rganib borish, turli muzey va yozma manbalar bilan tanishish jarayonida konkretlashib, boyib, kengayib boradi. Shunday qilib, tarixiy hujjatlar o‘qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli bo‘lishini ta’minlaydi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustaxqam bo‘lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqot shakllari bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘afforov Ya.X, G‘afforova M. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish usullari. T., 2008.
2. Sa’diev A. Maktabda tarix o‘qitish metodikasi. T., 2011.
3. Shaxmaev N.M. Didakticheskie problema primeneniya texnicheskix sredstv obucheniya v sredney shkole. M., 2012.
4. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. T., 2000.
5. Axmedov D. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 2004.
6. Toshpulatov T, G‘afforov Ya. Tarix o‘qitish metodikasi. T., 2000.
7. Maxmutov M. Maktabda muammoli ta’limni tashkil qilish. T., 2011.

TALIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUV DARS SAMARADORLIGINING OMILI

K.Eshquvatov

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi dotsent

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan.

Ta'lim va tarbiya kata e'tibor berilishi barkamol shaxsni kamol toptirishga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da: "Kadrlash tayyorlash sohasidagi davlat siyosiy insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan ilmiy uzluksiz ta'lim berish orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllashtirishni nazarda tutadi" – deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda innovatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning maqsadimizda qo'lga kiritilgan ilg'or pedagogik tajribalarni, Bunyodkorlik va ijodkorlik namunalarini pedagogik texnologiya talablariga mos holda axborot texnologiya vositalari asosida ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Bu jarayonda texnologik, tizimli va ijodiy yondashuv uyg'un holda amalga oshirilib, vaqt me'yori tejaladi, tinglovchi (o'qituvchi) ortiqcha zo'riqmaydi, eng asosiysi mustaqil fikr, ijodiy izlanish tinglovchining kundalik faoliyatiga aylanib boradi.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq jarayonida ta'limning shakllari jarayonida ta'limning, metodlari, usullari hamda vositalari takomillashib boradi. Bu albatta o'qituvchilarning kasbiy pedagogic maxorati bilan bog'liq bo'lib har doim tinglovchini izlanishga o'z o'rnida izchil ishlashga va ijodkorlikka safarbar etadi.

Masalan, "Men munozarada" metodga o'quvchilar to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi bu aynan baxs munozaralar o'tkazish uchun qulay, bunda o'quvchi o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi.

"Men hamkorlikdaman" metodda: o'quvchilar kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Bunda to'rt besh kishidan bo'lib, alohida stellar atrofida o'tirib, har bir guruh o'z qarorini chiqaradi.

Hozirgi kunda zamonaviy darslarni tashkil etishda quyidagi interfaol metodlardan: "Videotopshiriq", "Aqliy hujum", "Beshinchisi ortiqcha", "Zig-zag", "Veni diagrammasi", "O'zaro ta'lim" foydalanilmoqda.

Bu usullarning barchasida o'quvchilar o'ylashga, izlanishga, aqliy qobiliyat va imkoniyatlarni ishga solishga moslashtirilgan muammoli savol vazifa va vaziyatlar hosil qilinadi.

Bunday metodlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabi qobiliyatlarni shakllantiruvchi o'qitish usullari hisoblanadi va o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini sifat jihatdan tubdan oshirishga erishiladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINI AKT SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Tolibbayeva Umida Qalandarovna

Sirdaryo viloyati MMT boshqarmasi Bolalar salomatligini ta'minlash, inkluziv ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish sho'ba metodisti

Annotatsiya: ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarini AKT savodxonligini oshirish hamda innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish haqida.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, axborot texnologiyalari, multimedia, mashg'ulot, kompyuter, lokal tarmoq, taqdimot, maktabga tayyorlov guruhi.

Har qanday innovatsiya texnologiya orqali amalga oshirilishdan tashkil topadi. Innovatsion texnologiya - bu inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyotni ta'minlash va samaradorlikni oshirish uchun yangi narsalarni yaratish yoki mavjudini takomillashtirish texnikasi va jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion texnologiya yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar kiradi. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Maktabgacha ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish ham o'qitishning faol shakli hisoblanadi. Bolalar ma'lumotlarni ko'rib eslab qoladilar va oson o'zlashtiradilar. Bolalar ekranda ko'rgan videotasvir mashg'ulot oxiriga qadar ular diqqatini barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarda multimedia vositalarini qo'llash mashg'ulotni yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarda ko'rish, eshitish, idrok qilish, tasavvur jarayoni rivojlanadi.

Multimedia bolalarga o'rganilayotgan o'quv materialini puxta o'zlashtirish, ta'lim jarayonida charchamaslik va zo'riqmaslikka yordam beradi. Taqdimotlar vaqtdan unumli foydalanish, mashg'ulotni sifatli bo'lishini kafolatlaydi. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachi- pedagog shunday vaziyat yaratishi lozimki, bolalar zavqlanishi va dam olishlari, ishtiyoq bilan bilim olishlari lozim. Shuning uchun mashg'ulotlar va kun davomidagi faoliyat qulay va komford muhit yaratilishini talab etadi. Yuqorida keltirilgan ta'limiy- tarbiyaviy jarayonlarning barchasi bolalarda xotira, diqqat va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli kechishida muhim shart hisoblanib, ma'lumotlarni oson va tez o'zlashtirishga yordam beradi.

Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib,

ularning turlari kengayib bormoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi innovatsiyalar eski ta'lim standartlarini modernizatsiya qilishga asoslangan. Zamonaviy tarbiyachi doimiy ravishda o'zini o'zi tarbiyalashga, rivojlantirishga, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish imkoniyatlarini izlashga harakat qiladi. Tarbiyachi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z tarbiyasida vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishi kerak. Innovatsiyalar erta bolalik ta'limi uchun zarur bo'lib qolganiga bir qancha sabablar bor. Avvalo, ular ota- onalarning ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beradi. Innovatsiyalarsiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqa shunga o'xshash muassasalar bilan raqobatlashishi qiyin.

Yangi ta'lim dasturlarini joriy etishdan tashqari, innovatsiyalar boshqa sohalarda ham bo'lishi mumkin: ota- onalar, xodimlar va boshqaruv bilan ishlash. Ularni to'g'ri qo'llash bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti uzluksiz ishlaydi, bolalarning barkamol shaxsini rivojlantirishni ta'minlaydi. Ta'limdagi innovatsiyalarni aks ettiruvchi texnologiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. loyiha faoliyati;
2. salomatlikni tejaydigan texnologiyalar;
3. tadqiqot faoliyati;
4. axborot va kommunikatsion ta'lim;
5. o'yin texnikasi.

Shundan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyasining ahamiyati shundaki, u asosan dam olish bo'lib, ta'lim funksiyasini bajaradi, ijodiy amalga oshirish va o'zini namoyon qilishni rag'batlantiradi. Albatta, u eng yosh maktabgacha yoshdagi bolalar guruhida qo'llaniladi, chunki bu ularning yosh talablariga javob beradi. Undan tejamkorlik bilan foydalanish kerak. O'yin elementlaridan mashg'ulotning istalgan bosqichida: boshida, o'rtasida yoki oxirida so'rov sifatida foydalanish mumkin. To'g'ri tashkil etilgan o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasini, qiziqishini uyg'otadi, shuningdek passivlikni yengadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim texnologiyalari bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishiga yordam beradi, uning o'ziga va o'z kuchiga ishonishiga, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishiga yordam beradi. O'g'il- qizlar dunyoni o'yin orqali o'rganadi, olgan bilimlarini amalda qo'llashga harakat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, boshqa narsalar qatori, tarbiyachilar tomonidan tadqiqot faoliyati deb ataladigan faoliyat turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu nimani anglatadi? Gap, birinchi navbatda, tarbiyachilarning sa'y-harakatlari, bolalarda tafakkurning tadqiqot turini shakllantirishga qaratilgan. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida tarbiyachilar keng tarqalgan usullarga murojaat qilishadi, ya'ni muammoni qo'yish, uni har tomonlama tahlil qilish, modellashtirish, kuzatish, tajriba o'tkazish, natijalarni aniqlash, yechimlarni topish va eng yaxshisini tanlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi innovatsion "murabbiylarga" har bir bolaga yondashuvni topishga, uning xarakter xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi va mashg'ulotlarni hayajonli va g'ayrioddiy "sarguzasht"ga aylantiradi. Buning uchun ota- onalar endi sevimli farzandlarini bog'chaga borishga ko'ndirishlari shart emas. Bolalar zavq bilan tashrif buyurishadi va har kuni

o‘zlarining kichik bilim bazasini boyitadilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya olishni ta’minlash uchun pedagog hodimlar AKT savodxonligini oshirishi, ta’lim tizimiga oid xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganib va amaliyotga tadbiq etishlari kerak. Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta’lim pedagoglari oldida AKTdan foydalanib, bolalarni ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish usullari va shakllarining eng samaralilarini joriy etish, shaxsning imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlab olish va amaliyotga joriy etish vazifalari turibdi.

Zamonaviy jamiyat yosh avlod ta’lim tizimiga, jumladan, uning birinchi bosqichi - maktabgacha ta’limga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ammo muammo iqtidorli daholarni izlashda emas, balki ijodiy qobiliyatlarni maqsadli shakllantirish, dunyoga nostandart qarashni, yangicha fikrlashni rivojlantirishdadir..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2022 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802- son qarori Toshkent 2020 yil.
3. G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004.
4. Polat E.S. Ta’lim tizimidagi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari - M.: “Akademiya” nashriyot markazi, 2008 y.
5. Pedagogika i narodnoe obrazovanie za rubejom. – Moskva: MGU, 1990.
6. Borisova Svetlana Petrovna. Sovremennoe doshkolnoe obrazovanie za rubejom– Moskva: 1994.
7. Zaxarova N.I., Igraem s logicheskimi blokami Denisha. Prosvoditel Detstvo-Press. Rossiya. 2020 god
8. <https://G‘G‘ru.wikipedia.org>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA TA’LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI

Musharaf Primkulova, Lobar Ruzmuxamedova

***Boyovut tuman 20-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
Guliston tumani 7-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion texnologiyalarning mazmuni, boshlang‘ich sinf matematika o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Masala, innovatsion texnologiya, didaktik asos, matematika o‘qitish.

Ta'lim – inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida inson faoliyati bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etish zarur. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnika jarayonining o'zgarishi bilan bog'liq ta'limning yangi nazariyasini yaratish, ya'ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko'rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiyasi barkamol insonni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy-usuliy asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan innovatsion texnologiyalari tahsil oluvchini mustaqil mutolaa qilish, bilim olish, erkin fikrlay olishga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Yurtimizda barcha tarmoqlar kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham jadallik bilan rivojlanib borishi pedagoglar oldiga yangidan-yangi vazifalarni yuklamogda.

O'z navbatida boshqa fanlar qatori boshlang'ich sinf matematika o'qituvchisi ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, vositalari, prinsiplari va tamoyillarini bilishi lozim. Hozirda ta'limni yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlash zamon talabi bo'lib, ta'limda innovatsion texnologiyalarini qo'llash pedagogdan quyidagilarni bilishni talab qiladi:

-har bir bolaning innovatsion texnologiyalarda o'rganadigan bilimni qay darajada o'zlashtirishi mumkinligini;

-har bir innovatsion texnologiyalarni axborot texnologiyasi orqali tushuntira olish;

- axborotdan jarayon sifatida bilim olish va ijod qilish;

- fan-texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlar;

- axborotda jamiyatni rivojlantirish muammolari;

- sun'iy intellektning axborot tizimlari va bilim berish usullari;

- axborotlashning texnik vositalari va telekommunikatsiya vositalari;

- o'quv materiallari haqida axborotli ma'lumot tizimini bilish va qo'llay olish;

- universal va muammoli-masofali innovatsion texnologiyalarini amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega texnologiyalarni;

- axborotni modellashtirish asoslari;

- o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirish tizimi;

- global internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;

- o'quv jarayonida amaliy dastur paketlarini qo'llash;

- o'quv jarayonida elektron pochtdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish.

- diskka yozilishi mo'ljallangan o'quv predmeti strukturasi, mazmunini ishlab chiqish.

- mustaqil ishlash, o'zlashtirish va mustahkamlash uchun savollar to'plamini ishlab chiqish.

- bilimni sinash uchun test savollarini tuzish, sinov va imtihonlarni o'tkazish.

- materialni chuqur o'rganish uchun manbalar ro'yxati, adabiyotlar katalogi, ijodiy ishlar mavzularini ishlab chiqish.

- telekonferensiyalar uyushtirish, faol muhokamani tashkil etish, referat, mustaqil ishlar uchun mavzular ro'yxatini tayyorlash.

- o‘quv mashqlarini bajarish, ketma-ketligini nazorat qilish va baholash shakllarini aniklash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibodullayeva Z.J. “Masofaviy o‘qitish texnologiyalari” fanidan elektron bilimlar omborini yaratish. Mag.dis. – Toshkent, 2012. 14-b.
2. Ротмистров Н.Ю. Мультимедиа в образовании. // ИНФО, 1994. № 4. С.89-96
3. Saitov.Y. Matematika va matematiklar haqida.- T.: “O‘qituvchi”, 1992. 28-33 b

ETNOMADANIYATNING YUZAGA KELISH QONUNIYATLARINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK NUQTAI NAZARDAN O‘RGANILISHI

Usmonqulova Feruza Eshbekovna

Sayxunobod tumani 27-Umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Kalit so‘zlar: Yoshlar, millatlar, etnomadaniyat

Klyuchevoe slova: molodej, natsii, etnokultura.

Key words: Youth, nations, ethnoculture

Annotatsiya. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Yurtimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo totuvlikni munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o‘ynamoqda.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo‘yilgan. Dunyo miqyosida keyingi yillarda aholining migratsion jarayonlari global tus olib, har bir mamlakatda o‘ziga xos madaniyat, hayot tarzi va tili bilan farq qiladigan diasporalar shakllanganligi, har qanday davlatning o‘z hududida yashovchi turli millatlar va elatlarning etnomadaniyati, etnik, migratsion va demografik jarayonlarni hamda aholi etnodinamikasini o‘rganishi tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun muhim ahamiyat kasb etib, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri ekanligini asoslaydi.

Yoshlarda millatlararo munosabatlarni shakllantirish va uyg‘unlashtirish bu – e’tiqod, his tuyg‘ular, urf-odatlar, ehtiyojlar, axloqiy fazilatlar kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oluvchi ko‘p qirrali jarayon. Mana shunday xususiyatlarni ularda shakllanib borishi ijobiy samara berishi shubhasiz. Mamlakatimizda hudduda qadimgi davrlardan turli millat vakillari hamjihatlikda yashab keliygan. Ular yurtidagi hamjihatlikning zaiflashida shubhasiz, uzbek xalqining baqirlik, insonparvarlik xususiyatlari turadi. Masalaning ikkinchi tomoni esa mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgi davrga qadar millatlararo totuvlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosatining samarali olib borilgani bilan xarakterlanadi.

Millat va millatlararo totuvlik tushunchalarini tadqiq etgan nazariyatchi olimlar bu tushunchalarga uzoq ta’riflarini beryotgan. Jumladan,

муаллифлар жамоаси томонидан яратилган “Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик)” номли ўқув кўлланмада “миллат – ўзлигини англаган, ўз руҳиятига эга одамларнинг тарихий, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий жihatдан шаклланган бирлиги”³⁸ сифатида таърифланади. Шу манбанинг ўзида миллат - ягона тил, ҳудуд, иқтисодий минтақа, умумий маданият, миллий анъана, қадрият, манфаатларни биргаликда ҳимоя қилишнинг шаклланиш жараёни сифатида эътироф этилади.

Etnomadaniyat atamasi ikki iboradan tashkil topgan bo‘lib: etno va madaniyat so‘zlari qo‘shilmasidir. «Etnos» so‘zi ilk bor qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi. Etno– yunon so‘zi elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma’lum bir elat yoki xalqqa bo‘lgan ishora. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenez)ni ifodalaydi.” Xalq tarixinig etnogenez qismi deb yozadi A.Asqarov uning elat xalq bo‘lib shakllanishiga qadar bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi Etnogenezning boshlang‘ich nuqtasi uning ibtidosi qabiladan boshlanadi Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik alomatlar sekin asta yuzaga chiqadi. Etnik alomatlari esa xududiy birlik iqtisodiy xo‘jalik birligi etnomadaniy birligi antropologik tip birligi etnik nom o‘zlikni anglash til birligi va nixoyat siyosiy uyushma birligi tashkil etadi. Shulardan kelib chiqib xalq kashf qilgan axloq rasim rasm qadiryat an‘analar xamasi xalq madaniyati (Etnomadaniyat)dagi ijobiy tajribalardan foydalanish hozirgi kunimizning dolzarb masalasidir Bunday tarzda biz o‘zbek xalqining kelib chiqishi, uning etnogenezi (urug‘chilik, nasl)ni tushunishimiz kerak. Shu bilan bir vaqtda etno iborasi ko‘pchilik ilmiy-nazariy manbalarda: Etnografiya– xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyatini ³⁹o‘rganadigan fan sifatida bo‘lib biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariga xos bo‘lgan xususiyatlarini ham ko‘rsatadi. Etnonim tushunchasi ham mavjud, bu xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi atamadir. Bu so‘zni yanada mukammallashtirish maqsadida Etnonimka iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug‘chilik nomlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘limiga aytiladi. Etnograf iborasini ham biz kundalik o‘quv jarayonida qo‘llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassisni tushunamiz. E’tiboringizni etnografiya va folklor faniga qaratib u: 1. Xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyatini; 2. Og‘zaki, yozma hamda musiqiy ijodini o‘rganadigan fan ekanligini tushunamiz. Shunday qilib, biz yuqoridagi ta’riflarga qaratilgan barcha ilmiy- tarixiy asoslarga tayangan holda Etnomadaniyat fani asoslarini quyidagicha izoxlaymiz: Etnomadaniyat biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o‘zbek xalqi), uning madaniyati, turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma’naviy hamda madaniy merosini o‘rganadigan fandır. 1 Madaniyat iborasi arabcha Madina (shahar, kent) so‘zidan kelib chiqqan ekan. 2 Shahar ma’nosida kelgan madaniyat so‘zining talqini kishilar hayotini ikkiturdagi ko‘rinishi, ya’ni ko‘chmanchi-dashtu-

³⁸ Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik).–Toshkent: Akademiya

³⁹ 1 A.Ashirov Etnologiya.

sahrolarda yashovchi xalqlar hamda shaharda yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilib kelingan. Madaniyat tushunchasi keng ma'noni anglatib jamiyat va inson tarixiy tarqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, masalan, antik madaniyat, sotsialistik madaniyat, shuningdek inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari, masalan mehnat madaniyati, diniy diniy madaniyat, san'at madaniyati, turmush. Agarda bu so'zni tor ma'noda ishlatadigan bo'lsak bu atamani kishilarning faqat ma'naviy hayot sohasiga nisbatan mansubligini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Шипилина Л.А. Методология и методы психолого-педагогических исследований: учеб. пособие для аспирантов и магистрантов по направлению
2. Шнайдер Л.Б., Вальцев С.В. Социально-психологические особенности национального менталитета.
3. Жабборов И.М. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти.
4. Дроздова Н.В. Социальная психология.
5. Андреева Г. М. Социальная психология
6. Майерс Д. Социальная психология. – СПб., 1998.
7. A.Ashirov Etnologiya.T

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРГА ЧЕТ ТИЛИНИ ЎРГАТИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

Турақулова Маҳбуба Турдалиевна

***Сирдарё вилояти Мактабгача ва мактаб таълими бошкармаси
Педагогларнинг билими ва куникмаларини баҳолаш шўъбаси методисти***

Аннотация: Мақолада болаларда тил ўрганишга бўлган табиий мойиллик, уларда тақлид қилиш хусусияти кучли эканлиги, мактабгача ёшдаги болалар қизиқиши ва хохишларига қараб таълим жараёнини муваффақиятли ва самарали ташкил этиш тўғрисида берилган.

Аннотация: В статье описывается естественная склонность детей к изучению языков, наличие у них сильной способности к подражанию, успешная и эффективная организация образовательного процесса с учетом интересов и пожеланий дошкольников.

Annotation: The article describes the natural inclination of children to learn languages, their strong ability to imitate, the successful and effective organization of the educational process, taking into account the interests and wishes of preschoolers.

Калит сўзлари: инновация, инновацион усул, say методи, мактабгача

таълим .

Ключевые слова: инновация, инновационный метод, метод Say, дошкольное образование.

Key words: innovation, innovation method Method Say, preschool education

Сифатли мактабгача таълим бугуннинг муҳим жараёнлари қаторига киради. Соҳани тубдан ўзгартириш, янгиликлар билан бойитиш тизимнинг юксак вазифаси саналади. Бу борада қилинаётган ишлар, инновацион усуллари сифатли таълим учун қафолатни белгилаши лозим.

Инновация (янгилик) - бу янги амалий восита, усул, концепция ва қўлланмаларни яратиш, тарқатиш, жорий этиш ва улардан фойдаланишнинг мураккаб жараёни. Инновациялар педагогик амалиётда боланинг шахсига, унинг қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган янги усуллар, шакллар, воситалар, технологияларни белгилайди. Педагогик янгиликлар таълим ва тарбия жараёнларини ўзгартириши, такомиллаштириши мумкин. Замонавий шароитда инновацион ўзгаришлар тизимли характерга эга бўлиб бормоқда. Мактабгача таълим ташкилотларининг янги турлари (ДХШНМТТ, ОНМТТ, мобил, модул), боланинг индивидуаллиги ва унинг оиласи эҳтиёжларига йўналтирилган янги таълим дастурлари яратилиши таълим-тарбиявий жараёни муқобил шакллари билан таъминланиши зарурияти пайдо бўлди. Такومиллашиб бораётган мактабгача тарбия ташкилотдаги ўзгаришлар тартибсиз тарзда юз бермайди, бу жараён ташкилот раҳбари томонидан аниқ мақсадларга эришишга қаратилган ҳаракатлар натижасида содир бўлади.

Бинобарин, ҳар бир раҳбар қандай янгилик қилишни, ўзлаштиришни ва унга ҳамроҳ бўлишни билиши керак. Ҳар қайси янгилик маълум босқичларни босиб ўтади: бу ходиса бир марта пайдо бўладива бир мунча вақт ўтгач унинг ўрнини бошқа муқаммал, ижод маҳсуллари эгаллайди.

Ҳозирги вақтда мактабгача таълим тизими тобора болаларнинг мустақиллигини қўллаб-қувватлашга интилоқда. Богча ёшидаги болаларга чет тилири ўргатиш масаласи ҳали ҳам кенг муҳокамалар мавзуси бўлишига қарамай, мен бу давр тилни ривожлантириш учун қулай деб ҳисоблайман. 6 ёшгача бола ҳамма нарсани шимгич (губка) сингари сингдиради ва осонгина ёд олади, шунинг учун, бу давр инглиз тилини ўрганиш учун энг яхши вақт.

Мен мактабгача ёшдаги болаларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мен инглиз тилини мактабгача таълим ташкилотининг инновацион моделига киритишни таклиф қиламан.

Ҳамма биладикки, интеграция жараёни болаларга таниш бўлган шаклда амалга оширилади. Биринчидан, болалар эрталабки даврада ўз қизиқишларини билдирадидилар, сўнгра педагог ташаббуси билан кенгашда болаларнинг қизиқишлари аниқланади ва уларнинг қизиқишларига мувофиқ болалар фаолият турини (машғулоти) танлайдилар, бу ерда педагог машғулоти учун керакли материалларни олдиндан тайёрлайди, албатта тайёрланган ижод маҳсуллари болалар қизиқишига ва ёшига мос бўлиши лозим. Машғулоти давомида болалар ўз фаолиятини мустақил равишда танлайдилар. Шундай

килиб, биз бирон бир аниқ мавзуга боғланиб қолмаймиз, биз “боланинг ортидан” унинг қизиқишини кузатиб эгилувчан машғулот тузилмасини яратимиз.

Мисол учун, у хашаротларни ўрганишга қизиқса, биз болага мослашамиз ва ўрганамиз Мазкур мавзу бошқа соҳалар билан интеграция қилинган ҳолда ўзлаштирилади. (хашаротлар ҳажми катта кичкина, хашаротлар нечта, нима билан озукланади ва ҳоказо). Яна бир мисол келтиришимиз мумкин. Масалан, ўтган ҳафта болалар динозаврларга қизиқишди, биз динозаврлар даврига қайтдик, археолог бўлдик ва динозаврларнинг қолдиқларини қум майдонидан кидирдик. (динозаврлар, яъни динозаврларнинг резинали ўйинчоқлари олдиндан қум қутисига яширилган). Болалар ғайрат ва мажбурлашсиз фақат инглиз тилидаги енгил ибораларни қўллаб мулоқот қилишди, болалар уша давр билан ажойиб тарзда танишдилар, ўйинчоқ динозаврларнинг изларини қумга қолдирдилар. Ушбу жараёнда болалар нутқи ривожланади, қўлларнинг майда моторикаси, жамоа билан ишлаш кўникмалари шаклланади.

Ушбу педагогик инновация иккинчи тилни ўқитиш жараёнида самарали татбиқ этилиши учун биз Юлия Горбовскаянинг узлуксиз усулидан фойдаланишимиз мақсадга мувофиқ бўлади, чунки бунинг натижасида бола чет тилини таржимасиз тушунадиган вазиятларни яратишга муваффақ бўламиз. Ю.Горбовская усули жозибадор, чунки болалар тилни мавзу сифатида эмас, балки алоқа воситаси сифатида ўрганадилар. Машғулотлар фақат инглиз тилида ўтказилади. Болалар дарҳол ўзларини тил муҳитига сингдирадилар ва иборалар билан гапира бошлайдилар. Болаларнинг ёши, уларни ҳаракатчанлиги туфайли биз ҳар ўн дақиқада турли хил ҳаракатларни амалга оширишимиз мумкин. Диалоглар ўтказамиз, ўйнаймиз, қўшиқлар айтамиз, расм чизамиз ва ҳайкалтарошлик қиламиз. Ва албатта ривожлантирувчи дўстона муҳитни яратишда педагог-тарбиячи, бола ва унинг атрофидагиларбилан бевосита ҳаракат қилинади. Масалан, болаларнинг қизиқишларига мувофиқ биз "Биринчи гуллар" мавзусини белгилаб олдик ва лола, қор гуллари ва момақаймоқни ўрганиб, ўрганиб чиққандан сўнг, қўшиқ кўйладик, ўйин ўйнадик, болаларни ҳар қандай ўзи танлаган материалдан уларга ёқадиган гулларни ясайдилар. Барча фаолиятлар инглиз тилида муҳокама қилинади. Ушбу ёндашувдан фойдаланиб, боланинг қизиқиши ва ташаббуси қўллаб-қувватланади ва тўғри танланган усуллар туфайли болаларнинг чет тили орқали ҳар томонлама ривожланишига ҳисса қўшилади. Ўқув жараёнида биз ҳар бир боланинг нафақат қизиқишларини, балки шахсий фазилатлари ва афзалликларини ҳам ҳисобга оламиз. Таълимий амалиётлардан ташқари биз кун давомидаги фаолиятларимизда ҳам тил ўрганамиз: эрталабки бадантарбия, сайр қилиш, овқатланиш, уйқудан кейин фаолиятларда ҳам. Биз маросим сифатида тил тузилмаларидан фойдаланамиз, масалан, эрталаб болалар билан саломлашганда, уларни табриклаганимизда инглиз тилида баланд овозда ёки пичирлашда, қувноқ ёки қайғу билан айтишга таклиф қилишимиз мумкин. Тушликка тайёргарлик кўришда ва тушлик пайтида сиз

куйидаги гаплардан фойдаланишингиз мумкин: "Who is on duty today?" (Бугун навбатчи ким?), "Please. Lay the table" (Илтимос, дастурхон безанг.), "Help yourself" (олиб ўтиринг).

Хулоса килиб айтганда кун бўйи болалар нафақат инглиз тилини эшитадилар, балки ўзлари ҳам гапиришади. Шу тарзда, биз нафақат болаларнинг қизиқиши ва ташаббусини қўллаб-қувватлаймиз, балки уларни ушбу кўп тилли дунё билан таништирамиз.

Ишончимиз комилки, хорижий тилни ўрганишда ушбу ёндашув фаол, ташаббускор ва мустақил дунё фарзандларини тарбиялашга имкон беради, у замонавий дунёда муваффақиятли инсонга айланиши мумкин.

Фойдаланилган материал:

1. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим- тарбия тўғрисидаги Қонуни
2. “Бола шахсига йўналтирилган ёндошув асосида таълим жараёнини режалаштириш ” Мактабгача таълим вазирлиги
3. Болалар боғчасида инглиз тилини ўрганишда инновацион ёндашув / ЛС Стёпина. Ю.Горбовскаянинг видео материаллари. methodsay.com.

МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARNI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Abdusattorova Umida Abdusamat qizi

Guliston davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarni Kreativ fikrlashga o‘rgatish texnologiyasi mazmuni haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek bolalarni mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rgatishning psixologik mexanizmlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, fenomen, o‘yin, o‘yinterapiya, ijodkorlik, yaratuvchanlik, progressiv o‘zgarishlar, intellekt, fikrlash, mustaqillik.

Аннотация: В данной статье дети дошкольного возраста Обсуждается содержание технологии обучения творческому мышлению. Также обсуждались психологические механизмы обучения детей самостоятельному и творческому мышлению.

Ключевые слова: Творчество, феномен, игра, игротерапия, креативность, креативность, прогрессивные изменения, интеллект, мышление, самостоятельность.

Abstract: In this article children of preschool age The content of the technology of teaching creative thinking is discussed. Psychological mechanisms of teaching children to think independently and creatively were also discussed.

Key words: Creativity, phenomenon, game, game therapy, creativity, creativity, progressive changes, intellect, thinking, independence.

Hozirgi vaqtda inson doimiy o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy madaniy sharoitda yashamoqda. Bunday tezkor o'zgaruvchan olamda yashashi uchun, u uzluksiz rivojlanishi hamda moslashuvi uchun yangi sharoitlarga moslashishga yordam beradigan shaxsiy kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda shunday muhim kompetentsiyalardan biri - kreativ tafakkur, yuqori ijodiy faollik va kreativ xulq-atvordir. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikka

qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. *creatio* – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatij g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar kata ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj.Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish muammosi juda ko'p tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. P.F.Legaft (1837-1909)ning fikricha, inson hayotining ayni shu bosqichida uning kelgusida qanday xarakter-xislatlar sohibi bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi..

Bu yo'nalishning rivojlanishiga V.N.Druzhinin, A.V.Zaporozhets, A.N.Leontiev, N.N.Poddyakov, D.B.Bogoyavlenskaya, V.A.Kudryavtsev, O.M.Dyachenko, A.M.Matyushkin, K.Heller, N.S.Leites, J.Guilford va boshqa olimlar o'z hissalarini qo'shishgan. Ular o'z ishlarida kreativlikni boshqa psixik jarayonlardan ajralib turuvchi tafakkurning o'ziga xos jihati sifatida ta'rif berganlar. Ular kreativlikni bolalarning shaxsiy fazilatlar va ularning tasavvuri bilan bog'laganlar. Ijodiy tafakkur va ijodiy tasavvur - insonning ijodiy qobiliyatining muhim tarkibiy qismidir. Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressiv o'zgarishlar (xotira, nutq, diqqat, tafakkur, tasavvur, idrok) kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida

tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarning ijodiy rivojlanishiga bo'lgan e'tiborini kuchayganlik tendentsiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda metodistlar va psixologlarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan bola bilan shaxsga yo'naltirilgan - o'zaro ta'sir o'tkazish usullarini takomillashtirish kerak degan xulosa qilishimiz mumkin.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
2. Bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
3. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi **uchun imkoniyat yaratish**;
4. Bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- a) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- b) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- d) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- e) boshqalarga tobe bo'lish;
- f) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning **fikricha**, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1. Savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
2. Muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Maktabgacha ta'limga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni va amaliy faoliyatini tahlil qilish maktabgacha ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni innovatsiya darajaga ko'tara oladigan, o'z ichiga maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativlikni to'liq qamrab oluvchi ta'limiy dastur kerak.

Ta'lim va tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkazilgan ohirgi tadqiqotlar, hozirgi zamon bolalarining psixofiziologiyasida, ruhiyatida, shaxsiy fazilatlarida sifat o'zgarishlari yuqori o'ringa egaligi kuzatilishi aniqlandi. Xususan, bolalarda tasavvur, qiziqish, ijodkorlikning keskin pasayib ketganligi qayd qilingan.

Bizning fikrimizcha, kreativlikni faollashtirish usullaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan ijodiy o'yin vazifalari, hayotiy va ertak vaziyatlar, ijodiy mashqlar va o'yinlar, tadbirlar majmuasidan foydalanish maktabgacha katta yosh davridagi bolalardagi kreativ fikrlashni rivojlantirishda yanada koproq samara beradi.

Kreativlikka ega bo'lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar.

Maktabgacha yoshdan kreativ fikrlay oladigan, ijodiy tafakkuri rivojlangan bolalar, kejakda buyuk ixtirolar va kashviyotlar qiladilar, albatta o'z vatanlari ravnaqiga o'z hissalarini qo'shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.G'.Qodirov(2005).Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).

2. G.R To‘xtasinova, T.I. O‘rmonova (2005). Bolalar bog‘chasida intellektual psixologik o‘yinlar T.:(4-5)
3. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi (2010).
4. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
5. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To‘ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O‘quv metodik qo‘llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.

3-SHO‘BA. LIFE-LONG LEARNING - HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILI, UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

THE IMPORTANCE OF CREATIVE THINKING AND LIFELONG LEARNING

Nazarova Mavluda

Syrdarya regional national center for training pedagogues to new methods.

nazarova.mavluda@bk.ru

In modern society, one of the most pressing problems today is the creativity of the working staff. And the reasons for this are various, such as the generation gap, no will to change and not being flexible, and occupying the wrong place of work or unsatisfactory job. Let's look at them separately.

The first reason is the age difference between the teacher and the student. A teacher who studied approximately twenty-five years ago with the old methodology, who was forced only to sit silently and not to talk, to answer the question posed, no more no less, which was made by the textbook, and follow instructions, used to not show enthusiasm and does his/her job without any creativity. If you take the average age of teachers, you can imagine that their childhood and youth were in the 90s, consequently without gadgets, computers, interactive whiteboards, and the like. Teaching materials were hand-drawn (not everyone could draw well) or there were cards with images of poor quality. Let me remind you that I am now talking about national education and the state of the educational system in our Republic.

What I mean by this is that to teach a child to be creative, you have to be creative at first. But people were brought up in a strict system and trained to walk in line (Коллективизация и её последствия в Узбекистане, Бердиев С.), to think collectively accustomed to thinking linear, that is, if such a person took a mug in his/her hand, he would drink from it. An object was considered only for that intended use, whereas a person brought up in a democratic society might see other perspectives on the use of the object, as in the task with the brick (Affordance, Vlad Petre Glaveanu)

The child at the lesson gets bored because everyone receives information differently due to the fact of dividing people into different kinds of perception habits such as kinesics, tactile, auditory, and visual. The teacher needs to think of a way to convey her/his message to everyone, which is very difficult to do for someone without a vivid imagination.

The second reason is unwillingness to change, to think narrowly, and a desire to remain in the comfort zone. This is a place of familiarity, where there is no need to invent anything and no need to expend effort and endeavor. The familiar thing is brought to automatism; a person walks on a rolling road, on a smooth concrete surface. Here are some quotations which were included in the book “Habitual creativity: Revising Habit, Reconceptualizing Creativity” by Vlad Petre Glaveanu about creativity “It is working assumption in psychology and beyond

that human behavior has a “dual tendency”, one leading towards innovation and creation, the other toward habituation (Crossley, 2001. P.129) This either /or type of relationship is widespread not only in scientific theory (where the habit is considered “the most obvious barrier to creative thinking and innovation” Davis. 1999, p. 166) but also in common sense on the whole. “*any discussion of creativity or innovation necessarily introduces a general opposed concept of habit*” (Dalton. 2004, p. 604). This dualistic view has, of course, important consequences since it fundamentally ends up segmenting human experience into creative and uncreative or habitual.” Whereas anything new is an unexplored space, hence it can be dangerous. You must agree that it is easier to say I don’t know than to do it again and again until you get a positive result. In addition, an adult is embarrassed to appear ridiculous, ignorant, or confused. He is used to being perceived by others as an experienced person because of his age. In the meantime, progress does not stand still, technology is advancing. But the teacher still takes notes on paper, and writes and reads in the old way.

The third reason is the inadequacy of the teaching staff in their positions. In light of the recent events related to the pandemic and forced remote education, a lot of flaws, and gaps in the knowledge of teachers revealed to the public. Howbeit, it is one thing when a teacher does not know the correct pronunciation of the word, but then she/he is looking for resources to solve the problem, and quite another when with full confidence in her/his rightness or not even thinking about a possible error, the teacher does not check, does not analyze the process of classes that she/he runs.

Well, let's look at ways to solve this problem. Some might say that teachers of advanced age are not ethical; they cannot use gadgets, so they need to be replaced by younger personnel. Yes, partly this solution can somehow move the problem from point A to point B, but we need to understand that the desire to enrich knowledge does not depend on age. That is, a person can be curious, and engage in lifelong education. But some young people are satisfied with the state of things or come to work just to kill time. Here I want to quote Vygotsky's (2004, pp. 14-15) thought because there is an opinion that creativity is something given by God, or that people of advanced age cannot be creative. But studies on this topic allow us to argue that at any age a person can increase his or her creativity if only he or she had the desire to do so (*the creative activity of the imagination depends directly on the richness and variety of a person's previous experience because this experience provides the material from which the products of fantasy are constructed. The richer a person's experience, the richer is the material his imagination has access to*)

“Career age has more bearing on someone's creative trajectory than chronological age. Hence, early bloomers who start young will have their peak shifted forward, whereas late bloomers who start older will have their pinnacle delayed. Some late bloomers do not truly hit their stride until their 60s or 70s. They often drudged away in uninspiring jobs for decades before discovering their true passion” the extract from the work “Does creativity decline with age?” (March 2016).

One striking implication of these results is that it seems unlikely that creative declines are caused simply by aging brains. If that were the case, it would be hard to

explain why the creative path differs by domain, lifetime output, or the time someone embarks on his or her career. After all, late bloomers reach creative peaks at ages when early bloomers are past their prime. So, the good news is that it is possible to stay creative throughout one's life span.

It's no secret that a person learns new things faster if he understands that he needs them, and further things depend on it. And this means that it is necessary to create such conditions at the workplace so that the staff was forced to learn something new. It is very important to organize lessons on improving skills on the computer and Internet providers. Masterclasses should be held among teachers to create visual aids or handouts, and various thematic games in the classroom, taking into account all 4 types of information perception.

The next solution is to raise the ranking of the profession by increasing financial support. Then, create competition. To arrange various incentives for good, conscientious work, creativity, and the ability to engage the student in the learning process. Organizing days where students teach tutors something new can give positive results (School self-governance day).

By creating competitive salaries, quality work can and should be demanded of teachers. A person who is financially interested, knowledgeable, and loves his job will strive to improve his/her knowledge, improve himself /herself, display the facets of his/her abilities, and will shine like a diamond.

The next solution to the problem is to involve professionals in their field, for example, a paleontologist or bio geneticist could be invited to the biology class or a nuclear scientist for physics lessons. It will be interesting not only for students but also for teachers because a professional can clearly explain the importance of the subject being taught.

Now, let's consider the aspect of the creativity of the solutions I gave to the problem that I voiced. Ways to solve the problem with the lack of creativity of teachers in their work worry me very much because I firmly believe that a person should perform his/her job conscientiously and with high quality. If everyone is creative and approaches their work virtuously, then society will certainly flourish, the economy will grow, and the well-being of the people will increase.

Here I would like to quote the words of an entrepreneur Jack Ma, the author of the book "Never give up". *"In the future, it is not about the competition of knowledge. It is a competition of creativity, a competition of imagination, it is a competition of learning, and it is a competition of independent thinking."*

Although at first glance it may seem that the target audience for which this work is intended is the educational system, and to be more precise teachers, I dare to assure you that in the end, it concerns each and every one, since the teacher will teach children, and children are our future. And every child will grow up and will choose his /her path in life. And if an innovative teacher brought up a free-thinking, creative person for society, then this will benefit all of humanity. *"Imagination is the basis of all human activity and an important component of all aspects of cultural life. Absolutely everything around us that was created by the hand of man, the entire*

world of human culture, as distinct from the world of nature, all this is the product of human imagination and creation based on this imagination” (Vygotsky 1930/2004, pp. 9–10).

Hence, a rigorous selection of candidates, testing not only the knowledge of the subject being taught but also the ability to think creatively, human qualities such as conscientiousness, diligence, craving for knowledge, self-improvement, as well as honesty should be demanded.

Now let's look at the pros and cons of the ways I propose to solve the problem. Firstly, it is very difficult to check the personal qualities of a person at first glance. Only after a certain time of arrival of the employee, judging by his attitude to work and colleagues, one can draw some conclusions about the person, but again, we cannot be completely sure because in different situations a person can behave differently.

Certainly, recommendations from the previous place of work may give some answers to the one you are interested in, but even so, you will not see the full picture.

Also, constant tension and the need to keep your hands on the pulse is very depressed and exhausted a person, a constant feeling of stress can negatively affect the health of an employee, in addition, no one has canceled the human factor. In a large team where many people work, you cannot fire a person who used to work well but recently cannot cope with his job excellently due to family circumstances, such as caring for sick relatives, or temporary health problems.

The pluses include the fact that, when creating healthy competition, the staff will show more creativity, more artistic, and ingenuity. A person will try to do his job efficiently to stay in the workplace. Consequently, the more interesting the teacher conducts the lessons, the more students will be involved in the learning process.

All limitations are in our mind. People themselves give meaning to things; things in themselves have neither value nor meaning. “The gold” is shining example of it. Who does not love it, who does not strive to earn more and save? State financial assets are calculated in gold reserves. But, if a person finds himself in a desert, and will die of thirst with pockets full of gold bars, a sip of water will be more valuable to him than a whole bag of gold. And here I want to quote from the book “Things” by Vlad Petre Glaveanu (p. 169) “*At the same time, the things around us are fundamentally open to our action. We can, within the frame of existing physical constraints, use them for almost everything. But we don't. Cultural conventions play a key part in this kind of ‘narrowing’ of possibility for what objects are (or, more specifically, what they are for).*”

Therefore, train the brain to be creative! Think creatively! Only you can change your perspective, change your way of thinking, and start to see the world differently. You can live through grey and gloomy life, or make it colourful and full of meaning. Take responsibility for your life, live and learn! "*Laugh and the world laugh with you; Weep and you weep alone*" Ella Wheeler.

Reference list:

- Matthew S. Prewett, Linda R. Elliott, Ashley G. Walvoord, and Michael D. Coovert (2012), A Meta-Analysis of Vibrotactile and Visual Information

Displays for Improving Task Performance

- Vlad Petre Glaveanu (2016), Creativity – A New Vocabulary.
- Vygotsky, L. S. (1994). Imagination and creativity in the adolescent. In R. Van der Veer & J.
- <https://docplayer.com/111893593-Kollektivizaciya-i-eyo-posledstviya-v-uzbekistane.html>
- <https://gigabaza.ru/doc/64170.html>
- <https://www.papelesdelpsicologo.es/English/2901.pdf>
- <https://www.scientificamerican.com/article/does-creativity-decline-with-age/>
- <https://www.youtube.com/watch?v=Wz6ZRRp7Zgs>
- <https://www.youtube.com/watch?v=uBnAdNFFp-g>
- <https://www.youtube.com/watch?v=VrBysZzu6ko>

HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILI ASOSIDA MATEMATIKA OQITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI

Tashtemirova Nargiza Nematovna

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, e-mail: tnargiz76@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda uzluksiz malaka oshirish tizimi joriy etilganligi va ushbu tizimda matematika o‘qituvchilarini malakasini oshirish masalalari xususida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрено внедрение системы непрерывного повышения квалификации и вопросы повышения квалификации учителей математики в этой системе.

Abstract. This article considers the introduction of a system of continuous professional development and the issues of advanced training of mathematics teachers in this system.

Ta’lim sohasi rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda pedagoglarning davriylikka asoslangan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga transformatsiya qilish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari 2021-yil dekabr oyiga qadar belgilangan davriylikka ko‘ra, ya’ni o‘qituvchilar har 5 yilda va rahbar xodimlar esa har 3 yilda malakalarini oshirib kelishgan. Malaka oshirish tizimdagi muammolarni o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari tahliliga ko‘ra, rahbar va pedagoglar malaka oshirish jarayonida ko‘plab muammolarga duch kelishgan.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda har bir soha taraqqiyoti uchun alohida yondashuv talab etiladi. Jumladan, malaka oshirish tizimida ham har bir o‘qituvchining kasbiy ehtiyojini o‘rganish va tahlil qilish yuzasidan yuqori samarali mexanizmning kerakliligi va ushbu mexanizm orqali o‘qituvchilarning

kasbiy malakasini oshirishini belgilashga zarurat paydo bo'la boshladi. Ushbu mexanizm o'qituvchining yangi bilimlarni olishdan oldingi bilimni diagnostika qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son Qarori [1] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son Qarori [2] ijrosini ta'minlash maqsadida A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumta'lim maktablari xodimlarining "hayot davomida o'qish" tamoyili hamda kredit tizimiga asoslangan uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi.

Malaka oshirish tizimida olib borilayotgan islohotlar, kiritilgan innovatsiyalar va amaliyotga tadbiriq etilgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi ko'plab muammolarga yechim bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Malaka oshirishning bunday shakli har bir pedagogning ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etilishi ya'ni, zamonaviy rivojlanish trayektoriyasiga yo'naltirilishi pedagogning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni tashkil etish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga kredit-modul tizimini tatbiq etish, pedagoglarga turli shakl va vositalardan foydalangan holda o'zlarining kasb mahoratlarini takomillashtirishining individual traektoriyalarini taqdim etish bo'yicha platforma tashkil qilingan. Xalqaro kasbiy kompetentlik modelida keltirilgan ko'nikmalarni inobatga olgan holda, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi onlayn malaka oshirish kurslarida:

- Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;
- AKT va media savodxonlik;
- O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari;
- Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi;
- Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari modullarida soft skills rivojlantirilsa,
- Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari;
- O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullarida esa kasbiy ko'nikmalarini ya'ni hard skills rivojlantiriladi.

Ma'lumki, o'qituvchilarining soni qancha bo'lsa, ularning ehtiyojlari ham shuncha, ya'ni turlicha bo'lishi mumkin. Mazkur ehtiyojlarni to'la qondirish maqsadida tashkil qilinadigan malaka oshirish kurslari matematika o'qituvchilariga o'quv moduli mavzularini tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini nazarda tutadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asoslanib, "Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari" o'quv modulining ishchi o'quv-mavzu reja va

dastur ishlab chiqildi. Dastur pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari asosida tayyorlandi. Dastur o'z ichiga "Matematika darslarida xalqaro tadqiqotlar topshiriqlaridan foydalanish", "O'rta maktabda kombinatorika asoslarini o'qitish" va "O'rta maktabda ehtimollar nazariyasi asoslarini o'qitish" o'quv kurslarini olgan bo'lib, har bir o'quv kursi 6 soatdan, jami 18 soatni tashkil etadi [3].

Dastur tinglovchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, kurs yakunida tinglovchilar:

- kombinatorika masalalarini yechish bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi oshadi;
- kombinatorika masalalarini yechish bo'yicha yangi usullarni tanlay oladi;
- kombinatorika masalalarini yechish bo'yicha tajribalarni o'rganadi va ularni dars jarayoniga joriy etish imkoniyatlari takomilashadi;
- ehtimolliklarga doir masalalarini yechish bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi oshadi;
- ehtimolliklarga doir masalalarini yechish bo'yicha yangi usullarni tanlay oladi;
- ehtimolliklarga doir masalalarini yechish bo'yicha tajribalarni o'rganadi va ularni dars jarayoniga joriy etish imkoniyatlari takomilashiriladi.

Dastur asosida har bir dars mashg'ulotining video kontenti, taqdimoti, ma'ruza matni, keys topshiriqlari va mashg'ulot yakunida ko'zda tutilgan maqsadlarning erishilganligini nazorat qilish uchun nazorat testlari taklif qilinadi [4]. Har bir mashg'ulot bo'yicha dastlab o'quv maqsadlari aniqlangan bo'lib, mazmun shu maqsad asosida yaratildi [5].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktab ta'limi tizimi xodimlarining kasbiy kompetentligi bo'yicha ehtiyojlarini aniqlash, uzluksiz kasbiy malaka oshirish bo'yicha muammolarni o'rganish va ularni tahlil qilish asosida tinglovchilarning ehtiyojlariga asosan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini doimiy oshirish, jahon tajribasi va ilm-fan yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo'lib borishga xizmat qiluvchi malaka oshirish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 25-sonli Qarori.
3. Тюрин Ю.Н. и др., Теория вероятностей и статистика, М.: МЦНМО: ОАО "Московские учебники", 2008, -256 с.
4. В.Қ.Хайдаров, N.N.Tashtemirova, O'rta maktabda ma'lumotlar bilan ishlash

va kombinatorika elementlarini o‘qitish, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Yangiyul Poligraf Service”, Toshkent, 2021- yil, 144 bet.

5. B.Q.Xaydarov, N.N.Tashtemirova, O‘rta maktabda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o‘qitish, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Yangiyul Poligraf Service”, Toshkent, 2021- yil, 220 bet.

INKLYUZIV TA’LIMDA MUSIQA VA XARAKAT TERAPIYASI ORQALI NOGIRON O‘QUVCHILARNING KOGNITIV VA MOTORLI KO‘NIKMALARINI YAXSHILASH

To‘xtasheva Nodira Qahramonovna

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta’limi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Inklyuziv ta’lim-imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali, inklyuziv ta’lim turini tanlash lozim. Ijodiy sifatlarini shakllanishi o‘qitish jarayonida o‘quv amaliyotlarini samarali olib borish faolligi bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘langan. O‘quvchilarni rang-barang, jozibali materiallar bilan qiziqtirish, tevarak-atrofni obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo‘lishni, badiiy – ijodiy qobiliyatlarni his etish va tushunishni, aqliy qobiliyatlarni, idrokni, xarakatni, fikrlashni, fazoviy va vaqtinchalik tasavvurlarni rivojlantirishga yordam berib bu o‘quvchilarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: Terapiya, musiqa, obraz, emotsional, idrok, ritmik, badiiy, ijodiy, aqliy, nuqson, a’malij, metodika, kognitiv, motorli, inklyuziv, o‘yin, seans, qarsak, cholg‘u.

Musiqa olamiga mehr qo‘ygan deyarli har bir inson muayyan musiqa, qo‘shiq aytilish, improvizatsiya o‘ynash orqali terapiya bilan muloqot qilishi mumkin va bu musiqa terapiyasidan foyda olish uchun etarli va bu boshqa psixologik davolanish kabi terapevtik jarayondir, lekin uning kuchi va afzalligi. Bu davolash uchun musiqadan foydalanish mexanizmi va bu dori tabletkalari uchun kerak bo‘lgan jismoniy davolanish emas, balki davolanish psixologik, ma’naviy va jismoniy o‘rtasidagi bog‘liqlikdir va ruh va tana o‘rtasidagi aloqa va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishga ishonadigan kishiga albatta foyda keltiradi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlar mustahkam ma’naviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapti. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarini shakllantirishda, shu bilan birga, ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishda ta’limning o‘rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda

mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari ichida birinchilardan bo'lib "Nogironlarning ijtimoiy himoyasi haqida"gi nogironlarning huquqlarini o'z ichiga olgan huquqiy baza yaratildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son farmoni qabul qilindi⁴⁰. Farmonga ko'ra, zamonaviy tibbiyot va ilm-fanning ilg'or yutuqlari, diagnostika, davolash va rehabilitatsiyaning sifat standartlari asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, sog'lomlashtirish xususiyatidagi chora-tadbirlarni yaxshilash, sog'lom va faol turmush tarzini olib borish madaniyatini targ'ib qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi, shu jumladan nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini ko'llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish vazifasi alohida belgilab qo'yildi.

Inklyuziv ta'limda musiqa va xarakter terapiyasi orqali nogiron o'quvchilarning kognitiv va motorli konikmalarini rivojlantirish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni (psixologik, ijodiy, jismoniy, funksional) tayyorgarligini oshirish uchun musiqa va xarakter terapiyasi mexanizmidan foydalanib davolash seansi maqsad qilib qo'yilgan.

Tevarak-atrofnii obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo'lishni, badiiy – ijodiy qobiliyatlarni his etish va tushunishni, aqliy qobiliyatlarni, idrokni, xarakterni, fikrlashni, fazoviy va vaqtinchalik tasavvurlarni rivojlantirishga yordam berib, mayda mushaklarning rivojlanishi, sezgi, qo'l harakati va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni rag'batlantiradi. "Musiqa va xarakter terapiyasi" yaratish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni tayyorlash monitoringi uchun kompyuter dasturi ishlab chiqiladi. Mashg'ulot faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi model va metodik usullar, raqs, o'yinlariga mos ravishda harakatlari yaratilib bevosita bolalarning o'yin faoliyatiga olib kiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarning funksional va jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi harakat testlar batareyasi taklif etiladi.

Jismoniy mashqlarni bajarishda imkoniyati cheklangan bolalarning harakat

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.12.2017 yildagi PF-5270-son qarori .Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

qobiliyatlarini baholash va namoyish etish holati monitoringi o'tkaziladi. Kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar; nutqida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (logopatlar); intellektual rivojlanishida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif insonlar); psixik rivojlanishida kompleksli buzilishlar kuzatiluvchilar (ko'r hamda kar-soqov insonlar, ko'r hamda aqli zaif insonlar va boshqalar); tayanch apparat tizimida kasalliklari mavjud; Psixopat xulqli insonlar kiradi. Bundan tashqari shunday qatlami borki, ular o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar. Salbiy ijtimoiy omillar va ayniqsa shaxslararo munosabatlar ta'sirida diskomfort holatini boshdan kechiradilar, ushbu holat ularning ulg'ayishi bilan oshib boradi. Keyinchalik psixojarohatlovchi ta'sirga ega bo'ladi. Shunga muvofiq, bunday insonlarga jamiyatda moslashishi uchun alohida yordam kerak bo'ladi. Mazkur zaruratdan kelib chiqib, nogiron va jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning kompleks tayyorgarligini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Bunday ijtimoiy yordam yo'nalishlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy rehabilitasiya hisoblanadi. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy rehabilitasiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir.

Uning asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir.

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi

quyidagilarda:

- Olam, tevarak-atrof bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Bolada badiiy – ijodiy qobiliyatlarni cheklanganligi;
- Bolada музыкавий қобилиятини etishmovchiligi
- Musiqaviy-ritmik malakalarini kamligi
- Музыка-товуш материалини ажрата olmasligi
- Bir qator madaniy qadriyatlarining yetishib bo'lmasligi muammosi;
- Elementarta'limni ololmaslik. Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir;
- Qobilyat va iste'dodni namoyon qilishni chegaralanganligi. Nogiron bola tengdoshi kabi qobiliyatli iste'dodli bo'lishi mumkin, biroq o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, aniqlash va ular orqali jamiyatga foyda keltirishi uchun unga imkoniyatlarning teng emasligi to'sqinlik qiladi. Amerika musiqa terapiyasi assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, musiqa terapiyasi - bu akkreditatsiyadan o'tgan musiqa terapiyasi. Mutaxassislar tomonidan terapevtik munosabatlar orqali individual maqsadlarga erishish uchun musiqa yuqori qon bosimi kabi kasalliklarni davolash uchun qo'shimcha usul qo'llanilishi

sifatida qo'llanilishi va uning samaradorligi bu sohada isbotlangan, chunki bu musiqaning ayrim turlariga ijobiy javob bergan. Bu borada bir necha davrlardan beri olimlar, tibbiyot xodimlari, defektolog va psixologlar tinimsiz izlanish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Jumladan rus olimlari L. S. Vigotskiy, L.V. Zankov respublikamiz olimlaridan F. Shoumarov, K. Mamedov, P. Pulatovalar ishlarini ko'rsatish mumkin. Imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarni o'quvchilarida psixologik tayyorlash, atrofdagi voqelik to'g'risida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilimlarni shakllantiriladi. Musiqiy va jismoniy tarbiya jarayonining o'zi nuqsonli analizatorlar funksiyalarini tiklashni ma'lum bir nuqsonni hisobga olgan holda kognitiv va motorika harakati tanqisligini to'ldirish.

1. Axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish.
2. Tevarak-atrofnii obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo'ldirish.
3. Badiiy – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.
4. Sezgi, qo'l harakati va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantirish.
5. Musiqa va xarakat terapiyasi” yaratish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni tayyorlash monitoringi uchun kompyuter dasturi ishlab chiqish.

Inklyuziv ta'lim-imkoniyati cheklangan o'quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim. Bu muolajalar o'tkazilgan bir qancha tadqiqotlardan so'ng rivojlangan bo'lib, uning mavjudligi asosan Ikkinchi jahon urushidan so'ng paydo bo'lib, urushdan keyin askarlarda og'riq va ruhiy jarohat qoldirgan. Unga oddiy tibbiyot yetib kelgan. Musiqaning asab tizimiga ta'siri amalda isbotlangan. Uning miyaga ta'siri nuqtai nazaridan, og'riqni engillashtiradigan ma'lum gormonlar ishlab chiqarish orqali tanaga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Psixologik va aksincha, jismoniy ta'sir o'rtasida ajralmas bog'liqlik mavjud. Psixoterapiya davolashning bir qismidir. keng qamrovli.

Evropada musiqa terapiyasi taxminan 50 yil davomida mavjud bo'lib, universitet va kollejlarda o'qitiladi, bizning mamlakatimizda bu soha taxminan 15-20 yildan beri mavjud.

Zeroki, F. G. Kumbs ta'kidlaganidek: “ta'lim tizimi va jamiyat oldida turgan eng katta qiyinchiliklardan biri, uning asosiy maqsadlari va birinchi navbatdagi vazifalarini aniq, tushunarli va yaxshi o'ylab olingan shaklda aniqlab olish”, deb bejiz aytmagan. Ta'lim va tarbiya ishida asosiy e'tibor tafakkurning rivojlantirilishiga qaratiladi. P. P. Blonskiyning tushuntirishicha, “Bola rivojlanib boruvchi mavjudot bo'lib, tarbiya rivojlanish demakdir. Rivojlanish – bu yakuniy maqsad va nuqtaga ega bo'lgan aniq jarayon. Tarbiyaning maqsadi - bolaning fikrlarini rivojlantirish, yakuniy nuqtasi esa – uning shaxsan anglashi”.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda barcha uchun ta'lim olish imkoniyati mavjuddir. Shunday bolalar borki ularning jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay iste'dodli, qobiliyatli, aqliy salohiyati e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun kelajagiga befarq qaramaslik, ularni

jamiyatimizga munosib farzandlar qilib tarbiyalash biz pedagoglarning sharaflari va vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013

4. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. - М.: Мозаика-Синтез, 2011. - 144 с.

5. D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014

O'QUVCHI SHAXSINI VA O'QITUVCHINING O'QUVCHILAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'qituvchi o'quvchi hamkorligini rivojlantirish yo'llari.

O'quvchilarni o'qituvchiga nisbatan ishonchli munosabatini rivojlantirish usullari. O'ziga va bajaradigan faoliyatiga ishonchli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan jamoaviylikni shakllantirish, o'zaro tanishuv va yaqin munosabatlarni o'rnatish treninglarlardan namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aloqa bog'laymiz , Qog'oz ko'ptok , O'z bo'lagini topish , Bu narsa o'zi emas, u boshqa narsa treninglarini tashkil etish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Aloqa bog'laymiz

Maqsad: jamoaviylikni shakllantirish, o'zaro tanishuv va yaqin munosabatlarni o'rnatish.

Kerakli resurslar: ip (1 ta qizil rangli 40-g'altak ipi)

Jarayon: ishtirokchilar aylana shaklida turib olishadi va bir ishtirokchiga g'altak ipi beriladi. Shart tushuntiriladi: qo'lida ip turgan ishtirokchi o'zida ipning uchini ushlab qolib g'altakni boshqa bir ishtirokchiga berishi hamda o'z ismini aytgan

holda u insonning ismini ham so‘rab olishi kerak. Shuningdek, o‘zning ushbu treningdan kutayotgan kutuvlarini aytib o‘tishi lozim. Keyingi ishtirokchi ipni g‘altakni qabul qilishi va u ham shu tarzda ya‘ni o‘zida ipni yana bir uchini hosil qilgan holda ushlab qolishi va o‘z ismini aytib boshqa bir ishtirokchini qo‘liga g‘altakni tuqtqazishi kerak. Bu jarayon g‘altak so‘nggi ishtirokchiga yetib borgunicha davom etadi. *Eslatma:* g‘altakni ikki yonidagi ishtirokchilarga berish mumkin emas, iloji boricha uzoqroqdagi ishtirokchini tanlash lozim, shuningdek ishtirokchilar keyingi bir ishtirokchiga g‘altakni berayotganlarida ipni chigallashtirib yubormaslikka e‘tibor qaratishlari kerak. Eng muhimi ular kimdan g‘altakni qabul qilgani va kimga berganini eslab qolishlari lozim, chunki ohirida ip qaytatdan o‘ralishi kerak. Hamma ishtirokchilar o‘zaro ip bilan bog‘liq holga kelgach, ularga ipning rangiga, hamda barcha ishtirokchilarning o‘zaro bog‘liq holga kelganiga nazar solish va bundan qanday ta‘asurot yuzaga kelgani so‘raladi. Bunda faqat hohlovchilar javob berishlari mumkin. Keyin trener ishtirokchilardan bu holatni quyidagicha tushunishlarini so‘raydi: “Faraz qilingki, sizlar bir yaxlit tana sizlar, ushbu qizil ip esa sizlarning (arteriyal) asosiy (arteriyal) qon tomiringiz”. Savol beriladi: “Bilamizki, tomirning vazifasi yurakka qon yetqazib berish. Agar sizlardan biringiz tomirni (ipni) uzib yuborsa nima bo‘ladi?” yana bunga ham hohlovchilar javob beradi.

Kichik ma‘ruza: haqiqiy jamoa bo‘lish ham huddi insonning qon tomir tizimiga o‘xshash hodisa bo‘lib, huddi tomirning vazifasi qonni o‘zidan o‘tkazish bilan yurakka yetqazib berish bo‘lgani kabi, butun bir jamoaning ham maqsad va vazifasi bo‘ladi. Agar jamoada biror bir a‘zo passivlik qilsa, ishlamasa yoki jamoadan uzilib qolsa bu holat ham huddi tomirning bir qismini uzib olib tashlaganga p po‘xshaydi. Tomirning uzib olib tashlanishi yurakka qonning yetib bormaslidi bilan barobar, buni real voqealik bilan qiyoslanganda jamoada har bir a‘zo shunday ahamiyatga ega degani. Har bir insonga hayoda biror missiya topshiriladi, agar u o‘ziga berilgan missiyani to‘liq ado etmasa, o‘sha inson bog‘liq bo‘lgan soha oqsay boshlaydi, agarda u o‘z ishini munosib tarzda o‘zining bor imkoniyatini jonu dil bilan ishga solib bajarsa o‘sha inson bog‘liq bo‘lgan sohaning rivoji, gullab yashnashi ta‘minlanadi.

Siz bir jamoasiz endilikda sizlarga birgalikda talaygina ishlarni amalga oshirish topshiriladi, uni birgalikda bitta qon tomir tizimidek amalga oshirish va hayot faoliyatingizni ham huddi yurak faoliyati qilib bir tekkis bo‘lishi o‘zingizga bog‘liq. Bunda sizga eng birinchi topshiriq ushbu qo‘llaringizda hammangizni bog‘lab turgan ipni menga chigal qilib yubormagan holda tezda o‘rab berishingiz kerak. Bunda har bir ishtirokchi o‘z vazifasini bilgan holda sidqidildan amalga oshirishi eng muhimidir.

Ishtirokchilar ipni g‘altakka yig‘ib berishganidan so‘ng trener bir jamoa sifatida berilgan topshiriqni muvaffaqiyatli uddalaganliklari bilan tabriklaydi, shuning bilan mashg‘ulot o‘z yakuniga yetadi. Bundan so‘ng 10-15 daqiqa ishtirokchilardan mashg‘ulotdan olgan xulosalari va taasurotlarini so‘rash va ularni muhokama qilish ham mumkin. **Yetti ketti**

Maqsad: ishtirokchilarni faollashtirish, diqqatini oshirish.

Jarayon: ishtirokchilar aylana shaklini hosil qilib turib olishlari zarur. Shundan so‘ng mashg‘ulot nomi aytiladi hamda shart tushuntiriladi. Shart shunday: bir ishtirokchi tanlanib harakat undan boshlanishi aytiladi. U bir deb oldinga bir qadam tashlab chiqadi va o‘z joyiga qaytib turadi, keyingi ishtirokchi ham shu harakatni bajaradi kelin u ikki sonini aytadi, keyingi ishtirokchilar ham shu tarzda harakatni bajarib sanab ketishaveradi qachonki yetti soniga gal kelganida, o‘sha sonni aytgan ishtirokchi “yetti ketti deyishi” hamda orqaga bir qadam tashlab ishtirokchilarni orqasidan o‘ng tomonga qarab aylanib yugurib chiqishi va joyiga qaytib turishi kerak bu vaqtda qolgan ishtirokchilar ham joylarida tez yugurib turishlari shart bo‘ladi. Aytlanib yugurgan ishtirokchi o‘z joyiga qaytib kelgach, undan keyingi ishtirokchi bir deb sanaydi ba bir qadam oldinga chiqib yana joyida qaytib turadi va yana yuqoridagiday harakat davom etadi. Bunda 4-5 ta ishtirokchi aylanani aylanib chiqqunigacha mashg‘ulotni davom ettirish kifoya, chunki shundan so‘ng ishtirokchilarda charchash yoki zerikish protsessi boshlanadi.

Qog‘oz koptok

Maqsad: noan‘anaviy yo‘l bilan o‘zaro tanishuv hamda ishtirokchilarning kutuvlarini eshitish.

Kerakli resurslar: 2-3 dona eski gazeta va yelim qog‘oz (skoch).

Jarayon: odindan bitta qog‘oz koptok tayyorlab olinadi. Uni tayyorlash uchun 2-3 ta gazetani g‘ijimlab dumoloq shaklga keltiriladi, ochilib ketmasligi uchun uning ayrim joylaridan yelim qog‘oz yopishtiriladi.

Ishtirokchilardan aylana hosil qilib turib olish so‘radadi. Hamda tanishuv boshlanadi, bunda har bir ishtirokchi koptokni qo‘liga olib o‘zini tanishtirishi va bo‘lajak treningdan kutayotgan kutuvlarini aytadi. So‘ngra qo‘lidagi koptokni istalgan ishtirokchiga otadi va koptokni olgan ishtirokchi hamda qolganlar ham mashg‘ulotni shu tarzda davom ettirishadi. Mashg‘ulotni trenerning o‘zi boshlab bergadi va hamma ishtirokchilar o‘zlarini tanishtirib bo‘lgach, birinchi boshlagan inson ya‘ni trenerga top qaytib keladi. Bunda topni ikki tomodagi qo‘shnisiga emas, iloji boricha uzoqroqda turgan ixtiyoriy ishtirokchiga sekin otib berish so‘raladi.

O‘z bo‘lagini topish

Maqsad: o‘zaro yaqidan tanishuv va jamoaviylikni shakllantirish.

Kerakli resurslar: har ikkita ishtirokchi uchun bittadan turli hil tabiat manzarali suratlar (misol uchun ishtirokchilar 20 ta bo‘lsa, 10 ta surat) va qaychi.

Jarayon: har bir surat teng ikkiga bo‘linib chiqiladi va o‘zaro aralashtirib yuboriladi so‘ngra ular ishtirokchilarga bittadan tarqatiladi. Ishtirokchilar bir-birlaridan so‘rab o‘zidagi suratning ikkinchi yarimini topishlari hamda o‘sha ikkinchinni bo‘lak egasi bilan tanishishlari lozim. Bunda ular bir birlarini asosan ismi, yoshi, kasbi, qiziqishlari va hobbisini bilib olishlari kerak. Buning uchun ularga (ishtirokchilar sonini hisobga olib) 10-15 daqiqa beriladi. Shundan so‘ng ishtirokchilarning har biri o‘zining suhbatdoshi bilan boshqa ishtirokchilarni oldiga chiqib, bir birini hammaga tanishtirishi kerak bo‘ladi.

Kvadratlar

Maqsad: ishtirokchilarni mantiqiy fikrlashga majbur qilish orqali ularning diqqat ko‘lamini oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, ishtirokchilarni faollashtirish.

Kerakli resursla: yozuv doskasi (yoki flip chart), har bir ishtirokchi uchun bittadan oq varaq hamda ruchka.

Jarayon: har bir ishtirokchiga bittadan oq varaq va ruchka tarqatidadi va ishtirokchilardan doskaga oldindan chizib qo'yilgan quyidagi to'rtburchak shaklni chizib olish so'raladi. Topshiriq shuki, ishtirokchilar ushbu rasmda nechta to'g'ri to'rtburchak borligini aniqlashi kerak va kim birinchi to'g'ri javobni olib kelib trenerga ko'rsatsa o'sha g'olib deb topiladi. Lekin qolgan ishtirokchilarga ham yana mustaqil o'ylab ko'rishga vaqt berilishi kerak. Mashg'ulot uchun 5-10 daqiqa vaqt ajratish yetarli.

Bu narsa o'zi emas, u boshqa narsa

Maqsad: ijodkorona fikrlashni rivojlantirish va biror jarayonni ijro etish (aktyorlik) mahoratini shakllantirish.

Kerakli resurslar: 1ta marker.

Jarayon: ishtirokchilarga berilgan markerdan foydalanib (bunda uning o'z funksiyasidan emas, markerdan boshqa funksiyada foydalanib) biror bir harakat, holat yoki faoliyatni (gapirmasdan) ifoda etib, ko'rsatib berish so'raladi. Uni nima ekanligini esa boshqa ishtirokchilar topishi kerak bo'ladi. Shu tarzda har bir ishtirokchi, boshqalar oldiga chiqib marker yordamida biror narsani ifodalashi va ko'rsatishi lozim. Har bir ishtirokchining shunday o'ziga hos "topishmig'ini" topishga 1-2 daqiqa ajratish yetarli.

Bunda markerning o'rniga trener boshqa bir predmetladen ham foydalanishi mumkin, misol uchun: qog'oz, ruchka, chizg'ich.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarda ijodkorona fikrlashni rivojlantirish va biror jarayonni ijro etish (aktyorlik) mahoratini shakllantirish. Ishtirokchilarni mantiqiy fikrlashga majbur qilish orqali ularning diqqat ko'lamini oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, ishtirokchilarni faollashtirish. O'zaro yaqidan tanishuv va jamoaviylikni shakllantirishni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati" o'quv-uslubiy majmua. G.Yeldasheva, R.Aliyeva, D.Safarova. 2021 yil. 51 b.
2. A.S.Kaldibekova "Umumiy pedagogika". Toshkent 2013. 118 b.
3. К.Алиева, Ф.Азимова "Тренинглар тўплами". Тошкент 2020 й. 80 б.

Internet manbaalar:

1. http://elibrary.bsu.az/books_163/N_5.pdf
2. <https://studfiles.net/preview/3535705/>
3. [https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-individual-yondashuv-](https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharayonida-individual-yondashuv-asosida-uvchilarni-ishga-izi-tirish-mash-lari)

asosida-uvchilarni-ishga-izi-tirish-mash-lari

TILDA MORFOLOGIK BIRLIKLARNING TEJALISHI

Uralov Azamat Begnarovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Gaplar tarkibida soʻzni tejash maqsadida ayrim soʻzlar tushirilib qoldiriladi, tushirilib qoldirilgan soʻzlarning oʻrni sezilib tursa-da, nutq mazmunida bularga oʻrin qolmaydi, yaʼni tushib qolgan soʻzning shakli boʻlmasa ham, mazmuni anglashilib turaveradi. Morfologik birliklar va morfemikada bunday tejash prinsiplari nisbatan kam uchraydi. Masalaning ikkinchi tomoni esa morfem birliklarda tejash tamoyili ayrim hollarda ogʻzaki nutqda faolroq koʻrinadi. Birinchi holat, morfemani nol forma orqali ifodalash yoki nol formaga teng birlikda ifodalanishi. Morfem birliklarning tejash tamoyiliga koʻra mazmun ifodalanib tursa-da, shakl ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin. Yaʼni bunda affiks belgisiz qoʻllanadi. Sintaktik sintagmaning talabi bilan morfem birlik qisqarishga uchraydi. Masalan: *bolalar kelishdi(lar)*, *men – talaba(man)*, *bu kitob qiziq(dir)*, *xalq(ning) xofizi*, *kitob(ni) oʻqimoq* kabi.

Bolalar kelishdi birligida birgalik nisbatning mazmun semasi soʻzga taʼsir koʻrsatib, shaxs-sonning tejalishi uchun xizmat qiladi. Bunday tejalish shakl jihatidan (kelishdik, kelishdingiz, kelishdilar) anglashilmayotgan boʻlsa-da, mazmuni mavjud boʻlib turadi. Shaxs-son mazmuniga xizmat qilayotgan *-lar* affiksi feʼl tarkibidan tushib qoladi. Bu oʻrinda nol morfemaga teng boʻlgan birlik shkl jihatidan tejaladi. *Talaba(man)*, *qiziq(dir)* kabi soʻzlar tarkibida bogʻlama vazifasida kelayotgan kesimlik shakli koʻp hollarda tejalishga ehtiyoji bor. Chunki nutq jarayonida bunday shakllar uslub talabi bilan qisqarishga uchraydi. Yozma nutqda esa tinish belgisi bilan ifodalanishi mumkin. Aynan morfologik birliklarda morfemalarning bu usulda tejalishi affiksning nol koʻrsatgichga teng kelib qolishi bilan ifodalanadi.

Sintagmada *xalq(ning) xofizi*, *kitob(ni) oʻqimoq* kabi birliklarning qoʻllanishi ikkinchi birlikning talabi asosida yuzaga keladi. Natijada tarkibda oʻrinlashadi. Mazmun jihatdan mavjud boʻlgan bunday morfemalar nol darajadagi shakl koʻrinishga oʻtib, oʻz mazmunini saqlab turadi: *xalq xofizi*, *kitob oʻqimoq* kabi. Demak, morfema tejash tamoyili asosida tejaladi. Bunda u oʻz shaklini yoʻqotib, keyingi yoki oldingi sintagmatik birlikning shakli asosida tiklanadi. Binobarin, koʻrinmas holatda ishlatilishi nutqning tejalishiga sabab boʻladi. R. Yusubova bu haqida “Morfologik tejamlilik maʼlum affiksning belgisiz kelishi yoki fonetik qisqaruvi bilan yuzaga keladi”⁴¹ deya izohlaydi. Fandagi bunday oʻzgarishlar nutq momenti talabi bilan ham roʻy beradi. Tilning ijtimoiy talabi asosida yuzaga kelayotgan bunday tejam morfem birliklarda ham oʻzining amal qilinish jarayonida toʻxtovsiz oʻzgarib borishi kuzatiladi. Tilning nutq momentida oʻzgarishi va rivojlanib borishi uning yashab qolishining zarur sharti boʻlib, oʻziga qulay sharoit yaratib oladi.

⁴¹ Yusubova R. Hozirgi oʻzbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik. Filol. fanlari d-ri diss. ...avtoref. – T.; 2011. – B. 15.

Ikkinchi holat, kelishik morfemalarining qisqarishi orqali tejash tamoyili yuzaga chiqadi. Kelishik shakllarining ayrimlari boshqa bir ko‘makchi bilan ifodalanishi ham mumkin, ammo buni tejash deb bo‘lmaydi (bunga quyiroqda fikr bildiramiz). “Morfologik tejamlilik poetik matnda qulaylik, ixchamlikni ta‘minlashga xizmat qilib, kelishik, egalik, shaxs-son, kesimlik affikslarini stil maqsadi bilan tejash takroriylikka yo‘l qo‘ymaslik, sillabik tenglik, nutqiy qulaylikka intilish orqali badiiy axborotni aniq tushunishga imkon beradi”⁴². Ko‘proq poetik matn talabi bilan, ayrim holatlarda tarixiy taraqqiyot natijasida (*men(ing) kitobim*) yuzaga keladigan bunday tejash tamoyili badiiy va lingvistik adabiyotlar ko‘p uchraydi. Og‘zaki nutqda ham keng qo‘llanadi (*seni(ng) dalang*). (Dialektikada qaratqich va tushum kelishigi aralastirilib ishlatilishi ham mavjud)

Poetik matn talabi bilan she‘riy vaznda bo‘g‘inlar miqdorini tejash uchun kelishik shakllarini qisqartirish odatiy holga aylangan, ammo talab qilingan shakl qisman yoki to‘liqligicha qisqaradi, mazmun yaxlit anglashiladi.

Sen tog‘ning erkasi, ishqim mevasi,

Bir oshiq qalbida ko‘nglin yarasi.

She‘riy parchada qaratqich kelishigi shaklining uch holati aks etayotganligiga guvoh bo‘lamiz. *Tog‘ning* so‘zida affiksial morfema to‘liq holatda kelib, tejash tamoyiliga ehtiyoj sezmagani, ammo keyingi o‘rinlarda kelgan: *ishqim*, *ko‘nglin* kabi so‘zlarda tejash holati kuzatiladi. *Ishqim* so‘zida qaratqichning nol formaga teng holati aks etayotgan bo‘lsa, *ko‘nglin* shaklida esa *-ning* ko‘rsatgichi *-n* shaklida tejash tamoyiliga aylangan.

“O‘zbekiston – vatanim manim” matnida qaratqich shakli *-m* tarzida ifodalanayotgan bo‘lsa-da shakl jihatidan bir harfga teng birlikka tejalmoqda.

Qaratqich kelishigi fonetik variantda ham tejalish prinsipiga amal qiladi. *Mening maktabim*, *sening hovling* kabi birikmalarda kelayotgan *-ing* shakli qaratqichning bir fonemaga teng miqdorda qisqarayotganini kuzatamiz. Bunda tovush tushishi orqali shaklda tejash yuz beryapti.

Kelishik shakli tarixiy taraqqiyot tufayli ham qisqarishga uchraydi: *Yerda qoldi*, *o*, *tanim manim*, *O‘zbekiston vatanim manim*. Matndan anglashiladiki, *-ning* shaklining *-im* holatida qisqarishi ham bo‘lgan. Bunda singarmonizm holati ham ta‘sir ko‘rsatayotgan bo‘lishi mumkin. (Ishimiz nuqtayi nazardan faqatgina qaratqichning tejalishiga e‘tibor qaratamiz.) Shakl jihatidan to‘rt fonema ikki fonema holatida ifodalanishi tejash tamoyilini bir ko‘rinishi sifatida qayd etiladi.

Bundan ko‘rinadiki, qaratqichning poetik matn talabi bilan qisqarishi keyingi

⁴² Yusubova R. Hozirgi o‘zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik. Filol. fanlari d-ri diss. ...avtoref. – T.; 2011. – B. 18.

soʻzlarga oʻz vazifasini (mazmunini) yuklaydi. Keyingi soʻzning shakli asosida qaratqichni tiklab yoki yaxlitlab olish mumkin.

Tushum kelishigining *kino(ni) koʻrmoq* shaklidagi birliklarda nol morfemaga teng qisqarishlar haqida fikr bildirildi, ammo “Men qulogʻin tishlagan...” tipidagi tejash tilda poetik talab asosida sodir boʻladi. Bunda tushum kelishigi *-n* shaklida qisqaradi. Morfemikada mavjud shaklning tejalishi qisman yoki toʻlaligicha sodir etiladi. Kelishiklarda buning har ikki holati ham kuzatiladi.

Tejash tamoyilidagi qaratqich yoki tushum kelishigining qisqarishi ham shaklning tejalishiga xizmat qiladi, ham nutq vaqtini qisqartiradi. Bunday tejamlar shakl va mazmunga xos oʻzgacha nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan (bu xususida ishning 1-bobida toʻxtalganmiz).

Uchinchi holat, tovushning tushishi tejash tamoyilini shakllantiradi. Fonetik hodisa sifatida fanda koʻp oʻrganilgan bu holat tejash tamoyili asosida yuzaga kelgan. Nutqda qulaylik yaratish maqsadida shakllangan tovush tushishi hodisasi asos morfemaga affiksial morfemaning qoʻshilishi natijasida paydo boʻlgan boʻlib, bunday hodisa nutq jarayonida unumli holatdir.

Mazmunni saqlagan holatda maʼlum uslubda qisqaruvga uchrashini tovush oʻzgarishlari hamda til birliklari taraqqiyoti koʻproq koʻrsatib beradi. Bu borada “Turkologiyadagi qisqaruvga oid tadqiqotlar xususida xulosa sifatida yana shuni aytish mumkinki, – deb yozadi J.Eltazarov, – turkiy tillarda yuz beruvchi mazkur hodisa aksariyat hollarda soʻz va formalarda tovush oʻzgarishlari va til birliklari taraqqiyoti bilan bogliq holda olib qaraladi, shuningdek, qisqaruv semantik-stilistik planda tadqiq etiladi”⁴³. *Oʻgʻil, shahar* kabi soʻzlarga egalik shaklini, *ikki, olti, yetti* kabi sonlarga jamlovchi shakllarni qoʻshishda tovush tushishi holati aks etadi: *oʻgʻ(i)lim, shah(a)rim, ikk(i)ov, olt(i)ov, yett(i)ov* kabi. *Oʻgʻil va shahar* soʻzlari tarkibiga egalik shakllari qoʻshilganida soʻz oʻrtasida tejash tamoyili qoʻllanayotgan boʻlsa, *ikki, olti, yetti* soʻzlariga jamlovchi shakllar qoʻshilganida tarkibdagi soʻnggi unlining tejalishini kuzatamiz. Demak, tovush tushish holati orqali tejamlilik asos va qoʻshimcha oʻrtasida sodir etilib, koʻp hollarda, asos qismiga taʼsir koʻrsatadi hamda asosning oʻrtasida yoki soʻngida yuz beradi. Tejamning bu turi fonetikaga bogʻliq boʻlganligi sababli fonetikaga aloqador tor unilarning susayishi orqali yuz bersa, morfemikada esa bunday tejash tamoyili asos morfemaning qismlari qisqarishi tufayli roʻyobga chiqadi.

Toʻrtinchi holat, morfologik birliklarning abbreviatsiya yoʻli bilan qisqarishi, yaʼni soʻzning yaxlit yoki qisman qisqartirilib yozilishi (buni ayrim adabiyotlarda soʻz yasalishining bir turi sifatida ham qaraladi). Qisqartma otlar bunga misol boʻla oladi: *BMT, GulDU, MDH, VMQ*... Bu xususda M.V.Lomonosov muloqot jarayonini qulaylashtirish hamda osonlashtirish uchun soʻzlarni imkon darajasida

⁴³ *Eltazarov J.D.* Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2004. – B. 10.

qisqartirishga olib kelishini ta’kidlab: “Tushunchalarning qo’llash va ularni tez va qisqa qilib uzatishni rag’batlantirish, odamni o’zi sezmaganda o’z nutqini qisqartirishga va bir narsani hadab takrorlayverishdan qochishga olib keldi”,⁴⁴ – degan edi. Tejash tamoyilining abbreviatsiya yo’li orqali qisqarishi nutq vaqtini hamda yozuv miqdorini ham tejab qoladi. Bunda tejashning uch yo’lini ko’rsatish mumkin. Birinchi yo’l, barcha uchun tushunarli bo’lgan, keng iste’molda mavjud holatda tejash tamoyiliga kirgan so’zlardan foydalanish orqali: *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *GulDU* (Guliston davlat universiteti) kabi. Ikkinchi yo’l, bitta fan yoki soha uchun tegishli bo’lgan, ayrim fanlarga aloqador, shu fan sohasidagi mutaxassislargagina tushunarli bo’lgan termini qisqartirish orqali: *O’IBDO’* (O’quv ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari), *VMQ* (Vazirlar Mahkamasi qarori), *A.N.* (Alisher Navoiy), *SB* (so’z birikmasi), *m.a.* (miloddan avval) kabi. Uchinchi, hech kimga hali ayon bo’lmagan, ayni shu matn doirasida vaqt va so’zni tejash maqsadida bayon etiladigan termini qisqartirish orqali yuzaga keladi: *MOHM* (Malaka oshirish hududiy markazlari, keyingi o’rinlarda “Markazlar” deb yuritiladi), *Uyushma* (Dehqon va fermer xo’jaliklari uyushmasining (bundan keyin Uyushma deb ataladi)⁴⁵), *VM* (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (keyingi o’rinlarda — Vazirlar Mahkamasi)⁴⁶), *N.a.* (Navoiy asarlarida) kabi.

Ozarbayjon tadqiqotchisi – Adilov Mamed Musa o’g’li nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi ozarbayjon tilida abbreviatsiya hodisasi haqida fikr bildirib, ozarbayjon tilidagi qisqaruv hodisasi tarixi haqida to’xtaladi hamda bu tilda til birliklarining qisqartirilishini yozma manbalarda aks ettirilishidan kelib chiqib davrlashtiriladi. Qisqaruv abbreviatsiyaning so’z darajasida namoyon bo’lishidir, degan xulosa chiqaradi (leksik abbreviatura) va uning ba’zi turlari, jumladan, antroponimlar qisqaruvi haqida tegishli ma’lumotlar beriladi⁴⁷. Fikrdan anglashiladiki, antroponimlarning tejalishi ham fanda keng uchraydi. Bu jarayon ham og’zaki hamda yozma nutqning tejalishini ko’rsatadi: *Bobur – Z.M.Bobur – Zahiriddin Muhammad Bobur*. Bunday tejash prinsiplari keng qo’llanadi. Shu bilan bir qatorda shakl hamda mazmun nomutanosibligini ham kuzatish mumkin. Shakllarning bu tartibda qisqarishi mazmunga ta’sir etmaydi, aksincha, shaklning haddan ziyod kengayib ketishi mazmunning tushunarsiz holatga kelib qolishiga sabab bo’lishi mumkin.

Beshinchi holat, ko’makchi fe’llarning qisqarishi orqali tejash tamoyili yuzaga keladi. A.N.Kononov fe’l zamonlari shakllarining aksariyat hollarda qisqaruv orqali hosil bo’lganligini quyidagicha ko’rsatadi: “...hozirgi zamon – *yozayapman* < *yoz-*

⁴⁴ Ломоносов М.В. Российская грамматика // Хрестоматия по истории русского языкознания / Под ред. чл.-корр. АН СССР Ф.И.Филина. – М.: Высшая школа, 1973. – С. 26.

⁴⁵ <https://lex.uz/docs/-802146?queryqbundan%20keyin#sr-1>

⁴⁶ <https://lex.uz/docs/-5511393?queryqIT-texnologiyalar#sr-1>

⁴⁷ Адиллов И.М. Аббревиация в современном азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1986. – С. 7 – 8, 15 – 17.

a-ya(ti)p-man; ... o'tgan zamon – *yozar edim* > *yozardim*; uzoq o'tgan zamon (so'roq shakli) – *yozganmiding?* > *yozganmi eding?*"⁴⁸ Bu fikr til tarixidan ham ma'lum bo'lib, tilshunos olimlarning fe'l haqidagi ishlarida⁴⁹ ham kuzatiladi. Ko'makchi fe'llarning, jumladan, to'liqsiz fe'llarning tejalishi diaxron hamda sinxron jihatdan: *bora+yotib+erdi* – *bora+yap+di* – *bor+yapti*; *borar edi* – *borar+di*; *yur+ar edi* – *yur+ar+di*; *o'qi+gan edi* – *o'qi+gan+di*, *borgan emish* – *borgan+mish* kabi shakllarda uchraydi. Diaxron jihatdan *yotib* ko'makchi fe'lining sinxroniyada *-yap* shakliga o'tish holati bilan tejalishi kuzatiladi. Shuningdek, sinxroniyaning o'zida to'liqsiz fe'llarning edi, *emish* shakllarining *-di*, *-mish* shaklida ishlatilishi tejash tamoyilining bu borada amal qilinayotganligiga guvoh bo'lamiz. Morfologiyada tejash tamoyili ko'makchi va to'liqsiz fe'llarda to'liq kuzatiladi va bu jarayon nutq momentida yaqqol amalga oshiriladi. Yozma nutqda ham qo'llanilish doirasi keng hisoblanadi.

Morfemalarning tejalishi otlashuvda yaqqolroq ko'rinadi, yaxlit bir turkumning tejalishi orqali nutq vaqtini qisqartirish keng o'rganilgan. "Tilshunoslikda ko'chish keng tushuncha bo'lib, masalan, substantivatsiyada leksema tejalib, qisqa va lo'nda ifoda yuzaga keladi, shu nuqtayi nazardan, bu hodisaga leksik tejamlilik sifatida qaraldi"⁵⁰. Masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, so'zlarni yaxlitlashib ketishidan yoki so'z takrorlari evaziga tejalishi ham bor. Bunda ikkita bir xil so'z yaxlitlashadi, buni til ilmida ayrim manbalar "takror so'zlar" deya qarasa, ayrim manbalar "kuchaytirish" deb qayd etadi. Biz ularning nomlanishiga emas, shakli va mazmuniga qarab ish ko'rar ekanmiz, quyidagicha tejash tamoyiliga guvoh bo'lamiz. Nutqimizda, adabiy til me'yorlariga asoslangan holda aytiladigan va yoziladigan takrorlar bor. Masalan, *yam-yashil*, *sap-sariq*, *qip-qizil*, *qop-qora* (dialektik: *yap-yalong'och*, *but-butun* (*bus-butun*), *tip-tikka*, *yap-yangi*, *yum-yumaloq*) kabi. Bu so'zlarni birinchi qismi ikkinchi qismining tejalgan holatdagi variantidan hosil bo'lgan. Chunonchi: *yashil+yashil* – *yam-yashil*, *sariq+sariq* – *sap-sariq*, *yalang'och+yalang'och* – *yap-yalang'och*, *tikka+tikka* – *tip-tikka*, *yangi+yangi* – *yap-yangi*, *yumaloq+yumaloq* – *yum-yumaloq* singari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, morfologiyada tejash tamoyili to'liq amal qiladi. Bunday tejamllarning o'n bitta turi aniqlandi hamda shakl va mazmun nomutanosibliklarini yuzaga keltirishi misollarda o'z isbotini topdi. Morfologiyada tejash tamoyili shakl va mazmun nomutanosibligining bir ko'rinishi sifatida qayd etilishi kerak.

⁴⁸ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 211, 223.

⁴⁹ G'ulomov A.G'. Fe'l. Hozirgi zamon o'zbek tili. – T.; 1957; Hojiyev A. Fe'l. – T.; 1973; Shoabdurahmonov Sh. va b.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.; 1980; Nurmonov A. va b.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.; 2011;

⁵⁰ Yusubova R. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik. Filol. fanlari d-ri diss. ...avtoref. – T.; 2011. – B. 8.

KIMYO DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Bekmatova Umida Toshqulovna

*Sirdaryo VPYMO‘MM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta
o‘qituvchisi*

Annotasiya. Ushbu maqolada kimyo darslarida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish va samarali tomonlari misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, kompetensiya, kreativ, kreativ yondashuv, kreativ fikrlash, didaktik o‘yinlar, Besh daqiqa o‘yini, Aylana o‘yini.

Abstract. In this article, the effective aspects of teaching students to think creatively in chemistry classes are highlighted based on examples.

Key words: Concept, competence, creative, creative approach, creative thinking, didactic games, Five-minute game, Circle game.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning biologiya fani bo‘yicha ilmiy dunyoqarashlarini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, ijtimoiy hayotlari va ta’lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iborat. Konsepsiyaning asosiy maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi rivojlanish strategiyasini va yangi yondashuv tizimini belgilab olishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy xabardorlik va amaliy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologik o‘zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch bu kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun

jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni harqanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativlik- bu bir vaqtning o'zida yangi va qadrli g'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiyida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli yo'nalishdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir.

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishikerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuvorqali yangi muammolarni hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlashshu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb

hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir". Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o'quvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda didaktik, ta'limiy, innovatsion o'yinlarning o'rni beqiyos.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi g'aydalanadi.

Maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi va kreativlik bilan bog'liq holda uyg'unlashadi. Ta'kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o'yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o'yinli ta'limni o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta'lim shakli deyish to'g'ri emas. U o'quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish, kreativlik, ya'ni ijodiy faolligini oshiradi, qiziqish uyg'otadi. Qiziqish bor joyda esa ta'lim sifati yaxshilanadi.

Darslarda o'quvchilarning qiziqishini, kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi didaktik ta'limiy o'yinlardan misollar keltiramiz.

“Besh daqiqa” o'yini. Bu o'yinni kimyoda hohlagan mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'yinni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Masalan, geografiyadan joy nomlari bo'lsa eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

“Aylana” o'yini. O'yinga ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. O'yin quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o'quvchi “Vodorod” desa, undan o'ngda turgan o'quvchi elementning oxirgi harfi ya'ni “d” harfi bilan boshlanuvchi boshqa bir elementni aytadi. Qaysi o'quvchi 5-10 sekund davomida kimyoviy termin yoki element nomini ayta olmay to'xtalib qolsa u o'yindan chiqqan sanaladi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiladi, eng oxirida qolgan o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi.

“Munozara” o'yini.

Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak.

O‘yin texnologiyasi: kimyodan “Suvni xavzalarini ifloslanishdan saqlash” muammosi qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o‘quvchilarga berilib, sinf o‘quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a‘zosi qo‘yilgan muammolar haqida o‘z fikrini bayon etish huquqiga ega.

Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspyert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

Kimyo fanini o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinlar

«Uchinchisi ortikra» o‘yini. Mazkur interfaol o‘yinni fanlardan xohlagan mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri savol-topshiriq jadvali asosida o‘quvchi e‘tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriq misolida keltiramiz:

	<i>Oksidlar</i>	<i>Asoslar</i>	<i>Kislotalar</i>
1	NaOH	KOH	HCl
2	CuO	NaOH	HCN
3	HgO	NaCl	CaO

Yuqoridagilar ichida qaysi biri ortiqchaligini kim tez topsa, o‘sha g‘alaba qiladi. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish insonning mantiqiy fikrlay olish, ijodkorlikni namoyish etish, yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF –5712-son Farmoni.
2. Ismailov A.A., X.J.Daminov va boshqalar. "O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma" 2-son, Toshkent, 2020-yil
3. Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Y.G‘. va boshqalar., Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. “Yangi nashr” Toshkent-2016.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHI

Eshquvvatova Farida Kozimovna

Guliston shahar, 8-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Kalit so‘zlar: Bolalar, oila, tarbiya

Ключевые слова: дети, семья, воспитание.

Key words: Children, family, education

Annotatsiya. Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi turli masalalar bo‘yicha o‘z fikrining bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar o‘z yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 500-600 so‘zni ishlati, olti yoshli bola

3000-7000 soʻzni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, feʼl, sifat, son va bogʻlovchilardan iborat boʻladi. Bu yoshdagi bolalar oʻz nutqlarida qaysi soʻzlarni ishlatgan maʼqul-ku, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola oʻz jummlarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni oʻzlashtirish maʼlum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning oʻziga xos yana bir xususiyati borki bola nutqda faqatgina oʻz fikrini bayon etibgina qolmay, balki oʻz suxbatdoshining diqqatini oʻziga jalb qilish uchun xam gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq xam shakllanishini boshlaydi. Yozma nutq jummlarni toʻgʻri tuzish va soʻzlarni xam toʻgʻri yozishga maʼlum tinglovchilar qoʻyilganligi bilan xarakterlanadi. Bola soʻzlarni qanday eshitgan boʻlsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni toʻgʻri talaffuz etishga va yozishga oʻrganishi zarur. Yozma nutq egallash asosida bolalarda turli tekstlar haqida maʼlumot xam yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada xali oʻzi yozgan fikrlarni soʻz va xarflarni nazorat etish malakasi xali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi oʻquvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash. fikrini bayon etish uchun material toʻplash, asosiysini ajratib olish maʼlum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummlarni toʻgʻri tuzish, aynan mazmunga toʻgʻri keladigan soʻzlarni topish va ularni toʻgʻri yozish xam, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyish, oʻz xolatlarini topa olish, toʻgʻrilay olish xam aqliy rivojlanishining koʻrsatkichlaridan hisoblanadi.

Oʻqish faoliyati kichik maktab yoshidagi oʻquvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlaiishi uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur taʼlim jarayonida ularning bilimlari koʻlami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar oʻz idroklarining aniqligi, ravonligi, oʻtkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular xar bir narsaga berilib, oʻta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muxim xususiyatlarini oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻladilar.

7-10 yoshdagi oʻquvchining idroki.uning xatti-harakati, oʻyini va mehnat faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir. Oʻquvchi oʻzining extiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmushi sharoitiga mos, shuningdek Oʻqituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

. Maktab yoshiga kelib normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real xayotni aks ettirayyotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun xam surat va rasmlarda nimalar aks etganini real xayotga taqqoslagan xolda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-xayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam goʻzalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va oʻz munosabatini bildira oladi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sogʻlomligida uning bilish faolligida koʻrish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi

asosan atrof-olamni bilish, o'rganishiga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib olam sir-sinoatlari, sabab-xodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar asosan xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko'p asosan «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Nima orqali?» savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.

6-10 yoshli bola albatta mantiqiy xam fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib taolim olishga senzetiv bulgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga xam bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki intellektual rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam - ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-xayotdagi narsa-xodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, muloxaza yuritish, xukm va xulosa chiqarish, taqqoslash taxlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

Boshlangich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bulmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtieriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiersiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlangich sinf o'quv materiallarining yakkolligi, erkinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtier xis-tuygular uygotadi, irodaviy zurikishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun xam ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat oboektda uzoq tura olmaydi. Taolim jarayoni kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning ixtieriy, barqaror, mustaxkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga kulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashklar bajarish, takrorlash irodaviy zur berish jarayonida ixtieriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtieriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa uni taksimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola maolum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini intellektual masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda

katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini tinglovchi qiladi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taasurotlari, tasviriy sanhat asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y.
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982y.
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y.
5. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
6. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y. - Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y.

O'QITUVCHINI KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING VAZIFALARI

Eshquvatov K

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi dotsenti

Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda ularning kasbiy bilim va malakalarini zamon talablariga mos ravishda chuqurlashtirish, mutaxassislik bo'yicha eng so'ngi yangiliklar bilan qurollantisrih, pedagogic mahoratini oshirish, ijodkorlik va intiluvchanlik, mustaqil mutolaga e'tiborini kuchaytirish, shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Markazda tinglovchining tayyorgarligi, ehtiyojiga mos ravishda tabaqalashtirilgan, maqsadli, mualliflik, loyihali bloklar asosida o'quv jarayonini tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

O'quv-mavzu rejalar tinglovchining ma'naviy, kasbiy, metodik tayyorgarligini hisobga olgan holda pedagogic va psixologik ehtiyojlaridan va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish imkonini e'tiborga olgan holda kafedralar tomonidan tuziladi.

O'quv jarayonini tashkil etishda tinglovchi faolligini oshirish va tajribasiga suyanish va individual reja asosida shug'ullanishiga sharoit yaratishimiz kerak.

Kurs mashg'ulotlarini kichik guruhlarda ishlash yakka ishlash, katta guruhlarda munozara, davra suhbat, debatlar, aqliy hujum, muammoli vaziyatni vujudga keltirish va yechish, rolli o'yinlar, kompyuter bilan muloqot, axborot kommunikasiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va internetda mustaqil ishlash darajasida tashkil etish kerak.

Shunda tinlovchi mustaqil fikrlashga, o'z ustida tinmay ishlashga, manbalardan foydalanishga va izlanishga harakat qiladi.

Tinlovchi kurs davomida ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etib, mavjud kamchiliklar va xatolar ustida ishlaydi, yangi ilmiy-metodik adabiyotlar, electron darsliklar, tarqatma materiallar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-metodik jurnallarni o'rganish asosida kasbiy mahoratini takomillashtirib boradi.

Kurs yakunida har bir tinglovchi o'zining kurs rahbari bilan hamkorlikda, shaxsiy dastur loyihasini tuzadi va ishni shu dastur asosida tashkil etadi.

Demak shu tariqa malaka oshirish tashkil etilsa va o'qituvchida mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllantirib borilsa, ularda tinimsiz o'qish, izlanish, yaratuvchanli, bunyodkorlik, yangicha qarash va yangicha ishlash malakasini shakllanadi.

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ПЕДАГОГИК БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ДЕМОКРАТЛАШТИРИШ

Халмонов Умид Очилович

***Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти Қорақалпоғистон филиали мустақил излунувчи.
E-mail: umidxalmonov@gmail.com***

Ушбу мақолада таълим сифати ва унинг самарадорлигини оширишга янгича педагогик бошқарув тизими татбиқ этилиши, таълимни демократлаштириш ғояси орқали сифат даражасини таъминлаш илмий асослари, замонавий сифат менежменти тизимини жорий этишда хорижий ва мамлакатмиз олимларининг фикрлари ўрганилган. Шунингдек, сифат менежментига бўлган эволюцион ёндашувлар бошқичларининг мазмун-моҳияти, замонавий сифат менежменти тизимини жорий этиш вазифалари ва уларни ҳал қилиш йўллари ёритилган.

Таянч сўз ва иборалар: таълим сифати, менежмент, сифат менежменти, сифат менежменти тизими, педагогик таълимнинг замонавий бошқаруви, модернизация, таълимни демократлаштириш, марказлаштириш.

ДЕМОКРАТИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматривается внедрение новой системы педагогического менеджмента повышения качества образования и его эффективности, научные основы обеспечения уровня качества через идею демократизации образования, мнения зарубежных и отечественных ученых о внедрении современная система менеджмента качества. Также выделены сущность этапов эволюционных подходов к управлению качеством, задачи внедрения современной системы менеджмента качества и пути их решения.

Ключевые слова и понятия: качество образования, управление, управление качеством, система управления качеством, современный менеджмент педагогического образования, модернизация, демократизация образования, централизация.

DEMOCRATING THE PEDAGOGICAL MANAGEMENT SYSTEM IN ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION

This article examines the implementation of a new pedagogical management system to increase the quality of education and its effectiveness, the scientific basis of ensuring the quality level through the idea of democratization of education, the opinions of foreign and national scientists on the introduction of a modern quality management system.

Also, the essence of the stages of evolutionary approaches to quality management, the tasks of introducing a modern quality management system and ways to solve them are highlighted.

Key words and concepts: quality of education, management, quality management, quality management system, modern management of pedagogical education, modernization, democratization of education, centralization.

Кириш. Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги босқичида таълим тизимини ислоҳ қилиш, уни сифат ва самарадорлигини таъминлаш долзарб вазифалардан бирига айланди. Ҳозирги кунда жамият ривожланиши илм-фанга инвестиция киритиш орқали инсон капиталидан рационал фойдаланишга боғлиқ эканлиги намоён бўлмоқда. Шунинг учун “инсон капиталига эътиборни кучайтиришимиз, бунинг учун барча имкониятларни сафарбар этишимиз шарт”. Дарҳақиқат, ривожланган давлатлар амалиёти ҳам таълим тизимини ислоҳ қилишнинг, унга эътиборни, инвестицияни кўпайтиришни ҳамда инсон ресурсини тўғри бошқариш лозимлигини кўрсатмоқда. Шу маънода, бугун таълимда ислоҳотларни жадаллаштириш билан бирга, тўғри ва самарали бошқарув тизимини яратиш вазифалари ҳам устуворлик қилмоқда.

Давлатимиз раҳбари ташаббускорлигида “умумий ўрта таълим тизимини бугунги кун талаблари асосида ташкил этиш, фарзандларимизни ҳар томонлама камол топиши учун барча шароитларни яратиш⁵¹”да таълим бошқарувини ҳам ислоҳ қилиш ва бу орқали узлуксиз таълим сифатига ва билим бериш самарадорлигига таъсир кўрсатиш зарурати ортиб бормоқда. Зеро, “таълим жараёнини ихтиёрий қуриш ва амалга оширишдан, унинг ҳар бир қисм ва босқичларини изчил асосланган, яқуний натижани ҳаққоний

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. URL // <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

ташхислашга йўналтирилган”га ўтиш учун асос зарур. Шундай экан, таълим тизими бошқарувининг ҳар бир қисмини самарали, натижакор тарзда олиб боришга имкон берадиган менежмент тамойилларини яратиш муҳим аҳамиятга эга.

Мақоланинг мақсади:

Таълимни модернизация қилиш шароитида унинг сифатини такомиллаштириш, демократлаштиришни илмий-педагогик жиҳатдан асослаш, унинг устувор йўналишларини аниқлаш, педагогик имкониятларни белгилаш, бу борадаги амалий тажрибаларни ёритиш ҳамда мавзу юзасидан умумий хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Мақоланинг вазифалари:

- мамлакатимизда узлуксиз таълим тизими сифатини такомиллаштиришнинг долзарблигини асослаш;
- глобаллашув жараёнида умумий ўрта таълим муассасалари таълим-тарбия жараёнини модернизация қилишнинг устувор жиҳатларини аниқлаш;
- таълимда татбиқ этиладиган янгича инновацион ёндашувлар таълим сифатини такомиллаштиришда муҳим восита эканлигини асослаш.

Мавзунинг ўрганилганлиги:

Тадқиқот мавзуси кўплаб олимлар томонидан ўрганилган бўлиб, мамлакатимизда Ш.Қурбонов ва Э.Сейтхалилов, У.Бегимқулов, О.Мусурмонова, М.С.Мустафаева, Р.Х.Жўраев ва С.Т.Турғунов, Б.Р.Адизов, Р.Ш.Ахлиддинов, Ю.Н.Абдуллаев, М.Х.Маҳмудов, Р.Ишмуҳаммедов, Л.В.Голиш кабилар ўзларининг илмий изланишларида таълимни ижодий ташкил этиш, умумий ўрта таълимни такомиллаштириш, таълимни демократлаштириш, сифат менежментини бошқариш тизимини такомиллаштириш ва бошқа хусусиятлар бўйича изланишлар олиб борган. Россия олимларидан А.Воронин, Е.Домбровская, Н.В.Горшунова, А.М.Новиков, В.А.Болотов, М.В.Горемыко, О.С.Газман ва б., хорижий тадқиқотчилардан В.Шухарт, М.Портер, Д.Лернер, М.Ричард, Б.Буркхалтер, Б.Крумрине, Ж.Ҳакман, Г.Канжий ва бошқалар ўз тадқиқотларида биз кўтариб чиқаётган таълим сифатини такомиллаштиришдаги муаммолар, усул ва воситаларни илмий ва амалий жиҳатдан асослаб берган.

Сифат менежменти тизимини жорий этиш ва бошқариш масалалари бўйича

кўплаб хорижлик олимлар ўз фикрларини билдириб ўтишган. Хусусан, АҚШда Э.Демингнинг: “Сифат, унумдорлик ва рақобатбардошлик” ва “Инқироздан чиқиш” каби китобларида “14 қоида” номи билан танилган⁵² Деминг фалсафаси ўрин олган бўлиб, улар умумий сифат (Total Quality) нинг асосини ташкил қилган. Бошқа бир машҳур Америкалик, Сифат соҳасидаги

⁵² Дж. Харрингтон. “Управление качеством в американских корпорациях”. М.: “Экономика”, 1990, с. 272.

мутахассис А. Фейгенбаумнинг таърифига кўра, “сифат - евангелизм эмас, оқилонлаштириш таклифи эмас ва шиор ҳам эмас, у ҳаёт тарзидир деб атаган⁵³. Шуниндек, Япония олимлар ва муҳандислар бирлашмаси (JUSE) томонидан “Сифат устаси ва назорати” журналида “Сифат корхонанинг тақдирини ҳал қилади” деган фикрлар баён этилган.

Мавзу муаммолари:

Мавзуни назарий жиҳатдан кўриб чиқишда, таълим сифати муаммосига тўхталиш мақсадга мувофиқдир ва бу биринчи навбатда, “сифат”, “менежмент”, “таълим сифатини бошқариш”, “таълимни модернизация қилиш” каби асосий тушунчаларнинг моҳиятини таҳлил қилишни талаб қилади.

“Таълим сифати” сўз бирикмаси мамлакатимизда илк бор 1997 йилда Ўзбекистон Республикаси норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг таълим сифати устидан давлат назоратига бағишланган модда ва бўлимларида расмий равишда қайд этилган. Бу эса ўз навбатида таълим сифатини таъминлашга доир қатор назарий ва амалий ишланмаларнинг яратилишига туртки бўлмоқда. Ш.Қурбонов ва Э.Сейтхалиловларнинг тадқиқотларида таълим сифати деганда таълим жараёнининг турли иштирокчилари таълим муассасаси томонидан кўрсатилаётган таълим хизматларидан кутганларининг қаноатлантирилиши даражаси тушунилади.

“Таълим” кенг маънода олдинги авлодлар томонидан ташкил этилган катта ижтимоий аҳамиятга эга бўлган тажрибаларни доимий равишда кейинги авлодларга етказишга йўналтирилган умумий жараён, тор маънода эса, ижтимоий институт, жамиятнинг ижтимоий қуйи тузилмаларидан биридир.

“Сифат” эса фалсафий термин сифатида объект ёки предметнинг барча муҳим хусусиятлари йиғиндисидир. Масалан, буюк антик олим Аристотель сифатни предметлар орасидаги фарқлар, “яхши-ёмон” белгилари билан ажратиш деб тушунтирган бўлса, энциклопедик буюк олим Ибн Синонинг фикрича сифат тажрибага, таҳлилга, синтезга, умумлаштиришга асосланади. Мир Алишер Навоий сифат тушунчасини билим ва донолик каби тушунчалар билан боғлаган ҳолда кўриб чиққан. Немис олими Гегель сифат бу - нарсанинг биринчи навбатда ҳақиқий, аниқ мавжудлиги билан аниқланади, нарса сифатини йўқотиши билан у ўзлигини йўқотади, деб таърифлаган.

“Таълим” ва “сифат” тушунчаларининг моҳиятини уйғунлаштирадиган бўлсак, таълим сифати, бу унинг хусусиятлари яхлитлиги, таълим олувчи ўқиши ва шахсий ривожланиши учун хизмат қиладиган энг қулай усуллар бирикувидан иборат жараёндир.

Таълим сифати, бу бутун таълим тизими таркибий қисмларининг сифат вазифалари, мураккаб ривожланиш кучи (динамика)га эга бўлган жараён

⁵³ <https://uchebnik-online.com/123/1302.html>

бўлиб, бу таълим муассасалари фаолиятидаги ўзгаришлар, яъни уларнинг ижтимоий, иқтисодий, технологик ва сиёсий муҳитининг ўзгариши билан изоҳланади⁵⁴.

“Бошқарув” тушунчаси одатда тизимнинг бир ҳолатдан янада сифатлироқ ҳолатга ўтиши сифатида тавсифланади. Бу ерда икки жиҳатга эътиборни қаратиш лозим. Биринчи – тизимни сақлаш, унинг барқарорлигини қувватлаш мақсадида бошқариш (маъмурий бошқарув). Иккинчи жиҳат – тизим янги сифат ҳолатига ўтишини, яъни муттасил ривожланишни таъминловчи бошқариш⁵⁵.

Тадқиқотларга кўра, таълим сифати деганда таълим жараёнининг турли иштирокчилари таълим муассасаси томонидан кўрсатилаётган таълим хизматларидан фойдаланувчиларнинг қаноатлантирилиши даражасига нисбатан ишлатилади. Жамиятда таълим жараёнининг ҳолати ва натижасини, шахснинг фуқаролик, ҳаётий ва касбий компетенцияларининг ривожланиши ҳамда шаклланиш эҳтиёжлари ва умидларига мувофиқлигини аниқловчи категория ҳисобланади. Фикримизча, таълим сифати инсон, жамият ва давлат эҳтиёжлари ва манфаатларини қондирувчи хусусиятлар мажмуаси ҳисобланади.

Мақоланинг илмий моҳияти.

XX асрнинг охиридан бошлаб таълимни ислоҳ қилишда нафақат таълим тизими, балки унинг мазмуни, технологиялари ва ташкилий шакллари соҳасида ҳам жиддий ўзгаришлар киритиш ва амалиётга татбиқ этиш жамиятнинг пировард мақсадларидан бири бўлиб келмоқда. Таълим амалиётини ривожлантириш мураккаб иқтисодий, молиявий, ҳуқуқий бошқарувни ташкил этиш билан бошланади ва айнан бу жараён таълим жараёнининг асосий стратегик тадқиқот йўналиши сифатида белгиланган педагогик таълимнинг инновацион усуллари доирасидаги назарий ва амалий тадқиқотларда ўз аксини топмоқда.

Жумладан, мактаб ва олий таълим муассасалари ҳамкорлигини ривожлантириш, улар ўртасидаги интеграцияни янада мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кунда умумтаълим мактабларида ўқувчиларга берилаётган таълим-тарбия, педагогларга бўлган ҳурмат ва эътибор тобора юксалиб бормоқда. Устоз-мураббийларнинг жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлаш, истеъдодли ўқувчиларни кашф этиш, уларни ўзлари қизиққан ҳамда орзу қилган касбга йўналтириш таълим соҳасининг муҳим вазифасига айланди.

⁵⁴ Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма “Логос”, 1993. – с.181.

⁵⁵ Василькова С. Технология работы социального педагога. – Москва.: Академия. 2009. 39 с.

Педагогик таълим инновацион усуллари доирасида ташкил қилинган “Мақтаб – Олий таълим ташкилоти – малака ошириш ҳудудий маркази” тажриба майдонларида умумий ўрта таълим фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича бир қатор тажриба-синов амалиётлари амалга оширилиб келинмоқда.

Мазкур тажриба усули таълим тизимида татбиқ этиш жараёнларида, биринчи навбатда, умумтаълим ташкилотларининг сифат даражаси чуқур таҳлил қилиниб, аниқланган камчиликлар бўйича мослаштирилган ҳолда самарали усул ва воситалардан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Таълим сифатини янада кучайтириш ва амалиётга тўғри тарғиб қилиб борасида бир қатор олимларнинг таҳлил ва таклифлар ишлаб чиқилган.

Жумладан, Н.Шмырева, М.Губанова ва З.Крежанлар таълим сифати – ўқувчи шахсини ҳар томонлама ривожлантиришга доир эҳтиёжларни қондиришни таъминловчи таълим хизматлари истеъмоллилик хусусиятларининг мажмуаси, деб ҳисоблайди.

А.Воронин томонидан таълим сифати – жамиятда таълим жараёнининг ҳолати ва натижасини, шахснинг фуқаролик, ҳаётий ва касбий компетенцияларининг ривожланиши ҳамда шаклланиш эҳтиёжлари ва умидларига мувофиқлигини аниқловчи категория тарзида талқин қилинган.

Е.Домбровская таълим сифатини таълимнинг Давлат таълим стандартлари, тегишли таълим дастурининг ўқув-дастурий ҳужжатлари талабларига мувофиқлиги, деб эътироф этади. Адабиётлар таҳлили умумлашган маънода, таълим сифатига инсон эҳтиёжи ҳамда жамият ва давлат манфаатларини қондирувчи хусусиятлар йиғиндиси сифатида қаралганлигини кўрсатади.

Н.Селезнева, А.Субеттолар таълим сифатини бошқариш – таълимдаги барча объект ва жараёнларнинг сифатини бошқаришдир, деб таъкидласа, О.Назарова таълим сифатини бошқаришни билим сифати ва маълумотлилик даражасининг ошишига олиб келувчи жараёнлар, муолажа ва амалиётларни бошқариш, деб эътироф этади.

Таълим сифати менежменти – таълимнинг олдиндан башоратланган натижаларига эришишга йўналтирилган бошқарув бўлиб, сифатни таъминлаш тадбирларини лойиҳалаштириш, таълим жараёни иштирокчиларини самарали меҳнатга қизиқтириш, мақсадлардан четга чиқишларни аниқлаш, ўзгаришларни кузатиш ва таҳлил қилиш жараёнларидан иборат бўлган, таълим муассасаси фаолиятининг барча йўналишларини ўзини-ўзи баҳолаш асосида доимий такомиллаштириб бориш тизимидир.

Юқоридаги тавсифлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, таълим сифати – таълим олувчилар билимининг халқаро давлат стандартларига мослиги, турли даражалардаги таълим муассасаси сифат натижавийлиги, муассасанинг муваффақиятли фаолияти, шунингдек, таълим жараёни иштирокчиларининг

инновацион таълим хизматлари сифатини таъминлашдаги фаолияти натижаси ҳисобланади ⁵⁶.

Аксарият хорижий давлатларда таълим сифатини баҳолаш икки таркибий қисмдан, яъни ички (ўзини-ўзи баҳолаш) ва ташқи баҳолашдан иборат бўлиши лозимлиги, шунингдек, мазкур ташкил этувчиларнинг аниқ механизмлари ҳар хил бўлиши мумкинлиги тан олинади. Сифатни ташқи баҳолаш тизими кўпроқ стандартлар ва иқтисодий самарадорлик билан, ички баҳолаш тизими эса рақобатбардошлик ва ривожланишга йўналтирилган такомиллаштиришлар билан алоқадорликда тушунилади. Дунёда мавжуд таълим сифатини баҳолаш тизимларини ҳам уларда ташқи ёки ички баҳолашга урғу берилишига қараб, шартли равишда, икки моделга бўлиш мумкин.

Биринчи, таълим муассасаларининг жамият ва давлат олдидаги масъулиятини аттестация, аккредитация ва назорат қилиш воситасида ташқи баҳолашга асосланган “француз” модели. Бунда таълим муассасаси томонидан ўзини-ўзи баҳолашга юзаки қаралади, чунки асосий эътибор ташқи баҳолашни самарали ўтказишга қаратилади.

Таълим сифатини баҳолашнинг иккинчи – “инглиз” модели асосини таълим муассасаси томонидан ички баҳолаш ташкил қилади. Француз модели Франция, Норвегия, Чехия, Латвия, Эстония каби Европа мамлакатларида, инглиз модели Буюк Британия, Дания, Германия, Словения, Польша, АҚШ, Лотин Америкаси давлатларида қўлланилади. АҚШ, Финляндия ва бошқа айрим мамлакатларда таълим сифатини баҳолашнинг ҳар иккала моделдан самарали фойдаланиб келмоқда.

Демак таълим сифати назорати ички ва ташқи баҳолашдан иборат бўлиб, мазкур баҳолашларнинг механизмлари турлича бўлиши ва таълим сифатини таъминлашда ички баҳолаш ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

Таълимни сифатли бошқариш тўғрисида кўплаб назариялар мавжуд бўлиб, уларнинг кўпи вақт ўтиши билан таълимдаги ислохотлар билан ўз аҳамиятини

йўқотиб бормоқда. Таълим сифати бугун барча ривожланган ва ривожланаётган

давлатлар учун муҳим аҳамиятга эга ва асосий эътиборни қаратиш зарур бўлган

соҳалар қаторида туради. Ривожланган давлатлар тажрибасига кўра, таълимни ислох қилишда, унга янгича ёндашувларни олиб кириш билан бирга таълим бошқарувини ҳам такомиллаштириб бориш, унга янгича тамойилларни олиб кириш, сифат ва самарадорлик учун хизмат қилувчи бошқарув моделини

⁵⁶ Тоштемирова С.А, Мухаммадиев Л.Ф. “Таълим сифати бошқаруви ва бу йўналишдаги халқаро моделларнинг ўзига хос хусусиятлари”. – Т.: Academic research in educational sciences. 2021. 769-б. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifati-bosh-aruvi-va-bu-y-nalishdagi-hal-aro-modellarning-ziga-hos-hususiyatlari>

ишлаб чиқиш ҳар доим долзарблик касб этган.

Таълим сифатини таъминлашда муҳим аҳамият касб этадиган педагогик тизимни бошқаришни демократлаштириш, бу кадрларни танлаш, шартнома асосида ишга қабул қилиш, қабул қилинаётган қарорларни очик муҳокама этиш, ахборотларни барча учун очик, тушунарли бўлишига эришиш, таълим муассасаси ҳаётига оид ўз фикрларни билдиришларига имкон бериш, таълим муассасасида демократик ғояларнинг устувор ўрин тутишини англатади.

Юқоридаги фикрлар асосида таълим сифатининг назорат-бошқаруви деб, таълим муассасасида мавжуд бўлган ресурслар (моддий, инсон) ва воситалардан қай даражада фойдаланганлик, таълим олувчиларнинг жамият аъзоси сифатида қай даражада шаклланганлиги ва давлатнинг ривожига ҳисса қўша оладиган билим ва кўникмаларни қай даражада эгаллаганликларини назорат қилиш ва бу орқали баҳолаш тушунилади.

Ўзбекистонда ҳам таълим сифати бошқаруви жараёнлари кўплаб тадқиқотчи-олимлар томонидан тадқиқ этилган ва турлича муносабат билдирилган. Унга кўра, ижтимоий амалиёт, жамоатчилик тарбияси, таълим ва тарбиянинг аниқ мақсадга қаратилганлиги эркин шахсни шакллантиришнинг асосини ташкил этади. Таълим жараёнини модернизациялаш ҳамда моддий техника базасини яхшилаш, жамиятни маънавий янгилаш, биринчи навбатда, ёш авлод анъаналари инсонпарварлик ва демократик қадриятларни сингдириш орқали таъминланади. Буларнинг барчаси ёш кадрларни тайёрлаш ва ривожлантиришда алоҳида аҳамиятга эга. Шунингдек, таълим жараёнини замонавийлаштиришда бошқарув тизимига ҳам алоҳида эътибор қаратиш, тизимни ривожланишига таъсир кўрсатаётган бюрократик тўсиқлар, бошқарув кадрлар муаммоси ва бошқа иш самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омилларни бартараф этиш ҳам жуда муҳим.

Замонавий сифат менежменти – бу раҳбарлик ва қўллаб-қувватлашнинг самарали таркиби бўлиб, кўйилган вазифаларнинг бажарилишини таъминлайди.

Бугунги кунда замонавий раҳбар бошқарув фанининг умумий асосларини пухта билиши, шунингдек, бошқарув стратегияси, инновациялар, маркетинг, ходимларни бошқариш соҳасида махсус билим ва кўникмаларга эга бўлиши, муассасадаги бошқарувни режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат этиш ҳамда шу мақсадини амалга ошириши талаб этилади.

Шунингдек, таълим муассасасидаги раҳбар-ходимлар бошқарувнинг функционал жиҳатларини ўзлаштириши; меҳнат унумдорлигига эришиш; ишига масъулият билан ёндашиш; жамоани мақсад сари йўналтира олиш; таълим муассасаси бошқарувини ички ва ташқи ўзгаришларга мослаштириши; инновацион янгиликларни жорий этиши ва инновацион технологияларни бошқарувда қўллашни такомиллаштириш учун зарурий билим, кўникма ҳамда малакаларга эга бўлиши зарур ҳисобланади.

Хулоса.

Тушунчалар ва атамалар таълим сифатини аниёлашди ёндашувларнинг ҳалма-хиллиги унинг ўзига хос хусусиятларидан бири – “таълим сифати” тушунчасининг мазмуни билан боғлиқ, чунки у кўп қиррали ва вазиятлидир.

“Сифат” ўз-ўзидан тугамайди. Унинг шаклланиши ва доимий такомиллаштирилиши жамиятда мавжуд таълим хизматларига бўлган эҳтиёжларни қондириш натижасида юзага келадиган объектив заруратдир.

Шундай қилиб, таълим хизматлари натижасида бозорнинг мавжуд эҳтиёжлари учун маълим бир моделдир. Таълим сифати, бизнинг фикримизча, “Таълим хизматларининг натижаси сифатида мавжуд эҳтиёжларига мослаштириш” деган тушунчани беради.

Барча таълимни ривожланиш жараёнларини ҳисобга олган ҳолда минтақадаги умумий таълим сифатини бошқариш жараёнида зарур бўлган фаолият таркиби вазият ва шароитлар уйғунлигини таъминлайдиган, таълимда самарали бошқарувни белгилайдиган муҳитини яратиш билан ҳудудий тизимлар ва умумий таълим муассасаларини гуруҳлаштириш орқали мониторинг ишлари, таълимга янгича ёндашувлар, минтақада умумий таълим сифатини бошқариш моделини ишлаб чиқишни тақозо этади.

Таълим тизимида олиб борилаётган ислохотлар ўқув жараёнларини сифатли тарзда бошқариш механизмларини янада такомиллаштиришни, демократик, инсонпарварлик тамойилларга асосланган таълим бошқарувини шакллантириш зарурлигини талаб қилмоқда.

Айниқса, бўлажак мутахассисларни тайёрлаш соҳасининг сифат босқичида мамлакатимиз умумий ўрта таълим муассасаларидаги таълим сифати ва самарадорлигини доимий тарзда ошириб бориш зарурати мактаб ўқитувчилари касбий-педагогик компетенцияларини янада ривожлантириш, улардаги таълим сифатини бошқаришни замон талаблари даражасида ташкил этишни тақозо қилади.

Шундай қилиб, таълимни ривожлантириш сифати ва хусусиятларини замонавий жамиятда ушбу муаммони жамоат талабларига, муайян ҳудудларнинг манфаатларига ва таълим эҳтиёжларига қаратилган минтақавий, шаҳар ва мактаблар даражасида ҳал қилинишини тақдир қилади деган хулосага келамиз. Шунинг учун таълим сифатини ошириш ва уни ташкил этиш таълим тизимида барқарор ва изчил ривожланиш, интеллектуал ва моддий ресурсларни жалб қилиш қобилиятини белгиловчи янгича ёндашувларни татбиқ этишни талаб қилади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. URL // <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

2. Дж. Харрингтон. “Управление качеством в американских корпорациях”. М.: “Экономика”, 1990, с. 272.
3. <https://uchebnik-online.com/123/1302.html>
4. Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма “Логос”, 1993. – с.181.
5. Василькова С. Технология работы социального педагога. – Москва.: Академия. 2009. 39 с.
6. Тоштемирова С.А, Мухаммадиев Л.Ф. “Таълим сифати бошқаруви ва бу йўналишдаги халқаро моделларнинг ўзига хос хусусиятлари”. – Т.: Academic research in educational sciences. 2021. 769-б. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifati-bosh-aruvi-va-bu-y-nalishdagi-hal-aro-modellarning-ziga-hos-hususiyatlari>
7. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. – Т.: “Турон-Иқбол”, 2006. 101-б.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТА НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Турсунова Ж.А.

преподаватель Гулистанский государственный университет

В современных условиях на качество преподавания биологии в школе большое влияние оказывает применения информационно-коммуникативных технологий.

В последнее время наблюдается массовое внедрение Интернета в школьное образование. Увеличивается число информационных ресурсов по всем предметам и по биологии в том числе. Интернет действительно становится доступным для использования в образовательном процессе

Современным ученикам стало легче находить информацию в Интернете, а не в учебниках и в энциклопедиях. Но дети чаще используют Интернет для общения, для игр. Необходимо учить молодежь более продуктивно использовать возможности Интернет, в частности, в области информационно-коммуникационных технологий, направленных на учебу и получения новых знаний. Обычно на уроках использование Интернета ограничивается только просмотром учебных видеofilмов или учебных экскурсий. Для того чтобы посещение Интернета оказалось полезным и эффективным нужно иметь точный план и знать для чего и зачем использовать Интернет. При этом его можно использовать для выполнения многих задач, например :

- может быть поставлена задача поиска дополнительной учебной информации с сохранением её, для последующего многократного использования разными пользователями. Например, при изучении темы «Генетическая инженерия и биотехнология» можно дать задание найти сведения о современных методах селекции и успехах ученых по выведению новых пород животных и сортов

растений в Узбекистане, или при изучении темы «Наследственные болезни человека. Репродуктивное здоровье» можно дать задание найти дополнительную информацию о наследственных болезнях человека.

- может быть поставлена задача сделать обзор (аналитический обзор, дайджест, реферат) по сформулированной заранее теме, что может оцениваться как проектная работа ученика. При создании проектов учащиеся могут посетить виртуально: библиотеки (поиск материала из энциклопедий, справочников, научных газет и журналов, недоступного в обычных библиотеках); научные и творческие лаборатории (при моделировании опасных или очень сложных опытов); музеи, которые позволяют побывать в различных уголках планеты; электронные муляжи и гербарии.

- поиск новой информации по ссылкам предложенным учителем. Данный прием можно использовать при изучении нового материала, закреплении или подготовке к итоговой, контрольной, самостоятельной работе. Учащимся предлагается составить конспект или план; составить схемы или таблицы; активизирует работу составление вопросов к тексту; нахождение ответов на вопросы, данные учителем; работа с рисунками, изображениями.

- возможна задача: отыскать принципиально новую информацию и сопоставить её с известной, то есть создать проблемную ситуацию, инициирующую конструктивное общение. При изучении темы «Генетическая инженерия и биотехнология» в 10 классе можно дать задание найти сведения о последних разработках в области клонирования и отношению к вопросу клонирования различных ученых. На уроке при обсуждении данного вопроса возникает проблемная ситуация, вытекающая из того, что вопрос создания клона человека вызывает неоднозначные, а иногда взаимоисключающие точки зрения ученых. Тем более этот материал ценен потому, что его вообще нет в учебниках. В ходе обсуждения учащиеся высказывают своё мнение и своё отношение к данной проблеме.

Но применение в обучении информационных сетей не должно быть самоцелью. Смысл в том, чтобы информационные ресурсы стали абсолютно необходимыми для решения познавательных задач. Их применение позволяет изменить образовательную парадигму: отказаться от накопления знаний в пользу освоения способов деятельности в условиях доступности любых информационных ресурсов. Технически организовать работу с ресурсами Интернет на уроке можно в двух вариантах. Если компьютеры обеспечивают быстрый доступ в сеть, учащиеся могут работать в режиме on-line, то есть с непосредственным доступом в Интернет. Однако учителю необходимо заранее проверить доступность интересующих материалов. По причине переработки содержания серверы и сайты могут быть временно недоступны. Другой

вариант более надёжен – с опосредованным доступом в Интернет. При подготовке урока можно скопировать необходимые для занятий Web-страницы в отдельную папку на школьном сервере или хотя бы на одном из школьных компьютеров. И в том и в другом случае использование Интернет-ресурсов повышает уровень проведения занятий, качество знаний учащихся и их мотивацию к обучению.

Нельзя не сказать о значении Интернета для самообразования учителя и использования богатейших ресурсов сети для подготовки к урокам. Причём не стоит отказываться от посещения англоязычных сайтов, так как на них могут быть очень интересные иллюстрации, которые можно сохранить и использовать при создании мультимедийных презентаций.

Подводя итоги, хочется заметить, что компьютерные обучающие программы могут успешно применяться не только при изучении курса биологии, но и других естественных дисциплин.

Использованная литература

1. Бартенева Т.П., Ремонтов А.П. Использование информационных компьютерных технологий на уроках биологии. Международный конгресс «Информационные технологии в образовании». – г. Москва.-2003. – с. 2-5
2. Андреев А.А. Компьютерные и телекоммуникационные технологии в сфере образования //Школьные технологии.- 2010.- №3. – с. 7-11
3. Булычева М.Б. Использование информационных и коммуникативных технологий на уроках биологии //Биология в школе.- 2008.- №16. – с. 36-39

ЎРТА ОСИЁДА ИЛМ-ФАН ТУРҒУНЛАШУВИНИНГ САБАБЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Райимкулов Акмал,

*Гулистон давлат университети, Тарих факультети магистратура
2-босқич талабаси*

Аннотация: *Ўрта Осийё хонликларида таълим шакллари тузилиши ва фаолиятини ташкил этиши долзарб вазифа ҳисобланади. Мадрасалар, мактаблар ва қориқхоналар таълим олиб борилиш босқичлари, хонликлар мактабларининг фарқликлари, мадрасалардаги ўқув даврлари ҳамда толиби илмларга яратилган шарт-шароитлар, фойдаланилган адабиётлар тўғрисида баён этилган.*

Калит сўзлари: *Шарқ мамлакатлари, индустриал цивилизация, мусулмон ренессанси, ҳуқуқий демократик давлат.*

Маълумки, ёзма манбалар тарихий манбаларнинг муҳим ва асосий туридир. Инсоннинг ижтимоий фаолияти, аниқроғи кишиларнинг ўзаро

муносабатининг натижаси ўлароқ яратилган ва ўша замонларда содир бўлган ижтимоий-сиёсий воқеаларни ўзида акс эттирган манба сифатида ўрта аср (XIX аср охири -XX аср бошлари) тарихини ўрганишда муҳим ўрин тутади.

Барча замонларда ҳам адолатли ва низомлар ҳукмрон жамиятда илм-фан ва маърифат аҳли кадрланиб, зиёлилар ва касб-ҳунар эгалари эъзоланиб келингани тарихдан маълум. Бугун ҳам давлат ва жамият тараққиёти ёш авлоднинг яхши таълим-тарбияси ва илм-фан чўққиларини эгаллашларига боғлиқлигини Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Бир ҳақиқат барчамизга яхши маълум: илм ва изланиш бўлмаган жойда ҳеч қандай ривожланиш, юксалиш ва умуман, бирор-бир соҳанинг келажаги бўлмайди⁵⁷” – деб кўрсатади.

Тарихий тараққиёт ўзига хос зиддиятлар билан кечади. Яъни ҳар қандай цивилизация вақти келганда юксалади, турғунлашди ёки ўзини бутунлай тафтиш қилиб сифат жиҳатидан янги босқичга ўтади. Цивилизация ёндашувга кўра XVI асрдан Шарқ мамлакатлари тараққиётида аграр цивилизацияга хос жиҳатлар турғунлашиб қолди ва сифат жиҳатдан ўзидан илғор бўлган янги индустриал цивилизация босқичига ўта олмади. Шунинг учун ҳам ренессанслар ва жаҳон динларининг маркази бўлган Шарқда илм-фан ривожланиши турғунлашди. Энди анъанавийлик яъни ўтмишга тўлиқ тақлид қилиш такрорланиш авж олди. Ғарбда эса аксинча, университетлар кўпайди, урбанизация кучайди, ишлаб чиқаришда индустриализацияга ўтиш учун замин тайёрланди. Табиийки бу жараён дунёвий фанларнинг ривожланиши билан уйғунлашган ҳолда рўй берди. Индустриал цивилизацияда капитал, меҳнат жамият асосини белгилайди. Гигант куч, яъни саноат бутун дунёга тарқала бошлади. Янгича турмуш тарзи, янгича тафаккур (рационализм, прагматизм) кенг тарқалади. Мазкур тараққиёт босқичи ўз навбатида оммавий маҳсулот, оммавий тақсимот, оммавий маданиятни шакллантирди⁵⁸.

Хива хонлигидаги таълим ва тарбияга оид айрим фикрлар ҳамда фактлар хонлик тарихига оид Ғарб олимларидан Ж.Хэнвей, Г.Генс, Р.Шекспир, А.Вамбери, Мишель, Ф.Барнаби, Ж.Аббот, Х.Ландедел, Х.Мозер, Х.Коллет, Э.Захау, Ф.Шварц, Р.Гинк, К.Комбас, Ю.Гольдштейн, К.Пандер, Мак-Гахан, Ю.Брегель, М.Олворт, С.Беккер, Ж.Уилер каби мутахассислар асарларида учрайди.

Хонликлар даври юрт ва халқ тарихининг катта тарихий сабоқ бўладиган давридир. Бу даврни жамият борлиғи ва тараққиётини белгилаб берувчи давлатчилик асосларининг ниҳоятда заифлашиб борганлигидан, оқибатда

⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 9 декабрдаги Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги “Ризқ-рўзимиз бунёдкори бўлган қишлоқ хўжалиги ходимлари меҳнатини улуғлаш, соҳа ривожини янги босқичга кўтариш – асосий вазифамиздир” номли маърузасидан. Т.: “Халқ сўзи” газетаси 2017 й 4-сон.

⁵⁸ А. Ўтамурадов, С. Мамашокиров. Фанларнинг фалсафий масалалари. Т. Университет, 2003, 67-б.

миллат ва давлат қарамлик аҳволига тушиб қолганидан келиб чиққан ҳолда ўрганиш ва билиш муҳимдир. Бу даврда асрлар давомида бир бутун бўлган халқнинг, мамлакатнинг учга бўлиниши, урушлар, ички низо ва феодал бошбошдоқликлар юрт-ни хонавайрон қилди. Аҳоли хонлар, беклар, амалдорлар зўравонлиги, ғайриқонуний солиқ ва жарималардан азоб чекди. Уларнинг турмуш даражаси пасайди. Хон ва сарой аъёнлари тараққиётга халақит бераётган ишлаб чиқариш муносабатларини ҳимоя қилди, эски ерга эгалик муносабатлари ўзгармади, ерларнинг унумдорлигини ошириш ҳақида қайғурилмади.

Айнан индустриал цивилизация бозор иқтисодиётини ривожлантириш, жамият ҳаётини эркинлаштириш орқали ҳуқуқий демократик давлат ва жамият барпо этиш учун қулай шарт-шароитлар яратиши билан катта аҳамиятга эгаллиги билан тадқиқотчилар эътиборини ўзига жалб қилиб келмоқда.

Буни биз XVI асрдан бошлаб Ўрта Осиё халқлари тарихий тараққиётидаги турғунлашувида ҳам кузатишимиз мумкин. Мазкур турғунлашув илм-фан ривожланишида намоён бўлди. Яъни, мусулмон ренессанси ва Темурийлар давридаги илм-фан ютуқлари такомиллаштирилмади, аксинча такрорланаверди. Кўпроқ тажрибаларга таянила бошланди. Қолаверса сиёсий урушлар, диний мутаассиблик, синфий зиддиятлар илм-фанни ривожланишига тўсқинлик қилиб келди. Хонликларнинг асрлар давомида ўзгармай келаётган давлат идора усули, тор доирадаги ҳукмдорлар зулми тараққиётга ғов бўлиб қолган эди. Асрлар давомида бир бутун бўлиб келган мамлакатнинг, бир иқтисодий ва маданий маконда яшаб келган аҳолининг учга бўлиниб кетиши, хонликлар ўртасидаги урушлар, ҳар бир хонлик ичидаги парокандалик, бошбошдоқлик ва ўзаро ҳокимият учун тинимсиз давом этган ички кураш, иғво-фасоднинг авж олиши, ўзаро низо- жанжаллар, урушлар вилоят ва туманларни, қолаверса бутун мамлакатни хонавайрон қиларди. Хонликлар ўртасидаги ўзаро урушлар, этник низолар қабилалар кўчишини келтириб чиқарарди ёки улар зўрлик билан яшаб турган жойларидан кўчирилари эди. Бу жараён этник гуруҳбозликни келтириб чиқарарди, қабилаларнинг этник аралашувига, бир бутун халқ бўлиб қовушишига, жипслашишига халақит берарди. Давлат даражасида ҳам, вилоятлар даражасида ҳам ягона халқ, ягона Ватан тушунчасининг қадри англаб олинмади⁵⁹.

Алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, XIX асрнинг ўрталарида Хива ва Қўқон хонлиги ҳамда Бухоро амирлиги ўртасидаги алоқалар яқин бўлмаганлиги боис хонликлардаги халқ таълимининг ташкил этилиши ва бошқарилиши жараёни ҳар бир ҳудудда алоҳида, хоннинг ва хон

⁵⁹ А.Эркаев. Маънавият ва тараққиёт. Т., Маънавият, 2009 йил, 153 -бет.

амалдорларининг бу масалага бўлган эътиборидан келиб чиқиб белгиланди.

Демак, хулоса қилиш мумкинки, XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб ўлка маҳаллий халқ таълимининг мутлақо назоратсиз қолдирилиши натижасида таълим масканлари сони билан у ерда бериладиган таълим-тарбия сифати ўртасидаги боғлиқлик, узлуксизлик бутунлай издан чиққан.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати

1. Ш.М.Мирзиёев. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2017.

2. Алимов. И. Қўқон хонлиги мадраса ва мактаблар тарихи. Т. Фан.2017.

3. Бендриков.К.Е. “Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы)”. – М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР. 1960.

4. Қаяумов А.П. “Қўқон адабий мухити. XVIII-XIX асрлар”. Т.: Узфанакаднашр. 1961 й.

5. Лунин Б.В. “История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI- первой половины XIX в”. Т.: Фан, 1988 й.

6. Асророва. Л. Қ. “Бухоро мадрасалари тарихидан”. Т.: Ҳилол. 2016 й.

7. Жуманазар, Абдусаттор. “Бухоро таълим тизими тарихи”. Т.: Академикнашр. 2017.

INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Tashpulatova Lolaxon Taxirovna

Guliston shahar 11-umumta’lim maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

+998 994427283

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili darslarida dars va darsdan tashqari jarayonlarda o‘yin texnologiyasining bolani mantiqiy fikrlashga yo‘naltirishdagi o‘miniga to‘xtalib, o‘yin namunlari keltirib o‘tilgan, ularning ta’limiy va tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘yin texnologiyasi, darsdan tashqari mashg‘ulot, samaradorlik, faollik, nutq.

Ingliz tili darslari jarayonini asosiy faoliyatini o‘qish bo‘lsada, o‘yin bilan hamkorlikda tashkil etilsa samaradorlikni oshirish imkonini yaratadi. Bu esa har bir ta’lim bosqichini muvafaqqiyatli amalga oshirishda bolalarning psixo-fiziologik qobiliyatlarini inobatga olish muhim omillardan biridir.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni didaktik o‘yinlar asosida tashkil etilishi

muammoning hal etilishining asosiy vositalaridan hisoblanadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'yin texnologiyalar asosida tashkil etish davr talabi. O'yin texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar oddiy mashg'ulotlarga nisbatan faolroq ishtirok etadi va mashg'ulot samaradorligi oshadi. Mashg'ulotlarni integrallashgan tarzda turli noan'anaviy o'yin usullaridan foydalanib tashkil etilsa yanada samaraliroq bo'ladi.

O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir.

Talab darajasida rivojlanayotgan bola ko'p harakat qiladi va ishtiyoq bilan o'ynaydi. O'yinni bolalar hayotini tashkil etishning forma va ko'rinishlaridan biri deb bejizga aytishmaydi. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi, uning xulq-atvorini shakllantirib boradi.

Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, tartibli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Jozibali o'yin ta'sirida bolaning qanchalik o'zgarib ketishiga bir nazar tashlang-a! Kamgap bola ko'p gapiradigan, odamovi bola dilkash, qo'rs bola xushmuomila bo'lib qoladi. Tinib-tinchimas bola o'yinga berilganda boshqa hollarda bajara olmagan ishlarni o'yin jarayonida osonlik bilan amalga oshiradi.

O'yin jarayonidagi muloqotlar bolalar uchun xulq-atvor normalarining amaliy maktabi bo'lishga erishishimiz kerak.


Bunda ular o'yin harakatlarida nima yaxshi-yu, nima yomonligini, vijdonan, adolatli, o'rtoqlarcha ish tutish nima, u qanday ekanligini anglab yetishlariga yordam beradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta sekin murakkablikka o'tish qoidalariga rioya etish kerak.

Vaqtivaqti bilan o'yin turlarini yangilab turish kerak. O'yin jarayonida bolalarning hamkorlik kabi ijodiy harakatlarini rag'batlantirib borish kerak. O'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyasidagi tutgan o'rni benihoya kattadir. Bolalar tafakkurini shakllanishi va rivojlanishini yaxshilash niyatida foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi o'yin mashg'ulotlarni tavsiya qilmoqchimiz.

„Let's find a common name“ game(“Umumiy nom topamiz” o'yini).

Bu o'yinni rasmi tarzda o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu o'yin ham bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi deb o'ylaymiz. O'yin sharti quyidagicha: o'qituvchi bolalar guruhlariga bir guruhga mansub bo'lgan rasmlar tarqatadi har bir guruh rasmlar asosida ularning umumiy nomini aytishi kerak. Masalan: Pencil, pen, notebook - school supplies, wardrobe, table, chair –

equipment. Onions, potatoes, carrots – vegetables deb umumiy nomini aytadi.



Bolalar faolroq ishtirok eta boshlagach ularga "Find the odd thing" ("Ortiqchasini top") o'yinini taklif etish mumkin. Bu o'yinda berilgan rasmlardan ortiqchasini topish so'raladi. O'yinni multimedia yoki taqdimot asosida tashkil etish yanada samaraliroq natija beradi.



cow, sheep, cat, tiger

Bu o'yinda bolalarning tafakkuri rivojlanibgina qolmay, shu bilan birga ularning nutqiy faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi. O'yin mashg'ulotlar individual, juftlik tarzda o'tkazilishi bilan birga, guruhda musobaqa tarzida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda o'yin mashg'ulotlar juda qiziqarli bo'lib yaxshi samara berdi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Raximqulov Q.D. "Harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi". T-2002yil.
2. <http://www.multimedia.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

TA'LIMDA INNOVATSIYALAR, DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYASI

Isayeva Sanobar

*Sirdaryo viloyati pedagogika markazi O'quv jarayonini tashkil etish bo'limi
Bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini, innovatsion ta'limning rivojlanishi, tendentsiyalar va istiqbollari, turli xil didaktik o'yinlar, innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion muhit, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'lim, innovatsion tendentsiyalar, ilm-fan, ta'lim tizimi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;

shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;

ko'psub'ektki (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;

individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Didaktik o'yinlarni tashkil etish tamoyillari.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;

o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya‘ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;

shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e‘tibor qaratiladi;

o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferentsiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta‘kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta‘riflaydi.

Psixologlar ta‘kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi.

Ular quyidagilar.

maftunkorlik;

kommunikativlik;

o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;

davolovchilik;

tashxis;
millatlararo muloqot;
ijtimoiylashuv.

Imitatsion o'yinlar.

Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin.

Stsenariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeyiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va ular bilan muloqot o'rnatishga o'rgatishdir.

Psixodrama va sosiodrama. Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

PEDAGOGIK IMIDJ-PEDAGOGNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI

Norkulova Nigora Baxramovna

Sayxunobod tumani 4- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozimligi. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olishi, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshirishidan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: imidj “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” “joziba”, “maftunkorlik”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali

insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish dars jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste'dodining o'zi yetarli emas, balki o'quvchilarga yoqa olishni ham bilishi kerak.

Lug'aviy jihatdan "imidj"(ing. "image")tushunchasi "siymo", "timsol", "qiyofa" va "obraz" ma'nolarini anglatadi.Mohiyatiga ko'ra esa ushbu tushuncha yordamida "joziba", "maftunkorlik" ma'nolarini ifodalaydi.Imidj-aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob'ekt qiyofasidir. Pedagogik imidj-pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqiko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikva mutanosiblikdir.

1. Gavdani tutish-to'g'ri tutish(yurishda, o'tirib turishda), qo'llarning o'qituvchi stolida erkin holatda bo'lishi, batartibli, ixchamligi.

2. Kiyim- ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko'p va kamligi, ishiga mosligi.

3. Pardozning me'yordaligi, yoshi, kasbi va ishiga mosigi.

4. Soch turmagi(sochning ma'lum bir tartibliligi).

5. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi. O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'quvchi-talabalarga mashg'ulotlarni ta'sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

6.Mimika-his-hayajonning ifoda etishi, yuz mushaklarining, ma'noli harakatlarning so'zlayotgan nuqtaga gapga mosligi. Mimika- bu o'z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini tinglovchi bajarayotgan ishdan roziligi yoki norizoligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko'z muskullarini harakatga keltira olish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish uchun imkon yaratadi. O'quvchi pedagogga qarab uning kayfiyatini, munosabatini «o'qib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quv mashg'ulotlariga ta'sir ko'rsatadi. Mimik ifodalar o'quvchining o'quv kayfiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos ta'sirini ko'rsata bilishi talab etiladi. Bu o'quv - tarbiya topshiriqlarini yechish o'quvchilar ta'limi va tarbiyasiga ijobiy yo'nalish bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim.

Yuz ifodasi, esa o'z navbatida nutq va munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarda ifodalanishi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qayd qilinganidek qosh, ko'z, yuz ko'rinishi va muskullari

ishtirok etadi. Ko‘z, qosh, yuz o‘quvchi- talabalar javobidan qoniqish, xursand bo‘lish, faxrlanish yoki e’tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo‘lish va boshqa belgilarni ifodalasa, ta’lim oluvchilar diqqatini bo‘lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta’lim - tarbiya ishlarini olib borish muvaffaqiyatli kechadi. Shuni ham alohida e’tirof etish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o‘qituvchining nigohi o‘quvchi-talabalarga, yoki ayrim o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko‘rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchida yuqorida qayd etib o‘tilgan pedagogik texnika ko‘nikmalarini tarbiyalangan bo‘lsa, u yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, va ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi. Ta’kidlanganidek shaxsiy-kasbiy malakalar o‘qituvchining ijtimoiy – gumanitar, ixtisoslik hamda maxsus fanlar bo‘yicha bilimlarini boyitadi pedagogik mahoratni egallashga intilishni kuchaytiradi, o‘z kasbiga qiziqish va burch, hamda mas’uliyatni his qilishni rivojlantiradi. Va bu malakalar yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ‘ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

AGAR BOLA O‘ZLASHTIRMASA

Norqo‘ziyeva Mukadas Safarovna

Boyovut tuman 16-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarga dars o‘tishda faqatgina belgilangan qoidalarga emas balki o‘quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqib ularning oilaviy sharoiti o‘rganilsa, ta’lim sifati yanada oshardi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, zamonaviy, o‘quv, interfaol va boshqalar

Boshlang‘ich ta’limda darslarni shu asosda tashkil etish avvalombor, o‘qituvchining inavatsion faoliyatiga, tafakkuriga bog‘liqdir .Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’limning poydevori bo‘lib, har bir darsida yangi usul , uslub yoki texnologiyani joriy etish orqali o‘quvchida mustahkam bilim bilan birga, uni amaliy faolyatda qo‘llashning ko‘nikma va malakalalarini tarkib toptirsa maqsadga mufoifiqdir. Dars berayotgan sinfiga taaluqli didaktik matreallarni, darsliklarni uslubiy qo‘llanmalarni va elektron o‘quv vositalarini ham mukammal o‘rganishi, shuningdek, ularni darslarda qo‘llay olishi lozim.Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalari va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning kata zaxirasi mavjud. Bugungi kun o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak? Bu savolning mukammal javobini berish uchun juda ko‘p mezonlarni sanab o‘tishga to‘g‘ri keladi: ijodkor, yangiliklarni darslariga targ‘ib etuvchi, o‘qitishning ilg‘or usullaridan foydalanadigan, kasbiy sifatlarni egallagan, o‘z ustida ishlaydigan mahoratli... Shugina xislatlarni o‘zida jamlagan o‘qituvchi “ Eng namunali ustoz

“nomiga munosib bo‘la oladimi? O‘qituvchilikning mashaqqatli va zavqli faoliyatini boshidan o‘tkazganlar, albatta, “Buning o‘zi yetarli emas”, deb javob berishi tayin. Boisi metodik jihatdan boy bilimlar zaxirasi va kasbiy mahorat sirlaridan voqif bo‘lmagan pedagog ko‘pchilik olqishiga sazovor bo‘lmaydi. Jahon tajribasida bir sinalgan usul bor: metodik mahorat uzluksiz ravishda va zamonga munosib tarzda malaka oshirish bilan boyitiladi. O‘qituvchi uchun o‘quvchilarning o‘z fani yuzasidan bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishish muhim ahamiyatga ega. Lekin o‘qituvchi yetarli malaka va tajriba ega bo‘lib, darsni interaktiv metodlar yordamida qiziqarli qilib o‘tsayu bolalardan bir nechtasi o‘zlashtira olmaschi? Albatta umumta’lim maktablarida har bir o‘qituvchi bo‘sh o‘zlashtirishning tub sabablari bilan qiziqadi, aniqlashga harakat qiladi. Bunda ish jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar, o‘qituvchining metodik jihatdan yetarli darajada qurollanmagani, o‘qituvchining tajribasizligi va o‘quv materialini noto‘g‘ri yo‘l bilan o‘rganishi, oilada bolaning nazorat qilinmasligi va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘rsatilgan sabablarning ko‘pchiligini o‘qituvchi sinf rahbarini va ota-onalar hamkorligida tinimsiz ishlash orqali bartaraf qilish mumkin. Lekin o‘zlashtirmaslikning shunday sabablari ham borki, biz shu sabablar haqida fikr yuritamiz. Yani bolalarda bo‘lgan ruhiy va jismoniy kamchilik o‘zlashtirilmamaslikning asosiy sabablaridan biridir.

Rivojlanishida kamchiligi bor bolalarni ular hayotning dastlabki onlaridan boshlab korreksiyalash, ya’ni tasir ko‘rsatish maxsus pedagogika va psixologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida aqliy rivojlanmaganligi natijasida ba’zi bolalar o‘z tengdoshlaridan ona tili, matematika yozuvlaridan orqada qolayotganligi seziladi. Bunday bolalar o‘quv yilining I choragidan ma’lum bo‘la boshlaydi. U diqqatini bir joyga jamlay olmaydi, xotirasi past bo‘lib, o‘rgatilgan mavzuning ko‘pgina qismini darsning oxirida esidan chiqarib yuboradi, darsda tez charchab qoladi. Ba’zilar darsda boshi og‘riyotganidan shikoyat qilsa, ba’zilar o‘rnidan turib ketib, dars o‘tishga xalaqit beradi. Bunday o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri rivojlanmagan bo‘ladi, shuning uchun ham predmetlarni umumlashtira olmaydi. Normal taraqqiy etgan bola predmetlarning muhim belgilariga o‘xshashlik va tafovutlarini aniqlaydi hamda oson hal etadi. Zehni past bola esa predmetlarni tarqoq va muhim bo‘lmagan belgilar asosida taqqoslaydi, ular ba’zan bir biriga zid bo‘ladi.

O‘qituvchilar bunday bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning so‘zlash qobiliyatlari tengdoshlariga qaraganda 1-2 yil keyin rivojlanganligi, normal bolalar 1-2 yoshda yursa, bunday bolalarning 2,5-3 yoshda yura boshlaganliklarini aniqlaydilar.

Zehni pastligi natijasida o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning nutqi yaxshi rivojlanmagan, so‘z boyligi juda kam bo‘ladi, berilgan savollarga juda qisqa bir yoki ikki so‘z bilan javob qaytaradi. Ba’zi bolalarda duduqlanish bo‘lsa, ba’zi bolalar “R”, “Sh,” S” tovushlarini 8-9 yoshda ham to‘g‘ri talaffuz qila olmaydilar.

Xo‘sh nima sababdan o‘quvchining zehni past bo‘ladi, o‘quv materiallarini o‘zlashtira olmaydi? Albatta zehni pastlikning ham turli sabablari bo‘lib, ularning dastlabkisi nasliy kasallikdir. Shuningdek onaning homiladorlik davrida turli

yuqumli kasalliklarga chalinishi, zharlanishi, yiqilishi natijasida shikastlanishi, bolaning ilk rivojlanish davrida ayniqsa, 1-3 yoshligida yuqumli kasalliklarga chalinishi, shunday vaqtda to'liq davolanmasligi yoki tasodif tufayli yiqilib tushganda miya yarim sharining zararlanishi ham bunga sabab bo'ladi.

Bu kabi o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini yaxshi o'rgangach boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning har bir xususiyati, haqida ota-onani habardor qilishi, maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda tuman yoki shahar tibbiy pedagogic komissiyaga tavsiya qilish lozim. Buning uchun o'sha bolaga atroflicha tavsiyanoma yoziladi va yozuv daftaridan na'muna olinadi, ko'rsatiladi.

O'qituvchi, maktab ma'muriyati, ota-ona bolaning zehni pastligi natijasida o'zlashtira olmayotganligini qancha erta aniqlab, ruhiy va aqliy xususiyatlariga mos o'quv maskaniga tavsiya etishsa, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishini to'g'ri yo'lga boshlagan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi "bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi qonunning 29-moddasida: " Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bor bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega", deyiladi.

Agar psixalogik va tibbiy ish faoliyati bir-biriga mos kelib, ular uyg'unlashsa, dastlabki nuqson ta'sirini ancha kamaytirish, ayrim hollarda esa butunlay bartaraf etish mumkin. Bunday hamkorlik bolalar kasalligi va jismoniy imkoniyati cheklanganligini profilaktika qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi uchun eng yaxshi hamkor bu ota-ona agar yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalarga to'g'ri yondoshib, bolaning taqdiriga befarq bo'lmasdan harakatlanilsa natija albatta ijobij tomonga o'zgaradi. Aksincha bolsa...

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi " Bola huquqlari to'g'risida" gi qonun
- 2 Ziyonet
- 2 Boshlang'ich ta'limga oid gazeta va jurnali

TIL – MILLAT KO'ZGUSI

Dexkanova Lutfinisa Abdullayevna

GulDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

dexkanova65@umail.uz.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan va sarmazmun o'zgarishlarning yuz berishiga olib keldi. Milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanganligi o'zbek xalqining turmushini yanada sarmazmun qilmoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor ham kuchaydi.

Jamiyatning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, o'z ona tilining sohibi bo'lmog'i lozim. Hozirda ta'lim va tarbiya sohalarida amalga oshirilayotgan

islohotlar natijasida nutqni boyitish va til madaniyatini o‘stirish muammolariga katta ahamiyat berilyapti.

Davlat tili har bir millatning asosiy tili hisoblanadi, chunki davlat hujjatlari va rasmiy ish yuritish qog‘ozlari davlat tilida yoziladi. Turli anjumanlar, majlislar ham davlat tilida olib boriladi. Manashu jihatlarga ko‘ra davlat tilining mavqeyi har bir mamlakatning Konstitutsiyasida belgilanadi. Jamiyatda ro‘y berayotgan yangilik va o‘zgarishlar tufayli davlat tili boyib boradi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa til vakillariga bu tilni o‘qitish, o‘rgatish muammolarini jadal sur‘atda hal etish zarurati tug‘iladi. Bunda asosiy muammo o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonini tezlatishdan iboratdir. Buning uchun esa o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish tamoyillari, mazmuni va metodikasini tubdan o‘zgartirish lozim.

Tilga e‘tibor hozirgi paytda mustaqil O‘zbekiston davlati madaniy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy huquqlari va mavqeyini to‘la tiklash, adabiy tilni yanada rivojlantirish, uning til normalarini yanada boyitish, tilning xalq madaniyati va ma‘naviyatining ulkan xazinasini bo‘lmish lug‘aviy boyliklarini avaylab asrash, tildagi qadimiy xalqona an‘analar, milliy ruhni qayta tiklash, boyitish uni himoya qilish kabi to‘g‘ri yo‘l tashkil qiladi.

Davlat tilini o‘rgatishdan avval milliy urf-odatlar, ma‘naviy boyliklar, o‘zi yashab turgan Vatanga muhabbat va sadoqat kabi tuyg‘ularni boshqa millat vakillari ongiga singdirish lozim. O‘zbekistonimizning boy tarixi, madaniy merosi, milliy ramzlari haqidagi tushunchaga ega bo‘lgan insongina davlat tiliga ham befarq munosabatda bo‘lolmaydi.

Davlat tilini o‘qitish va o‘rgatish uchun ko‘proq nutqiy ko‘nikmalarga e‘tiborni qaratish kerak. O‘quvchi yoki talaba istalgan mavzuda erkin so‘zlay olishi, olgan bilimlari asosida ravon o‘qish va yozishga o‘rganishi lozim. O‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yoki mashqlarni bemalol tarjima qilib olishlari uchun ularning so‘z boyliklarini oshirib boorish lozim. Buning natijasida o‘quvchi lug‘at bilan ishlashga ham o‘rganadi.

Davlat tili – o‘zbek tilini o‘qitishda, darsning samaradorligini oshirishda turli dars usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining pedagogik mahorati ham aynan an‘anaviy o‘qitish usullarini takomillashtirishda, ularga yangicha yondashishda hamda no‘anaviy usullardan foydalanishda namoyon bo‘adi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining qiziqishini orttiradi, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Jumladan, rusiyzabon talabalarga davlat tili – o‘zbek tilini o‘qitish darslarida ularni ko‘proq og‘zaki so‘zlashga o‘rgatish lozim. Bunda turli mavzuda suhbatlar uyushtirish, badiiy asarlardan parchalar yodlatish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning erkin mavzularda matn tuzib, og‘zaki so‘zlab berishga o‘rgatish ham ularning nutqini o‘stirishga yordam beradi. Natijada mustaqil fikrlagan talabada ko‘nikmalar ham hosil bo‘ladi.

Talabalarning nutqiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun matnlarni tanlashga alohida talablar qo‘yiladi.

Matn maxsus leksika manbai bo'lib, u talabalarning nutqiy faoliyatini belgilab beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, matnlar mavzusi jihatidan maxsus fanlar bo'yicha mavzular materialiga mos kelishi kerak. Matn mazmunining maxsus fanlar mavzulariga mos kelmasligi, o'zbek tili mashg'ulotlarining samaradorligini tushurib yuboradi, buning natijasida motivatsiyaning muhim turi idrok etish motivatsiyasi susayadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tiliga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Shunday ekan, davlat tili – o'zbek tilini oily o'quv yurtlarida o'qitishga jiddiy e'tibor berish lozim. Bu esa kundalik hayotimiz uchun ham har jihatdan zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T., 2006- yil.
2. Ta'limda pedagogik va innovatsion – axborot texnologiyalaridan foydalanish. Respublika ilmiy- uslubiy anjuman materiallari. UZMU. Oliy pedagogika instituti. – T., 2011-yil.
3. Abdullayev J., Dexkanova L. THE MAIN CHARACTER-FEATURES OF THE LANGUAGE AND LINGUISTIC UNITS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 1074-1078.

O'QUVCHILAR BILIMINI HOLISONA BAHOLASH TIZIMI - DARS SAMARADORLIGINING MUHIM POYDEVORI

Rasulova Nigora Qaxxorovna

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarining bilim hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini bosh metodisti

O'qituvchi – bu ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy figurasi ekan, uning shaxsini va kasbiy faoliyatini, kreativligini baholash qolaversa o'qituvchining o'z faoliyatini o'zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi hamda bu muammo pedagog olimlarni qiynayotgan dolzarb nazariy bahs mavzusidir. O'qituvchining ish faoliyatini baholash kriteriyalarini aniqlashga doir turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar o'qituvchi faoliyatini baholash kriteriyasini jamiyatimizning umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda uning «o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishiga» qarab baholash lozimligini ta'kidlaydi. Ikkinchi olimlar jamiyatning maqsadini ta'lim tizimida amalga oshirish lozim degan fikr bilan o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ya'ni ta'limning natijaliligi asosida o'qituvchining kasbiy sifatlariga tavsif berishligini ta'kidlaydi.

Baholash deganda nimani tushunamiz ?

Nimani baholash kerak?

Nazariy bilimlarni;

Amaliy bilim va ko'nikmalarni;

Xulq- atvor va shaxsiy fazilatlarini;

Yuqorida ta'dlanganligidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar

baholanियotganida psixomotorik , xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanियotganida esa effektiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali doimiy tarzda bo‘lishi shart.

Bu talabga rioya etilmasa ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Xar bir o‘quvchiuning qaysi bilimlari, ko‘nikma va malakalari baholanियotganligini bilishi kerak . Ta’lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o‘quv jarayonining muhim bir bo‘lagi uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro‘y beradi. beradi.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

- O‘quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqiqiylik
- Haqqoniylik
- Ishonchlilik
- Qulaylik

O‘quv maqsadlariga asoslanganlik-samarali baholashning asosiy tamoyillari o‘quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o‘quv maqsadlariga to‘g‘ridan- to‘g‘ri bog‘liqdir. O‘quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O‘quv maqsadlarining qo‘yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek o‘quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholar tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta’lim mazmuni doirasida bo‘lishi talab etiladi.

Haqiqiylik. O‘quv maqsadida ko‘zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Ta’lim oluvchining yerishgan natijalari to‘g‘risida asoslangan va ishonchli axborotlar berish kerak. O‘lchanishi talab yetiladigan narsalargina o‘lchanishi kerak. O‘quvchiyegallagan bilim, malaka va ko‘nikmalar xamda shaxsiy fazilatlarni o‘lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

Haqqoniylik. Bir biridan mustaqil ta’lim beruvchilar bir xil ta’lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo‘yicha bir xil baho bergan xoldagina mazkur baholash haqqoniy hisoblanadi. Bu haqqoniylik xar xil vaqtlarda berilgan baholar uchun xam taalluqlidir.

Baholash tizimi o‘quv maqsadlariga mos bo‘lishi shuningdek baholash shart – sharoitlari va maqsadlari bilan ta’lim oluvchilar oldindan tanishgan bo‘lishlari lozim. Ta’lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va xajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida xar xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarnitanlashga qo‘yiladigan asosiy shart ishonchlilik

xisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur.

Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchli ekanligini nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarga bir –birlariga o'xshash, ammo xar xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalar bir xil bo'lishi kerak.

Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli yeksperimentlar yordamida baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan xolda, o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va o'quvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlarga nisbatan ko'proq ball berilishi kerak bo'ladi.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin.

1. Me'zonga asoslangan baholash.
2. Me'yorga asoslangan baholash.

ОИЛАВИЙ НИЗОЛАР ВА УЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ЕЧИМЛАРИ

Ҳазратқулова Дилфуза Ҳамракуловна

ТДПУ тадқиқотчиси

Изоҳ: Психологлар оиладаги жанжалларни нормал ҳолат деб ҳисоблашади. Қарама-қаршиликлар, турли хил фикрлашлар туфайли эр-хотинлар ўртасида низолар бошланиб, уларда бир-бирларидан нафратланиш,илиқ муносабатларнинг йўқолиши, ҳатто оила ажримини ҳам олиб келади. Шу сабабли, оилада ҳар доим юзага келадиган низоларни қандай ҳал қилиш кераклиги масаласи жуда муҳим бўлиб қолмоқда. Ушбу мақолада оилавий низолар ва уларни бартараф этишнинг психологик ечимлари ҳақида фикр ва мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: оилавий низолар, муаммолар, психологик ечим, эр-хотин муносабатлари, низо кўринишлари, келишув, битим.

Оиладаги низоларни ҳал қилиш усуллари кўп жиҳатдан жамиятнинг маълум бир хужайраси бўлмиш оилада қандай жанжал содир бўлганига боғлиқ. Ота-она муносабатлари ва никоҳ тушунчалари ҳамда сурункали жанжаллар болаларнинг оила тўғрисидаги тасаввурларига салбий таъсир кўрсатади ва шу билан бирга, болада руҳий жароҳатни пайдо қилади. Икки киши ўз фикрлари ёки истаклари билан тўқнаш келганда, бунинг натижасида улар умумий йўналиш топмоқчи бўлганда, оиладаги низолар табиий жараён

ҳисобланади. Ҳатто низо пайтида, жанжал бўлишига қарамай, ушбу келишмовчилик эр-хотиннинг бирлигини англатади, дейиш мумкин. Биринчидан, агар эр-хотинлар жанжаллашаётган бўлса, улар ҳар доим ҳам умумий мулкка эга эмаслар, балки эркинлик, шахсий ҳудуд, болалар ва бошқаларни таъсирида жанжаллашадилар. Бошқача айтганда, эр-хотинлар жанжал мавзуси улар учун муҳим бўлсагина жанжаллашишади. Бундан ташқари, қарама-қарши томон билан жанжаллашишни истамаган одамлар ҳам бор, албатта, аммо оилада баъзан арзимаган майда –чуйда учун низо пайдо бўлади. Бундай парадокс: одамлар ўзларига зарар бермасдан, бир-бирларини хафа қилишни хоҳламасликлари керак, баъзан сабабсиз жанжал қилиб, бир-бирларини қалбларини жароҳатлайдилар. Иккинчидан, можаро шуни кўрсатадики, турмуш ўртоқларнинг ҳар бири ўзлари танлаган йўлдан кетмоқдалар. Можаро - бу икки киши боришга тайёр бўлган битта йўлнинг йўқлиги ёки ўша битта йўлдан бир манзилга юрмаслик. Айнан жанжал пайтида улар уни топишга ҳаракат қилишади. Бу шуни англатадики, одамлар биргаликда ҳаракат қилишни хоҳлашади, шунинг учун улар бир-бирлари билан учрашиш учун энг яхши вариант деб ўйлайдиган нарсаларга ўзларини мажбурлаш орқали жуда кўп ҳаракат қилишади.

Шахслараро жанжал бўлиши табиий ҳол, айниқса, бу одамлар турмуш ўртоқлар ва меҳрибон шериклар бўлса. Муносабатларда ҳеч қачон жанжал ёки низолар бўлмайди, деб умид қилиш аҳмоқликдир, чунки дунёда иккита бир хил одам йўқ. Сиз қанчалик яқин ва севимли бўлишингиздан қатъий назар, сизнинг фикрингиз шерингиз билан мос келмаслиги мумкин ва доимо нега, нима сабабдан деган саволлар мавжуд. Одамлар одатда баҳсли масалаларни қандай ҳал қилишади? Улар қичқиришади, танқид қилишади, қоралашади, жанжал қилишади, ҳатто идишларни синдириб, югуриб келишади. Ҳеч кимга сир эмаски, муаммоларни ҳал қилишнинг бундай усуллари нафақат эр-хотин муносабатларида ўз изини қолдиради, балки фарзандларга ҳам маънавий руҳий зарба беради. Бироқ, одамлар баъзи тушунчалар бўйича келиша олмасалар, бир-бирларига бақириб, қичқириб, қайта тикланмайдиган асаб толаларини чарчатишади. Аммо бир ҳақиқатни ёдда тутиш керак: қичқириқни эшитиш мумкин эмас! Шунинг учун, жанжал ва қичқириқлардан сўнг, шериклар ёки эр-хотин бир-бирлари билан хотиржам оҳангда мулоқот қилишни бошламагунча, муаммо ҳал этилмайди. Шу ерда оиладаги низоларнинг турларига эътиборимизни қаратамиз, низоларнинг энг кенг тарқалган таснифи:

1. Конструктив конфликтлар ёки низолар. Турли сабабларга кўра бундай низолар бўлади, лекин уларнинг ечими иккала томонни ҳам мамнун қилади, бошқача айтганда, уларнинг келишмовчилигини бартараф этиш келишувига айланган. Ёш оиладаги можаро бўладими ёки кўп йиллик тажрибага эга оила бўладими, натижа доим гуллаб-яшнайдди, яъни битим пайдо бўлади. Бунақа оилада ажрим хавфи йўқ.

2. Ёмон баҳслар. Бундай тўқнашувлар жуда хавфлидир, чунки уларнинг

натижаси икки томонни қониқтирмайди ва уларни узоқ йиллар давомида давом эттиришга мажбур қилади, никоҳдан қониқиш ҳиссини камайтиради, узоқ вақт давомида ёқимсиз ҳолат ёки кайфият қолдиради. Бундай низоларнинг тез-тез такрорланиши ажралишга олиб келиши мумкин.

Оилавий можаронинг кўп миқдорда пайдо бўлишининг сабаблари бор, чунки никоҳ нафақат умумий уйни сақлаш ва фарзанд кўришни, балки уларнинг истакларини амалга ошириш, эҳтиёжларини қондириш ва бахтли яшаш истагини ҳам ўз ичига олади. Эркаклар ва аёллар турмуш қуришни давом эттириш орқали ўз ҳаётларини яхшилашни хоҳлайдиган одамлар бўлиб қоладилар.

Шунинг учун ҳам оилавий ҳаётда юзага келиши мумкин бўлган низоларга бир хилда салбий нуқтаи назардан қараш ҳам, уларни бирдек оқлаш ҳам мақсадга мувофиқ эмас. Ёшларимиз оилавий ҳаётда содир бўладиган кескин низоларга тайёр бўлиши, уларни уйғунлаштириши, эр-хотинни бир-бирига мослаштириши, ўзаро муносабатларининг ривожланишини таъминлаши, низоларни ўзаро манфаатли боғлаш имкониятларидан самарали фойдаланиши зарур, яъни оилани салбий оқибатларга олиб келадиган низоларга айлантормаслик. Албатта, оилани ажратувчи белгининг "чекланмаган" тўқнашувларидан чўчиш, унинг оқибатларидан қочиш тавсия этилади. Кўришиб турибдики, эр-хотиннинг ўзаро муносабатларида юзага келадиган конструктив низолар кўп ҳолларда улар ўртасида юзага келиши мумкин бўлган қарама-қаршилиқларни ҳал қилишга, улар ўртасида ҳамкорликнинг пайдо бўлишига ва пировард натижада эр-хотин муносабатларининг мустаҳкамланишига олиб келади. Айирувчи низоларда, юқорида айтиб ўтганимиздек, битта муаммони ҳал қилиш (яъни, турмуш ўртоқлардан бирининг манфаатларини қондириш) кейинги низоларнинг келиб чиқиши учун асос бўлса, ўз навбатида, бундай низолар туфайли. "Мэн" характери, "чегараланмаган", эр-хотин муносабатларида зиддиятлар шаклланиб, оилавий ҳаётнинг шундай зиддиятли муҳитга айланиши бу оиладаги эр-хотиннинг нафақат маънавий олами, асабийлиги, саломатлиги, ижтимоий мавқеига, балки жиддий таъсир кўрсатади. Бундай оилаларда туғилган ва шундай муҳитда тарбияланган болаларнинг руҳий дунёси, бундай оилаларда ҳукм сурган зиддиятли вазият, доимий жанжаллар меҳрнинг йўқлиги, нафақат ўз асоратини қолдирибгина қолмай, балки бир оиланинг фарзандлари томонидан шакллантириладиган кейинги авлод оилаларига ҳам ўз асоратини қолдириши мумкин. Янги ташкил этилган оилаларда эр-хотин муносабатларининг бир томонлама ривожланиши натижасида шартли равишда тўрт хил оила шаклланади. Булар:

- муносабатлари мустаҳкамланган оилалар;
- муносабатлари вақтинча мустаҳкамланган оилалар;
- янги низолар келиб чиқадиган ва такрорланадиган (бахсли) оилалар;
- муносабатлари ниҳоят бутунлай бузилиб кетган оилалар.

Улар орасида энг мақбуллари 1-тоифали оилалардир. Ёшларнинг ҳар бири

шундай мустаҳкам оила қуришга интилиши керак. Вақтинчалик мустаҳкамланган муносабатларга эга 2-тоифа оилалар. Бундай оилалардаги низолар, агар турмуш ўртоқлар можародан тўғри хулоса чиқариб, хатоларини вақтида англаб, бир-бирини тушунишга ҳаракат қилсалар, ўзаро ҳамкорликка ҳам олиб келиши мумкин. Қулай шарт-шароит яратилмаса, эр-хотинлар хатосини тушуниш ва тузатишда етарли билим, тажрибага эга эмас ёки бу хатоларни бартараф этишни истамаса, ёши улуғ қариндошлари, яқинлари ёшларга умумий йўл-йўриқ, маслаҳатлар бермайдилар, уларнинг бой ҳаётгий тажрибаларига асосланиб - ва аксинча, агар улар ёш оила ҳаётига ноўрин аралашиб бўлса (афсуски, бундай ҳолатлар ўзбек оилаларида тез-тез учраб туради), бундай ҳолларда вақтинча эришилган кескинликнинг пасайиши кейинчалик яна кучайиши мумкин ҳамда янги зиддиятлар пайдо бўлиши мумкин. Конфликтдан кейинги вазиятнинг табиатига кўра учинчи тоифадаги оилалар: "низолар қисман ҳал қилинади -> оилалар занжиридаги кескинликнинг кучайиши" янги низонинг пайдо бўлиши -> улар яна қисман ҳал қилинади" буларнинг энг характерлисидир. Тўртинчи турдаги оилалар жиддий эътибор талаб қилади. Чунки баъзи оилалар (4-тоифа) никоҳ муносабатларининг ёмонлиги, низоларнинг чуқурлашиши, кескинликнинг кучайиши (баъзи ҳолларда арзимас нарсалар ҳам) туфайли бузилиши мумкин. Албатта, бу никоҳда ажралиш ҳодисаси жуда ачинарли, оилавий муносабатлар учун, айниқса, бундай ҳолларда оилада болалар бўлса, улар отасиз ёки онасиз қолиб кетади. Ажралишдан кейин ҳар икки томоннинг ижтимоий аҳволи кескинлашади. Лекин биринчи марта шундай бўлиши ҳам мумкин, оиласи бузилган одам кейинги сафар ўз хатосига йўл қўя олади ва бу кейинчалик "ўз тенгини топиб" бахтли ҳаёт кечирилади. Бироқ, 3-тоифали оилаларнинг ўзбек этносининг яна бир характерли жиҳати шундаки, ўзбеклар қатори тожик, қирғиз, қозоқларда ҳамда бошқа, Европа халқларига қараганда оилаларнинг бузилишига салбий муносабатда бўлиш анъаналари кучли. Яъни, ажралиш жамоатчилик фикрида қораланади. Бунинг устига, қариндош-уруғлик никоҳлари бошқа қардош халқларга қараганда ўзбек оилаларида кўпроқ учрайди. Бундай оилаларда эр-хотин муносабатлари кутилган шаклда ривожланмаса, яъни низо кескинлашиб, бир-бирини тушунмаса, фикрлар мос тушмаса, психологик иқлим бузилади, ҳатто оилавий ажримга олиб келади. Шундай вазиятда катталарнинг "оилани бузманг.", "қариндошликни бузманг" ва оилаларни қандай қилиб бузмаслик кераклиги ҳақидаги панд-маслаҳатлари эр-хотин ўртасидаги муносабатларни янада кечкинлатиши мумкин, албатта оилани сақлаб қолишга ҳаракат қилиш зарур.

Ҳозирги вақтда никоҳ-оила муносабатлари, касалликларнинг келиб чиқишидаги турли асаб касалликлари, турли жиноятлар, қотилликлар, ўз жонига қасд қилиш, хиёнат қилиш, болалар тарбиясини бузиш ва шунга ўхшаш бир қатор кўнгилсизликлар заминиде содир бўлаётган нохуш ҳодисаларнинг аксарияти бу 3-тоифали оилалардир. Шу боис нафақат ёшларимизнинг ҳозирги оиладаги ижтимоий психологик бузилишлар психологияси, эр-хотин низолари, оилавий низолар, шунингдек, фаолият

юритаётган ходимлар, маҳаллалар, ҳокимият вакиллари, ёши улуғлар ҳақида тегишли маълумотларга эга бўлишлари мақсадга мувофиқдир. Биламизки, никоҳ - оилавий муаммолар билан бевосита боғлиқ. Ёшларимиз эса ажратувчи “мэн” характерининг “чекланмаган” турларидан хабардор бўлишлари, ўз ҳаётларида бу турдаги зиддиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш учун зарур билим ва маълумотларга эга бўлишлари керак. Оила қачон бахтли бўлади, қачонки “мен” “ биз” га айланса. Оилада ҳеч қандай қарама-қаршилик йўқ, чунки оилавий муносабатларнинг ўзига хос хусусияти шундаки, қарама-қарши жинс вакиллари бутунлай бошқача ҳаёт ҳикоялари ва турли хил тарбия билан турмуш қуришади ва шу билан бирга улар бир-бирининг ўрганишлари ва бир-бирларига мослашишлари керак. Ҳар қандай ҳолатда қилиш мумкин бўлган ягона нарса, оиладаги низоларнинг олдини олишдир. Оиладаги низоларни ҳал қилиш учун эр-хотин бир -бирини тушунишга интилиши керак. Агар иккала турмуш ўртоқ ҳам бир-бирини эшитишга ҳаракат қилса, ва ҳатто, қайсидир томон муносабатларда пастроқ келса, унда мурасага келиш мумкин. Бу ерда ғалаба қозонишнинг ҳожати йўқ, чунки ғалаба мағлубиятни башорат қилади. Иттифоқ қуллар ва хўжайинлар эмас, балки икки тенг ҳуқуқли шериклар иттифоқидир. Иккала турмуш ўртоқ ўз муносабатларида қулай бўлишлари керак яъни ташқи таъсир ёки босим бўлмаслиги керак, бунинг натижасида никоҳ иттифоқи бировнинг хоҳиш-истакларининг бажарилмаслиги сабабли бузилмайди.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, оилада низоларга йўл қўймаслик учун оила аъзолар бир-бирларига ишончли муносабатда бўлишлари керак. Агар эр-хотинлардан бири бирор нарсани яширса ёки ёлғон гапирса, бу ўз-ўзидан муносабатларнинг кескинлашувига олиб келади. Низоли муҳит пайдо бўлган заҳотиёқ, келишмовчиликлар, ҳақиқатдан ҳам қўрқинчлироқ бўлиши, баъзан эса ёмон оқибат яъни, оила бузилиши мумкин. Оилавий низоларни ҳал қилишда муаммолардан қочиш эмас, балки уларни ҳал қилиш керак бўлади. Муаммони ҳал қилиш учун хотиржам гаплашиб олиб, қарор қабул қилиш, албатта муносабатларга ойдинлик киритиш керак бўлади, қолаверса оила аъзолар бир-бирларига доим сеҳрли сўзларни (узр, билмай қолибман, бошқа қайтарилмайди, хато менда, сиз ҳақсиз ва ҳ.к.) мумкин қадар кўпроқ қўллаш керак бўлади. Шуни таъкидлаш лозимки, зинҳор учинчи шахсларни оилавий можарога жалб қилиш тавсия этилмайди, (компетентли яраштирувчидан мустасно) чунки, улар можаронинг янада кучайиши учун катализатор бўлишлари мумкин. Оилавий муаммони чуқур ўрганмай туриб, эр-хотин муносабатларига аралашиб яхши натижа бермайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. С.Павлина. "Оилавий муносабатлар муаммоларини тушуниш". (2006). 170-П
2. В. В. Кунитская. "Оиладаги низолар ва уларни ҳал қилиш йўллари" ижтимоий ўқитувчи. (2017). 122-127-П
3. Соғинов Н. А. Ўзбек оиласининг ижтимоий-психологик тадқиқоти масалалари. Замонавий психология фанининг долзарб

муаммолари. Психология соҳасидаги энг яхши мақолалар танловида голиб бўлган мақолалар тўплами. № 1. - Тошкент, 1997. — 32-40-Б

4. Давлетшин М.Г., Шоумаров Ғ.Б. Ҳозирги ўзбек оиласи ва унинг психологик хусусиятлари / Ўзбек оиласининг этно-психологик муаммолари: Республика илмий-амалий конференцияси хулосаси. – Т; 1993. — 3-7-Б

5. Оила: ижтимоий ҳимоя омиллари. Илмий-оммабоп мақола. В. Каримова Т.: 2007. — 118-Б

4-SHO‘BA. FANLARNI O‘QITISHDA YANGI METODIKALARNI QO‘LLASH VA ULARNING TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

O‘QUVCHILAR BILIM DARAJASINI BAHOLASHNING INTERAKTIV METODLARI

Xolmuratov Shaxriddin Baxriddinovich

*Sirdaryo viloyati maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi
o‘quvchilarni bilimi hamda ko‘nikmalarini baholash sho‘basi metodisti,*

ANNOTATSIYA

O‘quvchilarning bilim darajasini baholash ta‘limning muhim jihati hisoblanadi. Chunki u ularning tushunishi va o‘rganish jarayoni haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Ushbu maqolada baholashning ba‘zi interaktiv metodlari haqida so‘z yuritiladi.

АННОТАЦИЯ

Оценка знаний учащихся является важным аспектом образования, поскольку она дает ценную информацию об их понимании и обучении. В данной статье рассматриваются некоторые интерактивные методы оценивания.

ANNOTATION

Assessing students' knowledge is an important aspect of education because it provides valuable insights into their understanding and learning. This article discusses some interactive assessment methods.

Kalit so‘zlar: Gamifikatsiya, virtual simulyatsiyalar, interaktiv onlayn platformalar, muammoli ta‘lim.

Imtihonlar va viktorinalar kabi an‘anaviy usullar o‘z o‘rnini egallaydi, biroq interaktiv baholash usullari O‘quvchilarni faol jalb qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va tezkor fikr bildirish uchun kuchli vosita sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada biz o‘quvchilarning bilim darajasini samarali baholash uchun o‘qituvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan turli interfaol usullarni o‘rganamiz.

Gamifikatsiya:

O‘yin elementlarini baholashga integratsiyalash o‘rganish tajribasini o‘zgartirishi mumkin. Ballar, darajalar va peshqadamlar jadvali kabi o‘yin mexanikasidan foydalanib, o‘qituvchilar qiziqarli viktorinalar va muammolarni yaratishi mumkin. Interfaol o‘yin asosidagi baholash nafaqat o‘quvchilar bilimini baholaydi, balki ularning faoliyatini yaxshilashga undaydi.

Onlayn so‘rovlar va so‘rovlar:

Onlayn so‘rovlar va so‘rovlar o‘quvchilarni o‘z fikrlari va istiqbollari ifoda etishga undaydigan interaktiv baholash vositalaridir. O‘qituvchilar kurs materiallari yoki kengroq mavzular bilan bog‘liq maqsadli savollarni ishlab chiqishlari mumkin, bu esa o‘quvchilarga real vaqtda fikr-mulohaza va tushunchalarni taqdim etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv O‘quvchilarning faolligini oshiradi, sinf

muhokamalarini osonlashtiradi va o'qituvchilarga tushunishni baholash uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Virtual simulyatsiyalar:

Virtual simulyatsiyalar O'quvchilar o'z bilimlarini amaliy stsenariylarda qo'llashlari mumkin bo'lgan dinamik va immersiv muhitni taklif qiladi. Ushbu interaktiv simulyatsiyalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va qaror qabul qilish qobiliyatlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Haqiqiy vaziyatlarni boshdan kechirish orqali O'quvchilar tushunchalarni qo'llash va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga qarab baholanadi.

Hamkorlik loyihalari:

Hamkorlikdagi loyihalar O'quvchilar uchun birgalikda ishlash, jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun platforma yaratadi. Baholash guruhning jamoaviy bilimlari va sa'y-harakatlariga asoslanadi, O'quvchilarni o'z tajribalariga hissa qo'shishga undaydi. Bunday loyihalar orqali o'qituvchilar nafaqat individual bilimlarni, balki samarali hamkorlik qilish qobiliyatini ham baholashlari mumkin.

Tengdoshlarni baholash:

Tengdoshlarni baholash o'quvchilarni o'z tengdoshlarining ishini baholashni o'z ichiga oladi, mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu interfaol usul o'quvchilarni sinfdoshlarining ishini tahlil qilish va tanqidiy baholashga undaydi, o'z ta'lim tajribasini oshiradi. Tengdoshlarni baholash turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, topshiriqlarni baholash, guruh taqdimotlari yoki konstruktiv fikr bildirish.

Interaktiv onlayn platformalar:

Texnologiyaga asoslangan platformalar viktorinalar, interfaol videolar va multimedia taqdimotlari kabi ko'plab interaktiv baholash vositalarini taklif etadi. Ushbu platformalar zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etadi, o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatib boradi va shaxsiy o'rganish tajribasini taklif qiladi. O'qituvchilar ushbu platformalardan individual ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan interaktiv baholashlarni yaratish uchun foydalanishlari mumkin.

Kontseptsiya xaritasi:

Kontseptsiya xaritasi o'quvchilarga tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi tushunchalarini vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. G'oyalar va ma'lumotlarni bog'laydigan diagrammalarni yaratish orqali O'quvchilar o'zlarining bilimlarini tashkil qilish qobiliyatlarini namoyish etadilar. O'qituvchilar ushbu kontseptsiya xaritalarining sifati va to'g'riligini baholab, o'quvchilarning tushunish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Muammoli ta'lim:

Muammoli ta'lim o'quvchilarga real muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa ulardan yechim topish uchun o'z bilimlarini qo'llashni talab qiladi. Ushbu interfaol usul o'quvchilarning murakkab masalalarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va amaliy

yechimlarni taklif qilish qobiliyatini baholaydi. O'quvchilarni muammoli stsenariylarga jalb qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning bilish qobiliyatlari haqida har tomonlama tushunchaga ega bo'ladilar.

Xulosa:

O'quvchilarning bilim darajasini baholashning interfaol usullari faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va tezkor fikr-mulohazalarni rag'batlantirish orqali ta'limda inqilob qildi. Bu usullar o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qiladi, ularning tushunishini yanada to'liqroq baholaydi va umumiy ta'lim tajribasini oshiradi. O'qituvchilar ushbu interfaol baholash usullarini qo'llagan holda, ular o'quvchilarga faol o'quvchilar bo'lish imkoniyatini beradi va yanada samarali va qiziqarli ta'lim muhitiga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardaev, A. (2008) Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Iste'dod.
2. Muslimov, N., Usmonboeva, M., Sayfurov, D., & To'raev, A. (2015) Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Sano-standart.
3. Tolipov, O'.Q., & Roziyeva, D.I. (2019) Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan.
4. Abdunazarova N.F. Pedagogicheskiye osnovy povыsheniya kvalifikatsii prepodavateley professionalnykh kolledjey v usloviyax informatizatsii obrazovaniya Diss. k. p. n. - T. 2008.
5. Djurayev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskiye osnovy intensivatsii sistema professionalnoy podgotovki v uchebnykh zavedeniyax professionalnogo obrazovaniya: Avtoref. diss. ... dok.ped.nauk. - SPb.: 1995.

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ: АСОСИЙ ТУШУНЧА ВА ТАМОЙИЛЛАР

Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович

*Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий
маркази директори*

Халқ таълими тизимидаги таълим муассасалари ходим(раҳбар, педагог ва мутахассис)ларининг малака савияси улар касбий фаолиятининг сифат мезонларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда таълим ходимларининг ўз касбий фаолияти савиясининг энг юқори даражасига интилиш мажбурияти қонун йўли билан мустаҳкамлаб қўйилган, бунга эса уларнинг бутун фаолияти давомидаги узлуксиз таълими орқали эришиш мумкин бўлади.

Республикамизда малака ошириш тизими (кейинги ўринларда - МОТ) ўтган асрнинг 30-йилларида шакллана бошлаган. Европа давлатлари бу даврда ўқитувчиларни узлуксиз ўқитиш ва қайта тайёрлаш масалалари билан фаол шуғулланмоқда эдилар, зеро педагогларни мақсадли равишда касбий

ривожлантириш мактаб таълимини такомиллаштириш методи сифатида уйғониш давридаёқ мавжуд бўлган. Масалан, Пруссияда XVIII асрнинг 70-йилларида ўқитувчининг мактабга ишга олиниши у томонидан топшириладиган давлат имтиҳони натижаларига боғлиқ бўлган, шунинг учун ҳам ўтилган материалларни такрорлаш мақсадида кўпгина ўқитувчилар таклиф этилган кўшимча таълим курсларига қатнашганлар. 1840 йили Веймар республикасида илк малака ошириш институтлари пайдо бўлган.

Шу даврдан бошлаб барча мамлакатларнинг таълим тизимида малака ошириш (шу жумладан, педагог ходимлар малакасини ошириш) тушунчаси ва у билан боғлиқ муайян фаолият у ёки бу даражада ўрин эгаллай бошлаган. Бироқ, чет элларда педагогларнинг касбий ривожланиши тўғрисидага маълумотлар илмий манбаларда жуда кам учрайди, айрим давлатлардаги ўқитувчилар малакасини ошириш ҳақидаги бир-нечта диссертация ва қатор мақолалар мавжуд, уларнинг аксарияти АҚШ ва Буюкбританияга бағишланган. Қўлланилаётган атамаларда айрим фарқлар мавжуд. Масалан, бизда қабул қилинган “малака ошириш” тушунчаси ўрнига инглиз тилидаги адабиётларда “касбий ривожланиш” ва “ўқитувчиларнинг ривожланиши” каби кенгроқ маънодаги атамалар, немис тилида сўзлашадиган мамлакатларда “ўқитувчиларнинг давомий таълими” ва “ўқитувчиларнинг кейинги таълими” деб юритилади.

Турли мамлакатлардаги ўқитувчилар малакасини оширишнинг таҳлили мазкур тайёргарликнинг табақалаштирилган тарзда олиб борилаётганини кўрсатди. Дунё бўйича уларнинг бир неча турлари мавжуд: тажрибасиз ўқитувчилар учун педагогик фаолият бошланишидаги сиртқи ёки масофавий шаклдаги бошланғич таълим; тажрибали (одатда мактабда катта тажрибага эга бўлган), лекин малакасиз ўқитувчилар учун бошланғич таълим; педагогик тажрибага эга бўлмаган дипломли мутахассисларга кўшимча педагогик таълим (мактабда стажировка шаклида ва кўшимча курсларда); педагогик маълумот ва тажрибага эга бўлган малакали ўқитувчиларнинг кейинги давомий таълими.

Ўқитувчиларнинг малака ошириши турли хил муассасаларда амалга оширилади. Бугунги кунда ривожланган давлатларда педагоглар малакасини оширишнинг бевосита мактабда амалга оширилиши кенг тарқалган. Мактабдаги малака оширишнинг ижобий томонлари кўп. Уларга қуйидагилар киради: таълим мазмунининг муайян ўқитувчилар ва мактабнинг эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда амалиётга йўналтирилгани, шунингдек, баъзи бир ташкилий қулайликларнинг (курслардаги тайёргарликка қараганда камхаржлиги ва ўқиш билан ишни биргаликда олиб борилиши) мавжудлиги. Масалан, Америкада, Ўзбекистондаги каби, мактабдаги малака ошириш доирасида методбирлашмаларнинг доимий фаолияти – фан ўқитувчиларининг семинарлари ташкил этилади. Уларда ўқитувчиларни янги дастурлар, дарсликлар, қўлланмалар ва услублар билан таништириш амалга оширилади, ўқитувчилар ўз ҳамкасблари ва таклиф этилган мутахассислардан маслаҳат

олишлари мумкин бўлади. Шунингдек, очик дарслар ўтказиш, уларни таҳлил қилиш, педагогик тренингларни ташкил қилиш ва бошқа иш усуллари амалга оширилади. Бошқа мисол – Японияда мактабнинг малака оширишга бўлган эҳтиёжини педагоглар жамоасининг ўзи аниқлайди ва ўз кучи ёки мутахассисларни таклиф этиш орқали малака оширишни ташкил этади.

Ўрганилган барча мамлакатларда (ривожланган мамлакатларда ҳам, иқтисодий ночор мамлакатларда ҳам) ўқитувчиларнинг малака ошириши турли имтиёз ва рағбатлантиришлар орқали қўллаб-қувватлаб турилади. Ҳукумат ўқитувчилар томонидан ўзгаларнинг илғор тажрибасини ўрганишини ташкил этиш мақсадида мамлакат ичида ва чет элларга хизмат сафарларини уюштиради, ўқитувчиларни услубий материаллар билан таъминлайди, малака ошириш учун ижодий таътиллар беради. Ижодий фаолият кўрсатаётган ўқитувчиларни рағбатлантириш мақсадида АҚШда Ўзбекистондаги каби ҳар йили “Йил ўқитувчиси” кўрик-танлови ўтказилади, ғолибларга тантанали вазиятда пул мукофоти ва биллур олма шаклидаги мукофот берилади. Япония давлати ҳам бу борада ўзига яраша анъанага эга. Бу ерда ўқитувчининг мустақил таълими алоҳида рағбатлантирилади. Кечки ва сиртки шаклда, ўз хоҳишлари билан, ўқиётган ўқитувчиларга ойлик маошларининг ўндан бир қисми миқдорида устама ҳақ тўланади. Лихтенштейнда малака ошириш педагогга таълим муассасасида юқорироқ лавозимни эгаллаш имкониятини беради. Мазкур вазият қатор африка мамлакатларига ҳам хосдир. Финляндияда ўқитувчиларнинг узлуксиз таълим жараёнларидаги иштироки уларнинг ойлик маошлари миқдorigа ва хизмат мавқеларининг ўсишига таъсир этмайди.

Бозор иқтисодиёти шароитида ҳам шахсий ташаббускорлигини, ҳам касбий ривожланиши ҳақини ўзи тўлашга тайёрлигини намойиш этиш орқали педагог ўзининг касбий савиясига бўлган масъулиятни давлат билан бўлишиши ривожланган давлатлардаги малака оширишнинг ҳозирги кундаги муҳим аломатидир. Кўп мамлакатларда ўқитувчиларнинг малака ошириши давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватланишини қайд этиш лозим.

Ўрганилган давлатлар ва Ўзбекистонда педагогик кадрлар малакасини оширишнинг мослаштирувчи, тўлдирувчи ҳамда инновацион каби умумий функциялари мавжудлиги аниқланди: мослашиш функциясининг моҳияти ўқитувчиларни тайёрлашнинг уларни замонавий таълимий вазиятларга, билим, кўникма ва малакаларини шу куннинг ижтимоий-педагогик талабларга мослаштиришга йўналтиришдан иборат; тўлдириш функциясининг моҳияти амалий педагогик фаолият давомида келиб чиққан ёки педагогик таълимни олаётганда вужудга келган бўшлиқларни тўлдиришдан иборат; инновацион функция ўқитувчиларнинг психологик-педагогик тайёргарлигини илмий-техникавий ривожланиш натижаларига мослаштириш заруриятини акс этдиради, педагогни ўз касби бўйича ижодий изланишга руҳлантиради.

MAKTAB O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIKNI OSHIRISHDA KUTUBXONACHINING ROLI

Shavkat Bazarov

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
ARM bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarda kitobxonlikni oshirishda maktab kutubxonachisining roli keltirilgan bo‘lib, adabiyot darslarida o‘rgangan materiallarni o‘quvchilar sahna ko‘rinishida ifodalashi o‘quvchida shu mavzuga nisbatan, uning o‘zi o‘ynagan roli yoki obrazi esa shu asarga qiziqish uyg‘otish hisobiga kutubxonaga a‘zo bo‘lishga undashi. Adib yoki shoir asarlariga ham qiziqtirishi va o‘quvchida kitob mutolaasini oshirish, maktab ARM kutubxonachisida o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash va tashkillashtirish qobilayati oshirish keltirilgan.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ular qalbida Vatanga sadoqat, ulug‘ allomalarimiz merosiga, azaliy qadriyatlarga chuqur ehtirom tuyg‘usini singdirishga yuksak e‘tibor qaratilmoqda. Zero, yoshlar kelajagimiz, ertangi kunimizning suyanchi va tayanchidir. Yurtimizning turli hududlarida qad rostlagan muhtasham o‘quv maskanlarini ko‘rib quvonamamiz. Bunday ko‘rkam ta‘lim muassasalari, ulardagi zamonaviy texnologiyalar o‘g‘il-qizlar taqdirida qanchalik muhim o‘rin tutsa, kitobga do‘st bo‘lish, mutolaaga oshno tutinish ham shu qadar ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” 2017-yilning 12-yanvaridagi PF-4789-son farmoyishi xalqimizni, keng jamoatchilik vakillarini, ziyolilar, shoir va yozuvchilar hamda yoshlarimizga katta mamnuniyat baxsh etdi. Unda belgilab berilgan har bir vazifa –□ farzandlarimizning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ta‘lim va tarbiyasini sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ayni vaqtda o‘tkazilgan kuzatish va tahlillar bu sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar borligi va ularni keng ko‘lamda hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xalqimiz yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta‘lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu vazifalarni

bajarishda ARM xodimlari va kutubxonachilaridan kitobxonlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila", "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Bu o'z navbatida zamonaviy kutubxonachidan bir qancha o'z vazifasiga yangicha yondashishga hamda ilmiy izlanishga olib keladi. Biz o'z tadqiqotimizni Guliston shahridagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida adabiyot fani o'qituvchisi bilan hamkorlikda faoliyat olib borildi. Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, 8-9-10-sinf o'quvchilarining kutubxonaga a'zoligi hisobga olindi. Adabiyot fanida keltirilgan adib va shoirlarning asarlari bo'yicha sahna ko'rinishlari tashkil etilib, o'quvchilarga obraz va rollar bo'lib berildi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari asosida "Viktorina-savol-javob" o'yinlari tashkil etildi. Maktab o'quvchilari ikki guruhga bo'linib, asarda keltirilgan qishloqlardan o'z guruhlariga Nog'ayqo'rg'on va G'ishtko'prik deb nomlashdi. Asar bo'yicha tuzilgan savollarni guruh o'zlari tanlashib savollarga javob berib borishdi. Guruhlar bergan javoblariga qarab hakamlar ballarni qo'yib borishdi. Oradan bir hafta o'tgach kutubxonaga a'zolar va o'qilgan kitoblar soni oshdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, adabiyot darslarida o'rgangan materiallarni o'quvchilar sahna ko'rinishda ifodalashi o'quvchida shu mavzuga nisbatan, uning o'zi o'ynagan roli yoki obrazi esa shu asarga qiziqish uyg'otish hisobiga kutubxonaga a'zo bo'lishga undaydi. Bu orqali adib yoki shoir asarlariga ham qiziqtiradi va o'quvchida kitob mutolaasini oshiradi.

Maktab ARM kutubxonachisida o'quvchilar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash va tashkillashtirish qobilayati oshiradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" 2017-yilning 12-yanvar PF-4789-son farmoyishi.

2. G'aniyeva D.A, Ratner R.I. "Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish".-T., Yangi asr avlodi, 2013.

3. G'aniyeva D.A."Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli" -T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Abduraximov Zohidjon Sobirovich

***Qashqadaryo viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi o'quv jarayonini tashkil etish bo'limi boshlig'i,
abduraximovzohid@gmail.uz***

Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri o'quvchilarni qiziqish, iqtidor va qobiliyatidan kelib chiqib kasbga yo'naltirish orqali inson kapitalini shakllantirish birlamchi vazifa hisoblanadi. Osiyoning postindustrial davlati Yaponiyada tadbirkorlik milliy mafkura darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ta'lim strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi barcha fan dasturlari to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishi, kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. O'quv dasturlar tadbirkorlik faoliyati yo'nalganlik, moslashuvchan tamoyillarga asoslangan. Yaponiyada "Texnologiya" fani doirasida ham o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq kasblarga yo'naltirish orqali tadbirkorlik kompetentligi shakllantirilgan.

"Texnologiya" fani o'quv dasturi o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda quyida modelga tayanadi:

- Muvaffaqiyatli kelajakni ta'minlashning eng samarali yo'li o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash;

- Tadbirkorlikka yo'naltirish mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish.

O'quvchilarni tadbirkorlik sohasiga yo'naltirishda ularning tug'ma qobiliyati va iste'dodiga ham alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan, mas'uliyat, bozor qonuniyatlari, hamkorlik, hamjihatlik, mustaqil fikr bildira olish, maqsad qo'ya olish kompetentliklari rivojlantirilgan⁶⁰.

Yaponiya maktablarida "Texnologiya" fani doirasida tadbirkorlik ko'nikmalari rivojlantirilsa-da, umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari bilan hamkorlikda stress va depressiyaga bardoshlilik darajasi ham rivojlantirilgan⁶¹.

Yaponiya ta'lim strategiyasi shuni belgilaydiki, o'quvchilarda fanlararo yondashuvni inobatga olgan holda moliyaviy savodxonlik tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi⁶². Bugun dunyo tez o'zgarimoqda. Kasblar o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Zamonaviy kasblarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Eng muqobil yo'l esa o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirish orqali moslashuvchanlikni saqlab qolishdan iborat. Shuningdek samarali muloqot qobiliyatini shakllantirish ham zarur. O'quvchilarni tadbirkor sifatida ko'nikmalarni

⁶⁰ <https://opencscience.uz/index.php/sciedu/article/download/143/68/418>

⁶¹ https://www.researchgate.net/publication/335525834_Entrepreneurship_in_the_Japanese_Context

⁶² <https://knowledge.wharton.upenn.edu/article/the-entrepreneurship-vacuum-in-japan-why-it-matters-and-how-to-address-it/>

shakllantirishda huquqiy bilimlarning o'rniga ham alohida urg'u berilgan. "Texnologiya" fani dasturida zamonaviy kasblardan raqamli san'at, robototexnologiya, media kabi kasblar bilan uzviyligini ta'minlashga xarakat qilingan⁶³.

Singapur ta'lim tizimida "Texnologiya" darslarida o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalarda ishlash qobiliyati bilan bir qatorda o'quvchilarni tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Singapurning yuqori sinfida o'quvchi 18-19 yoshlik o'quvchilar allaqachon zamonaviy texnologiyalardan nafaqat bohabar xatto ularda ishlay olish ko'nikmalari borligi qayd etilgan. "Texnologiya" o'quv dasturining 15 soati o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirishga asoslanganligini ko'rish mumkin⁶⁴.

Singapur o'quvchilari uchun 4 ta dastur doirasida o'qitiladi. 2017 yilda yo'lga qo'yilgan Alibaba Cloud bilan hamkorlikda o'quvchilarni moliyaviy sovodxonligini oshirish bilan bir qatorda kredit bilan ishlash ko'nikmalari rivojlantirilgan. O'quvchilar maksimal 250 ming AQSh dollari miqdordagi loyihalar taklif etishlari mumkin. Biznes takliflari ishlab chiqish, biznes modelining maqsadga muvofiqligi o'rgatilgan. SUSS Venture Builder dasturi muvaffaqiyatli dasturi biznesni chuqur o'rgatishga asoslangan. Ushbu dastur gerontologiya, ruhiy salomatlik, ta'lim texnologiyalari, fintech yoki blokcheyn, elektron tijorat, ijtimoiy xizmatlar va kichik va o'rta biznesning raqamli transformatsiyasi bo'yicha aloqalarini ochishda faol rol o'ynaydi. SUSS Agri-preneur Inkubatsiya dasturi doirasida qishloq xo'jaligi sohasidagi bilimlarni tadbirkorlikka yo'naltirish bilan shug'ullangan. Bu orqali katta sanoatga kichik qadamlar tamoyili asosda boshlagan. SUSS Impact Startup Challenge dasturi 11-12-sinf o'quvchilarini qamrab oladi. Asosan 18 yoshga to'lgan o'quvchilar bilan ishlangan. Startup loyihalar qanday tayyorlanishi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan⁶⁵. 7-11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Texnologiya" o'quv dasturi to'liq tadbirkorlik bilan bog'liq sohalarga yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda muntazam ravishda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuv va treninglar tashkil etib borilgan⁶⁶.

Singapur ham xorij mamlakatlari singari ishchi kasblarni tayyorlashga alohida ahamiyat qaratadi. Shu bilan bir qatorda turizm va xizmatlar sohasiga dahldor kasblarga yo'naltirish eng asosiy vasifadir. 2035-yilga borib turizm sektori Singapur YaIM ni 2 foizi tashkil etishi mumkin ekanligi qayd etilmoqda. Singapur ta'lim dasturlari tadbirkorlikka yo'naltirilgan bo'lsa-da, ixtisoslashgan o'qituvchilarning yetishmasligi eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi⁶⁷. Janubiy Koreya maktab o'quv dasturlarini ixchamlashtirishni va ko'proq tanlov fanlarini joriy etish orqali ularni yanada moslashuvchan qilishni rejalashtirmoqda. Elita xususiy litseylar

⁶³ <https://www.marlborough.org/news/~board/stem/post/why-entrepreneurship-is-so-important-for-students>

⁶⁴ <https://govinsider.asia/digital-gov/how-is-this-singapore-school-preparing-students-to-be-entrepreneurs/>

⁶⁵ <https://www.suss.edu.sg/experience-at-suss/entrepreneurship/impact-startup>

⁶⁶ <https://www.techinasia.com/singapores-ace-launches-sgd15m-entrepreneurship-education-program-for-schools>

⁶⁷ <https://theoctant.org/edition/issue/allposts/opinion/fostering-entrepreneurship-from-a-young-age/>

(avtonom maktablar) va xorijiy o‘quv dasturlarini o‘rgatuvchi xalqaro maktablar elita maktablarini jilovlash maqsadida milliy o‘quv dasturlarini o‘qiydigan to‘lovsiz maktablarga aylantirilishi rejalashtirilgan⁶⁸.

Tadbirkorlik har qanday mamlakatning iqtisodiy farovonligi uchun juda muhim. Jumladan, Janubiy Afrika kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi 63,3% tashkil etadi. Shuni inobatga olgan holda, o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘naltirishga e‘tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha dastur samaradorligiga erishish uchun umumta‘lim maktab o‘qituvchilari ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan dastur: tadbirkorlik va biznesni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish; tadbirkorlik faoliyati va xulq-atvorini rag‘batlantirish masalalarini qamrab olgan⁶⁹.

Malayziya umumta‘lim maktablari “Texnologiya” fani o‘quv dasturlarida ham tadbirkorlik bilan bog‘liq mavzularga alohida ahamiyat qaratilgan. Bunda ikki xil usulda amalga oshirilmoqda. Birinchi sinf xonasida beriladigan bilim ko‘nikmalardan iborat. Ikkinchidan, esa ayrim dasturlar sinfdan tashqari mustaqil ta‘lim sifatida amalga oshirilgan.

2019-yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi tadbirkorlik sohasining ham yanada moslashuvchan bo‘lishga olib keldi. O‘quvchilarda tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Qobiliyat modeli real vaziyatlarda muammolarni hal qilishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarga dars jarayonlari uchun maxsus “tadbirkorlik laboratoriyalari” yaratilgan. O‘quvchilarni tadbirkorlik va biznesni boshqarish bo‘yicha nazariy bilimlar ham berib boriladi. Shuningdek, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ota-onalar bilan maktab hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan.

Xitoyda esa tadbirkorlik ta‘limi “Texnologiya” fani darsi doirasida ham singdirib boriladi. O‘quvchilar bilan muntazam ravishda tadbirkorlar bilan ham uchrashuvlar tashkil etib borilgan. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini aniqlovchi maxsus shkala ishlab chiqilgan⁷⁰.

Umumta‘lim maktablariga qo‘yilayotgan yangi standartlardan biri bu o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lib, bu orqali xech bo‘lmaganda o‘zini-o‘zi band qilish va ish bilan ta‘minlashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘zbekistonda ham “Iqtisodiy bilim asoslari”, “Texnologiya” va “Tarbiya” fanlari orqali o‘quvchilarni tadbirkorlik ko‘nikmalari rivojlantirib kelinmoqda.

⁶⁸<https://wenr.wes.org/2018/10/education-in-south-korea>

⁶⁹ <https://sajesbm.co.za/index.php/sajesbm/article/view/394/576>

MAKTAB TA'LIMINI SAMARALI BOSHQARISHDA RAHBARNING O'RNI

Davranova Gulsara, Bektemirov Sirojiddin Rustamovich
Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi o'quvchilarining bilim hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini bosh metodisti, Guliston shahar 11-maktab direktori

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabda kuchli va ahil jamoani shakllantirishda, boshqaruvda maktab rahbarining o'rni va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim, boshqaruv, ahil va kuchli jamoa, motivatsiya, aloqa

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashtirish sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini kengaytirish davr talabidir.

Zamonaviy dunyoda ta'limning iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida ahamiyati inson kapitalining ta'siri bilan ortib bormoqda. Bularning barchasi davlat tomonidan tasvir sohasini tartibga solish zaruratini anglatadi.

Maktab ta'limini samarali boshqarishda maktab rahbarining o'rni beqiyos.

Maktabda rahbarlik qilish, uni boshqarish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi to'g'risidagi qonunlariga, me'yoriy xujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Maktabni davlat jamoatchilik [asosida boshqarish](#), xalqchilik, oshkoralik, o'z-o'zini boshqarish prinsiplari mintaqa xususiyatlarini hisobga olib boshqariladi. O'quvchilar, matab xodimlarini birlashtiruvchi maktab jamoasi o'z vazifasini o'ta-onalar, mahalla qo'mmitalari, keng jamoatchilik bilan mustahkam hamkorlikda amalga oshiradi.

Maktabni boshqarish maktab pedagoglar kengashi tomonidan jamoani o'z-o'zini boshqarish va bevosita rahbar tomonidan tasdiqlangan maktab Nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

Maktab konferensiyasi maktabning o'z-o'zini boshqarish asosiy bo'g'inidir. Konferensiyalar oraliq'ida esa maktab kengashi oliy organ hisoblanadi.

Maktabning o'quv tarbiya jarayonini va uning joriy faoliyatini maktab Nizomida belgilab berilgan direktor boshqaradi.

O'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasb mahorati va ijodkorligini o'stirish maqsadida maktab pedagoglar kengashi, pedagog xodimlarni birlashtiruvchi jamoa tuziladi.

Pedagoglar kengashi raisi pedagog xodimlar jamoasi tomonidan saylanadi. Uning ish tartibi maktab Nizomida belgilab beriladi.

Psixologik ensiklopediya "rahbar" tushunchasiga bir nechta sharhlarni beradi.

1) Rahbar-rasmiy ravishda jamoani boshqarish va faoliyatni to'g'ri tashkil etish funksiyalarga to'g'ridan to'g'ri javobgar bo'lgan shaxs. rahbar qonuniy jihatdan guruh (jamo) uni tayinlagan (saylagan, tasdiqlagan) oldida faoliyati uchun qat'iylik bilan javob beradi

2) Rahbar-hokimiyatga ega bo'lgan shaxs. U o'z guruhining a'zolarini mukofotlash va jazolash huquqiga ega bo'lgan shaxsdir.

Siz yaxshi rahbarmisiz? Siz oldinga siljiyapsizmi? O'zingizning professional faoliyatingizga vijdonan va kreativ yondashayapsizmi? – Jamoangizda yangiliklar yaratayapsizmi ? yoki siz boshqarayotgan jamoangiz uchun yangiliklar yaratishga imkoniyatlar eshiklari ochilganmi?

Aksariyat hollarda xodimlar rahbariyat o'rtasida hech qanday aloqa topa olmaydi yoki boshqaruvchi rahbar o'z xodimlarini ilxomlantira olmaydi. Bu tabiiyki mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yaxshi rahbarning yetakchilik jarayoni, pedagoglarni har tomonlama o'rganishi ularning ochilmagan qirralarini ochilishiga, qobiliyatlarini ishga solishiga orqali mehnat unumdorligini oshirishiga sababchi bo'ladi.

Sizda haftasiga 168 soat vaqtingiz bor – ko'p ham emas va kam ham emas. Shundan siz 56- soatini uyquga sarflashingiz kerak. Bundan tashqari sizning kuningizni tashkil qiladigan kundalik vazifalaringiz bor.

Iloji boricha ish vaqtdan ko'proq unumli foydalanishimiz kerak.

bir paytning o'zida siz jamoani samarali boshqarishingiz, moliyavi-iqtisodiy masalalarni hal etishingiz, qaror qilishingiz kerak. Jamoani yakka o'zingiz boshqarishingiz yoki bor mas'uliyat yukini o'zingizning zimmangizga ortishingiz bilan siz hech nimaga erisha olmaysiz va ishingizda unumdorlik ham bo'lmaydi.

Ahil va ishchan jamoani shakllantirish ishdan farq qiladi.

Jamoani boshqarishda bir qator muammolar mavjud. Bunday jarayon, yf'ni rahbarlik sizdan yangi ko'nikmalarni ishlab chiqishingizni talab qiladi

Siz samarali jamoani yarating.

Buning uchun nima qilish kerak?

Yaxshi jamoani shakllantirish saralashdan boshlanadi. Ya'ni har bir pedagogning o'z fanini chuqur va atroflicha bilishi, so'ngi yankiliklar bilan qurollanganligi, dars o'tishi, o'quvchilarni o'z darslariga jalb qilishi, qiziqтира olishi, darslarda muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini,

tafakkurini shakllantirishi, motivatsiya bera olishi, ular bilan hamkorlikda ishlay olishi, turli tanlovlarga tayyorlashi va hokozolar sizning maktab reytingini ko'tarib beradi. Agar jamoada pedagog xodimlar yuqoridagi xususiyatlarga ega bo'lmasa ta'limda o'sish bo'lmaydi va rahbar ko'zlagan natijasiga erisha olmaydi, bu jarayon juda ham muhim jarayon hisoblanadi.

Rahbar jamoadan yuqori natija olishi uchun jamoada hamkorlikda, birgalikda ishlash mexanizmini to'g'ri shakllantira olishi kerak.

Motivatsiya berish. Bu rahbarning asosiy xususiyatlari ishida muhim o'rin tutadi. Yuqori motivatsiyalangan jamoa a'zolari siz rahbarlik qilayotgan maktab nufuzini oshirib beradi. Bunday jamoada qiyinchiliklar oson hal etiladi.

Aloqa. Rahbar va xodim o'rtasidagi aloqa boshqaruvda alohida o'rin tutadi. . Agar siz samaradorlikka erishmoqchi, yetakchi rahbar bo'lishni istasangiz, xodimlaringizni qiziqtirgan savollarga kerakli miqdordagi javoblarni berishga vaqt ajrata olishingiz kerak bo'ladi. Doimiy ravishda ish uchrashuvlarini o'tkazishingiz kerak, shunda ular gapirishlari mumkin, siz tashkilotingizda sodir bo'layotgan barcha narsalardan xabardor bo'lishingiz kerak, shunda siz o'sasiz va sizning jamoangiz kuchli jamoa bo'lib shakllanadi.

Shunday qilib, siz maktab ta'limini qanday usullar va vositalardan foydalanib boshqarayapsiz.? Bir o'zingizni tahlil eting. Boshqaruvda aynan qaysi jihatlari sizga qiyinchilik tug'dirayapti? O'z ustingizda ishlash rejangiz mavjudmi ? Demak, bo'shliqlarni aniqlash, ularni to'ldirish orqali ahil,kuchli jamoani shakllantiring.

Adabiyotlar:

1. Elena Rudavina, Vadim Yokomasov :персон kadrlar bo'yicha direktorning katta kitobi».
2. Rebekka boues, Daiza Baynow: «suhbat usullari. Kompetensiyalar bo'yicha intervyu».
3. Larri Stout: «xodimlarni boshqarish. Menejerning ish stoli kitobi».
4. Natalya Volodina :персонала xodimlarni moslashtirish. Murakkab tizimni qurish bo'yicha rus tajribasi».

ZAMONAVIY TA'LIMDA INTERFAOL USULLAR

Isakova Sevaraxon Ergashali qizi

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 9-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'lim rivoji kun sayin ildamlab bormoqda, har bir sohada bo'lgani kabi, ilm-fanda ham o'ziga xos yangiliklar, ilg'or yutuqlar ko'zga tashlanib qoldi. Ishlab chiqarishning bir bo'lagi bo'lmish ta'lim sohasi ham bugungi kundagi o'ziga xos yondoshuvlarni ta'lab etayotgan turli texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanmoqda. Bu fikrlar nechog'lik to'g'ri ekanligi ta'lim samarasining oshib borayotganligida

sezilmoqda. Biroq hamma vaqt ham bunday holatga guvoh bo'layotganimiz yo'q. Ta'lim sohasidagi har bir hodim o'z ustida ish olib borar ekan davlat qo'yayotgan talablarni bajarishga majburdir. Binobarin, ta'lim tizimida har xillik o'z natijasini bermaydi. O'ziga ishongan ta'lim xodimi turli metodlarni mohirona qo'llab shunday darslarni qoyilmaqom qilib o'tib qo'yayotganligi ham aslida bor gap. Bu holatdan bitta haqiqatni ochish mumkinki, har qanday pedagog ham dars o'tishi mumkin, biroq darsda metodikani qoyilmaqom qilib ifoda etishi amrimahol. Darhaqiqat, bugungi ta'lim ana shunday bilimli, ijodkor, mehribon va samimiy ustozlarni "o'z davrasi"ga chorlamoqda. Ta'lim tizimiga oid hujjatlarda aks ettirilayotgan turli tavsiyalar va usullar deyarli har kuni qulog'imizga chalinib turadi. Shunday ekan nomlari juda tanish bo'lib ketgan turli metodlarning bugungi kundagi ahamiyati va roli qay ahvolda ekanligi hammani e'tiborida. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, har bir metodni o'z roli va funksiyasi bor, biroq bulardan har birimiz qay darajada foydalanmoqdamiz? Ularni asl madsadida ishlatayapmizmi, aniqroq qilib aytganda ularni qoidasi bo'yicha bosqichma –bosqich ishlay olayapmizmi? Yoki har bir o'qituvchi o'z imkoniyat darajasida ishlatayapdimi?

Har bir metod nimaga qaratilganligini bilib olish va uni shu yo'nalishdagina ishlatishda moslashtirish tog'ri bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida o'z metodini tanlab oladi va shu usulda darsni qiziqroq o'tilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining ham yangilikka juda intiluvchanligi ta'lim samaradorligini oshirish borasida yaqqol sezilmoqda.

Bugungi kun pedagogikasi pedagoglarning malakasidan, mahoratidan tashqari ta'lim oluvchilarning talablarini ham hisobga oladi. Demak, kecha biz uchun qiziq tuyulgan yangi metod bugun o'z samarasini bermasligi mumkin. Darhaqiqat, bizning o'zimiz ham yangiliklarga doim ehtiyoj sezganmiz.

"Idrok xaritasi", "Charxpalak", "Umumiy nuqta", "SWOT", "FSMU" kabi metodlarini har qanday darslarda qo'llash, ularni samarali tashkil etish yo'llarini yaxshi bilish, qoyilmaqom tarzda o'quvchiga yetkazib berish va har bir pedagog uchun karakli bo'lgan ijodkorlik uning saviyasini belgilaydi. Bugun pedagog men nimaga qodirman, men bolaga nimalarni o'rgata olaman, mening mehnatimni kim v anima uchun qadrlashadi? Kabi savollarni berib turishligi ham foydadan holi ish emas. Darhaqiqat, inson oldinga qarab intiladi.

Darslarning kirish va asosiy qismlarida quyidagi metodik o'yinlarni ishlatish ham foydadan holi bo'lmaydi.

HA-YO'Q METODIK O'YINI

O'yinning asosiy sharti javob beruvchi o'quvchi tezlikda ha yoki yo'q tarzida javob berishi lozim. Bunda o'qituvchi (yoki o'quvchi) tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar ketma-ket o'qiladi yoki aytiladi. Savollar og'zaki tartibda bo'lishi, savol berish bir necha o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi ham mumkin.

Takrorlash darslarini o'tayotgan mahalda savollar tuzish bir oz yengil bo'lib bir necha mavzulardan tuzilishi ham mumkin. Bunda qiyinchilik javob berayotgan o'quvchiga tushadi. Lekin savol-javoblar tezkor bo'lgani uchun savollarni osonroq tuzish maqsadga muvofiqdir.

Bu o'yinda 2 kishi (ikki o'quvchi yoki o'qituvchi va o'quvchi) ishtirokida amalga oshiriladi. Javoblarning so'roqlari -mi so'roq yuklamasi yordamida tuziladi. O'yin asosan dialog tarzida o'tadi. Shuning uchun o'yin harchand qiziq bo'lsada (ayniqsa, liderlar uchun) dars jarayonida tez-tez faqat qisqa vaqt ichida o'tkazilishi taklif etiladi.

1. Otlar ikkiga bo'linadimi? -ha
2. 5 ta kelishik qo'shimchasi bormi?– ha
3. –na qaratqish kelishigi qo'shimchasimi? –yo'q
4. Egallik qo'shimchasi otlarga xos xususiyatmi? –ha
5. –chi shaxs otni yasamaydimi? –yo'q.
6. Qayer so'rog'i otlarga xosmi? – ha....

BILAG'ON METODIK O'YINI

O'quvchiga topshiriq sifatida bitta so'z beriladi. Shu so'z orqali qolgan so'zlar vujudga keladi. Demak, oldindan tanlangan so'z oddiyroq va qisqaroq bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

Masalan: KUT so'zi

Kut so'zining har bir harfiga yangi so'z topilishi lozim va topilgan so'zlarning har bir harfiga ham yangi so'z topilishi lozim.

Undan so'ng topilgan so'zlardan matn yaratish topshiriladi. Turli so'zlarni bir-biriga bog'lab matn tuzish san'atlarini ham sinab ko'rish mumkin.

Hozir olis tog'lar orasida nima qilayotganimni aytsam bo'lsa kerak. Kecha kongra borib uzun narvonni o'raga qo'yib nihoyat chiqayotganimda zumrad uzugimni tonna-tonna toshlar o'rasiga tushirib yubordim. Rosa alam qildi. Bildimki, kutish kerak. Shunda zinadan bir ulug' inson chiqib kelib mening alamli yuzimga tikilib uzuk tutqazdi. Men esa hayratdan yoqa ushlab qolibman. Shu asnoda uyg'onib ketdim...

AVTOBUSCHA METODIK O'YINI

O'yinni maqollar yoki iboralar va bog'lovchilar mavzularida foydalanish samaralidir. Negaki, 8 nafar o'quvchiga bir xil topshiriq beriladi. Bu topshiriq: masalan, maqol aytish bo'lsa, 8 nafar o'quvchi ketma-ket avtobus bo'lib turib olishadi. Kim maqol aytolmay qolsa, yoki boshqalar aytgan maqolni qaytarib aytsa, avtobusdan tushib qolishadi. Shu tariqa qalغانlar bilan o'yin davom etaveradi oxirigacha yetib kelgan zukko o'quvchi 5 ball bilan, undan oldingisi 4 ball bilan, undan oldingisi 3 ball bilan baholanadi.

JURNALIST BILAN MULOQOT METODIK O'YINI

O'yinni boshlash uchun oldindan tayinlab qo'yilgan o'quvchi jurnalist bo'lib turadi va u sinf o'quvchilaridan intervyu olish uchun tashrif buyuradi.

O'quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbat jarayonida har bir o'quvchi o'zlarini intervyu berayotgan siyosatchi(kim qaysi kasbga qiziqsa shu kasb egasi) tarzida tutishlari lozim. Bunda o'quvchilar o'zlarini buyuk shaxsdek his qola olishi, katta odamlardek muloqatda bo'la olishi, erkin so'zlay olishi lozim. Shuning uchun bu o'yinning shartini bir kun oldin berib yuborish va shartlarga o'quvchilar bir kun tayyorlanib kelishi lozim. Dars boshlangach o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot jonli bo'lishi kerak. Shu tariqa boshlangan darsda jurnalist quyidagicha savollar

tuzib kelishi mumkin:

- O‘zingizni tanishtirsangiz
- Men, Turg‘unov Shuhratman
- Sizning kasbingiz?
- Hozirgi kunda bankda hisobchi bo‘lib ishlayman.
- Sizga tanlagan kasbingiz yoqadimi?
- Ha, albatta, bu kasbga yoshligimdan qiziqaman sababi otam hisobchi bo‘lishgan bu kasb menga ota kasb bo‘lib, ularning ishlarini davom ettirayapman.
- Bu kasbni tanlashingizga sabab nima?
- Bu kasbni tanlashimga oilaviy muhit ta’sir qilgan bo‘lsa kerak.
- Ustozlaringiz haqida so‘zlab bersangiz.
- Mening ustozlarim juda ko‘p bo‘lib ularning samarali mehnatlari tufayli biz shogirdlari hozir shu ishlarda ishlab yuribmiz. Mening birinchi ustozim otam bo‘lgan. Ulardan hisobchilik kasbga bo‘lgan muhabbatni o‘rganganman.
- Siz bilan hali yani uchrashami. Hozircha siz uchun belgilangan joyga borib o‘tirishingizni so‘raymiz., xayr.
- Xayr.

Keyingi o‘quvchi bilan muloqat boshlanadi...

Fikrimiz so‘ngida shuni aytmoqchimizki, ijtimoiy fanlarni o‘qitilishida u tarix fani bo‘lsin, u ingliz tili fani bo‘lsin, u ona tili fani bo‘lsin turli metod va mashqlarni to‘g‘ri qo‘llasa, o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasini kafolatlaydi. Yaxshi ta’lim-tarbiya olgan o‘quvchi vatan kelajagi uchun ko‘pgina ishlarga qodirdir.

ZAMONAVIY TA’LIMDA OCHIQ MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Fayzieva Mabudaxon Muxammadjonovna, Sermanova Halima Rahmatulla qizi

O‘qituvchi, mustaqil izlanuvchi, E-mail:fayzievamabuda@gmail.com

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 5 bosqich talabasi, Guliston Davlat

universiteti(O‘zbekiston), Tel: 99 473 83 71

Annotatsiya: Hozirda maktabgacha ta’lim tizimi oldida ochiq mashg‘ulotlarni tashkil etish va tahlil qilishning ahamiyatini ochib berish muammosi turibda. Bu muammoni hal etishda ta’lim jarayoniniga tayyorgarlik ko‘rish va tahlil qilishning zamonaviy usullarini qo‘llash va ularni takomillashtirish bilan belgilanadi. Tadqiqodchining nazariyasiga binoan, kuzatish va tahlil etishning zamonaviy tomonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ochiq mashg‘ulot, ta’lim jarayonini, nazorat, tahlil qilishning, kuzatish, takomillashtirish, zamonaviy usullar.

Abstract: At present, the system of preschool education faces the problem of identifying the importance of organizing and analyzing open lessons. The solution to this problem is determined by the use of modern methods of preparing and analyzing the educational process and their improvement. the theory of the researcher, modern aspects of observation and analysis are revealed.

Key words: open learning, learning process, control, analysis, observation, improvement, modern methods.

Аннотация: В настоящее время перед системой дошкольного

образования стоит проблема выявления значения организации и анализа открытых уроков. Решение этой проблемы определяется применением современных методов подготовки и анализа образовательного процесса и их совершенствованием. теории исследователя, раскрываются современные аспекты наблюдения и анализа.

Ключевые слова: открытое обучение, учебный процесс, контроль, анализ, наблюдение, совершенствование, современные методы.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlar pedagoglar uchun kasbiy moslashuvchanlikni, ijtimoiy o'zgarishlarga ijobiy qarash hamda kasbiy muammolarni muvoffaqiyatli hal etishga har tomonlama tayyor turishni talab etadi. Hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning murakkabligi zamonaviy pedagog-tarbiyachilardan muammoli vaziyatlarga kreativ yondashgan holda hal etishni va o'z ustida muntazam ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirib borishni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.[5, 3b] Bu esa tizimda amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi, belgilangan davlat talablari va o'quv dasturlarining bajarilishi hamda tizim pedagog xodimlarining kasbiy standartlarga mos faoliyat olib borishlarini o'rganish, nazorat qilish va munosib baholash uchun ochiq turdagi frontal mashg'ulotlar va faoliyat markazlaridagi ta'limiy jarayonlar kuzatilib, tegishli xulosalar chiqarib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berishning asosiy shakli mashg'ulot hisoblanadi.[8,81b] Shu bilan birga mashg'ulot pedagog-tarbiyachilarning pedagogik mahoratini belgilab beruvchi va baholovchi me'zondir. Bir mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish butun bir mehnatni talab etadi. Mana shunday mas'uliyatni anglagan va yosh avlodga yangi-yangi bilimlarni berish uchun izlangan pedagoglarga bolalar ishonchini qozonib, ota-onalar va rahbarlar e'tirofiga sazovor bo'lishlari mumkin. Ta'limiy mashg'ulot samarador bo'lishi uchun unga atroflicha puxta tayyorgarlik ko'rish, mashg'ulotni mahorat bilan tashkil etishdan talab etiladi. Yaxshi o'ylab rejalashtirilmagan, shoshilinch loyihalashtirilgan, bolalar imkoniyatlarini hisobga olmay rejalashtirilgan mashg'ulot sifatli bo'lolmaydi. Mashg'ulotga tayyorgarlik butun bir faoliyatlardan iborat bo'lib, uning natijasi sifatli ta'limga erishishdir.

Pedagoglar kasbiy faoliyatiga baho berish va ta'lim-tarbiyaviy jarayon sifatini nazorat qilish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoa bo'lib kuzatish uchun ochiq mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ochiq mashg'ulotlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'z tajribalarini hamkasblariga namoyish etishdir. Tashkil etilgan mashg'ulot pedagogga shaxsiy tajribalarini taqdim etish shakllaridan biri

hisoblanadi. Mazkur mashg'ulot orqali yangi va ilg'or tajribalar ommalashadi. Ochiq mashg'ulotni o'tkazish qiziqarli bo'lishi bilan birga, mas'uliyat talab etadi. Ochiq mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun mas'ul tarbiyachi to'g'ri va atroflicha tayyorgarlik ko'rish lozim. Tayyorgarlik bir butun uzviy faoliyatlardan iborat bo'lib, uning natijasi kutilgan maqsadga erishishdir.[3,13b]

Tarbiyachining ochiq mashg'ulotga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mashg'ulotni loyihalash, ya'ni rejasini tuzish, mashg'ulot uchun kerakli jihozlarni tayyorlash, guruhda mashg'ulotni o'tkazish uchun sharoit yaratish va bolalarni mashg'ulotga tayyorlashdan iborat. Mashg'ulot loyihalashtirilganda faqat bitta mashg'ulot rejalashtirilmay bir-biri bilan izchillikdagi bir butun jarayon rejalashtiriladi. Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi albatta tegishli metodik adabiyotlarga va me'yoriy hujjatlarga murojaat qiladi. O'zining butun pedagogik mahoratini ishga soladi. Mashg'ulot namoyishiga tayyorgarlik chog'ida, ta'limni tashkil etiladigan hududni hox u frontal bo'lsin, hox rivojlantiruvchi markazlar bo'ladimi mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib shakllantirish talab etiladi. Ba'zi hollarda ishga haddan ortiq tashvishlanish, boshqalarga idial darajada ko'rinishga intilish tarbiyachilarni xatolarga yo'l qo'yishga olib keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda tarbiyachilar ochiq mashg'ulotlar namoyishi uchun bolalarga ma'lumotlarni yod oldirishga harakat qiladilar. Natijada ma'lumotlar bolalar tomonidan bir necha marta takroriy berilganligi uchun mashg'ulot topshiriqlariga bo'lgan qiziqishlari yo'qolib qoladi. Mashg'ulot qiziqarli bo'lishi uchun u kutilmagan vaziyatlarga boy bo'lishi talab etiladi.

Ochiq mashg'ulot ishlanmasini tayyorlash chog'ida tarbiyachi bir nechta topshiriq variantlarini tuzib qo'yishi kerak. Chunki bir guruhdagi bir yoshdagi bolalarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, intellektual rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkin.[9,8b] Mashg'ulot jarayonining kechishi tarbiyachi yaratgan shart –sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Pedagoglarimiz shuni yodda tutishlari kerakki, ta'limiy faoliyat chog'ida asosiy figura bu bola bo'lishi kerak. Ta'limiy faoliyatni olib borish chog'ida ularning ko'tarinki kayfiyati o'ta muhimdir. Mashg'ulot avvalida bolalar bilan ko'tarinki ruhda salomlashib olish va talabchan nigohlar bolalarda mashg'ulotga bo'lgan diqqatni jamlash bilan birga, unga bo'lgan mas'uliyat hissini oshiradi. Mashg'ulot uchun mas'ul bo'lgan tarbiyachilar tashqi ko'rinishiga, kiyimiga va soch turmagiga e'tibor berib, u pedagoglarga xos bo'lishi kerak. Pedagoglarimiz shuni yodda tutishlari kerakki, ochiq mashg'ulotlarni tashkil etish chog'ida tarbiyachilar birinchi bo'lib kelgan mehmonlar bilan emas, bolalar bilan salomlashishlari, keyin esa kuzatuvchilar bilan salomlashishlari kerak. Bu tartibda salomlashish bolalarga tarbiyachilari uchun o'zlarining muhim ekanliklarini anglashga yordam berishi bilan bir qatorda, tarbiyachiga bolalar bilan aloqaga kirishish imkonini yaratib beradi. Mas'uliyat kuchliligidan ayrim tarbiyachilar hayajonga tushadilar. Lekin tarbiyachilar ichki holatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'zlarini ishonchli tutishlari va o'z hayajonlarini bolalarga o'tkazmasliklari

zarur. Bunday holatlar ko'pincha keng miqyosda o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar chog'ida alohida baholanadi.

Pedagog tarbiyachilar mashg'ulot namoyishi chog'ida keng miqyosda multimedia vositalaridan foydalanadilar. Mashg'ulot uchun multimedia vositalarining murakkablarini tanlamagan ma'qul. Mashg'ulotda foydalanishi rejalashtirilgan texnik vositalarning ishchi xolati shayligini oldindan tekshirib ko'rish kutilmagan noxush vaziyatlarning kelib chiqishi oldini oladi. Buning uchun namoyish uchun mo'ljallangan multimedia vositalarini bir nechta turlarida ma'lumotlarni saqlash talab etiladi. Natijada, namoyish uchun tayyorlangan ma'lumotlarning vuruslarga duch kelib, yo'qolib qolishi kabi ko'ngilsiz holatlar kelib chiqishining oldini oladi.

Ochiq mashg'ulotlar katta auditoriyalarda namoyish etilganda texnik vositani boshqarish uchun yordamchi tarbiyachilar jalb etilishiga ruxsat beriladi. Bu pedagogga texnik muammolar bilan chalg'ib, bolalar bilan psixologik aloqani yo'qotib qo'ymaslik imkonini beradi. Bunda tarbiyachi yordamchi tarbiyachi bilan muloqatga kirishishi nazarda tutilmaydi. Tarbiyachi mashg'ulot boshlanishidan oldin ishni amalga oshirish ketma-ketligini batafsil kelishib oladi. Faoliyat davomida esa bir-birlarini nigohlar orqali tushunishlari talab etiladi.

Mashg'ulotni kuzatishga kirgan shaxslarga oldindan mashg'ulot ishlanmasi taqdim etiladi. Ochiq mashg'ulot ishlanmasi maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti tomonidan kurib chiqilib, tashkilot direktori tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Rahbar tomonidan tasdiqlanmagan mashg'ulot ishlanmasi bilan ochiq mashg'ulotni tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi. Kuzatuvchiga taqdim etilgan mashg'ulot ishlanmasi kuzatuvchi- tahlilchilarga mashg'ulot haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, mashg'ulot maqsadi, kutilayotgan natija va kerakli jihozlar haqida ma'lumotlar olish imkonini beradi hamda pedagogning metodik darajasini ko'rsatishni ta'minlaydi. Kuzatuvchilar mashg'ulot davomida tarbiyachining bolalarga bergan topshiriqlariga qiziqib borishlari esa tarbiyachi faoliyatiga befarq qaramayotganliklarini bildiradi. Ochiq mashg'ulotlarga tayyorgarlik chog'ida tarbiyachi oddiy mashg'ulotlarga nisbatan o'z oldiga ko'proq vazifa qo'yadi. Bunda maqsad o'ta ideal darajada mashg'ulot o'tish emas, balki har qanday mashg'ulotda pedagog qiziqarli texnika va texnologiyaga ega ekanligi tufayli istalgan mashg'ulotda maqsadga erisha olishini namoyish eta olishi kerak. Bu namoyish albatta bolalar faoliyati bilan ko'rsatib berilishi talab etiladi. Tarbiyachidan barcha mashg'ulot uchun zarur bo'lgan hujjatlarni kuzatuvchiga taqdim etish va mashg'ulotni kuzatish uchun xonada unga joy ajratish talab etiladi.

Ochiq mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachilarning mas'uliyati bo'lgani kabi unga tashrif buyurib, mashg'ulotni kuzatish va tahlilini olib boruvchi shaxslarning ham o'z majburiyatlari mavjud. Tashkil etiladigan ochiq mashg'ulotlar rejaga ko'ra amalga oshiriladi.[3,15b] Masalan, tashkilotdagi ommaviy kuzatiladigan ochiq mashg'ulotlar tashkilot yillik rejasiga asosan, muddatlari

belgilangan holda, metodik birlashmalar yoki seminarlar uchun tashkil etiladigan ochiq mashg'ulotlar metodbirlashmalar tasdiqlangan rejasiga asosan, ko'rik-tanlovlar uchun namoyish etiladigan mashg'ulotlar esa ko'rik-tanlov nizomiga asosan belgilangan muddatlarda tashkil etiladi. Pedagoglarning ta'limiy faoliyatlari ta'lim tashkiloti va pedagog kadrlar faoliyatini baholash maqsadida ham kuzatiladi. Bunday hollarda tarbiyachi kuzatuvchi tomonidan bir kun oldin ogohlantiriladi. Mashg'ulotni kuzatish chog'ida kuzatuvchining mashg'ulotga aralashishi mumkin emas. Guruh xonasida o'ziga ajratilgan joyga borib joylashishi talab etiladi. Kuzatish chog'ida bolalar ishlariga aralashish va ular e'tiborini jalb etishga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari, kuzatuvchi mashg'ulot chog'ida tarbiyachiga e'tiroz bildirishi mumkin emas. Mashg'ulot haqidagi barcha fikrlar mashg'ulot tahlil varag'iga qayd etib boriladi. Mashg'ulot tahlili mashg'ulot o'tkazilgan kuni, aniqrogi mashg'ulot yakunlangandan so'ng o'tkaziladi. Mashg'ulot natijasini ko'rib chiqish, kuzatuvda qatnashganlarning natijalarini umumlashtirish maqsadida kelishilgan holda suhbat tarzida tashkil etiladi. Munozarada yosh tarbiyachilar va tajribali mutaxassislarning tahlil yuzasidan fikrlari tinglanadi. Munozarada metodbirlashma rahbari yoki ochiq mashg'ulotni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan shaxs tashkilot direktori yoki metodisti ishtirok etib, unda mashg'ulotning to'g'ri tashkil etilganligi, mashg'ulot uchun tanlangan usul va vositalarning maqsadga muvofiq tanlanganligi, tarbiyachining individual metodik uslublari, mashg'ulot uchun qo'yilgan vazifalarga muvofiq tarzda ularning samaradorligi baholanadi.[4,2b] Muhokamada mashg'ulot qismlari va ularga ajratilgan vaqt me'yorlariga amal qilinganligi hamda mashg'ulot qismlarining belgilangan vazifalari amalga oshirilganligi ham baholanadi. Tahlil jarayonida savollar aniq va asosli berilishi kerak. Muhokama vaqtida maqsaddan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi. Mashg'ulotning didaktik tamoyillari nuqtai nazaridan baholashda mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishilganligi, ko'rgazmali va didaktik tarqatma materiallardan foydalanish samaradorligiga e'tibor qaratiladi. Muhokama yakunida mashg'ulotni tashkil etishdagi yo'l qo'yilgan xatoliklar qayd etiladi. Ish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Tajribalari ommalashtirilayotgan pedagoglarning erishgan yutuqlari ko'rsatib o'tiladi va ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.[9,23b] Mashg'ulotni kuzatish varag'iga barcha fikrlar qayd etilgandan so'ng, tarbiyachiga tanishtiriladi va tarbiyachi tanishganligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Kuzatuvchi tomonidan imzolangandan so'ng, tashkil etilgan ochiq mashg'ulot yig'ma hujjatlari bilan birga taqdim etiladi. Pedagoglarimizning kasbiy rivojlanib borishini tahlil qilish uchun rahbarlar bir necha yillik tahlillarni solishtirishlari va ular asosida tegishli hulosalarni chiqarishlariga yordam beradi.

Ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishga bo'lgan talablar o'zgarib borishi va takomillashib borishini hisobga olgan holda, mashg'ulotlarni tahlil qilish talablari va kuzatishlarni qayd etish talablari ham o'zgarib, takomillashtirilib borilishini talab

etadi. Bu talab, hozirgi zamon pedagogikasi oldida turgan hal etilishi dolzarb bo'lgan muammolardan biridir.

Shuni pedagoglarimiz yodda tutishlari kerakki, eng yaxshi usul pedagog o'zlashtirgan va uni qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning o'quv dasturlarida belgilangan hajmdagi bilimlarni o'zlashtirishlariga erishgan usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 -yil 22- dekabrda 802-son qarori Toshkent 2020- y
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021-yil 30-dekabrda "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" to'g'risidagi 255-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2019-yil 30-avgustda "Davlag maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 155-son buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021-yil 12-iyulda "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 128-son buyrug'i.
5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi Toshkent 2019 yil
6. Abdulkarimov.H. Dars tahlili va uning metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma.-T.:Mumtoz so'z,2010.
7. IshmuxamedovR.J.Ta'lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Iste'dod", 2008.
8. Yusupova P. O'quv qo'llanma. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.-T.: "O'qituvchi", 1993.
9. Левашова Л.Н. Методика посещения и анализа занятия педагога. Методическая разработка. -Санкт-Петербург, 2018 г

TARIX DARSLARIDA ARXELOGIYAGA OID MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH

Jamol Yuldashev

***Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Tillarni o'qitish metodikasi va ijtimoiy iqtisodiy fanlar kafedrasi katta
o'qituvchisi***

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix fanini o'rganishda arxeologiyaning o'rni va ahamiyati hamda arxeologik madaniyatlar va yodgorliklarning o'rganilishi, arxeologik tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Arxeologiya, Pomir-Oloy, Ko'zaliqir, Ayozaqal'a, Qalaliqir, Quyoisoq, Katqal'a, Tuproqal'a, Voyangan Tuproqal'a (Xiva), Olmaotishgan-2, Xiva, Katqal'a, Xazorasp, madaniyat, tarix, yodgorlik, jamiyat, tadqiqot, ajdodlar.

Markaziy Osiyo hududi (hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston mustaqil davlatlari va Qozog‘iston davlatining janubiy qismi hududlari) qadimdan boshlab insoniyatning ilk madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Rim tarixchisi Pompey “O‘rta Osiyoliklar qadimiylikda misrliklar bilan bahslasha oladilar” deb qayd etgan edi.

Markaziy Osiyo hududida qadimgi tosh, bronza davrlariga oid ko‘plab ibtidoiy manzillar, qabrlar, qadimgi davrga oid shaharlar qoldiqlari o‘rganilib, uning natijalari ilmiy jamoatchilikka e‘lon qilingan edi.

Markaziy Osiyo hududida sho‘rolar xokimiyati davrida arxeologik tadqiqotlar olib borilib, uning natijalari M.J.Jo‘raqulov “O‘rta Osiyoning ibtidoiy arxeologiyasi (1984) J.Kabirov, A.S.Sagdullaevlarning “O‘rta Osiyo arxeologiyasi (1990) o‘quv qo‘llanmalarida aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi yillar davrida tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlari keng miqyosda olib borildi, ularning natijalari esa risolalar, maqolalar tarzida keng jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi. Vatanimizga qo‘shni bo‘lgan mustaqil davlatlar Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Qozog‘iston hududlarida ham arxeologik tadqiqotlar olib borilib, yangi ashyolar olinmoqda. Universitet va Pedagogika institutlarining Tarix fakultetlari uchun A.Kabirov, A.Sagdullaevlar tomonidan nashr (1990 yil) qilingan o‘quv qo‘llanma qadimgi tosh davridan miloddan avvalgi I ming yillik boshlari davrini qamrab olgan bo‘lib, antik va o‘rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar e‘tibordan chetda qolib ketgan. Mustaqillik yillarida arxeologik yodgorliklarda olib borilgan qazish ishlari natijasida olingan ashyolarning ilmiy muomalaga kelib qazish asosida yangi o‘quv qo‘llanmaning yaratish zaruriyatini hayotning o‘zi keltirib chiqardi. SHu jihatdan, mazkur qo‘llanmada Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyotini mavjud bo‘lgan va mustaqillikdan keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan yangi ashyolarni keng jalb qilishga e‘tibor berildi.

O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ashyolar antik davr tarixini yoritishda muhim manba bo‘ladi.

M.E.Masson rahbarligida Turkmaniston hududida Turkmaniston arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari arxeologik tadqiqotlarni olib bordi. Tojikiston hududida A.N.Bernshtam, Pomir-Oloy tog‘ tizimi atroflarida A.M.Mandelshtam, Beshkent cho‘lida arxeologik tadqiqotlarni olib bordilar.

O‘zbekiston hududida antik davrga oid yodgorliklarni o‘rganish Surxondaryo hududida olib borildi.

XX asrning 30 yillari boshlari va o‘rtalarida M.E.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi xodimlari eski Termizning qal‘a qismida qazish ishlarini olib borib, mil.avv. III asrga oid ashyolarni olishga muvaffaq bo‘ldilar. SHu bilan birga, Kushon davriga oid Ayritomda qazish ishlarini olib bordi, natijada noyob ashyolar, ya‘ni «arfa chalayotgan ayol» haykali topilgan.

1937–1940 yillarda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Amudaryoning qurib qolgan o‘zani Aqchadaryo havzasidagi tarixiy obidalarni ro‘yxatga oldi, arxeologik xaritaga joylashtirdi,

Jonbos qal'a, Tuproq qal'a yodgorliklarida qazish ishlarini olib bordi. Ekspeditsiya a'zolari 1946 yildan 1991 yilgacha bo'lgan tarixiy davrda Qo'yqirilgan qal'a, Ko'zaliqir, Ayozaqal'a 1, 2, 3, Qalaliqir, Quyisoy-2 yodgorliklarida keng miqyosda qazish ishlarini olib bordi. Qo'yqirilgan qal'a o'zining rejalashtirilishi, me'moriy inshooti bilan diqqatga sazovor.

S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari keng miqyosda tarixiy obidalarni ro'yxatga olishni olib bordi, natijada 400ga yaqin obidalar topilib, ular antik va o'rta asrlarga oiddir. 1967 yildan boshlab O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining arxeologik guruhi Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati hududida arxeologik qidiruv va qazish ishlarini olib bordi. E.Bijanov Ustyurtdagi qadimgi tosh davri manzillarini, V.N.YAgodin Kerdar madaniyati, Xorazm va ko'chmanchilar aloqalari, A.V.Gudkova Tokqal'a, G.Xo'janoyev Qo'rg'oshin qal'a, Burli-qal'a, Akchingul yodgorliklarida, M.Mambetullaev Katqal'a, Tuproqal'a, Voyangan Tuproqal'a (Xiva), Olmaotishgan-2, Xiva, K.Sobirov Katqal'a, Tuproqal'a, Xazorasp yodgorliklarida arxeologik qazish ishlarini olib bordilar.

Mil.av. IV – milodiy III asrlarga oid bo'lgan shaharlar ko'chmanchilar bilan chegaralarda, daryo sohillarida, sug'oriladigan vohalarda qurilgan bo'lib, mukammal mudofa tizimlariga ega.

Amudaryoning o'ng sohili hududidagi qal'alar:

Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayozaqal'a 1, 2, 3, Katta va Kichik Qirqqizqal'a, Qulqal'a, Qumbosganqal'a, Dumanqal'a, Akshaxon, Tuproqal'a, Qizilqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Aqchungul, Kuyukqal'a, Gaurqal'a (Sulton Uvays tog'i), Tukqal'a, Jildikqal'a, Burgutqal'a, Ellikqal'a, Uyqal'a, Katta Guldursun, Bozorqal'a, Angkaqal'a, Pilqal'a, Odamlialqal'a, Doshqal'a-2, Tuproqal'a, Eresqal'a.

Amudaryoning so'l sohili hududidagi qal'alar:

Gurganch, Davkasgan, SHoxsanam, SHexrlik, YArbekirqal'a, Zamaxshar, Ichanqal'a, Bo'ldimsoz, Gaurqal'a (Xo'jayli), Ketmenchi, Tuproqal'a (Xiva), Tuproqal'a (YAngiariq), Tuproqal'a (Kushko'pir), Kunaqal'a, Voyangan, Tuproqal'a (SHovot), Katqal'a (SHovot) Kalajik, Xazorasp, CHingiztepa 1, 2, 3, Xumbuztepa, Tuproqal'a (Qo'ng'iroq), Sadvar, Jig'arband, Elxaros, Dargon, Gaur 1, 2 (Sariqamish havzasi) va boshqalar.

Antik davrda bu shaharlar mustaqil shahar-davlatlar sifatida mavjud bo'lib, harbiy chegara va iqtisodiy madaniy markazlar bo'lgan. YUqorida qayd etilgan qal'alarni ba'zilarining me'moriy-topografik va mudofa tizimiga e'tiborni qaratamiz.

Yonboshqal'a – To'rtko'l tumani hududida joylashgan, to'g'riburchak shaklda (200x170 m. 3,4 ga) to'rt tomonini ikki qatorli devor o'rab olingan. Avval paxsadan keyin esa to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklangan (40x40x10 sm). Devor pastki qismi qalinligi – 5 m, balandligi 5-10 m. Darvoza to'g'ri burchakli bir necha aylanma yo'ldan iborat yo'lakka ega bo'lib, uning kengligi – 5 m. Devor va darvoza devorida kungurlar mavjud emas, balki shaxmat uslubida joylashgan nayza o'qi uchli shinaklar mavjud, ular o'rtasidagi oraliq maydoni 1,20-1,84 m, ichki tomonda

kengligi 0,18-0,12 sm, tashqi tomonda esa 0,30-0,40 sm. Devorlar burchagida uchta shinak joylashgan bo‘lib, turli tomonga yo‘nalib, kungur vazifasini bajargan.

Qo‘yqirilganqal’a – To‘rtko‘l tumani hududida joylashib, aylana shaklda qurilgan, hajmi 86,5 m mudofaa devor bilan o‘rab olinib, 9 ta kungur bilan mustahkamlangan. Kungurlar yon tomonga emas, devordan ancha baland qilib qurilgan. Yodgorlik markaziy qismida silindr shaklida (hajmi 42 m) ikki qavatli inshoot qurilgan.

Yodgorlikda astronomik kuzatishlar olib borilgan, keyingi tarixiy davrda qabristonga aylangan (loydan yasalgan ossuariylar ko‘plab topilgan).

Tuproqqal’a – Ellikqal’a tumani hududida joylashgan, to‘g‘riburchak shaklda, umumiy maydoni – 17 ga: Tuproqqal’a yodgorligining qurilishi tarixi masalasida turli fikrlar mavjud. Tuproqqal’ada eng qadimiy madaniy qatlamgacha tadqiqot ishlari olib borilgan emas, shuning uchun ham uning qurilish xronologiyasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Bizningcha yodgorlik mil.av. IV asrda qurilgan bo‘lsa kerak. Vazamar davrida Tuproqqal’a Xorazmshoxlarning yozgi qarorgohi, poytaxt esa Akshaxon qal’asi bo‘lgan. SHahar darvozasi janub tomonda joylashib, to‘g‘riburchakli labirint bilan mustahkamlangan, kungurga ega emas. Darvozadan qarshi tomonda kengligi 10 m ko‘cha o‘tgan bo‘lib, ichki qismini ikki mahallaga ajratgan uy-joylar zich joylashgan. SHaharning shimoliy-g‘arbiy qismida saroy joylashgan, uchta kungur bilan mustahkamlangan. Saroyning maydoni 6,5 ming m². Saroyda bir necha «Katta zallar» ochilgan bo‘lib, ularning devorlarida turli haykal tasvirlari tushirilgan, topilgan ashyolarga qarab uy xonalari «Podsho zali», «Askar zali», «Bug‘u zali» nomini olgan. Saroy xonalaridagi katta ahamiyatga ega bo‘lgan ashyolardan biri teri va yog‘och taxtachalarga yozilgan 120ga yaqin podsholik arxiv xujjatlari olinganligidir.

Ichanqal’a to‘g‘riburchak shaklda, umumiy maydoni 26 ga. Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan o‘rab olingan, devor o‘z navbatida aylana shakldagi kunguralar bilan o‘rab olingan, ular o‘rtasidagi oraliq – 30 m.

SHaharning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini o‘rganish maqsadida M.Mambetullaev shaharning bir necha joyida tadqiqot ishlarini olib bordi, natijada 10 ta qurilish davri mavjudligi aniqlandi.

Mudofa devorining etti joyida kesish ishlari olib borilib, natijada devor qurilishi tarixi oydinlashdi.

I–qurilish davrida ikki qatorli devor paxsadan qurilib, uning balandligi – 0,85 m, yo‘lak kengligi – 2,50 m. Bu qurilish davri miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid, II–qurilish davrida paxsa devor ustiga xom g‘ishtli devor tiklangan, hajmi (40x40x10 sm, 41x41x12 sm) yo‘lak kengligida o‘zgarish sezilmaydi, qo‘sh devor ko‘tarilishi davom etadi, tashqi tomondan qo‘shimcha devor qurilishi olib borilgan, natijada devor qalinligi 7 m bo‘lgan (mil.av. IV-III asrlarga oid).

III–qurilish davri – Xivada madaniy hayot yuksaladi, g‘arbiy devor markazida ark qad ko‘taradi, bu rivojlanish milodiy IV asrgacha davom etadi. Tashqi tomondan devorga qo‘shimcha devor qurilishi davom etib, uning qalinligi 9 metr ga etadi. Tashqi devordagi kungurda ham ta‘mir ishlari olib borilgan, natijada to‘g‘riburchakli kungur aylana shaklga aylanib qolgan. Demak, antik davrda

Ichanqal'a savdo hunarmandchilik markazi bo'lishi bilan birga harbiy chegara vazifasini ham bajargan.

Xazorasp – Xorazm vohasining janubiy darvozasi bo'lib, eng qadimiy shaharlardan biridir. Yodgorlik tekislikka qurilgan, uning rejalashtirilishi to'rt tomoni teng (10,8 ga), qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, ular o'rtasida kengligi 2,10 m bo'lgan yo'lak o'tgan. SHaharning janubiy-sharqiy burchagida ark joylashgan (hajmi 40x40 m). Yodgorlikning qurilish tarixi to'g'risida yagona ilmiy fikr hanuzgacha mavjud emas, bunga arxeologik qazish ishlarining eng qadimiy madaniy qatlamgacha olib borilmaganligidir.

1958–1960 yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari, 1997, 2000, 2003 yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasining arxeologiya guruhi xodimlari Xazoraspning bir necha joyida tadqiqotlar olib borilgan, afsuski bu tadqiqotlar tugallanmay qolib ketgan.

Devor va kungurlar saqlanib qolgan, balandligi turlicha, ya'ni 5-14 m. Janubiy devor mahalliy aholi tomonidan buzib tashlangan, bu devorda bitta kungur saqlanib qolgan, g'arbiy, shimoliy va sharqiy devorlarda kungurlar yaxshi saqlangan, ular o'rtasida oraliq 10–55 m.

SHimoliy-g'arbiy qismi ichki qismidan eng qadimgi paxsa devor topildi, unda to'g'ri burchakli kungur mavjud.

Qal'aning masjid qismida, shimoliy-g'arbiy, g'arbiy qismda mudofaa devorini kesish ishlari olib borildi. Natijada shaharning qurilish tarixini mil.av. VII asr bilan belgilash imkonini berdi. Tadqiqotchi Q.Sobirov Bo'ston shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro Simpoziumda qilgan ma'ruzasida Xazorasp yoshini miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oidligini qayd etgan edi. Xullas Xazorasp qal'asida keng miqyosda tegilmaydigan er qatlamigacha arxeologik tadqiqotni olib borish zarur, bu albatta kelajakka oid masaladir.

Katqal'a (SHovot) – SHovot tumanidagi Beruniy nomli shirkat xo'jaligi Kat qishlog'i hududida joylashgan, rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'ri burchak, umumiy hajmi 10,8 ga, qadimda ikki qatorli devor o'rab olgan bo'lib, ular o'z navbatida yarim aylanalik kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi oraliq –27 m. Yodgorlik mil.av. IV asrda qurilgan.

Akshaxon – Beruniy tumanidagi «Ozod» fermer xo'jaligidagi qumliklar o'rtasida tekislikka qurilgan. Rejalashtirilishi to'g'riburchak shaklda, umumiy maydoni – 45 ga, qadimda ikki qatorli devor o'rab olgan, kengligi – 6 m. Devor bo'ylab to'g'riburchakli kungurlar, burchak qismida esa to'rt tomoni teng kungurlar joylashgan.

SHimoli-g'arbiy burchakda ark joylashgan, to'g'riburchak shaklda (380x340 m). Darvoza janubi-sharqiy va janubiy-g'arbiy devorda joylashgan, labirint bilan mustahkamlangan. Yodgorlikning tashqi devori va kunguri o'rganildi. Yodgorlik mil.av. IV – milodiy III asrlarda Xorazmning poytaxti bo'lgan (podsho Farazman 1500 otliq askar bilan Baqtr shahriga A.Makedonskiy huzuriga shu shahardan ketgan bo'lishi shubhasiz). Yodgorlik Qoraqalpog'iston va Avstraliya olimlari tomonidan uzluksiz ravishda tekshirilmoqda.

Buxoro viloyatida antik davr yodgorliklari

Buxoro viloyati hududida R.Sulaymonov rahbarligida, Buxoro shahrining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish maqsadida A.R.Muxammadjonov rahbarligidagi arxeologik guruhlar tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Romish–I, II, III, Setalak, Buxoro keng miqyosda o'rganildi.

Buxoro – Zarafshonning Rudizar va Zarirud ismli ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan, alohida-alohida qishloqlar asosida paydo bo'lgan. SHaharning etti joyida keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, undagi madaniy qatlam 20 metrdan oshiq. Devor avval paxsadan, keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan, to'g'ri burchakli kungurga ega. SHahar uch qismdan iborat, ya'ni ark, shahriston va shahar atrofidan iborat bo'lib, turli tarixiy davrda shakllangan.

SHu bilan birga, Kozimontepa, CHordira, Qo'shrabod, Arabop-1, Arabop-2, Varaxshaning quyi qatlami, Xo'jabo'ston, Beshtepa yodgorliklari o'rganildi.

O'zbekistonda arxeologiya faniga katta e'tibor berilishi natijasida bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning natijasi sifatida tariximizning bir necha yuz ming yilliklardagi tarixiy voqealarga oydinlik kiritilmoqda, O'zbekiston jahonning ilk sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi o'z isbotini topmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, maxalliy ekspeditsiyalar tomonidan O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada, Xorazm, Termiz, Mohandaryo, Pomir-Oloy, Pomir-Farg'ona kabi ekspeditsiyalar tuzilib katta xajmda muvaffaqiyatli tadqiqotlarni o'tkazdilar. Arxeologlar tomonidan olib boilgan qidiruv va tadqiqot ishlari natijasida O'rta Osiyoning turli joylaridan Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatiga mansub yuzlab joy-makonlar topib o'rganilgan.

O'zbekistonda arxeologiya faniga katta e'tibor berilishi natijasida bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning natijasi sifatida tariximizning bir necha yuz ming yilliklardagi tarixiy voqealarga oydinlik kiritilmoqda, O'zbekiston jahonning ilk sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tolstov S.P. *Drevniy Xorezm*. -M., Nauka, 1948.
2. Tolstov S.P. *Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta*. - M., Nauka, 1962.
3. G'ulomov YA.G'. *Xorazmning sug'orilish tarixi*. –T., Fan, 1959.
4. Gafurov B.G. *Tadjiki*. -M., Nauka, 1971 g.
5. Itina M.A. *Poselenie YAkke-Parsan-2*.// *MXE*, vip. № 6.- M., 1963.
6. Nizovya Amudari, Sarikamish, Uzboy.// *MXE*, vip № 3. –M., 1960.
7. Masson V.M. *Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani*.- M.-L., Nauka, 1959.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Yusupova Nodira Firnafasovna

***O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Yunusobod tumani 302-sonli
maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi***

Annotatsiya: *ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiyani olib borish, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari haqida taklif va mulohazalar berilgan.*

Аннотация: *В данной статье даны предложения и замечания о педагогических возможностях проведения обучения на основе компетентностного подхода, развития коммуникативной компетентности учащихся в общеобразовательных школах.*

Ta'lim sifatini oshirish butun jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biridir. Yurtimizda mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajribalarni hamda ekspertlar fikrini o'rganish va ta'limga olib kirish, tizimga innovatsiyalar, ilm-fan yutuqlarini implementatsiya qilish hamda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hayot davomida ta'lim paradigmasi diskursida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi o'zining keng ko'lamli islohotlari bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy rivojlanish sur'atlarining tezlashishi, ta'limdagi raqamli texnologiyalarni transformatsiyalash va axborotlashtirish jarayonlari bugungi kunda ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablarning mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va texnologiyalarini optimallashtirish bo'yicha maktabgacha va maktab ta'limi tizimining maqsadi va vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Natijada davlat ta'lim siyosatining bosh maqsadi – kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan sifatli va mazmunli ta'limni ta'minlashga aylandi.

Ta'limning sifat va mazmunini oshirishda ta'limning zamonaviy paradigmalari asosida o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ularni yangi metodikalar bo'yicha qayta tayyorlash, ularda "ta'lim faoliyatida: kasbiy harakatchanlik va moslashuvchanlik; iqtisodiy va madaniy qadriyatlarni yaratishda faol ishtirok etish; ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish; raqobatbardosh bo'lish; yangi sharoitlarda kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga tayyor bo'lish qobiliyat va fazilatlarini shakllangan bo'lishi kerak"ligi belgilab berildi [15].

Respublikamizda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan milliy o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi[6].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Tilshunoslikda ushbu atama ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida, ta'lim sohasida uni qo'llash esa uning izdoshlari tomonidan kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan bo'lib, kompetenlilik va kompetensiyaviy yondashuv ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan.

Kommunikativ kompetensiya – “jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish” [18].

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi pedagogik imkoniyatlari mavjud:

- *muloqotni olib borish;*
- *shaxslararo muloqot ko'nikmasi shakllantirish;*
- *muloqotni tashkil etish va teskari aloqani o'rnatish;*
- *muloqot natijalarini analiz va sintez qilish.*

“Kommunikativ kompetensiyaning vazifalaridan biri bu vaziyatlarni yetarli darajada tahlil qilish va talqin qilishni ta'minlaydigan bilim resurslarini baholashdir. Ushbu bahoga tashxis qo'yish uchun hozirgi kunga kelib turli xil kommunikativ vaziyatlarning “erkin tavsiflari” ni tahlil qilishga asoslangan texnikaning katta bloki mavjud” [24].

Kommunikativ kompetensiyani o'rganishning yana bir usuli - bu texnik vositalar yordamida tabiiy yoki maxsus tashkil etilgan o'yin vaziyatlarida kuzatuv va olingan ma'lumotlarni mazmunli tahlil qilishdir.

“Raqamlashtirilgan muloqot” – bu suhbat va ijtimoiy aloqalarning elektronlashgan shaklidir. Endilikda, o'qituvchi o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda turli *qisqa matnlar, audiolar, autentik materiallar, nutq o'stirish va muloqotni o'rgatish kabi ta'lim trenajorlaridan* foydalanishi kerak.

Demak, yuqori berilgan ilmiy qarashlarga ko'ra, kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishning tarkibiy qismlarini aniqlash imkoniyatini quyidagicha belgilash mumkin:

- motivatsion va qiymat komponenti;
- kognitiv komponent;
- hissiy komponent;
- xulq-atvor komponenti;
- ijtimoiy muloqot komponenti;

- virtual komponenti;
- onlayn komponenti.

Uning uchun o‘quvchilarda gapirish nutqiy faoliyat ko‘nikmasi bo‘yicha: uchrashuvda o‘zini tanishtirish, iltimos bilan murojaat etish, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish, ma’lumot olish va berish, o‘zgalar fikrini qisqacha sharhlash, muhokamalarda ishtirok etish, mavzularni muhokama qilishda shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, o‘rganilgan mavzu doirasida fikrini bog‘lanishli so‘zlab berish, berilgan mavzu doirasida taqdimot qilish kabi bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Demak, 8-, 9-sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o‘rganilgan mavzular doirasida turli fanlarga oid ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida fanlararo kompetensiyalar shakllantirib boriladi. Bu orqali o‘quvchilarning shu mavzu doirasida o‘z fikrini bog‘lanishli bayon eta olish va va xulosalar chiqarish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Pedagoglar 8-, 9-sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muloqotning quyidagi turlariga tayanib ish ko‘radi:

- *o‘zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;*
- *o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan muloqot;*
- *muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;*
- *qo‘rqitish, tahdid qidishga asoslangan muloqot;*
- *hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.*

Ta‘limning maqsad va mazmunini, o‘quv jarayonini tashkil etish va uning natijalarini baholash usullarini belgilovchi kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning ijtimoiy turli soha va faoliyatidagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- kognitiv, dunyoqarash, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishda didaktik moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- o‘quvchilarda kognitiv, kommunikativ, tashkiliy muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- ta‘lim natijalarini baholash ta‘limning muayyan bosqichida o‘quvchilar erishgan ta‘lim darajalarini tahlil qilishga asoslanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, o‘quvchi o‘zining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha mustaqil tarzda o‘z-o‘zini rivojlantirishi, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishi, hayot davomida o‘qib-o‘rganishi, bilim va oshirgan tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borishi, o‘z hatti-harakatini adekvat baholashni bilishi, o‘zini nazorat qila bilishi, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lishi, o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal etishda o‘z muloqot madaniyatidan o‘rinli foydalana olishi kerak. Aynan shu vazifalarni bajarishda o‘qituvchi bilim oluvchisining qiziqishi, ehtiyoji va harakatlarini nazorat qilib turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda
“Chet tillarni o‘qitishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi 1875-sonli

Qarori.

2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. O'zbek tili. Unicef. 2021-yil.
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'qrisida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017- yil 6- aprel, 187-son.
4. Omonov N.T., Xojayev N.X., Madiyarova S.A., Eshkulov Ye.I. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Iqtisod-moliya, 2009.
5. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290.

BOLARDA UCH-YETTI YOSH DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Eshquvvatova Farida Kozimovna

Guliston shahar, 8-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Kalit so'zlar: Bolalar, oila, tarbiya

Ключевые слова: дети, семья, воспитание.

Key words: Children, family, education

Annotatsiya. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan manna shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi xamda shaxsiy individual xususiyatlari (insoniy fazilatlarini) tarkib topa boshlaydi. Mashxur rus pedagoglaridan P.F.Lestgafning fikricha, insonning 3 - 7 yosh yoshidagi davri shunday bir davrki, anna shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi.

Bola 3 - 7 yosh yoshiga etgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi anna shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. 3 - 7 yosh yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan xarakter apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqga ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-xarakatlari, qiziqish va extiyojlari 3 - 7 yoshga tarbiya yoshidagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. 3 - 7 yosh yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan bo'lgan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola 3 - 7 yosh yoshiga etgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa xarakterliki, kichik 3 - 7 yosh yoshidagi bola doimiy yordam va g'amxo'rlik talab qiladigan ob'ektdan sekin-astalik bilan oila xolida 3 - 7 yosh bolalar gruppasining faol a'zosiga aylana boshlaydi. Demak, bu davrdan boshlab, muxtojlikdan qutilib, o'zi xam boshqalarga ma'lum darajada yordam bera oladigan,

o'zining burchi, vazifalari, qizikishlari xamda xilma-xil extiyojlariga ega bo'lgan shaxsga, jamoa a'zosiga aylana boshlaydi.

3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil extiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu xarakatga undovchi, ularni ishga soluvchi (omil) xisoblanadi. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalarda (Yangi chaqaloqlarda) asosan organik extiyojlar (masalan: ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi) mavjud bo'ladi. 3 - 7 yoshgacha tarbiya yoshidagi bolalar esa bunday organik extiyojlardan tashqari ijtimoiy va intellektual extiyojlarning dastlabki kurtaklari yuzaga kela boshlaydi. Masalan: 3 - 7 yoshgacha tarbiya yoshidagi bolalar yaxshi gapira olmasalar xam, xaddan tashqari qiziquvchan bo'ladilar. Ular ko'zlariga ko'ringan xar bir narsani qo'llari bilan timirskilab ushlab ko'rgunlaricha tinib tinchimaydilar. 3 - 7 yoshgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan mana shunday qizikuvchanlik ularda intellektual extiyojlarning yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarda ijtimoiy intellektual va axloqiy extiyojlar yaqqol ko'rina boshlaydi. Agar 3 - 7 yoshgacha tarbiya yoshidagi bola uzoq vaqt davomida yolg'iz o'zi biron o'yinchoq bilan mashg'ul bo'lib o'tira olsa, 3 - 7 yosh yoshida Ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish extiyoji tug'iladi. Ular tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o'z extiyojlarini qondira olmay kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Natijada bu yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalar tabiatlariga xos bo'lgan kuchli extiyojlardan yana biri xar narsani bilib olishga bo'lgan extiyojdir. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan extiyojlari xam orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Xar bir narsa bola uchun yangilik bo'lib tuyuladi va bola uni xar tomonlama bilib olishga intila boradi. Shuning uchun xam ular juda ko'p savollar beradi. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida 3 - 7 yosh muxiti juda katta rol o'ynaydi. 3 - 7 yoshdagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigienik extiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelish uchun sharoit tug'diradi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odatlar o'z moxiyati jixatidan extiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik xayotda takrorlana berishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, extiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali extiyojlarni tarbiyalash deganda ularda ijobiy va foydali odatlarni xosil qilishni tushunamiz. 3 - 7 yosh yoshidagi davrda xosil kilingan mustaxkam ijobiy odatlar (extiyojlar) kishining butun umri davomida saqlanib qoladi. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida qizikishning xam roli g'oyat kattadir. Qizikish, xuddi extiyoj kabi, bolani biron faoliyatga undovchi (xarakatga soluvchi) omillardan biridir. Qizikish deganda, biz vokelikdagi narsa va xodisalarni birmuncha chuqurrok bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak, qizikish bilish jarayoni bilan bog'lik bulgan xar bir shaxsning murakkab sifatidir. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalar xama narsalarga birdek qizika bermaydilar. Ular ayrim narsalarga ko'prok, boshqa bir narsalarga kamrok qizikadilar. Lekin 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning qizikishlari katta odamlardagi

kabi bir narsaga nisbatan qat'iy xamda mustaxkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez ko'nib turadi. Bundan tashkari, 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va xodisalarning moxiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va xodisalarning o'zigagina qizikadilar. Shu sababli 3 - 7 yosh yoshidagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qizikishlar ustun turadi. Tarbiyachi 3 - 7 yoshda turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suxbatlar o'tkazish va kitoblar o'qib berish bolalarda markazlashgan barqaror qizikishlarni yuzaga keltirishga xarakat kilishlari lozim.

Bola psixologiyasining rivojlanishida qizikishning axamiyati shundaki, bola qizikkan narsasining mumkin kadar chuqurroq bilishga tirishadi. Binobarin, uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muxim psixik jarayonlarini rivojlantirish xamda mustaxkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror soxaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qizikish kelajakda ularning shu soxasini yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o'ynaydi.

3 - 7 yoshda bolalarning birgalikda ta'lim-tarbiya olishlari, birgalikda o'ynashlari va birgalikda ovqatlanishlari ularda kollektivizm tuyg'usini yuzaga keltira boshlaydi. Ko'pchilik bo'lib bir o'yinni o'ynash yoki biron vazifani bajarishda o'z xatti-xarakatlarini kelishib olish, rollarni taqsimlash va bir-birlariga yordam berish kabi kollektiv xayotiga oid fazilatlar namoyon bo'lla boshlaydi. Biroq 3 - 7 yosh yoshidagi davrda bolalar kollektivi endigina tarkib topa boshlayotganini unutmash lozim. Bolalar kollektivini mustaxkamlashda ularning kollektivdagi endigina yuzaga kelayotgan o'zaro murakkab munosabatlari, ya'ni bir-biriga bysunish, bir-biriga yon bosish kabi munosabatlar katta rol o'ynaydi xamda bolalarning psixik taraqqiyotiga yordam beradi.

Bolalarning bunday o'yinlarida pala-partishlik, tartibsizlik yo'q. Chunonchi, ular qo'g'irchoqlarini yuvintiradilar, kiyintiradilar, ovqatlantiradilar so'ngra 3 - 7 yoshga olib boradilar, uxlatadilar va x.k. bunday qat'iy tartib bilan amalga oshiriladi. Ana shunday tartibli, sistemali faoliyatda bo'lishga odatlanish 3 - 7 yosh yoshidagi bolalar shaxsiy xislatlarining tarkib topishi uchun katta axamiyatga ega. 3 - 7 yosh yoshidagi bolalar jismoniy va psixik jixatdan xam etarli darajada rivojlanganliklari tufayli ular oddiygina mexnat topshirkklarini bajara oladilar. Bolalarning ijodiy xarakatlari asosan o'yin xamda tasviriy san'at faoliyatida (rasm chizish, loy ishi, qog'ozdan xar narsalar yasash kabi) namoyon bo'ladi. Bolalar o'zlarining o'yin va tasviriy faoliyatlarida kattalarning mexnatlarini tanqidiy tarzda qayta tiklab, mexnat xayotini faol ravishda o'zlashtira boshlaydilar. Bu ularning mexnat faoliyatiga tayyorlanishlarida katta axamiyatga egadir.

3 - 7 yosh yoshidagi bolalarning o'z xatti-xarakatlarini ma'lum vazifalarni ado etishga bo'ysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qizikish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma'lum ta'limiy programma asosida tarbiyalash imkonini beradi. 3 - 7 yoshda to'g'ri yo'lga ko'yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mexnat faoliyatining dastlabki belgilari xamda bilimga qizikishni tarkib toptiradi.

3 - 7 yosh hayotining ko'p qirrali va sermazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga xamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa asosiy

bilish jarayonlari bo'lishi-idrok , tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yuboradi. 3 - 7 yoshgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu jarayonlar ularning o'yin yoki biron amaliy faoliyatlari bilan birga namoyon bo'ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar Biron narsa bilan mashg'ul bo'lib turganlarida uni idrok qiladilar, ilgari xam shu narsa bilan mashg'ul bo'lganlarini eslaydilar va uni analiz va sintez qilib ko'radilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y.
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982y.
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y.
5. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
6. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y. - Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI” “1-SINF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA O'RGATISH USULLARI”

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuvga o'rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchilar zimmasiga qator mas'uliyat yuklashi, bu jarayon o'quvchining xarakteriga, kayfiy gigenik imkoniyatiga bog'liq bo'lgan psixolingistik jarayon sanalishi, maktabga endigina kelgan bolalarni yozuvga o'rgatish nihoyatda qiyin kechishi, bolalarni yozuvga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish jarayoni bilan bo'g'lab olib borilishidan namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Husnixat, chiroyli yozish, yozuv san'ati, husnixat qoidalariga rioya qilish, gigenik talablar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bu hujjat asosida ona tili va o'qish savodxonligi masalasi ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi.

Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'liga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Yozuvga o'rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchilar zimmasiga qator mas'uliyat yuklaydi. Bu jarayon o'quvchining xarakteriga, kayfiy genik imkoniyatiga bog'liq bo'lgan psixologik jarayon sanaladi. Maktabga endigina kelgan bolalarni yozuvga o'rgatish nihoyatda qiyin kechadi. Shuningdek, bolalarni yozuvga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish jarayoni bilan bo'g'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Husnixat (chiroyli yozuv) -chiroyli yozish san'ati. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o'qitish usullarini yozuvga o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rganish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak. Husnixat va uni o'rgatish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda o'qitish, tarbiyalash vazifalarini bajaradi.

Birinchidan husnixat bilan yozish o'quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi.

Husnixat darslariga qo'yiladigan gigiyenik talablar

Gigiyenik talablarga ko'ra maktab jihozi o'quvchining bo'yiga mos kelishi lozim. Jihozning o'quvchining bo'yiga to'g'ri kelmasligi umurtqa pog'onasining qiyshayishiga va uzoqni ko'ra olmaslik kasalligiga olib keladi.

Kuzatishlarning natijasiga ko'ra o'quvchi bir - biridan bo'yi -bo'yicha 10 sm ko'p bo'lmagan holda farqlansa, ularni bir xil o'lchamdagi maktab jihoziga o'tkazish mumkin. Jihozni bolaning yoshiga mos holda tanlab olish uchun o'quv yilining boshida uning bo'yini o'lchash va bo'yiga mos maktab jihoziga o'tqazish kerak.

Bo'yni 0.5 smgacha aniq va to'g'ri o'lchash lozim. Bo'yni bo'y o'lchagich bilan yoki o'quvchini orqasi bilan devorga yopishib turishini ta'minlab, oyoqlari tovonlarini birlashtirib, oyoq uchlarini chetga ochgan holda devorga tekis holda tegib turishi lozim. Devorda o'lchashni qulaylashtirish uchun devorga (plintus qalinligida) santimetrlarga bo'lingan doskani qoqish kerak bo'ladi.

O'quvchini devor yoniga qo'yib, to'g'riga qarash taklif etiladi va boshiga to'g'ri burchakli uchburchak qo'yiladi, uchburchakning bir kateti o'quvchining boshiga, ikkinchi uchi esa o'lchagichli devorga qo'yiladi, ana shundan uning bo'yi aniqlanadi.

O'quvchilarni o'tqazish paytida ularning ko'rish va eshitish qobiliyatlarini ham hisobga olish lozim bo'ladi. Yaxshi ko'rmaydigan yoki eshitmaydigan o'quvchini o'qituvchining stoli yaqiniga o'tqazish maqsadga muvofiqdir. Sinfda yorug'lik me'yorda bo'lishi kerak. Sinf o'quvchi yozuv taxtasiga yozilishi lozim bo'lgan kattalikdagi yozuv belgilarini ko'ra olishi mumkin bo'lgan yorug'lik bilan

ta'minlanishi lozim. Yorug'lik o'quv xonasining chap tomonidan tushib turishi lozim.

Agar oynalar o'quvchining old tomonida joylashgan bo'lsa, yorug'lik unga old tomonidan tushadi va ko'z setkachasini zararlantiradi. O'ng tomondan joylashgan oynalar o'quvchi qo'lining soyasi qog'ozga tushib uni qorong'ulashtirib qo'yishi bilan noqulaylik tug'diradi.

Agar yorug'lik manbai orqada joylashgan bo'lsa, stolga o'quvchining butun gavdasining soyasi tushadi.

Bu talablarga sinfdan tashqari holatlarda ham rioya qilinadi.

Husnixat bilan to'g'ri yozish nafaqat sinf, balki sinfdan tashqari vaqtdagi ishlarda ham o'quvchiga singdirib boriladi.

To'g'ri tashkil etilgan sharoitda ham tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ega, ular bolalarda husnixat bilan yozish malakalarini hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Pechat shrifti bilan yozilgan, aniqrog'i chizilgan harf ko'proq aniq pechat shriftiga aylanadi. U esa o'z navbatida cherto'jlardagi yozuvlarda qo'l keladi. Pechat shrift bilan yozilgan devoriy gazetalar o'ziga xos uslubga ega bo'ladi.

Pechat shriftining namunasi bo'lib oddiy standart shrift xizmat qilishi mumkin. U (DTS) tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Yozishga o'rgatishda avval qoidalar o'tirish bilan tanishtirish va to'g'ri o'tirish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Bir necha darslardan so'ng o'qituvchining birgina to'g'ri o'tiring so'ziga talab qilinayotgan holatda o'tirishlariga erishishi zarur.

1. Yozish jarayonida yozayotgan o'quvchi oyoqlari oyoq kaflari polga yoki stol (parta)ning oyoq qo'ygichiga tegib turishi lozim.

2. Gavdaning ko'krak qismi stoldan 5 sm uzoqlikda turishi kerak.

3. Erkin holda o'qish uchun bosh stolga ozgina egilgan holatda bo'ladi. Ruchkaning uchidan ko'zgacha bo'lgan masofa 25-30 sm bo'ladi. Bundan tashqari boshni yozuv jarayonida to'g'ri tutiladi. Boshni yon tomonga (pastga) engashgib o'tirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

4. Ikkala qo'l stol ustida to'g'ri burchak ostida bir-biriga qaratilgan holda turish, yozayotganda tirsak stolning ustida va bir ozgina stolning chetiga chiqib turishi lozim. Qo'lning bunday holatda turishi gavdaning stol ustiga engashib va ko'kragini stolga tegib turishini oldini oladi.

5. Yozishga o'rgatishning ilk bosqichida ruchkani to'g'ri ushlab qoidasi o'rgatiladi, malaka hosil qilinadi. Ruchkani ushlab qoidasi o'rgatiladi.

Ruchka uchta barmoq orasida tutiladi, ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan ushlanadi. Uchta barmoqning barchasi ozgina bukilgan holda ruchkani tutiladi. Ko'rsatkich barmoq ruchkaning ustida, o'rtachasi - uni o'ng tomondan, katta barmoq esa - chap tomondan ushlab turadi; qolgan ikkita barmoq - nomsiz va jimjiloq kaftga suyanchiq bo'lib qog'ozga engilgina tegib turib unda sirg'anishi kerak. Ruchkaning uchi o'ng yelkaga qarama-qarshi turishi kerak.

Tezda charchab qolmaslik uchun ruchkani qattiq siqmaslik kerak.

6. Daftar o'quvchining ko'kraging to'g'risida o'rtada, uning o'ng burchagi chapidan yuqori bo'lishi kerak. Boshning va gavdaning o'rtacha u yoki bu tomonga

burilishini oldini olishi uchun bir necha soʻz yozilganidan soʻng chap qoʻl bilan chap tomonga suriladi, chunki yozayotgan qoʻl koʻkrakning oʻrtasidan unchalik uzoqlashib ketmasligi kerak.

Yozish jarayoni quyidagilardan tashkil topgan: harflarning shtrixi ruchkani ushlab turgan barmoqlarning bukilishi va ochilishi yordamida yoziladi, qator old yelkaning va kaftning yordamida, kaft jimjiloqqa va nomsiz barmoqlarga tayanib chapdan va oʻngga qarab harakatlanadi.

Bu usullarning barchasi oʻz holicha oddiy va ulami bolaga tushuntirish, koʻrsatib berish oson, lekin ularni oʻrganish va amalda qoʻllash birmuncha qiyinchiliklar tugʻdiradi.

Buning sababi bolalar bir vaqtning oʻzida bir qancha qiyinchiliklarni yengib oʻtishlariga toʻgʻri keladi. Bularga oʻz gavdasini toʻgʻri tutishga, daftarning turishiga, ruchkani tutish holatiga barmoqlarning, kaftning va old yelkaning ishiga, shu vaqtning oʻzida halo tanish boʻlmagan yangi harfni yozishga toʻgʻri keladi.

Dastlabki kundanoq bolani daftarni toʻgʻri va ozoda tutishga oʻrgatib borish lozim. Daftar ustidagi yozuv uning pechatlangan matniga mos holda, oʻrnatilgan tartibga koʻra toʻldirilishi lozim.

Daftarni qogʻoz bilan oʻrash mumkin emas, chunki buklangan qogʻozning qalinligi yozishga xalaqit beradi. Daftarni muqovalagandan koʻra oʻquvchi partaning ustki qavatining ozodaligiga va yozayotganda daftarning tagiga toza qogʻoz varagʻini qoʻyishga oʻrgatib borish kerak. Ularning hammasi oʻquvchining daftarni tashqi tomondan ozoda tutishini nazorat qilib borishga oʻrgatadi.

Daftarning tashqi koʻrinishining ozodaligi va tartiblilik hammasi hamma tomondan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Daftar varagʻiga yozishda bolalarga quyidagilarni: tushuntirib oʻtish lozim.

1. Sana yoki tartib raqami qayerga yozilishini;
2. Qatorning qayeridan soʻz yozishni boshlash lozimligini;
3. Qatordagi soʻzlarning oraliq masofasi qanday boʻlishi kerakligini;
4. Avvalgi va keyingi ishlar orasida qancha qator tashlanishi haqida;
5. Betni qanday yakunlash haqida tushuntirib oʻtish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi.–T.: “Oʻzbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.
3. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha Yangi tahrirdagi oʻquv dasturi // Boshlangʻich taʼlim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
4. Boshlangʻich taʼlim konsepsiyasi// Boshlangʻich taʼlim, 2014
5. Boshlangʻich taʼlim dasturi. XTV 2017-yil , 3-iyun, 190-sonli buyrugʻi
6. Qosimova K., Matchonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
7. Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. Toshkent, 2010. – 136 b.

PIRLS 2021 XALQARO BAHOLASH DASTURINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O‘QISH SAVODXONLIGI

Xolmurodova Shoxsanam Mamatkarim qizi

*Guliston davlat universiteti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. PIRLS xalqaro tadqiqotlari haqida qisqacha ma’lumotlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu tadqiqotlar yordamida o‘quvchilarning baholanadigan kompetensiyalari hamda ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar haqida fikrlar keltiriladi.

Yangicha yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar haqida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini boyitish yo‘lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida tahlil qilinadi.

Shuningdek, xalqaro dastur talablari asosida tashkil etilgan tajriba-sinovi hamda tadqiqotlar asosida milliy baholash tizimini takomillashtirish yo‘liga o‘rttirilgan tajribalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, o‘qish savodxonligi, matni o‘qib tushunish, xalqaro tajribalar.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОГРАММЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ PIRLS 2021 И ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ.

Аннотация. Приведены краткие сведения о международных исследованиях PIRLS, их особенностях, компетенциях студентов, оцениваемых в ходе этих исследований, и факторах, влияющих на качество образования.

Анализируются исследования, основанные на новых подходах, о мерах, реализуемых для обогащения читательской грамотности учащихся начальной школы.

Также высказывается мнение об опыте, полученном с целью совершенствования национальной системы оценивания на основе опыта-теста, организованного на основе требований международной программы и исследования.

Ключевые слова: международные программы оценивания, PIRLS, грамотность чтения, понимание прочитанного, международный опыт.

CHARACTERISTICS AND READING LITERACY OF PIRLS 2021 INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS.

Annotation: Brief information about PIRLS international studies, their specific features, student competencies assessed by these studies, and factors affecting the quality of education are provided.

Research based on new approaches is analyzed on the measures implemented to enrich the reading literacy of elementary school students.

Also, there is an opinion about the experiences gained in order to improve the national assessment system based on the experience-test organized based on the requirements of the international program and research.

Key words: international assessment programs, PIRLS, reading literacy, reading comprehension, international experiences.

Kirish. XXI asrda jahonda ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari intellektual rivojlangan, raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash - eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog'liq.

Har qanday vosita ma'lum vaqtdan so'ng ma'nan eskiradi. Shu bois ta'lim natijalarini baholashning eng ilg'or usullarini qo'llashda PIRLS tajribasi bizga qo'l keladi. Chunki PIRLS xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan endi ta'limga qadam qo'ygan o'quvchilar o'qish savodxonligini tekshirishning dunyo miqyosida tan olingan dasturi hisoblanadi. Bu xususida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev: "...ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan tizimni, axborot texnologiyalari joriy etilishi shart", deb ta'kidlaydilar [1].

O'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi.

Xalqaro YuNISEF ta'lim sohasi vakillari mamlakatimiz 4-sinf o'quvchilari ta'lim sifatini oshirish masalasi yuzasidan saylanma nazorat ishlarini amalga oshiridilar. 4-sinflarda o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarning 42,9%i o'qiganlarini tushunishlari aniqlash imkonini berdi. Mazkur holat boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda bir qator nomuvofiqlar, tafovutlarning mavjudligini ko'rsatib berdi [2].

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan

talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir [3].

Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi.

2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakalarini baholash sinovlariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlang'ich darajada matnni tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli ko'rsatkichlarni ko'rsatdi.

Boshlang'ich o'qish savodxonligi bo'yicha shuni ta'kidlash kerakki, 2016-yilgi PIRLSda mamlakatlarning yarmidan ko'pi deyarli barcha o'quvchilar (95% dan ko'prog'i) fundamental o'qish qobiliyatlarini namoyish etdilar.

2016-yilgi PIRLS yakunlari bundan 15 yil avvalga qaraganda ko'proq o'quvchilar yaxshi o'qish malakasiga ega bo'lganini ko'rsatdi. PIRLS 2001 natijalaridan beri 10 ta davlatdan o'qish savodxonligi o'sishi 2 ta davlat bu ko'rsatkich tushishi kuzatilgan.

Qiziqarli tomoni PIRLS 2016 natijalarigako'ra 50 ta davlatdan 48 tasida qiz bolalar o'g'il bolalarga ko'ra yuqori natijalarni ko'rsatgan. 2001-yildan beri qizlar va o'g'il bolalar savodxonligi o'rtasidagi farq qisqarmagan. Qizbolalar 2001-yilda ham o'qish savodxonligi borasida o'g'il bolalardan o'zib ketgan. Shu jihatdan turli mamlakatlardagi o'qish savodxonligi borasida yuqori natijalarni ko'rsatgan o'quvchilarning muvafaqqiyatiga aynan qanday omillar ta'sir ko'rsatganligini o'rganish O'zbekiston maktablarida ham yuqori darajadagi o'qish savodxonligiga ega o'quvchilarni kamol toptirishga yordam beradi.

O'rtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf o'quvchilari o'qish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etishdi. Shuningdek, bu ikki davlat o'quvchilarning to'rtidan bir qismi matnni mukammal darajada tushina olish malakasini ko'rsatishdi. Bu darajada matnni tushungan o'quvchilar hikoya syujetlari va nisbatan murakkab matnlarda berilgan ma'lumotlarni izohlash, birlashtirish, va baholash ko'nikmalariga ega. Hong Kong, Irlandiya, Finlandiya, Polsha ba Shimoliy Irlandiyalik o'quvchilarning beshdan bir qismi matnini mukammal darajada tushina olish malakasini ko'rsatishdi.

Quyidagi jadvalda natijalar aniq raqamlarda aks ettirilgan [4]:

Rossiya Federatsiyasi	581
Singapur	576
Hong Kong (SAR)	569
Irlandiya	567

Finlandiya	566
Polsha	565
Shimoliy Irlandiya	565

PIRLS tadqiqoti tomonidan o‘qish savodxonligiga berilgan ta’rif IEA xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan bo‘lib, unda o‘qish savodxonligi “tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati” deb izohlangan [5]

PIRLS tadqiqoti har bir ishtirokchi mamlakatlarda tadqiqot jarayonida qatnashayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonlik darajasi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarning o‘qishdan maqsadlari, keng tushunish jarayoni va ularning umumiy o‘qib o‘zlashtirishlarini o‘z ichiga oladi.

O‘qib tushunish ko‘nikmasini tashkiliy tuzilishidan kelib chiqib, ham elektron shaklda o‘tkaziladigan ham qog‘oz shakldagi PIRLS 2021 tadqiqotida, teng yarmi o‘quvchilarning badiiy savodxonliklarini baholashga, qolgan yarmi esa ma’lumotlarni topib, ulardan foydalanish ko‘nikmasini baholashga qaratilgan 18 ta o‘qib tushunish uchun mo‘ljallangan matnlar va bu matnlar asosida tuzilgan savol va topshiriqlardan tashkil topgan [6].

Matnlar

O‘qishdan ko‘zlangan maqsad	Qiyinlik darajasi	Matn yorlig‘i*	Matnning nomlanishi *
Badiiy	Qiyin	LitD1 (06)	Yaltiroq Somon (06)
		LitD2 (16)	Oliver va griffin (16)
		LitD3 (21)	Yangi LitD3 matni (21)
	O‘rta	LitM1 (16)	Pemba Sherpa (16)
		LitM2 (21)	Yangi LitM2 matni (21)
		LitM3 (11)	Bo‘sh gultuvak (11)
	Oson	LitE1 (21)	Yangi LitM2 matni (21)
		LitE2 (11)	Otamning 10 yoshligidagi yoz fasli (11)
		LitE3 (16)	Kutubxona sichqoni (16)
Axborot	Qiyin	InfD1 (11)	Asal qayerda? (11)
		InfD2 (16)	Islandiya otlari (16)
		InfD3 (21)	Yangi InfD3 matni (21)
	O‘rta	InfM1 (16)	Biz uchishni qanday o‘rgandik? (16)
		InfM2 (21)	Yangi InfM2 matni (21)
		InfM3 (06)	Akulalar (06)
	Oson	InfE1 (21)	Yangi InfE1 matni (21)
		InfE2 (11)	Eshitmaydigan qutb ayig‘ini o‘rgatish (11)
		InfE3 (16)	Och o‘simlik (16)

* Qavs ichida berilgan raqam matndan ilk bor qo‘llanilgan yilni ko‘rsatadi.

1-jadval: PIRLS tadqiqoti uchun tanlab olingan 18 ta matnlarning maqsadi va murakkablik darajasi.

1-jadvalda mavjud matnlarni o'qishdan ko'zlangan maqsad va murakkablik darajasiga ko'ra qanday joylashuvi va yangi matnlar va savollar jadvalning qayeridan joy olishi ko'rsatilgan. Oltita yangi matnlardan uchta badiiy savodxonlikka oid matnlar, qolgan uchta esa axborot beruvchi matnlar hisoblanib, ularning har biri matnlarning murakkablik darajasi ustunidan joy olgan. Shuningdek, jadvaldagi har bir matn maxsus shifrlangan bo'lib, ular baholash daftaridagi matnlarni baholanishini osonlashtiradi.

Har bir o'tkaziladigan tadqiqotda o'qish savodxonligiga nisbatan yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif barcha yoshdagi o'quvchilar va keng turdagi yozma til shakllariga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini, ammo bugungi texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda soni tobora oshib borayotgan qator matnli ma'lumotlarni qabul qilish, maktabda va kundalik hayotda o'qib tushunish qobiliyatini qanchalik muhim ekanini teran his etadigan yosh o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va tajribalarining o'ziga xos jihatlarini yoritib berishni ta'minlash maqsadida qayta ishlab chiqilishini taqazo etadi.

Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga nisbatan qo'llanilgan ta'rifi bo'yicha *o'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir.*

Hozirgi paytda matnlar yoki ma'lumotlarni internet orqali o'qish maktabdagi dasturning asosiy qismi va ma'lumotlarni qo'lga kiritishning eng muhim usuli hisoblanadi [7]. Yangi raqamli savodxonlik ma'lumotlarni internet orqali o'qish uchun muhim sanalib, unda o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotni qidirib topib, uni tushunish orqali o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishadi [8].

Avvalgi PIRLS dasturlari kabi PIRLS 2021 tadqiqotida ham o'quvchilarning matn o'qib tushunish darajasini rivojlantirishda jamiyat, uy va maktab bilan bog'liq omillar haqida ma'lumotlar to'planadi.

Orttirilgan tajribalar asosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning matn o'qib tushunish ko'nikmasini o'zlashtirish darajasi mamlakatlar ichida va mamlakatlar miqyosida turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa har bir ishtirokchi mamlakatda o'quvchilarning matn o'qib tushunish qobiliyatini baholashda yuzaga keladigan murakkabliklarni (tafovutlarni) muvofiqlashtirish masalasini keltirib chiqaradi.

Baholash jarayonlari o'quvchilar uchun juda qiyin yoki juda oson bo'lsa, ularning o'zlashtirish darajalarini yuqori aniqlikda baholashning imkoni bo'lmaydi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida PIRLS 2011 xalqaro tadqiqotiga qadar o'tkazilgan tadqiqotlardan tortib 2016-yilda o'tkazilgan PIRLS o'quvchilar savodxonliklarini baholash tadqiqotigacha, avval o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida ishtirokchi mamlakatlarning o'zlari tanlashi mumkin bo'lgan ancha soddalashtirilgan test materiallari taqdim etildi.

Mazkur sa'y-harakatlar natijasida PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'zlashtirish darajasi eng past bo'lgan o'quvchilar ham qamrab olindi. Ammo PIRLS tadqiqotining alohida (lekin avvalgilari bilan mantiqan bog'langan) versiyasini ishlab chiqish talab etildi va yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun murakkabroq materiallar tuzishga ehtiyoj qolmadi.

Baholashning yangi tartibi ikki xil murakkablik darajasidagi baholash daftarini birlashtirish natijasida tuzilgan uch xil murakkablik darajasidagi – murakkab, o'rtacha va oson – matnlarga asoslangan.

PIRLS barcha mamlakatlar uchun bitta standart og'ishga mos kelgan bo'lib, shkalaning 500 balli markaziy nuqtasi o'sha ishtirokchi mamlakatlar uchun xalqaro o'rtalikka mos kelgan. Ikki turdagi baholash natijalarini birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan 2001- va 2006-yilgi tadqiqotlarda berilgan matnlardan foydalanib, PIRLS 2006 xalqaro tadqiqotida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar ham ayni shkalaga kiritilgan bo'lib, bu ishtirokchi mamlakatlarga 2001-yildan beri boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish darajasi qanday o'zgarishlar ro'y berganini ko'rish imkonini beradi.

PIRLS o'qib o'zlashtirish shkalasi o'quvchilarning o'qishdan maqsadlari va keng tushunish jarayonidan iborat o'qish salohiyatini umumiy tarzda baholaydi. Shunga qaramay, umumiy shkalaga qo'shimcha tarzda, PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning o'qishdan maqsadlari va keng tushunish jarayonining ayni shu ko'rsatkichida alohida o'zlashtirish shkalasini ham taqdim etadi.

Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning o'qishdan maqsadlarini baholovchi ikkita shkala mavjud:

- Badiiy savodxonlikni oshirish uchun o'qish;
- Ma'lumot olish va undan foydalanish uchun o'qish.

Bunga qo'shimcha tarzda, keng tushunish jarayonini baholovchi ikkita shkala mavjud:

- Qidirish va to'g'ri xulosa chiqarish;
- Talqin qilish, umumlashtirish va baholash.*

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki yosh avlod bilimni baholashda xalqaro baxolash dasturlarini amaliyotda qo'llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash bilan birga ularning kreativligini va kompetentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab etmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. URL // <https://lex.uz/docs/-5280079>

2. Цукерман Г.А. и д. Читательские умения российских четвероклассников: уроки PIRLS-2016. М. 2016. URL // <https://cyberleninka.ru/article/n/chitatelskie-umeniya-rossiyskih-chetveroklassnikov-uroki-pirls-2016/viewer>

3. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma. «Sharq» nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019 URL // <https://tsbm.uz/uploads/docs/1f0a521a95514faa4764d5df3ff8f66f.pdf>

4. Ne‘matova F.B. “Boshlang‘ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati”. URL // <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-pirls-xalqaro-baholash-dasturlaridan-foydalanishning-ahamiyati-va-zarurati>

5. Elley, W.B. (1992). How in the world do students read? IEA study of reading literacy. The Hague, Netherlands: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). URL // <https://www.iea.nl/publications/study-reports/international-reports-iea-studies/how-world-do-students-read>

6. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. “PIRLS 2021 tadqiqoti qamrov doirasi”. Toshkent – 2021., 66-bet. URL // https://qlapi.stesting.uz/media/publications/PIRLS_2021_tadqiqoti_qamrov_doirasi.pdf

7. Leu, D.J., O‘Byrne, W.I., Zawilinski, L., McVerry, J.G., & Everett-Cacopardo, H. (2009). Comments on Greenhow, Robelia, and Hughes: Expanding the new literacies conversation. *Educational Researcher*, 38(4), 264–269.

8. Afflerbach, P., & Cho, B.-Y. (2009). Identifying and describing constructively responsive comprehension strategies in new and traditional forms of reading. In S.E. Israel & G.G. Duffy (Eds.), *Handbook of research on reading comprehension* (pp. 69–90). New York, NY: Routledge.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash bo‘yicha PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish mashq daftari.

INKLYUZIV TA'LIMDA MUSIQA VA XARAKAT TERAPIYASI ORQALI NOGIRON O'QUVCHILARNING KOGNITIV VA MOTORLI KO'NIKMALARINI YAXSHILASH

To'xtasheva Nodira Qahramonovna

Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Inklyuziv ta'lim-imkoniyati cheklangan o'quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali, inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim. Ijodiy sifatlarini shakllanishi o'qitish jarayonida o'quv amaliyotlarini samarali olib borish faolligi bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'langan. O'quvchilarni rang-barang, jozibali materiallar bilan qiziqtirish, tevarak-atrofni obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo'lishni, badiiy – ijodiy qobiliyatlarni his etish va tushunishni, aqliy qobiliyatlarni, idrokni, xarakatni, fikrlashni, fazoviy va vaqtinchalik tasavvurlarni rivojlantirishga yordam berib bu o'quvchilarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Terapiya, musiqa, obraz, emotsional, idrok, ritmik, badiiy, ijodiy, aqliy, nuqson, a'maliy, metodika, kognitiv, motorli, inklyuziv, o'yin, seans, qarsak, cholg'u.

Musiqa olamiga mehr qo'ygan deyarli har bir inson muayyan musiqa, qo'shiq aytish, improvizatsiya o'ynash orqali terapiya bilan muloqot qilishi mumkin va bu musiqa terapiyasidan foyda olish uchun etarli va bu boshqa psixologik davolanish kabi terapevtik jarayondir, lekin uning kuchi va afzalligi. Bu davolash uchun musiqadan foydalanish mexanizmi va bu dori tabletkalari uchun kerak bo'lgan jismoniy davolanish emas, balki davolanish psixologik, ma'naviy va jismoniy o'rtasidagi bog'liqlikdir va ruh va tana o'rtasidagi aloqa va to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishga ishonadigan kishiga albatta foyda keltiradi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapti. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarni shakllantirishda, shu bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda ta'limning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari

to'g'risida"gi Qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari ichida birinchilardan bo'lib "Nogironlarning ijtimoiy himoyasi haqida"gi nogironlarning huquqlarini o'z ichiga olgan huquqiy baza yaratildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son farmoni qabul qilindi⁷¹. Farmonga ko'ra, zamonaviy tibbiyot va ilm-fanning ilg'or yutuqlari, diagnostika, davolash va rehabilitatsiyaning sifat standartlari asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, sog'lomlashtirish xususiyatidagi chora-tadbirlarni yaxshilash, sog'lom va faol turmush tarzini olib borish madaniyatini targ'ib qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi, shu jumladan nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini ko'llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish vazifasi alohida belgilab qo'yildi.

Inklyuziv ta'limda musiqa va xarakter terapiyasi orqali nogiron o'quvchilarning kognitiv va motorli konikmalarini rivojlantirish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni (psixologik, ijodiy, jismoniy, funksional) tayyorgarligini oshirish uchun musiqa va xarakter terapiyasi mexanizmidan foydalanib davolash seansi maqsad qilib qo'yilgan.

Tevarak-atrofnii obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo'lishni, badiiy – ijodiy qobiliyatlarni his etish va tushunishni, aqliy qobiliyatlarni, idrokni, xarakterni, fikrlashni, fazoviy va vaqtinchalik tasavvurlarni rivojlantirishga yordam berib, mayda mushaklarning rivojlanishi, sezgi, qo'l harakati va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni rag'batlantiradi. "Musiqaviy terapiyasi" yaratish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni tayyorlash monitoringi uchun kompyuter dasturi ishlab chiqiladi. Mashg'ulot faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi model va metodik usullar, raqs, o'yinlariga mos ravishda harakatlari yaratilib bevosita bolalarning o'yin faoliyatiga olib kiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarning funksional va jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi harakat testlar batareyasi taklif etiladi.

Jismoniy mashqlarni bajarishda imkoniyati cheklangan bolalarning harakat qobiliyatlarini baholash va namoyish etish holati monitoringi o'tkaziladi. Kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar; nutqida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (logopatlar); intellektual rivojlanishida og'ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif insonlar); psixik rivojlanishida kompleksli buzilishlar kuzatiluvchilar (ko'r hamda kar-soqov insonlar, ko'r hamda aqli zaif insonlar va boshqalar); tayanch apparat tizimida kasalliklari mavjud; Psixopat xulqli insonlar kiradi. Bundan tashqari shunday qatlami borki, ular o'rta ta'lim,

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.12.2017 yildagi PF-5270-son qarori .Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishchora-tadbirlari to'g'risida.

maktabgacha ta'lim muassasalariga boradilar. Salbiy ijtimoiy omillar va ayniqsa shaxslararo munosabatlar ta'sirida diskomfort holatini boshdan kechiradilar, ushbu holat ularning ulg'ayishi bilan oshib boradi. Keyinchalik psixoharoratlovchi ta'sirga ega bo'ladi. Shunga muvofiq, bunday insonlarga jamiyatda moslashishi uchun alohida yordam kerak bo'ladi. Mazkur zaruratdan kelib chiqib, nogiron va jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarning kompleks tayyorgarligini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Bunday ijtimoiy yordam yo'nalishlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy reabilitasiya hisoblanadi. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy reabilitasiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir.

Uning asosiy vazifasi - maxsus tashkil etilgan suhbat vositasida shaxsning ijtimoiy statusini tiklash, uning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini ta'minlashdir.

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- Olam, tevarak-atrof bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Bolada badiiy – ijodiy qobiliyatlarni cheklanganligi;
- Bolada музыкавий қобилиятини etishmovchiligi
- Musiqaviy-ritmik malakalarini kamligi
- Музыка-товуш материални ажрата olmasligi
- Bir qator madaniy qadriyatlarining yetishib bo'lmazligi muammosi;
- Elementarta'limni ololmaslik. Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir;
- Qobiliyat va iste'dodni namoyon qilishni chegaralanganligi. Nogiron bola tengdoshi kabi qobiliyatli iste'dodli bo'lishi mumkin, biroq o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, aniqlash va ular orqali jamiyatga foyda keltirishi uchun unga imkoniyatlarning teng emasligi to'sqinlik qiladi.

Amerika musiqa terapiyasi assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, musiqa terapiyasi - bu akkreditatsiyadan o'tgan musiqa terapiyasi. Mutaxassislar tomonidan terapevtik munosabatlar orqali individual maqsadlarga erishish uchun musiqa yuqori qon bosimi kabi kasalliklarni davolash uchun qo'shimcha usul qo'llanilishi sifatida qo'llanilishi va uning samaradorligi bu sohada isbotlangan, chunki bu musiqaning ayrim turlariga ijobiy javob bergan. Bu borada bir necha davrlardan beri olimlar, tibbiyot xodimlari, defektolog va psixologlar tinimsiz izlanish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Jumladan rus olimlari L. S. Vigotskiy, L.V. Zankov respublikamiz olimlaridan F.Shoumarov, K.Mamedov, P.Pulatovalar ishlarini ko'rsatish mumkin. Imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarni o'quvchilarida psixologik tayyorlash, atrofdagi voqelik to'g'risida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilimlarni shakllantiriladi. Musiqiy va jismoniy

tarbiya jarayonining o‘zi nuqsonli analizatorlar funksiyalarini tiklashni ma’lum bir nuqsonni hisobga olgan holda kognitiv va motorika harakati tanqisligini to‘ldirish.

1. Axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish.
2. Tevarak-atrofnii obrazli – emotsional idrok etishni, musiqaviy-ritmik malakalarga ega bo‘ldirish.
3. Badiiy – ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
4. Sezgi, qo‘l harakati va nutq o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirish.
5. Musiqa va xarakat terapiyasi” yaratish loyihasida imkoniyati cheklangan bolalarni tayyorlash monitoringi uchun kompyuter dasturi ishlab chiqish.

Inklyuziv ta’lim-imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta’lim turini tanlash lozim. Bu muolajalar o‘tkazilgan bir qancha tadqiqotlardan so‘ng rivojlangan bo‘lib, uning mavjudligi asosan Ikkinchi jahon urushidan so‘ng paydo bo‘lib, urushdan keyin askarlarda og‘riq va ruhiy jarohat qoldirgan. Unga oddiy tibbiyot yetib kelgan. Musiqaning asab tizimiga ta’siri amalda isbotlangan. Uning miyaga ta’siri nuqtai nazaridan, og‘riqni engillashtiradigan ma’lum gormonlar ishlab chiqarish orqali tanaga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Psixologik va aksincha, jismoniy ta’sir o‘rtasida ajralmas bog‘liqlik mavjud. Psixoterapiya davolashning bir qismidir. keng qamrovli.

Evropada musiqa terapiyasi taxminan 50 yil davomida mavjud bo‘lib, universitet va kollejlarda o‘qitiladi, bizning mamlakatimizda bu soha taxminan 15-20 yildan beri mavjud.

Zeroki, F. G. Kumbs ta’kidlaganidek: “ta’lim tizimi va jamiyat oldida turgan eng katta qiyinchiliklardan biri, uning asosiy maqsadlari va birinchi navbatdagi vazifalarini aniq, tushunarli va yaxshi o‘ylab olingan shaklda aniqlab olish”, deb bejiz aytmagan. Ta’lim va tarbiya ishida asosiy e’tibor tafakkurning rivojlantirilishiga qaratiladi. P. P. Blonskiyning tushuntirishicha, “Bola rivojlanib boruvchi mavjudot bo‘lib, tarbiya rivojlanish demakdir. Rivojlanish – bu yakuniy maqsad va nuqtaga ega bo‘lgan aniq jarayon. Tarbiyaning maqsadi - bolaning fikrlarini rivojlantirish, yakuniy nuqtasi esa – uning shaxsan anglashi”.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda barcha uchun ta’lim olish imkoniyati mavjuddir. Shunday bolalar borki ularning jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramay iste’dodli, qobilyatli, aqliy salohiyati e’tiborga loyiqdir. Shuning uchun kelajagiga befarq qaramaslik, ularni jamiyatimizga munosib farzandlar qilib tarbiyalash biz pedagoglarning sharaflii vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari

bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013

4. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. - М.: Мозаика-Синтез, 2011. - 144 с.

5. D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014

OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZINI YARATISH OMILLARI

Kenjayeva Soxiba Toxirjanovna

Sirdaryo tumani, 17-Umumiy o'rta ta'lim maktabi Amaliyotchi psixologi

Kalit so'zlar: Bolalar, oila, tarbiya, sog'lom turmush tarzi

Ключевые слова: Дети, семья, воспитание, здоровый образ жизни.

Key words: Children, family, education

Annotatsiya. Jahon xalqlari, yurtimizga tashrif buyurgan chet ellik mehmonlar O'zbekiston nomini eshitganda, avvalo, buyuk allomalar, olim-u fuzalolar yurti, ilm-fan rivojlangan ma'rifat va madaniyat o'chog'i, bo'lgan mamlakatni ko'z oldiga keltirishini, yuksak muvaffaqiyatlarimizni bot-bot e'tirof etishadi.

Bugun yoshlar qo'lga kiritayotgan g'alabalar ham hamdo'stlik mamlakatlari tomonidan katta olqish bilan qarshilanmoqda. Hozirgi davrda yoshlarni uzoq tarixga ega bo'lgan madaniyatimizni yuksaltirishda ham oiladagi sog'lom turmush tarzi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mana shularni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiradi va bu oiladagi sog'lom muhitni belgilaydi. "Sog'lom tanda sog' aql" degan xalqimizning ulug' bir naqli bor. Har bir odam sog'lom bo'lsagina yaxshi mehnat qilishi, ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi, egan luqmasi taniga singishi, tiniqib, uxlay olishini bilsa-da, o'sha sog' holatni saqlash, ham vujudga, ham aqlga, ham ruhga o'z vaqtida madad berib turish kerakligini, bu faqat o'zimizning manfaatimizga aloqadorligini ba'zan unitib ham qo'yamiz.

Bugungi kunda salomatlik har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, sog'lom va uzoq umr ko'rish insoniyatning azaliy orzusi hisoblanib kelingan. Shu nuqtai nazardan har qanday jamiyatning oldida turgan asosiy vazifa insoniyatning ana shu orzusini ro'yobga chiqarishdan ya'ni, kishilar sog'ligi va uzoq

umr ko‘rishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat hisoblangan.

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, kishilik jamiyatining turli davrlarida sog‘liq masalasi turlicha hal qilingan. Ijtimoiy formatsiyalar rivojlangan sayin sog‘liq xususiylikdan umumiylikka, tor doiradagi guruhlar manfaatidan umuminsoniy manfaatlar darajasiga ko‘tarilgan. Lekin hamma davrlarda ham sog‘lom turmush tarzi sog‘liqni saqlashning asosiy talablaridan hisoblanmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, salomatlik tushunchasi turli davrlarda turlicha ta’riflashga harakat qilinganligi kuzatiladi. Inson mustahkam salomatlikka ega bo‘lgandagina baxtli yashashi mumkin. Shunday ekan, salomatlik – mavjud barcha qadriyatlar orasida eng oliysi sifatida qadrlanmog‘i lozim. Buning uchun har bir inson mustahkam salomatlikka erishish yo‘lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to‘laqonli salomatlikni saqlashning yagona yo‘li - sog‘lom turmush tarzi ekanligini anglab etishi lozim. Shunga ko‘ra, har bir jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog‘lom va ma’naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishiga keng jalb etilishini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islo hatchilik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni tasavvur qilish tushunilgan. Bu atama eng avvalo, sog‘liqni saqlash xodimlari faoliyati bilan bog‘liq tarzda tushuntirilgan. Ammo, sog‘lom turmush tarzining shakllanishida - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odammiki, unga bog‘liq bo‘lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o‘rganuvchi fan bo‘lmish psixologiyaning unga aloqasi borligi ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlar tushunchasi mavjud bo‘lganligi tufayli sog‘lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in’ikosi sifatida qaraladi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘ligimizni ta’minlash va bunga erishish uchun sog‘lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning va psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Manbalarda qayd etilishicha, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlar – bu kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etish, salomatlikni saqlash va uni mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi bo‘lib, shu turmush tarzining qanday bo‘lishi, o‘z hayotini qay yusunda va shaklda tashkil etishga bog‘liq hisoblanadi, buning uchun esa har bir inson sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va tasavvurlariga, ma’naviyatiga, dunyoqarashiga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu o‘rinda shaxsning o‘z salomatligiga bo‘lgan munosabati muhim komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, mazkur masala jamiyat o‘z kuchi bilan salomatlik muammolarini hal etishga ojiz ekanini anglay boshlashi natijasida vujudga keladi. Shundan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, “Xavf-xatar omillari” kasallik va o‘lim bilan bog‘liq bo‘ladi, demakki uni o‘rganish va baholash ham psixologiyaga ham tibbiyotga dahldordir.

Shu ma’noda, psixologiya aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi

tasavvurlarning shakllanishida inson fe'li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o'rganganda: u asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o'zimizni sog'-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o'z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo'limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi - har birimizga o'z ruhiy holatimizni boshqarishda, ongu-shuurimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni vaqtida ilg'ash orqali uni mo'tadil tutish, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo'llarini, profilaktikani o'rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga kirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y.
6. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982y.
7. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y.
8. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
6. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y. - Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y.

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA KISHILIK OLMOSHLARINI O'RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Ahmadqulova Gulnoza Ubaydulla qizi

Guliston shahar 11-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

+998972474725

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida kishilik olmoshlarini o'rgatishda “Charxpalak”, “T” chizma metodlarini qo'llash imkoniyatlari hamda interfaol metodlar asosida darslar tashkil etish samarasi haqidagi xulosalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, interfaol metodlar, kishilik olmoshlari, “Charxpalak”, “T” chizma metodlari.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim-tarbiya tizimi takomillashtirildi, o'qitish va tarbiyalashning yangicha usullari, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalari joriy etildi. “Ta'lim texnologiyasi”, “Innovatsion texnologiyalar”, “Interfaol metodlar” kabi tushunchalar kiritildi. “Innovatsion texnologiyalar”, “Interfaol metodlar” o'quvchilarni mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashga, izlanishga, mas'uliyatni his etishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga, dunyoqarashini kengayishiga va fikrlash qobiliyatini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Ingliz tili darslarida ham interfaol usullardan foydalanish o'z samarasini bermoqda. Quyida kishilik olmoshlarini o'rgatishda interfaol metodlardan

foydalanish yo‘llarini tahlil etmoqchimiz.

“Charxpalak” texnologiyasi butun darsda o‘tkaziladigan jarayon bo‘lib, u yangi mavzuni o‘tishda qulay texnologiya hisoblanadi. Bunda guruhlardagi ishtirokchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan tarqatmadagi ma’lum savolga javob berib, qog‘ozga o‘z belgilarini qo‘yishadi. Savollar varag‘i qo‘shni guruhdagi o‘quvchilarga o‘z belgisini qo‘yish uchun yuboriladi. Shu tariqa bu savollar varag‘i butun sinfni charxpalak aylanmasi yo‘nalishida aylanib, so‘ngra 1-o‘quvchiga qaytib keladi. U o‘quvchi o‘zining bergan javobini qo‘ygan belgisiga qarab topadi va o‘rtoqlarining javoblari bilan taqqoslaydi. Shundan so‘ng o‘quvchi o‘z qat’iy javobiga o‘zgartirish kiritishi mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri javoblar o‘qiladi yoki, ekran orqali namoyish etiladi. O‘quvchi ishi shu tariqa tekshirib baholanadi. Bu texnologiyaning faqatgina baholash jarayonini ham olib, darsning o‘tgan mavzuni takrorlash yoki, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichlarida qo‘llash mumkin. Masalan:

Sentences	Singular	Plural
We come to school		+
I study in the 5 th grade	+	
They go on a journey		+

Bu metoddan quyidagicha foydalanish imkoniyatini ham ko‘rishimiz mumkin.

Sentences	Persons		
	1st person	2nd person	3rd person
You are an excellent student		+	
We live in a family of 3 people	+		
They became members of the club			+

“T” chizmasi. Bu metod chizmasi T harfi ko‘rinishida bo‘lib, “Ikki yoqlama kundalik” deb ham ataladi. Chizmaning 2 tomonida o‘qituvchi topshirig‘i bilan umuman bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda bo‘lgan ma’lumotlar yoziladi. Masalan:

Singular	Plural
I	We
You	You
He/ she/ it	They

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga kishilik olmoshlarini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Darslar jarayonida zamonaviy usullar va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim:

- O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.
- O‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi-o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi.
- O‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft,

guruh, katta guruhlar).

- O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.

- O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.

- Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

- Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kishilik olmoshlarini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish orqali bilim, ko'nikma, malakalar shakllantirilib, kompetensiyalar hosil qilinishiga omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T. 2004.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T. 2006.
3. S.Xan, L.Jo'rayev, K. Inogamova- Kids' English 3 Teacher's book. Tashkent "O'zbekiston" 2015.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ELEKTRON DARSLIKlardan FOYDALANISH

Tursunqulova Sanobar Karimovna, Asrorova Asaloy Isakovna
Sardoba tumani 11- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari, bugungi kunda ta'limda, Ona tili ta'limini audio, video va multimediali vositalar yordamida amalga oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish innovatsion faoliyatlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: audio, video, multimedia, videomagnitafon, videokamera, tovush; musiqa, animatsiya, multiplikatsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli



Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Ilm-fan,




texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa, "...boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari" bugungi kunda boshlag'ng'ich tizimida, ayniqsa ona tili ta'limida dolzarflik kasb etmoqda. Ona tili ta'limini audio, video va multimediali vositalar yordamida amalga oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish innovatsion faoliyatlaridan biri sanaladi.

Multimedia vositasining bir qancha ha ta'riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, multimedia - (inglizcha-yunoncha multimedia - o'rta vositalar) bu –axborot informasiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo'lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo'ladi. Multimediyaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizimga, videomagnitafon va videokameralarni ko'rish imkoniyatiga, tasvirni ushlab va axborotlarni rangli grafika, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar kabi turli ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyatidir.

Multimedia texnologiyasi – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animasiya

(obyektlarning fazodagi harakati) samaralari asosida o'quv materiallarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishning mo'ljallangan ko'rinishidagi texnologiyasidir. Multimedia – bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish. Multimedia vositalari – bu apparat va dasturlar to'plami bo'lib, u insonga o'zi uchun tabiiy bo'lgan turli tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va shu kabilarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish. Multimedia foydalanuvchiga fantastik dunyoni (virtual haqiqiy) yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi



rolini bajarmasdan, balki u yerda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda — birinchi navbatda, tovushli va videobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi. Multimedia vositalariga quyidagilar kiradi: ma’lumotlarni audio — (nutqli) va videokiritish va chiqarish qurilmalari; yuqori sifatli tovushli (sound) va video — (video) platalar, videoqamrash platalari (video grabber), ular video magnitofondan yoki video kameradan tasvirini oladi. Yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta videoekranli akustik va videoqabul qiladigan tizimlar, hozirdayoq keng tarqalgan skanerlar (chunki ular kompyuterga bosma matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkonini beradi.



Video—(lot.Video-qarayman,-ko‘ryapman) qo‘shma so‘zlar tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zlarga tasvir etuvchi videosignallar, elektr signallariga aloqadorlik ma‘nosi ifodasini beradi. Shu bilan bir qatorda tasvir uzatish tizimi videotelefondan foydalaniladigan tizim va qurilmalarga ham aloqadorlikni anglatadi. Multimediali kompyuter o‘yinlarining o‘quvchilarni qiziquvchanlik

xususiyatlarini oshirishi quyidagilar asosida shakllanadi:

-ekranda ko‘rsatiladigan o‘yin obyektlariga animatsiya obyekti berilgan bo‘ladi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turadi;

- tovush;
- musiqa;
- animatsiya;
- multiplikatsiya va boshq.

O‘quvchi kompyuterli o‘yinga kirishishdan oldin

obyektni boshdan oyoq yaxshilab ko‘zdan kechirishi va uning o‘ziga xos belgilarini eslab qolishi kerak, so‘ngra ikkinchi bir obyektga taqqoslashi lozim. Multimediali kompyuter o‘yinlatidan namunalar:

“Davom ettiring!” o‘yini. So‘zlarning so‘nggi bo‘g‘inidan boshlanadigan so‘zlar hosil qiling.

“Ortiqchasini top!” o‘yini. So‘zlar qatorida umumiy bo‘lmagan so‘zlarni husnixat asosida yozing.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ovozning jalb qilish xususiyatiga, ya’ni intonatsiyali, musiqail yoki hayajonli bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Jonli harakat odam, narsalar yoki predmetlarning xatti-harakatidan tashkil topadi. Undagi yagona talab-jonli harakatlarning tarbiyaviy va estetik xususiyatiga ega bo‘lishidir. Multimedia vositalaridan o‘qitish jarayonida foydalanish o‘qitish sifatini va samarasini oshiradi.



SAVOD O'RGATISHDA TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Nurova Salima Atakishiyevna, Aslanova Sayyora Nurullayevna
Guliston shahar 17-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Guliston shahar 6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bilim olishga qiziqтира olish, yaxshi tarbiyalay olish muhim. Buning uchun topishmoqlardan foydalanish o'rinlidir. Savod o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish eng yaxshi mashq turlaridan hisoblanadi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Topishmoq, zukko, bilimdon.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi

Savod o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish eng yaxshi mashq turlaridan hisoblanadi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Topishmoq janri xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar odatda, xalqning urf-odatları, ruhiyat hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Topishmoqlar narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi. Har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va «kim?», «nima?» so'roqlarida yashiringan javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Topishmoqlar mavzulari tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Ba'zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

«Suyamasang turolmas, sen minmasang yurolmas»,

«Sh»dan boshlanar oti,

Asal kabi sharbati.

Bilsang nomin ayt, Ali?

- Ha, bilaman -

Yashil to'nli bolalar,

Makonidir dalalar.

Chirsillaydi tishlasa,

Bo'lar osh bilan yesa.

«Qat-qat qatlama,

Aqling bo'lsa tashlama».

«Boshi taroq, dumi o'roq».

«Men yuraman, u qoladi».

«Bir parcha patir – olamga tatir».

«Ichi bo‘yoq

Sirti tayoq».

«Usti tosh, o‘sti tosh, o‘rtasida chandir bosh» kabi topishmoqlar shular jumlasidandir. Bolalarga topishmoqlarning javobini tasavvur qilishlari va topishlari oson bo‘lishlari uchun velosiped, shaftoli, turp, kitob, xo‘roz, iz, oy, qalam, toshbaqalarni rasmlari ham berilgan.

- * Tinmay o‘qisang agar
- * Ko‘p narsani o‘rgatar
- * Bilsang uka o‘ylab top
- * Bilim koni u (kitob)

Yungi igna,



Burni tugma.
Ko‘zi munchoq,



yumshoq.

Bargi

• Artsang ko‘zing chog‘latar, Yechintirsang yig‘latar (Piyoz)

- Uchib kelib bahorda ,uyg‘otadi nahorda (Qaldirg‘och)
- Kosaga shong‘ib chiqar,Og‘izga borib qaytar (qoshiq)
- Erta bahor kelguncha ,Dala-qirda yulduzcha (qirov)
- Bittadir uning tishi,Kesish,qirqishdir ishi (Pichoq)
- Birov kelganda darrov ,Ovoz beradi vov-vov (it)

Xulosa qilib aytganda topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o‘ziga xos mazmuni va ifoda shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o‘rgatadi, ularning fikrlar qobiliyatlarini o‘stiradi.

Savod o‘rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo‘ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.

4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014

5. Boshlang‘ich ta’lim dasturi. XTV 2017-yil , 3-iyun, 190-sonli buyrug‘i

6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

7. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. Toshkent, 2010. – 136 b.

OILAVIY AJRIMLARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA SALBIY TA'SIRI

Umatova Feruza Abdumuminovna
Guliston davlat uiversiteti, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: Oilaviy ajrimlar muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Insoniyat tarixi, nikoh-oila munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq ko'hna muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: oila, zamonaviy oila, ajralish, nikoh, er-xotin muammosi, oila psixologiyasi, farzand tarbiyasi, yolg'izlik.

Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat — Bosh Qomusimizda oila masalasiga alohida urg'u berilgani ham bejiz emas, albatta.

Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Ya'ni oila ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina, mustahkam bo'ladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta, qudratli bo'ladi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, barqaror oila aholi turmush farovonligining oshishi, xususan, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrimlar esa, aksincha, farzandlar tarbiyasi, oila a'zolari hayoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va xavf-xatarlarga sabab bo'ladi. Ajrashishlarning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid solishini e'tiborga olgan holda, ko'plab olimlar ajrashish xavfini orttiruvchi omillarni tadqiq etishga kirishgan.

Ajralish hozirgi zamon insoniylik jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet elda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, sotsiologlar, psixologlar, iqtisodchilar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi.

Davlatimiz Rahbari yarashtirish komissiyalari faoliyatining samarasizligini tanqid ostiga olib, 2020-yildan boshlab “Yilning namunali yosh oilasi” respublika tanlovini o'tkazishni, shuningdek, yosh oilalar o'rtasida ajrimlarning oldini olish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, “Oila” markazi, Respublika

Mahallalar kengashi, “Nuroni” faxriylaridan iborat *“Faxriylar ibрати” maslahat kengashi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishni taklif etdi. Shuningdek, “Bu kengash mahallalardagi yarashtirish komissiyalari hal qila olmayotgan muammoni sudga chiqarishdan oldin, yangi ta’sirchan bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi⁷²”*, deya vazifani aniq belgilab berdi.

Darhaqiqat, Mahalla fuqarolar yig‘ini Yarashtirish komissiyalari uzoq yillardan beri nizolarni murosasiz yo‘li bilan hal etish, ya’ni yarashtirish usuli asosida ishlab kelmoqda. Biroq bugunga kelib, yarashtirish amaliyotidagi **ba’zi yondashuvlar yetarlicha natija bermayapti**. Shu bois *ajrashish to‘g‘risidagi ish sudga taqdim etilayotganining shunchaki kuzatuvchisiga aylanmay* ish uslublarini yangilash, **innovatsion, kreativ uslublarni** tadqiq va tatbiq etish kerak.

Oilaviy ajrashishlarning sabablari yuzasidan o‘tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar muammo aksariyat hollarda ma’naviy daraja, psixologiya va tarbiyaga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy ma’nodan ishsizlik, migratsiya, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimining yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani kabi muammolar ham vaziyatni o‘nglashda to‘siq bo‘lyotganini ham unutmazlik kerak. Shu bois o‘sha *sabab va muammolarni bartaraf etishning chuqur ilmiy asoslangan usullarini yaratish va amaliyotga joriy etish ham kun tartibiga chiqishi kerak.*

Oila psixologiyasi, oilaga kirish, har bir oila a’zosi bilan *individual ish olib borish usullari, standartlari va etika qoidalari yuzasidan ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni joriy etish ham lozim.*

Nikoh yoshidagi yigit va qizlar bilan ishlovchi “Oila dorilfununi” va “Bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar innovatsion maktabi” samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish ustida ham jiddiy bosh qotirish zarur.

“Nikoh shartnomasi”ni, uchinchi shaxs aralashuvi bilan oila buziladigan bo‘lsa, qonun bo‘yicha javobgarlikka tortilishini tez-tez eslatib turish ham zarar qilmaydi. Chunki, ko‘pgina oilaviy ajrimlarga uchinchi shaxslar (ota-onalardan tortib, qo‘ni-qo‘shni, amma-xolalargacha...) sabab bo‘lmoqda.

Qiz bolani *kelin bo‘lib tushgan uyiga doimiy ro‘yxatga qo‘yish tartibini* belgilash yuzasidan tezroq takliflar ishlab chiqish hamon dolzarb bo‘lib turibdi. Shuningdek, ajrashish jarayonida *ayol va bolaning mulkka bo‘lgan huquqini himoyalash bo‘yicha qonunchilikka taklif berish, FHDYolarning nikohning huquqiy mas’uliyati va oqibatlari borasidagi targ‘ibotni kuchaytirishi kabi masalalar ham o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.*

Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida **48 734 ta** nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan. Har ming nafar aholiga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni – **1,4 promilleni** tashkil etgan.

Hududlar kesimida nikohdan ajralish holatlari soni: Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 2067 ta, Andijon viloyati – 5019 ta, Buxoro viloyati – 2561 ta, Jizzax viloyati – 1728 ta, Qashqadaryo viloyati – 3472 ta, Navoiy viloyati – 1430 ta,

⁷² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvdagi so‘zlagan nutqi.

Namangan viloyati – 4394 ta, Samarqand viloyati – 4907 ta, Surxondaryo viloyati – 2810 ta, Sirdaryo viloyati – 1764 ta, Toshkent viloyati – 5098 ta, Farg‘ona viloyati – 5445 ta, Xorazm viloyati – 2138 ta, Toshkent shahri – 5901 ta⁷³.

E’tibor qiling, ajralish tufayli noto‘liq oila vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto‘liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo‘lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy yo‘l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayollar, albatta, bularning barchasi asosan ajralish oqibatida yuzaga kelgan hamda noto‘liq oilalarda bo‘layotgani achinarli.

Zamonaviy oilalarga xos bo‘lgan yana bir ijtimoiy xususiyat oilaviy ajrimlar sonining sezilarli darajada ko‘payganligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda oilaviy ajrimlarning 90 foizga yaqini oila shakllanishining dastlabki birinchi yilida yosh er-xotinlarning oilaviy hayotga amaliy jihatdan tayyor emasliklari natijasida ro‘y bermoqda.

Har bir oila ijtimoiy tuzilma sifatida jamiyat oldida ma’lum bir funktsiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomondan, jamiyatning oilaga ta’siri, ikkinchi tomondan, oilaning umumiy ijtimoiy tuzilmadagi o‘rni hamda zimmasidagi ijtimoiy vazifalarni hisobga olish lozim.

Zamonaviy oilalarning o‘ziga xos asosiy jihatlari xususida so‘z yuritilganda muhim tavsiflarni yagona guruhda jamlashning aslo iloji yo‘q. Buning sababi oila va oilaviy munosabatlar mavzusida yaratilgan adabiyotlarda oilaga xos asosiy jihatlari borasida turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan: aksariyat manbalarda uy xo‘jaligini yuritish, naslni davom ettirish, farzandlarni tarbiyalash hamda oila a‘zolarining o‘zaro yordami kabilar hozirgi zamon oilasining muhim jihatlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa, U.M.Sverdlov, V.A.Resensov, V.P.Klyuchnikov va boshqalar sotsiolog olimlar esa naslni davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va uy xo‘jaligini yuritish oilaga xos asosiy jihatlari ekanligiga urg‘u berib o‘tadi.

O‘zbek oilashunos olimlaridan X.K.Karimov (1994), R.A.Samarov (1997), M.A.Utepbergenov (1999), R.X. Dushanov (2006), T.B.Norimbetov (2008) juftliklar o‘rtasidagi nizolar, ularning yuzaga kelish sabablari, nizoning tashabbuskori va nizoni bartaraf etuvchi omillar, o‘zbek, tojik, kirg‘iz, qoraqalpoq, qozoq oilalaridagi nizoning hissiy xarakteristikasi, er-xotinning o‘zaro psixofiziologik, etnopsixologik va hududiy xususiyatlari, tafovutlanishi o‘rganilgan.

O‘zbek oilasining hayoti, uning holatini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining mavjud bo‘lishiga qaramay, hozirgi davrda nikohdan tashqari munosabatlarni paydo bo‘lishi, uning oqibatlari kabi muammolar maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan. Bularning hammasi oila mustahkamligiga ta’sir etishi, oila institutining zaiflashtirib borishi, nikohdan tashqari munosabatlarni o‘sishi oqibatida jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan turli tanosil, shu jumladan OITS kabi kasalliklarning ko‘payishi hamda ularning inson salomatligiga, oila mustahkamligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Nikohdan tashqari munosabatlar oilaviy ajrimlar miqdorining keskin o‘sishi, bu esa otasiz yoki onasiz o‘sayotgan

⁷³ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/33756-o-zbekistonda-2022-yil-davomida-qancha-nikohdan-ajralish-holatlari-qayd-etildi>

bolalar sonining ortib borishi, oila institutini yanada zaiflashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan muammolar muntazam ilmiy, ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganib borilishining lozimligi, shuningdek, mazkur mavzuning naqadar dolzarb ekanligidan darak beradi. Shuning uchun ham, biz o'z oldimizga oila barqarorligiga nikohdan tashqari munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining "etti o'lchab bir kesishi" oilaning mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblangan.

Afsuski, ushbu oila qadriyatlarini ko'p hollarda arzimagan sabablar tufayli parchalanib ketayotganligi bugun hech kimga sir emas. Hozirgi vaqtda oiladagi ajrimlarning sabablari sifatida quyidagilar ko'roq ko'rsatiladi:

- Oila va oilaviy munosabatlar haqida bilimning yetishmasligi;
- Aroqxo'rlik va giyohvandlik;
- Yosh oila hayotiga ota-onalarning noo'rin aralashuvi;
- Befarzandlik;
- Nikohdan tashqari munosabatlar.

Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, ya'ni oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, ya'ni noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak.

Yoshlar oila atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan, "Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimalar qilishim kerak?" degan savollarni o'ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, o'ta jiddiy masala deb qarasa, oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir noxush holatlarning oldi olinadi.

Baxt qasrining poydevori chidam hamda mehnatdan bunyod bo'lishini yoshlarimiz yurakdan his etishlari zarur. Zero, o'z uyida baxtli bo'lgan insongina chinakam baxtiyordir Bizning eng katta najotimiz ilm olish, hayotimizga ma'rifatni singdirishdir.

Oiladagi ajrimlarga ham va jamiyatda uchrovchi boshqa illatlarni bartaraf etishda ham ilmning roli cheksiz. Hayotda yashashning asl mohiyatiga tushungan odam uchun to'yning qanaqa o'tishi-yu, mebelning qanaqasi kelgani muhim emas. Umruguzaronlikdan maqsad "odamlar ko'rib qo'ysin", deb yashash emas. Biz yo'lning boshidan adashib ketyapmiz, qorong'ulikka tobora kirib boryapmiz. Buning uchun bizga Prezident ta'rif bergandek "nur" kerak. Nur esa islomiy ma'rifatdadir.

Albatta, agar er va xotin bir haqiqatni anglab yetmasa, bunday axloq oilaga baxt olib kelmaydi. Ular bir-birini ardoqlash, hurmat qilish, uni tushunishga harakat qilish, og'rig'ini his qilish, uning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish; nafaqat o'z his-tuyg'ulari, qayg'usi haqida o'ylash, balki hamma narsani teng ko'rishni oilada o'zaro tushunishni ta'minlashi mumkin. Shundagina oilada totuvlik, o'zaro tushunish

bo'ladi.

Shuni aytish lozimki, jamiyatimizning kelajagi oilalarning mustahkamligiga bog'liq. Oila nikoh asosida vujudga keladigan maskan. Uni yuritishda ilohiy ta'limotlarga amal qilinadigan bo'lsa, u haqiqatda mustahkam va bardavom bo'ladi. Bu borada har birimiz bir yoqadan bosh chiqarib, oilalarning mustahkamligi, jamiyatimizning sog'lomligi hamda farzandlarimizning porloq kelajagi yo'lida o'stirayotgan o'g'il-qizlarimizga to'g'ri tarbiya berib bormog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvdagi so'zlagan nutqi.
2. H. Abdukarimov, Ya. Nurumbekova. Oila pedagogikasi G' O'quv – uslubiy majmua. – Guliston: 2017. – 84 bet.
3. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. Tuzuvchilar: N.A.Sog'inov, F.G'.Habibullaev. –T.,: 1996. –38 b.
4. Shoumarov Sh.B., Shoumarov G'.B. Muhabbat va oilaviy hayot. –T., —Ibn Sino, 1996. –96 b.
5. Shoumarov G'.B., Abdusamatov X.U. Nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi omillar/ Psixologiya. Buxoro, 2018.-№ 4(32). –B.34-38
6. Kovalev S.V. Psixologiya sovremennoy semi. –M., 1988.
7. L'vova A. I., Ryazanseva I. A. Psixologicheskie kartini izmeni, revnosti i razvoda //Semeynaya psixologiya i semeynaya terapiya. 2006. № 1. S. 109–113.
8. Utepbergenov M.A. Sosial'nie i etnopsixologicheskie osobennosti karakalpaxskoy sem'i. Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. – T., 1999. – 22 b.
8. www.psychomind.ru
9. www.stat.uz

SHAXSNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA MAKTAB, OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI

Axmadaliyeva Sadoqat Rafiqjon qizi

Guliston tumani 10-Umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda – maktabni oila bilan mustaxkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim – tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish, ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Kalit so'zlar: Bolalar, oila, tarbiya

Ключевые слова: дети, семья, воспитание.

Key words: Children, family, education

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan bilamizki, bola shaxsining tarbiyasi oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir deochasi bo‘lib, har tomonlama sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma’sul bo‘lgan g‘oyat muhim tarbiya o‘chog‘idir. Mamlakatimizda bolalar to‘g‘risida, onalar haqida g‘amho‘rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir ma’lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Oila a’zolarining ma’naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko‘rsatayotgan ko‘rinmas ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb – hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatlari kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga, oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To‘g‘ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning monolit birligiga, o‘zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muommalaridan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos ibtidoiy guruh bo‘lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi.

Ta’kidlaganimizdek, oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bog‘chalarga bayram, faqat oilada o‘sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o‘z tengqurlari ichida ko‘p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma’naviy g‘amho‘rligini, ko‘rsatayotgan tarbiyasini. Bog‘cha tarbiyasi bilan yoki aksincha, bog‘cha tarbiyasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo‘lmaydi. Faqat o‘zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

Lekin o‘zining xususiyatlari va takrorlanmas ta’siri bilan oila bola tarbiyasida muhim omilliligicha qoladi. Amaliyotda kuzatganimizdek bolada ota-onasining mehri, erkalashlari asosida ota-onalariga, qarindosh -urug‘lariga bo‘lgan hissiyotlari shakllanadi. Bolaning otasiga bo‘lgan hurmati onaning hurmatini joyiga qo‘yishda asos bo‘ladi. Onaga bo‘lgan mehr – muhabbat oqibat natijada o‘z oilasiga, xotini, farzandlariga bo‘lgan munosabatlarda o‘z aksini topadi.

Ikkinchi tomondan, bolalar ham o‘z ota-onalariga ta’sir ko‘rsatadilar. Oilaviy aloqalari oilaviy qiziqish, ma’naviy qoniqish hislarini takomillashiga sabab bo‘ladilar.

Ota-onalarning o‘ziga va bolalariga bo‘lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o‘zaro munosabatlari, do‘stona muhit, ishonch va o‘zaro bir – birlarini tushunish oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillardan biridir. Bunday birlikning ro‘yobga chiqishida, eng avvalo, ota-onalarning siyosiy ongliligi muhim rol o‘ynaydi. Chunki ota-onalarning

faolligi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda bolalar o'z ota-onalarining siyosiy va fuqarolik qiyofalariga qarab o'z xulq atvorini tartibga soladilar, zo'r atlarini joyiga qo'yadilar.

Bolalar ulg'aya boshlashi bilanoq o'z ota-onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimi bilan qiziqqa boshlaydilar. Shuning uchun ham ota-onalarning nimalarga qiziqishlarini, kimlar bilan safdosh ekanliklarini bolalar mumkin qadar ertaroq bilganlari ma'qul. Ota-ona qanday ishda bo'lmasin uni jiddiy, el hurmatiga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Bu borada oiladagi tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik ma'lum darajada maktabga yuklanadi. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalardan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya sardorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotning roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy, ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy-tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Ommaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, birinchidan, bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muammolardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. Ikkinchidan, ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yoru do'stlarining ma'naviy hayotlaridagi omillarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday toifa oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi – hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya .T.: Yangi asr avlodi. 2009y.
3. Vohidov. M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982y.
4. Davletshin. M. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. Karimova V. va boshq. Psixologiya. T.: A.Qodiriy nom. xalq merosi nash. 2002 y.
5. Jabborov A. Ma'naviyat psixologiyasi. Qarshi. Universitet. 2001 y.
6. Jabborov A. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. T.: Zarqalam. 2006 y. - Nishonova Z. va boshq. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T.: O'z. yozuv. uyush. nash. 2006 y.

SAVOD O'RGATISH DAVRIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Radjabova Nodira Xoldarovna, Nizamova Nodira Abdulkarimovna

Sardoba tumani 2-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi,

Sirdaryo tumani 19-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bilim olishga qiziqтира olish, yaxshi tarbiyalay olish muhimligi. Buning uchun ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'rinlidir. Ta'limiy o'yinlar bolalarni ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularni qiziqib o'zlashtirishlariga, ma'naviy barkamol bo'lishlarida ahamiyatli ekanligidan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: **Harfni esda saqlash, So'zni tez o'qish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-yil 11-may PF-134-sonli Farmoniga ko'ra xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlari belgilandi


Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bilim olishga qiziqтира olish, yaxshi tarbiyalay olish muhim. Buning uchun ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'rinlidir. Ta'limiy o'yinlar bolalarni ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlantirish bilan birga ularni qiziqib o'zlashtirishlariga, ma'naviy barkamol bo'lishlarida ahamiyatlidir.

«Harfni esda saqlash» o'yini

Bu o'yinning asosiy maqsadi o'quvchilarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, esda saqlab qolishga o'rgatish hisoblanadi. O'qituvchi o'yinning o'tkazilishi haqida tushuncha beradi va u oldingi darslarda o'rganilgan O, A, D, F harflari ishtirok etgan rasmlı kartochkalarini tarqatadi. O'zida esa O, A, D, F, harflari yozilgan kartochkalarini olib qoladi. O'quvchilarga olcha, olma, ot, anor, ari, archa, ayiq, delfin, daraxt, fil, fontan rasmlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchi stolga O harfli kartochkani qo'yadi. O'quvchilar shu harfga mos rasmlı kartochkani harf yoniga qo'yadilar va rasm nomini xor bo'lib aytadilar. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yin keyingi darslarda yangi o'tilgan harflar bilan o'tkaziladi. O'yinga yetti-sakkiz minut vaqt ketadi. O'yinni boshqa turli variantlarda ham o'tkazilishi mumkin. O'yin orqali o'quvchilar harflarni xotirasida yaxshi saqlab qoladi.

O'yinning boshqacha varianti

O'qituvchi o'quvchilarga istalgan harfni, masalan, A va O harflarini ko'rsatadi. O'quvchilarga unli harfga bog'lanadigan bo'g'in topib so'zlar tuzdiriladi. Bu ishlar og'zaki yoki yozma bajarilishi mumkin. Masalan:



«So'zni tez o'qish» o'yini

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarda so‘zlarni tez o‘qish ko‘nikmalari orttiriladi. O‘qituvchi so‘z yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Har bir o‘yin ishtirokchisi o‘ziga ajratilgan kartochkalarni olib, navbati bilan o‘qiydi. Agar o‘quvchi kartochkadagi so‘zni noto‘g‘ri o‘qisa, boshqa kartochka olmaydi. Qaysi o‘quvchi so‘zni to‘g‘ri o‘qisa, shu o‘quvchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi. Masalan, sinfda 24 ta o‘quvchi bo‘lsa shulardan birinchi kuni 12 nafar o‘quvchi qatnashadi, ya‘ni o‘qituvchi 12 o‘quvchiga kamida 24 ta kartochka tayyorlaydi.

Masalan:

Ona
Vatan

Non
Go‘zal

Nok
Maktab

Olim
Mana

Qaysi o‘quvchi so‘zlarni to‘g‘ri va tez o‘qiy olsa o‘sha rag‘batlantiriladi. So‘zlarni o‘qish uchun 6-8 daqiqa vaqt beriladi.

O‘yinning boshqacha varianti

O‘qituvchi bir necha: kabutar, lola, o‘rik, banan va boshqa bir qancha so‘zlarga oid rasmlarni tayyorlaydi. O‘qituvchi lola rasmini ko‘rsatadi. O‘tuvchilar qo‘llaridagi so‘zlar yozilgan kartochkalardan «lola» deb yozilgan kartochkani topib ko‘rsatadi.

Masalan:

Lola –

Kabutar –

O‘rik –

Banan –



Xulosa qilib aytganda savod o‘rgatish davrida ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning:

- bilim olishga qiziqishlarini oshiradi;
- ma‘naviy barkamol bo‘ladi;
- tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni tez o‘qishga o‘rganadi;
- hozirjavob, topqirlikka o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Gulomov, K. Tursunova, D. Po‘latova “Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish” Uslubiy qo‘llanma Toshkent “Turon Iqbol 2013.
2. G‘ulomov M. ”Husnixat” 1-sinflar uchun-T. :O‘zbekiston 2002.
3. G‘ulomov M. ”Husnixat”2-sinflar uchun-T. :Cho‘lpon 2003.
4. Munavvarxon Yo‘ldosheva. “O‘quvchi yozuvi nega xunuklashadi?” Ma‘rifat gazetasi 2018 yil

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI APPLIKATSIYA
ISHLASHGA O‘RGATISH**
Beknazarova Moxira Ergashevna, Usmanova Xulkar Sheraliyevna
Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 11- sonli DMT tarbiyachi metodisti,
Sirdaryo tumani 14-sonli DMT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida olib boriladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlarida bolalarning ijodiy faolligini oshirish, ularda malakalarni shakllantirish va applikatsiya mashg'ulotlarining mazmuni, bolalarni applikatsiya ishlashga o'rgatishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional, estetik, mahorat, ijodiy, kompozitsion mahorat, hamkorlik.

Mamlakatimizda amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning dastlabki va eng muhim jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ham aynan maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan mustaqil shaxs sifatida shakllantirish, ijodiy qaobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga tayyorgarligini ta'minlash va bu jarayonga bo'lgan ishtiyoqni tarbiyalashdan iborat.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi «Tasviriy faoliyat» mashg'ulotlarida turli usuldagi texnikalar hamda bolalar uchun qiziqarli bo'lgan turli badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallardan o'z o'rnida foydalanish applikatsiya mashg'ulotlarining mazmunini yanada boyitadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni applikatsiya ishlashga o'rgatish bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Applikatsiya ishlashning maqsadi:

Bolalarga applikatsiya ishlash usullarini o'rgatish, unda qo'llaniladigan materiallar bilan tanishtirish, turli shakllarni qirgish, ularni qog'ozda ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish, yopishtirish, obrazlarga xos syujet tanlay olishga o'rgatishdan iborat.

2. Applikasiya mashg'ulotlarida tarbiyachining vazifasi:

Geometrik shakllarni yopishtirish bo'yicha dekorativ tasvirlashga oid topshiriqlar uchun mos nom topish. Masalan, geometrik shakllardan xosil bo'ladigan predmet, buyumlar tasviri "O'zbekiston bayrog'i", "Televizor", "O'yinchoqlar bilan bezatilgan archa", (shakllar: dumaloq, oval, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak va h. k.), "Akvariumdagi baliqlar"(oval, tuximsimon), "Likopchada pechenyelar" (aylana) va h.k.

Bolalar ijodkorligi ularni o'rab turgan atrof-olamni, tabiatni uni beavosta qabul qilish (anglash, bilish) asosida, tabiatni estetik idrok etgan holda atrof-alam bilan tanishuv vaqtida tabiatning jonli, takrorlanmas lahzalari aks etgan tamonlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amirova G.A. Tabiatni estetik idrok etish. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘z PFITI –Toshkent.: 2013 - 160 bet.
2. R.Xasanov, X.Egamov «Tasviriy sa’at darslari» «O‘qituvchi».T.: 1995 yil.
3. Amirova. G.A. Maktabgacha ta’lim muassasalarida applikasiya mashg‘ulotlari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘z PFITI-Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2014.100.bet.

O‘QUVCHILARINI TA’LIMNING KEYINGI BOSQICHINI TO‘G‘RI TANLASHGA JALB QILISHNI TASHKIL ETISH

Umaraliyeva Shoira Raushanovna

Mirzaobod tumani 11-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *ushbu maqolada bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida ularning shaxsiy moyilliklari, qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini albatta hisobga olish borasida psixologik-pedagogik kasbiy tashxis o‘rni yo‘ritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktab bitiruvchilari, shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqish, psixologik-pedagogik kasbiy tashxis*

Maktab bitiruvchilarining oliy va kasb-hunar ta’limi muassasalariga qaysi yo‘nalishiga moyilligi aynan qanday shakl yo uslublarda o‘rganiladi. Bu borada milliy mintalitetdan kelib chiqqan holda aynan qiz bolalar uchun alohida qandaydir uslublar ishlab chiqilganmi.

O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish – ularni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashi muhimdir.

9-11-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan psixologik-pedagogik kasbiy tashxis jarayoni bosqichma-bosqich, uzluksiz amalga oshiriladi.

Psixologik tashxis usullari turli-tuman bo‘lib, kasbga yo‘naltirish amaliyotida kasbiy tashxis metodikalari va so‘rovnomalar o‘tkazilganidan keyin o‘quvchilar bilan kasb-hunarga yo‘naltirish treninglari, kasbiy maslahatlar va korreksion rivojlantiruvchi usullarda amalga oshiriladi. Mazkur usullar yordamida o‘quvchining qiziqish va qobiliyat yo‘nalishi aniqlangandan so‘ng, kasbiy maslahatning shakli, mazmuni va uni o‘tkazish tartibi belgilanadi hamda faol psixologik texnologiyalardan foydalaniladi.

Shunday faol texnologiyalardan biri «Munozarali suhbat» usuli bo‘lib, uni ham individual, ham guruhiy tartibda qo‘llash mumkin.

Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida qo‘llaniladigan faol psixologik texnologiyalar o‘quvchi shaxsiga shu jarayonning sub’ekti sifatida yondashadi hamda uning ongli va mustaqil kasb tanlashi uchun ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi. Bunday texnologiyalarga faol ijtimoiy psixologik o‘quvlar, psixologik treninglar, rolli, imitatsion, ish o‘yinlari, korreksion-rivojlantirish mashg‘ulotlari kiradi.

Bugunning dolzarb vazifalaridan biri umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini zamon talablariga moslashtirishdir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy vazifasi o'quvchilarni Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini zamon talablariga moslashtirishdir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy vazifasi o'quvchilarni Kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, o'smirlarni kasbni ongli ravishda erkin va mustaqil tanlashga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalashdan iborat.

O'quvchilarni Kasb-hunarga yo'naltirishni amaliyot bilan birgalikda olib borishi kerak. Ana shu vazifalarni bajarish uchun esa albatta maktablarda moddiy texnika bazalarini yaratish kerak. Kasbni to'g'ri tanlash insonning kelajagini hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Kasb-hunarga yo'naltirish xizmatining asosiy vazifasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularni Kasb-hunarga yo'naltirishga oq ko'ngillilik bilan yordam berishdan iborat. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarining psixologi bilan birgalikda har bir fan o'qituvchilarini o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularni Kasb-hunarga samarali yo'llab, to'g'ri maslahat bera olishi lozim.

Bu jarayonda asosiy mas'uliyat umumiy o'rta ta'lim maktablarining kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi zimmasiga tushadi, ular esa o'z navbatida barcha ta'sir etuvchi omillar faoliyatini muvofiqlashtirib boradilar. Maktabda rahbariyat, sinf rahbari, psixolog, texnologiya fani o'qituvchisi, fan o'qituvchilari, to'g'arak rahbari, kutubxona mudiri bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi, ular olib borayotgan ish natijalarini psixolog bilan birga muntazam kuzatib, tahlil qilib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasb-hunarga tayyorlash o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko'nikma va shaxs sifatlarining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, o'quv fanlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarga ijodiy yondashish, ta'lim jarayoni hamda kasbiy tarbiyani muammoli ta'lim asosida umumlashtirilishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tuman (shahar)larda 2010-2011 yillarda doimiy harakatdagi seminarlarni tashkil etish va seminar mashg'ulotlari bo'yicha tavsiyalar. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika Tashxis Markazi. Toshkent-2010 y.
2. Davletshin M.G., Do'stmuhammedova SH. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.- Toshkent, 2004 y.
3. To'laganova G. Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi.- T.: "Universitet", 2005y.

www.uzedu.uz

www.tashxis.uz

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ЛИДЕРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА УЛАРНИНГ ЁШИГА ХОС БЎЛГАН ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАР

Azizova Ziroat Bahodirovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Maqolada bola shaxsining liderlik salohiyatini rivojlantirishdagi dolzarb ehtiyojlar, uning ijtimoiy faolligini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

В статье предоставлена информация о текущих потребностях в разработке лидерских потенциал ребенка, его социальной деятельности и педагогические условия, которые помогают успешной реализации этого процесса.

Замонавий шароитида ҳар бир инсоннинг муваффақияти рақобат муҳитида ишлаш қобилиятига боғлиқ: бу инсондан ўзгаришларга тезкор муносабатда бўлиш, маълумотларни таҳлил қилиш ва воқеаларнинг келажакдаги ривожини башорат қилиш, тегишли қарорлар қабул қилиш ва уларга мувофиқ ҳаракат қилишни талаб этади. Ушбу кўрсаткичларга эришиш учун жтимоий фаоллик ва лидерликни ривожлантириш мактабгача ёшдан бошланиши керак. Айнан шу даврда келажакдаги шахснинг пойдевори кўйилади, одамларга турли хил муносабатлар, турли хил фаолият турлари инсоннинг ўзига нисбатан ривожланади. Шу сабабли замонавий педагогик амалиёт шахсга йўналтирилган таълимга асосланиши керак, унинг нуқтаи назаридан бола педагогик жараёнинг субъекти сифатида қаралади, бу ерда интеллектуал, ижтимоий учун мақбул шароитларни яратиш, ўсиб келаётган шахснинг ҳиссий ривожланиши га катта эътибор берилади. Бола фаолияти механизмларини ва болаларнинг лидерлик салоҳиятини ривожлантириш жараёнини ўрганиш шахс фаолиятини шакллантиришга, ҳозирги ва келажакдаги муҳитда ўзини ўзи англашга ёрдам берадиган самарали усул ва воситаларни топиш учун жуда муҳимдир.

Лидерлик мавзуси кўп асрлар давомида турли хил ёндашувлар вакилларининг эътиборини тортди. Конфуций, Аристотел, Афлотун, Н. Макиавелли, С. Монтеске, Г. Лебон, Г. Тарде, М. Вебер, Г. Лассуелл, Г. Моска, В. Pareto, З. Фрейд, Н. Михайловский ва бошқалар томонидан лидерлик салоҳиятини ривожлантириш ўрганилган, замонавий ғарб ижтимоий фанлар тадқиқотларида лидерлик муаммолари Р. Бо-гардус, Ж. Блондел, Б. Бассе, Д. Jennings, К. Levin, Р. Стогдилл, Р. Taker, С. Хук, А. Hermann ва бошқалар каби таниқли олимлар томонидан батафсил тақдим этилган. Мактабгача ёшдаги

болаларнинг лидерлик фазилатларини шакллантириш муаммолари Г. К. Ашин, И. В. Волков, И. Р. Колтунова, Л. И. Кравченко, Р. Л. Кричевский, Е. С. Кузмин, Б. Р. Паригин ва бошқалар тадқиқотларида ёритилган [1, п. 135].

Педагогик назария ва амалиётнинг мураккаб ва асосий муаммоларидан бири бу шахс ва унинг махсус ташкил этилган шароитда ривожланиши муаммосидир. Унинг турли жиҳатларини турли фанлар ўрганади: ёш физиологияси ва анатомияси, социология, болалар психологияси, педагогик психология ва бошқалар. Педагогика таълим ва тарбия жараёнида шахснинг баркамол ривожланиши учун энг самарали шарт-шароитларни ўрганади ва аниқлайди.

Биологик йўналиш вакиллари (В. Р. Алексеев, Л. С. Вигоцкий, А. Н. Леонтьев, З. Фрейд ва бошқалар.), инсонни соф табиий мавжудот деб ҳисоблаб, инсоннинг барча хатти-ҳаракатларини туғилишдан бошлаб унга хос бўлган эҳтиёжлар, драйвлар ва инстинктлар ҳаракати билан изоҳлайдилар (З. Фрейд). Социологик йўналиш вакиллари (В. Stern ва бошқ.) инсон биологик мавжудот сифатида туғилган бўлса-да, аммо ҳаёти давомида у мулоқот қиладиган ижтимоий гуруҳларнинг таъсири туфайли аста-секин ижтимоийлашади, деб ҳисоблайди. Шахснинг ривожланиш даражаси қанчалик паст бўлса, унинг биологик хусусиятлари шунчалик ёрқин ва ўткирроқ намоён бўлади, биринчи навбатда егалик, йўқ қилиш, жинсий ва ҳоказо инстинктлар.

Инсон тараққиёти жараёни ва натижалари учта умумий омил - ирсият, атроф-муҳит ва таълим-тарбиянинг биргаликдаги ҳаракати билан белгиланиши аниқланган. Замонавий илм-фан организмнинг хусусиятлари организмнинг хусусиятлари ҳақидаги барча маълумотларни сақлайдиган ва узатадиган ўзига хос ген кодида шифрланганлигини исботлади. Биологик, ижтимоий омиллар ирсиятдан ташқари, инсон ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатади, бунинг натижасида янги туғилган одам ота-оналар ва унинг атрофидагиларнинг ижтимоий-психологик тажрибасини фаол равишда ўзлаштиради.

Инсон фақат ижтимоийлашув, яъни шахслараро муносабатлар жараёнида шахсга айланади. Маънавий, ижтимоий ва ақлий ривожланиш инсоният жамиятидан ташқарида амалга оширилмайди. Ирсиятдан ташқари, шахснинг шаклланишига турли хил ташқи шароитлар, жумладан географик, ижтимоий, таълим ташкилотлари ва оила таъсир қилади. Ирсият ва атроф-муҳитнинг таъсири таълим-тарбия билан тузатилади, таълим шахсни шакллантиришнинг асосий усули ҳисобланади. Таълимнинг самарадорлиги мақсадли, тизимли ва малакали бошқарувга боғлиқ. Таълимнинг заифлиги жиҳати ҳам шундаки, у инсоннинг онгига асосланади ва унинг иштирокини талаб қилади, ирсият ва атроф-муҳит эса онгсиз равишда ҳаракат қилади. Бу шахсни шакллантиришда таълимнинг ўрни, ўрни ва имкониятларини белгилайди. (Пути формирования лидерских качеств детей старшего дошкольного возраста. Ноговицына Сардана Семеновна Журнал

Лидерликнинг фалсафий ва психологик таҳлилининг методологик асослари С.Л.Рубинштейннинг тадқиқот ишларида очиб берилган. Муаллиф одам ўз хатти-ҳаракатларини ўзи белгилайди, шу билан бирга ўзи ва бошқа одамлар учун масъулиятли бўлишлигини кўрсатиб берган.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, мактабгача ёшдаги болалик даврида лидерлик салоҳиятини ривожлантириш технологиясини уч босқич шаклида тақдим этиш мумкин:

- эҳтиёжли-мотивацион (тенгдошлар жамоасида фаолиятда муваффақиятга эришиш ва ўзини тасдиқлаш учун мотивация яратиш);
- операцион-фаолият (болаларни илмий-тадқиқот фаолиятига киритиш);
- ситуацион-хулқ-атвор (кундалик ҳаётда болаларнинг лидерлик салоҳиятини рўёбга чиқариш).

Ҳар бир босқичда болалар фаолиятини ташкил этиш сифати кейинги босқичнинг муваффақиятини белгилайди.

Болалар лидерлик хулқ-атвор кўникмаларини иккинчи-операцион-фаолият босқичида эгаллайдилар. Хулқ-атворнинг аффектив, ижтимоий ва когнитив жиҳатлари тадқиқот фаолиятида актуаллашади. Тадқиқот фаолиятининг ҳар бир босқичида лидерга хос бўлган қайси шахсий хусусиятлар талабга эга эканлигини ва натижада ривожланиб, аста-секин мустаҳкамланишини кўриб чиқайлик.

Фаолият фаол ва пассив бўлиши мумкин. Ҳатто энг кичик ёшдаги бола ҳам ўзини фаоллигини намоён қилади. У катталарга, тенгдошларга талаблар кўяди, одамларга, нарсаларга муносабатини билдиради [4, 68-бет]. Катта мактабгача ёшдаги боланинг лидерлик фазилатларини шакллантириш воситаларидан бири бу машғулотдир. Илм-фан асосида ижтимоий ишлаб чиқаришнинг ривожланишини етарли даражада билимга эга бўлган фаол одамларгина таъминлаши мумкин.

Шундай қилиб, шахсни ривожлантиришнинг барча омиллари ва лидерлик фазилатлари муайян ўзаро боғлиқлик. Уларнинг таъсири, баъзан қарама-қарши бўлиб, инсон шаклланиши ва ривожланишининг ташқи ва ички шароитларини ташкил қилади. Мактабгача катта ёшдаги болаларда лидерлик фазилатларини тарбиялаш муаммоси ҳам долзарбдир, чунки айнан шу даврда шахснинг шаклланиши содир бўлади. Боланинг атрофидаги одамлар билан қанчалик осон мулоқот қилиши, алоқа ўрнатиши, унинг лидерлик фазилатлари қанчалик яхши шаклланиши, кейинги таълим, меҳнат фаолияти, тақдири ва ҳаётдаги ўрни боғлиқ. Мактабгача ёшда мулоқот қоидалари ва меъёрлари ўрганилади, у ҳар доим ва ҳамма жойда, шароитлардан қатъи назар, амал қилади. Нутқ ва ифодали мулоқот компетенциясининг шаклланиши боланинг ҳаёти давомида бошқа одамлар орасида эркинлик ўлчови ва даражасини белгилайди.

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSLARIDA LABORATORIYA ISHINI TASHKIL ETISH ASOSIDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

*Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslari jarayonida laboratoriya ishlarini tashkil etish maqsadi va uni hayotiy kompetensiyalar shakllantirishdagi o'rnini darslikdagi misollar asosida o'tkazilgan laboratoriya ishlari namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fan, laboratoriya ishi, kompetensiya, interfaol metodlar, integratsiya, STEAM texnologiyasi.

Laboratoriya ishi-o'quvchilar fanni o'rganishning aniq usullarini o'zlashtiradigan, voqelikni tahlil qilishning eksperimental usullarini va zamonaviy asbob-uskunalar bilan ishlash qobiliyatini o'rganadigan darsdir.

Ushbu turdagi faoliyat o'z ichiga oladi laboratoriya ishlari kursning asosiy mavzulari bo'yicha ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: ishning maqsadi va vazifalari, topshiriqning matni, laboratoriya ishining algoritmi, lug'at (agar ish mavzusi talab qilsa), ishni bajarishda yordam beradigan adabiyotlar ro'yxati. Laboratoriya ustaxonasi sharoitida ishlash o'quvchilarning individual o'quv faoliyatini ham, tadqiqot guruhlari, observatoriya guruhlari ishini ham qamrab olishi mumkin, bu esa kengroq va maqsadli tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi. Tadqiqot guruhi o'quvchilarning mustaqil birlashmasi (3-5 kishi) bo'lib, u o'quvchilarning individual imtiyozlarini va muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini hisobga olish tamoyiliga asoslanadi.

Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlar darslari jarayonida tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlari sinfda yoki maktabning geografik maydonchasida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Har bir laboratoriya mashg'ulotiga maxsus tayyorgarlik ko'riladi, texnika havfsizlik qoidalari har bir dars jarayonida qayta tushuntiriladi.

Laboratoriya mashg'uloti o'tkazishdan oldin mavzuga oid laboratoriya mashg'ulotiga oid savol beriladi, o'quvchilar javoblari turlicha bo'lishi mumkin, uni laboratoriya ishi o'tkazilgandan keyin aniq faktga ega bo'ladilar.

1-sinfda "Hayvonlarning ahamiyatini o'rganamiz" mavzusini o'ranishda tuxumning eski yoki yangiligini quyidagicha aniqlashga yo'naltirilgan tajriba o'tkaziladi:

1.2 ta stakanga yarmigacha suv quyung.

2. Suv quyilgan stakanlarga bittadan tuxum soling.

3. Stakandagi tuxumlarning suvdagi joylashuvini kuzating



2-sinfda “Rangli eritma yordamida gulni bo‘yash” mavzusida quyidagicha tajriba o‘tkaziladi:

1. Oziq bo‘yoqlaridan ko‘k, qizil, yashil va sariq rangli eritma tayyorlang.
2. Oq gullarni idishdagi rangli suyuqlikka soling.
3. Vaqtni belgilang.
4. Gullarning bo‘yalishini kuzating.



3-sinfda “O‘simliklar xilma-xilligi” mavzusida quyidagicha tajriba o‘tkaziladi:

1. Elektr choynakda suv qaynating.
2. Yuvilgan qora rayhonning poya va bargini idishga solib, ustiga qaynoq suv quyning.
3. Idish og‘zini yopib suv siyohrang tusga kirguncha 20 minut damlab qo‘ying. Qaynoq suvdan foydalanganda ehtiyot bo‘ling.
4. Tayyor sharbatni elakcha yordamida barglardan ajrating.
5. Sharbatga shakar va siqilgan limon suvini qo‘shing.
6. Sharbat rangining o‘zgarishini kuzating.
7. Tayyor sharbatni tatib ko‘ring va ta‘mini aniqlang.



Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich ta‘lim tabiiy fanlar darslarida tajriba o‘tkazish orqali quyidagilarga erishishimiz mumkin:

- Fanni chuqur o‘rganishga yordam beradi.
- Muammoni hal qilish orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi.
- O‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi.
- Nazariy olgan bilimni real hayotda qo‘llashga o‘rgatadi.

Bular bilan bir qatorda STEAM texnologiyasi asosida integratsiya jarayonini ham yuzaga keltirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
2. K.T. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar 2 Metodik qo‘llanma: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. K. Suyarov [va boshq.]. Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. Z. B. Sangirova [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3-sinfi uchun darslik – Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022
5. Z. B. Sangirova [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3, O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma – Toshkent, Respublika ta’lim markazi, 2022

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Mamatkulova Nigora Sherbekovna

*Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasida katta
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida XXI asr ko‘nikmalarini ko‘nikmalarini shakllantirish haqida ko‘rsatma berilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat, topishmoq ijodiy faoliyat, savodxonlik, ijodiy fikr, ijodkorlik, grammatik, tizimlilik.

Аннотация: В данной статье даны указания по формированию навыков 21 века на уроках родного языка и грамотности чтения.

Ключевые слова: рассказ, стихотворение, сказка, притча, пословица, эпос, повествование, загадка творческая деятельность, грамотность, творческая мысль, креативность, грамматичность, систематичность.

Annotation: In this article, instructions are given on the formation of the skills of the 21st century in the lessons of the mother tongue and reading literacy.

Keywords: story, poem, fairy tale, parable, proverb, epic, narration, riddle creative activity, literacy, creative thought, creativity, matikmatics, systematics.

Bugungi Milliy o‘quv dasturi va ta’lim tizimi o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab

olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Boshlangich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o'rganiladi. Bulardan tashqari amaliy ilmiy-ommabop maqolalar ham o'qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik janrlari jixatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchi unga mos usul va jarayonlar tanlashni talab etadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Uzluksiz ta'limda ta'lim oluvchilarga belgilangan o'quv dasturlari asosida bilim berish va o'quv natijalarini baholashda Blum taksonomiyasi mezonlariga asoslaniladi.

Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

Blum moychechagi

MAVZU: Kenja o'g'il (O'zbek xalq ertagi) (2-sinf)

1.Oddiy savollar Kim? Nima? Qachon? Qayer? Qanday?

2.Aniqlashtiruvchi savollar “Sizning aytishingizcha,...”, ”Agar sizni to'g'ri tushungan bo'lsam,...”, ”Balkim adashayotgandirman, ammo siz...dedingiz”.

3.Tushuntiruvchi savollar “Nima uchun...bo'ldi?”

4.Ijodiy savollar “Agar...bo'lsa. nima qilar edi?” “Siz nima deb o'ylaysiz...bo'lsa nima bo'ladi?”

5.Baholovchi savollar “Nima uchun bu salbiy, bu ijobiy?”, ”Bu narsa bunisidan nimasi bilan farq qiladi?”

6.Amaliy savollar “Buni qanday qo'llash mumkin?”, ”Bunday hollarda nima qilish mumkin?”

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish

shakli bir xil soʻz va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining taʼsirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar koʻpincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi boʻlgan yovuz, baxil, ochkoʻz obrazlar boʻladi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni oʻqishgagina emas, balki uni aytib berishga oʻrgatish ham muhimdir. Ertak aytish ogʻzaki nutqni oʻstiradi, bolalar nutqini yangi soʻz va iboralar bilan boyitadi.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan gʻoyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yoʻli bilan bogʻlanishli nutqni oʻstirish, nutqning taʼsirchanligini oshirish lozim.

Masalan, Kenja oʻgʻil (Oʻzbek xalq ertagi) (2-sinf)

Oʻquvchilar murakkabroq savollarga oʻtishlaridan avval ularga bir yoki ikkita osonroq savollar beriladi.

Oddiy savollar Kim? Nima? Qachon? Qayer? Qanday?

Mazkur savollar nisbatan murakkab boʻlmagan savollar hisoblanib, oʻquvchilarni matn bilan ishlashiga imkon beradi. Savollar matnning asosiy gʻoyasiga yoki matnning boshlanish qismida berilgan asosiy maʼlumotga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak.

1.Ota oʻgʻillariga nima deb vazifa beribdi. Buni tasdiqlovchi gapni matndan toping va yozing.

Oʻgʻillar otaning vazifasini qanday bajarishdi, ikki xil koʻrinishda yozing.

Aniqlashtiruvchi savollar “Sizning aytishingizcha,...”, ”Agar sizni toʻgʻri tushungan boʻlsam,...”, ”Balkim adashayotgandirman, ammo siz...dedingiz”.

2.Ushbu ertakning asosiy gʻoyasi nima? Har bir shahardan doʻst orttirish

Tushuntiruvchi savollar “Nima uchun...boʻldi?”

Ertakdagi voqealarni toʻgʻri ketma-ketlikda joylashtiring. Birinchisi siz uchun bajarilgan.

_____ Kenja oʻgʻil har bir shahardan doʻstlar orttirdi.

_____ Toʻngʻich oʻgʻli Fargʻona vodiysida uy soldi.

__1__ Chol oʻgʻillarini yigʻdi.

_____ Oʻrtancha oʻgʻil Buxoro, Samarqand tomonlarga, qoʻrgʻonlar qurdiribdi

Ijodiy savollar “Agar...boʻlsa.nima qilar edi?” “Siz nima deb oʻylaysiz...boʻlsa nima boʻladi?”

Ertak gʻoyasiga mos xulosa esa Har bir shahardan doʻst orttirish.

Baholovchi savollar “Nima uchun bu salbiy, bu ijobiy?”, ”Bu narsa bunisidan nimasi bilan farq qiladi?”

Ertakdagi qahramonlarga salbiy va ijobiy baho berishadi.

Amaliy savollar “Buni qanday qoʻllash mumkin?”, ”Bunday hollarda nima qilish mumkin?”

Savollarning javobi matnda berilgan maʼlumotlar ketma-ketligida boʻlishi kerak. Bu ayniqsa maʼlumotlarni topish va toʻgʻri xulosa chiqarish koʻnikmasini baholovchi savollarni tuzishda qoʻl keladi. Ammo, buni boshqa savollarga ham qoʻllash mumkin. Oʻquvchilar matndan savollarga toʻgʻri javobni topa olishlari

uchun ko'p vaqtlarini sarflab yubormasligi lozim.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mublag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
- 2.Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. "Ta'lim texnologiyalari"

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AJDODLAR MEROSLARINI O'RGANISH ASOSIDA MILLIY G'URURNI TARBIYALASH

Rasulova Tursunoy

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 23-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, +99890 152 6015

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida ajdodlar merosini o'rganish asosida milliy g'ururni shakllantirish imkoniyatlarini dars jarayonida darsdan tashqari tadbirlarda o'tkazish bo'yicha amaliy ishlardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, ajdodlar merosi, geometrik shakllar, tarbiya, milliy g'urur.

Boshlang'ich sinflarda vatanimiz tarixi, ajdodlar merosini o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir. Darhaqiqat, o'z vatani tarixini, uning ajdodlari qoldirgan merosni o'rganmasdan, u bilan g'ururlanish hissini tuymasdan milliy o'zlikni anglab bo'lmaydi. O'z tarixini chuqur va mukammal bilgan xalq va millat tarix saboqlaridan o'ziga tegishli va zarur xulosalar chiqarib oladi.

Kelajak yoshlar qo'lida ekan, ularni milliy qadriyatlarimizni chuqur o'rganishga yo'naltirgan holda ularni qadrlashga ham undasimiz darkor. Otabobolarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy boyliklar xalqimiz tomonidan ko'z qorachigidek saqlanmoqda va o'rganilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod - maktab

o'quvchilarini mana shu asarlar bilan tanishtirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini yuksaltiradi.

Tarixni ajdodlarimizning buyukligi nimadan iboratligini bilmay turib milliy g'urur, milliy iftixor tuygusi shakllanmaydi. Kelajak o'tmishdan boshlanadi, degan gap bor. Buning uchun ajdodlarimiz Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek, Umar Xayyom, G'iyosiddin Jamshid Koshiylarning ilmiy merosini o'rganishga da'vat etishimiz, buni bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda uzviylikda o'rgatib borishimiz lozim.

Boshlang'ich sinflarda matematikani o'rgatish jarayonida tarixiy ma'lumotlar va matematika rivojiga hissa qo'shgan ajdodlarimiz haqidagi ma'lumotlarni berish asosida o'quvchilarda yuqorida ta'kidlangan milliy g'urur, o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiramiz.

Matematika darslari jarayonida, to'garak mashg'ulotlarida, turli matematikaga oid o'tkaziladigan ertalik, kechalar va turli tadbirlarda ham o'qituvchi o'quvchilarni ajdodlarimiz va bugungi kunda fan taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan olimlar, ixtirochilar haqida ma'lumotlar, ularning ilmiy xizmatlari bilan tanishtirib, ular bilan g'ururlanish tuyg'ularini singdirishi kerak. Masalan: buyuk o'zbek matematik olimi Al-Xorazmiy tarjimai holi bilan tanishtirish asosida Farbiy Yevropa olimlari algebrani uning asarlaridan o'rganganliklari, bugungi kunda o'rganilayotgan algebra fani ajdodimiz nomi asosida atalishini ta'kidlab u butun xalqimizning faxri ekanligini ta'kidlab ularda ham milliy g'ururni tarbiyalash lozim.

O'zbek millatining tarixiy tarkib topishi, til, fan, madaniyat, davlat, turmush tarzi, tarixiy obidalar asosida ham o'zlikni yana bir bor anglatadi. Shuning uchun biz boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida milliy g'ururni tarbiyalash imkoniyatini beruvchi quyidagi omillarni sanab o'tmoqchimiz:

1. Xalq og'zaki ijodi asosida matematik tushunchalarni singdirish;
2. Matematik olimlar va ularni fan taqqiyotidagi xizmatlari haqida ma'lumotlar berish;
3. Qadimiy obidalar va inshootlar orqali matematik (geometrik) tushunchalarni shakllantirish.

Xalq og'zaki ijodida ertaklardagi qadimiy o'lchov birliklari, maqollarda sonlarning ishtiroki asosida ham tushunchalarni shakllantirish asosida uning tarbiyaviy ahamiyatini yoritish lozim: "Yetti o'lchab, bir kes", "Sanamay sakkiz dema", "Birniki mimga, mingniki tumanga" kabi.

Matematik olimlar haqida ma'lumotlar berish bolalarga xos she'rlar asosida tashkil etilishi yanada maqsadga muvofiq bo'ladi:

Masalan:

Xalqimizning faxridir, necha buyuk siymolar:

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniylar.

Bizdek yosh avlodga sinchkov boqar bobolar,

Har odimim kuzatib, ilmlarimiz baholar.

Qoloqni kechirmas, qilmang derlar xatolar

Kashfiyotlar qilsalar, shunda olam tan olar.

Qadimiy obidalar va inshootlar orqali matematik (geometrik) tushunchalarni shakllantirish asosida madrasalar, minoralar, tarixiy obidalar turli qurilishlar O'rta Osiyoda arnament-grafika juda rivojlangan bo'lib, ular esa geometrik figuralarga (to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, romb, trapetsiya, aylana, ellips, doira, uchburchak va h.k)ga asoslanganligini izohlagan holda rasmlar, ekskursiyalar orqali qaysi inshootda qanday geometrik shakllar mujassamlashganliklari haqida suhbatlar uyushtirish lozim bo'ladi. .

Bular asosida o'quvchilarda quyidagilar shakllanadi:

1. Vatanga bo'lgan muhabbat va ajdodlar merosiga hurmat va faxrlanish tuyg'usi;
2. Matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi;
3. O'quvchilarni matematik bilim va tasavvurlarini chuqurlashishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) — T.: "Turon iqbol" 2016. .
2. Omonov. B "Qiziqarli matematika" T-1998.
3. Usmonov M. Donishmandlar axloq-odob haqida. T., "Fan". 1996 y.

FIZIKA O'QITISHDA AXBOROT TENOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ximmatova Jannatoy Kuchmuratovna

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markzi katta o'qituvchisi

Ma'lumki fizika o'qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi.

Fizikadan masalalar yechish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi, fizikaviy hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo'llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko'pgina fizik o'lchov asboblarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsplari bilan tanishadilar. Shuningdek masalalar o'quvchilarda mexnatsevarlik, jur'atlilik, iroda va xarakterni tarbiyalaydi.

Elementar fizika kursida dars soatlari hajmi anchagina salmoqli bo'lsada, hozirgacha darslarda masala yechish tajribasi deyarli qo'llanilmaydi. O'quvchilarga mustahkam bilim berish shartlaridan biri ularni darsda va darsdan tashqari vaqtlarda masalalar yechishga faol jalb qilishdir. Fizik masalalarni yechish jarayonida asosiy urg'u fizik kattaliklar, qonunlar va hodisalar to'g'risida real tushunchalar hosil qilishga qaratiladi. Muntazam ravishda fizik masalalarni yechib borish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqillikka va amaliy izlanishga o'rgatadi.

Ko'pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko'ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo'yilgan muammoni hal etish - masala yechishdan iboratdir.

Fizikadan masalalar to'plamlarida berilgan hamma masalalar turli asoslarga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Masalan masalalarning murakkablik darajasiga ko'ra sodda va qiyin masalalarga ajratiladi. Masalalar mazmuniga qarab mexanikaga, molekulyar fizikaga, elektrga doir va hakoza bo'lishi mumkin. Bunday bo'linish shartli ekanini bilamiz, chunki ko'pincha bitta masalaning shartida fizikaning bir nechta bo'limlaridagi ma'lumotlardan foydalanamiz. Shuningdek politexnik mazmunga ega bo'lgan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan, tarixiy xarakterdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan masalalarga klassifikatsiyalanadi.

Yechish usullariga ko'ra masalalar sifat, eksperimental, grafik va ijodiy masalalarga bo'linadi. Bunday bo'linish ham shartlidir, chunki eksperimental masalalarni yechishda ham og'zaki mulohazalardan ham, grafikdan ham, hisoblash ishlaridan ham foydalanamiz. Biroq bu masalalarning har biri mazmuni va murakkabligi jixatidan xilma-xildir. Bu masalalarning yechimlari aniq bir maqsadga qaratilgan bo'lib, aniq yechilish usullariga ega. Bu masalalarning har bir turlari uchun alohida adabiyotlar mavjud.

Masalalarni yechish jarayonida foydalaniladigan mantiqiy amallar harakteriga ko'ra analitik, sintetik yoki analitika-sintetik metodlarga bo'linadi. O'qitishda asosiy faktorlardan biri o'quvchilar o'zlari yechgan masalani to'g'ri yoki noto'g'riligini o'zlari mustaqil tekshirishlaridir. Bu talab o'quvchilar uchun katta mehnat talab qiladi, ya'ni qiyindir. Ularni o'zlarini o'zlari tahlil qila olishga o'rgatishga axborot texnologiyalarini qo'llab ijodiy masalalarni yechish orqali erishish mumkin. Bu esa o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishga, rivojlantirishga sabab bo'ladi, ilmiy fikrlash asoslarini paydo qiladi.

Elementar fizika kursi doirasida o'rganilgan bilimlar umumiy fizika kursida mustahkam tayanch bo'la olishi, yuqori sifatli fizik bakalavrlar tayyorlashga kafolat bera oladi. Shuning uchun elementar va umumiy fizika kurslari doirasida uzluksizlik, uzviylik va izchillik prinsplari asosida o'qitilishi uslublarini yaratilishi dolzarb muammodir. Bu borada axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish holatiga katta e'tibor qaratilishi lozim. Elektron qo'llanmalar va darsliklardan, multimediali dasturiy maxsulotlardan hamda EHM yordamida o'quvchilar bilimi nazoratini avtomatlashtirish uslublaridan samarali foydalanishga o'tish lozim. Fizikaga doir mavzularni o'qitishda ahborot texnologiyalaridan foydalanishning ikki xil o'ziga xosligi bor. Birinchisi – kompyuterlardan foydalanish tufayli barcha fanlar qatori bilim berish samaradorligini oshirishga imkon yaratilsa, ikkinchisi – foydalanilayotgan har bir axborot texnikasi va jixozlari negizida fizik hodisalar yotganligini, ularni fizika bo'yicha puxta bilimli kishilar yaratganliklarini uqtirilishidir. Fizikani o'qitish borasida dastlabki o'zbek tilidagi elektron o'quv qo'llanmalari, laboratoriya sharoitida ko'zga ko'rinmaydigan jarayonlarni ko'rsatish imkonini beradigan virtual stendlar va multimediali dasturiy mahsulotlar yaratilmoqda.

Kompyuterlar yordamida har bir o'quvchini o'rganish jarayoniga individual yondashish, o'quvchilar bilimni tezkor xolda baholash mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli masofaviy ta'lim shakli yuzaga keldi, internet materiallaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish birinchi o'rinda fizika o'qituvchilari uchun juda muhimdir. Lekin bunday elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish va ulardan ta'limda foydalanishning pedagogik va didaktik jihatlari xali deyarli o'rganilmagan. Birinchi galda foydalanishga mo'ljallangan internet va masofaviy ta'lim resurslari haqidagi ma'lumotlar bazasi yaratilmagan. Yuqoridagilarga asosan ta'kidlash mumkinki, fizika o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib masala yechish jarayoni talabalarda nazariy bilimlarini amalda qo'llashga ko'nikma, malakasini mustaxkamlab, politexnik yo'nalishlardagi o'qitish jarayonida ham qo'l keladi. Voqea, hodisalarni modellashtirish va turli texnik masala, tajribalarni EHM yordamida ko'rib chiqish, nazariy bilimlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishga o'rgatadi.

Adabiyotlar.

1. Rahmatullaev M. «Umumiy fizika kursi». Mexanika, O'qituvchi, 1995
2. Nu'monxo'jaev A.S. Fizika kursi, 1-q., O'qituvchi, 1992

MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA ASOSLARINI LABORATORIYALAR YORDAMIDA O'RGATISH

Ximmatova Jannatoy Kuchmuratovna

***Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markzi katta
o'qituvchisi***

Virtual laboratoriya tajriba o'tkazish, hodisa, jarayon, gipoteza, kattaliklar, tushunchalar, qonuniyatlar, doimiylarni amalda o'rganish ma'nosini anglatadi.

Virtual laboratoriya fizik hodisaning borishini kuzatishga imkon beradigan, tekshiriladigan hodisani aniqlash va tahlil qilish hamda uni istalgan paytda belgilangan sharoitlarda qaytadan takrorlash demakdir.

Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlar-bu fizik hodisalarni darsda maxsus asboblarda yordamida, uni o'rganishdir. Shuning uchun ham, u bir vaqtning o'zida bilimlar manbai, o'qitish va ko'rgazmalilik turi bo'lib, xizmat qiladi. Nazariyada olingan natijalar bilan laboratoriya ishini bajarishda olingan natijalar bir bir chiqsagina laboratoriya to'g'ri bajarilgan bo'ladi. Maktab fizika qismining anchagina qismini laboratoriya ishlari tashkil etadi.

Maktab fizika kursida o'qituvchi laboratoriya ishini bajaradi va bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari tomonidan kuzatiladi.

To'g'ri tashkil qilingan o'quv laboratoriya ishi shaxsda qo'yilgan maqsadlarga intilishdagi sobitlikni, aniq ma'lumotlar olishda puxtalikni, ishdagi aniqlikni,

qaralayotgan hodisalarning asosiy sifatlarini va boshqalarni kuzatish hamda ajratib olish malakasini tarbiyalashda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Fizik laboratoriyalar asosida hodisalarni o'rganish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, fizik qonunlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilarning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Laboratoriya ishi hodisa va qonunlarni o'rganishda o'quvchilarning fikrlashiga o'quvchi faol rahbarlik qilishi talab qilingan hollarda zarur bo'ladi.

Laboratoriya tajribalarining o'qituvchi nutqi bilan qo'shilishi o'quvchi ongida fizik tushunchalarni ma'no-mazmunini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. O'rta umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari fizika dasturlarida har bir mavzu bo'yicha laboratoriya tajribalari minimumi ko'rsatilgan. Bu laboratoriya ishlari bilan birgalikda fizik ta'limning asosi shakllanadi.

Laboratoriya ishlarini bajarishdan maqsad u yoki bu hodisani kuzatish, ilgari surilgan g'oyani tekshirish, fizik qonuniyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqadigan natijalarni tekshirish.

Maktab fizika kursida o'qituvchi laboratoriya ishi qurilmalarini tanlash va tajriba o'tkazish bu o'qituvchining ishi, o'quvchilar esa ko'pincha laboratoriya natijalarini qayd qiluvchi va qayta ishlovchi kuzatuvchilardir.

Asboblardan ishlash, qurilmalarni yig'ish, asbob ko'rsatishlarini qayd qilish ko'nikmalarini singdirish usuli bo'lib laboratoriya ishlari xizmat qiladi. Laboratoriya ishlarida dars mavzusiga bog'liq bo'lgan bir xil tajriba bajariladi.

Fizik laboratoriya ishlari kursning u yoki bu qismi o'rganib bo'lingandan so'ng o'tkaziladi, buning uchun alohida ishlar tanlab olinadi. Laboratoriyada o'quvchilar avval olingan vazifalarni to'liq bilib mustaqil bajaradi, bunda ular maxsus qo'llanmalardan foydalanadilar. Laboratoriya ishlari nisbatan murakkabroq, ular uchun asbob uskunalari va qurilmalar ba'zi hollarda texnikaviy bo'lib, ilmiy laboratoriyalarda va ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Sinfdan tashqari va uyda bajariladigan tajribalar uyda yoki maktab laboratoriyasida yakka holda yoki jamoa bo'lib qo'yiladi. Laboratoriya ishlari ko'pincha izlanish, maktabni moddiy texnik jihatidan ta'minlash uchun zarur bo'lgan qurilmalarni loyihalashtirish xususiyatiga ega bo'ladi.

Fizikani o'rgatishda o'quv laboratoriya ishlari o'quvchilarning tushuncha, qonunlar va nazariyalarni yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari bilimlarni amalda qo'llash malakasini shakllantiradi, asboblardan bilan tanishtiradi va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Laboratoriya ishlarini bajarish davomida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Umumta'lim maktab va kasb-hunar kollejlari dasturida laboratoriya ishlari bir muncha sodda tajriba ishlaridir. Shuning uchun ham tajriba va asboblarni tayyorlash uchun ketadigan vaqt minimumgacha qisqartiriladigan, ular bilan ishlashda ishonchli hamda buzilmaydigan variantlaridan foydalanish juda muhim.

O'rganayotganda ko'pincha hodisalarning o'zini emas, balki bu hodisalar yuzaga keltiradigan harakatlarni kuzatishga to'g'ri keladi; ba'zi asboblardan murakkab bo'ladi, ularning detallari yomon ko'rinadi yoki umuman ko'rinmaydi, ko'p

hodisalar va ularning texnikadagi qo'llanilishini tabiiy holda ko'rsatib bo'lmaydi. Bularning hammasi ko'rgazmali qurollardan foydalanishni talab qiladi.

Fizikadan ko'rgazmali qurollarga televideniya, teleyozuv, kompyuterlar kabi texnik vositalar ham kiradi.

Chunki ular masala yechish uchun kerakli ma'lumotlarni darslikdan, masalalar to'plamidan tayyor holda olmasdan, balki o'zlari bajaradigan fizik o'lchashlardan oladilar. Laboratoriya ishlarining yana bir afzalligi shundaki, bu ishlarni yetarlicha fikrlamasdan turib bajarib bo'lmaydi. Ya'ni laboratoriyada sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilar keng muhokama qilib olishlari kerak. Chunki laboratoriya ishlarida masalalarga o'xshatib nazariya berilmaydi, faqatgina ishni bajarish tartibi ko'rsatiladi. Kerakli asbob-uskunalar, materiallar berilib, topilishi kerak bo'lgan ma'lumot so'ralishi bilan kifoyalanadi. Yuqorida aytganimizdek o'quvchilar qator fikr va muloxazalardan, laboratoriya ishlarida qanday fizik hodisa yotganini, qanday fizik qonun ifodalanayotganligini bilib oladilar. Va nixoyat masalalarda topilishi kerak bo'lgan fizik doimiylarni keltirib chiqaradilar. Oxirgi natijani tahlil qilib, masalani yechish uchun kerakli kattaliklarni bevosita o'lchash yo'li bilan oladilar.

O'qituvchi mavzuni ma'ruzali tarzda bayon etsa o'quvchi bu ma'lumotni oz qisminigina xotirada saqlab qoladi. Eshitsa va amalda bajarilishini ko'rsa undan ham ko'proq qismini esda qoldiradi. Bu laboratoriya ishini aytib bergan va bajargan o'qituvchi o'zida ma'ruzani aytib berishga qaraganda ko'proq qismini esda saqlab qoladi.

Adabiyotlar.

1. M.X.O'lmasova. Mexanika va Molekulyar fizika.1-kitob Toshkent-2004 „O'qituvchi“ nashriyoti
2. A.G.G'aniyev, A.K.Avliyoqulov, A.G.Almardonova Fizika I – qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik «O'qituvchi» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010

MA'NAVIYATNING SHAKLLANISHIDA MILLIY G'OYA TUSHUNCHASI

Djuldiyeva Dilbar Djarkinovna

Sayxunobod tumani 1-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin

Navoiy hazratlari ashorlarida bitilganidek insonni so'zlash madaniyati hayvondan ajralib turishini belgilagan bo'lsa, fikrlash qobiliyati insonni insondan ajratib turuvchi jihatdir. Ma'naviy komillik tushunchasi har bir insonga xos bo'lib, uni har kim o'zicha tahlil etadi. Binobarin, komillik sari intilgan har bir banda bu yo'ldan albatta o'tishadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ma'naviy boy, sermulohazali, dunyoqarashi keng, eng muhimi chiroyli notiq, qolaversa, ma'daniy shakllangan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, insonlarga imkon topib yordam

beradigan shaxslargina bunday baxtlarni yaxshi his qilishadi.

Inson ma'naviyatini shakllantirishda ilmiy va badiiy adabiyotlarning o'rni alohida ekanligi ma'lum. Jumladan, ma'naviyatli inson o'qishdan to'xtamaydi, buyuklar aytganidek:

“Insonlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar”. Kitoblar insonni ma'naviyatini boyitish bilan bir qatorda, dunyoqarashini ham, fikrlash qobiliyatini ham o'zgacha charxlaydi. Bu bilan esa inson ma'naviyati yetuklik sari asta sekin qadam tashlab boraveradi. Borib-borib vaqtlar o'tishi bilan yig'ilgan tafakkur durdonalari jamiyat uchun xizmat qiladigan bir yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Inson ongi qanchalik rivojlanib bormasin, u yana o'qishga, bilim olishga intilishi so'nmaydi, akchinchu kuchayib boradi.

Eng avvalo, dars jarayonidagi ma'naviyat haqida to'xtalib, o'qituvchining har bir xatti-harakati bola uchun o'rnak bo'lishligi aniq, deb hisoblaydigan bo'lsak, ikkinchi tomondan qaralganda u yo'naltirayotgan yo'nalish yoki berayotgan bilimning har bir nuqtasi ostiga bekitilgan ma'naviyat haqida ham to'xtalib o'tish kerak. Binobarin, har qanday jamiyatda kelajakni yoshlar qurishadi. Ertangi kun uchun bugundan boshlangan ijobiy tadbirlar albatta o'z samarasini beradi.

Milliylik tushunchasi har bir qadamimizda dush kelishimiz mumkin bo'lgan o'zligimizga xos va mos mentalitetimiz yig'indisidir.

Inson tafakkuri qanchalik rivojlansa, uning o'y fikrlari, dunyoqarashi, qolaversa, butun borliqni tushunish va anglash ko'nikmasi ham shu darajada shakllanib boradi.

Milliy g'oyani bola ongiga singdirishning yo'llaridan biri bu ularning ongiga ta'sir etish hisoblanadi.

Agar har bir ota-ona o'z farzandi o'qishi uchun jon kuydirib harakat qilsa, uning o'quv faoliyati haqida qiziqsa, maktablarga, kollejlarga lozim bo'lsa, oliygohlarga borib ularning nima ish bilan shug'ullanayotganliklarini ko'rib, ulardan xulosa chiqarib tursa, albatta, bola shaxsini komil inson sifatida kamol topishlari uchun qo'shgan dastlabki ishlari bo'lar edi. Afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandining o'qish joylariga borish bu yoqda tursin, hatto telefon qilib farzandining qanday muammolari va yutuqlari borligidan xabar ham olishmaydi. Bu bilan biz ota-onalarni yomonlashdan ancha yiroqmiz, biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir inson kamolotga yetishish davrida o'z ota-onalari mehri va e'tiboriga muhtoj bo'lishadi. Bu muhtojlik o'z vaqtida qondirilmasa, bola izdan chiqib ketishi mumkin. Shaharga o'qish uchun yuborilgan talaba dastlabki kunlarda o'qishga bo'lgan munosabati yaxshi bo'ladilar(aksariyat hollarda). Keyinchalik ota-onalari farzandlariga haddan ziyod ishonib qolishlari natijasida bolalar turli yo'llarga kirib qolishlari mumkin. Bunda ta'lim muassasalarini ham ayblari bor, lekin muassasada 6 soat o'qishlari mumkin. Qolgan vaqtlardagi (18 soat) u muassasadan tashqarida bo'lishadi. Shu bois bolaning asosiy vaqtlari uyda va ko'chada bo'lishi bilan belgilanadi. Bola shaxsi tarbiyasi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmagan holda, ta'lim muassasalarida berilgan bilim va tarbiya jarayonini uyda albatta mustahkamlash lozim. Aks holda, e'tiborsiz qoldirilgan o'quvchi turli bahonalar bilan dars tayyorlamaydi yoki davomadi pasayib ketadi. Bu esa borib-

borib o'quvchini turli salbiy illatlar orttirib olishlariga xizmat qilsa ajabmas. Ko'rinib turibdiki, milliy g'oyasi shakllanmagan bolada jamiyat bilan aloqa qilish vositasi ham shakllanmaydi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, bola tarbiyasi faqat ta'lim muassasalarida emas yoki faqat ota-onalarning imkoniyatlaridan emas balki ular orasidagi yoki ular o'rtasidagi tinimsiz muloqotlar natijasida yuzaga keladi.

Inson kamol topishida ma'naviyat, milliy go'ya darslarini o'tilishi katta o'rin tutadi. Bola tarbiyasi o'ta mashaqqatli ish bo'lganligi sababli unga berilayotgan tarbiya jarayoni ham keng ko'lamda o'ylanib, ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Insonda Vatan hissi, uni sevish, ardoqlash, o'tmishga hurmat bilan qarash tushunchalari, o'zgaralar fikrini hurmat qilish, o'z fikrini erkin bayon qila olish ko'nikmasi maktabdayoq shakllanib boradi. Maktab darsliklarida o'itilayotgan milliy istiqloq g'oyasi fani bugungi kun davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirda dunyo ahlini aqlini shoshirib qo'yayotgan ommaviy mafkura va g'oyalar ham bizni chetlab o'tayotgani yo'q. Ommaviy madaniyat atalmish bizning mentalitetimizga yot bo'lgan G'arbcha mafkuralar yoshlar ongida umuman iz qoldirmayapdi deyish qiyin, albatta. Sababi oddiy, biz ularni qalbiga begona g'oyalarning kirib ketishiga yo'l qo'yib bermoqdamiz. Buning uchun milliy g'oya targ'ibotini chuqurroq olib borish, Vatanni sevish, uni tom ma'noda anglay olish zarur.

M.S.Sovajiy (fors shoiri) aytganidek: Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun,
Inson hayotini qilar bemazmun.

Hayotning mazmunsizlanishiga asos bo'luvchi beg'amlik haqida I.Karimov "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida ham alohida to'xtalib dushmandan qo'rqmaslik, nari borsa u o'ldiradi, do'stdan ham hayiqmaslik u ham nari borsa siringni sotadi, ammo loqayddan qo'rqish, u qilayotgan ishlarga loqaydlik bilan jim qarab turaverishi insonning qalb-qalbigacha ta'sir etishligi alohida aytilgan.

Har bir o'quvchilarimiz qalbiga nur bag'ishlayotgan milliy istiqloq g'oyasi bugunning dolzarb mavzulari bo'lishi lozim. Bola tarbiyasi haqida fikr yuritish kerak bo'lsa, bolaning sog'lom bo'lishi bir tarafdin jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tamondan qaralganda albatta bola ruhiy sog'lom bo'lishi talab etiladi. Bunda har bir o'quvchining fikrlashi, dunyoqarashi, bilim darajasi va saviyasi inobatga olinishi kerak. Bilim olish jarayonini kitoblar va turli gazeta va jurnallar bilan bog'lash mumkin, ammo shuni alohida takidlash joizki, bilim olishning zamonaviy usullaridan biri bu fan texnikaning rivojlanishiga ham bog'liqdir. AKT va YPT davr talabi bo'lib turgan bir paytda izlanuvchan o'quvchi va talabalar (o'qituvchilar ham) internet atalmish o'rganmchak to'ri ta'siriga tushib qolish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu jarayonning ilk ko'rinishlari telefonlardir. Ota-ona o'z farzandlari haqida ma'lumot olib turishlari uchun telefon olib berishadilar. Keyinchalik bu telefonlar yaxshirog'iga (oxirgi modeldagi-internet ishlatish uchun qulay bo'lgan) almashtirish hollari ularning internet haqida dastlabki tushunchasini shakllanishiga asos bo'ladi. Bu bilan esa dastlab maktab o'quvchilari internetdan qanday foydalanish sirlarini tengdoshlaridan o'rganishlariga to'g'ri keladi. Bora-bora bu o'rganmchak to'ri ta'siriga tushib qolishlariga xizmat qiladi. Biz farzandlarimizga noto'g'ri tarbiya berayapmiz deyishimiz to'g'ri emas, lekin

telefondagi internet ma'lumotlarining aksariyat qismi bola shaxsini to'g'ri shakllanishida salbiy oqibatlar keltirishi mumkin.

Shu boisdan farzand tarbiyasida telefonlarni ham qandaydir salbiy illatlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirishimiz, lozim bo'lsa, bu haqda tarbiya soatlari (uy sharoitida ota-onalar) o'tishimiz kerak. Internetni ishlatilishi bilim olish uchun keng imkoniyat albatta, biroq uning illatlari haqida ham tushunchalar berib borilishi foydadan holi bo'lmaydi. O'rgamchak to'ridagi keraksiz deb topilgan ma'lumotlarni qanchalik sir saqlamaylik ular haqida yoshlarimizning qiziqishlari shu darajada kuchayib bormoqdaki, uni to'xtatish juda mushkul.

Bizga ma'lumki, har qanday bola turli yoshlarda o'tish davrini boshdan kechiradi. Bu jarayonda bola o'zidagi bo'layotgan o'zgarishlarni tushunib yetmaydi. Undagi kechayotgan ruhiy holatlarni ham ota-onalar hisobga olishmay qo'yadilar. Bu esa bola ongida shunday bir jarayonni yuzaga chiqaradiki, ularni boshqarishda faqatgina pedagoglarning kuchi yetmay qoladi. Bunda har bir pedagog o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda, bola psixologiyasini o'rgana boshlaydi va turli yechimlar topishga harakat qilishadi. Binobarin har bir o'quvchining dunyoqarashi turlichadir. Bu holatlarda aksariyat ota-onalar nima qilishlarini bilishmay bolani o'z holiga tashlab qo'yishadi. Bu esa bora-bora bolaga bo'lgan e'tiborni susayishiga olib keladi. Vaqtlar o'tishi bilan o'tish davrida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan bola keyingi davrlarni ham shu ojizlik bilan o'tkazishadi. Keyinchalik shaxs bo'lib shakllangan o'quvchi psixikasida tormozlanish vujudga keladi. Buning salbiy oqibatlari haqida esa ma'lumotlar ko'p.

Ba'zi o'quvchilar hamisha ustozlarining gaplariga quloq tutadilar va ular bergan bilim bilan bemalol bellashishlari ham mumkin. Ota-onalarining gaplarini ikki qilsa qiladilarki, ustozlarining fikrlariga ergashishadi. Bu esa pedagoglik kasbimizdagi sharaflı nuqta hisoblanadi.

Inson ma'naviyati shakllanmas ekan, u olayotgan bilimlar behuda. Shunday ekan har bir olinajak bilim va xulosa muhimdir. Ma'naviyatga e'tibor sust bo'lgan muhitda hech qanday sivilizatsiya bo'lmaydi. Ma'naviyat esa bu bilim, odob, dunyoqarashlarning mujassam shaklidir. Manaviyatli shaxs uchun lozim bo'lgan yana bir tushuncha bor, bu yurt ishqı. Yurt ishqini esa albatta milliy istiqlol g'oyasi beradi.

SHAXSIY O'ZGARISHLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI TRENING JARAYONIDA

Irgasheva Charos

Sirdaryo tumani 39-maktab psixologi

Annotatsiya: *Ishda shaxsga yo'naltirilgan, xulq-atvorga asoslangan, kognitiv, multimodal va boshqa treninglarni o'tkazish amaliyoti xulq-atvor, kognitiv, hissiy-majoziy, biologik va ekzistensial determinantlarning shaxsiyatning kerakli ichki o'zgarishlariga samarali erishishda o'zaro bog'liqligini ishonchli tarzda ko'rishi aniqlandi.*

Turli xil o'quv dasturlarini ishlab chiqish individual va guruh psixoterapiyasining asosiy tamoyillariga asoslanadi, shuning uchun ushbu

yondashuvlarni tahlil qilish doirasida o'quv jarayonida shaxsiy o'zgarishlarning psixologik asoslarini ko'rib chiqish oqilona. K. Rojers (Rogers, 2001, p. 363-374) asarlari tufayli paydo bo'lgan guruh psixoterapiyasining birinchi yo'nalishlaridan biri shaxsiyatga yo'naltirilgan treninglarni qurish uchun asos bo'ldi. Shaxsga yo'naltirilgan yoki mijozga yo'naltirilgan trening odamlarning o'zini o'zi anglashi va o'zini aniqlash usullariga bog'liq bo'lgan o'zini o'zi anglash muhimligini ta'kidlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan treninglar amaliyotida shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor beriladi. Markaziy boshlang'ich pozitsiyasi quyidagicha: agar murabbiylar mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishda ma'lum bir atmosferani yaratsa, unda bu mijozlarning shaxsiyati konstruktiv ravishda o'zgaradi, hech qanday dastlabki baho berilmaydi. Shaxsga yo'naltirilgan murabbiy barcha mijozlarga munosabatlar uyg'unligini va, albatta, ijobiy munosabat va hamdardlikni ta'minlaydi. To'liq faoliyat ko'rsatadigan yoki o'zini namoyon qiladigan odamlarning oltita asosiy xususiyati aniqlangan: tajribaga ochiqlik, ratsionallik, shaxsiy javobgarlik, o'zini o'zi qadrlash, yaxshi shaxsiy munosabatlar o'rnatish va saqlab qolish qobiliyati, axloqiy turmush tarzi. To'g'ri atmosferani yaratish mijozlarning shaxsiyatida bir qator o'zgarishlarni boshdan kechirishiga yordam beradi: munosabatlardagi uyg'unlikni oshirish, o'zini o'zi qadrlash va empatiyani oshirish. Demak, mijozlar shaxsga aylanish va o'z hayotlarini tartibga solish jarayonida. Guruh psixoterapiyasining yana bir sohasi - Gestalt terapiyasining yaratuvchisi F. Perls uni ekzistensial yondashuv deb hisobladi. U inson tanasini faqat ma'lum bir muhitda mavjud bo'lish qobiliyatiga ega bo'lgan yaxlit tizim sifatida ko'rgan, shuning uchun "ruh-tana" va "shaxs-muhit" bo'linishlari noto'g'ri. Organizmning hayoti muvozanat va beqarorlik holatlarining uzluksiz o'zgarishi bilan tavsiflanadi va organizmning gomeostazni saqlab turish qobiliyati uning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Bir gestalt tugashi bilan darhol boshqasi paydo bo'ladi. Kontakt chegarasi organizm va atrof-muhit o'rtasidagi chegara bo'lib, shaxsning o'zgarishi aynan shu erda sodir bo'ladi. Treninglarning maqsadlari ko'proq darajada, atrof-muhitni qo'llab-quvvatlashdan ko'ra o'zini qo'llab-quvvatlash, o'z his-tuyg'ulari va ekzistensial markaz bilan aloqada bo'lish, ko'proq darajada, o'z aqliy qiyofasini aktuallashtirishdan ko'ra o'zini o'zi anglash, mas'uliyat, qobiliyatni rivojlantirish. tanlash va, albatta, kuchli gestallarni shakllantirish va yakunlash. Gestalt trenerlari o'z mijozlarining hozirgi paytda aloqa chegarasida qanday muammolarga duch kelishiga e'tibor qaratadilar. Mashg'ulotlar amaliyotiga gestalt yondashuvlarining elementlari - xabardorlik, hamdardlik va umidsizlik texnikasidan foydalanish, fantaziyalarni aniqlash, orzular bilan ishlash, drama usullari va, albatta, turli xil qoidalar va o'yinlardan foydalanish. Gestalt trenerlari mijozlarning umidsizlikka tushishiga harakat qilmaydi, qoida tariqasida, ular o'zini oshkor qilishga moyil bo'lib, mijozlarning xarakter tuzilishini tasvirlash uchun psixoanalitik formulalardan foydalanadilar. Shaxs o'zgarishining psixologik asoslarini talqin qilishda Erik Bern (Bern, 2004, 27-43-betlar) tomonidan yaratilgan va shaxsiyat nazariyasi, ijtimoiy o'zaro ta'sir nazariyasi va maslahat uchun analitik yo'l-yo'riqdan iborat tranzaksion tahlil alohida qiziqish uyg'otadi. Ego holatlari his qilish, fikrlash va o'zini tutish naqshlaridan boshqa narsa emas. Har bir insonning

uchta ego holati mavjud: ota-ona, kattalar va bola, ular ota-onadan qabul qilingan qarashlarni, voqelikni yoshiga mos ravishda baholashni va shaxsning bolalik tajribasini ifodalaydi. Ego holatlarini tahlil qilganda, e'tibor ota-ona va bolaning ego holatlariga qaratiladi. ego holati, hozirgi paytda eng hal qiluvchi bo'lgan eng katta ta'sirga ega. Tranzaksiyalar ijtimoiy o'zaro ta'sirda ishtirok etuvchi shaxslarning ego holatlari o'rtasida zarbalar yoki tan olish birliklari almashinuvini o'z ichiga oladi. Ego holatlari o'rtasidagi operatsiyalar bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro faoliyat yoki yashirin bo'lishi mumkin. Tranzaksiyon tahlilning asosiy maqsadi integratsiyalashgan Katta yoshli shaxsni rivojlantirish orqali shaxsiy o'zgarishlarga erishishdir. Avtonom odamlar birinchi navbatda xabardorlik, spontanlik va yaqinlik bilan ajralib turadi. Murabbiylar va mijozlar shaxsiy o'zgarishlarga erishish maqsadlarini belgilaydigan shartnomalar tuzadilar. Ego holatlarining tarkibiy tahlili, tranzaksiyon tahlil, o'yin va stsenariy tahlili tranzaksiyon tahlil amaliyotida qo'llaniladigan yondashuvlardir. Ego grammlaridan foydalanish, stsenariy matritsasini o'zgartirish va Gestalt usullari va mashqlarini qo'llash tranzaksiya tahlili sohasidagi yutuqlar bo'lib, shaxsiy o'zgarishlarga erishish imkonini beradi. Gumanistik yo'nalish, realizmga o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi mashg'ulotlarni ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ular V. Glasser tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab, uning yondashuvi hech qanday tizimli nazariyaga asoslanmagan, balki odamlar o'z xatti-harakatlari uchun javobgardir, degan taxminga asoslangan edi. Realizm treningi nazorat nazariyasiga asoslanadi. Boshqaruv nazariyasining asosiy pozitsiyasining ma'nosi shundaki, odamlarning xatti-harakati doimo ularning ehtiyojlarini qondirish uchun atrofdagi hamma narsani boshqarishga urinishning namoyon bo'lishidir. Inson ehtiyojlarini yashash uchun jismoniy ehtiyoj va tegishli bo'lish uchun psixologik ehtiyojga bo'lish mumkin. kuch, erkinlik va zavq. Odamlar o'zlarining tasavvuridagi rasmlardan iborat shaxsiy albomlar yaratadilar. Ushbu suratlarda odamlar o'z ehtiyojlarini qanday qondirishlari, xohlagan narsalarini olishlari tasvirlangan. Butun shaxsiyatdagi o'zgarishlar to'rt komponentdan iborat: harakat, fikrlash, his qilish va fiziologiya. Boshqaruv tizimlari sifatida odamlar o'zlarini shunday tutadilarki, ular o'zlariga kerakli o'zgarishlarning tasvirlarini olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Realizm bo'yicha treningning asosiy maqsadi (Ments, 2006, 45-52-betlar) mijozlarga o'z hayotlarini samarali nazorat qilishlariga yordam berishdir. Murabbiylar mijozlarga muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan xatti-harakatlarni o'rgatadi. Hech qanday bahona va hech qanday jazo yo'q - mijozning shaxsiy o'zgarishlarga erishganini baholashda ikkita asosiy tamoyil. O'rganilayotgan mavzu doirasida asosan o'rganish tamoyillariga, balki klinik va maslahat tajribasiga asoslangan xulq-atvorni o'rgatish usullari alohida qiziqish uyg'otadi. Xulq-atvorni o'rgatishning maqsadlari quyidagilardan iborat: moslashuvchan xulq-atvor asoslari bilan tanishish va bunday xatti-harakatni kuchaytirish, xatti-harakatlarning noto'g'ri turlarini zaiflashtirish va yo'q qilish va istalmagan qo'rquv va xavotirlar darajasini pasaytirish. Xulq-atvorni o'rgatish xulq-atvorni baholashdan boshlanadi, bu ishning maqsadi va usullarini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Shaxsiy o'zgarishlarga erishish har xil vaziyatlarda mijozning xatti-harakatlarini shakllantirish va takrorlashda maslahatchining ishtirokini o'z

ichiga oladi. Ishonchli mashg'ulot yoki ijobiy va salbiy his-tuyg'ularni to'sqinliksiz yoki tajovuzsiz to'g'ri etkazishni o'rganish xatti-harakatni takrorlashning asosiy elementidir. Mustahkamlash usullari xatti-harakatlarning oqibatlarini o'zgartirish orqali o'zgartirishga qaratilgan. Treningni ijtimoiy ta'sir yoki mustahkamlash jarayoni sifatida ko'rish mumkin. Mijozlar nimani kuchaytirishni aniqlash usullari ko'rib chiqiladi. Mustahkamlash dasturi va token tizimi shaxslar va guruhlarning xatti-harakatlarini o'zgartirish uchun ishlatiladi. Tokenlar - bu sovg'alar va oziq-ovqat kabi ortiqcha kuchaytiruvchi stimullarga almashtirilishi mumkin bo'lgan aniq shartli kuchaytirgichlar. Murabbiylar mijozlarga mavjud kuchaytirgichlar miqdorini oshirish va rag'batlantirishni diversifikatsiya qilish orqali yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, murabbiylar mijozlarga moslashuvchan va nomaqbul javoblar bilan bog'liq stimullarni qanday boshqarishni, shuningdek, ijobiy va salbiy mustahkamlashdan foydalanishni o'rgatishlari mumkin. Xulq-atvorni o'rgatishning navbatdagi yo'nalishi, ratsional-emotsional xatti-harakat treningi (REBT) (Lazarus, 2010, p.76-89) tuyg'u, xatti-harakatlar va kognitiv jarayonning o'zaro ta'sirini ta'kidlaydigan yondashuvga asoslanadi. Insonning asosiy maqsadlari omon qolish, og'riqdan xalos bo'lish va baxtdir. Odamlar biologik jihatdan o'zlarini amalga oshirishga va irratsional holatda qolishga, shuningdek, ma'lum darajada erkin tanlashga moyildirlar. O'z maqsadlariga erishishda odamlar nomaqbul his-tuyg'ularga va o'z-o'zini yo'q qiladigan xatti-harakatlarga duch kelishadi, chunki ularda qat'iy, talabchan va hodisalarni faollashtirishga nisbatan afzallik beriladi. Bundan tashqari, odamlarda qattiq talabchanlik, masalan, qo'rquvni uyg'otish, o'zini qadrsiz his qilish, doimiy muvaffaqiyatsizlikni bashorat qilish kabi narsalar mavjud. REBTning ikkita maqsadi bor - mijozlarga hissiy bloklar va buzilishlarni olib tashlashga yordam berish va ularni yanada to'liq ishlaydigan yoki o'zini o'zi amalga oshiradigan shaxslarga aylantirishga yordam berish. Ushbu treninglar qattiq va qattiq talabchan fikrlashni imtiyozli fikrlash bilan almashtirishga yordam beradi. Shaxsiy o'zgarishlar "nomaqbul" bo'lishi mumkin, bu xatti-harakatni olib tashlashga olib keladi yoki "nafis", samarali yangi falsafani keltirib chiqaradi. REBT treneri - mijozlarga shaxsiy o'zgarishlarning yangi darajalariga erishish uchun samarali rivojlanishi uchun mijozlarga o'zlarining mantiqsiz munosabatlari va ularning hosilalarini turli nuqtai nazardan ko'rishga yordam berish uchun turli xil kognitiv, hissiy va xatti-harakatlar usullaridan foydalanadigan o'qituvchi. Murabbiylar mijozlarga o'zgarishlarni saqlab qolishga yordam berishga intiladi, ish va amaliyotga e'tibor qarating. Asoslari A.Bek (Bek, Friman, 2002, 234-253-betlar) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv treningda mijozlar axborotni qayta ishlash uchun mo'ljallangan nomukammal mashinalar (protessorlar) sifatida qaraladi. Inson birlamchi kognitiv jarayonlarga va yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarga ega bo'lishi mumkin. O'zboshimchalik bilan fikrlardan tashqari, odamlar sxemalar va avtomatik fikrlarga ega. Sxemalar odamlarning e'tiqodlariga ta'sir qiluvchi nisbatan barqaror kognitiv naqshlardir. Faollashtirilgandan so'ng, disfunktsional sxemalar va e'tiqodlar ma'lumotlarning muntazam ravishda buzilishiga olib kelishi mumkin. Kognitiv treningning asosiy maqsadi mijozlar ega bo'lgan haqiqatni tekshirish tizimini faollashtirishdir. Kognitiv murabbiylar mijozlarga fikrlashni

baholash va o'zgartirishni o'rgatadi. Bundan tashqari, ular simptomlarni kamaytirishga va mijozlarga moslashuvchan xatti-harakatlarni rivojlantirishga yordam berishga intiladi. Kognitiv usullar avtomatik fikrlarni aniqlash va aniqlash, avtomatik fikrlarning haqiqatini sinab ko'rish va ularni tuzatish, asosiy avtomatik fikrlar, e'tiqodlarni aniqlash va bu e'tiqodlarni o'zgartirish uchun ishlatiladi. Xulq-atvor usullari ham kognitiv, ham xatti-harakatlarning o'zgarishini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. Xulq-atvor usullariga faoliyatni rejalashtirish, fikrlashni baholash uchun eksperimentlar o'tkazish, xatti-harakatlarni takrorlash va rollarni o'ynash kiradi. Kognitiv treningda asosiy e'tibor qaytalanishning oldini olishga qaratilgan. Ushbu turdagi mashg'ulotlar keng qo'llaniladi. Multimodal trening (Lazarus, 2010, p.76-89) texnik jihatdan eklektik yondashuvdir, Bu nazariy jihatdan oldindan belgilangan emas, balki empirik ma'lumotlar va mijozlar ehtiyojlari asosida tanlangan usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Fiziologik jihatdan odamlar og'riq, umidsizlik va stress kabi salbiy alomatlar uchun turli xil bardoshlik chegaralariga ega. BASIC ID qisqartmasini tashkil etuvchi inson shaxsiyatida ettita diskret, ammo o'zaro ta'sir qiluvchi o'lchovlar mavjud: xatti-harakat (xulq-atvor), ta'sir (ta'sir), sezish (sezish), tasvirlar (tasvirlar), bilish (kognitiv), shaxslararo munosabatlar (shaxslararo), giyohvandlik, giyohvandlik va boshqa turdagi biologik qaramlik (biologiya) (draglar). Odamlar ko'pincha vaziyatlarga o'zlarining afzal ko'rgan usullariga qarab javob berishadi. Multimodal treninglar ijtimoiy-kognitiv ta'lim nazariyasiga asoslanadi, lekin u bilan cheklanmaydi. Ko'pgina hissiy muammolarni olish va saqlash noto'g'ri ma'lumotlarning mavjudligi va adekvat ma'lumotlarning etishmasligi tufayli yuzaga keladi. O'rganish asosan ongsiz jarayonlar orqali sodir bo'ladi. Ijtimoiy ta'lim jarayonida odamlarda himoya reaksiyalari paydo bo'ladi. Odamlarning shaxsiyati irsiy zaxira, ijtimoiy ta'lim va atrof-muhit ta'sirining o'zaro ta'sirida shakllanadi va saqlanadi. Ko'p modal treningning maqsadlari mijozning BASIC ID-ga asoslangan ehtiyojlariga mos keladi, garchi ba'zida barcha etti modalni to'liq tahlil qilish talab qilinmaydi. Ko'pincha, dastlabki uchrashuvlar ma'lumotlari va mijozlarning Multimodal hayot tarixi so'roviga javoblari asosida multimodal trenerlar modallik profillarini tuzadilar. Modallik profillari BASIC ID jadvallari, har bir uslubdagi muammolar va ta'sirlarni sanab o'tadi. Strukturaviy profillar mijozlarning har bir BASIC ID o'lchamida o'zini qanday ko'rishini ko'rsatadi. Kuzatuv mijozlarning o'ziga xos salbiy his-tuyg'ularni, masalan, idrokni "qo'zg'atishi" mumkin bo'lgan his-tuyg'ularni yaratishda tartiblarni tartibga solish tartibini aniqlashni o'z ichiga oladi. Texnikalarni tanlashda multimodal trenerlar empirik ma'lumotlarga katta e'tibor berishadi. Murabbiylar eng mantiqiy va ravshan texnikalardan boshlashadi. Ular mijozlarning "o'ziga xos xususiyatlarini" hisobga oladigan texnikani qo'llashga harakat qilishadi. Etti modallikning har biri uchun asosiy multimodal texnikalar ko'rib chiqiladi. BASIC ID mijozning muvaffaqiyati o'lchanadigan tuzilmani taqdim etadi. Multimodal treninglar nafaqat mijozlar bilan individual ishlashning bir qismi sifatida, balki guruhlar bilan ishlashning elementi sifatida ham qo'llaniladi. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish - bu mijozlarga o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan integral

yondashuv. Ushbu yondashuv tarafdorlari biologik va psixologik hayotni ajratadilar. Hayotiy ko'nikmalar - bu muayyan ko'nikmalarni qo'llash sohalorida odamlar qiladigan tanlovlar to'plami. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish amaliyoti malakalar tilida ifodalanadi. Bu odamlarning fikrlari va faoliyatini tavsiflash va tahlil qilish uchun ko'nikmalar tushunchasidan doimiy ravishda foydalanadi. Ko'nikmalarni qo'llash sohalarining har birida odamlar rivojlangan va rivojlanmagan ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin (xulq-atvor kamchiliklari). "Men" ning uchta shakli mavjud: tabiiy "men", O'z-o'zini tasavvur qilish va hayotiy ko'nikmalardan iborat bo'lgan o'rganilgan "Men", Ijrochi "Men" yoki "Men" tanlovi. Hamma odamlarda omon qolish, o'zini saqlash va rivojlantirish istagi bor. Odamlar o'zlarining psixologik hayoti uchun shaxsan javobgardirlar. Ular qiyinchiliklarga duch kelish, kam rivojlangan hayotiy ko'nikmalardan voz kechish, "kuchli" hayotiy ko'nikmalarni egallash, saqlab qolish va rivojlantirish uchun jasoratga muhtoj. Hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish hayotiy ko'nikmalarning o'zini ham, tegishli tilni ham o'zlashtirishga qaratilgan. Ham kuchli, ham zararli hayotiy ko'nikmalarni egallashda qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar, o'rnak va oqibatlar bo'yicha o'rganish, ko'rsatma va o'z-o'zini ko'rsatma, ma'lumot, imkoniyat va tajriba olish katta rol o'ynaydi. tashvish va ishonch bilan bog'liq. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishning ikkita asosiy maqsadi bor: bugungi kunda mavjud bo'lgan va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muayyan muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish va malakali odamlarni shakllantirish. Malakali odam psixologik hayotni mustahkamlaydigan mavjud sohalarning har birida "kuchli" hayotiy ko'nikmalarga ega: reaktivlik, realizm, muloqot, foydali faoliyat va yaxshilik va yomonlik. Hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish odamlar tez-tez duch keladigan ekzistensial muammolarga ham qo'llaniladi. Shunday qilib, turli xil o'quv dasturlarini ishlab chiqish individual va guruh psixoterapiyasining asosiy qoidalariga asoslanadi. O'quv jarayonida shaxs o'zgarishining psixologik asoslarini talqin qilish muayyan psixoterapevtik maktabning asosiy tamoyillari bilan belgilanadi. Zamonaviy psixoterapiyada integratsiya jarayonlari sezilarli bo'ldi, xususan, xulq-atvor va kognitiv yondashuvlarning uyg'unlashuvida amalga oshirildi. Bu bizga shaxsning o'zgarishini turli xil ijtimoiy-psixologik determinantlarning multimodal o'zaro ta'siri natijasida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бек А., Фримен А. Когнитивная психотерапия расстройств личности. СПб.: Питер, 2002.
2. Берн Э. Игры, в которые играют люди: психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры: психология человеческой судьбы. М.: ФАИР-ПРЕСС, 2004.
3. Лазарус А. Краткосрочная мультимодальная психотерапия. СПб.: Речь, 2010. Менкс М. Эффективный тренинг с помощью ролевых игр. СПб.: Питер, 2001.
4. Роджерс К. Становление личности. М.: Апрель Пресс; ЭКСМО-Пресс, 2001.

KOMPYUTER GRAFIKASINING AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Fazilova Muxlisaxon Rustamjon qizi

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 9-maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter grafikasi, uning rivojlanib borishi, axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati, ilm va fanning sohalarida qo'llanilishi, Adobe Photoshop grafik redaktori imkoniyatlari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены компьютерная графика, её развитие, значение в информированном обществе, применение в областях науки и техники а также возможности графического редактора Adobe Photoshop.

Annotation. This article discusses computer graphics, its development, its importance in an informed society, its application in the fields of science and technology, as well as the capabilities of the Adobe Photoshop graphic editor.

XXI asr - axborotlashuv asri, ya'ni axborot texnologiyalari insonning hayotiy fazosining ajralmas qismidan iborat bo'layotgan asrdir. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy jamiyat inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishga muvaffaq bo'lgan kompyuter va axborot texnologiyalarining kuchli ta'siri bilan ajralib turadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. «Axborotlashgan iqtisodiyot», «Elektron hukumat», «Elektron boshqaruv», «Masofaviy ta'lim», «Ochiq ta'lim», «Elektron ta'lim» kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi.

Psixologlarning aniqlashicha inson 80% axborotni ko'rish kanallari orqali qabul qiladi. Har qanday hajmdagi axborotlar inson tomonidan uning ko'rish kanallari orqali qabul qilinganda yaxshi o'zlashtiriladi. Katta hajmdagi axborotlarin ba'zan boshqa shaklda qabul qilish qiyin.

Mashina grafikasi deganda obyektlarning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va EHM lar yordamida ularni namoyish etish tushuniladi. Kompyuter grafikasi yangi informatsion [texnologiyalar orasida](#) to'xtovsiz rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarni grafik ko'rinishida tasvirlash XX asrning 50-yillarida dastlab katta EHM larda amalga oshirilgan edi. Asosan, harbiy va ilmiy izlanishlarda qo'llanilgan. Grafik ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi shaxsiy kompyuterlarda 80-yillarda, keskin jadallashdi. Xozirga kelib shaxsiy kompyuterda dasturiy ishlash uchun foydalanuvchiga grafik interfeysi standart bo'lib qoldi.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muvoffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Kompyuter grafikasi dunyo fanida yangi fundamental fan hisoblanib, o'tgan asrning 90-chi yillarida paydo bo'ldi va ishlab chiqarishning [barcha](#) sohasida kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos mustaqil ahamiyatga egadir.

Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va undagi texnikaviy, dasturiy vositalarining yangilanib borish bu sohadagi yangi yoʻnalishlarni tinmay oʻrganib borishni taqozo etadi. Kompyuter grafikasi deyarli har bir injenerlik va ilmiy sohalarda masovafiy va ovozli vositalarda axborotni uzatishda ishlatiladi. Meditsina va ishbilarmonlar reklamalarida hamda charchogʻni chiqarish va shu kabi sohalarda ishlatiladi. Oxirgi yillarda bu sohada juda katta oʻzgarishlar yuz berdi, yaʼni 16 mln.dan ortiq rang va turlarini oʻzida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni kirituvchi moslama - skanerlar, grafik ish stansiyalari, dasturiy vositalar sohasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan amaliy dasturlar vjudga keldi.

Grafikli axborotlarni **analogli** yoki **diskretli** koʻrinishlari mavjud. Analogli koʻrinishlarda fizik kattalik cheksiz kattalikdagi qiymat qabul qiladi. Shu bilan birga uning qiymati muttasil ravishda oʻzgarib boradi. Diskret koʻrinishlarda fizik kattalik bir necha soʻnggi qiymatni qabul qiladi. Shu bilan birga uning qiymati sakrash tartibida oʻzgarib boradi. [1], [2], [3].

Grafikli axborot **analog** koʻrinishlarda tasvir aksi boʻlib xizmat qilishi mumkin, rangi vaqti bilan oʻzgarishi mumkin. Tasvir **diskret** koʻrinishlarda alohida turli rangli nuqtalardan tashkil topgan va purkovchi printer yordamida chop qilingan boʻladi. qogʻoz, foto va kinoplenkada analog koʻrinishida saqlavchi grafik tasvir, kompyuterning raqam (diskret) formatiga qayta tuzilishi mumkin. Grafik axborot analogli shakldan diskretli shaklga **diskretlash** yoʻli bilan oʻtadi, yani grafik tasvirni aloxida elementlari uzilishsiz tasvirlanadi.

Diskretlashtirish - bu aniq bir kod bilan berilgan har bir diskret qiymatlar toʻplamiga uzluksiz tasvirlarni qayta tuzish. Kompyuterda grafik obyektlarni yaratish va saqlash quyidagi koʻrinishda boʻlishi mumkin: **rastrli tasvir koʻrinishi** va **vektorli tasvir koʻrinishi**. Tasvirning har bir turi uchun kodlashning oʻz usuli qoʻllaniladi.

Rastrli tasvir koʻrinish maʼlum miqdordagi nuqtalar (piksellar)dan tashkil topgan, maʼlum miqdordagi qatorlarda ifodalanadi. *Masalan*, barg tasviri aniq joylangan deb taʼriflanadi va shar bir nuqtaning rangi huddi mozaika kabi tasvir hosil qiladi.

Bunday fayllarni tayyorlash uchun **Paint, Photoshop va Corel DRAW** kabi grafik redaktorlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda katta hajmdagi axborotlarni baʼzan boshqa shaklda qabul qilish qiyinroq. *Masalan*, biror kompaniyaning kunlar boʻyicha bir yillik aksiyalarini kursi koʻrstailgan jadvalni grafik asosda tuzilsa, bunda kursning bir yoqlama oʻzgarish grafigi darhol koʻrinadi, lekin ularni jadvaldan anglash uchun vaqt va malaka talab qilinadi. shuning uchun grafik maʼlumotlarning ulushi har qanday turdagi kasb bilan bogʻliq faoliyatda qatʼiy oʻsmoqda.

Shunday ekan tasvirlar va grafika bilan ishlaydigan vosita va bu vositalar bilan toʻgʻri ishlay oladigan mutaxassislar talab qilinadi. Ehtiyoj doim taklifni

keltirib chiqaradi, shuning uchun grafik tasvirlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan dastur ta'minotlar bozori juda turli xil va kengdir.

Adobe Photoshop - [Adobe Inc.](#) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va tarqatilyotgan ko'pfunksiyali [grafik](#) redaktor. Asosan [rastrli](#) tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan, biroq bir nechta [vektorli](#) vositalariga ega. Dastur Adobe firmasi mahsuloti sifatida mashhur va [rastrli](#) tasvirlarni tahrirlashda dunyoda eng oldi [brendi](#) hisoblanadi. Hozirda Photoshop [macOS](#), Windows platformalariga, [iOS](#), [Windows Phone](#) va [Android](#) mobil tizimlariga moslashtirilgan. Yana [Windows 8](#) va [Windows 8.1](#) uchun Photoshop Express versiyasi ham mavjud. Adobe Photoshop tasvirlarni tahrirlashdagi professional redaktor hisoblanadi. [4].

Xulosa qilib aytganda, Adobe Photoshop dasturi foydalanuvchiga foto suratlar bilan ishlashda katta qulayliklar taklif qiluvchi, suratlarni boshqarish ular ustida amallar bajarish, ularni tahrirlash, ularga nom berish hamda ko'rimlilik darajasini oshirishda katta samarali dasturdir. Asosan Adobe Photoshop dasturi jurnalistlar, reklama agentliklari uchun ko'p samarali dastur hisoblanadi. Dastur yordamida suratlarni o'zlarining maqolalari uchun ajoyib fon yaratishlari, kerakli suratlarni joylashlari hamda tekstlarni ham istalgan ko'rinish, o'lcham va dizaynda joylash imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamarajabov M., Nabiulina L., Tursunov S. Kompuyter grafikasi va Web dizayn. Pedagogika OTM lari uchun darslik. Toshkent, "Cho'lpon", 2013.- 376 b.
2. Tillayev A.I. "Fotodizayn, Adobe PhotoShop". O'quv qo'llanma. Toshkent, "Adib". 2014. 156 b.
3. N.N.Zaripov «Kompuyter grafikasi» O'quv qo'llanma – Buxoro, BuxDU, 2020. 200 b.
4. Rafael Concepcion, Adobe Photoshop CC and Lightroom CC for Photographers, Second Edition, Classroom in a Book, 2019.

JINOYATCHILIKNING KELIB CHIQISH SABABLARINI VOYAGA YETMAGANLARDA O'RGANISHNING AHAMIYATI

Adilova Gulbahor Sottiyevna

Sirdaryo viloyati, Mirzobod tumani 13-maktab amaliyotchi psixologi

Hozirgizamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos tomonlarini, vositalarini, profilaktika qilish chora va tadbirlarining ahamiyati va o'rni, shaxsnibologik nuqsonlari, psixik kamolotidagi kamchiliklar, tarbiyasidagi nuqsonlar, bilish faoliyatidagi kamchiliklar, maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlarni o'rganish asosiy mezon ekanligini, xulqi og'ishganbolalarning guruhlarini ajratish, ular bilan ishlash yo'llarini bilishi kerak.

Deviant xulqli o'smirlar uchun tartibbuzarliklar, yaqin insonlari bilan keskin muomala, "ko'cha" va turli to'dalarning ta'siriga oson berilishi kabilar xos.

Oiladagi salbiy, beshafqat muhit, ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi, ular atrofdagilarga nisbatan qarama-qarshi ruhda harakatlanib, tajovuzkorona buzg'unchilik sifatlarini namoyon qilishadi.

O'smirlar xulqidagi deviantlikning oldini olish, unga qarshi kurashish maqsadida ularning nafaqat yosh davri balki shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish davomida ular yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra, 3 guruhga bo'linishi ma'lum bo'ladi.

1) Shaxsning ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish xususiyatlari, shuningdek, o'zaro muloqotga kirishish xossalari;

2) Shaxsning guruh ichidagi o'zaro munosabati va guruh uchun umumiy bo'lgan qadriyatlarni qabul qila olishi;

3) Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, atrof-voqelikka bo'lgan nuqtai-nazari bilan bog'liq bo'lgan umumiy xususiyatlari.

Shu 3 guruhning ijtimoiy-psixologik xossalariidan kelib chiqqan holda, deviant xulqli o'smirlarning ba'zi bir o'ziga xosliklarini aniqlash mumkin. Ijtimoiy persepsiya - guruh ichida qabul qilingan o'zaro muomala me'yorlari va xulq-atvor mezonlarini o'zlashtirish. Deviant xulqli o'smirlar guruh ichidagi ular uchun referent, ya'ni ahamiyatli hisoblangan guruh a'zolarining muomala, xulq-atvor, munosabat me'yorlarini o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Ijtimoiy xayolot - o'zining hayotiy tajribasiga tayanib, shaxsiy va umuminsoniy qobiliyatlarga baho bera olish.

Ijtimoiy holat - deviant xulqli o'smirlarda juda zaif rivojlangan yoxud umuman bo'lmaydi. Ijtimoiy tafakkur - insonlarning o'zaro muloqot va ijtimoiy munosabatlardagi bog'liklariga ko'ra tushuna bilish qobiliyati. Bu qobiliyat ham zaif rivojlangan o'smirlarda ko'pgina hollarda mavjud emas. Ijtimoiy faollik - deviant xulqli o'smirlar o'z tengdoshlari tomonidan bo'ladigan maqtovlardan manfaatdor bo'lsalargina o'zaro yordam ko'rsatib, javobgarlik hissini sezadilar.

Deviant xulqli o'smirlarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

lider fikriga buysinish va unga ishonish;

- o'zining guruhi o'smirlariga taalluqli bo'lgan muomala;
- muloqot me'yorlarini qabul qilish.

Barcha ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, shaxs qobiliyatlari o'ziga xosdir, ularning muloqot, faoliyat va o'zaro muomala jarayonida rivojlanishi esa shaxsning jamiyatda, oilada, jamoada ijtimoiy faolligi yoki passivligini belgilaydi. Yuqorida aytib o'tganimiz: "ijtimoiy xayolot", "ijtimoiy tafakkur" kabi xossalalar alohida ahamiyatga egadir. Ammo, aynan shu xossalalar deviant o'smirlar tabiatidagi eng kam o'rganilgan xossalardir. O'smirlar jinoyatchiligini o'rgangan psixolog A.I.Dolgovaning ta'kidlashicha, huquqbuzarlik qilishdan avval o'smirni xulq-atvorida me'yordan keskin chekinishlar bo'lib o'tadi. Muallif deviant xulqli o'smirlar uchun xos bo'lgan 2 toifa me'yoriy chekinishlarni ajratib ko'rsatgan: zo'rma-zo'raki va xudbinona toifadagi o'smirlar o'zini kuchli, hozirjavob, tengdoshlariga yordamga shay qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo bunday toifa o'smirlarning haqiqat haqidagi xulosasi jinoyatchi xulosadir. Ular xarakterida

xudbinlik, zolimlik, jismoniy kuchga ishonish, noan'anaviy guruhlarni yoqlash kabi elementlar ustuvordir. Xudbinona toifalar uchun yakkalik, xudbinlik kabi buzilgan xususiyatlar xosdir. Barcha voyaga etmagan jinoyatchilar umuminsoniy qadriyatlarini, jamiyat foydasiga mehnat qilishni, ijodiy faoliyatni tushunmasliklari, qadrlamasliklari bilan xarakterlanadi. Ularning qiziqishi moddiy boylik to'plashga, "xohlaganidek yashashga", "sof vijdon" prinsiplariga yo'naltirilgan. V.V.Korolev o'smir yoshidagi huquqbuzarlikning psixologik holatlarini o'rganish davomida ularga xos bo'lgan quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlagan:

odob-axloq, namunali xulq tajribalarining yo'qligi;

do'stlik, sevgi, jasurlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilmasligi, ular haqidagi to'pori tushunchalar;

o'z-o'zini o'ta past yoki juda yuqori baholash;

huquqiy va ma'naviy qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va ularga teskari munosabatda bo'lish;

tashqi barcha ta'sirlarga beriluvchan bo'lish.

Deviant xulqli o'smirlar maxsus ijtimoiy guruh sifatida quyidagilar bo'yicha asoslanadi: Odatlari, urflari, an'analari. Bunday muhitda o'z maxsus madaniyati shakllanadi. Tashqi tomonidan kiyim-kechak, soch turmagi, jargonda so'zlashuv. Deviant o'smirlarni o'rganuvchi psixologlarning ilmiy ishlarida ularning umumiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari aniqlanadi.

D.I.Feldshteynning fikricha, deviant o'smirlar ijtimoiy sust, tajovvuzkor, qiziqqon, qo'pol, "ko'z yosh" to'kishga moyil bo'lib, ko'plari aldoqchi, mas'uliyatsizligi bilan ajralib turadi. I.A.Semikashevaning izlanishlari bo'yicha bunday guruh qatnashchilari ota-onaga o'xshash xislatlarga ega bo'lib, alohida insonlarni emas, o'zi mansub guruhni hurmat qiladi. Bunday o'smirlar o'z xarakterlariga mas'uliyat sezmay, omma orasida hamma qatori harakatlanadi. S.A.Kulakovning ta'kidlashicha, bunday xulqli o'smirlar psixoterapevtlarning mijozidir, ularga aniq tashxis qo'yilmagandiru, ammo ularning ko'pgina xislatlari me'yoriy jihatdan buzilgan.

Xulosa qilib aytganda xarakter aktsentuatsiyasi va uning tiplari, o'smirlardagi salbiy xulq-atvor guruhlari, agressiv xulq, agressiyaga ta'sir qiluvchi omillar, oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartlari bilan tanishtirish kompetentsiyasigaega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaxarova E.I., Burmenskaya G.V. i dr. Vozrastno-psixologicheskiy podxod v konsultirovaniy detey i podrostkov. – M.: 2002.S.262-287.
2. Karimova V., Akramova F., Ochilova G., Abdullaeva R., Musaxonova G. Pedagogika. Psixologiya. – T.: TDIU, 2007 – 304 b.

XULQI OG‘ISHGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

Xolbayeva Nargiza Azizovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada xulqi og‘ishgan o‘quvchilar bilan ishlash psixologiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, aqliy taraqqiyotni aniqlash uchun o‘tkaziladigan trening mashg‘ulotlari va ularga qo‘yiladigan talablar, mustaqil ravishda trening tashkil etish uchun namunaviy mashqlardan namunalar keltirib o‘tilgan

Аннотация

В данной статье приведены психология подростков и ее специфические особенности, учебные занятия и требования к определению психического развития, примеры примерных упражнений для организации обучения самостоятельно.

Annotation

In this state of bringing the psychology of adolescents and its specific features, training sessions and requirements for the definition of mental development, examples of exemplary exercises for organizing training on their own.

Oilada tarbiya orqali shaxsga ma‘lum bir siyosat g‘oyaviy dunyoqarash, axloqiy me‘yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me‘yorlar va kadri-yatlarni o‘zlashtiradi ijtimoiy xayotga kirib boradi.

Ma‘lumki, maxsus adabiyotlarda "og‘ishgan xulq" atamasi ko‘pincha deviant axloq (deviato-lotin tilida og‘ishgan) sinonimi bilan almash-tiriladi. Kelgusida biz o‘zaro bir-birining o‘rnini to‘ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ko‘llaymiz - "og‘ishgan", "deviant", bunda birinchi atama aniq va o‘rganilgan bo‘lgani sababli afzal ko‘riladi. O‘rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko‘rinib turgan murakkabligiga ham-madan avvalo, uning fanlararo xarakteri sababdir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o‘rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me‘yorlarga mos kelmaydigan muomala, va inson harakati" ma‘nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriya-ning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustah-kam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o‘rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo‘lgan me‘yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko‘rinish" ma‘nosida u sosiologiya, huquk, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Ushbu ishda biz og‘ishgan xulqni birinchi aspektidagi afzallikda-individual faollikning ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Tushunchani ta‘riflash ko‘rinishning muhim belgilarini ajratishni ko‘zda tutadi. Shaxsning og‘ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shu-ningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zarura-tida yordam bersin.

Shaxsning og‘ishgan xulqi-bu umum qabul qilingan yoki rasman o‘rnatilgan ijtimoiy me‘yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud

qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydi. Deviant axloqni me'yordan og'ishgan axloq sifatida aniqlaganda shuni esda tutish kerakki, ijtimoiy me'yorlar o'zgaradi. Bu, o'z navbatida, og'ishgan xulqqa tarixan o'tkinchi xarakterni beradi. Misol sifatida davr va davlat, chekishga munosabatdan qat'iy nazar turli narsani keltirish mumkin. Shubhasiz, deviant axloq bu har qanday me'yor emas, balki ushbu jamiyat uchun shu vaqtda birmuncha muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarninggina buzilishidir.

Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va dard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant axloq o'zining eng keyingi ko'rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug'diradi, masalan, suitsidal axloq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish. Zararning psixologik markeri o'sha odamning o'zi yoki uning atrofida qilarning aziyat chekishidir.

Ushbu belgi shaklidan - destruktiv yoki autodestruktiv bo'lishidan qat'iy nazar og'ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, kreativlik va marginallik kabi yaqin ijtimoiy ko'rinishlar og'ishgan xulq bo'la olmaydi va ushbu belgini qoniqtirmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me'yorlardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo'lgan qismida g'ashlik uyg'otsa-da, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko'ra foydalirokdir. Xullas, radikal moyil bo'lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Kreatorlar nostandartligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk kashfiyotchilar sifatida chiqadilar. Sanab o'tilgan fenomenlar uyg'unlashtirish mumkin. Masalan, ko'pincha o'smirlar axloqi barcha uchta tendensiyani o'zida aks ettiradi pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan tajriba o'tkazgan o'smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Birok heroin iste'mol qiluvchi o'smir hayot uchun yuqori xatarli og'ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. Shunday kilib, og'ishgan xulq o'z mohiyati bo'yicha destruktivdir.

Axloqning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda ko'rsatilishga axloq "tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirdir". Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tu-shuniladi. Quyidagilar axloq-ning ichki tarkibi bo'lib hisoblanadi: motivatsiya va maqsad qo'yish, kognitiv ishlov berish, hissiy reaksiyalar, o'z-o'zini boshqarish jarayonlari. Kelgusi muhokamalarda axloq tushunchasi ostida biz shaxsning individual xususiyatlari va shaxsning tashqi harakat hamda muomalasi shaklida ifodalanuvchi ichki faolligi bilan bog'liq muhitdan kelib chiqqan o'zaro harakati jarayonini tushunamiz.

Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri – bu uning o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiyligidir, u jamiyatda shakllanadi va amalga oshadi. Inson axloqining boshka muhim xususiyati-bu uning nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yishi bilan

mustahkam aloqasi hisoblanadi. Yaxlit olganda insonning axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini- jamiyatga integrasiyasini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, o‘z navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijti-moiy muhitga moslashishni ko‘zda tutadi. Moslashuv-individuallashuv jarayon-larining nisbati bo‘yicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqeyi yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi variantlarini ajratish mumkin:

-radikal moslashuv - shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o‘zgarishi orqali o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishi;

-gipermoslashuv - shaxsning o‘z oliy yutuklari vositasida ijtimoiy hayotga ta’siri orqali o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishi;

-uygunlashgan moslashuv - shaxsning jamiyatda ijtimoiy talablarga yo‘nalishi vositasida o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishi;

-konformistik moslashuv - individuallikni bostirish, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishni birlashishi hisobiga;

-deviant moslashuv - mavjud bo‘lgan ijtimoiy talab (me’yor) lardan chetga chiqish vositasida o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish;

-ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik - o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini to‘sh holati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonov F. Davletshin «Odamlar Bilan kandy mulokotga kirishish va yoshdashish kerak» 1996 y. Toshkent.

2. Adizova «O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari».

OLIV TA’LIM MUASSASALARINING PEDAGOGIK TA’LIM SOHASIDA BO’LG’USI MUSIQA O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O’YIN TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annakulova Dildora

Sirdaryo viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi musiqa fani o‘qituvchisi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikni talab qiladi va izchil ravishda oshirib borishni taqozo etadi [34.10]. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar mavjud? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur? Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalar ahamiyati nimalardan iborat? Ayni o‘rinda shu va shunga o‘xshash fikrlar yuzasidan so‘z yuritishni maqsad qildik.

Xorijiy so‘zlar lug‘atida “kompetentlik” tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki qandaydir insonga tegishli

ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan.

Fransuzcha "competent" so'zi "kompetentli, vakolatli" degan ma'zmunini anglatadi.

Lotincha "Kompetensiya" so'zi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo'lgan" kabi ma'nolarni bildiradi.

Ruscha "kompetentlik" dagi "nost" qo'shimchasi har qanday sifatga egalik darajasini bildiradi, shuning uchun "kompetentlik" atamasi sifatni, uning rivojlanish darajasini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi professional malaka, mahorat va iqtidorni namoyon qila oladi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos I. N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan ishlab chiqilgan. Bern shahrida bo'lib o'tgan Sovet Yevropasi simpoziumi dasturida (1996) "kompetentlik" so'zi "o'quv", "mahorat", "qobiliyat" kabi tushunchalar qatoriga kiritilgan.

Bolonyada chaqirilgan Yevropa ta'lim vazirlarining Qo'shma deklaratsiyasida (1999-yil) ta'lim islohatlarining konseptual asoslari kompetentli asos sifatida belgilangan.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Ilmiy - psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish ro'y beradi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi zamonaviy axborotlardan foydalanish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llash imkonini beradi.

Prezentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7 – fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF - 4947 - sonli Fannoni asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining 1 - "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish" hamda 2 - "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sudhuquq tizimini yanada isloh qilish" yo'nalishlarida olg'a surilgan g'oyalarning mazmun va mohiyati ham rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasi masalasiga qaratilgan [22.255].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015-yil 12-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni oliy o'quv yurtlari professor - o'qituvchilarining

kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, zamonaviy talablarga muvofiq kompetentsiyasi sifatini tubdan oshirish borasida muhim poydevor bo'ldi[22.255].


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat ta'lim standartlari (DTS) da esa bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishga qo'yiladigan malaka talablari to'liq belgilab berilgan. Bo'lajak mutaxassislarda ushbu malaka talablarini shakllantirish samaradorligi OTM rahbar va pedagog kadrlari kompetentlik darajasiga bog'liqdir. Shuningdek, dunyo miqyosidagi OTM rahbar va pedagoglari ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat talablari xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ham belgilangan bo'lib, ulardan ijodiy va samarali foydalanish ta'lim menejmentining xalqaro talablar asosida tashkil etilishida katta o'rin to'tadi va muhim rol kasb etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi sharoitlarda o'z ifodasini topadi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir - biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kompetentsiyaviy model turlari:

- Kasbiy qadriyat;
- Kasbiy ko'nikma va malaka
- Kasbiy tushuncha va mukammal bilim.



1-rasm. Kasbiy kompetentsiya modeli

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki uning shakllantirish bosqichlari mavjud bo'lib, ushbu bosqichlar asosida pedagog kadrlar tarbiyalanadi va shakllanadi. Ular quyidagi bosqichlardan iborat:

Bo'lajak musiqa o'qituvchi kompetentsiyasining shakllanish bosqichlari

- pedagogik va musiqiy qobiliyatni aniqlash;
- tarbiyalash va shakllantirish;
- chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- ishonch.


Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari o'z faoliyatlarida ilm-fan, tajriba, qobiliyat va kasbiy mahoratga asoslangan holda o'z-o'zini namoyon etishi auditoriyani samarali boshqarishda muhim rol kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy pedagog kompetentsiyasida jarayonni

boshqarishning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- loyihalashtirish;
- jarayonlarni tashkil qilish;
- faoliyatini innovatsion boshqarish;
- motivatsiya berish;
- nazorat qilish;
- tahlil qilish .

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi :



2-rasm. Kasbiy kompetentlik negizidagi sifatlar

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish [32.48].

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik muammolarni to‘g‘ri hal etilishi, faoliyat natijalarini real baholash, bilim, malaka va ko‘nikmalarni ketma-ketlik bilan rivojlantirib borish, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) *psixologik kompetentlik* – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yaratish, talabalar hamda ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik kelishmovchiliklarni kerakli paytda anglash va bartaraf eta olish;

b) *metodik kompetentlik* – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, vosita va metodlarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llab bilish;

d) *informatsion kompetentlik* – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan unumli foydalanish;

e) *kreativ kompetentlik* – pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy va tanqidiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

f) *innovatsion kompetentlik* – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

g) *kommunikativ kompetentlik* – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari,

shuningdek, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglab hamda ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – musiqiy pedagogik ko'nikma, bilim, va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan unumli foydalanishdan iboratdir.

5. Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish qoidalariga rioya qilish.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchi uchun kasbiy va pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z - o'zini rivojlantirish ahamiyatlidir. O'z - o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari "Musiqiy ta'lim" kafedrasidagi musiqiy o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy tus berishda muhim vazifalardan biri - bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kasbiy - pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, bo'lajak musiqa o'qituvchilar tayyorlash sifatini oshirish, kasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiyani shakllantirish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdan iboratdir.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari va ulardagi musiqa o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy malaka, bilim, va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveysariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassilar tayyorlash bilan bog'liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, berilgan vazifani mukammal bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezon talablari sifatida musiqa o'qituvchilarning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish darajasi, kasbiy faoliyat talablariga moslashish tariqasida qaratilgan [34].

Yuqorida keltirilgan ilmiy g'oyalarining tahlili asosida aytish mumkinki, pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchining kasbiy kompetentligi amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Musiqiy ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning o'quv-uslubiy faoliyatida, innovatsion ta'lim texnologiyalarning samarali qo'llanishida, o'yinli texnologiyalaridan izchil foydalanishda, shuningdek, pedagogik nizolarni bartaraf etishdagi qobiliyatlarida o'z aksini topadi.

Musiqiy ta'lim amaliyotida o'yin texnologiyalariga katta e'tibor beriladi.

O'yin texnologiyalari nazariyasi mutloq boshqa pedagogik texnologiya nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. O'yin texnologiyalari mashhur psixologlar mutafakkirlari P.Ya. Galperinlar, L.S. Vigodskiy, A.N. Leontevning ishlarida nazariy asoslangan.

O'yin texnologiyalari o'z harakteriga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. O'yin texnologiyalari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20 - yillarida gurrkirab avj oladi. O'yin texnologiyalariga taqlidiy (imitasion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida tan olindi [35.32].

A.A. Verbiskiy o'yin texnologiyalariga o'qitishning ishoraviy - kontekst shakllari sifatida qaraydi. Verbiskiyning fikricha, o'yin texnologiyalarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir suniy va tabiiy bilish va o'qitishning vositasi sifatida. Shu bois o'yin texnologiyalari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida aniqlanadi va uning mazmuni ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, imitasiya (taqlid) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbiskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, shu bilan birga talabani bir yetakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa(kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb tushunadi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi rivojlantiriladi va takomillashtiriladi.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, qobiliyatlarini o'zlashtirish vositasi sifatida aniq tasvirlaydi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir. L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N. Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yin texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyunshirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni rivojlantirish, yetuk

axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog‘lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo‘lgan komil shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani omalga oshiradi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish
- kommunikativlik (uyushtiruvchilik)
- maftunkorlik
- davolovchilik
- tashxis
- ijtimoiylashuv
- millatlararo muloqat

Musiqiy ta‘lim jarayonida o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yin darsi shaklida qo‘llaniladi. Bu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning musiqiy ta‘lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yin darslari deb ataladi.

Didaktik maqsadga ko‘ra o‘yinlar quyidagilarga bo‘linadi:

- musiqiy ta‘lim - tarbiya beruvchi (konfernsiya, individual - kompyuterli, didaktik) o‘yinlar;

- musiqi bilimlarni mustahkamlovchi (ijodiy, ishbilarmonlik, tadbirkorlik) o‘yinlar;

- musiqi o‘quv materialini takrorlovchi (matbuot konfrensiyasi, zinama-zina o‘yinlar, rolli va syujetli) o‘yinlar;

- bilimlarni nazorat qiluvchi (Intellektual ring, Zakovat, musobaqa) o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlar o‘yin usullarini cheksiz takrorlash va almashtirish, unga turli innovatsiyalar kiritish imkonini beradi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga shu bilan birga uning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi[13.66]. Didaktik o‘yin turlari musiqi o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi, ishtiyoqini oshiradi va ishtiroqchilar uchun tushunarli tarzda olib boriladi. Bo‘lajak musiqi o‘qituvchilar g‘olib chiqish maqsadida jon-u dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni, albatta, bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ular didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan ishtiyoqi ortib boradi. Didaktik o‘yin turlari musiqi darslarining maqsadini va har bir mashqning vazifalarini yaxshiroq tushunib olishda o‘z ifodasini topadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yin hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g‘alaba qozonishga intilish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat‘iy va izchil rioya qilishni taqazo etadi. “Asar kompozitorni to‘g‘ri toping!”, “Kuyga to‘g‘ri funktsiya qo‘ying!”, “Diktantni tez va to‘g‘ri yozing!”, “Asarni nomini to‘g‘ri toping!”, “Asarda tushib qolgan notalarini to‘ldiring!”, “To‘g‘ri javobni toping!”, “Zinapoyani yasang!”, “Tonalikni to‘g‘ri aniqlang!”, “Templarni to‘g‘ri guruhlarga ajrating!”, “Mavzuga KEYS tuzing” singari o‘yinlarni o‘tkazish paytida bo‘lajak musiqi o‘qituvchilar jamiyat me‘yorlari va qadriyatlariga jalb qilish, muhit sharoitlariga moslashish, ehtirolarni nazorat qilish, boshqarish va muloqot qilish xususiyatlarini o‘rganadilar.

O'QUVCHILARDA MATEMATIK QOBILIYATLAR RIVOJLANISHNI TA'MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Abibullayeva Anife Ablyazizovna

***Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani 1-umumta'lim maktabi oliy-toifali
matematika fani o'qituvchisi***

Matematikani o'qitishda o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, matematik fikrlashga o'rgatish ko'p jihatdan dasrda yechilayotgan misol va masalalarni hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab, mazmunan boyitishga qaratilishi lozim. Bunda turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda o'quvchilarning matematik tayyorgarligi sifatining pasayib ketishiga sabab bo'lgan qator muhim jihatlar o'rganildi. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Matematikni haqiqiy hayot bilan bog'lash qiyinligi: O'quvchilar matematikni cheklovchi va qiyin hisoblashadi va bu ularning matematikaga bo'lgan qiziqashlarini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

2. Matematikni amaliyotda qo'llashning kamligi: O'quvchilar matematikni amaliyotda qo'llash imkoniyatini juda kam ko'rishadi. Shu sababdan, o'qituvchilar matematikni amaliyotda, ma'lumotlar bazasi va haqiqiy hayot bilan bog'lash yordamida o'qitishga harakat qilishi kerak.

3. Matematikani o'qitish usullarining kamligi: O'qituvchilar matematikni o'qitish jarayonida har xil metodlardan foydalanishi lozim. O'qituvchilar matematikni o'qitish usullarida innovatsion yondashuvlarga e'tibor qaratish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun qiziqarli va darslikdan tashqari materiallardan foydalanish kerak.

4. O'quvchilarning motivatsiyasining yomonligi: O'quvchilarning matematikni o'rganishga motivatsiyasi yo'qligi matematikani o'rganishni to'xtatishiga sabab bo'lishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarni qiziqtirishi va matematikni hayotiga bog'lash yordamida motivatsiyalarini oshirish uchun qo'llanishlari kerak.

5. Matematikani o'qitishda hamkorlik maslasi: O'quvchilar matematikni o'rganishga yordam berishning o'zaro hamkorligi muhimdir. O'qituvchilar o'quvchilarning matematikani o'rganishda bir-birlari bilan fikr almashishlariga yordam berish lozim.

O'quvchilar matematikani o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelsalar ham, o'qituvchilar matematikani o'qitish usullarida innovatsion yondashuvlarga e'tibor qaratish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun qiziqarli va darslikdan tashqari materiallardan foydalanish muhim deb hisoblaymiz. Shuningdek, o'quvchilarni bir-biriga aloqada o'qitish va matematikani amaliyot bilan bog'lab o'qitish imkoniyat yaratish ham muhimdir.

Bundan tashqari, umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy darajasini rivojlantirish zaruriyati mavjudligi, bitiruv imtihonlarida, oliy ta'lim muassasalariga kirish attestatsiyasida matematikadan test

olinishi ommaviylashib ketishi o'quvchilarda matematik qobiliyatlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlandi. Buni shunday izohlash mumkinki, matematika o'qitishda uning barcha bo'limlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishlari, shuningdek, ko'nikma va malakalarini test yordamida aniqlash imkoni yo'q [1, 2].

Matematika o'qitish metodikasida o'quvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini aniqlovchi testlar deyarli ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, geometriyadan testlarni ishlab chiqish texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, aksariyat hollarda chetda qolmoqda. Shuning uchun bugungi kunda oldindan keng tarqalgan axborot-tushuntiruv yondashuvi kerakli natijani, ya'ni sifatli bilim berish imkoniyatiga zamin hozirlamaydi.

Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, bunday yondashuv o'quvchilarga formal matematik bilim berish bilan chegaralanadi. Matematika o'qitishda berilayotgan o'quv materialini faqat tushunchalarni mantiqiy rivojlantirishga asoslangan holda, tashkil qilish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Bu o'quvchilarda bilim o'zlashtirishning formal holatini vujudga keltiradi. Shuningdek, bu holat o'quvchilarda matematik qobiliyatlar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi [3, 4].

Pedagog olim A. I. Markushevich ta'biricha, "bosh maqsadi, faktlarni berish va tipik misollar yechish yordamida malaka xosil qilishga qaratilgan matematik ta'lim tizimi o'zining natijalariga ko'ra turg'un emas" [5].

Shuning uchun, o'quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kirib, mutaxassislarning bu boradagi matematik tayyorgarligi sifatini orttirishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda, maktab o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirishda mavjud metodikani takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bu masalani o'rganayotganda, matematik qobiliyatlar matematik bilim, ularni reproduksiya qilishni va mustaqil qo'llay olishni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv qobiliyatlari va ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan original maxsulotni mustaqil yaratish bilan tavsiflanadigan ijodiy matematik qobiliyatlarga ajratilib o'rganilishiga e'tibor qaratish lozim.

Qobiliyatlarni, jumladan, matematik qobiliyatlarni o'rganish uning bir nechta aspektini ajratib olish imkonini berdi: bular ijtimoiy, psixologik, pedagogik va metodik aspektlar.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy aspekti o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, individual 420 qobiliyatlarini rivojlantirish natijasida, ularning intellektual imkoniyatlari darajasini asrash va o'stirish bilan bog'liq.

Psixologik aspekti esa, qobiliyatli shaxs shakllanishining ichki mexanizmlari, matematik qobiliyatlar tuzilishi, ularning diagnostikasi va rivojlanishining xususiyatlarini qarash zaruratidan kelib chiqadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi o'quvchilar qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Demak, o'quv fanlarini o'qitish jarayonida qobiliyatlarni rivojlantirish muayyan yo'llarini aniqlash-ushbu muammoning metodik aspektini tashkil qiladi.

Matematik qobiliyatlar tuzilishini ajratib olish uchun tadqiqotchilar matematik faoliyatlarni tahlil qilganlar: masalani yechish jarayoni, isbotlash usullari, mantiqiy mulohaza yuritish, matematik nazariyani eslab qolish qobiliyati va boshqalar. Bunday tadqiqotlar tarkibi va komponentlarining turlichaligi bilan murakkab bo'lgan juda ko'p tuzilishlarni ajratish imkonini berdi. Lekin barcha tadqiqotchilar fikricha, matematik qobiliyat-bu alohida individning yaqqol ko'rinib turadigan xislati emas, balki psixik jarayonlar xususiyatlari xotira, fikrlash, idrok va diqqat bilan aniqlanadigan sifatlarning butun bir majmuasi.

O'quv matematik qobiliyatlarni yuqoridagicha turkumlashni A. I. Markushevichning quyidagi turkumlashi muvaffaqiyatli to'ldiradi va aniqliklar kiritadi [5]:

- 1) miqdoriy va fazoviy tasavvurlarning rivojlanganligi;
- 2) savolning nomuhim jihatlaridan uzoqlashib, uning muhim jihatlarini ajratib olish (abstraktlashtira olish);
- 3) aniq qo'yilgan savoldan sxemaga o'tish, ya'ni sxemalashtira olish;
- 4) berilgan dastlabki shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, mantiqiy xulosa chiqara olish, berilgan savolni tahlil qilib, xususiy hollarga ajrata olish (deduktiv fikrlash);
- 5) nazariy xulosalarni aniq savollarga qo'llay olish, ularni taqqoslay olish, umumlashtira olish, shartlarni natijaga ta'sirini baholay bilish, yangi savollar qo'ya olish;
- 6) fikrlashning matnli ifodasi aniqligi, ixchamligi va tushunarligi;
- 7) o'z diqqatini xohlaganday boshqara olish;
- 8) qo'yilgan maqsadga erishishdagi qat'iyiligi, tartibli ishlashga ko'nikmasi majudligi.

Pedagogik shart-sharoitlarga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy va maxsus (matematik) qobiliyatlarni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- qulay psixologik muhitni, individuallashtirilgan muloqotlar yordamida o'ta muhim munosabatlarni yaratish;
- ta'lim mazmunining axborotlashtirilgan muhitini boyitish; jamoaviy ijodkorlikka tayanish;
- o'quvchiga individual yondashish asosida shaxs rivojlanishini faollashtirish;
- ta'limni texnologiyalashtirish: ijodiy metod va masalalardan foydalanish asosida rivojlantiruvchi va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish;
- iqtidorni rivojlantirish, shaxsning ijodiy rivojlanishini boshqarish masalalarida pedagoglar kompetentligi;
- iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda tadqiqotchilik, muammoli va evristik metodlar ustuvorligi;
- o'quvchilarni maxsus metodlardan foydalanish asosida ijodiy faoliyatga jalb etish.

Darsliklardagi ko'pchilik nazariy-sonli masalalar o'zlarining nostandartligi, yechish g'oyalarining turlichaligi, ularning ko'pchiligi bir nechta usulda yechilishi bilan ajralib turadi. Ular o'quvchi bilimi darajasiga mos va ularni yechish

qo‘shimcha yangi bilimlar talab qilmasligi aniqlandi. Maktab yoki oliy ta‘lim muassasalari kurslaridagi ko‘p masalalar o‘quvchi yoki o‘quvchilarga ular yordamida yangi masalalar tuzish uchun asos bo‘ldi. Darsliklardagi nazariy-sonli masalalarning ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlari o‘quvchi matematik qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlari sifatini yaxshilash, matematika darslariga qiziqishini o‘rttirishda keng imkoniyatlar ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Берландина Е. Л. Психологическое сопровождение личностного развития учащихся в 421 условиях профильного обучения: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Ставрополь, 2003. – 17 с.
2. Ғайбуллаев Н. Р. , Дырченко И. И. Развитие математических способностей учащихся. Метод, пособия для учителей. – Т. : Ўқитувчи, 1988. – С. 245.
3. Дружинин В. Н. Экспериментальная психология. СПб. : – Питер, 2000.
4. Ibragimov N. SH. Talaba o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish m//O‘zMU xabarlar. – Toshkent. 2018. – 1/4/1-son. – В. 128-132.
5. Маркушевич А. И. Об очередных задачах преподавания математика в школе //Математика в школе. 1962. , – №2. – С. 3-14.

ЎЗБЕКИСТОНДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Турсинбоев Олимжон Шухратбек ўғли

А.Авлоний номидаги ПКРЯМЎМТИ, Таянч докторанти

tursinboyevolimjon88@gmail.com, +998(91) 485-85-93

Аннотация: Бугунги кунда умумтаълим мактаб ўқитувчиларининг узликсиз касбий ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар ва уларнинг мазмун-моҳияти очиб берилган.

Калим сўзлар: Узлуксиз касбий таълим тизими, Халқ таълими тизмидаги таълим муасасалари ходимлари, қайта тайёрлаш, касбий малака

Аннотация: Раскрываются реформы, проводимые сегодня в сфере непрерывного профессионального развития учителей общеобразовательных школ, и их сущность.

Ключевые слова: система непрерывного профессионального образования, кадры образовательных учреждений системы народного образования, переподготовка, профессиональная подготовка.

Annotation: The reforms carried out today in the field of continuous professional development of teachers of general education schools and their essence are revealed.

Keywords: system of continuous professional education, staff of educational institutions of the public education system, retraining, vocational training.

Халқ таълими тизмидаги таълим муасасалари ходимларини касбий фаолиятини сифат жиҳатдан кўтариш бугунги куннинг долзаб вазифаларидан бирига айланиб бормоқда. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон янги тараққиёт стратегияси” асарида ҳам ўқитувчиларни узликсиз касбий ривожлантириш ҳамда “хаёт давомида таълим ол” стратегиясига⁷⁴ ҳам алоҳида аҳамият қаратди. Шунингдек, Янги Ўзбекистон таълим стратегиясининг бош мезони ҳисобланган “Таълим тўғрисида”ги қонуни қайта қабул қилинганлиги ҳамда таълимнинг узлуксиз ва изчиллиги қонун билан мустаҳкамланганлиги катта аҳамиятга эга бўлди.

Ўзбекистоннинг таълим-тарбия тизимини ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътироф этилмоқда. Ўқувчиларни жаҳон андозаларига мос шароитларда замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллашлари, жисмоний ва маънавий жиҳатдан етук инсонлар бўлиб вояга етишларини таъминлаш, уларнинг қобилият ва истеъдоди, интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқаришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Бугун Ўзбекистон жаҳон иқтисодиётининг ажралмас қисмига айланиб бормоқда. Хорижий инвестиция оқими кундан-кун ошмоқда. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, хорижий инвесторлар учун мамлакат жозибадорлигини ошириш фақат унинг табиий ресурслари билангина эмас балки, таълим тизининг аҳволи ҳам муҳимдир. Чунки, малакали ишчи кучи мамлакатнинг ўзида тайёрланмас экан, инвестор учун бу мамлакат жозибадор ҳисобланмайди. Таълим соҳасида амалга оширилаётган барча ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад ҳам Янги Ўзбекистон дарвозаларини хориж инвесторларига кенг очиш ҳамда меҳнат ресурсларини инсон капитали даражасига кўтариш устувор вазифага айланиб бормоқда.

2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони узлуксиз касбий ривожланиш соҳасида амалга ошириладиган ислоҳотларнинг йўналишлари аниқ белгилаб берди. Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб PISA (The Programme for International Student Assessment) Халқаро миқёсда ўқувчиларни баҳолаш дастури рейтинги бўйича жаҳоннинг биринчи 30 та илғор мамлакати қаторига кириши режалаштирилмоқда⁷⁵. Бунинг учун узлуксиз таълим тизими мазмунини сифат жиҳатидан янгилаш, шунингдек профессионал кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимидаги ислоҳотларга алоҳида аҳамият қаратилди. 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига асосан, халқ таълими ходимларининг малака ошириш жараёнини “хаёт давомида ўқиш” тамойили асосида узлуксиз малака оширишни назарда тутувчи тизимга айлантириш вазифалари белгиланган.

⁷⁴ Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон янги тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон нашриёти/Тошкент-2021.

⁷⁵ «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони. ПФ-5712-сон. 29.04.2019 й.

Бундан ташқари, 2021 йил 25 январда “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарор Президент томонидан имзоланган. Шунга кўра, “Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш”⁷⁶ бўйича “Йўл харитаси”да босқичма-босқич халқ таълими ходимларининг «Lifelong learning» тамойили асосида узлуксиз малака ошириш тизимини жорий этиш кўзда тутилган ва бугунги кунда “Узлуксиз касбий ривожлантириш” махсус электрон платформасида мактаб фан ўқитувчилари учун курслар жойлаштирилди.

“Хаёт давомида таълим ол” ёки халқ таълими ходимларини малака ошириш тизимлари хориж мамлакатлари тажрибалари ҳам ўрганилди. Жумладан, менежерлик курслари ўқув режа ва дастурларини ишлаб чиқишда Германия, АҚШ, Корея, Сингапур каби давлатлар тажрибалари ўрганилди ва улардан фойдаланилди. Мазкур курслардан кўзланган натижа шу вақтгача ўзини ўқитувчилар бригадасининг бошлиғи сифатида ҳис этиб келган мактаб директорини таълим ва тарбия ишларининг уддабурон ташкилотчиси, мактабдаги таълим ресурсларининг тадбиркор эгаси, жамоанинг тўла маънодаги етакчиси ва энг муҳими мактаб ҳамда унинг жамоасининг муваффақиятли фаолияти учун тўла жавобгарликни ўз зиммасига оладиган ҳамда мазкур муваффақиятга эришиш учун тинмай изланадиган лидер директорларни тайёрлашдир.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 17 январдаги 25-сон Қарори билан тасдиқланган “Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарор узлуксиз касбий ривожланиш тизимини соҳасидаги амалга ошириладиган ислоҳотларнинг йўналишлари, тизимнинг мақсад ва вазифалари ҳамда амалга ошириладиган тадбирларни аниқ белгилаб берди.

Узлуксиз касбий ривожлантиришнинг мақсади — халқ таълими ходимларнинг илғор педагогик ва ахборот технологиялари, шунингдек, ўқитишнинг интерактив усуллари бўйича касбий билимлари, малака ва кўникмалари мунтазам равишда янгилаб борилишини таъминлаш ҳамда уларни давлат таълим стандартлари, давлат таълим талаблари ва соҳага оид қонунчилик билан мунтазам таништириб боришдан иборат. Унинг асосий вазифалари эса доимий касбий ривожланиши учун кенг имкониятлар тақдим этадиган таълим муҳитини яратишдан иборат. Шунингдек, ўз устида мустақил ишлаш ва креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш, касбий маҳоратини такомиллаштириш, ахборот технологиялари бўйича амалий кўникмаларни шакллантиришдан иборат.

⁷⁶ Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарор. 25.01.2021 й.

Узлуксиз касбий ривожлантириш соҳасида Халқ таълими вазирлиги халқ таълими ходимларининг касбий маҳоратини оширишни ташкил этиш тартибини белгилайди. Умуман олганда вазирлик узлуксиз касбий ривожлантириш соҳасини мувофиқлаштириш вазифасини бажаради⁷⁷.

Ушбу низомга мувофиқ узлуксиз касбий ривожлантириш тизимада меҳнат бозори мониторинги асосида халқ таълими ходимларининг билим ва малакаларга бўлган эҳтиёжлари ва тенденцияларни аниқлаш ҳамда касбий стандартларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш бўйича фаолиятни мувофиқлаштиришни 2021 йилда ташкил этилган Президент ва Вазирлар Маҳкамасига ҳисобдор бўлган Касбий малака ва билимларни ривожлантириш бўйича кенгаши амалга оширади. Кенгаш классификатор, жумладан, таълимнинг энг паст даражасига қўйиладиган талабларни бекор қилган ҳолда ҳар бир лавозим ва касб бўйича малака доирасига мувофиқ малака даражасига талаблар киритилишини назарда тутди.

Узлуксиз касбий ривожлантириш тизимда таълим муассасалари ходимлари малака оширишга жалб қилинади. Ҳар ўқув йилида ходимларни касбий ривожлантириш бўйича шакллантирилган буюртмалар умумлаштирилади. Муайян мутахассисликка талаб ортиши муносабати билан айрим педагогларнинг қайта ихтисослашуви юзасидан Вазирликка таклифлар киритишни ҳудудий халқ таълими бошқармалари буюртмачи сифатида амалга ошириши кўзда тутилмоқда.

Халқ таълими ходимларининг малака ошириш бўйича эҳтиёжларини ўргананиш, ва ходимларнинг малака ошириш бўйича эҳтиёжларини ўрганган ҳолда электрон платформа орқали уларнинг индивидуал касбий ривожланиш траекторияси тузилди. Халқ таълими ходимларининг мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасаларидаги узлуксиз малака ошириш тадбирларини ташкил қилиш жараёнлари мониторингини олиб бориш туман (шаҳар) халқ таълими бўлимлари томонидан амалга оширилади.

Умумтаълим мактабларининг педагог кадрлари касбий ривожланишга бўлган эҳтиёжларини аниқлаш ва касбий ривожланиш шакллари, йўналишлари ҳамда малака ошириш ташкилотлари тўғрисидаги маълумотлар билан таништирилмоқда. Умумтаълим мактаблари педагогларни қачон, қаерда ва қайси йўналишда малака ошириши, касбий ривожланишга бўлган эҳтиёжи ҳақидаги маълумотларни туман (шаҳар) халқ таълими бўлимига тақдим этиши белгиланди.

А. Авланий номидаги Халқ таълими муаммоларини ўрганиш ва истиқболларини белгилаш илмий-тадқиқот институти ҳудудий марказлар учун бош таълим муассасаси ҳисобланади ҳамда уларнинг ўқув, методик ва илмий фаолиятига раҳбарлик қилади. Институтнинг асосий вазифалари халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини илмий-методик жиҳатдан таъминлайди. Умумий ўрта таълимни ташкил

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори.17.01.2022 й.

этишнинг янги технологиялари, воситалари ва келажак мактаби, унинг раҳбари ва ўқитувчисининг моделини яратиш асосида халқ таълими ходимларининг касбий стандартларини ишлаб чиқиш билан биргаликда доимий тарзда ривожлантириб бормоқда. «Узлуксиз касбий таълим» махсус электрон платформани юритишни ташкил қилиш, малака ошириш ташкилотлари билан биргаликда қайта тайёрлаш ҳамда малака ошириш курслари ўқув модуллари контенти марказлаштирилган тарзда ишлаб чиқилиши ва платформага киритилишини таъминлашдан иборат.

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказлари узлуксиз касбий таълим тизимида қуйидаги вазафаларни амалга ошириш режалаштирилмоқда. Педагог ва мутахассис ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга ихтисослаштирилган ўқув муассасаси ҳисобланиб, шу йўналишдаги ўқув, илмий ҳамда ташкилий-методик ишларни амалга оширади. Педагогика, психология, ўқув фанлари ва уларни ўқитиш методикасининг мамлакатимиздаги ва жаҳондаги энг янги ютуқларини мунтазам равишда ўрганиш шунингдек, замонавий ахборот ва педагогик технологияларнинг ўзлаштиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Педагог ходимларнинг ўз касбий малакаларини такомиллаштиришга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш мақсадида қайта тайёрлаш ва малака оширишнинг илғор шакл ва усулларини жорий этиш режалаштирилган. Ҳудуддаги таълим муассасалари узлуксиз касбий ривожлантириш бўйича буюртмалар асосида навбатдаги календарь йил учун тегишли тадбирлар режасини шакллантиради. Педагог ходимларни ҳамкорликда ўқитиш учун олий ва умумий ўрта таълим муассасалари, илмий-тадқиқот институтлари ва марказлари билан шартномалар тузади. Ўқув режаси ва ўқув дастурлари асосида ишчи ўқув режасини ҳамда ишчи ўқув дастурларини ишлаб чиқади.

So'ralgan joyga taqdim etish uchun 10:07:07:01:02:7824:0001

Ҳудуддаги эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда алоҳида курсларни ташкил этиш учун, белгиланган тартибда тасдиқлатиш шарти билан, ўқув режаси ва ўқув дастурларини ишлаб чиқади. Халқ таълими ходимларини касбий ривожлантириш бўйича ташкил қилинган тадбирлар натижалари электрон платформага киритилишини таъминлайди. Ҳудудий марказда, олий таълим муассасалари ва нодавлат таълим ташкилотларида ташкил қилинган гуруҳлар ҳақида ҳар ойлик ҳисоботларни шакллантиради ва Институтга тақдим этади.

Узлуксиз таълим тизимида касбий малака ошириш тизимини такомиллаштиришга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш мақсадида ҳудуддаги таълим муассасалари педагог ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш бўйича буюртмалар ўрганилмоқда. Шу асосда малака ошириш курсларини шакллантириш, ўқув режаси ва ўқув дастурлари асосида ишчи ўқув режасини ҳамда ишчи ўқув дастурларини ишлаб чиқиш режалаштирилди. Халқ таълими ходимларининг малакасини ошириш натижалари электрон платформага киритилишини таъминлаш, ташкил қилинган гуруҳлар ҳақида ҳар

ойлик ҳисоботларни шакллантириш ва тегишли ҳудудий марказга топшириш каби вазифаларни Педагогика йўналишидаги олий таълим муассасалари ҳамда нодавлат таълим ташкилотлари амалга оширади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, педагог ходимларни жаҳоннинг илғор тажрибаларидан келиб чиқиб узлуксиз касбий ривожлантириш тизмининг янги механизмини ишлаб чиқишни даврнинг ўзи тақазо қилди. Таълимда шиддат билан амалга оширилаётган ислоҳотларнинг жойлардаги бош ижрочиси таълим муассасаларда хусусан мактабларимизда фаолият кўрсатаётган педагог ходимлардир. Мактаб раҳбарлари ва ўқитувчилари орқали нафақат мактабга балки мактаб жойлашган микроҳудудга таълимдаги ислоҳотлар кириб боради.

Ўқитувчиларнинг малакасини ошириш дунёнинг аксарият мамлакатлари учун алоҳида ташвишга айланиб бормоқда. Бироқ, ҳали ҳеч бир мамлакат бу муаммони тўлиқ ҳал қилишга муваффақ бўлмади. Муваффақиятли ривожланаётган таълим тизимларининг деярли ҳар бирида яқинда муҳим ўзгаришлар юз берди, бу ҳам мақсадларга, ҳам ўқитувчиларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашни ташкил этишга сезиларли таъсир кўрсатди. Шу билан бирга, малака оширишнинг айрим шакллари самарадорлиги тўғрисида мулоҳазаларни олишнинг самарали усуллари топилди деб айтиш мумкин эмас. Шуни айтишимиз мумкинки, узлуксиз касбий ривожланиш тизимида ўз тажрибаси, малакасини ошириш, мустақиллик, тадқиқот ва лойиҳаларни тайёрлаш усуллари, университетдан мактабгача бўлган барча малака ошириш дастурларини яхши мувофиқлаштириши, ушбу дастурларнинг узлуксизлиги ҳақида мулоҳаза юритиш истаги ўқитувчиларнинг мотивациясини оширади ва уларнинг кўпроқ мамнун бўлишига ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон янги тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон нашриёти/Тошкент-2021.
2. «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони. ПФ-5712-сон. 29.04.2019 й.
3. Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизimini жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарор. 25.01.2021 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқ таълими ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизimini ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори. 17.01.2022 й.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH KOMPETENSIYASI

Qadamov Navro‘zbek Jasurbek o‘g‘li
**Toshkent Shahar Yunusobod tumanidagi 302-sonli maktabning jismoniy
tarbiya fani o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish borasida bolalarda kutilayotgan natijalar va ushbu yo‘nalishning biz bilgan sohalari haqida ma‘lumotlar berilgan. Maktab yoshidagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bahsi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: motorika, jismoniy rivojlanish, hayot xavfsizligi, sog‘lom turmush tarsi, sport, jismoniy chiniqish.

Bugungi jamiyatda sog‘lom turmush tarziga rioya etish ko‘plab muammolarning oldini olishga olib keladi. Shu sababli ushbu mavzuga juda ko‘p duch kelayapmiz. Tashqi tomondan qaraganda qiyin ko‘rinuvchi, anchagina kuch, sabr va iroda, vaqt va sharoit talab etuvchi sog‘lom turmush tarsi masalasining asosiy qoidalari nimalardan iborat ekanligini bilish lozim. Quyidagi sog‘lom turmush tarzini yaratuvchi eng muhim qoidalari siz-u bizga avvaldan ma‘lum bo‘lgan, biroq hayotning mayda-chuyda tashvishlari bilan yodimizdan ko‘tarilgan va amalga oshira olmay qolgan tartiblarni yodga solidi.

Sport – bizning umrimiz oxiriga qadar sog‘lom hayot kechirishda eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Uning ko‘rinishlari, shakllari, usullari ko‘p: piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, raqs, gimnastika, futbol va hokazo. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Istaganingizni tanlaysiz, jismonan faol bo‘lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa (imkoniyat va vaziyatga qarab) sport bilan shug‘ullansangiz, sog‘lom bo‘lishingiz uchun yetarli. Bunda kamroq o‘tirish va ko‘proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o‘tirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffuz qiling va bu vaqtda turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozib turishingiz lozim.

To‘g‘ri ovqatlanish shaklini ham inobatga olish lozim. Ovqatlanish ratsioningizga tabiiy mahsulotlar – meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko‘proq kiriting. Zararli odatlarni tark etish lozim. Inson organizmining asosiy dushmanlaridan bo‘lmish tamaki va alkogol mahsulotlari, turli zararli odatlardan voz kechish orqali sog‘lom turmush tarziga keng yo‘l ochish mumkin. Qat’iy kun tartibiga rioya qilish. Birinchi navbatda – 8 soatlik uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uxlash hamda muayyan vaqtda uyg‘onishga odatlanish! Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, hissiyotlariga ziyon yetkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo‘qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yaxshi kayfiyat ruhida bo‘lish ham muhim hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi – yorqin va ijobiy kayfiyat! Hayotdan ko‘proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko‘p e‘tibor qaratmang, doimo olg‘a intilish uchun kuch topa biling va odamlarga nisbatan g‘araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang,

kechirimli, bag'rikeng bo'ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko'rmang! Bu sizning asablaringizni yemiradi, sog'lom turmush kechirishingiz uchun ziyon beradi.

Atrofingizni, xona va ish kabinetingizni doimo toza tuting, har kuni uni artib-tozalang, derazalarni ochib, toza havo kirishini ta'minlang. Tabiat qo'ynida sayr qilish, oynalarni ma'lum muddat ochib qo'yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga yetadigani yo'q, aslida. Ovqatlanishdan avval va keyin albatta qo'llarni yuvish, tozalikni qalban his etish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioya etish sog'lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sog'liqni saqlash va mustahkamlashga, ish qobiliyatining yuqori darajasini ta'minlashga, faol uzoq umr ko'rishga qaratilgan, ilmiy asoslangan tibbiy va gigienik me'yorlarga asoslangan gigienik xulq-atvor, ya'ni odamlarning sog'lig'ini saqlash muhim hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzining asosiy qoidalari:

• salomatlikni mustahkamlovchi turmush tarzi, jismoniy va ruhiy zo'riqish o'rtasidagi mutanosiblik;

• jismoniy tarbiya va chiniqish;

• muvozanatli ovqatlanish;

• odamlar o'rtasidagi uyg'un munosabatlar;

• to'g'ri jinsiy aloqa;

• ish va turmush tarzida shaxsiy gigiena va mas'uliyatli gigienik xatti - harakatlar;

• yomon odatlarga salbiy munosabat. Bu doidalarga qat'iy amal qilish inson hayoti uchun juda zarur hisoblanadi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish istisnosiz hamma odamlarga taalluqlidir: ham sog'lom, ham sog'lig'ida ayrim nuqsonlari bo'lganlarga ham tegishli bo'lmog'i kerak. Aslida insonning o'zi sog'lom turmush tarziga rioya qilish orqali sog'lig'ini mustahkamlashi mumkin, lekin tana o'sishi va qarishi bilan zarur harakatlar oshib boradi. Afsuski, sog'lik, u yoki bu maqsadga erishishning muhim hayotiy ehtiyoji sifatida, qarilik yaqin haqiqatga aylanganda, odam tomonidan anglab yetiladi.

Afsuski, sog'lom turmush tarzining shakllanishi odam tomonidan tashqaridan olingan ma'lumotlar orqali, turmush tarzini teskari aloqa, o'z his-tuyg'ularini, obyektiv morfofunktsional ko'rsatkichlar dinamikasini, ega bo'lgan valeologik bilimlar bilan o'zaro munosabatini tahlil qilish yordamida to'g'rilash orqali amalga oshiriladi. Shu sababli sog'lom turmush tarzini shakllantirish juda uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, butun umr davom etishi mumkin. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish natijasida tanada sodir bo'ladigan o'zgarishlardan kelib chiqadigan teskari aloqa darhol ish bermaydi, ratsional turmush tarziga o'tishning ijobiy ta'siri ba'zan yillar davomida kechiktiriladi. Bu borada insonlar, ayniqsa, semizlikdan aziyat chekadilar. Sog'lom turmush tarzi odatiy hol bo'lib qolgan ko'plab yoqimli hayot sharoitlaridan voz kechishni (ortiqcha ovqatlanish, qulaylik, spirtli ichimliklar) va aksincha, ularga o'rganmagan odam uchun doimiy va muntazam zo'riqishlarni va qattiq cheklovlar mavjud bo'lgan turmush tarzini ko'zda tutadi. Sog'lom turmush tarziga o'tishning birinchi davrida odamning intilishlarini qo'llab-

quvvatlash, uning sog‘lig‘i, funktsional ko‘rsatkichlaridagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun zarur maslahatlar berish o‘ta muhimdir.

Bizga ma‘lumki, jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish osonlik bilan sodir bo‘lmaydi. Maktabda sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik bolalar sog‘lig‘ini saqlash malakalarini namoyon qiladi, xavfsiz sog‘lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Maktabgacha yoshdagi o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi. Bunda bolaning dastlabki tushunchalari shakllanadi. Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat‘iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish omili bilan bog‘liq.

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasi kompetensiyalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 7-11 yoshli bola o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi. Turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi. Turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida jismoniy va o‘quv faoliyatini mustahkamlash orqali ko‘nikmalarni shakllantirib boradi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari rivojlanish sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 11-16 yoshli bolalarda o‘z “meni” va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi. Shu sababli maktab yoshidagi o‘quvchilarni to‘g‘ri – sog‘lom hayot tarziga o‘rgatish va bunda ota-onalarni rolini oshirish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, insonga tarbiya u sport sohasida bo‘lsin, yoki jismoniy tarbiya sohasida bo‘lsin, yoki aqliy tarbiya sohasida bo‘lsin oiladan boshlanishi lozim. Bunda maktabning, ayniqsa, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining mas‘uliyati va majburiyati anchagina ortiq bo‘ladi. Demak, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi qanday qilishni, oila esa uni amalga oshirishni taminlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 24-yanvardagi PF–5924-sonli farmoni.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.

3. Matchanov I. J. Maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida o‘smirlarning sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish: ped.f.....diss. aftorefarati. Toshkent,

2001.

4. Raxmonov A. Sogʻlom turmush tarzi tarbiya vositasi. –Т.: “Fan texnologiya”, 2012.

5. Sharipova D.J. Talabalarda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish. – Т.:2010.

ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Икромжон Абдураимов

***Сирдарё вилояти Педагогика маркази “Педагогика ва психология, таълим
технологиялари” кафедраси мудири***

Бугунги кунда республикаимиз ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларида амалга оширилаётган туб ўзгаришлар, халқимиз олдида турган ижтимоий-иқтисодий, ғоявий-сиёсий, таълимий-тарбиявий муаммоларнинг ечимини топиш, аниқ ва табиий, амалий ва техник, интеграцион алоқадорлик асосида ташкил этилган ўқув предмети, фанлар ходиса ёки жараёнлар яхлит тизим шаклида ҳар томонлама алоқадорлик ва муносабатлар нуқтаи назаридан талқин этишни талаб этмоқда. Бу ўз навбатида бугунги ва эртанги истиқболи талабларига жавоб бера оладиган, мустақил фикр юритувчи ва креатив фаолият кўрсатувчи, малакали мутахассис шахсини шакллантиришга имкон беради. Чунки у таҳсил олувчилардан фақатгина таҳлил қилиш ва синтезлашни талаб қилиш билан чегараланиб қолмасдан, балки мавҳумлаштириш, алгоритмлаштириш, туркумлаш, шартли белгилар ёрдамида ифодалаш, сабаб оқибатли алоқадорликни аниқлаш, таҳлил этиш, тизимлаштириш, моделлаштириш каби юксак даражадаги тафаккурни шакллантиради.

Фан ўқитишдаги интеграция бўйича уларнинг таклифи ташқи бирикиш характерга эга, аслида эса фанларни интеграциялашни чуқур методология асосида ўтказиш зарур. Янги ривожланаётган фан мазмунида турли фалсафий оқимларда пайдо бўлган ғоя ва методлар бирлашуви эҳтимоли бор. Таълим фалсафаси томонидан нафақат табиий мослашув, балки континентал мослашув ҳам ўзлаштирилмоқда. Олимлардан Т.Кун ва В.С.Стёпин бу борадаги ишлари натижасида фалсафа, табиат ва маданият ҳақидаги фанларни бирлаштирди.

Тарих фанини ўқитишда чуқур методологик асосида педагогик жараёндаги интеграциялашуви муаммоларини кўриб чиқиш ва ўрганиш олдидан узоқ ўтмишдаги ўқитувчиларни қизиқтирган ўзаро алоқалар муаммоси бўлди. Мисол учун, Ян Амос Коменский грамматика ва фалсафа,

фалсафа ва адабиётнинг ўзаро боғлиқлигини, Жон Локкенинг тарих ва география фанининг интеграциясини илгари суради. Олимлардан Т.Кун ва В.С.Стёпин бу борадаги ишлари натижасида фалсафа табиат ва маданият хақидаги фанларни бирлаштирди.

Ўзаро фанлар аро алоқалар зарурати В.Ф.Одойевский, К.Д. Ушинский томонидан илгари сурилади.

Айниқса ўтган асрнинг 50-йилларида. Чет элда ва мамлакатимиздаги айрим педагогика билимларнинг яхлитлигини таъминлаш учун комплекс субъектлар яратади. Шундай қилиб, АҚШда "Ижтимоий фанлар" (жумладан, тарих, ҳуқуқ, география, шахс ва жамиятшуносликнинг фуқаролик тадқиқотлари элементлари) комплекс курси пайдо бўлди.

Умумтаълим мактабларида фанлар асосини ўрганишда ўқувчилар китоб билан ишлаш, кузатишлар олиб бориш, тажрибалар ўтказиш, олинган билимларни бир тизимга солиш - турли ўқув—таълим иш фаолияти билан тўқнашадилар. Ўқувчиларни фаолиятнинг бир тури билан таништирувчи бир бутун тизимни яратиш мақсадга мувофиқдек кўринди. Лекин фанларни ўзлаштиришни текширишлар натижалари шуни кўрсатадики, ўзбек ўқувчилари чет эллик ўқувчиларга нисбатан кўп маълумот ўзлаштирадилар ҳам, уни тадқиқ қилишда сезиларли даражада орқада қолаётганликлари кўриниб қолди. Кўпчилик бунга сабаб асосий кўникмаларнинг мослаштирилмаганида деб билади.

Бу вазифаларни амалга ошириш жараёнида умумтаълим мактабларида таълим самарадорлигини оширишда кўп қиррали фанлараро алоқадорлик ёрдамида **тарих фани ўқитувчиларини узлуксиз касбий ривожлантириш** орқали малакасини ошириш йўлга қўйилса, уларни ҳар томонлама ривожлантириш ва сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқилади. Айнан шунинг учун ҳам фанлараро алоқалар асосида **узлуксиз касбий ривожлантириш**га асосланган комплекс ёндашишнинг муҳим шарти ва натижаси бўлади.

Узлуксиз касбий ривожлантиришда тарих фани ўқитувчиларини бугунги кунда тарих, география, адабиёт, фалсафа, мантик, ҳуқуқ, сиёсатшунослик, минтақавий ваколат масалалари ва бошқалар билан боғлиқ мавзулар интеграцияси ўзларининг алоқа нуқталарига эга.

Ижтимоий фанлар мисолида Захридин Мухаммад Бобурнинг «Бобурнома» асари ўқувчиларда Марказий Осиё, Афғонистон, Хиндистон ҳудудларининг иқлими, табиий географик ҳудуди, жойлашуви, этнослари, диний, маданий тарихини билишни мустаҳкамлайди.

Бу эса ўз ўзидан тарихий онг ва тарихий тафаккурни шакллантириш, давлатчилигимиз тарихи жаҳон цивилизациясининг ажралмас қисми эканлигини англашини, дунё халқлари ҳамда кўп миллатли халқимизнинг

тарихи ва бугунги кунига, миллий ва умуминсоний кадриятларга ҳурмат ҳиссини тарбиялаш, ижтимоий фанларга оид умумий ва кучайтирилган компетенцияларни шакллантиради.

1. Фанлар бўйича интеграциялашувни амалга оширишда, қуйидаги усуллар ёрдам беради: таққослаш, моделлаштириш, таҳлилий чизмаларни тузиш, иқтисодий-ижтимоий муаммолар таҳлили, тадқиқот тарзидаги тажриба ва кузатувлар таҳлили, статистик маълумотлар таҳлили.

2. Тарих фани ўқитувчиларини интеграцияси фанларини фанлараро алоқадорликни амалга ошириш самарадорлигининг ўқув фанларининг мазмунини чуқур ва ҳар томонлама очиб бериш; ўқув дастури, дарсликлар, ўқитишнинг усул ва шакллари тузишнинг ўзаро алоқасини таъминлаб, ўқув ахборотини изчил ва мунтазам ўзлаштириши.

Тарих фани интеграцияси ўқитувчиларига ўқув жараёнини фанлараро алоқадорликнинг мавжудлигини ҳисобга олиб лойиҳалашга ва шу орқали ўзлаштириш самарадорликка эришишда назарий ва амалий машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш учун хизмат қилади.

Узлуксиз касбий ривожлантириш орқали педагоглар МОҚда олган билимларини ҳаёт жабхаларида қўллай оладиган, ўз ўрниларини топа оладиган кенг фикр мулоҳаза юрита оладиган назарий олган билимларини амалиётда қўллай оладиган ёш мутахассисларни тайёрлаш, тез суратлар билан ўсиб ахборотлашган, рақамли иқтисодиёт даврида ўз йўлини топиб кета оладиган кадрларни самарали тайёрлаш билан узвий равишда боғлиқдир.

Шундай қилиб, умумтаълим мактабларида фанлараро интеграцияни янада кенгроқ жорий қилиш, уларда педагогик ечимларни излашда фаол иштирок этиш, тарих фани ўқитувчиларга ижобий таъсир кўрсатиш ва дунёдаги яхлит тасаввурларни шакллантириш, ўқитиш сифатини яхшилаш, билим ва кўникмаларини тартибга солишнинг муҳим босқичи эканлигини очиб беришга ҳаракат қилдик. Бизнингча фанлараро интеграцияни доимо такомиллаштириб ва ривожлантириб бориш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳузурида 2019 йил 23 август куни “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчи мавқеини ошириш” масалаларига бағишлаб ўтказилган видеоселектр мажлиси Баёни. – 2019 йил 27 август. № 19750-хх.

2- 2020 йил 24 январдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. -Халқ сўзи газетаси. 2020 йил, 25 январь.

3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси” нашриёти. 2006.

TA'LIM JARAYONIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

M.B.Niyozov, N.B.Djurayeva

Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

E-mail: niyozov_info@bk.ru

Ma'lumki, Respublikamizning barcha ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va uslullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o'qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni uchun yaratilgan elektron ta'lim resurslari o'quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Elektron ta'lim resurslari o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

Ta'lim jarayoniga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslari quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

- Teskari aloqani ta'minlash;
- Kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- Gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e'tiborga olish;
- Ekraniga ma'lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- Predmetning har bir bo'limi bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;

- Predmetning o‘quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa ta’lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta’lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Elektron ta’lim resurslarini o‘quv jarayonida mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda ahamiyati juda katta hisoblanadi. Elektron ta’lim resurslaridagi kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat.

Kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali masofali o‘qitish jarayonini tashkil qilishda elektron ta’lim resurslari, elektron darsliklar va virtual stendlarning yaratilishiga alohida e’tibor berish kerak. Elektron ta’lim resurslari va unda joylashgan multimediali elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, an’anaviy o‘qitishga nisbatan o‘zining bir qancha afzallik tomonlari borligini ko‘rsatadi. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

- O‘qituvchiga o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga etkazib berishda birmuncha engillashtirilishi;
- Dars jarayonida berilayotgan o‘quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta’lim oluvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishiga erishish;
- Multimediali elektron darsliklar tarkibida ko‘rgazmali virtual stendlar tashkil qilish imkoniyati;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;
- Tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya’ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- O‘quv materiallari ma’lumotlar bazasini tezkor ravishda o‘zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mobaynida ma’ruza materiallariga o‘tish imkoniyatining yaratilishi;

- Masofadan o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

- Ta’lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quv materiallarini masofali o‘qitishga tadbiq etish, bir vaqtning o‘zida ta’lim oluvchilarga o‘quv materiallarini ko‘rish, o‘qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayoninig didaktiv ko‘rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Elektron ta’lim resurslaridagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy ta’lim vositalari yordamida ta’lim oluvchilar o‘qituvchining yordamisiz ham o‘z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin

O‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;

- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;

- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.

- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;

- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;

- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;

- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki elektron ta’lim resurslarini tahlil qilish orqali biz ta’lim jarayoniga internet muhiti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu barcha o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, o‘qish motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
2. Toshtemirov D.E. Niyozov M.B. Ta'lim jarayonida veb texnologiyalarning o'rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 2(46).2020. -B.114-120.
3. Niyozov M.B., Mamatov A.M. O'quv jarayonida elektron ta'lim muhitini takomillashtirish // "O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. Guliston -2019 17-18 may. 116-117 b
4. Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Yusupov A.X. veb texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash // "Innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim, fan va boshqaruv sohalarida qo'llash istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferentsiyasi materiallari. – Samarqand, SamDU nashri, 14-15 may 2020 y. 345-347 b.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'ITISH SAMARADORLIGI

M.B.Niyozov, Z.D.Karimova

Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

E-mail: niyozov_info@bk.ru

Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Fan - bu rivojlanuvchi, o'sib boruvchi bilim tizimi, ijtimoiy ongning va kishilik sivilizatsiyasi ijodiy bunyodkorlik amaliyotining insonning o'zini qurshagan olamni surunkali va chuqur o'zlashtirishiga, tabiiy va ijtimoiy voqelikning borliq qonuniyatlari to'g'risida aniq, chuqur, haqqoniy axborot olish, bunday axborotni o'zlashtirish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanishga yo'naltirilgan alohida shaklidir.

Fanning rivojlanishi - faktlarni to'plash, ularni o'rganish va tizimlashtirish,

umumlashtirish va ayrim qonuniyatlarni ochishdan ilmiy bilimlarning hozirda ma'lum bo'lgan faktlarning mazmun-moxiyatini tushuntirib bera oladigan, yangilarini bashorat qilishga qodir bo'lgan yaxlit mantiqiy tizimini yaratish yo'nalishida boradi.

Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda.

O'quvchining bilish faoliyati deganda:

- o'rganilayotgan mavzuga doir barcha axborotlarni to'plash;

- to'plangan axborotlarni qayta ishlash;

- o'rganilgan axborotlarni (ma'lumotlarni) qo'llash kabi uchta bosqichdan iborat faoliyat tushuniladi.

Informatika axborot texnologiyalari o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy informatika va axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, informatika va axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbig'ini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi rolini ochib berishdan iborat. Shunday ekan, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish samaradorligini oshirish o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni dolzarbligini e'tiborga olgan holda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulard an samarali foydalanish metodikasini, mos uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish zarur. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini ularning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llanadi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka, ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtayi nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat

faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim. Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabob bo'lgan krossvord o'yini o'quvchilarda qiziqish o'yg'otishi tabiiydir. Qomusiy lug'atda ta'riflanishicha, uning atamasi inglizcha "kross" – kesishgan, "vord" – so'z degan ma'noni anglatib, ilk bor XX asr boshlarida kashf etilgan. Vaqt o'tishi bilan uning turlari ko'payib, chaynvord, chaynkrossvord, krosschaynvord, aylanma krossvord, diagonal krossvordlar o'ylab topildi. Ularning har biri shaklda so'zlarning joylashishi va bog'lanishi bilan farq qiladi. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli o'quvchilar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shaklidan foydalanilganda darsda faqatgina kuchli o'quvchilargina emas, balki kuchsiz o'quvchilar ham faol ishtirok etadilar. Darslarga qiziqtirishdan foydalanishning boshqa shakllaridan, ya'ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

O'qitish shakli va usuli o'quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomondan o'quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg'un ko'rinishda berishdir.

Informatika fanining yoshlik darajasidagi dolzarblik jihatlari quyidagilarda akslanadi:

- O'quvchilarda axborotlarni qayta ishlash jarayonida fikrlash tartibotlarini, jumladan, mantiqiy va abstrakt fikrlashni shakllantirish.

- Kompyuterdan o'quv vositasi sifatida foydalanishni ta'minlash maqsadida, uning yordamida axborot ustida amaliy ishlar olib borish, zamonaviy dasturiy ta'minot bilan tanishish.

- Kompyuterdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarda uni o'rganilayotgan jarayonda hisoblash, tasvirlash, tahrirlash ishlarini bajarishda vosita sifatida qo'llash tajribasiga ega bo'ladilar.

- O'quvchilarda hisoblash texnikasiga nisbatan uning samarali vosita sifatidagi ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

- Yoshlarda turli o'quv kurslarida olayotgan axborot va ma'lumotlarni kompleks ravishda o'rganish hamda ularning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Kompyuter o'quvchilarning ijodiy va abstrakt fikrlash darajasini yaxshiroq tushunish, o'z navbatida, keng va chuqur rivojlantirish imkonini beradi. Ma'lumki, bunday fikrlash uyg'unligi matematika va boshqa fanlarni o'zlashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Informatika fanining boshqa fanlarga o'xshamasligi o'quvchilarda yoqimli o'yin kabi tasavvur qoldirishi bilan birga, o'z ijodiy qobiliyatlarini ochishlariga turtki bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar kompyuterda ishlab, izlanuvchi va tadqiqotchiga aylanishadi.

Bunda o‘z tajribalariga tayangan holda ular xulosa chiqarish va umumlashtirishga o‘rganadilar.

Informatika kursining asosiy maqsadi – o‘shib kelayotgan avlodni kompyuter yordamida mustaqil fikrlashga, tasavvurini rivojlantirishga va o‘zining ijodiy rejalarini hayotda tatbiq etishga o‘rgatish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda yangicha metod va uslublarni ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga tatbiq qilish o‘quv jarayonida qanday foydalanilishi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Metodlardan foydalanish tajribasini o‘rganish va unga maqsadli yondashish, o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, bunda talabani sust ob’ektdan faol sub’ektga aylantirish, bilish faoliyatining aniq maqsadlarga yo‘nalganligini hamda o‘quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. Uslu biy qo‘llanma. Akademik S.S.G‘ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.; TDIU 2005. 90 b,105 b.

2. M.M.Aripov, T. Imomov va boshqalar “Informatika, axborot texnologiyalari” T. TDTU, O‘quv qo‘llanma, 1-2 qism, 2002, 2003-y.

3. Axborot texnologiyalari (M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov) Toshkent-2009

4. D.B.Abduraximov, N.N.Toshtemirova. Informatika kursida bajariladigan topshiriqlar mazmunini takomillashtirish //GulDU axborotnomasi. 2016. №4. B. 68-73

TA’LIM TIZIMIDA WEB TEXNOLOGIYALARNI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

M.B.Niyozov, A.B.Abdullayev

Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

E-mail: niyozov_info@bk.ru

Bugungi kunda o‘quv jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. O‘quv jarayonini axborotlashtirish ta’limning barcha bosqichlarini qamrab oladi va o‘quv yurtini zamonaviy kompyuter uskunalari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlaydi.

Shu bilan birga, dasturiy ta’minot va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va takomillashtirish shu qadar tez sur’atlar bilan olib boriladiki, ularning eng so‘nggi mahsulotlaridan xabardor bo‘lishning iloji yo‘q. Ta’lim jarayoniga web-

texnologiyalarni joriy etish ta'limni kompyuterlashtirish muammolarining eng yaxshi yechimi hisoblanadi [2].

Ta'lim - bu insonning tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirishi, dunyoqarashi va bilim jarayonlarini shakllantirish jarayoni va natijasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va Internetdan keng foydalanish butun dunyoda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi. Yaratilayotgan tizimlarning tobora murakkablashib borishi va ishlab chiqarish muhiti talablarining sifat jihatidan o'zgarishi (raqamli ishlab chiqarishga o'tish) kadrlarni tayyorlash bo'yicha o'quv faoliyatini qayta ko'rib chiqish zarurligiga olib keladi. Mehnat muhitining ushbu yangi xususiyatlari elektron o'quv resurslari tarkibining muvofiqligini ta'minlash uchun kitoblardan elektron ta'lim resurslariga o'tishni talab qiladi. Ushbu xususiyat Web texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Dastlabki web-texnologiyalar 1989 yilda CERN xodimi Tim Berners-Li tomonidan ixtiro qilingan va bir yil o'tgach, u birinchi web-brauzerni yaratdi. 1991 yilda ilmiy tashkilotlar o'rtasida ma'lumot almashish uchun brauzerdan foydalanildi va tez orada keng jamoatchilikka tanishtirildi. 1991 yil 6-avgust kuni Berners-Li birinchi web-saytni birinchi web-serverda <http://info.cern.ch/> da joylashtirdi. U erda ixtirochi Internet bilan ishlash uchun dasturlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarni, keyinchalik esa boshqa saytlarning katalogini taqdim etdi. Bu esa Web 1.0 - bu tarmoq morfologiyasi shakllangan butunjahon internetning birinchi avlodidir. Uning doirasida foydalanuvchi Web 1.0 tarmog'ining resurslarida to'plangan har qanday ma'lumotni olish orqali ma'lumot manbalarini qidirish imkoniyatiga ega. Ushbu davrda statik saytlar yaratildi va ma'lumotlar mijozga passiv ravishda uzatildi. Web 1.0 mavjud bo'lganda elektron kutubxonalar va Internet ma'lumotlari kataloglari rivojlana boshladi.

Shu bilan birga, keyingi davrning asosiy yangiliklari texnologiyada emas, balki texnologiyalardan foydalanish usullarida edi. Endilikda Web 2.0 bu interfaol web-saytlar va platformalar tarmog'idir, bu erda tarkib manba egasi emas, balki foydalanuvchilar tomonidan ishlab chiqariladi. Facebook, YouTube va Twitter - bu Web 2.0 davridagi platformalar bo'lib, ular foydalanuvchi tomonidan yaratiladigan tarkib va ijtimoiy munosabatlarga yo'naltirilgan.


Web 2.0 - bu foydalanuvchilarga mustaqil ravishda tarkibni yaratish, shuningdek Internetdagi o'zlari va boshqa odamlarning materiallari o'rtasidagi aloqalarni boshqarish imkonini beradigan interfaol semantik web-sayt bo'lib, foydalanuvchi va server o'rtasida interfaol axborotlar shakllantiriladi.

Axborot olish tizimlari va foydalanuvchi interfeyslari Internetning yadrosiga aylandi. Qidiruv mexanizmi algoritmlari, ularning ma'lumotlarini saralash, tartiblash va indeksatsiya qilish usullari chastota-sintaktik tahlilga asoslangan edi. Web 2.0 texnologiyasi 2000-yildan boshlab foydalanilmoqda, ammo texnologiyaning rivojlanishining keyingi bosqichi - Web 3.0 texnologiyasi haqidagi g'oyalar Internet tarmog'ining dastlabki o'n yilida shakllangan edi.

Web 3.0 texnologiyasi - bu Web 1.0 va Web 2.0 texnologiyalari sifatlarini birlashtirgan yangi texnologiya bo'lib, mutaxassislar tomonidan yaratiladi va eng

kerakli ma'lumotlar foydalanuvchilarning qidiruv so'rovlarida ko'rsatiladi.

Web 3.0 - avtonom platforma bo'lib foydalanuvchilar mustaqil ravishda tarkibni yaratadilar va manbani boshqaradilar. Bunga misol sifatida - forum yoki ijtimoiy tarmoqlardagi boshqaruv foydalanuvchilarning o'zlariga beriladi. Endi deyarli har bir ishlab chiqaruvchida o'zlari web-sayt yoki portal yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Resurslarning ko'pligi raqobatni kuchaytiradi, agar sayt javob beradigan dizaynga (moslashtirilgan dizayn) ega bo'lsa, ularga qulaylik va barcha xususiyatlardan foydalanish imkoniyatini berish mumkin.



1-rasm. Web texnologiyasi rivojlanishi

Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil qilishda web texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqori bo'lishini ko'rsatmoqda [5],[6].

Web texnologiyalar asosida yaratilgan elektron axborot-ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

O'quv jarayoniga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslari quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

- fanlar bo'yicha ta'lim mazmuniga ega bo'lgan axborot resurslari;
- turli yo'nalishlar bo'yicha o'quv kurslari;
- teskari aloqani ta'minlash;
- kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e'tiborga olish;
- ekranga ma'lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- predmetning har bir bo'limi bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;
- predmetning o'quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish va boshqalar.

O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa, ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta'lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Web texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslarining o'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda ahamiyati juda katta hisoblanadi. Dasturiy vositalar asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllantirishdir. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unumdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalaridan biri elektron o'quv adabiyotlarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofali o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat [1].

O'quv jarayonida Web texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqur va mukammal o'zlashtirish;
- ta'lim olishning yangi shaklini ta'lim tizimiga joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi (vaqtni tejash) imkoniyati;
- olingan bilimlar o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi;
- o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining ortishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanishi;
- o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo'lishi va boshqalar [2].

Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Elektron o'quv resurslarini yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy ta'minot (Authoring tools);
- Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);
- Dinamik saytlarni yaratish imkoniyatini beruvchi (kontentni boshqaruvi) tizimlari CMS (Content Management Systems).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki web texnologiyalarni tahlil qilish orqali biz aqlli web-texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish, resurslarni ulash va Internet muhiti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur,

degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu barcha o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, o‘qish motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta‘lim sifatini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
2. Toshtemirov D.E. Niyozov M.B. Ta‘lim jarayonida veb texnologiyalarning o‘rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 2(46).2020. -B.114-120
3. Дубовская, Н. А. Внедрение технологий Web 3.0 в образовательный процесс / Н. А. Дубовская. — Текст : непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2018. — № 14 (200). — С. 47-49.
4. Сравнение Web 1.0, Web 2.0 и Web 3.0 // Планета Информатики. <https://infl.info/web-1-2-3> (дата обращения: 4.04.2018).
5. Эволюция глобальной сети Интернет: WEB 1.0, WEB 2.0, WEB 3.0, WEB 4.0 // Bourabai Research. <http://bourabai.ru/dbt/web/evolution.htm>

“ABDULLANOMA” ASARIDA HARBIY SAN’AT

Omonjon Begiyev, Shohruh Xoliqulov

Sirdaryo Viloyati pedagoglarni yangi metodiklarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchi, IIV Sirdaryo akademik litseyi o‘qituvchisi

Mustaqiligimizga erishganimizdan so‘ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Chorizm davrida tariximizga haqqoniylik bilan yondashilmadi sovet tizimiga mos qilib o‘zbek fuqarolariga o‘rgatilgan bo‘lsada, ota – bobolarimiz o‘zligini, o‘z tarixini unutmasdan bizgacha qoldirishga harakat qildilar. Zero tarix bugun va kelajakning ko‘zgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoyitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy – ma’naviy merosga ega bo‘lishimiz darkor. Zero o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutadigan millatning kelajagi yo‘q. Shuning uchun ham O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq tarixni o‘rganish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. 2017 yil 3- avgustda Prezident Sh.Mirziyoyevning bir guruh olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvidan keyin tarixni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Ushbu uchrashuvda davlat rahbari tarixni qayta tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni ko‘rsatib berdi. Shu o‘rinda tarixni, tarix ta’limini rivojlantirishda “Abdullanoma” asari o‘rni va roli uni inovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchi yoshlarga yetkazish alohida to‘xtaldik.

Darhaqiqat, tarixiy bir davrda ajdodlarimiz qoldirib ketgan tarix manbalarni biz albatta mukammal darajada yoritib kelajakka yetkazib berishimiz lozim. Ana shuningdek asarlardan biri bo‘lgan “Abdullanoma” asari haqida mulohaza yuritar ekanmiz, albatta o‘rta asr davlatlarining qay darajada mustahkam va qudratliyligini o‘sha davlatning madaniyati hamda davlat tuzilish strukturasi e’tibor qaratib uni

aniqlashimiz mumkin. Ushbu davrda Shayboniylarning harbiy san'ati, jang taktikasi, jang mahorati, qurollari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. XVI asrda o'zbeklarning qo'shini Chingizxon va Temur davridagi jangovar tartibni saqlab qolgan, ya'ni Hofiz Tanishning so'zlari bilan aytganda, ota-bobolarning borasi, turasi va yasoqlariga amal qilgan holda tuzilgan. O'zbeklarning qo'shini ham asosan maymana (o'ng qanot), maysara (so'l qanot), qalb yoki g'ul (markaz)dan tashkil topgan. Qo'shinning oldida yarovul (avanpost yoki kichik razvedka otryadi), qorovul (qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus bo'linma) turgan. O'z navbatida flaglarning ham ma'lum qanotlari (chanoh) va avangardlari bo'lgan. Markaz (qalb, g'ul) deb atalgan, lekin, asosan, ehtiyot (rezerv) vazifasini o'tagan qism butun qo'shinning uchdan bir qismini tashkil etgan va unga xon yoki sultonlardan, amirlardan biri boshchilik qilgan. Markaz ham bir necha saf (markaz)dan iborat bo'lib, oldingi safda turuvchilar bayroqdor jangchilar (tug'chi) deb atalgan. Bayroq yonida turuvchi qismga ham sultonlardan biri bosh qilib tayinlanar edi. Masalan, 962, 1554-55 yili Farab yonida bo'lgan jangda Abdullaxonning bayroqdor qismlariga Do'stim sulton boshchilik qilgan. Hofiz Tanish bayroqdor qism- ning umumiy sonini ham keltiradi. Masalan, 1556 - 57 yili Ilono'tti mavzeida Abdullaxon bilan Toshkent hokimi Darvishxon o'rtasida bo'lgan jang tafsili hikoya qilingan joyda Darvishxon qo'shinining bayroqdor qismi 30 ming kishidan iborat bo'lganligi aytiladi. Urush maydonini belgilashga ham alohida e'tibor berilgan. Buning uchun, albatta, suv va boshqa tabiiy qulayliklar bo'lishi shart bo'lgan. Jang maydonini tanlash va u erda qo'shinni o'rni-o'rniga joylashtirish tovochi deb atalgan amirlar zimmasiga yuklatilgan. Yurish va qal'a mudofaasi vaqtida ham ma'lum usulga amal qilingan. Agar yurish oz kuch bilan bo'lganda qo'shin, birinchidan, juda sekin va ehtiyotkorlik bilan harakat qilgan, to'xtagan manzillarda esa, ko'chmanchi xalqlarning odati bo'yicha, istehkom atrofini aravalar bilan o'rab, ularni bir-biri bilan zanjirlab qo'yganlar; ularning tashqarisida esa katta va chuqur xandaqlar qaziganlar. Bunday sharoitda kuniga bir tosh (7 - 8 km) yo'l bosilardi, xolos. Qal'ani mudofaa qilganda esa qo'shin uch safga tizilardi. Birinchi saf qal'a devori yonida turib, xandaq va boshqa mudofaa istehkomlarini bosib o'tmoqchi bo'lgan dushmanni qarshi olar edi. Ikkinchi saf xandaq yonida saf tuzib, dushmanni xandaqdan o'tkazmaslik vazifasini o'tardi. Nihoyat, uchinchi saf qal'adan chiqib va xandaqdan o'tib biror qulay joyda pistirmada turar va qal'aga hujum qilayotgan dushmanni yon tomondan o'qqa tutardi. O'zbek qo'shini nayza, o'q-yoy, qilich, xanjar bilan qurollangan bo'lib, asosan, otliq askar- lardan tashkil topgan edi. O'qni xadang daraxti (qayinga o'xshash daraxt) dan ham yasar edilar. Ayrim alohida qismlar ham bo'lib, ular 'miltiq bilan qurollangandi. Hofiz Tanish «ustodi hunarparvar» deb nom chiqargan Ruhiiy degan kishi Abdullaxonning to'fangandoz.(miltiq yoki zambarak)lariga boshchilik qilganligini hikoya qiladi. Shuni ham aytish kerakki, o'zbek qo'shinlari asosan turli o'zbek qabilalaridan to'plangan. Abdullaxon ham Temur singari Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida, xususan, Buxoro, Samarqand va Toshkentda juda ko'p binolar (madrasalar, masjidlar, xonaqohlar), rastalar, bog'lar va ayrim suv inshootlari qurdirgan. Xofiz Tanish bu masalaga kitobining ikkinchi qismida to'xtamoqchi

bo'lgan edi. Lekin, yuqorida aytilganidek, bu qism yozilmay qolgan. Abdullaxonning 1551 - 1582 yillarda olib borgan uzluksiz urushlari Shayboniyxon vafotidan so'ng mayda qismlarga bo'linib ketgan Movarounnahrni qayta birlashtirish, Shayboniyxon davlatini qayta tiklash, markaziy davlatni kuchaytirishga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayishoxiy) Birinchi nashr / I jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasida, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi B.A. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1966. - 399 b;
2. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. / II jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasida, nashrga tayyorlovchilar tarix fanlari kandidatlar R. G'ofurova, A. Juvonmardiev, B. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1969. - 361 b.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyev Mansur Zakirjanovich

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi xalq farovonligi, yurt tinchligi va obodonligi, Vatan taraqqiyotini ta'minlab, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashdan iborat. Buning uchun, mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, ishbilarmon, ijtimoiy faol mutaxassis kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish zarurligi isbot talab etmaydigan hayotiy xaqiqatdir. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ustoz- murabbiylar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan. Chunki millatimiz vorislari yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etuk komil inson qilib tarbiyalash hamda ularga jahon andozalariga mos ravishda ta'limtarbiya berish o'qituvchi - tarbiyachilar oldida turgan ulkan vazifa hisoblanadi.

Ta'lim sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta'lim jarayonlariga axboroti texnologiyalarni joriy etishdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham axboroti texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan va axboroti texnologiyalar keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda muntazam va mustaqil ravishda bilim olish vazifasini qo'yimoqda.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda axboroti texnologiyalarning turli xil imkoniyatlarga ega bo'lgan dasturiy vositalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan

foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo’llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o’quv manbalari elektron o’quv darsliklarini keng qo’llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o’qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o’quv tizimiga kirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari uchun yaratilgan elektron o’quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o’quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular bo’yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlarni avtomatik ravishda tavsiya etadi. Avtomatlashtirilgan o’quv-uslubiy ta’lim vositalari yordamida ta’lim oluvchilar o’qituvchining yordamisiz ham o’z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin.

Ta’lim tizimida axboroti texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o’zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo’llash mumkinligi.
- o’quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg’ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o’quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o’quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo’lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo’lishi va boshqalar.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o’quv materiallari bo’yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan, ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo’yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongga daxldor bilimlarni kiritish, ta’lim mazmunini sezilarli o’zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo’ladi.

Kompyuter vositalari yordamida elektron o’quv adabiyotlarini yaratish va o’quv jarayonini virtualashtirishni tashkil etish nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo’lsak, aksariyat uning interfaoligini, bevosita muloqot yordamida talaba o’quv rejasida ko’rsatilgan istalgan fan sohasida maxsus o’quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniga ega ekanligi ma’lum bo’ladi. Kompyuter vositasi talaba yoxud o’qituvchi murojaatlariga «javob beradi», ular bilan bemalol «muloqotga kirishadi», bular kompyuter ta’limi metodikasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o'quvchilarning ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterning talaba uchun turli vazifalarni, xususan, o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim ob'yekti, o'zaro muloqot kabi funktsiyalarni bajarishini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars jarayonida talabalarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat.

Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va o'quv jarayonini virtuellashtirishni tashkil etishda o'qituvchi kompyuter texnologiyasi (kompyuter savodxonligi) mazmunining quyidagi tuzilmalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;
- kompyuter texnikasining funktsional imkoniyatlarini bilishi;
- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish va ularning asosiy buyruqlarini o'zlashtirishi;
- zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tizimlarining versiyalarini bilishi va ularning vazifalarini o'zlashtirishi;
- kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo'lishi;
- taqdim qilish dasturlari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lishi;
- amaliy dasturlardan foydalanish to'g'risida dastlabki tajribaga ega bo'lishi.

Dars jarayonini yuqoridagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda olib borilishi, nafaqat guruhdagi faol talabalarni bilimini oshirishga, balki o'zlashtirish darajasi past bo'lgan talabalarni ham fikrlashga, mavzuni mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratishga undaydi. Ta'limga axborot texnologiyalarini qo'llashning muhim ahamiyatli tamonidan biri shuki, mavzuga doir muammoning kelib chiqishi va shu muammoni yechish uchun talabada ichki ixtiyoriy qiziqish hosil bo'ladi.

Xulosa qilib aytsak, axboroti texnologiyani qo'llab ma'lum mavzuni o'qitish bo'yicha yoxud alohida didaktik masalalarni hal etishda foydalanish kabi holatda, shuningdek, o'qitishda ma'lum texnologiyaning asosiy, aniqlovchi va eng muhim tavsiflovchisi sifatida kompyuterdan qo'llanish va boshqa texnologiyalar orasidagi munosabatlar masalasi juda dolzarb sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev R.H., Taylaqov N.I. Axborotlashgan ta'lim muhiti - o'qitish samaradorligini oshirish vositasi Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2004. – №3
2. Qulmamatov S.I. Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish// Ped. fan. nom... dis. Avtoreferati – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008
3. Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi // Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati–Nukus: Ajiniyoz nomidagi NDPI, 2020

TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA "ABDULLANOMA" ASARINING O'RNI VA ROLI

O.Begiyev, Sh.Xoliqulov

*Sirdaryo Viloyati pedagoglarni yangi metodiklarga o'rgatish milliy markazi katta
o'qituvchi, IIV Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi*

Mustaqiligimizga erishganimizdan so'ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. El – yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz, tariximiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shunday fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etish lozim. Zero o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutadigan millatning kelajagi yo'q. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq tarixni o'rganish borasida muhim qadamlar qo'yildi. 2017 yil 3- avgustda Prezident Sh.Mirziyoyevning bir guruh olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvidan keyin tarixni o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ushbu uchrashuvda davlat rahbari tarixni qayta tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni ko'rsatib berdi. Shu o'rinda tarixni, tarix ta'limini rivojlantirishda "Abdullanoma" asari o'rne va ro'li uni inovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchi yoshlarga yetkazish alohida to'xtaldik. Sirdaryo viloyati tarixi haqida ko'plab tarixchilar ilmiy o'rgangan biz ham "Abdullanoma" asari orqali o'rgandik. Sirdaryo hududi qadimgi Ustrushonaning hududiga kirgan. Mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga kelib Ustrushona va Shosh (Toshkent vohasi)da ham urbanizatsiya jarayoni boshlanib, shaharlar paydo bo'la boshlaydi. Ohangaron daryosining o'rta oqimlarida joylashgan Tuyabo'g'iz suv ombori hududida o'rganilgan makonlarda va Zarkent makonida mudofaa-fortifikatsiya tizimining ilk belgilari ko'zga tashlanishi mutaxassislar tamonidan qayd etilganligi ham e'tiborga loyiqdir. Qadimgi Ustrushona aholisining o'tmishiga kelsak Ustrushona va Farg'ona chegaralarida ikki xil ibtidoiy madaniyat izlarini ko'rishimiz mumkin. Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda Sirdaryoning o'ng soxilida qadimiy ko'chmanchilar yashagan. Daryoning chap sohilida, Xo'jand va O'ratepa atroflarida esa o'troq aholi madaniyatini ko'ramiz. Bronza davri va ilk temir davriga oid mozor qo'rg'onlari Xo'jand, O'ratepa, Nov va Zomin hududlarida ham uchraydi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib, Ustrushonaning Sharqiy va Shimoliy qismidagi adirlik va rustaklarda yashagan aholi dehqonchilik bilan shug'ullanishni boshlaydilar. O'rta Sirdaryo xavzasida yuz bergan qang'arlar xukmronligi davrida miloddan avvalgi II asr va milodning IV asrlarigacha Mirzacho'l atrofi va tog' oldi havzalarida mahalliy aholi va kelgindi ko'chmanchilarning o'troqlashishi sababli aholi ko'paya bordi. Bu davrda har bir rustakda bir necha kichik va yirik qal'alar paydo bo'lgan.

Biz sizga malumot bermoqchi bo'lganimiz "Abudullanoma" asarida ushbu mintaqa hususida so'z yuritsak. Malumki Abdulaxon hokimiyat uchun kurash

maydonida edi. Abdullaxon hokimyat uchun kurash maydoniga kirganda o'n to'qqiz yosh edi. Ushbu kurashda unga asosiy raqib sifatida Navro'z Ahmadxon edi. Navro'z Ahmadxon 1556-yil vafot etgach, Buxoroning siyosiy maydonida Abdullaxonning amakisi Pirmuhammad vaziyatni nazorati ostiga oladi. Baroqxonning farzandlari Bobo sulton, Do'sim sultonlar hokimyat uchun kurash maydonida Abdullaxon va Pirmuhammadga tichlik bermadilar. Ustrushona hududi ham shu siyosiy maydonning ahamiyatga ega hududi ediki, buni hisobga olmaslikning iloji yoq. Chunki Ustrushona hududi Farg'ona vodiysidan Samarqand va Buxoroga boradigan yo'l ushbu hududdan o'tgan. Shuning uchun ham Abdullaxon ham Ustrushona hududiga alohida etibor qaratadi. Uning maqsadi Ustrushonani egallash orqali keyinchali Farg'onani undan keyin Sirdaryo sohili va Shoshni o'z hokimyatiga qo'shib olish edi. "Abdullanoma" da ushbu siyosiy kurash quydagicha bayon etilgan. Abadiy mulk egasi, jism va ruhni yaratuvchi (Tangri), «u istagan narsasini qila oladi» (oyati)ning saroyida ulug' bir podshohning yuksak boshini «Biz albatta seni er yuziga podshoh qildik»(oyati)ning toji bilan bezab, (uning) iqboli to'g'ri qomatini «Biz albatta uni er yuzida (hamma narsaga) qodir qildik» (oyatining) kiyimi bilan bezasa, (unda) Tangrilik va Parvardigorlik mahkamasi va ayvonining xizmatchi va ish yurituvchilari kerak va zarur asboblarni berib, (har qanday) ahvolning mushkul va chatoqliklarini echish eshiklarini uning hayoti yuziga ochadi. Shak-shubhasiz, uni yuqori maqsad darajalariga ko'tarib, oliy matlab qomatlariga etish unga yaxshi hol va qutluq folda muyassar va muqarrar bo'ladi. Ulug' baxt va najot shudir. Bu voqeaning bayoni shulki, Navro'z Ahmadxon omonat saroydan abadiy uyga ko'chgach, Samarqandda uning avlodi ichida yosh jihatdan Bobo sultondan (ko'ra) kattarog'i yo'q edi. Bi- nobarin, (u) dastlab firdavsmonand Samarqand taxtini egalladi; so'ng arkoni davlat va a'yon- lardan ayrimlarining maslahati bilan o'sha vi- loyatning (taxt) vorislaridan bo'lgan Abdullatifxonning o'g'li Gadoyxonni o'z hamrohi qilib oldi va saltanat hamda hashamat ishlarini boshqarishda (o'ziga) sherik va hissador qildi, uning bilan birga davlat va shavkat bayrog'ini yuqori ko'tardi. Gadoyxon ul firdavsmonand shaharda bir necha kun u bilan ittifoqda bo'ldi, lekin ko'nglida unga qarshi edi. Chunki toju taxt vorislaridan bo'lgan Sulton Sa'id, yuqorida aytilganidek, Qorong'utog'da mehnatu mashaqqat bilan umr kechirdi. Ammo uning birodari Juvonmardali sulton Aysi va Andijon viloyatida hukumat otini hashamat maydonida yo'rg'alatardi. Gadoy sulton Aysi va Andijon tomonga to'xtovsiz kishi yuborib, uni Samarqand tomonga kelishga undardi. Oxiri Juvonmardali sulton Aysi va Andijon viloyatidan son-sanoqsiz qo'shin to'plab, Gadoy sultonning amriga ko'ra, tarixda Ustrushana deb atalgan O'ratepaga kelib tushdi. Bobo sulton bu voqeadan xabar topib, to'xtovsiz harakat qildi va mazkur sultonni tutib olib uni xalofat kursisi va sheriklik masnadidan tushirdi. Kishilarning ko'ksida vasvasa tug'diruvchi beboshlardan biri uning yuziga bir xunuk zaxm etkazdi. Shu holat bilan Gadoy sulton ul mamlakatdan yuz o'girib, o'zining meros yurti O'ratepaga qarab jo'nadi. Ittifoqo, kuch-qudratli bu ikki sulton Zomin mavzeida uchrashdilar. (Bir) oz suhbat va kengashdan so'ng, (ilgari yuz bergan) ayrim dushmanlik va kelishmovchilikdan voz kechib, mustaqillik yuzasidan jahon podshohi va mamlakat egasining (Abdullaxonning) poyi-

ostonasiga odam yuborib, voqeani Tangrining nurlari tomgan uning to'g'ri ra'yiga arz qildilar va (o'zlarining) tamom harakatini jonsiporlik va farmonbardorlik yo'liga qo'yganliklarini aytdilar, (undan) madad so'rab, yordamga kelishini iltimos qildilar. Yuqorida keltirilgan manba va adabiyotlardagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki, bu xalq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Sirdaryobo'yi viloyatlari markaz vazifasini o'tagan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shoxiy) Birinchi nashr / I jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasi, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi B.A. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1966. - 399 b;
2. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. / II jild. Forschadan S. Mirzaev tarjimasi, nashrga tayyorlovchilar tarix fanlari kandidatlar R. G'ofurova, A. Juvonmardiev, B. Ahmedov. - Toshkent: Fan, 1969. – 361 b.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KITOVXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Aymatova Aziza Baxtiyor qizi
TDPU tadqiqotchisi

Kitob insoniyatning eng ulug' obidasidir. Kitob bo'lmasa, na bugungi taraqqiyot, na tafakkur, na odamning o'zi bo'lur edi. Kitob inson qalbi haqidagi eng ulkan bilim, eng ulkan tadqiqot. Har qanday jamiyatni, har qanday tuzumni kitobga bo'lgan munosabatidan bilib olish mumkin. Kitobi, kitob yaratuvchisi xor jamiyat o'zini gumanist qilib ko'rsatmasin, baribir bir kuni tanazzulga yuz tutadi. Buni biz insoniyat tarixida ko'plab ko'rdik. Insonni hech qaysi fan kitobchalik aks ettirmaydi, hech qaysi san'at turi kitobchalik chuqur va keng tasvirlay olmaydi, hech qaysi vosita inson ruhi va xayoliga kitobchalik erk berolmaydi. Kitob o'qirkanmiz, jodulangan, biroq g'oyatda go'zal, nihoyatda qalbimiz va hislarimizga mos va uni buyuklik qadar yuksaltiruvchi xonada o'tirganday bo'lamiz. Bu xona bizning ichki dunyomizdir.

Xalq ta'limi tizimi va uning rivoji masalasi bugungi kunning eng muhim dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ta'lim tizimiga astoyidil e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimidagi har qanday yuksalish ta'lim tizimining rivojidir. Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, ilg'or g'oyalarning muallifi bo'lsagina ta'lim tizimi rivojlanadi va yuksalish bo'ladi. Ta'lim tizimining yanada rivojlanishi uchun muhim omillardan biri yangi zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni tashkillashtirishga muvofiq ravishda yondashish, o'qitishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, tizimdagi talab va o'qitishning ilg'or va muhim masalasidir.

Ta'lim tizimida rivojlanish o'z o'zini rivojlantirishga aylanib bormoqda. Pedagogik bilim va ilmiy boyliklarini o'quvchilarga har bir muayyan yoki o'qitish jarayonidagi vaziyatda yetkazib bormoqda. Tobora yildan yilga O'zbekistonda barcha sohalariga aynan ta'lim sohasiga juda kuchli e'tibor qaratilmoqda. Turli hil turda o'qitish usullari yo'lga qo'yilgan bo'lib, masofaviy o'qish va o'qitish imkoniyatlari berilgan va amal qilinmoqda.

Bu yo'nalishda tizimda maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlagan. Shu jumladan Ta'lim tizimi ma'lumki so'ngi davrlardarivojlanishning eng muhim masalasi bolib, barcha sohalarda ham insoniyatning talim tarbiyasi muhim rol o'ynaydi va buni aytish joizki barcha sohada ta'lim tarbiyajuda kata ahamiyatga ega. Songgi yillardamamlakatimizda kitobxonlikni targ'ib etuvchi turli tadbirlar, ko'rik tanlovlari o'tkazilib, erishilgan yutuqlariga va natijalariga qarab yoshlar taqdirlanmoqda. Shu jumladan nashiriyotchilar tomonidan yosh avlodlar uchun mo'ljallangan turli hil adabiyotlar keng ko'lamda chop etilyapti. Bundan tashqari bog'cha yoshidagi bolalar uchun ham mo'ljallangan kitoblar tarqatilgan va bunday imkoniyatlar o'z o'rnida ta'lim rivojiga albatta zarurdir.

Shundan kelib chiqib dasturlarimizda xalq ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yani o'quv ta'lim tizimidagi o'zgarishlar kiritilgani ko'pgina yoshlarni bilimga fikrlashga keng tafakkurli bolishiga undadi va kelajakda yurtimizga kerakli shahs bolishi aniq va ta'lim tizimi rivoji desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kitoblar yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'usini o'stiradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kitovxonlik madaniyatini rivojlantirishda kitob, kitob tarixi, kitob ishi, kitob o'qish madaniyati haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirishi hamda ularning kitob bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlod hayotida media muhit rolining ortib borishi kitob o'qishga bo'lgan munosabatni o'zgartirib yubordi. Butun o'quvchilarning mutolaasi bosma nashrlar: kitoblar, jurnallar, gazetalar, risolalargina emas, balki kompyuter savodxonligi bilan bog'liq, tarzda kechmoqda. Ekran madaniyati o'smirlarning mutolaasiga kuchli ta'sir etib, ularni kitobxonlik ustuvorliklarini ma'lum darajada belgilab bermoqda. Yoshlarning kitob o'zgartirib yubordi. Bugun o'quvchilarning mutolaasi bosma nashrlar: kitoblar, jurnallar, gazetalar, risolalargina emas, balki kompyuter savodxonligi bilan bog'liq tarzda kechmoqda. Ekran madaniyati o'smirlarning mutolaasiga kuchli ta'sir etib, ularni kitobxonlik ustuvorliklarini ma'lum darajada belgilab bermoqda. Yoshlarning kitobxonlik odatlarining tubdan o'zgarish jarayonida, bolalar kitob o'qishiga xos tavsiflarning barchasi jadal o'zgarimoqda.

Mutolaa maqomi o'zgardi – o'quvchilar kitobga ommaviy kommunikatsiya vositalaridan biri sifatida qaray boshladilar.

Shuningdek, mutolaa davomiyligi ham o'zgardi – yoshlarning bo'sh vaqti

tarkibida kitob mutolaasi vaqti qisqardi;

mutolaa xarakteri o'zgardi – mutolaa qisqaroq, axborotliroq, yuzakiroq bo'lib bormoqda;

bundan tashqari, mutolaa repertuari ham o'zgardi kitobxonlar mutolaasi ko'proq ish yuzasidan bo'lib, adabiy asar o'qiyotganlar hissasi asosan maktab dasturi hisobigagin sekin o'sib bormoqda;

faqat davriy matbuot asarlarini o'qish bilan chegaralanayotgan o'smirlar soni ortmoqda.

Mutolaadan yangi kuch-g'ayrat olish uchun oldiniga kuch sarf etmoq, o'zingni yanada yaxshi tushunmoq uchun avvaliga o'zingni “yo'qotmoq” kerak bo'ladi. Agar har bir o'qilgan kitob quvonch va alam, shijoat va ruhiy tazarru keltirmasa jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma'no yo'q. Mulohaza qilmasdan o'qish – hushmanzara tabiat qo'ynida ko'zni bog'lab yurishga o'xshaydi. Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, hayot jilovini yanada ongli ravishda anglash uchun o'qishimiz kerak.

Sir emaski, bugun dunyoda adabiyot ham biznesga aylanib boryapti. Bozor adabiyoti rivojlanishida, do'konlar to'lib ketgan. Badiiy adabiyot namunalari ichida haqiqiy ma'nodagi ma'naviy ozuqani bera oladiganlari bormi? Ayrim adiblar o'z ruhiyatidagi tushkunlikni asarga ko'chirib, ta'sirli jumlar bilan uni o'quvchi ongiga singdirishga urinmoqda. Qiziq, “ommaviy madaniyat” kun sayin o'z auditoriyasini kengaytirib borayotgan bir davrda kishilarda ma'naviy immunitetni shakllantirish o'rniga aksincha, ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan maqsad nima? Tilga tushish, mashhur bo'lishmi?

Kitobxon o'qigan kitobidan o'ziga qandaydir xulosa ola bilishi kerak. Bora-bora bu xulosalar yig'ilib, ulkan kuchga – ma'naviyatga aylanadi. Ma'naviyatli shaxs esa kitob do'koniga kirganida, o'z didiga, ehtiyojiga mos kitoblar xarid qiladi. Uning ma'naviy didi yuksakligi shu joyda foyda beradi, bu esa unda yillar davomida shakllangan. Oila muhitining ham bu borada o'rni katta. Avvalo, ota-onaning o'zi kitobxonmi? Bolasi kitob o'qimayotganida uning aybi bormi?

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida faqat kitobdan lazzat olishning o'zigina emas, o'quvchilik kitob va kitoblar tufayli voqelikka o'z munosabatini shakllantirish va yaratish malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Zero, kitob hayotga, tevarak-atrofga, o'ziga o'quvchi munosabatini shakllantirar ekan, u ayni o'sha daqiqada maorif o'nlab yillar qilolmagan ishni atiga bir necha o'n kunda yarata olish qudratiga ega bo'ladi. Shu sababli dunyoning yetuk kitoblaridan bebahra maorif tanasiz libosga o'xshaydi.

Bo'lajak pedagog o'quvchilarga badiiy did, estetik zavq, nozik tuyg'ular shakllantirishga e'tibor bera oladigan, o'quvchilarning qo'liga tushgan kitobni oldi-ortiga qaramay o'qiyveradigan emas, balki adabiyotni nozik his etadigan, chuqur fikr qila oladigan, teran anglaydigan bolajonlar yoboshchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alavutdinova N. Ona tilim–jonu dilim. Boshlang'ich ta'lim, -T.: 2013, 2-son, 6-7 betlar

2. Azimov E. Ona tilidan muammoli dars. Til va adabiyot ta'limi, - T.: 2015, 3-4 qo'shma son, 27 bet.
3. Bektashev Sh. Ona tili darslarida o'yin usulidan foydalanish. Til va adabiyot ta'lim, - T.: 2016, 5-6 qo'shma son. 15-16 betlar.
4. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlaridan foydalanish. Uzluksiz ta'lim, 2014, 3-son.
5. Mamatqulov E. Mehnat ta'limi samaradorligida interfaol usullar. Maktab va hayot. - T.: 2015, 1-son, 15-16 betlar.
6. Ro'ziboeva O'.Sh. Tizimli yondashuv. Boshlang'ich ta'lim. -T.: 2012. 1-son.18-19 b.
7. Ro'ziboeva O'.Sh. Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish. –T.: - O'zbekiston, 2017.
8. Rahimbekova S. Yangi pedagogik texnologiya nima? Boshlang'ich ta'lim, -T.: 2001, 4-son 12-13 bet.
9. Tolipova J. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari. Boshlang'ich ta'lim, -T.: 2014, 1- son, 10-11 betlar.
10. Turg'unov S. Boshlang'ich ta'lim muammolari. Boshlang'ich ta'lim, -T.: 2014, 3- son, 26-bet.
11. Xoliqov E. Interfaol usullar. Ma'rifat gazetasi, 2014, 7-son.
12. Ergashev F.N. Yangi pedagogik texnologiya asosida ma'ruza matnlari yozish. Xalq ta'limi, -T.: 2014, 36-38 betlar.
13. onaviy metodlari va abadiy ta'lim. Til va adabiyot ta'limi, -T.: 2003, 2-son, 16-bet.

Internet materiallari:

1. [http:// www.bolalarsarkor.uz](http://www.bolalarsarkor.uz) – Bolalar ommabop informatsion sahifasi. Bolalarga foydali va qiziqarli bo'lgan turli ma'lumotlar keltirilgan.
2. [http:// www.referat.uz](http://www.referat.uz) – Turli fanlardan referatlar to'plamiga boy sahifa. O'quvchilarga juda foydali ma'lumotlar keltirilgan.
3. <http://www.online.bi> – Informatsion sahifa bo'lib, unda deyarli ixtiyoriy mavzudagi ma'lumotlarni topishingiz mumkin.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIASAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIMNING O'RNI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich

Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Abdumajid85@inbox.uz

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba-yoshlar kompyuter va axborot texnologiyalarini mukammal o'rgangan, o'zlashtirgan va amaliyotga tatbiq eta oladigan bo'lishi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, dars jarayonida fanlarni bir-biri bilan bog'lab o'tish, o'tilgan mavzuni osonroq tushunishga va ularni o'zlashtirishga olib keladi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug‘lik tezligida butun dunyo bo‘ylab sayohat qilishi, yolg‘on, fitna nazariyalari, noto‘g‘ri ma‘lumotlar ham shunday bo‘lishi mumkin. Internetda yolg‘on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba‘zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e‘tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxonligi kuchli bo‘lgan fuqarolarni shakllantirishdir. Mediasavodxonlik hozir har qachongidan ham muhimroq. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta‘rifi: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda mediasavodxonlik an‘anaviy savodxonlik poydevoriga asoslanadi va o‘qish hamda yozishning yangi shakllarini taklif qiladi. Mediasavodxonlik odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo‘lish imkonini beradi.

Texnologiyalar asri va axborot makoni yoshlarga juda keng imkoniyatlarni yaratib berish bilan bir qatorda juda katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday taxlikali zamonda yoshlarga salbiy tasir ko‘rsatuvchi omillardan biri bu- mediamakondagi turli xil zararli axboratlarning ko‘pligidir. Bunga misol keltiradigan bo‘lsak, shafqatsizlik, zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini taxqirlovchi, bolalarga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish shular jumlasidandir. Shuningdek, media tushunchasiga ham alohida to‘xtalib o‘ishimiz kerak. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalash, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Media jamiyatga ijobiy tasirini o‘tkazishi bilan birga yuqorida sanab o‘tilgan zararli omillarni yoshlar orasida keng quloq yoyishiga zamin yaratmoqda.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, “Mediasavodxonlik” (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas‘uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma‘lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimediasavodxonligi o‘z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay

bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga ommaviy axborot vositalarini yordam berishdir.

Elektron ta'lim resurslarini ishga tushirish, boshqarish va undan foydalanishda asosiy vositalar axborot texnologiyalari va tizimlari hisoblanib, ular bilan muloqot qilishda quyidagilardan keng foydalaniladi: kompyuter, printer, skaner, vebkamera, videokamera, multimedia vositalari, videoproektor, faks modem, telefon, kompyuter tarmoqlari, telekommunikatsiya vositalari, sun'iy yo'ldosh aloqa tizimlari, ma'lumotlar ombori va ularni boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlari, internet, elektron pochta, telekonferentsiya, videokonferentsiya, chat, forumlar, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, turli an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari, masofali o'qitish texnologiyalari va boshqalar. Ma'lumki, nafaqat "Elektron ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim"da, balki an'anaviy ta'limni zamon talablari asosida tashkil etishda ham elektron ta'lim resurslari muhim rol o'ynaydi. "Resurs" iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma'noda ishlatiladi. "Ta'lim resursi" deganda esa o'quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko'rinish va shakllardagi o'quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta'lim resursi- o'quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi.

Zamonaviy elektron resurslar va o'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda "Elektron ta'lim resurslari" deb ataladi. Elektron ta'lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya'ni talaba-yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (etkazish) tizimi tushuniladi.

Elektron ta'lim resurslari talaba-yoshlarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin. Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, talaba-yoshlarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

Elektron ta'lim resurslaridagi kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot - ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kun yoshlarni zamonaviy texnologiyalar olamida juda katta imkoniyatlar qurshovida turibdi. Zamon bilan hamnafas bo'lish, globallashtirish jarayonidan xabardor bo'lish, madaniyatlararo tanishuv, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish, OAV larni hamda dunyoni kuzatish shular jumlasidan. Mazkur imkoniyatlar talaba-yoshlar hayotiga tasir o'tkazishdan tashqari, jamiyat hayotiga ham tasirini o'tkazadi. Texnologiya jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan jamiyatning qishloq xo'jaligi, ta'lim, aloqa, siyosat, ish yoki transport kabi turli jabhalarda katta yutuqlarga erishildi. Shuni aytish mumkinki, texnologiya jamiyat rivojlanish yo'lini o'zgartirgan vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirov V.I. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Navoiy-2022.
2. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
3. Xudayberdiyev A.A. General factors in the development of information culture of students. / Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 06, June (2023)
4. Lapchik, M. P. Talabalar uchun informatika ta'limining maqsadlari to'g'risida / M. P. Lapchik // Informatika va ta'lim. 2008. No 3. P. 6.

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TARIX FANINI AXBOROTLASHTIRISH METODLARI

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

METHODS OF INFORMING THE SCIENCE OF HISTORY ON THE BASIS OF
AN INTEGRATED APPROACH

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri, mustaqil
tadqiqotchi*

Head of the Department of "Pedagogy and Psychology, Educational Technologies" of the National Center for Training Pedagogues in New Methods of Syrdarya Region, independent researcher

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tarix fani o'qituvchilarini axborotlashtirish metodlari asosida malakasini oshirish bo'yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablaridan kelib chiqib, kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirish maqsad qilib olingan. Integratsion yondashuv asosida tarix fanini axborotlashtirish metodlari asosida o'qituvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish metodlari, kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, integratsion, multimediya, interaktiv usullar, modellashtirish, kompetensiya.

***ANNOTATION.** This article aims to increase on the requirements for the level of general knowledge and professional development methodology improvement of history teachers on the basis of a continuous professional development course, the goal of tomorrow's perspective is the formation of creative, qualified specialists who can meet the requirements. Teaching teachers to work independently based on methods of informatization of history science based on an integrative approach is highlighted*

***Key words:** methods of communication, competence development, professional development, integrative, multimedia, interactive methods, modeling, competence.*

KIRISH. Jahonda ilm-fan va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida fanlarning o‘zaro bir birlari bilan bog‘liq ekanliklari dolzarb masala sifatida ko‘tarilib, bu dolzarblik jamiyatda ishlab chiqarish kuchiga va muhim ijtimoiy institutga aylanadi.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish istiqbollari tabiat va jamiyatning ko‘plab hodisalari mohiyatini tushunish, yoshlarning ijtimoiylashuvi va madaniylashuvi mamlakatning kelajagini belgilashi, milliy madaniy an‘analar, qadriyatlarni saqlashi va rivojlanishining nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, uzluksiz kasbiy rivojlanishda o‘qituvchilarning kasbiy o‘shini tadqiq etishda integratsion yondashuv dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tarix fanlari o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi asosida malakasini oshirish bo‘yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablaridan kelib chiqib, tarix fanlarini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish metodlari orqali og‘zaki o‘qitish metodlaridan voz kechgan holda, tarix fanlarini integratsion ta‘lim asosida o‘qitishga, axborot texnologiyalari asosida multimediyali vositalar hamda mustaqil ishlashga o‘rgatishga etibor qaratish, malaka oshirish kurslarida mutaxassislik va umumkasbiy fanlar o‘zaro uyg‘un holda o‘qitilishini tashkil etish eng samarali mexanizm bo‘lib, bunda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, shaxsiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish orqali tarix fanlarini o‘qitish metodlarini uzviylik va izchilligini tahlil etadi.

O‘qituvchilar o‘quv jarayonida tarix fanining o‘qitish metodikasida axborot texnologiyalarining o‘zi zamonaviy jamiyat rivojlanishida keng qo‘llaniladi. Axborotlashtirish metodlari allaqachon o‘rnatilgan tizimlar doirasida kundan-kun jamiyatni taraqqiy ettiruvchi muhim resurslardan biriga aylanib ulgurmoqda va shuningdek, ilgari bog‘liq bo‘lmagan elementlardan yangi tizimning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integratsion yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish, metodikalarini takomillashtirish dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida 2020-yil 8 iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo‘yicha otkazilgan taqdimotda - Bugungi kunda raqamli

iqtisodiyot, “Elektron hukumat” xizmatlariga talab kundun-kunga oshib bormoqda. Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjat almashinuvini elektronlashtirish bilan cheklanib qolmoqda. Shu bois “Elektron o‘qitish dasturi” orqali o‘qib, diplom olgan dasturchilarni davlat va xo‘jalik muassasalariga IT mutaxassis sifatida ishga olish zarurligi ta’kidlandi. Ular tashkilotlarning barcha faoliyatini an’anaviy elektron formatdan raqamli ko‘rinishga o‘tkazishga mas’ul bo‘ladi.[1]

Kompyuter texnikasining taraqqiy etishi foydalanilayotgan ma’lumotlarni nafaqat qayta ishlash, balki yangi ma’lumotlarni jalb etish, shuningdek fanning yangi sohalarini kompyuterlashtirish va boshqarishni taqozo etmoqda. Axborot texnologiyalarining amaliyotda qo‘llanilishini taqozo etuvchi dasturlar va texnik vositalar axborot resurslaridan foydalanish uchun mo‘ljallangan. Hozirgi kundagi axborotlarning kattagina qismi hududiy bog‘liqlikka egadir.

Yangi O‘zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta’kidlab o‘tildi.

Bu yo‘nalishda Sh.Mirziyoyev tomonidan “2022-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etildi.[2]

Qarorga muvofiq xalq ta’limi sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’limning ilmiy asoslarini yaratish belgilab olindi.

“Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-yanvardagi 2022-yildagi 25-sonli qarori qabul qilindi.[3]

Qaror asosida Xalq ta’limi xodimlarining shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o‘shirish jarayonini qamrab olgan «Uzluksiz kasbiy ta’lim» maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Avvalgi islohotlardan farqli ravishda, bu gal islohotlarning bosh ishtirokchisi sifatida o‘qituvchilar tanlandi. Zero, Uchinchi Renessans haqida to‘xtalganda, davlat rahbari ustoz-muallimlarni bu yangi ilm-fan davrining to‘rt tayanch ustunidan biri deya e’tirof etdi.

Uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish, ulardan ta’lim tizimida, xususan masofali ta’limda foydalanish pedagogik muammo sifatida ilmiy tahlilga muhtojlik sezilmoqda.

Tarix fani o‘qituvchilarning yuqori saviyadagi uzluksiz kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga yo‘naltirilgan holda integratsion ta’lim yondashuvi asosida tarix

fanlarini o'qitishda axborotlashtirish prinsiplari orqali doimiy tarzda zamon bilan xamnafas holda o'qitish metodikalarini yangilab borish zarurati tug' ilmoqda.

Ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish asosi sifatida fanlar integratsiyasi muammosining dolzarbligi turli jihatlariga oid tadqiqotlar Yan Amos Komenskiy grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotning o'zaro bog'liqligi V.F.Odoyevskiy, K.D. Ushinsky V.V. Davydov, A.V. Zaporjets, Yu.A. Samarin, D.B. Elkonin, B.P. Yusov, D.B. Kabalevskiy, E.B. Abdullin, E.V. Nikolaeva, N.A.Menchinskaya, B.M.Kedrov M.S.Pakning O.M. Sichivitsa, N.T. Kostyuk va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xususan, integratsion yondashuv asosida tarix fanini o'qitish metodikasida o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari L.S.Rubinshteyn, A.Maslou, A.Leontev, M.G.Davletshin, E.G'oziev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, N.S.Safaev, Z.T.Nishonova[4] kabilar tomonidan o'rganilgan.

Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni oshirish masalasiga pedagog olimlardan Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, R.A.Mavlyanova, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, B.Abdulayeva, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, Q.Husanboyeva, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriev, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Ye.Shiyanov kabi pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida keltirib o'tilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Shu sababli pedagoglarning o'qitish metodikasidagi integratsion yondashuv mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

Bir qancha pedagogik adabiyotlarda integratsiya ta'limning maqsadi va vositasi sifatida ham ko'rib chiqilgan. Shunday qilib "integratsiya" tushunchasi ma'nosini aniqlashda turli xil yondoshuvlarning metodik tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar, tadqiqotchilar uning qollanilishini turlicha talqin qilishadi.

Integratsiya jarayoni pedagogik g'oyasining rivojlanishiga, ilmiy bilimlarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Integratsiya jarayoni ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng asosiy shakli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, integratsiya jarayonining ildizlari klassik pedagogikaning uzoq o'tmishiga taqaladi va fanlararo aloqalar g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fanlararo aloqalar g'oyasi o'quv manbalarining mazmunida tabiatning yaxlitligini aks ettirish yo'llarini izlash jarayonida paydo bo'ladi. Buyuk didaktik olim Yan Amos Komenskiy shunday ta'kidlaydi: "o'zaro

aloqada bo'lgan hamma narsa bir xil aloqada o'qitilishi kerak". Keyinchalik ko'plab o'qituvchilar uni ishlab chiqish va umumlashtirish orqali fanlararo aloqalar g'oyasiga murojaat qilishadi.

NATIJALAR

Tarix fanlarini o'qitishda o'qituvchilarini shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va integratsion yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy metodikasini takomillashtirish mexanizmi sanaladi.

Bunda tarix fanlarini o'qitish metodikalarini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida tinglovchilarning an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlarini joriy etish ta'lim muassasalarining o'zaro teng huquqli hamkorligi asosidagi ta'lim turlari integratsiyasi hamda fanlararo, integratsion kurslar va bo'limlararo uzviylikni ta'minlashga asoslanmoqda.

Integratsion yondashuv asosida tarix fanlarini axborotlashtirishda sohaning qanchalik darajada rivojlanishiga qaramasdan axborot jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim resurslardan biriga aylanib bormoqda. Axborot manbalarining keng miqyosda qo'llanilishi axborotlarni insonga nisbatan tez va aniq hisoblashida emas, balki biz katta xajmda o'sib borayotgan axborotlar ustida ishlashimizda vujudga keladigan ma'lum bir qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan belgilanadi.

Axborot - (lat. Informatio- tushuntirish, bayon qilish) - shartli belgilar yordamida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqida, ularni tasvirlash shaklidan qat'iy nazar uzatiladigan va saqlanadigan ma'lumotlar.[5]

Taraqqiyotning bugungi darajasi bilan bo'lajak tarix fanlari o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish zarurati malaka oshirish tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining yetarli joriy etilmaganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Ta'lim sohasida o'qitishni axborotlashtirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni axborotlashtirish yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirish yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;
- barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring);
- axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish (ilmiy-metodik birlashma va h.k.);
- texnik ta'minot - kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;
- telekommunikatsiya tarmoqlari;

-ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va h. k.).

Axborot texnologiyasidan foydalanish va uni biror-bir sohaga tatbiq etish o'z ichiga qator vazifalarni oladi. Quyida axborotlashgan faoliyat ob'ektlari haqida gap yuritamiz. Bunday ob'ektlarga sonlar (o'lchash va modellashtir

Milliy o'quv dasturi asosida fan va texnikaning mavjud yangiliklari ularni o'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratiladi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa, o'z navbatida, o'quvchilarda ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil va mustahkam shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo'limlari va sohalarining shakllanishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida hukmron bo'lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallashtirishni talab etadi.

Ta'lim yo'nalishlari «boshidan kechirayotgan» bunday differensiyalashish va integratsiya jarayonlarining o'qitishda o'z aksini yetarli darajada topa olmayotgani ham bugungi malaka oshirish tizimida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, ta'lim mazmuni va to'plangan boy ilmiy axborotlarning unda aks etishi orasida uzilish vujudga kelmoqda. Shu sababdan o'qitishni va o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillarini qayta qarab chiqish zarur.

Bunday muammolarni bartaraf etishda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differensiyalangan bo'lishi zarur. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik - o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashishi zarurdir.

Zamonaviy pedagog kadrlar yangi statusga ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchi o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishigagina yordam berib qolmasdan, ayni paytda, ularda bilimlarni turli manbalardan mustaqil ravishda o'zlashtirish, shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi, erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishda foydalanish malakalariga ega bo'lishlariga ham vosita bo'lishi lozim. Bunday o'qitishni rivojlanuvchi ham deyish mumkin.

Shakl va mazmunning rang-barangligi o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur.

XULOSA

Axborot kamunikatsion vositalari va usullarining faol qo'llanilishi hozirgi davrda gumanitar bilimlar sohasidagi asosiy yondashuvlardan biri hisoblanib, XXI asr, shubhasiz axborot asri deb e'tirof etiladi. Axborotlashtirish kundan-kun jamiyatni taraqqiy ettiruvchi muhim resurslardan biriga aylanib bormoqda.

Integratsion yondashuv jarayonlari asosida axborotlashtirishda hozirgi zamon o'zaro ilmiy bilimlarining ta'siridan farqli holda quyidagi yo'nalishlarda kechishi mumkin:

- fan doirasida zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlata olish alohida olingan ichki ilmiy rivojlanish sifatida;
- fanlarning o'zaro integratsiyasi doirasida, ya'ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;
- yaxlit maxsus ilmiy bilimlar doirasi didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish kabilar kiradilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tizimlar uyg'unligini axborotlashtirishning integratsion yondashuv sifatida tasavvur etish mumkin.

Bir necha mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish - integratsion ta'lim yondashuvi asosida axborotlashtirish prinsiplari natijasi bo'lishi mumkin. Bir butun tizimni tuzishda integratsion aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi. Umumlashtirishdan ko'zlangan maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan bir butunlikni (yaxlit) yuzaga keltirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. axborot texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor vazifalari.. Toshkent. "O'zbekiston", 08.06. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida. Vazirlar
3. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" 25-sonli qarori
4. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.fan.dok. ... dis. – T., 2005.– 391 b.)
5. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun R.Hamdamiy, U.Begimkulov, N.Tayloqov. O'zMI davlat ilmiy nashriyoti. -t.: 2010, 28 b.

**TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: ILG'OR XORIJIY
TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**
2023-yil 22-23-may

**“INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM:
ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES AND DEVELOPMENT
PROSPECTS”**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**
May 22-23, 2023

**«ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ:
ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ»
МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**
22-23 мая 2023 г.

Mas'ul muharrir: markaz direktori v.v.b. A.Gaffarov

Tahrir hay'ati: filologiya fanlari doktori, professor T.Mirzaqulov
pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent G.Berdaliyeva
filologiya fanlari nomzodi, dotsent V.Rahmonov
filologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent A.Uralov
katta o'qituvchi: I.Abduraimov, N.Yunusmetova, E.Rahmonov
o'qituvchi: M.Nazarova
o'qituvchi: A.Nizamov

Taqrizchilar:

A. Uralov – SVPYMO‘MM Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent.
D. O. Himmataliyev - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika va menejment kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori

SBN 957-9573-25-45 To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘uldir.
© SVPYMO‘MM, 2023

Bosishga ruxsat etildi: 27.04.2023-y.
Bichimi: 60X 84, 1/16 Hajmi: 30 b.t

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	4
1-SHO‘BA. UZLUKSIZ TA‘LIM UZVIYLLIGI VA SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARNING O‘RNI.....	5
ЎҚИТУВЧИНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ-КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИ КАСБИЙ МУВАФФАҚИЯТ ОМИЛИ СИФАТИДА <i>Ибраимов Холбой Ибрагимович.....</i>	5
ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ В РАМКАХ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА <i>Ибраимова Феруза Холбоевна.....</i>	8
ЎЗИНИ ЎЗИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЁКИ ПЕДАГОГНИНГ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ <i>Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович.....</i>	11
ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШДА ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК ТАМОЙИЛЛАРНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИ <i>Халмонов Умид Очилович.....</i>	17
РЕНЕССАНС - МАМЛАКАТ ТАРАҚҚИЁТИ АСОСИ <i>Омонова Нилуфар Парда қизи, Химматалиев Дўстназар Омонович.....</i>	23
РАҚОБАТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <i>Ботиров Ҳамид Ҳакимович.....</i>	27
АЙРИМ СЎЗЛАР ТАРКИБИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР <i>Турсунали Мирзақулов.....</i>	31
ТИЛ БЕЛГИЛАРИДА ШАКЛ ВА МАЗМУН МУНОСАБАТИ <i>Турсунали Мирзақулов.....</i>	33
АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ТАРМОҚЛАР ОРҚАЛИ ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ПЕДАГОГИК УЮШМАЛАР УЗЛУКСИЗ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМНИНГ ТАРАҚҚИЙ ЭТАЁТГАН МОДЕЛИ СИФАТИДА <i>Бердалиева Гуласал Абдуқундузовна, Умаралиева Муҳайё, (PhD).....</i>	36
О‘ЗБЕК ТИЛИДА КО‘SHISH: KONVERSIYA VA TRANSPOZITSIYA <i>MASALASI Uralov Azamat Begnarovich.....</i>	43
ELEKTRON TA‘LIM RESURSLARINI YARATISHGA QO‘YILDIGAN PEDAGOGIK TALABLAR <i>Egamqulov Sherzod Anorboyevich.....</i>	50
BAHOLASH - TA‘LIM JARAYONINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna.....</i>	56
UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA MORFEMANI O‘QITISH MUAMMOLARI VA ECHIMLARI <i>Abdullayev Jumanazar.....</i>	60
O‘QITUVCHILARDA AXBOROT MADANIYATINI SHALLANTIRISH ASOSLARI <i>K.Eshquvatov.....</i>	64

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI <i>Supiyeva Buxolida Abduvaliyevna</i>	66
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI <i>Suyunov Ilhom Egamberdiyevich</i>	71
TALABALARNING MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI <i>Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich</i>	73
2-SHO'BA. TA'LIM SOHASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	77
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH <i>Abdullayev Jumanazar, Muratkulov Amanulla</i>	77
TA'LIM JARAYONINI WEB-KVEST TEXNOLOGIYA ASOSIDA SAMARALI TASHKIL ETISH <i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	82
TA'LIM MUASSASALARINING BOSHQARUV VA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TAMOYILLARI <i>Yunusmetova Nasiba Satimbekovna</i>	86
TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT KONTENTLARINI TADBIQ ETISH <i>Nizamov Akmal Shaxobiddinovich, Mavlyanov Mo'minjon Akromovich</i>	90
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA DARSGA BO'LGAN QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI <i>Abdullayeva O'g'iloy Rustamjon qizi</i>	93
1-2-SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH STRUKTURASI <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna</i>	98
DEVIANT XULQ-ATVORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI <i>Toshtemirova Mohinabonu Bahodir qizi</i>	101
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASH <i>Tairova Gulshoda Asadovna</i>	103
TA'LIM DOIRASIDAGI INTERDISIPLINAR TA'LIM-TARBIYA USULLARI <i>Akbarova Mohigul Gulomovna, Annakulova Dildora Baymurodovna</i>	105
BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLAR DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISHNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	109
TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA KREATIV YONDASHUV <i>Tairova Gulshoda Asadovna</i>	111

INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH <i>Niyozova Ella Salimbayevna</i>	113
O‘QITUVCHILARNING DARS MASHG‘ULOTLARINI SIFATLI TASHKIL ETISHDA ONLINE PLATFORMALARNING AHAMIYATI <i>Xolmuratov Shaxriddin Baxriddinovich</i>	116
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TURLARI <i>Suyunov Ilhom Egamberdiyevich</i>	118
TARIXIY MANBALAR VA ULARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH <i>Qlichev Ulug‘bek Abdumavlonovich</i>	121
TALIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUV DARS SAMARADORLIGINING OMILI <i>K.Eshquvatov</i>	124
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINI AKT	125
SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV <i>Tolibbayeva Umida Qalandarovna</i>	125
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA TA‘LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI <i>Musharaf Primkulova, Lobar Ruzmuxamedova</i>	127
ETNOMADANIYATNING YUZAGA KELISH QONUNIYATLARINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK NUQTAI NAZARDAN O‘RGANILISHI <i>Usmonqulova Feruza Eshbekovna</i>	129
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA CHET TILINI ŐRGATISHDA INNOVATSION YONDASHUV <i>Turaqulova Maqbulba Turdalievna</i>	131
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI <i>Abdusattorova Umida Abdusamat qizi</i>	134
3-SHO‘BA. LIFE-LONG LEARNING - HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILI, UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	138
THE IMPORTANCE OF CREATIVE THINKING AND LIFELONG LEARNING <i>Nazarova Mavluda</i>	138
HAYOT DAVOMIDA O‘QISH TAMOYILI ASOSIDA MATEMATIKA OQITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI <i>Tashtemirova Nargiza Nematovna</i>	142
INKLYUZIV TA‘LIMDA MUSIQA VA XARAKAT TERAPIYASI ORQALI NOGIRON O‘QUVCHILARNING KOGNITIV VA MOTORLI KO‘NIKMALARINI YAXSHILASH <i>To‘xtasheva Nodira Qahramonovna</i>	145

O‘QUVCHI SHAXSINI VA O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna</i>	149
TILDA MORFOLOGIK BIRLIKLARNING TEJALISHI <i>Uralov Azamat Begnarovich</i>	153
KIMYO DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI <i>Bekmatova Umida Toshqulovna</i>	158
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHI <i>Eshquvvatova Farida Kozimovna</i>	161
O‘QITUVCHINI KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING VAZIFALARI <i>Eshquvatov K</i>	164
ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ПЕДАГОГИК БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ДЕМОКРАТЛАШТИРИШ <i>Халмонов Умид Очилович</i>	165
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТА НА УРОКАХ БИОЛОГИИ <i>Турсунова Ж.А.</i>	174
ЎРТА ОСИЁДА ИЛМ-ФАН ТУРГУНЛАШУВИНИНГ САБАБЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <i>Райимкулов Акмал</i>	176
INGLIZ TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI <i>Tashpulatova Lolaxon Taxirovna</i>	179
TA’LIMDA INNOVATSIYALAR, DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYASI <i>Isayeva Sanobar</i>	181
PEDAGOGIK IMIDJ-PEDAGOGNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI <i>Norkulova Nigora Baxramovna</i>	184
AGAR BOLA O‘ZLASHTIRMASA <i>Norqo ‘ziyeva Mukadas Safarovna</i>	186
TIL – MILLAT KO‘ZGUSI <i>Dexkanova Lutfinisa Abdullayevna</i>	188
O‘QUVCHILAR BILIMINI HOLISONA BAHOLASH TIZIMI - DARS SAMARADORLIGINING MUHIM POYDEVORI <i>Rasulova Nigora Qaxxorovna</i>	190
ОИЛАВИЙ НИЗОЛАР ВА УЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ЕЧИМЛАРИ <i>Ҳазратқулова Дилфуза Ҳамрақуловна</i>	192
4-SHO‘BA. FANLARNI O‘QITISHDA YANGI METODIKALARNI QO‘LLASH VA ULARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	198
O‘QUVCHILAR BILIM DARAJASINI BAHOLASHNING INTERAKTIV METODLARI <i>Xolmuratov Shaxriddin Baxriddinovich</i>	198

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ: АСОСИЙ ТУШУНЧА ВА ТАМОЙИЛЛАР <i>Гаффаров Азизбек Муҳаммадсаидович</i>	200
МАКТАБ О‘QUVCHILARDA КИТОБХОНЛИКНИ OSHIRISHDA KUTUBXONACHINING ROLI <i>Shavkat Bazarov</i>	203
UMUMTA’LIM МАКТАБ О‘QUVCHILARINI TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI <i>Abduraximov Zohidjon Sobirovich</i>	205
МАКТАБ ТА’LIMINI SAMARALI BOSHQARISHDA RAHBARNING O‘RNI <i>Davranova Gulsara, Bektemirov Sirojiddin Rustamovich</i>	208
ZAMONAVIY TA’LIMDA INTERFAOL USULLAR <i>Isakova Sevaraxon Ergashali qizi</i>	210
ZAMONAVIY TA’LIMDA OCHIQ MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI <i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna, Sermanova Halima Rahmatulla qizi</i>	213
TARIX DARSLARIDA ARXELOGIYAGA OID MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH <i>Jamol Yuldashev</i>	218
UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI <i>Yusupova Nodira Firnafasovna</i>	223
BOLARDA UCH-YETTI YOSH DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Eshquvvatova Farida Kozimovna</i>	227
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI” “1-SINF O‘QUVCHILARINI HUSNIXATGA O‘RGATISH USULLARI” <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna</i>	230
PIRLS 2021 XALQARO BAHOLASH DASTURINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O‘QISH SAVODXONLIGI <i>Xolmurodova Shoxsanam Mamatkarim qizi</i>	234
INKLYUZIV TA’LIMDA MUSIQA VA XARAKAT TERAPIYASI ORQALI NOGIRON O‘QUVCHILARNING KOGNITIV VA MOTORLI KO‘NIKMALARINI YAXSHILASH <i>To‘xtasheva Nodira Qahramonovna</i>	241
OILADA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI YARATISH OMILLARI <i>Kenjayeva Soxiba Toxirjanovna</i>	245
INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA KISHILIK OLMOSHLARINI O‘RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH <i>Ahmadqulova Gulnoza Ubaydulla qizi</i>	247

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH <i>Tursunqulova Sanobar Karimovna, Asrorova Asaloy Isakovna</i>	249
SAVOD O‘RGATISHDA TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI <i>Nurova Salima Atakishiyevna, Aslanova Sayyora Nurullayevna</i>	252
OILAVIY AJRIMLARINING INSON PSIXOLOGIYASIGA SALBIY TA‘SIRI <i>Umatova Feruza Abdumuminovna</i>	254
SHAXSNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA MAKTAB, OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI <i>Axmadaliyeva Sadoqat Rafiqjon qizi</i>	258
SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA TA‘LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH <i>Radjabova Nodira Xoldarovna, Nizamova Nodira Abdulkarimovna</i>	261
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI APPLIKATSIYA ISHLASHGA O‘RGATISH <i>Beknazarova Moxira Ergashevna, Usmanova Xulkar Sheraliyevna</i>	262
O‘QUVCHILARINI TA‘LIMNING KEYINGI BOSQICHINI TO‘G‘RI TANLASHGA JALB QILISHNI TASHKIL ETISH <i>Umaraliyeva Shoira Raushanovna</i>	264
MAKTABGACHA ЁШДАГИ БОЛАЛАР ЛИДЕРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА УЛАРНИНГ ЁШИГА ХОС БЎЛГАН ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАР <i>Azizova Ziroat Bahodirovna</i>	266
BOSHLANG‘ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSLARIDA LABORATORIYA ISHINI TASHKIL ETISH ASOSIDA HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	269
ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI <i>Mamatkulova Nigora Sherbekovna</i>	271
BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AJDODLAR MEROSLARINI O‘RGANISH ASOSIDA MILLIY G‘URURNI TARBIYALASH <i>Rasulova Tursunoy</i>	274
FIZIKA O‘QITISHDA AXBOROT TENOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Ximmatova Jannatoy Kuchmurotovna</i>	276
MOLEKULAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA ASOSLARINI LABORATORIYALAR YORDAMIDA O‘RGATISH <i>Ximmatova Jannatoy Kuchmurotovna</i>	278
MA‘NAVIYATNING SHAKLLANISHIDA MILLIY G‘OYA TUSHUNCHASI <i>Djuldibayeva Dilbar Djarkinovna</i>	280

SHAXSIY O‘ZGARISHLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI TRENING JARAYONIDA <i>Irgasheva Charos</i>	283
KOMPYUTER GRAFIKASINING AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI AHAMIYATI <i>Fazilova Muxlisaxon Rustamjon qizi</i>	289
JINOYATCHILIKNING KELIB CHIQISH SABABLARINI VOYAGA YETMAGANLARDA O‘RGANISHNING AHAMIYATI <i>Adilova Gulbahor Sottiyevna</i>	291
XULQI OG‘ISHGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI <i>Xolbayeva Nargiza Azizovna</i>	294
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING PEDAGOGIK TA‘LIM SOHASIDA BO‘LG‘USI MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI <i>Annakulova Dildora</i>	296
O‘QUVCHILARDA MATEMATIK QOBILİYATLAR RIVOJLANISHNI TA‘MINLOVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR <i>Abibullayeva Anife Ablyazizovna</i>	303
ЎЗБЕКИСТОНДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ <i>Турсинбоев Олимжон Шухратбек ўғли</i>	306
SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH KOMPETENSIYASI <i>Qadamov Navro‘zbek Jasurbek o‘g‘li</i>	312
ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ <i>Икромжон Абдураимов</i>	315
ТА‘LIM JARAYONIDA ELEKTRON TA‘LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH <i>M.B.Niyozov, N.B.Djurayeva</i>	318
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘ITISH SAMARADORLIGI <i>M.B.Niyozov, Z.D.Karimova</i>	321
ТА‘LIM TIZIMIDA WEB TEXNOLOGIYALARNI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH <i>M.B.Niyozov, A.B.Abdullayev</i>	324
“ABDULLANOMA” ASARIDA HARBIY SAN‘AT <i>Omonjon Begiyev, Shohruh Xoliqulov</i>	328
MUSTAQIL TA‘LIMNI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>Xudayberdiyev Mansur Zakirjanovich</i>	330
ТА‘LIMNI RIVOJLANTIRISHDA “ABDULLANOMA” ASARINING O‘RNI VA ROLI <i>O.Begiyev, Sh.Xoliqulov</i>	333

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KITOVXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Aymatova Aziza Baxtiyor qizi</i>	335
OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIASAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TA‘LIMNING O‘RNI <i>Xudayberdiyev Abdumadjid Abduljalilovich</i>	338
INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TARIX FANINI AXBOROTLASHTIRISH METODLARI <i>Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich</i>	341